

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

2
2025



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jumal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi
ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)
Tahrir hay'ati:
D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.)
LIDJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)
A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)
Nashrga tayyorlovchilar:
J. ISMOILOV, A. ZIYODOV
H. SULAYMONOVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va
tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop
etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jumal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash'ali, 2025-yil 2-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi
mumkin.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 2, 2025-yil

Arabshunoslikka bag'ishlangan maxsus son

Adabiyotshunoslik

R.Xodjaeva Xorazmlik buyuk mutafakkir
Mahmud az-Zamaxshariy maqomlarida
Qur'oniy iqtiboslar, obrazlar va motivlar..... 3
Sh.Shomusarov Jaholiyat davri arablar
hayotida shoir maqomi..... 11
D Muxiddinova. Jo'rji Zaydonning «G'asson
amirligining qizi» romanida ilk islom
davrining badiiy talqini 17
H.Caudova Предпосылки и факторы
развития рассказа нового типа..... 23
N.Umarova Zamonaviy Misr yozuvchisi
Salva Bakr qahramonlarining ijtimoiy
hayotida diniy ongning in'ikosi 33
M.Jumaniyazov «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-
e'rāb» asarida muallif nazariy qarashlarining
dalillanish usullari 41
T.Xamzayev Arab xalq og'zaki ijodida
hayvonlar allegoriyasi 54

Tilshunoslik va tarjimashunoslik

B.Begmatova Fleksiya va e'rob masalasi:
o'xshash va farqli jihatlar 65
Z.Aripova Arab tilida tushum kelishigining
xususiyatlari 74
A.Rustamov Arab tilshunosligida yordamchi
so'z turkumini tasniflash konsepsiyasi 86
A.Akbarov Arab tilida sof so'zlashuv
ma'nosiga ega nutq fe'llarining funksional-
uslubiy xususiyatlari 94
A.Muxammadjonov Arab tilida sinonimiya
va semantik aniqlik: etimologik, pragmatik va
kontekstual komponentlar integratsiyasi .. 102
S.Qurbonov Arab tilida terminologik
o'zlashtirishning leksikologik muammolari:
Tarjima, kalka va fonologik o'zlashmalar.111
O.Ikrombekov Arab tilidagi diplomatik
terminlarning lingvokulturologik aspektida
o'rganilganlik darajasi va dolzarbligi 119

	Tarix	A.Xudайбердиев Особенности движения за независимость юга Йемена 127 Sh.Ikromov Iordaniyada davlat–qabila munosabatlarining jamiyat va siyosiy tizim barqarorligiga ta’siri 133 O.Mahmudov Fan tarixida arabshunoslikning shakllanish bosqichini qayta davrlashtirish zarurati 143 J.Abdupattaxov O’rta Osiyo Naqshbandiya-mujaddidiya tarmog‘i vakillarining manbalarda yoritilish masalalari 161
	Tashqi siyosat	C.Турсунова Проблемы совместимости современного общества с исламом в конце XX-нач.XXI вв. 172 N.Nasirova Siyosiy legitimlik va lider shaxsiyati: o‘mon tajribasi 179
	Ilmiy axborot	Ш.Ёвкочев Из истории развития арабистики в Ташкентском государственном университете востоковедения 178



XORAZMLIK BUYUK MUTAFAKKIR MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY MAQOMLARIDA QUR'ONiy IQTIBOSLAR, OBRAZLAR VA MOTIVLAR

RA'NO XODJAEVA

Professor, f.f.d., TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorazmlik o'rtas asr mashhur filolog olimi, adibi va faylasufi Abu Qosim Mahmud az-Zamaxshariy qalamiga mansub "Maqomat az-Zamaxshariy" asaridagi Qur'oniy iqtiboslar, motivlar va obrazlar tahlil qilinadi. Qur'onning chuqur bilimdoni va tafsirchisi bo'lgan az-Zamaxshariy o'zining mashhur "Al-Kashshof" nomli tafsir kitobida muqaddas kitobning nafaqat diniy, ma'naviy nuqtai nazardan sharhlaydi, balki filolog sifatida ham Qur'onning uslubiy go'zalligi, leksik boyligi, nutq san'ati va iboralaridagi badiiy iboralarni tahlil etadi. Qur'onning ta'siri az-Zamaxshariyning adabiy badiiy merosida ham yaqqol namoyon bo'ldi. U o'z asarlariga, jumladan maqomalariga, ko'plab Qur'ondan olingan iqtiboslarni va obrazlarni kiritgan bo'lib, ular asarlarda turli muhim ma'naviy, didaktik va estetik vazifalar yukini jamlagan.

Kalit so'zlar: maqoma, Qur'on, tafsir, adib, badiiy nutq, ma'no yuki, barqaror assotsiatsiyalar, intertekstual aloqa, axloqiy-me'yoriy burchlar.

Аннотация: в статье рассматриваются коранические заимствования, мотивы и образы в макамах Абу-ль Касима аз-Замахшари, знаменитого средневекового ученого-филолога, литератора и философа из Хорезма. Блестящий знаток и толкователь Корана, он в своем труде «Аль-Кашшаф» комментирует священную книгу не только с точки зрения его религиозных предписаний, но также как ученый-филолог, одним из первых уделяет глубокое внимание изучению стилистического достоинства, лексического богатства, риторики, красоты изречений Корана. Влияние Корана сказывается и на художественно-литературном наследии аз-Замахшари, в том числе и на его знаменитых макамах, включивших в себя много коранических реминисценций в виде заимствований образов и мотивов, несущих в произведении различные важные смысловые-дидактические и эстетические нагрузки.

Ключевые слова: макама, Коран, тафсир, адиб, смысловая нагрузка, устойчивые ассоциации, интертекстуальность связей, морально-нравственные заповеди.

Annotation: the article examines Quranic motifs and images in the maqams by Abul-Qasim Mahmud al-Zamakhshari, the famous medieval philologist, writer and philosopher from Khwarezm. A brilliant expert and commentator of the Quranic, in his work AL-Kashshaf he annotates the holy book of Muslims not only from the point of view of its religious precepts, but also as a philologist. He was one of the first to pay deep attention to the study of stylistic merits, lexical richness, rhetoric, and the beauty of the Quran sayings. The influence of the Quran also affects the literary heritage of al-Zamakhshari, which included many Quranic reminiscences and images that carry various semantic loads in the works of the writer.

Key words: maqama, Quran, tafsir, adib, semantic load, stable associations, intertextuality of connections, moral commandments.

Markaziy Osiyolik olim va adiblar IX–XII asrlarda arab-musulmon madaniyatining yuksalishiga, ya'ni "Musulmon Uyg'onish davri" deb ataluvchi davrga o'z ilmiy-adabiy ijodlari bilan katta hissa qo'shganlar. Abu Bakr al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi buyuk mutafakkirlar ilmiy izlanishlarni adabiy ijod bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtira olganlar. Aynan shu hududda Markaziy Osiyo mintaqalari Movarounnahr va Xorazmda arab tilida yaratilgan adabiy asarlar paydo bo'lib, ular nafaqat arab-musulmon tamaddunida, balki jahon adabiyoti



taraqqiyotida ham muhim o‘rin egallaydi, madaniy aloqalar va adabiyotlararo ta‘sir jarayonida faol ishtirok etadi. Ana shunday durdona asarlardan biri az-Zamaxshariyning “Maqomat” asaridir. Arab olimlari bu asarni arab adabiy merosining asosiy namunalaridan biri, deb baholaydilar.

Xorazmlik buyuk olim va adib Abu Qosim Mahmud az-Zamaxshariy (1075–1143) arab-musulmon madaniy tamaddunining eng yorqin siymolaridan biri hisoblanadi. Uning zamondoshlari uni “Jarulloh” (Allohning qo‘shnisi), “Faxru-l-Xorazm” (Xorazm g‘ururi), “Ustozu-l-arab val-‘ajam” (Arablar va g‘ayri arablar ustoz) kabi faxriy unvonlar bilan sharaflagan. Sharqshunos olimlar uni filologiyaga oid “Al-Mufasssal”, “Muqaddimat ul-adab”, “Asos al-balog‘a” kabi ilmiy asarlari hamda “Atvoq az-zahab”, “Navobig‘ al-kalim”, “Rabi‘ al-abror va nusus al-axyor”, “Maqomat az-Zamaxshariy” kabi badiiy asarlari orqali yaxshi tanishadi.

Az-Zamaxshariyning badiiy asarlari, asosan, axloqiy-ma‘rifiy xarakterga ega bo‘lib, unda ibratli hikoyalar, qisqa nasihatlar, falsafiy mulohazalar, diniy-didaktik fikrlar, maqollar va matallar mujassam. Uning asarlarida qo‘llangan arab tili adabiy arab tilining eng yuqori namunasi sifatida qaraladi, mazkur asarlarning poetikasi esa arab poetikasi uchun namuna hisoblanadi. Shu bilan birga, Mahmud az-Zamaxshariy diniy sohadagi faoliyati bilan ham tanilgan bo‘lib, u shariat bilimdoni, musulmon huquqshunosi faqih sifatida ham mashhur edi. Imom sifatida u masjidlarda va‘zlar o‘qigan. Qur‘onning yuksak bilimdoni bo‘lgan az-Zamaxshariy bu muqaddas kitobga sharh berishda birinchilardan bo‘lib yondashgan. U “Al-Kashshof” nomli mashhur tafsirida Qur‘onni nafaqat diniy mazmunini ochish jihattidan, balki filologik nuqtayi nazardan ham tahlil qilgan ya‘ni matnning leksik-semantik xususiyatlari va uslubiy fazilatlarini chuqur o‘rgangan. Qiziq tomoni shundaki, az-Zamaxshariy mu‘tazila oqimiga mansub deb tanqid qilganlar ham uning Qur‘on tafsirida yuksak darajadagi chuqur ilmiy yondashuvini, diniy mazmundagi aniq tahlillarini va ilmiy asoslangan izohlarini tan olishga majbur bo‘lishgan. Shuning uchun “Al-Kashshof” tafsiri hatto XX asrda ham musulmon universitetlarida, jumladan Misrning eng qadimiy oliygohi Al-Azhar universitetida o‘qitilgan.

Shubhasiz, Qur‘on az-Zamaxshariyning adabiy ijodiga, xususan uning “Maqomat az-Zamaxshariy” asariga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Qur‘oniy obrazlar, leksika va mazmuniy qatlamlarning “Maqomat”dagi o‘rnini tahlil qilishdan avval, “maqoma” atamasining o‘zi qanday ma‘nolarni anglatishini tushunib olish muhim. Ushbu so‘z dastlab “to‘xtash joyi”, ya‘ni odamlar to‘planib, suhbat qiladigan joy ma‘nosini bildirgan. Keyinchalik bu tushuncha kengayib, “nutq so‘zlanadigan joy”, ya‘ni ma‘naviy-ma‘rifiy, diniy nasihatlar aytiladigan yig‘inlar o‘tkaziladigan joy ma‘nosini olgan. Vaqt o‘tishi bilan ana shu nutqlar va nasihatlar yozma shaklga ko‘chirilgan va “maqoma” arab adabiyotida o‘rta asr nasriy ijodining asosiy janrlaridan biriga aylangan.

Bu janrda badiiylik kuchayib borgan va Badi‘uz-Zamon al-Hamadoni (969–1008) hamda Abu Muhammad al-Qosim al-Hariri (1075–1144) kabi mashhur mualliflar ijodida “maqoma” hiyla va aql bilan muammolardan chiqadigan makkor qahramon to‘g‘risida hikoya qiluvchi janr shaklini olgan. Ularning maqomalarida bilimli, faqir bo‘lsa-da, zukkoligi bilan turli holatlardan omon chiqa oladigan firibgarning sarguzashtlari asosiy mavzu bo‘lgan. Bu esa maqomaning mazmunini, syujet chizig‘ini ko‘ngilocharlik tomonga o‘zgartirib yuborgan edi.

Ammo az-Zamaxshariy maqomalari janrni an‘anaviy yo‘liga qaytardi: ularda na ko‘ngilocharlik, na sarguzashtli unsurlar mavjud. Shunga qaramay, ularning badiiy jozibasi saqlanib qolgan va ular o‘z zamonasining o‘quvchilari orasida katta muvaffaqiyat qozongan. Az-Zamaxshariy bu maqomalarni og‘ir kasallikdan sog‘ayganidan keyin yozgan. Kasallikdan keyingi hayotida u saroy muhitidan, sultonlarga xizmat qilishdan voz kechgan va o‘zini ma‘naviy izlanishlarga bag‘ishlagan. Uning maqomalarida ko‘p hollarda shaxsiy, avtobiografik jihatlar mavjud. Bu bejiz emas. U maqomalarini o‘ziga ya‘ni Abu Qosimga murojaat shaklida yozgan. Biroq bu yerda u hozirgi holatidagi o‘ziga emas,



balki 30 yoshlikdagi shaxsiga murojaat qiladi, hali hayot yo'li oldinda turgan, sinov va shubhalar bilan to'la bo'lgan yosh, navqiron davriga.

Az-Zamaxshariyning bu maqomalarida asar yozish motivatsiyasi ham o'zgaradi: uning maqsadi endilikda insonni kamolga yetkazish, unda to'la shakllangan musulmon shaxsiyatini tarbiyalash, uni bir vaqtning o'zida islom aqidasi talablariga va umuminsoniy qadriyatlar, ko'p avlodlar hayotiy tajribasi bilan boyitilgan tamoyillarga mos holda tarbiyalashdan iborat bo'ladi.

Bu mavzu az-Zamaxshariyning "Al-Ibodatu" (Ibodatu)[131-135] nomli maqomasida va boshqa maqomalarda yaqqol ifoda etilgan bo'lib, unda haqiqat sari yo'l olgan yosh yigit qalbida yuzaga keladigan tashvishlar, ruhiy iztiroblar va shubhalar tasvirlanadi. O'z hayotiy tajribasi bilan donishmand bo'lgan az-Zamaxshariy ushbu asarida yoshligidagi o'ziga, ya'ni yosh Abu Qosimga murojaat shaklida, hissiy ohangda suhbat yuritadi, uni xatolardan ogohlantiradi va to'g'ri yo'lga yo'naltiradi. Bunda u o'z nasihatlarini Qur'on ta'limotlari asosida asoslaydi, dalil sifatida Qur'ondagi obrazlar, iboralar va motivlardan foydalanadi.

Umuman olganda, adib asaridagi 50 ta maqomaning barchasi Qur'onda bayon etilgan diniy-huquqiy ko'rsatmalar ruhida yozilgan bo'lib, ular mo'min-musulmonning hayot tarzini belgilab beradi.

Masalan, "At-Tavhid" (Yagona Zot) maqomasida Qur'onning "Al-Mulk", "Ar-Rahmon", "Az-Zoriyot", "An-Nahl" kabi suralaridagi motivlar mujassam bo'lib, unda adib butun borliq haqida Qur'on ruhida mulohaza yuritadi va Allohning qudrati va yaratishdagi buyukligidan so'zlaydi. U quyidagi so'zlar orqali Allohning yaratgan mo'jizaviy olami haqida tafakkur qiladi:

"Ey Abu Qosim! Osmondagi falak to'xtovsiz aylanmoqda, yulduzlar harakatda, ba'zida porlab, ba'zida so'nib, yaqinlashib yoki uzoqlashib boradi. Oy o'z harakat yo'li bo'ylab suzmoqda, Quyosh esa har tong va har oqshomda hech bir to'xtovsiz o'z o'rmini egallaydi. Yer, unga minib olganga itoatli tarzda, barcha tomonlarga yoyilgan va tog'lar bilan mustahkamlangan. Bir-biridan ajratilgan ikki dengiz sho'r va shirin suvli, go'yoki o'z suvlari bilan qo'sxilishga tayyor. Qattiq toshlar ichidan shirin suv ajralib chiqib, daraxtlar va butalarning tagidan buloq bo'lib, otilib chiqmoqda. Bitta urug'dan ildizlar va shoxlar unib chiqdi, bitta danakdan qudratli xurmo daraxti o'sdi. Birgina tomchidan to'qqiz oy o'tgach, yuragi, ko'zi, tili bo'lgan inson paydo bo'ldi. Uning har bir a'zosi o'z vazifasini ado etuvchi kuchga ega, bu kuchni hatto eng mohir til ham to'liq ifodalab bera olmaydi. Bu olamni to'liq anglash mushkul. Axir, bularning barchasi ortida buyuk va donishmand Zot Al-Hakim, hamma narsani biluvchi Al-Alim, har bir sirni anglatuvchi Al-Xabir turganini ko'rsatmayaptimi?"[1,128-129]

Az-Zamaxshariy ushbu maqomada Qur'on matniga to'la taqlid qilmagan bo'lsa-da, uning ayrim suralaridan so'z birikmalari va tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri yoki majoziy tarzda oladi. Masalan, "itoatli yer" (67:15), "bir-biriga yaqinlashgan dengizlar" (55:19), "keng yoyilgan zamin" (51:48), "tuproqqa mustahkam qilib qo'yilgan tog'lar" (16:15) kabi ifodalar Qur'on matnining ruhiy-estetik ta'sirini anglatadi.

Yana bir misol, "Al-Ibodatu" maqomasida sultonlar va amirlarga ko'r-ko'rona itoat qilish bilan Allohga itoat qilish o'rtasidagi farq haqida so'z boradi. Bu yerda az-Zamaxshariy Qur'onning "Saba" surasining 45-oyatidagi "al-mi'shar" (o'ndan bir) so'zini to'g'ridan-to'g'ri ishlatadi:

وَمَا بَلَّغُوا مِعْشَارَ مَا آتَيْنَاهُمْ

"Ular ulardan ilgari o'tganlarga berganimizning hattoki o'ndan biriga ham erisha olmadilar..."

(Saba, 45)

Az-Zamaxshariy ushbu oyatdan ilhomlanib, quyidagi jummalarni yozadi:

"Agar menga (xo'jayinim) nima vasiyat qilganini sizlarga bayon qilsam, va men undan faqat o'ndan bir qismini bajarsam ham..."[1,131]

Natijada, Alloh emas, dunyoviy xo'jayinga sadoqat ko'rsatish insonga faqat baxtsizlik olib keladi.



Maqomlardagi axloqiy-me'yoriy g'oyalar, islomiy qadriyatlar va butun insoniyat tarixiy tajribasidan shakllangan umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvidan tarkib topgan. Bu qadriyatlar az-Zamaxshariyning diniy-falsafiy va axloqiy izlanishlarini, ayniqsa yosh avlodni yetuk, bilimli, e'tiqodli musulmon sifatida tarbiyalash yo'lidagi intilishlarini chuqur anglashga yordam beradi.

Avval ta'kidlanganidek, az-Zamaxshariy maqomalari mualliflik monologi bo'lib, o'zining yoshlikdagi "men"ga murojaat shaklida yozilgan. O'sha yosh davr, 30 yosh atrofida hayotiy tanlovlar pishib yetilgan pallada uning shaxsiyati shakllanayotgan, shubhalar va izlanishlar boshi ustida aylangani, ammo bu holatda chuqur e'tiqodning aqliy-irodaviy ong bilan uyg'unlashuvi lozim bo'lgan davr edi.

Shubhasiz, az-Zamaxshariyning maqomalari biografik xarakterga ega bo'lib, uning diniy-ma'naviy va axloqiy izlanishlari, hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda Qur'on oyatlariga murojaat qilish, unda najot izlash va ko'mak so'rash holatlarini o'zida mujassam etadi. Bu murojaatlar to'g'ridan-to'g'ri bo'lishi ham, bilvosita tarzda bo'lishi ham mumkin.

Masalan, "Shahvatdan tiyilish" (An-Nahyu 'an al-havo) maqomasida Qur'on oyatiga havola quyidagicha boshlanadi:

يا أبا القاسم! إنَّ الذي خلَقَكَ فسَوَّاكَ، رَغَّبَ فِيكَ عَقْلًا وَهُوَاً.

Ey, Abu-Qosim! Seni yaratgan va mukammal qilib shakllantirgan Zot, senga aql va shahvatni birgalikda bergan.[1,194]

Ushbu jumla Qur'onning bir nechta oyatlaridagi ruhiy-mazmuniy talqinni o'zida mujassam etadi, jumladan "Alloh seni yaratdi, va mukammal qildi" jumlasini "Infitor" surasining 7-oyatidan olingan bo'lib, aslida oyatda insonning Yaratganga itoatsizligi bois undagi kibr va beparvolik qoralangan, aql va shahvatning birgalikda mavjudligi esa inson sinovining mohiyatini aks ettiradi.

.. Maqomada esa az-Zamaxshariy ushbu oyat asosiga tayanib, undagi fikrni mulohazada davom ettiradi: Yaratgan inson ichiga ikki qarama-qarshi kuchni, aql va havo (ya'ni nafs istaklari)ni joylashtirgan. Ular har biri insonni turli yo'llarga yetaklashi mumkin.

Bu ikki kuch biri ilohiy yo'lga, ikkinchisi o'tkinchi dunyoviy quvonchlarga yetaklaydi. Ular o'zaro ziddiyatda: biri yuksaklikka tortadi, boshqasi qarshi turadi.

Shuning uchun maqomada quyidagicha hikmatli so'z yangraydi:

"إن جانب العقل أبيض كطرة الفلق، وجهة الهوى سوداء كجدة الغسق"

«Aql tomoni tong ufqidek oq nurli,

Nafs tomoni esa oqshom zulmatidek qorong'i.»[1,195]

Bu so'zlar orqali muallif insonni aqlni do'st, yo'l boshchi qilishga da'vat etadi. Chunki faqat aql yo'li bilan inson najot topadi, nafs esa uni tubanlikka yetaklashi mumkin.

Maqomaning nomlanishi ham "Shahvatdan tiyilish" bo'lib, "An-noziyot" surasining 40-41 oyatlariga ishora qiladi:

"Ammo kimki Parvardigorining {huzurida} turishi {va hisobat berishi}dan qo'rqqan va nafsini havolanishdan qaytargan bo'lsa bas, faqat jannatgina unga makon bo'lur"[3,584]

Bu oyatlar maqomaning ichki g'oyasini – aql bilan havoning kurashini, insondagi ichki ziddiyatni va bu ziddiyatda aqlning g'alabasi najot yo'li ekanini ochib beradi.

«Haj» surasining 36-oyatida bayon qilingan har bir narsada nafs kibrdan yiroq, kamtarin bo'lish va oz bilan qanoat qilish zarurati az-Zamaxshariyning "Qanoat" (القناعة) maqomasida yaqqol ifodalangan.

Bu maqomaning asosiy g'oyasi quyidagi ritorik hayqiriqda jamlangan: Ey, Abu Qosim! Boriga qanoat qil, lekin majburan kamsuqumlikdan emas! [1,73].

Ya'ni, inson o'z ixtiyori bilan ozga rozi bo'lsin, majburan muhtojlikka emas, balki qalban qanoatga suyansin!



Ushbu maqomada yana Qur'onda yoritilgan Qorun obrazi ham muhim o'rin egallaydi. Qur'oni Karimning «Qasas» surasining 76–82-oyatlarida uning qissasi zikr qilinib, u 76-oyatda shunday boshlanadi: “Albatta, Qarun Muso qavmidan edi. Bas, u(qavm)larga kibr qildi. Biz xazinalardan unga kalitlari baquvvat jamoatga ham og'irlik qiladigan narsalarni ato etgan edik. Oshanda qavmi unga: “Mag'rurlanmagin! Chunki Alloh mag'rurlanuvchilarni suymas”. [3,394]

Ammo o'z boyligidan mag'rurlangan Qarun kibru havo bilan to'lib-toshdi. Natijada, Alloh uni boyligi bilan birga yer qa'riga kirgizdi.

Az-Zamaxshariy bu ogohlantiruvchi Qur'oniy obrazni maqomada ishlatib, unga mutlaqo zid bo'lgan kamtar, qanoatli va saxiy inson obrazini qarama-qarshi qo'yadi va uning siymosini quyidagicha tasvirlaydi:

اخف الناس شغال ومؤونة، واغناهم عن ارفاد ومعونة. لا يهमे مكيل ولا موزون. مفاتحه لا تتوء بالعصبة أولي القوة. على أنه أوفر من قارون سعة وثروة. من قنع بالنزر اليسير أبسر، ومن حرص على الجم الغفير أعسر.

“U odamlarning mehnatini yengillashtiradi, ularning rizqini kengaytiradi, ularga yordam beradi.

U uchun narsalarning og'irligi ham, o'lchami ham ahamiyatli emas.

U na xazinalarni yig'ishga, na omborlarni to'ldirishga qiziqadi.

Uning xazina kalitlari kuchli odamlardan iborat guruhni ham holdan toydirmaydi.

Ammo ma'naviy boylikda u Qorundan ham ustun, ko'proq va saxiyyroq.

Kim oz bilan qanoat qilsa, hayoti yengil kichadi,

Kim esa ko'p yig'ishga haddan ziyod ishtiyoq bilan yondashsa, doim qiynaladi”. [1,74].

Az-Zamaxshariy Qorun kabi dunyo orqasidan quvganlarni shunday tasvirlaydi:

“Qancha boylik to'plamasin, unga baribir ozdek tuyuladi.

Qancha taom yemasin, ko'proq noz-ne'mat istaydi.

Qancha chiroyli libos kiymasin, baribir yana yaxshirog'ini qidiradi.

Uning ostiga yumshoq joy to'shaladi, lekin u: “Qattiq edi, uxlay olmadim,” deydi.” [1,75]

Bu yerda az-Zamaxshariy boylik va hashamatga berilib ketgan odamning cheksiz nafsini tanqid qiladi: bu holat hech qachon rozi bo'lmaslik, doimiy norozilik va ichki iztirob holatidir, insonni halokatga olib boradigan holat.

Az-Zamaxshariyning boshqa bir maqomasi “al-Valayatu” (الولاية) da u haqiqiy tarixiy shaxsni eslaydi: U Xotib ibn Abu Balta — Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning sahobalaridan biri edi.

U haqidagi voqea «al-Mumtahina» (الممتحنة) surasi 1-oyatida aks etgan. Voqea quyidagicha:

630-yil 11-yanvarda musulmonlar Makkani fath qilish arafasida bo'lgan paytda, Xotib Makkadagi o'z mushrik qarindoshlarini bu xujumdan ogohlantirmoqchi bo'lib, maktub yozadi va uni bir ayol orqali yuboradi.

Ammo Muhammad (s.a.v.) vahiy orqali bu voqeani bilib qoladi va ketidan Ali (r.a.) boshchiligidagi sahobalarni yuboradi. Maktub ayoldan topiladi va Payg'ambar (s.a.v.)ga yetkaziladi.

Payg'ambar Xotibni chaqirib:

“Nima sababdan bu ishni qilding?” — deb so'raydi.

Xotib javob beradi:

“Men buni Allohga yoki Rasuliga xiyonat qilganimdan emas, balki oilamni himoya qilish istagida bo'lganim uchundir.”

Shunda Umar ibn al-Xattob (r.a.) qattiq g'azablanadi va:

“Ey Rasululloh! Bu munofiq, uni o'ldirishga izn bering!” — deydi.

Ammo Muhammad (s.a.v.) uni to'xtatib:

“Yo'q, u Badr jangida qatnashgan sahoba. Balki Alloh Badr ahliga allaqachon mag'firat qilgan”, — deb uni afv etadi.



Bu voqea Qur'onda shunday aks etgan:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا تَتَّخِذُوا عَدُوِّي وَعَدُوَّكُمْ أَوْلِيَاءَ...

“Ey imon keltirganlar! Mening dushmanim va sizning dushmaningizni (ya'ni mushriklarni) do'st tutmangiz! Sizlar ularga do'stlik (haqida xabar) yuborursiz, holbuki, ular sizlarga kelgan haqiqatni (Qur'onni) inkor etgandirlar (Ya'ni) ular Payg'ambarni va sizlarning Rabbingiz—Allohga iymon keltirganingiz uchun (o'z diyorlaringizdan) haydab chiqarmoqdalar.[3,549]

Bu voqea orqali az-Zamaxshariy maqomada muhim xulosaga keladi, ya'ni inson xatoga yo'l qo'yishi mumkin, ammo niyat pok bo'lsa va Alloh yo'lida xizmat qilgan bo'lsa, kechirilish imkoniga ega.

Az-Zamaxshariy yuqorida tilga olingan voqeani — Xotib ibn Abu Balta'a bilan bog'liq hodisani o'z maqomasiga quyidagi she'riy ohangda, Qur'on ruhidagi kinoya bilan kirish qiladi:

تود عدوى ثم تزعم أنني صديق ليس النوك عنك بعازب

«Sen mening dushmanim bilan do'stlashgansan-u, lekin meni do'st deb o'ylaysan!

Ha, yo'q, bu ahmoqlik senga begona emas...»[1,110]

Bu satrlar orqali adib xiyonat va haqiqatga qarshi chiqishning ichki ziddiyatini ochib beradi: do'stlik chin qalb, sadoqat va iymon bilan bo'lishi kerak.

Bunday do'stlik faqat sadoqat va vafoga asoslangan bo'lishi mumkin, ayniqsa, bu mo'min kishi bo'lsa, u Allohga va Uning Rasuli Muhammadga sodiq bo'lishi shart.

Shundan so'ng, az-Zamaxshariy o'quvchini ogohlantiradi:

«Va doimo eslab tur, Xotib katta falokatga duchor bolishiga ozgina qolganda, Alloh unga tanbeh berdi»[1,113].

Ya'ni, bu voqea orqali u o'quvchini Allohning adolati va kechirimli rahmati o'rtasidagi nozik chiziqqa e'tibor qaratishga chaqiradi.

Bu o'rinda, Xatib qilgan amali xato bo'lsa-da, uning avvalgi qilgan xizmatlari sababli, Muhammad (s.a.v.) uni kechiradi, bu esa iymonli odam xatoga yo'l qo'yganda ham, agar ichki poklik bo'lsa, najot topishi mumkinligini anglatadi.

Misol tariqasida Xatib qissasini maqomaga kiritish bu badiiy uslub bo'lib, klassik arab adabiyotida keng qo'llaniladigan talmeh (التلميح) san'atidir. Ya'ni, o'quvchi yoki tinglovchiga ma'lum tarixiy shaxslar, joy nomlari yoki voqealarga ishora qilish orqali chuqur ma'naviy va hissiy ta'sir ko'rsatiladi.

Bu yerda Xatib qissasi zikri ham ayni shunday san'at orqali matnga teranlik bermoqda.

Keyingi maqoma “As-Salah” (الصلاح), ya'ni solih, taqvodor inson haqida» bo'lib, Qur'onning Qiyomat kuniga oid manzaralarini eslatadigan hayratomuz va ogohlantiruvchi tasvirlar bilan boyitilgan. Az-Zamaxshariy bu maqomada Qur'on oyatlaridan ilhomlanib tirilishga, inson jasadi yemirilgandan keyingi qayta yasharishga, hisobotga va jazoga oid ruhiy-hissiy manzarani chizadi:

«Va qachon sening go'shting parchalanib, suyaklaring ham chirib bitgach sur chalinadi va u seni dahshatga soladi».[1,116]


Bu tasvir Qur'onning “An-Naml” surasi 87-oyatidagi mana bunday holatni eslatadi:

وَيَوْمَ يُنْفَخُ فِي الصُّورِ فَفَزِعَ مَنْ فِي السَّمُوتِ وَمَنْ فِي الْأَرْضِ إِلَّا مَنْ شَاءَ اللَّهُ وَكُلُّ أَتَوِّهٍ دُخْرِينَ

“Sur chalinib Alloh o'zi xohlagan zotlardan boshqa osmonlardagi va yerdagi (barcha) kimsalar dahshatga tushib qolgan va (barcha) U zot (huzuriga) taslim qilgan holda keladigan kunni (qiyomatini eslang)! “ [3,384]

So'ngra adib «Abasa» (عيس) surasining 33–37-oyatlaridan ilhom olib, Qiyomat kunining ruhiy-ijtimoiy falokatini tasvirlaydi:

يَوْمَ يَفِرُّ الْمَرْءُ مِنْ أَخِيهِ
وَأُمِّهِ وَأَبِيهِ





«...o'sha kunda kishi o'z ukasidan, onasi va otasidan, rafiqasi va farzandlaridan qochadi...»

Maqomada ham insonlar bir-birini tanimoqdan, yordam berishdan, hatto eng yaqinlarini eslashdan ham yuz o'giradilar. Bularning barchasi gunohli hayotning oqibatlari.

Lekin, shunga qaramay, maqoma oxiri umid bilan yakun topadi: haqiqatni tan olgan, tavba qilgan, pok hayot kechirgan, sadoqatli va taqvodor inson "Dar as-Salam" ya'ni, Tinchlik Diyori (Jannat)ga kiradi.

U yerda u Salsabil va Kavsar daryolari bo'yida rohat topadi.

Maqomadagi jannat manzaralari Qur'onning «Muhammad», «Ar-Rahmon», «Al-Insan» suralarida berilgan ta'riflarga to'liq mos tushadi.

Az-Zamaxshariy bularning barchasini nafaqat diniy tafsirchi, balki adabiyotshunos, ijodkor adib va ruhshunos sifatida mujassam etadi. U o'z maqomalarida Qur'onni nafaqat oliy ruhiy manba, balki hayotiy yo'l-yo'riq, axloqiy kompas sifatida ko'rsatadi.

Misol tariqasida «al-Mundhira» (المنذرة) – «Ogohlantirish» maqomasida Az-Zamaxshariy insonning nafsini jilovlash qanchalik mushkul ekanini tasvirlash uchun jo'shqin va o'jar toychoq timsolini keltiradi. Bu obraz Qur'onda ham tilga olingan bo'lib, adib «Zuxruf» (Az-Zuxruf,) surasining 13-oyatiga tayanadi:

«سُبْحَانَ الَّذِي سَخَّرَ لَنَا هَذَا وَمَا كُنَّا لَهُ مُقْرِنِينَ»

"Bizlarga bu [ulov]ni bo'ysundirib qoygan zotga tasbeh aytamiz. Bizlar o'zimiz bunga qodir emas edik." [3,490]

Bu oyatda Allohning in'om va qudrati bilan inson hayvonlarni jilovlay olgani aytiladi.

Az-Zamaxshariy esa bu Qur'oniy manzarasini nafs tarbiyasi bilan bog'lab, bunday deydi:

"Ey o'jar toychoq kabi nafs yo'ldan ozgan odam! Seni jilovlashga harakat qilganlarning hech biri seni bo'ysundira olmadi!" [1,64]

Bu yerda inson nafsining yovvoyi tabiati, unga aql jilovini taqishdagi qiyinchilik va faqat ilohiy quvvat bilan bu bo'ysunish mumkinligi ifodalanmoqda. Bu so'zlar nafaqat badiiy metafora, balki ruhan uyg'otuvchi va ogohlantiruvchi hikmatdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Az-Zamaxshariy Qur'onni nafaqat shariat qonunlari orqali, balki uning balog'at, fasohat (notiqlik), bayon (so'z san'ati) jihatlaridan ham chuqur tahlil qiladi. Bu esa uni nafaqat mufassir, balki mohir adabiyotshunos – filolog sifatida ham namoyon etadi.

U Qur'onni «al-Furqon» deb ataydi, bu nom «ajratuvchi», ya'ni haq bilan botil o'rtasida tafovut qiluvchi mezon ma'nosini beradi. Bu so'z Qur'onda ham ko'p bor ishlatilgan va shu nomdagi sura ham mavjud.

Az-Zamaxshariy "al- Furqon" nomli maqomasida Qur'onni badiiy mahorat namunasi sifatida tavsiflaydi, uning tili fasohatligini, ya'ni tiniq va lo'nda, so'zlari go'zal tanlanganligini, har biri mazmunga xizmat qilishini korsatib o'tadi [1,190]

Undagi majoz, isti'ora va kinoiyalar yuqori darajadagi badiiylikni aks ettiradi, jumalardagi mazmun chuqur, qisqa, ta'sirli, hikmatli iboralar, shoirona o'xshatishlar bu Qur'onni nafaqat din kitobi, balki yuksak san'at asari sifatida ham ulug'laydi.

Adib ta'kidlashicha, Qur'onda bunday balog'at juda yuksak:

"...go'yo eng noyob marvaridlar bir zanjirga tizilgandek. Har bir oyat fikrga zamin, har bir so'z qalbgga ta'sir qiladi." [1,190]

Az-Zamaxshariy yosh suhbatdoshi oldida Qur'on matnini chin dildan qabul qilishga va anglashga da'vat etadi:

يا ابا القاسم اجعل كتاب الله نجيك فنعم النجى

"Ey, Abu Qosim, Allohning Kitobini o'zingga eng yaqin [sirdosh] do'st qil, qanchalik ajoyib bu do'st!" [1, 187-bet].



Shuningdek, boshqa maqomalarda ham, ayniqsa Qur'ondagi axloqiy-huquqiy normalarga oid mavzularda, az-Zamaxshariy ularni tilshunoslik tahlili bilan uyg'unlashtiradi. Masalan, «Amal» (العمل), «An-Nahv» (النحو), «Al-Arud» (العروض), «Al-Qavafi» (القوافي), «Ad-Divan» (الديوان) va «Ayyam al-arab» (أيام العرب) kabi maqomalarda bular yaqqol seziladi.

Az-Zamaxshariy maqomalarida ko'pincha Qur'ondan olingan so'z va iboralar «kinoya» yoki «isti'ora» sifatida ishlatiladi, ya'ni so'zlar ko'pincha ma'noni o'zgartirib, ramziy tarzda qo'llanadi.

Masalan, «Ridvon» (الرضوان) maqomasida az-Zamaxshariy o'zining yoshlik chog'idagi shaxsiga murojaat qilib, shunday deydi: انت بين الأمرين لذة ساعة بعدها قرع السن والسقوط في اليد

“Sen ikki holat orasidasan: bir soatlik lazzat, undan keyin esa tishlar g'ichirlashi va qo'llarga tushish (ya'ni chuqur pushaymonlik).” [1, 28-bet]

Bu ibora Qur'onda «Al-A'rof» surasining 149-oyatidan olingan parchani eslatadi, u yerda shunday deyiladi:

وَلَمَّا سَقَطَ فِي أَيِّدِهِمْ وَرَأَوْا أَنَّهُمْ قَدْ ضَلُّوا قَالُوا لَئِنْ لَمْ يَرْحَمْنَا رَبُّنَا وَيَغْفِرْ لَنَا لَنَكُونَنَّ مِنَ الْخَاسِرِينَ

“..va qo'llariga tushgan paytda va o'zlarining adashganlarini bilganlarida: Agar robbimiz bizga rahm qilib bizlarni mag'firat etmasa, albatta ziyon ko'ruvchilardan bo'lurmiz -dedilar”. [7: 149]

. Ya'ni, maqomadagi «tishlarning g'ichirlashi va ularning qo'llarga tushishi» ifodasi so'zma-so'z tarjima qilinmaydi. Aniqlik, bu ibora aslida pushaymonlik haqida bo'lib, o'z tarixiga ega.

Ba'zi maqomalarda az-Zamaxshariy Qur'on oyatlaridan bir necha bor foydalangan, masalan, «Muraqaba» (المراقبة - «Nazorat») maqomasida u Qur'on oyatlariga to'rt marta murojaat qiladi.

Birinchi marta u Allohning insonga yaqinligini ta'kidlaydi:

يَا أَبَا الْقَاسِمِ، أَنْتَ لَسْتَ وَحْدَكَ حَتَّى وَإِنْ خَلَوْتَ وَحْدَكَ، مَعَكَ مَنْ هُوَ أَقْرَبُ إِلَيْكَ مِنْ حَبْلِ الْوَرِيدِ

“Ey, Abu Qosim! Sen yolg'iz qo'lsang ham, bir o'zing emassan. Sening bilan birga bo'yin tomiringdan ham yaqinroq U[Zot] bor” [1, 178].

Bu ibora ozgina o'zgartirilgan holda Qur'ondagi «Qaf» surasining 16-oyatidan to'g'ridan-to'g'ri olingan:

وَنَحْنُ أَقْرَبُ إِلَيْهِ مِنْ حَبْلِ الْوَرِيدِ

“Biz unga boyin tomiridan ham yaqinroqdirmiz” [3, 519].

Keyingi oyatda, «Qof» surasi 17-oyatida, shunday deyiladi:

إِذْ يَتَلَقَّى الْمُتَلَقِّيَانِ عَنِ الْيَمِينِ وَعَنِ الشِّمَالِ قَعِيدٌ

“Zotan, o'ng va chap (tomon)da o'tirgan ikki (yozib turuvchi farishta) qabul qilib (yozib) tururlar” [3, 519].

Bu insonning o'ng va chap tomonida uning amallarini yozuvchi ikki farishtaning borligini anglatadi.

Az-Zamaxshariy esa bu mavzuga ijodiy yondashib shunday deydi:

و جنابتيك حفيظان يتلقيان لا يغفلان و لا ينتقيان”

“Va ikki tomoningda ikki qo'riqllovchi (farishtalar amallarni yozishda) g'aflatda qolmaydilar va saralab olmaydilar.” [1, 178-bet].

Az-Zamaxshariy maqomalarida Qur'oniy tasvirlar, motivlar va lug'aviy ifodalar ko'p qo'llanilib, undagi qasam ichish motivlari, ritorik undovlar, savol - javob usullariga taqlid qilish, asarni yanada jonlantiradi. Maqomlarning nomlari ham ko'pincha Qur'onga yo'naltirilgan. Masalan, «Al-Furqan» surasi nomi bilan bir xil bo'lgan «Furqon» maqomi bor.

Xulosa qilib aytganda, az-Zamaxshariyning maqomlarining asosiy xususiyati shuki, ular butunlay Qur'on ruhiga bo'lib, bu ruh «A'rof» surasining 199-oyatida yorqin ifoda topgan:

خُذِ الْعَفْوَ وَأْمُرْ بِالْعُرْفِ وَأَعْرِضْ عَنِ الْجَاهِلِينَ

«Kechirimli bo'l, yaxsxilikka buyur va joxillardan yuz o'gir!» [7: 199].



Umuman olganda, har bir oyat, har bir sura az-Zamaxshariyning maqomalariga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Qur'oni Karimning ruhi bu asarda nafaqat diniy, balki badiiy, poetik jihatdan ham yaqqol seziladi. Yosh Abu Qosimga murojaat qilib, keksa az-Zamaxshariy o'zining hayotidagi tajribalarini, axloqiy tamoyillarini va ruhiy izlanishlarini ifoda etadi. U bu yo'lni Qur'onning umuminsoniy axloqiy haqiqatlaridan topgan bo'lib, ular ruhiy nur sochib, murakkab hayotiy savollarga javob beradi.

Har bir maqomada Qur'oni Karim orqali nozil qilingan haqiqatlarning kuchi his qilinadi, ular obrazlar, ruh va so'z orqali ifoda etilgan. Az-Zamaxshariy Qur'onning manaviy-axloqiy va estetik qadriyatlarini o'z maqomalariga ko'chirish orqali yuqori axloqiy me'yorlarni shakllantiradi va yoshlarni ma'rifat yo'liga yetaklovchi murabbiy sifatida tarbiyalaydi.



JAHOLIYAT DAVRI ARABLAR HAYOTIDA SHOIR MAQOMI

SHORUSTAM SHOMUSAROV

Professor, TDSHU

Annotatsiya Maqolada joxiliyat davri she'riyati, qasidalar, shoirning o'rni va jamiyatdagi maqomi tahlil qilingan. Qasidaning vazifalari, uning tarkibiy tuzilishi, mavzulari va undagi joxiliyat davri shoirlari ijodi tadqiqqa tortilgan. "Joxiliyat" shoirlari qabila ichidagi va qabilalararo munosabatlarda ijtimoiy-siyosiy vazifalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: joxiliyat davri, she'riyat rivoji, qasida, uning tarkibiy qismlari, qasida mavzulari, shoir maqomi, joxiliyat shoirlari dovruqi, she'riyat va ayol, ayol-shoirlar ijodi, saroy shoirlari.

Аннотация В статье анализируются поэзия эпохи джахилии, касиды, роль поэта и его положение в обществе. Рассматриваются функции касиды, её композиционная структура, тематика, а также творчество поэтов эпохи джахилии. Особое внимание уделено социально-политическим функциям поэтов джахилии в межплеменных и внутриплеменных отношениях.

Ключевые слова: эпоха джахилии, развитие поэзии, касида, её составные части, темы касиды, положение поэта, слава поэтов джахилии, поэзия и женщина, творчество поэтесс, придворные поэты.

Abstract The article analyzes the poetry of the Jaxiliyyah period, qasidas, the role of the poet, and his status in society. The functions of the qasida, its structural composition, themes, and the creative works of poets of the Jaxiliyyah era are examined. Special attention is given to the socio-political functions of Jaxiliyyah poets in intra-tribal and inter-tribal relations.

Keywords: Jaxiliyyah period, development of poetry, qasida, its structural components, themes of the qasida, status of the poet, fame of Jaxiliyyah poets, poetry and women, works of poetesses, court poets.

Musulmonlar, odatda Arabiston yarim orolida islomgacha bo'lgan davr va hayotni, "Joxiliyat davri" atamasi bilan belgilaydilar. Bu atama "jaholat asri", deb ham ataladi va salbiy ma'noda ishlatiladi. Bu davrda arablar ko'pxudolilik (poleteizm)ni targ'ib qilganlar, gunoh ishlar – qimor, sharob ichish va sudxo'rlik bilan shug'ullanganlar.

Arabiston cho'llaridagi badaviylar qabilalarga ajralib, qabilalar esa katta oilalarga – "ashira"larga bo'lingan holda yashashgan. O'sha payt qabilalari, ko'pincha o'zlarining shayxlari nomlari bilan



atalgan. Ashiralar o'zaro boylik va yaxshi yerlarni talashganlar, lekin biron bir katta xavf-urishlar yoki tabiiy ofatlar bo'lib qolsa, dushmanlikni unutib, birlashganlar.

Xalq – bir xil makon va bir xil vaqtda ko'p yig'iladigan xavfsiz joy-bozorlar hisoblanadi. Arablar katta-katta bozorlarda yig'ilishib, o'zaro yangiliklar va axborot almashishar, katta maydonlarda esa shoirlar o'z qasidalarini o'qishib, mushoiralar o'tkazar edilar.

Arabiston yarim orolining turli nuqtalarida mavsumiy bozorlar bo'lar edi. Bu yerlar nisbatan xavfsiz bo'lib, arablar turli chekkalardan kelib, bu yerda savdo-sotiq uchun uchrashar edilar. Shoirlar va qohinlar (xatiblar) ham aholi yig'ilgan gavjumlikdan foydalanib, o'zlarining she'r va xutbalarini aytardilar, eng mashhurlari va go'zallarini katta mato yoki terilarga yozib, osib qo'yardilar (muallaqot)¹.

Bu davr tadqiqotchilarining yakdil fikricha, bu davrning eng ko'zga ko'ringan ijobiy nuqtasi – shu zamon she'riyati sanaladi.

She'riyat arablar orasida eng keng tarqalgan san'at turlaridan hisoblanadi. Joxiliyat davri nazmi shunchalik yuqori baholanar ediki, keyinchalik musulmonlar bir necha asrlar davomida o'sha davr qasidalarini va shoirlarini tildan-tilga yod olib, katta faxr tuyar edilar, madrasalarda o'qitar edilar.

Islomdan oldingi davrda arab she'riyatining asosiy va deyarli yagona shakli qasida bo'lgan. U 80–120 misradan iborat, qofiyalangan baytlarga joylashtirilgan kichik poema edi. Qasida lirika (nasib) bilan boshlanar, so'ng turli kayfiyat va mavzudagi majburiy qismlarga ega bo'lardi. Nasibning mazmuni odatda bir xil bo'lgan: o'tgan janglarni eslash, may va ishqiy lazzatlarga to'la sho'x yoshlikni sog'inish, sevikli ayolga, uzoqdagi do'stlarga, o'tib ketgan zamonlarga sog'inch. Qasidada o'rtadagi qism (vasf)da shoir go'yo xotiralardan chalg'ib, atrofga nazar solib, otini, tuyasini, sahro manzaralarini yorqin va aniq tasvirlab berardi. Shoir badaviylarning qashshoq turmushini, sodda va pok hayotining jozibasini batafsil chizardi. Uzoq she'r odatda faxr qismi (fakhr) bilan tugardi, unda qadimgi bahodirlarning qahramonliklari, shoirning o'zi va naslining shon-shuhrati madh etilar edi.

Joxiliyat davri shoirlari asarlari orqali xalq kundalik hayoti, cho'lning nochor tabiatini ulug'lar, qabila shayxlari va qabiladoshlarini madh etar, yangi yerlar va suv manbalari talashib bo'layotgan urushlarni qasidalarida aks ettirardilar². Ular o'z qabilalari va ularning boshliqlarini madh etardilar, katta urushlarni vasf etib, tarixga bitardilar, o'zlarining oddiy hayot kunlarini bayon qilardilar. Mavzular ham, ularning hayot tarzidek oddiy – mahbubasining yoki qabila kattalarining o'limiga marsiya (risa') yoki tuyalarining to'liq vasfi edi. Har bir shoir o'ziga xoslikka ega va mavzu tanlashda erkin edi.

She'riyatning, shoirning o'rni, ayniqsa, xavfli nizolarda bilinar edi. Ikki qabila bir-biriga to'qnash kelganda, shoirlar o'rtaga chiqib, o'z qabilasi shon-sharafini himoya qilar, uning izzat-nafsini ko'klarga ko'tarar edilar. Oldindan tayyorlagan she'riy qurollari bilan dushmanga og'zaki hamla qilar edilar. Bu o'zaro she'riy jang – o'zlarining noroziliklarini ifoda etishda namoyon bo'lar edi. Shu vaqtning o'zida dushmanni poetik vositalar bilan obro'sini yakson qilar edilar. She'riy jang ortiqcha qon to'kmasdan, o'z noroziliklarini o'ziga xos poetik obrazlar orqali ifoda etish imkoniyatini bergan. She'riyatning ma'lum qismi bizgacha saqlanib qolgan.

Qasida yozar ekan, badaviy shoirlar xuddi bir xil she'rni qayta-qayta yozgandek tuyulardi, lekin cheksiz yangi va turfa variatsiyalarda, metaforalarning dadilligi va yangiligi, his-tuyg'ularning o'tkirligi va tafsilotlarning aniqligi bilan ajralib turishga intilardi. Arab she'riyatida doimo musobaqa unsuri bo'lgan: raqibni yengish, she'riy bellashuvda g'olib chiqish istagi asrlar davomida yashab kelgan.

¹ <http://kulturologiya.ru/blogs 2-b>.

² <https://kulturologiya.ru/blogs/>



Shoir **Imruulqays** sahroda tashlab ketilgan qo'nalg'ani shunday tasvirlaydi:

«Qumloq vodiya o'choqlar izlari saqlanib qolgan,
Ular uzoqdan tanadagi naqshga o'xshaydi».

Zamondoshi **Tarafa** esa buni to'ldirib yozadi:

«Ar-Ruqamayndagi o'choq qoldiqlari

Vaqt bilan teridan o'chib ketgan naqshga o'xshaydi».

Sevikli ayolni eslar ekan, shoir uning tashqi qiyofasi, xulqi, kiyimi, taqinchoqlarini saxiy taqqoslashlar bilan bezatib tasvirlardi («uning beli jilov arqonidek ingichka», — deb qoyil qolardi Imruulqays). Ba'zida sahnalar ham oddiy va samimiy ifodalanar, Imruulqays seviklisining chodiriga qurollangan jangchilar orasidan sudralib kirganini, «suvdagi pufaklar birin-ketin jim ko'tarilgandek sokin yaqinlashganini» hikoya qiladi.

Mashhur she'rlarning mavzulari rang-barang, bunda mahbubasining vafotini tavsiflashdan boshlab, cho'lining asosiy transport vositasi –tuyaning mukammal tavsirigacha qamrab olgan. Bu davr shoirlari o'zining takrorlanmas uslubiga, vasf etajak mavzusini o'zi tanlash huquqiga ega bo'lgan.

Ayollarning joxiliyat davridagi ijtimoiy-siyosiy mavqei o'ziga xos bo'lgan. Ularga janglarda ishtirok etish man etilgan, lekin ayol-shoirlalar qabilalarida o'z mustaqil fikriga ega, o'z hissiyotlarini she'riy uslub orqali ifoda eta olardilar.

She'riyat jaholiyat davrida, asosan, og'zaki bo'lib, qabilaning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta roli tufayli, og'izdan og'izga o'tib kelgan.

Badaviy shoir jasurligi bilan birga, sevgi iztirobi yoki do'stining o'limidan ko'ngli ezilganda yig'lashdan ham uyalmagan. Sevish va sevgi azobini tortish jang qilish yoki do'stlar bilan bazm qilish kabi sharaflari hisoblangan. «Yillar o'tsa ham odamlar hushyor bo'ladi, ammo men hanuz ishtiyoqni yenga olmayman, xuddi tuman ichida yashayotgandek», – deb kuyardi Imruulqays, jasur jangchidan bir zumda sog'inchli lirikka aylanib.

So'ng u o'z otini mehr bilan, ba'zida hatto sevgilisidan ham ko'proq ilhom bilan madh etardi. Shoirni otining oyoqlari, ko'zlari, tezligi, ishonchliligi va kuchi hayratga solardi. U «bola qo'lidagi charxpalakday harakatchan», ko'kragi o'ldirilgan kiyik qoni bilan, xuddi xina singari bo'yalgan, beli esa toshday silliq.

Qasida ayniqsa tabiat tasvirlarida yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. Sahroda to'xtab, Imruulqays «yer ustida qizigan ignalar raqsga tushayotgandek» tuyuladigan, toqat qilib bo'lmas tushlik jazirasini chizib bergan. Tarafa esa tun sovuqlaridan shikoyat qilgan, badaviy muzlab qolmaslik uchun hatto kamon va o'qlarini yoqishga majbur bo'lishini aytgan, kiyikning mayda najasi esa maydalangan murchga o'xshashini ta'kidlagan. Qasidalaridagi bunday o'xshatishlarning sanog'i yo'q.

Albatta, hech bir qasida qabila va uning yetakchisini madh etmasdan o'tmagan:

«Bizga taqdir eng buyuk boshliqni berdi,

U shamolni yorar qora otga o'xshaydi».

Jang boshlanganda esa:

«Biz dushmani arslonday qahr bilan chopamiz,

Jangchilar uni xazondek yiqitadi».

Qadimiy arab shoirlarning ijodi avval boshida sehr-jodu bilan bog'langan bo'lgan. Shoir sehr-joduga ega, bu bilan u dushmanga yoki yog'iy qabilaga zarar yetkaza oladi, deb o'ylashgan.

Shoirdan qasidalarini o'qib, hodisalarni tushuntirish so'ralardi, u kohin vazifasiga yaqinlashar, ammo unga to'la teng emas edi.

Shunday ayol shoirlar ham bo'lgan-ki, ularning she'rlari munosib e'tirof va keng shuhrat keltirgan hamda bugungacha mashhurligini yo'qotmagan. Sulaym qabilasidan bo'lgan Al-Xansa islomdan



oldingi va ilk islom davrida yashagan hamda “Arabistonning eng buyuk ayol shoiri”, degan ulug‘ nomni olgan. Uning eng mashhur asari - jangda o‘ldirilgan ukasiga yozilgan marsiyasi. Asarning tili sodda, biroq nihoyatda ta’sirchan. Al-Xansa e’tiborini ukasining saxiyiligiga (“zaruratda tez yordam beradigan qalb”) va uning mardona o‘limiga qaratadi. U bu marsiyani Makka yaqinidagi yillik savdo yig‘inida o‘qib berganida, o‘sha davrning mashhur shoiri Nabig‘a unga eng yuqori maqto’vni izhor qilgan.

«Qon singan shishadan to‘kilgan suvday oqdi», – deb shoir navbatdagi quduq yoki o‘g‘irlangan chorva uchun bo‘lgan to‘qnashuvni maqtardi.

Qasidalarda axloqiy nasihatlar, hikmatlar ham qo‘llanilgan: vaqt, o‘lim, hayotning mohiyati haqida mulohazalar. Arab shoirlariga sobit-tragik dunyoqarash xos edi: hammasi foni, hammasi bekor, o‘limdan qochib bo‘lmaydi. Hamma go‘zallik o‘tmishda qolgan: sevgi, do‘stlik, yoshlik, hozir esa faqat adovat, yolg‘izlik va yaqinlashayotgan nihoya.

Islomdan oldingi Arabistonda shoir jamiyatda alohida o‘rin tutgan. U shunchaki she’r yozuvchi emas, balki notiq, tarixnavis, payg‘ambar, hatto siyosatchi bo‘lib, so‘zning sehrli kuchiga ega shaxs sifatida qaralgan. Uning asarlari – og‘zaki yoki yozma shaklda – og‘izdan og‘izga o‘tib, madaniyatni, urf-odatlarini va jamoatchilik fikrini shakllantirgan. She’riyat diniy va dunyoviy marosimlarning muhim qismi bo‘lgan, shoir esa katta hurmat va obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan.

Shoirlar qabila tarixi saqlovchilari bo‘lib, ajdodlar, ularning qahramonliklari va urf-odatlari haqidagi bilimlarni avloddan avlodga yetkazgan. Ularning she’rlari yig‘inlarda, bayramlarda, urushlarda yangragan, jamoaviy xotira va o‘zlikni shakllantirgan.

Shoirlar kelajakni ko‘ra oladigan kishi sifatida qabul gilingan, ularning so‘zlari bashorat, deb talqin qilingan. Ularning ovozi ilohiy ovoz, deb qaralgan.

Ko‘pincha shoirlar o‘zlari ham jangchi bo‘lgan, ularning she’rlari janglarda ruhlantirish va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Ular jasorat va shon-shuhratni madh etgan, jangovar ruh va birdamlikni mustahkamlagan.

Shoirlar qabila boshliqlarining qarorlariga ta’sir o‘tkaza olgan, ularni qo‘llab-quvvatlagan yoki tanqid qilgan, nizolarda vositachilik qilgan. Ularning she’rlari mojarolarni qo‘zg‘atishi yoki tinchitishi, jamoatchilik fikrini shakllantirishi va hatto siyosiy vaziyatga ta’sir qilishi mumkin edi.

So‘zning sehrli kuchi:

Shoirlar o‘z so‘zlarining kuchiga ishonishgan - ular baxt, shifo olib kelishi yoki, aksincha, la’nat va kulfatlar chaqirishi mumkin, deb hisoblangan.

Islomgacha bo‘lgan arab she’riyati ixchamligi, tildagi boylik va obrazlarning murakkabligi bilan ajralib turgan. Shoirlar ko‘pincha an’anaviy shakllar va syujetlardan foydalangan, shu orqali o‘z an’anaviy merosiga sodiqligini ta’kidlagan.

Demak, islomgacha bo‘lgan Arabistonda shoir shunchaki ijodkor emas, balki madaniy, siyosiy va diniy hayotning markazida turgan, o‘z xalqining taqdiri va urf-odatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim shaxs bo‘lgan.

Joxiliyat davri jamiyatida shoir qabilaning ajralmas tayanchi edi: u qabilaning «tili», «xotirasi», shu bilan birga axborot tarqatuvchi “kuch”i sifatida keng jamoaga ta’sir ko‘rsatardi. Shoirning vazifasi faqat hayotga badiiy bezak berish emas, balki ijtimoiy-siyosiy-madaniy qirralardan iborat murakkab tizim bo‘lib, unda qabilaviy qadriyatlar (himmat, mardlik), iqtisod (savdo va bozorlar), din (e’tiqod va marosim), hamda til (fasohat – ravonlik, salmoqdorlik) o‘zaro chambarchas bog‘langan. Shu bois joxiliyat adabiyoti tarixi shoir maqomiga va qasidani islomdan oldingi arab ongini ifoda etuvchi madaniy hujjat sifatida tushunishga tayanadi.



Shoir “qabilaning tili” edi: u qabilani madh etar, uning “ayyomlari” – kunlaridan faxr bilan so‘zlar, dushmanlarni hajv qilar va hodisalarni qayd etardi. Ba‘zan qabilalar urush yo sulh haqidagi qarorni “shoiri so‘zlamaguncha” kechiktirardi.

Birgina hajv qasidasi tajovuzkorni «she’riy sharmandalik»dan qochish uchun tovon to‘lashga yoki uzr so‘rashga majbur etardi. Shuning uchun: “Hajv-qilichdan ham qattiq”, deyilgan.

Shoir hukmdor va kohin yonida sharaf minbaridan o‘rin olar, chunki u so‘zi bilan nom va nufuz yaratardi. Unga qimmatbaho hadyalar qilinishi, tualarda izzat-ikrom bilan yuritilishi va ashroflardek mehmon qilinishi odat edi.

Sahovat, o‘zaro yordam, halimlik kabi qadriyatlarni targ‘ib qilib, ittifoqchilarni jalb etardi; madh, ayniqsa, bozor maydonlari va podshohlar huzurida (Himyar, G‘assoniylar, Laxmiylar qasrlarida) avjiga chiqardi.

Marhum fazilatlarini eslatish orqali jamoaviy dardni yumshatardi; masalan, Xansaning Saxrga bag‘ishlangan marsiyalari.

Jang, ayriliq va sahro sayohati (tuya, sarob, manzillar)ni jonli ifoda etadi.

Uzun qasidaning an‘anaviy qurilishi الطلل – (at-talal - safar - madh) ni yo‘lga qo‘yadi: shoir qadimgi diyor yodlarini eslab, asosiy mavzuga kirishadi.

Jamoaviy tajribani qisqa, oson targ‘ib qilinadigan iboralarga jamlar; masalan, Zuhayr: «Kim o‘z yerini quroli bilan himoya qilmasa, vayron qilinadi».

Ukoz, Zul-Majoz, Majanna kabi mavsumiy bozor maydonlari bo‘lib, u yerda mufoxara musobaqalari, qasida o‘qish va baholash o‘tkazilardi. Rivoyatlarda keltirilishicha, qasidalar shu yerda nomlanar, ommaga yetkazilar va muallifiga nisbat qilinardi. Ustunlik tilning sofliqi, so‘zning salmoqdorligi va tasvir sifati bilan o‘lchanar; og‘zaki tanqid an‘analari keyinchalik tabaqot kitoblarida (Ibn Sallom, Ibn Qutayba) yozma shaklda saqlanib qolgan.

Bozorlardan an-Nobig‘a, Zuhayr va A‘sho kabilar mukofot izlar, al-Hiro va Yaman podshohlari huzuriga hadya ilinjida yo‘l olar, shu tariqa iqtisod bilan she‘r topishardi.

Qabila shoirlarning g‘alaba va nasab qo‘shiqlarini kuylab, she‘rni jamoani birlashtiruvchi marosimga aylantirgan. So‘zning salmoqdorligi sahro qat‘iyati bilan tasvir nozikligi o‘rtasidagi muvozanatda ko‘rinar edi. Tanqid “oson-yuksak” uslubni “san‘atli” (ko‘proq jasorat va mehnat bilan sayqallangan) uslubdan farqlaydi; lekin baribir mukammal qurilish san‘at talab qilardi.

Bahrilar (“taviil”, “basiit”, “komil”) tizimini keyinchalik Xalil ibi Ahmad mukammallashtirgan bo‘lsa-da, ritm va qofiya qonunini joxiliyat davri mustahkamlab qo‘ygan.

Qasida qurilishi:

- At-talal: to‘xtash, tafakkur va mahbubni yod etish;

- Safar: tuya, xavf-xatar va yulduzlar tasviri;

- Maqsad: madh/faxr/hajv/hikmat. Bu qurilish qasidaga ijtimoiy vazifalarini bajarishda yagona his-tuyg‘u birligini beradi.

Sahro (sarob, tepaliklar) - barqarorlik, foniylilik va vafo ramzlariga aylanadi.

Podshohlar va savdogarlar mukofotlari, al-Hira va G‘assoniylar huzuriga siyosiy safarlar paytida madhni manfaat shartnomasiga aylantirganlar.

Hajv jabr ko‘rgan tomonga obro‘ va savdoda zarar keltiradi; so‘z bevosita iqtisodiy ta‘sir qilgan.

Qadriyatlar targ‘ibi saxovat, jo‘mardlik, vafodorlik me‘yorlarini yoyib, qabilalar o‘rtasidagi savdo aloqalari uchun ishonchni mustahkamlardi.

She‘r qalblarda saqlanib, ovoz va intonatsiya bilan ijro etilar, roviylar (Hammad ar-Roviy, Xalaf al-Ahmar) orqali tarqalardi.



Qadimgi va hozirgi zamon mutafakkirlari matnlarni hujjatlash va ishonchlisini yaratishga urinishgan (Ibn Sallom; hozirgi paytda Nosiruddin al-Asad)

Yozma to'plamlar. "Asmaiyyot", "Mufaddaliyyot", "Tabaqot fuhul gulki ash-shuaro" qabilalarning paydo bo'lishi bilan she'r og'zaki ijrodan yozma matnga ko'chdi.

Shoir va ayol - tasvir bilan voqelik orasida. "At-talal" qismidagi g'azal, xotira va hasrat ayolni "qadriyatlar ko'zgusi" – vafo, sabr, iffat sifatida namoyon qiladi. Bir vaqtning o'zida esa Su'od, Umayma, Afro kabi tipik ism-ramzlar orqali individuallikdan o'tib, ramzga aylanadi.

Joxiliyat she'ridan dalilliy namunalar:

- **Antara:** "... sening nomingni yod etdim, nayzalar chanqoq holda.." – g'azal va jangovorlik san'atini uyg'unlashtirish.

- **Zuhayr:** "Kim o'z yerini quroli bilan himoya qilmasa, vayron bo'ladi" – ijtimoiy hikmat.

- **Imrulqays:** "Qifa nabki... – To'xtab, yig'laylik..." at-Talal - an'anasini asoslash.

- **Tarafa:** tuya tavsifi va qisqa umrni mavjudlikka istiora sifatida qo'llash. Bu "Muallaqot" va boshqa devonlarda saqlangan misollar badiiy go'zallik bilan ijtimoiy vazifaning birlashuvini ko'rsatadi.

Joxiliyatdan Islomga - mezonlar emas, maqomning o'zi o'zgardi.

Islom kelgach, mezonlar almashdi: she'rda vazn va qofiya saqlandi, ammo maqsad va qiymat yangilandi. Qabilaviy hajv orqaga chekinib, o'rniga keng axloqiy tizim ustuvor bo'ldi; rostgo'ylik, nasihat va da'vat yuksaklikka intildi; Hassan ibn Sobit yangi din xizmatidagi shoir vakili o'laroq yuzaga chiqdi. Lekin qasidaning tuzilishi va ifodaviy imkoniyatlari (madh, marsiya, hikmat) yangi maqsadlar bilan yashashda davom eta boshladi.

Xulosa

Oxir-oqibat badaviy shoir bir vaqtning o'zida uch idealni mujassamlashtirgan: jangchi, oshiq va saxiy bazmchi. U har doim eng kuchli va jasur, g'olib shu bilan birga yolg'iz, kambag'al, begona, g'ururli, mustaqil, yordam so'rashdan ko'ra «toshni tishlashga» tayyor. Hayotni qiyinchiliklar bilan o'tkazib, o'limni qat'iyat bilan qarshi olgan va bir piyola may, bir go'zal bag'rida hamma narsani unutadigan sho'x odam. Jozibador yurakboz, barcha ayollarni maftun qiluvchi va hayoti davomida faqat bitta ayol uchun yonib yashagan telba oshiq. Aslida eng muhim narsa boy va to'liq hayot, befoyda o'tmagan kunlar va boshqalar ustidan ustunlik hissi edi: nafaqat shoirning o'zi, balki uning butun «o'ziniki» qabilasi, ayoli, do'sti, oti, quroli. Arab shoiri go'yo shunday derdi: «Men hammadan kuchliroq, aqliroq va jasurroqman, hech kimga hech narsada yon bermayman, hammani hamma narsada ortda qoldiraman, hayotni to'liq ichaman. Agar bunday so'zlar boy tafsilotlar, g'oyibona metaforalar va aniq ifodalar oqimiga o'ralmaganida, bularning hammasi kulgili bo'lardi.

Joxiliyat shoirining maqomi uch yo'nalish kesishmasidan tug'iladi:

1. Siyosiy-qabilaviy o'rin (jamoat "tili" va sha'n-sharaf qalqoni);

2. Axborot-iqtisodiy vazifa (shuhrat yaratish, me'yorlar);

3. Estetik-ma'rifiy qimmat (tilni sayqallash, xotirani abadiylashtirish). Nafaqat iste'dodli shaxs, balki notiqlik, hujjatlash, hordiq va jamoatchilik fikrini shakllantirishni uyg'unlashtirgan ijtimoiy institut; so'z qalamdan oldin yuritilgan muhitda markaziy kuch bo'lgan.

Qasidalar bilan bir qatorda qisqaroq she'rlar ham bo'lgan — ularni qit'a («parcha»), deb atashgan. Odatda ular bir mavzuga bag'ishlangan kichik jangovar hayqiriqlar (hijolar) yoki yiqilgan jangchining ustida aytilgan marosimiy yig'ilar (risalar) edi. Risalarning eng yaxshi ustalari ayol shoira bo'lishgan.





**JO'RJI ZAYDONNING «G'ASSON AMIRLIGINING QIZI»
ROMANIDA ILK ISLOM DAVRINING BADIY TALQINI**

DILAFRUZ MUXIDDINOVA

Dotsent, f.f.d., TDSHU

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi davr arab adabiyotining yorqin namoyandalaridan, tarixchi olim, ma'rifatparvar adib Jo'rji Zaydon hayoti va ijodi bayon etilgan. J. Zaydon xoh tarixiy, xoh zamonaviy bo'lsin, barcha mavzularda ma'rifat, ta'lim-tarbiya g'oyalarini targ'ib etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U xalq ongining o'sishi, millatning taraqqiy etishi uchun ular avvalo o'z tarixi va boy madaniy merosini yaxshi bilishi kerakligini bosh g'oya sifatida ilgari suradi. Shu tariqa u, tarixiy mavzularni ma'rifiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirgan holda, arab xalqini o'z tarixi bilan tanishtirishni maqsad qilib olgan. J. Zaydonning tarixiy romanlarining har biri ham badiiy asar sifatida, ham tarixni badiiylashtirish nuqtai nazardan maxsus o'rganishga loyiqdir. Adibning har bir romani o'quvchida o'sha tarixiy davrni, buyuk shaxslarni, ular yashagan davrni aniq badiiy gavdalandiradi. J. Zaydonning «G'asson amirligining qizi» romani uning ijodidagi tarixiy romanlar silsilasining boshlanishi hisoblanadi. Bu roman milodiy VI asrdagi tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi, ya'ni Vizantiya imperiyasidagi vaziyat, G'asson amirligi, islom dinining paydo bo'lishi va uning yoyilishi, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning faoliyati, G'assonliklar bilan musulmon arablarining urushi, madinaliklarning qurayshlik kofirlar bilan jangi, Makka shahrining fath etilishi kabi hodisalar tasvirlangan.

Tayanch so'z va iboralar: yangi davr arab adabiyoti, ma'rifatparvarlik jarayoni, tarixchi olim, tarixiy roman.

Аннотация: В статье рассказывается о жизни и творчестве Джорджи Зайдона, одного из ярчайших представителей современной арабской литературы, историка, учёного и просвещённого писателя. Джорджи Зайдон стремится продвигать идеи просвещения и образования во всех областях, как исторических, так и современных. Он также выдвигает идею о том, что для роста самосознания народа и развития нации необходимо, прежде всего, хорошо знать свою историю и богатое культурное наследие. Таким образом, он решил познакомить арабский народ со своей историей, сочетая исторические темы с просветительскими идеями. Один из исторических романов Зайдона, как художественное произведение, заслуживает особого изучения с точки зрения художественности истории. В одном из романов писателя рассказывается о том историческом периоде, о великих личностях, о том времени, в котором они жили. Ж. Роман Зайдона «Дочь эмирата Гассан» является началом серии исторических романов в его творчестве. Этот роман включает в себя исторические события VI века нашей эры, а именно положение в Византийской империи, эмират Шехассан, возникновение и распространение ислама, деятельность пророка Мухаммада (мир ему и благословение), война между шехассанами и арабами-мусульманами, война между мединцами и неверными из курайшитов сражения, завоевание Мекки.

Ключевые слова: арабская литература новой эпохи, просветительский процесс, историк, исторический роман.

Abstract: The article tells about the life and work of George Zaidon, one of the most prominent representatives of modern Arabic literature, a historian, a scientist and an enlightened writer. George Zaidon strives to promote the ideas of enlightenment and education in all areas, both historical and modern. He also puts forward the idea that in order to increase the self-awareness of the people and develop the nation, it is necessary, first of all, to know its history and rich cultural heritage well. Thus, he decided to introduce the Arab people to their history, combining historical themes with educational ideas. One of Zaidon's historical novels, as a work of art, deserves special study from the point of view of the artistic quality of history. One of the writer's novels tells about that historical period, about great personalities, about the time in which they lived. G. Zaidon's novel " Daughter of the Emirate of Gassan " is the beginning of a series of historical novels in his work.

Key words and phrases: Arabic literature of the new era, the enlightenment process, historian, historical novel.



Kirish. Jo'rji Zaydon - arab adabiyotida tarixiy romanlar ustasi sifatida tanilgan va tan olingan mumtoz adib. XIX asr oxirlari, XX asr boshlarida ijod qilgan bu ulug' siymo mashhur arab ma'rifatparvar, tarixchi olim, jurnalist, jonkuyar va fidoyi inson tariqasida ham ko'p ishlarni amalga oshirgan.

Davrining ko'zga ko'ringan kishilaridan biri bo'lgan Jurji Zaydonning arab tarixi va adabiyotiga oid ilmiy asarlari butun arab dunyosiga keng tarqalgan. Jo'rji Zaydon asos solgan «Al-xilol» jurnalida o'sha davrning dolzarb muammolari yoritilgan, hamda ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglashga da'vat etuvchi maqolalar chop etilgan. Bu esa yozuvchining zamondoshlari tomonidan juda yaxshi kutib olingan. Jo'rji Zaydonning arab xalqlarining tarixini yorqin buyoqlarda tasvirlovchi romanlari tez fursatda nafaqat arab, balki Sharqning ko'plab davlatlarida ham mashhur bo'lgan, hatto o'zi tirikligi chog'idayoq ko'plab dunyo tillariga, jumladan, hind, ingliz, nemis, fransuz, fors, turk, tamil, ozarbayjon, o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Jo'rji Zaydonning arab madaniyatidagi roli rus va yevropalik sharqshunoslar tomonidan ham yuqori baholangan. Chunonchi, taniqli rus sharqshunosi I. Yu. Krachkovskiy adibning ijodiy faoliyatiga yuqori baho berib, bunday degan: «XX asrning birinchi choragi Zaydonning ahamiyati qanchalik katta ekannini ko'rsatdi. Uning nomi zamonaviy arab adabiyoti va arab jamiyati tarixida hech qachon unutilmaydi».[Krachkovskiy, 1956. p.236]

O'zbek kitobxonlari Jo'rji Zaydonning «Farg'ona kelini», «Amin va Ma'mun», «Horun ar-Rashidning singlisi Abbosa» kabi romanlari bilan yaxshi tanish. Shu bilan birga, o'zbek romanchiligining shakllanishida Jo'rji Zaydon asarlarining ta'siri katta bo'lgan. O'zbek romanchiligi asoschisi, «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» kabi o'lmas romanlar muallifi Abdulla Qodiriy aynan ana shu asarlardan ilhomlangan. Ulug' o'zbek adibi Jo'rji Zaydon romanlarining hayotbaxsh kuchi haqida fikr bildirib, «Meni roman yozishga havaslantirgan Misr fuzalosidan ustoz Jo'rji Zaydon bo'ldi», -deb yozgan edi.[Mirzayev, 1977, p.66]

Maqsad va vazifalar: yangi davr arab adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari, tarixiy roman janrining asoschisi Jo'rji Zaydonning hayoti va ijodi, "G'asson amirligining qizi" romanida ilk islom davri hayotining badiiy ifodasini tahlil qilishdan iborat.

Usullar: qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza. Yangi arab adabiyotida o'chmas iz qoldirgan ma'rifatparvar, tarixiy romanlar ustasi Jo'rji Zaydon xoh tarixiy, xoh zamonaviy bo'lsin, barcha mavzularda ma'rifat, ta'lim-tarbiya g'oyalarini targ'ib etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U xalq ongining o'sishi, millatning taraqqiy etishi uchun ular avvalo o'z tarixi va boy madaniy merosini yaxshi bilishi kerakligini bosh g'oya sifatida ilgari suradi. Shu tariqa u, tarixiy mavzularni ma'rifiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirgan holda, arab xalqini o'z tarixi bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi. Uning fikricha, arab xalqining ravnaq topishi uchun, millatning ongi, saviyasi va dunyoqarashini rivojlantirish uchun avvalo millat, xalq o'z tarixini, o'tmishini bilishi shart. Shu sababli J.Zaydon arab xalqini o'z tarixi bilan kengroq tanishtirish maqsadida imkoniyat doirasi kengroq bo'lgan roman janrini tanladi. Shu yo'l bilan tarixni oson va sodda shaklda bayon qilib berdi.

Tarixni yoritishda nega aynan roman janrini tanlagani haqida yozuvchining o'zi «Al-Hajjoj ibn Yusuf» romanining muqaddimasida bunday deydi: «Kisxilarni tarixni o'qish va istifoda etishga jalb etadigan eng yaxshi vosita uni roman shaklida ommalashtirish. . . Xususan, biz tarixni romandan ustuvor qilib qo'yishga bor kuchimiz bilan harakat qildik. Lekin yevropalik yozuvchilarning asosiy maqsadi faqat roman yaratishdir. Ularda tarixiy voqealar romanning asosiy tirgagi emas, balki romanga haqiqat ruhini kiritish vositasidir. . »[Arasly, 1967, pp. 100-101]



J.Zaydonning fikricha, romanlarda tarixiy voqealardan faqat haqiqat ruhini kuchaytirish uchun foydalanish tarixiy voqealarga e'tiborsiz qarashga sabab bo'ladi va kitobxon fikrini chalg'itadi. Adib roman voqealariga muhabbat qissalarini kiritish sababini ko'rsatib, bundan maqsad romanning oxirigacha qiziqib o'qilishiga erishishdir, deb ta'kidlagan. O'tmish zamonlar, tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi tarix kitoblari kishini qanday ishontirsa, J.Zaydonning tarixiy romanlari ham kishida shunday ishonch uyg'otadi. Adib romanlarida badiiy tafsilot va qo'shimchalardan unumli foydalanadi. Lekin ular tasvirlanayotgan tarixiy voqealar mantig'iga aslo putur yetkazmaydi, balki qalamga olingan davr kishilarining axloq-odobi va urf-odatlarini ifoda etib, o'ziga yanada ko'proq jalb qiladi va voqea-hodisaga aniqlik bag'ishlaydi, izoh beradi.

J.Zaydon o'zi tasvirlayotgan davrni haqqoniy ko'rsatishga, bunda arab adabiyotiga xos mubolag'alardan foydalanishga va mantiqsiz uslubiy jimjimadorliklardan xoli bo'lishiga harakat qiladi. Uning zamondoshi Abdul-Fattoh Iboda bunday yozadi: «Uning tarixiy romanlari nafaqat islom tarixiga muhabbat, arab yodgorliklariga qiziqish uyg'otadi, ayni paytda inson hissiyotlarini tug'yonga keltiradi, uning xayoliy olamini kengaytiradi. Shuning uchun ularni o'qish g'oyatda maroqli va foydalidir».[Arasly, 1967,p. 50]

Jo'rji Zaydonning «G'asson amirligining qizi» romani uning ijodidagi tarixiy romanlar silsilasining boshlanishi bo'lib, 1886 yilda yozilgan. Bu roman milodiy VI asrdagi tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi, ya'ni Vizantiya imperiyasidagi vaziyat, G'asson amirligi, islom dinining paydo bo'lishi va uning yoyilishi, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning faoliyati, G'assonliklar bilan musulmon arablarining urushi, madinaliklarning qurayshlik kofirlar bilan jangi, Makka shahrining fath etilishi kabi hodisalar tasvirlangan.

Asarning kirish qismi hisoblangan «G'asson shohlari» faslida G'asson amirligining vujudga kelishi, uning Vizantiya imperiyasi tarkibiga kirishi, Eron bilan Vizantiya imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni rimliklar bilan forslar orasidagi azaliy urushlar, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning tijorat qilish uchun Shomga safari singari tarixiy voqealar kitobxonga mutolaa avvalidan o'sha tarixiy davr mohiyatini tasavvur qilishni ko'zlab tanishuv sifatida beriladi.

Umuman, bu faslda J.Zaydon V-VI asrlarda Arabiston yarim orolidagi vaziyat, G'asson amirligi, Vizantiya imperiyasi bilan forslarning Sosoniylar davlati o'rtasidagi ziddiyatlar, davlatlarning ichki siyosiy holati tarixiy-ilmiy hamda tarixiy asarlarda qanday qayd etilgan bo'lsa, shunday to'liq ma'lumotlar beradi.

G'asson shohlari «Bani G'asson nasroniy arablardan tashkil topgan bo'lib, ular Rum (Vizantiya) imperiyasi qo'li ostidagi Shomda hukmronlik qilgan. Ular asli Qahtan qabilasidan bo'lib, Yamanda al-Arim to'g'oni buzilishi natijasida Shomga ko'chib o'tgan. Yamandagi Ma'rab shahri yaqinidagi bu to'g'onni ilgari «Ma'rab to'g'oni» deb atashgan. Bu to'g'on milodning II asrida buzib tashlanadi va uning suvi atrofdagi qishloq va shaharlarni yuvib ketadi, buning natijasida u yerlarning odamlari rizq-nasibalarini qidirib, boshqa yerlarga ko'chib ketadi. Jumladan, g'assonliklar ham Shomi Sharifga, «G'asson» nomli suv yaqiniga ko'chib keladi va nasroniy dinini qabul qiladi. Ularni musulmon tarixchilari «nasroniy arablar» deb ataydi va G'asson shohlarini tanishtirib o'tishadi. Birinchi G'asson shohi Jafna bo'lib, u milodning II asrida yashagan. Undan so'ng amirlikni uning avlodlari boshqargan. Bu avloddan yigirma yettiga yaqin shoh hukmronlik qilgan. Ularning so'nggisi Jabala ibn al-Ayham bo'lib, uning hukmronligi davrida islom dini paydo bo'ldi. Abu Bakr as-Siddiq xalifaligi davrida Shom fath qilindi va ularning davlati ko'rib turganimizdek inqirozga uchradi. Hozirda ulardan qolganlari esa Bolqon, Yarmuq va Xoms shaharlari atrofida yashaydi.

. . . Hijratning yettinchi yilida (milodiy 629) bir vaqtning o'zida G'asson amirligi ikki qismga bo'lingan va bu davlatlarni ikki amir boshqarar edi. Bulardan biri Al-Hars ibn Abi Shumurra,



ikkinchisi Jabala ibn al-Ayhamdir. Al-Hars qadimgi Shomga (hozirda bu yerda «Eski Shom» nomli kichik qishloq qolgan) amirlik qilgan. Qadimgi Shomning poytaxti Busra shahri bo'lgan. Busra yaqinida Buhayra monastiri bo'lib, bu yerda Abu Tolib va ukasining o'g'li Muhammad payg'ambar bilan, islomga da'vat boshlanmasidan o'ttiz yilcha oldin, Shomga savdo-sotiq qilish uchun ketaturib to'xtab o'tishgan. Al-Harsning amakivachchasi Jabala al-Ayham esa Bolqonga amirlik qilgan».[Zaydan,pp.3-9]

Romanning kirish qismida tarixiy voqealar juda aniq va tushunarli berilganki, kitobxon asarni o'qishidan oldin o'sha tarixiy davr muhitini tasavvur qiladi. Tarixiy voqealar haqidagi ma'lumotlardan so'ng asarning asosiy syujeti boshlanadi. Bunda J. Zaydon ekspozitsiya sifatida bosh qahramonlarni, ya'ni asosiy uchta to'qima obraz – Hammod, Hind va Sa'lablarni tanishtirib o'tadi. O'sha davrda, yuqorida qayd qilinganidek, Vizantiya viloyatlaridan biri bo'lmish G'asson amirligi ikki qismga bo'lingan bo'lib, Bolqonga Jabala al-Ayham, Shomga esa Al-Hars ibn Abi Shumurra amirlik qilgan. Ularning birini, ya'ni Jabalaning Hind ismli sohibjamol, oqila, mohir chavondoz qizi, Al-Harsning esa Sa'lab ismli hiylakor va hasadgo'y o'g'li bo'ladi. Bu ikki amir, ya'ni Jabala al-Ayham bilan al-Hars ibn Abi Shumurra amakivachcha bo'lishadi.

Romanning voqealar silsilasi milodiy 629-yilda Jabalaning navbatdagi musobaqani o'tkazish voqeasi bilan boshlanadi. Bu musobaqaga uzoq-yaqin o'lkalardan chavandozlar keladi. Ularning orasida Iroq amirining o'g'li Hammod va Al-Harsning o'g'li Sa'lab ham bo'ladi. Musobaqa davomida Hammod barchani lol qoldirib g'olib chiqadi. Hind uni mohirligi va mardligi uchun yoqtirib qoladi. Hammod esa allaqachon Hindga maftun bo'lgan edi. Sa'lab esa ularning bir-biriga bo'lgan pinhona muhabbatini sezib, Hammodga qarshi turli bo'htonlar uyushtiradi. Chunki Sa'labning o'zi ham Hindni sevar va unga uylanmoqchi edi. Nihoyat, Sa'lab Jabalaga Hammodni yomon qilib ko'rsatishga harakat qiladi, lekin uning bu xatti-harakati inobatga olinmaydi.

Ko'rib turganimizdek, asar, sirdan qaraganda, ikki sevishgan qalbning sarguzashtlari va ularning raqibi paydo bo'lgani bilan boshlandi. Ya'ni, Hammod, Hind va Sa'lab o'rtasidagi munosabatlar asar tugunidir. Albatta, bu yerda J.Zaydon shunday to'qima voqea va obrazlar yaratganki, natijada dastlabki hodisalar asarning keyingi voqealariga zamin yaratadi.

Romanda Rim imperatori Irakliy va unga Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning maktublarining keltirilishi:

«Bismillahir-rohmanir-rohim»

«Allohning rasuli Muhammaddan Rumning ulug'i Xiraqlga. Xaq yo'l topganlarga salomlar bo'lsin. Allohga itoat qil. Musulmon bo'l, salomat bo'lursan. Ikki karra ajr olursan. Agar qabul qilmasang, senga qarashlik butun xalqning gunohi ustingga tushadi.

Alloh

Rasul

Muhammad » [Zaydan,pp. 106-107]

Maktubni o'qigach, imperator Irakliy bu yangi din va uning payg'ambari Muhammad alayhissalomga qiziqib qoladi. Va bu haqda biladigan bir badaviy kishini topib kelishni buyuradi. O'sha kunlari payg'ambarning qarindoshi Abu Sufyon tijorat bilan Shomga kelgan bo'ladi. Al-Hars uni tezlikda imperator huzuriga olib keladi. Imperator Abu Sufyondan payg'ambarning nasl-nasabi, hayoti, faoliyati hamda islom dini to'g'risida so'raydi. Abu Sufyon hech bir g'arazsiz Rasulullohning nasl-nasabi, hayoti, oilasi, quraysh qabilasi tarixi, payg'ambarga vahiy kelishi, Qur'oni karimning nozil bo'lishi, islom dinining paydo bo'lishi, payg'ambarning turli qarsxiliklarga uchrashi, qurayshlik kofirlar bilan musulmonlar o'rtasidagi urushlar va o'zining bu dinga hamda uning da'vatkori Muhammadga ishonmasligi to'g'risida so'zlab beradi. Shu o'rinda Irakliy va Abu Sufyon o'rtasidagi



suhbatdan qisqacha iqtibos keltiramiz: «. . . Xiraql kirishga ruxsat berdi. Bir zum o'tmay, Abu Sufyon va hamrohlari ulug'vor zalga kirdi, ko'zlarini zaldagi anvoyi bezatilgan bezaklar va hashamatli jihozlar qamashtirdi. So'ngra Abu Sufyon imperator huzuriga kelib, yerni o'pdi va hayajon bilan «La'natga yo'liqmagin» deb salomlashdi va imperatorga lutf bilan ta'zim qildi. Bu salomlashish joxiliya davrining salomlashish odati edi. Xiraql ularga o'tirishga ruxsat berdi va Abu Sufyon yerga chordana qurib, qilichini oyog'iga (soniga) qo'yib o'tirdi, hamrohlari esa uning orqasiga o'tirdi. Xiraql ularning o'tirish borasidagi odatlari shunday ekanini payqadi va ularga e'tiroz bildirmadi.

Xiraql tarjimon orqali Abu Sufyondan so'radi:

«Qaysi qabiladansan?»

Abu Sufyon: «Ka'ba egalari bo'lmish quraysh qabilasidanman».

Xiraql: «Ka'ba o'zi nima?»

Abu Sufyon: «Odamlar ibodat qiladigan joy».

Xiraql: «Sizlardan chiqqan, odamlarni yangi dinga da'vat qilayotgan Muhammad ismli kishini taniysanmi?»

Abu Sufyon: «Albatta, taniyman, u - bizning qarindoshlarimizdan, Muhammad bizni ham yangi dinga da'vat etdi, lekin biz ota-bobolarimiz dinida qoldik, lekin u o'z yo'lidan qaytmadi».

Xiraql: «Meni bu kishining ishlari qiziqtirib qo'ydi. Va men haqiqatni bilishni istayman. Muhammad to'g'risida va u da'vat qilayotgan din haqida gapirib ber, axir, odamlar unga ergashyapti-ku!»

Abu Sufyon: «Yo'q, janobi oliylari, lekin men Muhammadni qanday obro' topganini so'zlab beraman».

Xiraql: «So'zla!»

Abu Sufyon bemalol o'tirish uchun tirsagini tizzasiga qo'ydi va atrofga qaradi. U arkoni davlat - amirlar, ruhoniylar, patriarxlar va boshliqlar orasida edi. Abu Sufyon Rumning eng buyuk shaxslari huzurida gapirayotganini his qildi. Tarjimon esa uning so'zlarini yig'ilganlarga tarjima qilib berayotgan edi. Ular orasida faqat Al-Hars va Abdulloh arab tilini bilar edi.

Abu Sufyon ularga qarata gap boshladi: «Eshitinglar! Ey imperator! Muhammad - Rum qaysarini o'ziga ergashishga da'vat etgan yangi din sohibi» (aynan shu yerda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Abu Sufyon payg'ambarning hayoti to'g'risida to'liq hikoya qilib beradi).[Zaydan, pp. 97-133]

Irakliy eshitganlaridan hayratga tushib, unga minnatdorlik bildiradi va Abu Sufyon hamda elchiga sovg'a-salomlar berib kuzatadi. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, imperator Irakliy islom dinini qabul qilmaydi. Bu tarixiy voqealar asarning «Irakliy», «Shohlarni islomga da'vat qilish», «Abu Sufyon», «Islom dini sohibi» fasllarida batafsil yoritilgan.[Zaydan, pp.97-133]

Bu urushda musulmonlar g'alaba qozonadi. Bu urush tarixda «Muta g'azoti» deb nom oladi. Asarda bu tarixiy voqea «Mo'ta g'azoti» faslida bayon etilgan.[Zaydan, pp. 148-150] Badr jangi» va «Makkaning fath etilishi» kabi islom tarixining yirik voqealarini hikoya qilishga zamin yaratadi. «G'azavot sabablari» va «Katta Badr g'azoti» fasllarida alohida tasvirlagan.[Zaydan, pp. 279-292]

«. . . Birozdan so'ng masjidda odamlar baqirib dedilar: «Rasululloh keldi!», Salmon musulmonlar tomonidan Makkaning fath etilishi yakunlanganiga ishondi. Salmon bilan Hammod ham Rasululloh ko'ringunicha masjidda to'xtab turishdi. Rasululloh masjidga kirdi. Salmon bilan Hammod odamlarning payg'ambarni maqtagan, olqishlagan ovozlari eshitishdi. Salmon bilan Hammod payg'ambar va ul zotning orqasidan esa tuyasining bog'ichini ushlab olgan sahobalaridan birining kirib kelganini ko'rishdi. Rasululloh Ka'baning atrofini yetti marotaba aylandi, har bir aylanganida Hajarul-asvadni tavof qildi. Musulmonlar juda bor ovozda hayqirib, takbir aytardi, Rasululloh ularga jim bo'lishga ishora qildi. Masjidda 360 ta sanam bor edi. Har bir arab qabilasining o'z sanami



bo'lib, barchasining oyoqlari zanjirband qilib, bir-biriga bog'lab qo'yilgandi. Rasululloh sanamlarga yaqinlashib, qo'lidagi tayoq bilan hammasini urib yiqitdi. Muhammad alayhissalom sanamni yiqitayotgan paytda bunday der edi: «Haq keldi, botil yo'qoldi, botil esa yo'qoluvchidir». Salmon bilan Hammod bu voqealarni kuzatib, hayron bo'lib turishardi. So'ngra Rasululloh kofirlarning Ka'ba tomondagi eng buyuk sanami bo'lmish «Habal» ning oldiga borib, uni ham sindirdi. Shuningdek Ka'bada Ibrohim, Ismoil, Iso kabi bir necha nabiyning suratlari bor edi. Rasululloh o'z ummatlariga mana shu suratlarni ham o'chirib chiqishni buyurdi. Sanamlar sindirilib, suratlari o'chirib tashlangach, rasululloh masjid tomonga o'tirdi, uning yoniga sahobalar kelib o'tirishdi. Ularning orasida Abu Bakr Siddiq bor edi. So'ngra Rasululloh Ka'bani ochishni buyurdi va Baytullohga kirib, ikki rakat nomoz o'qidi. . .

Salmon bilan Hammodni Rasulullohning va'z va da'vatlari dahshatga soldi va Salmon Hammodga qarab dedi: «Xudoga qasamki, meni bu payg'ambarning gap-so'zlari hayratga soldi». [Zaydan, pp. 301-312]

Mazkur tarixiy voqealarning chinligini boshqa tarixiy-ilmiy asarlar va manbalar ham tasdiqlaydi.

Demak, ushbu roman asosida biz J.Zaydon islom va arablar, qolaversa, g'assoniylar tarixini imkon qadar haqqoniy tasvirlagan.


Xulosa. Arab tarixiy romani ushbu xalqning milliy o'zligini anglash, milliy ozodlik harakati davrida paydo bo'ldi. Bu davrdagi milliy ozodlik harakatlari ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan ham uyg'unlashib ketdi. Ma'rifatparvarlar mustamalakachilarga qarshi o'z xalqlarining boy tarixiy merosi, madaniyati, ma'naviyatini targ'ib qilish orqali kurashdi. Shu bois, XIX-XX asrlardagi arab adabiyotining barcha janrlari (nazm, nasr, dramaturgiya) tarixiy mavzularni yoritdi. Chunki o'sha davrda adabiyotda tarixiy mavzuning yoritilishi arablarning milliy ozodlik harakatlarida muhim ahamiyat kasb etdi. Tarixiy mavzular tarixdan saboq berish bilan birga ta'lim-tarbiya, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ham targ'ib etdi. Tarixiy mavzu arab xalqiga o'tmishdan saboq olishga, uning yaxshi va yomon tomonlaridan xulosa chiqarish hamda o'sha davrdagi muammolarni hal etishda undan o'rnatqilishga o'rgatdi.

Badiiy shaklda tarixni targ'ib qilgan arab tarixiy romanlarining asoschisi Jo'rji Zaydondir. Jo'rji Zaydon - arab adabiyotida birinchilardan bo'lib tarixiy voqealarni to'qima obrazlar bilan uyg'unlashtirgan yozuvchidir.

Adib o'zi yashagan davr muhitining talabini his qila bildi. U tarixga murojaat etish orqali undan zamonaviy masalalarni hal etishga ko'maklashadigan dalillarni saralab, ularga davrning ilg'or g'oyalari, talablari nuqtai nazardan yondashib, ularni zamonasining xizmatiga bo'ysundirishga harakat qildi. Yozuvchi o'z romanlarida tarixiy mavzularni ma'rifiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirgan holda, arab xalqini o'z tarixi va o'tmishi bilan tanishtirishga intilib yashadi.

J. Zaydon o'z tarixiy romanlarini keng ommaga mo'ljallab yozdi. U badiiy asarlarida tarixni haqqoniy tasvirlash bilan birga, o'quvchilarni romanga qiziqtirish maqsadida uning syujetiga muhabbat sarguzashtlarini kiritdi. Yozuvchi romanlarda tarixiy voqealarni, tarixiy shaxslarni jonlantirish maqsadida to'qima obraz va voqea-hodisalardan juda mohirona foydalandi.

J. Zaydon «G'asson amirligining qizi» hamda «Karl va Abdurahmon» romanlarida tarixiy voqealarni qadimiy hujjatlarda qanday qayd qilingan bo'lsa, shunday tasvirladi. Ushbu asarlardagi to'qima voqea-hodisalar esa tarixiy faktlarga mutlaqo zid emas, aksincha, ularni aniqlashtirish va boyitishga, ularning o'quvchiga tushunarli bo'lishiga zamin yaratadi.





ПРЕДПОСЫЛКИ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РАССКАЗА НОВОГО ТИПА

НАРГИЗА САИДОВА

Доцент, Ph.Dm ТГУВ

Abstract. This article examines the prerequisites and factors behind the development of a new type of Saudi Arabian literature. At the beginning of the 20th century, the Arabian Peninsula still maintained a socio-economic structure that had been established in the Middle Ages, and spiritual life was largely determined by tribal relations. The worldview of writers remained narrow, and their social views were limited. In terms of artistic style, similar to their predecessors from ancient times, they followed national traditions, which they "reworked" slightly, adapting them to the demands of their time. The diverse changes in public life dictated the need for new forms in the field of artistic creation.

Keywords: Syro-American group, Saudi poetry, Hejaz, lyrical upsurge, rhetoric, abundance of imagination, periodicals, journalistic essays, didactic story, realistic movement, elements of sentimentalism, logical structure, artistic style, social conflicts.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Saudiya adabiyotida yangi turdagi asarlarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar va omillar ko'rib chiqilgan. XX asr boshlarida Arabiston yarimorolida o'rta asrlarda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum saqlanib qolgan bo'lib, ma'naviy hayot asosan qabila-urug'chilik munosabatlari bilan belgilanardi. Adiblar dunyoqarashi tor, ijtimoiy qarashlari cheklangan edi. Badiiy jihatdan, ular qadimiy ajdodlari singari, milliy an'analarga amal qilib, ularni o'z davrining talablariga moslashtirish uchun unchalik ko'p «o'zgartirishmagan». Ijtimoiy hayotdagi turli xil o'zgarishlar badiiy ijod sohasida yangi shakllarga ehtiyoj tug'dirdi.

Kalit so'zlar: Suriya-Amerika guruhi, Saudiya she'riyati, Hijoz, lirik yuksalish, ritorizm, boy tasavvur, davriy matbuot, publitsistik ocherklar, didaktik hikoya, realistik yo'nalish, sentimentalizm elementlari, mantiqiy tuzilish, badiiy reja, ijtimoiy mojarolar.

Аннотация: в данной статье рассматриваются предпосылки и факторы развития нового типа в саудовской литературе. В начале XX столетия на Аравийском полуострове ещё сохранялся общественно – экономический уклад, сложившийся в средние века, и духовная жизнь определялась в основном родоплеменными отношениями. Жизненный кругозор литераторов оставался узким, социальные взгляды – ограниченными. В художественном плане, подобно своим предшественникам из стародавних времён, они следовали национальным традициям, которые незначительно «перерабатывали», приспособлявая их к запросам своего времени.

Многообразные изменения в сфере общественной жизни диктовали необходимость новых форм в области художественного творчества.

Ключевые слова: сиро-американская группа, саудовская поэзия, Хиджаз, лирический подъём, ritorizm, обилие воображения, периодическая печать, публицистические очерки, дидактический рассказ, реалистическое направление, элементы сентиментализма, логичность построения, художественный план, социальные конфликты.

Введение. В силу ряда объективных обстоятельств Аравия в течение длительного времени была отрезана от внешнего мира и лишена возможности общения с его цивилизацией, что привело к значительному отставанию социально – политического и культурного развития аравийского общества от других арабских стран.

В начале XX столетия, когда Египет и Сирия переживали бурные процессы политического, экономического и культурного расцвета, на Аравийском полуострове, раздробленным на несколько независимых и враждующих между собой мелких княжеств, сохранялся



общественно – экономический уклад, сложившийся в средние века и духовная жизнь определялась родоплеменными отношениями.

Известный египетский прозаик Мухаммад Хусейн Хайкал (1888 – 1956гг.) отмечал, что многие историки, публицисты, литературоведы и другие учёные, не желая умалять достоинство народа, на территории которого расположены величайшие святыни исламского мира, предпочитали обходить стороной обсуждение темы развития аравийского общества, именно по причине его крайней социально – экономической отсталости (Muhammad Husayn Haykal. In the House of Revelation. Dar al-Kutub al-Misriyah, Cairo. 1937; pp. 9-10).

Арабская исследовательница истории ислама Аиша Абд ар-Рахман (1912 – 1998гг.), более известная в литературных кругах как египетская писательница Бинт аш-Шати писала: «В течение прошедших четырнадцати веков сотни тысяч паломников посетили два священных мусульманских города Мекку и Медину, но они не решались переступить границы Хиджаза, и поэтому аравийская пустыня долгое время продолжала хранить глубокое молчание, скрывая свои вековые тайны» (Bint al-Shati'. Land of Miracles: A Journey in the Arabian Peninsula. Dar al-Ma'arif. Cairo. 1969; p. 26.).

Изоляция от внешнего мира явилась не только основной причиной социально-политического отставания аравийского общества, но и обусловила главенствование на Аравийском полуострове поэзии, истоки которой восходят к бедуинской лирико-эпической поэзии V – VII веков нашей эры (I.M. Filshinsky. Arabic Literature in the Middle Ages. Moscow, 1977, - P. 20-105.), которая вплоть до XX века была эталоном подражания для поэтов многих арабских стран. Именно здесь были созданы знаменитые шедевры доисламской поэзии: муаллаки Имруль Кайса, Тарафы, Антары и других поэтов джахилийского периода, вошедшие в сокровищницу арабской поэзии.

В течение длительного исторического промежутка времени аравийские поэты, неукоснительно следуя определённым нормам поэтического творчества, ограничивались незначительной «переработкой» установленных многовековой традицией сюжетов и мотивов, чтобы приспособить их к запросам своего времени. Подобное сохранение традиций предопределило устойчивость канонов и явилось, в частности, основной причиной недостаточно полного, с точки зрения критического литературоведения, развития современных форм художественного творчества в саудовской литературе (Khojaeva R.U. Egyptian Poetry in the First Half of the XX Century: Evolution of Artistic Consciousness. Author's abstract of doctoral dissertation. Tashkent, 1994).

Результаты. Начало просветительского движения в странах Аравийского полуострова пришлось на первую половину XX века, практически на век позже, чем в передовых в культурном отношении арабских странах - Сирии, Египте, Ливане - и имело значительные различия, как в реализации, так и в задачах от аналогичного процесса культурного подъёма в этих странах.

В передовых в культурном отношении арабских странах просветительские идеи, получившие название «ан-Нахда», развивались поэтапно, подвергаясь постепенным качественным изменениям, что позволяет исследователям выделять периоды ранней или поздней эпохи Просветительства. Основная задача просветителей состояла в том, чтобы догнать ушедшие далеко вперёд в общественно – экономическом и культурном развитии европейские страны. В узком смысле «ан-Нахда» понималась ими «как культурный процесс путём возрождения старинного арабского наследия и использования его для нужд современности» (А.А. Dolinina.



Essays on the History of Modern Arabic Literature: Egypt and Syria. The Enlightenment Novel 1870-1914. Moscow: "Nauka", 1973. - P. 4.).

В арабской литературе эпохи Просвещения сформировались такие прозаические жанры: как новый рассказ, новый роман, очерк, эссе. В литературе нового времени жанр рассказа сложился раньше, чем другие прозаические жанры

Жанр рассказа с первых дней своего появления является одной из самых притягательных форм художественного отражения окружающей действительности.

1. Новый жанр литературного творчества продолжает не только успешно развиваться в художественном плане, но и делает большой вклад в социально – общественное развитие общества, к которому принадлежит писатель. Известный саудовский литературовед профессор Мансур Ибрахим аль-Хазими (Mansour Al-Hazimi. Beginnings and Foundation. Encyclopedia of Modern Saudi Literature. Riyadh. 2001. p. 56) автор энциклопедии современной Саудовской литературы, опубликованной издательством «Дар ал - Муфрадат» в 2001 г. в Эр-Рияде, даёт свою периодизацию возникновения и становления жанра рассказа в Саудовской литературе, которая определяется в три этапа:

1. Первый этап: «начало и учредительный этап» (1902 – 1953гг.).
2. Второй этап – это этап «обновления» 1954-1970гг.;
3. Третий этап «модернизация» 1971- 2001гг.

Вопросом периодизации становления и развития жанра рассказа занимались многие ученые, например: Абдурахман аль-Амуди, но мы взяли за основу принцип периодизации, предложенный Мансуром Ибрагимом аль-Хазими, так как Мансур Ибрагим аль-Хазими дал данному вопросу научное обоснование в энциклопедической книге "Энциклопедия современной саудовской арабской литературы", а так же соответствует выводам сделанным на основе проведенного нашего научного исследования.

В начале просветительского движения Аравийского полуострова, раскинувшиеся на его огромной территории, на отдалённом расстоянии друг от друга княжества имели различный уровень культурного развития. В главных городах исламской религии - Мекке и Медине, расположенных в самой крупной провинции Османской империи - Хиджазе, имелись типография, сельскохозяйственное училище и издавались газеты. Основной причиной этому являлось паломничество, которое также способствовало возникновению в Хиджазе мануфактур и росту торгового капитала. Образование на арабском языке было ограничено: кроме куттабов и четырёх светских школ, две из которых были расположены в Мекке, одна в Джидде, и четвёртая в Медине, обучение велось на турецком языке. Все вышеупомянутые учебные заведения являлись частными. Преподавание на турецком языке было прекращено только в 1916 году, в связи с распадом Османской империи и обретением независимости Хиджаза, хотя это не привело к реформации сферы культуры и образования, так как новый правитель Хиджаза – шериф Мекки Хусейн ибн Али - был больше занят борьбой за сохранение власти, чем решением социальных проблем.

Население Неджа – центральной области Саудовской Аравии - состояло преимущественно из бедуинов и крестьян, и было безграмотным.

Аль-Ахса, расположенная на востоке Аравийского полуострова, и в настоящее время входящая в состав Восточной провинции Саудовской Аравии, испытывала влияние персидской и индийской культур, и, соответственно этому, состоятельные жители этой области посылали своих сыновей учиться в Иран или Индию.



В силу этих обстоятельств, перед идеологами аравийского просветительства стояла задача не «догнать» европейские страны, а путём форсированного культурного и общественно - социального развития аравийского общества преодолеть полувековое отставание от других арабских государств.

Значительный вклад в продвижении просветительских идей на Аравийском полуострове, как это также имело место в передовых арабских странах, внесла пресса, ставшая основным орудием подготовительного этапа просветительства.

Первая официальная газета, носившая имя самой провинции - «Хиджаз», была основана в Мекке в 1908 году в период правления Османской империи (Mansour Al-Hazimi. *Beginnings and Foundation. Encyclopedia of Modern Saudi Literature. Riyadh. 2001. p. 113*). Первая и четвёртая страницы газеты издавались на арабском языке, вторая и третья страница на турецком. Газета носила информационный характер: её содержание составляли различные объявления, сообщения, освещались события локального значения и т.п. На арабской странице газеты был отведена отдельная колонка для литературных заметок, где часто печатались касыды известных египетских поэтов того времени Ахмеда Шауки (1868 – 1932гг.) и Хафиза Ибрагима (1870 – 1932гг.). Касыды предварялись критическими замечаниями относительно своего содержания и композиции. Способствуя ознакомлению читателей с культурной жизнью других арабских стран, газета «Хиджаз» сыграла значительную роль в продвижении просветительских идей на Аравийском полуострове. Газета «Хиджаз» прекратила своё существование в 1916 году после начала антитурецкого восстания, вспыхнувшего в Хиджазе во время первой мировой войны.

Кроме газеты «Хиджаз», в эти же годы в Мекке издавалась газета «Шамс ал-хакика». Газета не имела официального статуса, что позволяло ей рассматривать на своих страницах различные общественно – политические проблемы, обсуждение которых избегала «Хиджаз», что предрешило её недолгое существование, хотя газета пользовалась большой популярностью среди населения.

В 1909 году в городе Джидда стала издаваться неофициальная газета «Аль-Ислах аль-хиджази», принадлежавшая выходцу из Сирии, редактор газеты также происходил родом из другой арабской страны – Ливана. На её страницах публиковались политические и литературные статьи.

Большое значение для становления идей просветительства на территории Аравийского полуострова имела официальная газета «Аль-Кибла», основанная в 1916 году в Мекке (Mansour Al-Hazimi. *Beginnings and Foundation. Encyclopedia of Modern Saudi Literature. Riyadh. 2001. p. 113*) во время борьбы за независимость Хиджаза. «Аль-Кибла» внесла большой вклад в развитие новых художественных форм литературы и культурной мысли на Аравийском полуострове. Газета стала рупором идей национально – освободительной борьбы против Османской империи и европейского колониализма, она была изданием общеарабского масштаба, на страницах которого публиковали свои произведения арабские писатели, что давало местной интеллигенции широкие возможности для взаимодействия с творческой элитой других арабских стран, в особенности, Египта и Сирии.

В 1920 году в Мекке стала издаваться газета «Аль-Феллах», основанная сирийским эмигрантом Умаром Шериком, сбежавшим из Сирии от французских колонизаторов, приговоривших его к смертной казни (Mansour Al-Hazimi. *Beginnings and Foundation. Encyclopedia of Modern Saudi Literature. Riyadh. 2001. p. 120*).

Большую роль в процессе распространения просветительского движения на Аравийском полуострове сыграла основанная в 1924 году в Мекке официальная газета «Умм аль-Кура»



(Mansour Al-Hazimi. *Beginnings and Foundation. Encyclopedia of Modern Saudi Literature*. Riyadh. 2001. p. 120), редактором которой являлся сирийский иммигрант Юсуф Ясин (1892 – 1962 гг.) Объём газеты не был строго регламентирован: началась она издаваться с четырёх, затем увеличилась до восьми и, позже, двенадцати страниц. Газета «Умм аль-Кура» была единственным печатным органом, который продолжал издаваться в годы второй мировой войны, в то время как все другие издательства были закрыты из-за острого дефицита бумаги, хотя по этой же причине газета была вынуждена сократить число своих страниц до первоначального объёма. Это была официальная газета, подробно освещавшая общественные и экономические реформы, проводимые правительством, культурные мероприятия и многое другое. Некоторое внимание уделялось в газете и литературным проблемам, в частности аспектам классической поэзии.

В 1927 году в Мекке был основан журнал «ал-Нида аль-Ислами». Редакцию журнала возглавлял один из улемов университета аль-Азхар шейх Мухаммед Хамид аль - Факи, и соответственно этому, журнал имел религиозную направленность.

Большинство арабских и европейских исследователей связывают начало процессов просветительства на Аравийской полуострове с именем основателя государства Саудовской Аравии Абд аль-Азиза ибн Абд ар-Рахмана ибн Сауда, известного в европейских странах, как Ибн Сауд (1880 – 1953 гг.). В 1902 году Ибн Сауд начал борьбу за создание единого независимого государства в Аравии, и к концу 20-х годов сумел добиться успеха: в 1921 году он захватил эмират Джебель - Шаммар, в 1922 году установил контроль над Асиром, в 1925 году завоевал Хиджаз, и был официально объявлен королём Хиджаза, султаном Неджда и присоединённых областей (The Latest History of Arab Countries in Asia. Moscow: Nauka, 1988. - p. 343).

Талантливый государственный деятель и дальновидный политик Ибн Сауд поставил перед собой цель создания экономически независимого сильного аравийского государства, и, с первых дней своего правления, решительно проводил реформы, способствующие развитию системы современного образования, экономики, науки, повышению общего культурного уровня населения, просвещению широких народных масс.

Несмотря на финансовые трудности, с которыми столкнулось молодое государство на заре своего становления, в 1926 году в стране был учреждён директорат просвещения, повсеместно открывались новые школы, острая нехватка педагогического персонала решалась путём практики приглашения недостающих учителей из других арабских стран. Для понижения уровня общей безграмотности в 1927 году был организован Саудовский педагогический институт, который в течение трёх лет готовил преподавателей для начальных школ. В 1928 году на учёбу в Египет была отправлена первая студенческая группа молодёжи.

В 1932 году, согласно изданному в Эр-Рияде декрету, Неджд и Хиджаз были объединены в единое государство, названное Саудовской Аравией (The Latest History of Arab Countries in Asia. Moscow: Nauka, 1988. - p. 347).

Абд ал- Азиз ибн Сауд стал королем Саудовской Аравии, и продолжил реформаторскую политику, направленную на становление национальной государственности, и развитие независимой процветающей страны. Процесс объединения позволил просветительскому движению охватить все отдалённые провинции Аравийского полуострова, и подготовил благоприятную почву для повсеместного распространения новых культурных тенденций в каждой области, что способствовало культурному взаимодействию, как между самими провинциями, так и с другими странами мира.



Уже в 1935 году в Мекке было открыто учебное заведение, специализирующееся в подготовке выпускников Саудовского педагогического института к дальнейшей учёбе за границей, где с этой целью их, в первую очередь, обучали английскому языку, а затем химии и другим естественным наукам.

Ибн Сауд придавал большое значение созданию национальной прессы, как наиболее действенному фактору развития молодого государства.

2. В 1932 году Мухаммад Салих Насифом (1896 – 1973гг.) была учреждена газета «Савт аль-Хиджаз», ответственным редактором газеты являлся известный просветитель Абд аль-Баххаб Аши (1902 – 1984гг.) (Encyclopedia of Modern Saudi Arabic Literature: Selected Texts and Studies. Volume Nine. Biographies of Authors, Index of Prominent Figures, Sources and References. Riyadh. p. 116.). «Савт аль-Хиджаз» сыграла большую роль в процессе становления современной саудовской литературы: редакция газеты всячески поощряла развитие прозаических жанров, и предоставляла молодым литераторам свои страницы для публикаций их литературной продукции: переводов, статей, рассказов. В 1936 году руководство газеты перешло к арабскому комитету издательства и печати, сформированному в целях поощрения и поддержки местных авторов периодической печати (Mansour Al-Hazimi. Beginnings and Foundation. Riyadh. 2001, p. 116.). В 1937 году председателем комитета был назначен один из лидеров аравийского просветительства известный литератор Ахмад Сибаи (1901 – 1985гг.). Ахмад Сибаи возглавил редактирование газеты, что ещё более способствовало её популярности. Он публиковал в «Савту аль-Хиджаз» свои короткие рассказы, и писал статьи, которые, чаще всего, создавал в юмористическом ключе, высмеивая в них устаревшие обычаи, бытующие в обществе, и архаичные порядки, оставшиеся от правления Османской империи. Будучи преподавателем в начальной школе, Ахмад Сибаи в 1951 году издал первый в Саудовской Аравии учебник по основам чтения литературного арабского языка и (Ahmed Al-Sabā'ī. Ladder of Arabic Reading. Al-Bāb Al-Ḥalabī Library. Cairo, 1951, p.71).

Он также владел небольшим театром, где его ученики давали представления, направленные против предрассудков и пережитков арабского общества, тормозящих его поступательное развитие. В 1959 году в Мекке Ахмад Сибаи учредил журнал литературы и культуры «Курайш», основными целями которого являлось способствование раскрытию художественного дарования начинающих литераторов (Mansour Al-Hazimi. Beginnings and Foundation. Riyadh. 2001, p. 150.). Журнал предоставлял молодым писателям неограниченные возможности для публикации своих произведений. Ахмад Сибаи был одним из первых просветителей, кто оказал влияние на изменение культурных взглядов саудовского общества в целом, и отношения к литературе в частности, и он по праву входит в число основателей жанра современного рассказа. В 1984 году Ахмад Сибаи был награждён государственной премией за свой выдающийся вклад в развитие саудовской литературы.

В 1941 году в связи с началом второй мировой войны газета «Савту аль-Хиджаз» была вынуждена закрыться, и стала издаваться вновь под названием «Ал-Билад ас-Саудийя» с 1946 года. Редакцию новой газеты в течение одиннадцати лет (1944 – 1955гг.) возглавлял Абдаллах Урайф (1917 – 1977гг.), который ранее обучался в Каире, и на него большое влияние оказала египетская журналистика. Газета сохранила свои прежние традиции в поддержке развития жанра рассказа, и всячески поощряла творческое начало молодых литераторов. Урайфу принадлежала идея печатанья в газете отдельных частей рассказа, с предложением к читателям высылать свои варианты окончательного финала, лучшие из которых публиковались в последующих номерах.



В 1935 году в Медине братьями Али и Усманом Хафиз была основана газета «Аль-Мадина аль-Мунаввара». Газета уделяла определённое внимание литературным вопросам, чаще всего, относящимся к жанру поэзии, но также предоставляла свои страницы для публикации произведений молодых писателей.

Первая нефть в коммерческих количествах была обнаружена на территории Саудовской Аравии в марте 1938 года (Primakov E.M. and Lebedev E.A. The Latest History of Arab Countries in Asia. M. Science 1988, p. 352). В связи с началом Второй мировой войны разработка нефтяных месторождений началась намного позже - в 1946 году, но с тех пор нефть стала основным источником богатства и процветания государства.

Нефтяной фактор поставил Саудовскую Аравию на совершенно особое место среди других стран региона. Экономический бум, происшедший в связи с разработкой колоссальных запасов мировой нефти, способствовал продолжению процессов изменения общественно-политической жизни саудовского общества. Правительством были приняты программы дальнейшего социально-экономического и культурного развития, на реализацию которых расходовались колоссальные средства. Саудовское общество вступило в новый период своего развития.

В 1954 году было создано Министерство образования, а в 1957 году в королевстве появился первый университет, названный в честь сына основателя государства Университетом Короля Сауда. К концу XX столетия в Саудовской Аравии установилась система, предоставляющая всем гражданам бесплатное образование - от дошкольного до высшего.

Обсуждение. Большое значение для продвижения просветительских идей и становления новых форм художественной литературы имела творческая деятельность просветителя Абд аль-Куддуса Аль-Ансари (1906 – 1983 гг.). Аль-Ансари совмещал должность преподавателя литературы в религиозном учебном заведении «Мадрасат ал-улум аш-шарийа» («Школа религиозных наук») с работой журналиста. Он является автором ряда книг, множества стихов, газетных статей и большого числа курсов лекций, которые он писал для созданного в 1936 году в Мекке «Общества благотворительной помощи» (Mansour Al-Hazimi. Beginnings and Foundation. Riyadh. 2001p. 131). Членами общества были известные публичные деятели из числа врачей, учёных, литераторов, журналистов, которые стремились путём популяризации достижений мировой цивилизации в области науки и культуры, повысить общий образовательный уровень населения Саудовской Аравии.

Абд аль-Куддусу Аль-Ансари принадлежит пальма первенства в попытке создания первого повествовательного произведения в саудовской литературе - «التوائم» («Близнецы»), опубликованного в 1930 году в Дамаске.

В 1937 году Абд аль-Куддус Аль-Ансари учредил журнал «Аль-Манхал», огромное значение которого для становления литературы нового типа, подчёркивают в своих научных работах все исследователи саудовского рассказа (Dr. Huseyin Yazici. The short story in modern Arabic literature. Cairo 2004. p. 163). Аль-Ансари вместе с Ахмадом Рида Хуху – редактором «Аль-Манхал», стремились к публикации на страницах журнала переводов литературных произведений с различных языков: турецкого, русского, французского, английского, японского и других. Приобщение к опыту мировой литературы давало возможность начинающим саудовским литераторам знакомиться с её лучшими образцами, способствовало повышению их художественного мастерства, формированию более глубокого видения и оценки событий реальной действительности. На страницах «Аль-Манхал» также печатались теоретические статьи, знакомящие с жанром рассказа и его особенностями. Редакторы журнала были увлечены этим новым для саудовской литературы видом художественного творчества, и

отдавали все свои силы на его развитие и популяризацию среди читателей. Много места отводилось в журнале рецензиям, оценке и анализу публикуемых рассказов, что вело к постепенному зарождению литературной критики.

В февральском номере журнала 1948 года редакция «Аль-Манхал» провозгласила свою основную цель: «поднять саудовскую литературу с уровня газетных статей и классических касыд на новую ступень» (Mansour Al-Hazimi. *Beginnings and Foundation. al-Bidāyah wa al-Ta'sīs*. Riyadh. 2001p. 132). Для осуществления этой цели редакция журнала выдвинула идею созыва регулярных встреч литераторов и известных общественных деятелей для обмена мнений по вопросам развития литературы и общей культуры саудовского общества. Первая из этих встреч произошла в том же году в редакции «Аль-Манхал».

3. Число рассказов и пьес, опубликованных в «Аль-Манхал» до 1960 года, достигает ста двадцати пяти произведений (Mansour Al-Hazimi. *Beginnings and Foundation. al-Bidāyah wa al-Ta'sīs*. Riyadh. 2001p. 139). В своих воспоминаниях по случаю юбилейного выпуска журнала «Аль-Манхал» в 1960 году Аль-Ансари писал: «С первых дней своего выхода в печать журнал способствовал становлению жанра рассказа в саудовской литературе. Почти в каждом номере публиковались один, или даже два-три коротких рассказа. Мы осознавали, что, во-первых, жанр рассказа является важнейшей составной частью современной мировой литературы, и, во-вторых, что наша национальная литература находится на периферии этого жанра» (Abd al-Quddus al-Ansari. *The Silver Book: Al-Manhal in 25 Years (1937-1960)*. Dar al-Ulum, Riyadh. 1962. p. 138.).

Журнал дал возможность печататься многим молодым писателям, которые беспрепятственно помещали свои произведения на его страницах. Эту традицию «Аль-Манхал» сохранил до настоящего времени, в каждом его номере печатаются один или несколько новых рассказов, а также критические эссе, принадлежащие перу начинающих авторов, как из самой Саудовской Аравии, так и вне ее пределов.

Журнал «Аль-Манхал» явился первым официальным печатным органом, который на своих страницах публиковал произведения авторов-женщин, и с неуклонной последовательностью твёрдо отстаивал право мусульманской женщины на творческую деятельность. Позже, в своих мемуарах Аль-Ансари вспоминал, какую бурную волну общественного негодования ему пришлось выдержать после первой публикации в журнале статьи о женском литературном творчестве, и повсеместно доказывать, что деяния женщин не отрицаются в исламе.

В 1953 году было основано одно из самых солидных периодических изданий в Саудовской Аравии - газета «Ар-Рияд». Газета уделяла значительное внимание вопросам развития прозаических жанров. Печатая на своих страницах отзывы и рецензии на опубликованные ранее рассказы, газета способствовала развитию критического литературоведения.

В 1954 году обладатель государственных премий, известный общественный деятель журналист Хамад аль-Джасир (1908-2001гг.) (*Encyclopedia of Modern Saudi Arabic Literature: Selected Texts and Studies*. Riyadh. p. 116.) учредил литературный журнал «Ал-Ямама», основной целью которого являлась пропаганда новых идей культуры и литературы, и вовлечение читателей в процессы обновления саудовского общества. Уже в первом номере журнала Хамад ал-Джасир предложил читателям предоставить свои варианты «рассказа» о влиянии традиций на социальное развитие в Саудовской Аравии.

Из других популярных журналов можно назвать учрежденный в 1953 году журнал «Кафилят аз-Зайт», в состав редакционной коллегии которого входил автор романа «Ла такул видаан» («Не говори прощай») Сайф ад-Дин Ашур (1917- 2002гг.) (Dar Al-Mufradat for



Publishing and Distribution. Dār al-Mufradāt lil-Nashr wa al-Tawzī'. Riyadh. p.70). Несмотря на то, что журнал принадлежал нефтяной компании АРАМКО, и в центре его внимания всегда находились вопросы экономики, связанные с добычей нефти, редакция журнала «Кафилят аз-Зайт» уделяла большое внимание проблемам развития литературного процесса в Саудовской Аравии. В журнале публиковались рецензии, критические анализы и обзоры произведений художественной литературы. Корреспонденту именно этого журнала Абд аль-Куддус Аль-Ансари дал интервью, в котором поделился с молодыми писателями творческим опытом в создании своего произведения «Близнецы», и высказался о перспективах развития жанра романа в Саудовской Аравии (Ali Al-Damin. "Conversation in Literature." 1980. p. 15.)

В 1955 году был учреждён ежемесячный журнал «Ал-Идха ас-Саудийа», редактором которого являлся известный саудовский просветитель и писатель Хамза Бокари (1932 – 1983 гг.). По возвращению из Египта после завершения обучения в Каирском университете, Хамза Бокари целиком посвятил себя становлению жанра малой прозы в саудовской литературе. Он печатал в журнале свои литературные произведения, и поощрял начинающих писателей предоставлять свои работы для публикаций, предлагая вознаграждение в двадцать пять риалов за каждый присланный рассказ (Hamza Muhammad Bougary. "Madha Yasnī." Al-Idhah Al-Saudi (Saudi Sacrifice) 1956. p. 11).

В ноябре 1963 года, согласно королевскому указу под номером четыреста восемьдесят два, большинство периодических изданий было закрыто, в связи с их отказом от национализации и переходом на полуофициальный статус. Королевский указ также предусматривал создание новых еженедельных и ежемесячных журналов литературы и культуры, в числе которых были учреждены еженедельные журналы «Икра» (1974 г.) и «Аш-Шарк» (1979); ежемесячные журналы «Ал-Араб» (1966 г.) и «Фейсал» (1976 г.). Из прежних периодических изданий на сегодняшний день остались журналы «Аль-Манхал», «Аль-Ямама», «Кафилят аз-Зайт» и газета «Ар-Рияд».

Значительную роль в процессе становления жанра рассказа в саудовской литературе сыграли иммигранты из других арабских стран, которые прибыли в Саудовскую Аравию по приглашению правительства. Они знали английский и французский языки, кроме того, они были хорошо знакомы с творчеством мастеров западного рассказа и многих русских писателей, перенимали сюжеты их произведений, приспособливая их к своей национальной специфике. Особо, в данном случае, следует отметить роль Ахмада Рида Хуху (1909 – 1956 гг.) – редактора журнала «Аль-Манхал», прибывшего в 1934 году в Саудовскую Аравию из Алжира для обучения в религиозном учебном заведении «مدرسة العلوم الشرعية» («Школа религиозных наук»), и оставшегося там работать после завершения учебы. Некоторые арабские исследователи считают Ахмада Хуху основателем жанра короткого рассказа в Алжире (Abdullah Raqqoub. *Rebellious Souls*. Cairo, 1962. p. 20), другие, принимая во внимание, что основные годы творческой деятельности Хуху пришлись на время проживания в Саудовской Аравии, причисляют его к числу основателей жанра саудовского рассказа (Mansour Al-Hazimi. *The Art of the Short Story in Modern Saudi Literature*. Riyadh. 1999. p. 93). В период с 1937 по 1940 годы Ахмад Хуху опубликовал в «Аль-Манхал» одиннадцать рассказов, которые впоследствии вошли в состав двух сборников: «مع حمار الحكيم» (Вместе с ослом мудреца) и «صاحب الوصي» («Приятель душеприказчика») (Sahmi Al-Hajri. *The Contemporary Short Story in the Kingdom of Saudi Arabia*. Riyadh. 1987. p. 118). В 1947 году он опубликовал в журнале «Аль-Манхал» свой роман «غادة أم القرى» («Девушка из Мекки»). Перу Ахмада Хуху также принадлежит множество переводов с французского языка, которые он помещал в журнале «Аль-Манхал» и на страницах



газет «Аль-Мадина аль-Мунаввара» и «Савт ал-Хиджаз» (Mansour Al-Hazimi. Beginnings and Foundation. Riyadh. 2001p. 137).

Другим иммигрантом, творческая деятельность которого имела большое значение для развития саудовской прозы, является Мухаммед Алим аль-Афгани. К сожалению, мы не располагаем достаточными сведениями о его биографии, известно лишь, что он прибыл в Саудовскую Аравию из Афганистана для преподавательской работы. Согласно исследованиям саудовского критика Сухми аль – Хаджири, в период с 1937 по 1940 годы в журнале «Аль-Манхал» было напечатано четырнадцать рассказов аль-Афгани (Sahmi Al-Hajri. The Contemporary Short Story in the Kingdom of Saudi Arabia. Riyadh. 1987. p. 146). Сухми аль – Хаджири указывает, что аль-Афгани хорошо владел восточными языками, в частности, урду, в качестве доказательства критик ссылается на опубликованные «Аль-Манхал» переводы аль-Афгани. В своём исследовании саудовский критик также утверждает, что Аль-Афгани свободно говорил на английском языке, читал на нём рассказы русских писателей Н.В. Гоголя и А.П. Чехова, и ему принадлежит перевод с английского языка рассказа Чехова, опубликованного в 1948 году в газете «Аль-Билад ас-Саудиййа» (Sahmi Al-Hajri. The Contemporary Short Story in the Kingdom of Saudi Arabia. Riyadh. 1987. p. 147).

Заключение.

1. Традиционная поэзия на протяжении многих веков продолжала оставаться преобладающим видом художественной словесности на Аравийском полуострове, вследствие, общественно – политического и социально – экономического отставания аравийского общества от других арабских стран;

2. Первоначальный этап просветительства на Аравийском полуострове пришёлся на начало XX века в 1910 – 1916 годы в период турецкого владычества, задолго до наступления эпохи «нефтяного бума», и связан с появлением первых печатных изданий на территории самой крупной и развитой провинции Османской империи Хиджазе.

3. С приходом к власти Абд ал-Азиза ибн Абд ар-Рахмана ибн Сауда с 1926 года началось повсеместное распространение просветительских идей, которое продолжалось вплоть до шестидесятых годов XX века. Годы правления ибн Сауда явились основным катализатором и дали мощный толчок развитию саудовского общества;

4. Иммигранты из арабских стран оказали большое влияние на развитие просветительского движения и процессы литературного обновления на Аравийском полуострове;

5. Основным орудием идеологов аравийского просветительства стали периодические издания.

6. Главной и основной задачей авторов было просвещение населения и пропаганда новых исторических ценностей – образования, реформ, обновления тех сторон жизненного уклада, которые тормозили развитие саудовского общества;

7. Национальная пресса сыграла важную роль в процессе становления художественной прозы нового типа в саудовской литературе, явившаяся проводником просветительских идей на Аравийском полуострове.

8. Постепенное развитие жанра рассказа происходило именно в русле просветительно – реформаторских воззваний в газетных и журнальных статьях, а также в других публицистических жанрах, которые преобразовывались в учебные, общеобразовательные и художественные произведения, объединяемые под названием просветительской литературы.

9. Периодические издания уделяли внимание литературным вопросам, и осуществляли первые публикации ранних рассказов в своих очередных выпусках или специальных изданиях,



что делало произведения зачинателей жанра доступными для широкой аудитории. В еженедельных газетах и приложениях печатались рецензии и критические статьи;

10. Идеалистические представления идеологов аравийского просветительства явились зачинателями жанра и не могли служить основой для художественного обобщения при объективном изображении реальной конкретной жизни.

Все вышеперечисленные факторы общественно - политического и социально – экономического развития саудовского общества способствовали выходу литературы из рамок классических канонов, ограниченных жанрами касыд и макама, и вели к становлению художественной прозы нового типа.



ZAMONAVIY MISR YOZUVCHISI SALVA BAKR QAHRAMONLARINING IJTIMOIIY HAYOTIDA DINIY ONGNING IN'IKOSI

NASIBA UMAROVA

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya. Adabiyot insoniyat ma'naviy dunyosining in'ikosi bo'lib, unda ijtimoiy, madaniy va diniy qadriyatlar o'z ifodasini topadi. Zamonaviy arab ayol yozuvchilari orasida Salva Bakr ijodi alohida o'rin tutadi. Uning "أرانب" "Quyondalar" romani jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlarida yashovchi odamlar hayotini tasvirlash orqali islomiy qadriyatlarning kundalik hayotda aks etishini, shuningdek, ichki ruhiy g'alayon va diniy najot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Islomning ahamiyati og'ir turmush tarzi va qashshoqlikka qaramay, imon tufayli o'zligini saqlab qolgan musulmon oilasi timsolida namoyon bo'ladi. Qahramonlarning diniy qadriyatlarga asoslangan ichki dunyosi ularning jamiyatdagi cheklovlariga qarshi ma'naviy tayanchi sifatida tavsiflanadi. Ushbu maqolaning maqsadi - Misrdagi mayda xizmatchi oilasida islom dini dunyoqarash, kundalik hayot va qadriyatlar tizimini qanday shakllantirganini roman obrazlari orqali ochib berishdan iborat.

Tayanch iboralar: Salva Bakr, islomiy qadriyatlar, imon, tavakkul, taqdir, chorasizlik, sabr, shukronalik, ibodat, diniy marosimlar, diniy ong.

Abstract. Literature is a reflection of humanity's spiritual world, in which social, cultural, and religious values find their expression. Among contemporary Arab women writers, Salwa Bakr's work holds a special place. Her novel "أرانب" (Rabbits) shows the reflection of Islamic values in everyday life through the depiction of people's lives living in low-income segments of society, as well as the connection between inner spiritual turmoil and religious salvation. The significance of Islam is demonstrated through the image of a Muslim family that, despite its difficult lifestyle and poverty, has preserved its identity through faith. The inner world of the heroes, based on religious values, is described as their spiritual support against limitations in society. The purpose of this article is to reveal through the characters of the novel how Islam shapes the worldview, daily practices, and system of values in the family of a minor servant in Egypt.

Keywords: Salwa Bakr, Islamic values, faith, trust, destiny, helplessness, patience, gratitude, prayer, religious rituals, religious consciousness.

Аннотация. Литература является отражением духовного мира человечества, в котором находят свое выражение социальные, культурные и религиозные ценности. Среди современных арабских женщин-писательниц особое место занимает творчество Сальвы Бакр. Ее роман ("أرانب") Кролики показывает отражение исламских ценностей в повседневной жизни через изображение жизни людей, живущих в малообеспеченных слоях общества, а также связь между внутренним духовным смятением

и религиозным спасением. Значимость ислама демонстрируется через образ мусульманской семьи, которая, несмотря на тяжелый образ жизни и бедность, сохранила свою идентичность благодаря вере. Внутренний мир героев, основанный на религиозных ценностях, описывается как их духовная опора против ограничений в обществе. Цель данной статьи — раскрыть через образы романа, как ислам формирует мировоззрение, повседневные практики и систему ценностей в семье мелкого служащего в Египте.

Ключевые слова: Сальва Бакр, исламские ценности, вера, упование, судьба, беспомощность, терпение, благодарность, молитва, религиозные обряды, религиозное сознание.

Kirish. XX asr oxirida insoniyat hayotida yangi tamoyil - siyosat, iqtisodiyot va madaniyatni qamrab olgan globallashuv jarayoni shakllanib bo'ldi. Adabiyotda bu tamoyil ijobiy natijalarga olib keldi: milliy adabiyot yutuqlari tezlik bilan tarqaldi, millatlararo adabiy ta'sir yanada kuchaydi. Zamonaviy arab yozuvchilarining badiiy tafakkurida zamonaviy obrazli nasrga nisbatan erkin munosabat shakllandi: chuqur ifodalilik, obrazlilik va ramziylikka alohida e'tibor qaratildi. XX asrning ikkinchi yarmi va oxiridagi arab adabiyoti, xususan, Misr, Suriya, Livan va boshqa arab Mashriq mamlakatlarining adabiyoti o'zining mazmuni, uslublarning xilma-xilligi va zamonaviyligiga ko'ra jahon adabiy jarayonida munosib o'rin egalladi [Muxiddinova, 2017, p. 241.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni bir qator arab tiliga oid manbalar va kitoblarda uchratish mumkin. Mazkur ishda yirik ingliz, rus, arab va o'zbek olimlarining, xususan, ingliz olimlaridan W. R. Baker., C. Seymour-Jorn, rus sharqshunos olimlaridan V.Kirpichenko va V.Safronov, arab adabiyotshunoslaridan A. Al-Momani va o'zbek olimlaridan D.Muxiddinova va boshqalarning manbalaridan foydalangan holda Salva Bakr qalamiga mansub "Quyonlar" romani tahlilga tortildi. Tadqiqot materiallarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular ilmiy tavsiflash va qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik kabi usullar asosida o'rganildi.

Natijalar. Mahoratli yozuvchi Salva Bakr turli madaniy va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri ostida shakllanayotgan zamonaviy Misr adabiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. U 1949-yilda Misrda o'rtahol oilada tug'ilgan. Iqtisodiy ta'lim olishdan tashqari, san'at fakultetiga qabul qilinib, 1976-yilda teatr tanqidchiligi mutaxassisligi bo'yicha tahsilni tugatdi. Shunday qilib, u ham biznes boshqaruvi, ham teatr tanqidchiligi bo'yicha bakalavr darajasini qo'lga kiritdi. 1974-yildan 1980-yilgacha oziq-ovqat ta'minoti bo'yicha nazoratchi sifatida hukumatda ishladi. Bu tajriba unga Qohiradagi kambag'al va nochor aholi qatlamining turmush sharoitini chuqur anglash imkonini berdi. 1985-yildan boshlab esa o'zini butunlay yozuvchilik faoliyatiga bag'ishladi.

Salva Bakr qalamiga mansub "Quyonlar" romani ham yuksak badiiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, oddiy misrlik xizmatchi hayoti misolida Misrning eng dolzarb va og'riqli muammolarini tadqiq etadi.

Salva Bakr ta'kidlashicha, realist yozuvchi sifatida yozuvchi o'z davrining vijdoni bo'lishga intilishi kerak. U o'zini Misr jamiyatidagi ziddiyatlar va qarama-qarsxiliklarning, ayniqsa ularning qahramonlari hayotiga ta'sirining guvohi sifatida his etadi. Adabiyotshunos Faruq Abd al-Qodirning fikricha, Navvaal as-Sadaviy va boshqa ko'plab arab ayol yozuvchilaridan farqli o'laroq, Salva Bakr erkaklar va ayollar o'rtasidagi an'anaviy ziddiyatli munosabatlarni aks ettirmaydi. Aksincha, u erkak va ayol qahramonlarining ijobiy va salbiy jihatlarini muvozanatli tarzda tasvirlaydi. [Al-Momani, 2002] Bu esa Salva Bakrning xarakter yaratish mahoratidan dalolat beradi va u "Quyonlar" romanida ham aynan shu jihatlariga e'tibor qaratgan.

Islom dini ko'pchilik misrliklarning kundalik hayotida alohida o'rin tutadi. U nafaqat din, balki madaniy shakl, turmush tarzi va ijtimoiy o'ziga xoslikning eng muhim manbai hisoblanadi. Oddiy misrlik islomni shaxsiy e'tiqod doirasi sifatida emas, balki axloqiy, maishiy va hatto iqtisodiy



koordinatalarning keng qamrovli tizimi sifatida qabul qiladi. Islom Misrga VII asrda kirib kelgan va o'shandan beri asosiy madaniy kodga aylangan. Reymond Uilyam Beykerning tadqiqotiga ko'ra, "Misr jamiyati umuman olganda islomni madaniy vorislik unsuri va ijtimoiy qonuniylik vositasi sifatida ko'radi" [Beyker, 2023].

Islom Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarda jamiyatning barcha sohalariga asosiy ta'sirini ko'rsatib kelgan va hozirda ham ko'rsatmoqda. Murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida Islom o'zining butun mavjudligi davomida turli xil baholanishlarga sabab bo'lgan va bo'lib kelmoqda [Yakupov, 2010, 7-bet].

Ma'lumki, adabiyot siyosiy-ijtimoiy qarashlarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi va ijtimoiy-real hayotni aks ettira olishi bilan ahamiyatlidir. "Quyonglar" romanida ham o'tgan asrning 90-yillaridagi Misrning zamonaviy ijtimoiy hayoti oddiy xizmatchi hayoti misolida yoritilgan.

"90-yillarda xususiylashtirish boshlanishi bilan mehnat va pul mukofoti o'rtasida teskari aloqa paydo bo'ldi: davlat sektorida mehnat sarfi odatda past va kam haq to'lanadi, xususiylashtirishda esa mehnat sarfi juda yuqori, ammo hali ham yetarli darajada qadrlanmaydi. Bu xususiylashtirishdagi barcha ish o'rinlariga taalluqli emas. Rahbarlik lavozimlari haqiqatan ham yuqori ish haqi va yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lish imkoniyatini beradi. Past ish haqi jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida norozilik uyg'otadi: u faqat yuqori qatlamlarning oz sonli vakillariga ta'sir qilmaydi, aksincha, ular xususiylashtirish va moddiy resurslarni o'zlashtirish hisobiga foyda ko'radilar." [Andjelkovic, 2008, p.23.] Aynan "Quyonglar" romanida 90-yillarda Misrdagi ijtimoiy hayot tarzi tasvirlangan.

Romanning bosh qahramoni Usama - oddiy misrlik xizmatchi bo'lib, hayotiy va moddiy qiyinchiliklar, shuningdek, ko'plab muammolarga qaramay, diniy qadriyatlarga sodiq qolgan. Bu qadriyatlar orasida eng muhimi sabr-toqatdir. U xotini Hayot va ikki qizi Fatin hamda Samiya bilan juda tor, deyarli nurab tushayotgan xonadonda istiqomat qiladi. Vazirlikdagi ishidan tashqari, Usama uyida quyon boqish bilan shug'ullanadi. Quyonglar nasl berganda, u chin dildan quvonadi va buni Allohning inoyati deb biladi hamda oilasiga katta foyda keltiradi deb umid qiladi.

بسم الله ما شاء الله. اسم النبي أحسن. ردت زوجته حياة بامتنان قائلة: - عيني عليهم باردة , تسعة فوق , وستة تحت في القفص , و الله ربنا أكرمنا بهم يا أسامة , و وسع علينا , لأنه عالم بحالنا و ظروفنا . لم يرد و ظل ساهما يفكر و هو يحرق في الأرناب الوليدة.

"-Bismillah, masha'a Alloh. Payg'ambar alayhissalomning ismi eng yaxshisidir. Xotini ham takrorlab, xotirjamlik bilan dedi: - Ko'z tegmasin. Tepada to'qqizta, pastki katakda oltita, ey Usama, Allohga qasam ichib aytamanki, Rabbimiz ularni bizga in'om etdi va rizqimizni berdi. Zero, U bizning ahvolimizni va sharoitimizni biladi. Usama esa indamay, yangi tug'ilgan quyonchalarni o'ychan kuzatardi." [Bakr, 1994, p.8]

Qahramonlarning tilidan chiqqan dastlabki so'zlardan oq ularning qalbida Alloh taolaga bo'lgan iymon, hayotlarining islomiy qadriyatlar asosiga qurilganligi sezilib turadi. Bu o'rinda Salva Bakr chuqur islomiy shukronalik, ilohiy rizq va Allohning marhamatiga bo'lgan ishonchni kundalik til, xalqona iboralar va oilaviy muloqot orqali nozik ifodalaydi. "Allohning nomi bilan", "Alloh xohlagani bo'ladi", "Payg'ambar (Muhammad) ning ismi eng yaxshisidir" kabi diniy iboralarni misrliklar odatda biror narsaga havas bilan qaragan yoki biror narsadan xursand bo'lgan paytlarida ishlatishadi. "Allohga qasam" iborasi ham tez-tez qo'llaniladigan iboralardan biri.

Ushbu parcha quyidagi asosiy islomiy qadriyatlarni ifodalaydi: Allohning marhamati va rizqi: بهم (Rabbimiz bizga marhamat ko'rsatdi) hamda shukronalik va itoatkorlik: عالم بحالنا وظروفنا (U bizning ahvolimiz va sharoitimizni biladi). Bu Alloh taolo O'z bandalarini tushunuvchi Zot ekanligiga ishora qilib, oila ruhiyatida islomiy qadriyatlarning jonli namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, Alloh taolodan kelgan rizq nafaqat moddiy, balki ma'naviy farovonlik ham baxsh etadi.

Usamaning diniy qadriyatlarga qanchalik sodiqligi quyidagi parchada yaqqol o'z ifodasini topgan.
 تنهد برضا مفضلاً إلا يبدأ يومه بالتفكير في منقصات ونكد لا لزوم لها، خصوصاً بعد أن استقبله بصباح ندى ولدت فيه الأرناب .
 ضغط براحته كتف زوجته شحيح اللحم، ثم طلب منها في امتنان وضع بعض من النقود في صندوق نذور الجامع القريب.

U, (Usama) ayniqsa, quyonlar tug'gan shabnamli tongni kutib olgach, kunni keraksiz kamchilik va tashvishlar bilan boshlamaslikni ma'qul ko'rib, mamnuniyat bilan xo'rsindi. U ozg'in xotinining yelkasini kafti bilan qisib qo'ydi, so'ng minnatdorchilik bilan undan yaqin atrofdagi masjidning ehson qutisiga ozgina pul solib qo'yishni so'radi [Bakr, 1994, p. 10].

Qahramon bu yerda quyonlarning tug'ilishini "umid ramzi" - Allohning inoyati deb biladi, shu sababli u xayr-ehson qilishni afzal ko'radi. Bu nafaqat imonning ifodasi, balki e'tiqod orqali ma'naviy yengillik, yangilanish va "yorug' kunning boshlanishi" ma'nosini ham anglatadi.

Usama moddiy qiyinchiliklardan qutulish yo'llarini izlamoqda. Uning yagona umid manbai - xonadonining bir burchagida boqayotgan va yaqinda nasl bergan quyonlaridir. U har qanday yo'l bilan quyonchilik loyihasini amalga oshirish niyatida. Usama bu borada BMTning kambag'allikka qarshi qaratilgan maxsus dasturi yordam berishiga umid qilmoqda. Aynan quyonlar Usamaning barcha rejalarining asosini tashkil etadi - ularni ko'paytirish, so'yish, konservalash, qadoqlash, sotish va boshqa mamlakatlarga eksport qilish. Shu bois u doimo orzu qiladi, rejalarini hayotga tatbiq etish yo'llarini izlaydi va Allohga tavakkal qiladi.

بعد تقلص علاقاته الاجتماعية وانكماشها مع معظم أقارب أمه وأبيه لأنه موظف صغير محدود الدخل لا يمكنه مجاراة حياتهم الميسورة كتجار في السوق ضالعين في أهم نشاط اقتصادي عرفته البلاد خلال السنوات الأخيرة

Onasi va otasining ko'pchilik qarindoshlari bilan ijtimoiy aloqalari zaiflashgach, u kam daromadli kichik xizmatchiga aylandi va so'nggi yillarda mamlakatga ma'lum bo'lgan eng muhim iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi bozor savdogari sifatida farovon hayotini davom ettira olmadi. [Bakr, 1994, p. 17].

Bugungi kundagi eng og'riqli muammolardan biri qarindoshlik munosabatlarining izdan chiqishi, samimiy tuyg'ular o'rnini boylik va manfaatga asoslangan aloqalar egallab olishidir. Muallif Misr jamiyatida insonning ijtimoiy va moliyaviy mavqeyi qarindoshlik munosabatlariga qanday putur yetkazganini yorqin tasvirlaydi. Salva Bakr asrlar davomida musulmonlar orasida shakllangan bu qadriyatning yo'qolib borayotganini o'tkir kinoya ostiga oladi. Islom ta'limotida ham qarindoshlik aloqalarini uzish mumkin emasligi bir necha oyat va hadislarda bayon etilgan. Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

وَاتَّقُوا اللَّهَ الَّذِي تَسَاءَلُونَ بِهِ وَالْأَرْحَامَ ۚ إِنَّ اللَّهَ كَانَ عَلِيمٌ رَقِيبًا [٤:١]

"Shuningdek, o'rtalaringizdagi o'zaro muomalada nomi keltiriluvchi Allohdan va qarindoshlar(aloqasini uzish)dan qo'rqingiz! Albatta, Alloh sizlarni kuzatib turuvchidir." (Niso surasi "Ayollar", 1-oyat) [Quran,2004, p.77]

Ibn Hibbon va boshqalar rivoyat qiladilar: Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "Uch toifa kishi jannatga kirmaydi: 1. Ichkilikka mukkasidan ketganlar. 2. Qarindoshlik aloqalarini uzganlar. 3. Sehrgarlarning so'zlariga ishonuvchilar." [Ghazali,2015, p. 99]

Usamaning hayoti qanchalik og'ir bo'lmasin, u barcha qiyinchiliklarni yengib o'tayotganini, har bir kun uchun shukronalik bilan yashayotganini, asosiy ishidan tashqari qo'shimcha ishda ishlayotganini va buning evaziga olayotgan maoshi hayotini biroz bo'lsa-da yengillashtirishiga umid qilayotganini ko'rish mumkin.

غمره شعور عارم بالرضا والسكينة، وبأن الله أكرمه فعوض شفاه خيرا بعد أن كد و تعب و تقلب في أعمال عديدة مارسها في النصف الثاني من أيامه بعد الانتهاء من عمله الصباحي بوزارة الصحة



"U mamnunlik va xotirjamlik hissi bilan to'lib-toshgan edi. Sog'liqni saqlash vazirligidagi ertalabki ishini tugatib, kunning ikkinchi yarmida ko'plab yumushlar bilan mashg'ul bo'lgach, og'ir mehnatdan charchaganini his qildi. Shu bilan birga, u Alloh uni ulug'lab, yaxsxilik bilan mukofotlaganini his qildi. [Bakr, 1994, p.11]."

Bu satrlar hayotdagi og'ir, uzluksiz mehnatdan charchagan, sabr-toqatga to'lib-toshgan inson holatini tasvirlaydi. Shunday bo'lsa-da, qahramon bu yengillikni dunyoviy sabablar orqali emas, balki "الله أكرمهُ" - ya'ni "Alloh unga (Usamaga) marhamat ko'rsatdi" degan e'tiqod orqali qabul qiladi. Bunday diniy yondashuv yordamida muallif kambag'allik-sabr-mehnat-mukofot zanjirini badiiy tarzda ochib beradi.

Boshqa bir epizodda Hayat bosh qahramon Usamaning rafiqasi sifatida ertangi kunga umid bilan yashab kelayotgani yorqin ifodalangan:

وَعَلَى رَغْمِ فُشْلِ كُلِّ مَشْرُوعَاتِهِ السَّابِقَةِ إِلَّا أَنْ حَيَاةَ كَانَ يَدَاخِلُهَا شَعُورٌ غَامِضٌ بِأَنْ زَوْجَهَا لَا بَدَّ أَنْ يُوَفَّقَ وَيُنَجِّجَ ذَاتَ يَوْمٍ بَعْدَ أَنْ يَعْوُضَ اللَّهُ صَبْرَهُ وَصَبْرَهَا خَيْرًا، فَهُوَ طَيِّبٌ وَمَجْتَهِدٌ، وَفِي حَالِهِ تَمَامًا لَا يَضْمُرُ شَرًّا لِأَيِّ مَخْلُوقٍ

"Hayat u(Usama)ning barcha avvalgi rejalari barbod bo'lganiga qaramay, shuurida eri bir kun kelib albatta muvaffaqiyatga erishishini va Alloh ikkovlarining sabr-toqatini rahm-shafqat bilan mukofotlaganidan so'ng hayotlari farovon bo'lishini his qilardi, chunki u mehribon va mehnatsevar edi, hech kimga nisbatan yomon niyatda bo'lmagan". [Bakr, 1994, p. 38].

Ushbu parchada islom ta'limotida keng yoyilgan يعوض الله صبره وصبرها خيراً (Alloh uning va uning sabrini yaxsxilik bilan mukofotlaydi) tushunchasi ochib berilgan bo'lib, u Qur'ondagi taqdir, sabr va mukofot umidi haqidagi g'oyani to'liq aks ettiradi. Qur'oni karimdagi ko'plab oyatlar sabr va Allohga tavakkal qilishning mukofotsiz qolmasligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Avvalo, bu fikrni dalillaydigan asosiy oyatlardan birini keltirish mumkin:

إِنَّمَا يُؤَفِّقِي الصَّابِرِينَ أَجْرَهُمْ بِغَيْرِ حِسَابٍ [۳۹:۱۰]

"Albatta, sabr qiluvchilarga (oxiratda) mukofotlari behisob berilur". (Zumar surasi, 10-oyat) [Quran, 2004, p.459]

Ushbu muborak oyat Alloh nazdida sabrning eng oliy qadriyat ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Tahlil etilayotgan parchada Usama va Hayat aynan shunday ma'naviy fazilatga ega insonlar sifatida namoyon bo'ladi: ular azob-uqubatlar, xo'rliklar va sinovlarga qaramay, islomiy an'anadagi oddiy bo'ysunishni emas, balki imonning faol ko'rinishi bo'lgan ichki matonatni saqlab qoladilar.

Shuningdek, asarda taqdir – "al-qadar" tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muqaddas manba Qur'oni Karimda shunday deyilgan:

قُلْ لَنْ يُصِيبَنَا إِلَّا مَا كَتَبَ اللَّهُ لَنَا هُوَ مَوْلَانَا ۚ وَعَلَى اللَّهِ فَلْيَتَوَكَّلِ الْمُؤْمِنُونَ [۹:۵۱]

"Ayting: Bizga Allohning yozib qo'yganidan o'zga narsa yetmaydi. U xojamizdir. Allohga esa, faqat mo'minlar tavakkul etsinlar." (Tavba surasi, 51-oyat) [Quran, 2004, p.195]

Ushbu oyat inson taqdirini to'g'ridan-to'g'ri Allohning irodasi bilan bog'laydi. "Allohning irodasisiz hech narsa sodir bo'lmaydi" degan tushuncha ularning ishonchini zaiflashtirmaydi, aksincha xotirjamlik baxsh etadi. Musulmon kishi taqdirga ishongani bois, barcha ishlarida, hattoki eng mushkul vaziyatlarda ham, faqat Allohga suyanadi va yolg'iz Ungagina tavakkal qiladi.

بَدَتْ كَالْمَوْزِعَةِ بَيْنَ نَارَيْنِ، لَكِنَّا فِي النَّهَايَةِ قَالَتْ لِرَوْحِهَا فَلْيَكُنْ مَا يَكُونُ وَسَلَّمْتُ أَمْرَهَا إِلَى اللَّهِ، وَقَبْلَ أَنْ تَجِيهَ زَفَرْتُ بِحَرَارَةِ وَطَرَقَتْ أَصَابِعُهَا فِي قَلْبِي

"U (Hayot) ikki o't orasida qolgandek edi, oxir-oqibat o'z ishini Allohga topshirib, o'ziga-o'zi: "Nima bo'lsa bo'lar," dedi. Unga javob berishga ulgurmay, chuqur nafas oldi-da, tashvish bilan barmoqlarini qisirlatdi [Bakr, 1994, p.38]."

Hayat murakkab tanlov oldida turardi, ichki zo'riqishdan azob chekardi, biroq boshqa yo'l topa olmay, o'z taqdirini Allohga ishonib topshiradi. Bu sahna ruhiy beqarorlikdan islom dunyoqarashining



poidevori bo'lmish ma'naviy tavakkulga o'tish jarayonini aks ettiradi. Bunday ruhiy holat va munosabat Qur'oni Karimning quyidagi oyatida o'z ifodasini topgan:

وَمَنْ يَتَوَكَّلْ عَلَى اللَّهِ فَهُوَ حَسْبُهُ ۚ إِنَّ اللَّهَ بَالِغُ أَمْرِهِ ۖ قَدْ جَعَلَ اللَّهُ لِكُلِّ شَيْءٍ قَدْرًا [٦٥:٣]

"... Yana, uni o'zi o'ylamagan joydan rizqlantirur. Kimki Allohga tavakkul qilsa, bas, (Allohning) o'zi unga kifoya qilar. Albatta, Alloh o'zi (xohlagan) ishiga yetuvchidir. Alloh barcha narsa uchun miqdor (me'yor va muddatni tayin) qilib qo'ygandir." (Taloq surasi, 3-oyat) [Quran, 2004, p. 558]

Ushbu so'zlarda Hayatning qarori to'la ma'noda aks etgan: u insoniy sa'y-harakatlar har narsaga qodir emasligini anglab yetgach, tavakkulga - ilohiy irodaga ishonishga yuz tutadi. Bu shunchaki bo'ysunish emas, balki ichki xotirjamlikning bir ko'rinishi bo'lib, u insonga taqdirni qabul qilish va ichdan yemirilmay harakat qilish imkonini beradi. Qiziq tomoni shundaki, "Falyakun ma yakun" iborasini ilohiy amr "Kun fayakun" (كن فيكون) - "Bo'l! - va u voqe bo'ladi" iborasining hosilasi deb qarash mumkin. Bu fe'l birikmasi Allohning borliq ustidan mutlaq hokimiyatini ifodalaydi:

إِنَّمَا أَمْرُهُ إِذَا أَرَادَ شَيْئًا أَنْ يَقُولَ لَهُ كُنْ فَيَكُونُ [٣٦:٨٢]

"Biror narsa (yaratish)ni iroda qilganda, Uning ishi faqatgina: "Bo'l!" – deyishdir. U (narsa) esa bo'lur (vujudga kelur). (Yosin surasi, 82-oyat) [Quran, 2004, p. 445]"

Shu tariqa, Hayat "Falyakun ma yakun" deganida, go'yo "Men Allohning "Bo'l!" deganini qabul qildim" demoqchi bo'ladi. Ya'ni, men Uning qaroriga bo'ysunaman, garchi u menga hozircha ayon bo'lmasa-da, buning ortida hikmat borligini bilaman,

Qahramon o'zini ikki "olov" (muammo) orasida qolgandek his etadi, biroq "falyakun ma yakun" ("Nima bo'lsa, bo'lsin") deb ichki dunyosini tinchlantiradi va "سَلِّمْتُ أَمْرَهَا إِلَى اللَّهِ" ("Ishini Allohga topshirdi") iborasi orqali sabr va tavakkul holatini namoyon etadi. Bu burilish nuqtasi badiiy vositalar yordamida sabr ahli haqidagi tasavvurni jonlantiradi.

Hayat, haqiqiy musulmon ayol sifatida, Usamaning og'ir kasalligida erining sog'ayishi uchun o'zini qurbon qilishga tayyorligini namoyon etib, sodiq umr yo'ldosh timsolida gavdalanadi.

“مستعدة... أبيع هدى... إنشا الله يا رب نقضيها بدقة أو عيش وملح، ويرجع أسامة لطبيعته... مستعدة... أفرش له رموشى ليمشى عليها، مستعدة... أعمل له خدى كما المداس، وهو يعود لصحته وعقله ووعيه، يا رب أنت عالم بحالى”

“Men tayyorman... kiyimlarimni sotishga... Alloh xohlasa, ey Rabbim, bir burda non va bir chimdim tuz bilan yashasak ham mayli, faqat Usama o'ziga qaytsa bas... Men tayyorman... uning oyoqlari ostiga kipriklarimni to'shashga, ular ustidan yursin deya, men tayyorman... yuzimni uning oyoqlari tagiga poyandoz qilishga, faqat u yana sog'lig'ini, aql-idrokini va ongini qayta tiklab olsa kifoya. Ey Rabbim, Sen mening ahvolimni bilursan.” [Bakr, 1994, p. 63].

"قضى بدقة أو عيش وملح" - arab madaniyatidagi qadimiy ibora bo'lib, non va tuzni baham ko'rib, quvonchli va qiyin paytlarda birga yashashni anglatadi. Shuningdek, "يا رب أنت عالم بحالى" iborasi orqali Allohga to'liq tavakkul qilish diniy qadriyat ekanligi ochib beriladi. Ushbu kontekstda muallif hissiy ta'sirni kuchaytirish uchun "tayyorman" so'zini qayta-qayta ishlatadi va ko'p nuqta "..." yordamida Hayatning ma'naviy olamiga ta'sir etuvchi tuyg'ularning cheksizligiga ishora qiladi.

يا أولاد... الإيمان يعصم الإنسان من التعب والمرض، لأن الإنسان لما يعرف ربه يرتاح وروحه مطمئن.

"Ey farzandlarim... imon insonni charchoq va kasalliklardan asraydi. Zero, inson o'z Robbisini taniganda, qalbida xotirjamlik topadi, ruhi esa orom oladi [Bakr, 1994, p. 59]."

Ushbu parcha orqali yozuvchi e'tiqod va ruhiy holat o'rtasidagi aloqani ochib beradi. Allohga ishongan inson haqida "لما يعرف ربه يرتاح وروحه مطمئن" (Robbisini tanigach, ko'ngli tinchiydi va ruhi taskin topadi) degan fikr ilgari suriladi. Bu g'oya Qur'oni karimdagi mashhur oyat mazmuni bilan hamohangdir:

الَّذِينَ ءَامَنُوا وَتَطْمَئِنُّ قُلُوبُهُمْ بِذِكْرِ اللَّهِ ۖ أَلَا بِذِكْرِ اللَّهِ تَطْمَئِنُّ الْقُلُوبُ [١٣:٢٨]



"Ular iymon keltirgan va ularning qalblari Allohni zikri bilan orom oladigan zotlardir. Ogoh bo'lingizki, Allohni zikr etish bilan qalblar orom olur." (Ra'd surasi, 28-oyat) [Quran, 2004, p. 252]

Shunday qilib, Salva Bakr imonning ichki ruhiy quvvat manbai sifatidagi ahamiyati haqida fikr yuritadi.

Keyingi iqtibosda qahramon xavf-xatardan saqlanish umidida Qur'onni, xususan, "Falaq" surasini (قل أعوذ برب الفلق) o'qib berishni iltimos qiladi.

و لما حضر الشيخ سعيد المقرئ ساعت العصر طلب منه أن يقول سورة " قل أعوذ برب الفلق " و حكيت له الحكاية , فنصحني أن أطلق البخور كل جمعة في مدخل العمارة .

"Asr vaqtida Shayx Said al-Muqriy kelganda, men undan "Qul a'uzu bi-Rabbil-falaq" surasini o'qib berishini so'radim va unga voqeani aytib berdim. U menga har juma kuni binoga kiraverishda tutatqi yoqishimni maslahat berdi" [Bakr, 1994, p. 61].

Shayxning maslahati diniy (Qur'on) va an'anaviy (xushbo'y tutatqilar yoqish) vositalarning uyg'un birikmasini ko'rsatadi. Bu epizod jamiyatda din va xalq qarashlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi: u jamiyat ongida diniy marosimlar bilan bir qatorda xalq an'analari ham saqlanib qolganligidan dalolat beradi (masalan, "har juma kuni tutatqi tutatish").

Ma'lumki, musulmon oilalarida islom dini ota-onalarga farzandlarini islom e'tiqodi ruhida tarbiyalash mas'uliyatini yuklaydi. Asarda dialog qahramonning xarakterini va uning diniy qarashlarini ochib berishda asosiy kompozitsion vosita sifatida xizmat qiladi, shuningdek, personajlarning hissiy fikrlashini aks ettiradi. Hayat o'z qizi Samiyaga quyidagicha murojaat qiladi:

والله أصبحت غلسة يا سامية، وسخيفة جداً، قاعدة تنبطرى على النعمة وتقولي أحب وأكره، ناس ياما نفسها في نسيرة أرنب أو نسيرة ظفر، وأنت لا حمد ولا شكر، قولي يا شيخة الجود في الموجود والحمد لله وإلا زالت النعمة من خلقتك.

"Allohg qasamki, ey Samiya, sen juda g'ashga tegadigan va chidab bo'lmas darajada injiq bo'lib qolding. Hali-hanuz ne'matlarga e'tiborsiz bo'lib, yaxshi ko'raman, yomon ko'raman deb o'tiraverasan. Ko'pchilik odamlar quyon go'shtining bir bo'lagini yoki tirnoq parchasini orzu qilishadi. Senda esa na shukronalik, na minnatdorchilik bor. Ey xonim, qo'lingdagi narsalarga shukur qil va Allohg hamd ayt, aks holda Uning marhamati seni tark etadi." [Bakr, 1994, p. 26].

"قولي يا شيخة الجود في الموجود والحمد لله" iborasi xalq donoligi va diniy ma'naviyatni uyg'un tarzda aks ettiradi. Bu o'rinda yozuvchi dinni odamlar o'rtasidagi kundalik muloqotda ogohlantirish va tarbiya vositasi sifatida tasvirlaydi. Bu shunchaki e'tiqod emas, balki ijtimoiy-axloqiy nazoratning belgisi hamdir.

ارتدت فستان الطوارئ الكحلي على عجل. و هو الفستان الذي تحتفظ به خصيصا ليلائم مناسبات العزاء في المآتم وزيارات المرضى. والمباركة بالنجاح. و عمل الواجب مع الأقارب والأصحاب في الأفراح....

"U shosxilgancha maxsus hollarda kiyadigan to'q ko'k uzun ko'ylagini kiyib oldi. Bu ko'ylagini u dafn marosimlari, bemorlarni ko'rgani borish, odamlarni muvaffaqiyatlari bilan qutlash, shuningdek, to'y-hashamlarda qarindosh-urug' va do'stlar oldidagi burchini ado etish uchun ehtiyotlab saqlardi..." [Bakr, 1994, p. 66].

Ushbu parchada yozuvchi Hayatning turli marosimlar uchun avaylab saqlangan yagona ko'ylagi aza tutishda ham, to'ylarda ham, bemorlarni ziyorat qilishda ham, quvonchli kunlarda ham xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu "maxsus" ko'ylakning barcha vaziyatlarda kiyilishi Hayotning o'ta nochorligidan dalolat beradi.

Muallif ona va qiz misolida kontrast usulidan foydalanib, odamlarning diniy liboslarga bo'lgan turli munosabatlarini, ya'ni ichki e'tiqod asosida shakllangan hijob bilan tashqi ko'rinishi urfga yaqin bo'lgan hijob o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi.



أما حياة فقد تحجبت و صارت تغطي شعرها بمنديل كبير يسقط على كتفها و صدرها ليقترب ركبتيها . على العكس فأتان التي جاء حجابها بسيطا يتخلص في منديل متوسط من الشيفون الملون الزاهي تعقده خلف رقبته بعد لفه عليها منأ أمام، ليبرز الشيء الوحيد الملفت و هو شعرها الكستنائي الغزير.

"Hayatga kelsak, u hijob kiygan va sochlarini yelka va ko'kragiga deyarli tushadigan katta ro'mol bilan yopgan edi. Uning hijobi oddiy, Fatinnikidan farqli o'laroq, o'rta o'lchamdagi yorqin shifon ro'moldan iborat edi. Fatin esa bu ro'molni bo'ynining oldidan bog'lar, faqat e'tiborni tortadigan birgina jihati - qalin jigarrang sochlarini ko'rsatib qo'yardi." [Bakr, 1994, pp. 65-66].

Ushbu parchada Hayat sof diniy e'tiqodga asoslangan hijob kiygan. Uning ro'moli katta bo'lib, bo'yni, yelkasi, ko'kragi va tizzasigacha yetadi. Bu uning Alloh bilan ichki aloqasini ifodalaydi. Aksincha, Fatin zamonaviy an'analarga mos keladigan hijob kiyadi va tashqi ko'rinishini saqlab, badanini to'liq yopmaydi. U sochlarini ajratib ko'rsatadi, rangli shifondan ro'mol tanlab, orqasidan bog'laydi. Bundan ko'rinish turibdiki, yoshlar diniy qadriyatlarini zamonaviylashtirishga intilmoqdalar.

Salva Bakr o'z ijodining eng muhim ijtimoiy-tanqidiy xususiyatini quyidagi parcha orqali namoyon etadi: din va davlat muassasalaridagi hayot maromidagi ziddiyat. Mohiyatan inson va Alloh o'rtasidagi aloqa bo'lgan namoz bu yerda boshqaruv tizimining bir qismi sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari, odamlar yo'lida joylashgan muvaqqat masjid jamoatchilik uchun namozning tugashini yarim soat kutish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu yozuvchining bunday mahalliy diniy marosimlarga nisbatan kinoyali munosabatini aks ettiradi:

ثم إنه عاد يزاول عمله في دفتر الموالي بالوزارة , و الجديد هنا أنه صار يواظب على صلاة الظهر مع مدير العام في الجامع العشوائي الذي يحتل وقت الصلاة مدخل الدور الأول في الوزارة حيث تفرش الحصر على الأرض, و يتعطل المرور في هذه المنطقة من المبنى حوالي نصف الساعات يوميا يقضيها الجمهور في حالة انتظار ريثما ينتهى الموظفون من أداء واجبه الديني.

"Keyin u vazirlikning tug'ilishni qayd etish bo'limiga ishga qaytdi. Bu yerdagi yangilik shundan iborat ediki, u bosh direktor bilan birga vazirlikning birinchi qavatiga kiraverishda joylashgan vaqtinchalik masjidga peshin namoziga boradigan bo'ldi. U yerda namoz vaqtida yerga joynamozlar to'shaladi, bino atrofidagi transport harakati har kuni taxminan yarim soatga to'xtatiladi. Jamoatchilik bu vaqtni xodimlar o'z diniy burchlarini ado etishini kutib o'tkazishga majbur bo'ladi." [Bakr,1994, p.65]

Romanda quyonlarning birin-ketin halok bo'lishi bilan bog'liq juda qayg'uli voqeelikka qaramay, oila o'zlarining og'ir ahvolidan chiqish yo'lini topishda qat'iyat bilan davom etadi. Nihoyat, ona Fors ko'rfazidagi boy mamlakatlardan biriga jo'nab ketadi va ayollar saloniga joylashadi, bu ularga keyinchalik oilaviy ahvolini biroz yaxshilash va qizlarini turmushga berish imkonini beradi. Barcha bu harakatlarda ular Allohga tavakkul qiladilar va Uning marhamatiga ishonch bildiradilar. Bu fikr bir qator oyatlarda umumlashgan holda ifodalangan:

1. Taloq surasi, 2-3-oyatlar

...وَمَنْ يَتَّقِ اللَّهَ يَجْعَلْ لَهُ مَخْرَجًا

- 2) "...Kimki Allohga taqvo qilsa, U unga (tashvishlardan) chiqish yo'lini (paydo) qilur. "

وَيَرْزُقْهُ مِنْ حَيْثُ لَا يَحْتَسِبُ وَمَنْ يَتَوَكَّلْ عَلَى اللَّهِ فَهُوَ حَسْبُهُ إِنَّ اللَّهَ بَلِّغُ أَمْرَهُ قَدْ جَعَلَ اللَّهُ لِكُلِّ شَيْءٍ قَدْرًا [٦٥:٣]

- 3) "Yana, uni o'zi o'ylamagan joydan rizqlantirur. Kimki Allohga tavakkul qilsa, bas, (Allohning) o'zi unga kifoya qilar. Albatta, Alloh o'zi (xohlagan) ishiga yetuvchidir. Alloh barcha narsa uchun miqdor (me'yor va muddatni tayin) qilib qo'ygandir. "[Quran,2004,p.558].

Taqvo va Allohga tavakkul qilish sa'y-harakat, mehnat bilan birgalikda kutilmaganda mo'l rizqqa sabab bo'ladi.

2. Najm surasi, 39-41-oyatlar.

وَأَنْ لَّيْسَ لِلْإِنْسَانِ إِلَّا مَا سَعَى [٥٣:٣٩]



39) "Insonga faqat o'zi qilgan harakatigina (mansub) bo'lur.

وَأَنْ سَعِيَّةٌ سَوْفَ يُرَى [٥٣:٤٠]

40) Uning qilgan sa'yi (harakati) yaqinda (qiyomatda) ko'rinur.

ثُمَّ يُجْزَلُهُ الْجَزَاءُ الْآوْفَى [٥٣:٤١]

41) So'ngra u to'la jazo (yoki mukofot) olur. "[Quran, 2004, p. 527]

Inson natijaga - rizq, savob va barakaga faqat o'z harakati va sa'y-harakati orqali erishadi.

3. Juma surasi, 10-oyat

وَإِذَا قُضِيَتِ الصَّلَاةُ فَانْتَشِرُوا فِي الْأَرْضِ وَابْتَغُوا مِنْ فَضْلِ اللَّهِ وَاذْكُرُوا اللَّهَ كَثِيرًا لَعَلَّكُمْ تُفْلِحُونَ [٦٢:١٠]

10) "Bas, qachonki, namoz ado qilingach, yerda tarqalib, Allohning fazli (rizq)dan istayveringiz! Allohni ko'p yod etingiz! Shoyad (shunda) najot topsangiz. "[Quran, 2004, p.554]

Alloh taolo insonlarni namozdan so'ng yer yuziga tarqalib, rizq izlashga, ya'ni harakat qilishga, mehnat qilishga va faol bo'lishga buyuradi.

Xulosa. "أرانب" - "Quyonglar" romanida Hayat va Usama moddiy jihatdan kambag'al, biroq ma'naviy jihatdan bardoshli va sabr-toqatli insonlar sifatida tasvirlangan. Salva Bakr ushbu obrazlar orqali kichik xizmatchilar ijtimoiy sinfi vakillarining ichki kuch-qudratini, ayniqsa, islomiy qadriyatlarga asoslangan turmush tarzini ochib beradi. Romanda islomga asoslangan qadriyatlar - iymon, sabr, tavakkul, taqdirga ishonch, ibodat va shukronalik tuyg'usi - real hayotda jamiyatning quyi qatlamlari uchun ma'naviy najot va ijtimoiy barqarorlik manbai sifatida aks ettirilgan. Bu kabi jihatlar Salva Bakrning realistik yozuv uslubini kuchaytiradi va o'quvchiga zamonaviy Misr ijtimoiy hayotida oddiygina inson- kichik xodimning diniy ongini tushunish imkonini beradi.



«KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E'RĀB» ASARIDA MUALLIF NAZARIY QARASHLARINING DALILLANISH USULLARI

MANSUR JUMANIYAZOV

Tayanch doktorant, TDSHU

ORCID: 0009-0009-0267-6462

Annotatsiya Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifoyatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rob» asarida fe'llar alohida bobga ajratilib o'rganiladi. Olim fe'llarni bayon qilishda o'rtamiyonalikka amal qilib, ta'rif va sharhlarni ko'paytirmay, ko'pincha amaliy misollar bilan tushuntiradi. Mavzuni yoritishda oddiy, murakkab bo'lmagan jumalardan, Qur'oni karim oyatlari va she'riy baytlardan foydalanadi.

Bu maqolada asarda keltirilgan fe'llarning turlari va ularning nomlanishi, shuningdek, ularning soni va qismlarga bo'linishidagi boshqa asarlar bilan farqli va o'xshash jihatlari keltirib o'tildi. Fe'llarning ta'riflaridagi nozik jihatlariga to'xtalib o'tildi. Asarning nomiga mos ravishda undagi fe'llarning mayllarda o'zgarish hodisalariga e'tibor qaratilib, ular misollar bilan tahlil qilindi. Asosan, fe'llarning istak maylida kelishi va unga sabab bo'luvchi old ko'makchilar qismlarga bo'linib o'rganildi. Fe'llar oldidan keladigan harf va so'zlarning ma'nolari misollar bilan qiyosiy tushuntirildi. Shart mayli, ya'ni fe'llarning oxirgi harakati undosh harfga tugab, ikkita fe'l bir xil holatda bo'lib, shart ergash gapli qo'shma gap hosil qilishi va uni talab qiluvchi old ko'makchilar izohlanib, farqli jihatlari yoritildi.

Tayanch tushunchalar: *fe'llar, o'tgan zamon, hozirgi kelasi zamon, old ko'maksxilar, fe'llarning aniqlik mayli, istak mayli, shart mayli.*

Аннотация. В произведении Зиёвуддина Маккий Хоразмий «Кифаяту-н-нахв фи илми-ль-иъраб» глаголы изучаются в отдельной главе. Ученый при описании глаголов придерживается умеренности, не перегружая текст определениями и комментариями, чаще объясняя их на практических примерах. Для раскрытия темы он использует простые, несложные предложения, а также аяты из Священного Корана и поэтические строфы. В данной статье представлены виды глаголов, приведенные в произведении, их названия, а также отличительные и схожие черты с другими произведениями в отношении их количества и деления на части. Были затронуты тонкие моменты в определениях глаголов. В соответствии с названием произведения, внимание уделено явлениям изменения глаголов по наклонениям, и они были проанализированы на примерах. В основном, были изучены случаи употребления глаголов в желательном наклонении и предлоги, вызывающие его, разделенные на части. Значения букв и слов, предшествующих глаголам, были сравнительно объяснены на примерах. Условное наклонение, то есть когда последняя буква глаголов заканчивается на согласную, и два глагола находятся в одинаковом состоянии, образуя сложноподчиненное предложение с условным придаточным, а также предлоги, требующие его, были разъяснены, и освещены их отличительные черты.

Ключевые слова: глаголы, прошедшее время, настоящее-будущее время, предлоги, изъявительное наклонение глаголов, желательное наклонение и условное наклонение.

Annotation. In Ziyovuddin Makkiy Khorazmi's work "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb," verbs are studied in a separate chapter. In his exposition of verbs, the scholar adheres to moderation, avoiding excessive definitions and explanations, often clarifying with practical examples. To elaborate on the topic, he uses simple, uncomplicated sentences, as well as verses from the Holy Quran and poetic couplets. This article presents the types of verbs mentioned in the work, their nomenclature, and their differences and similarities with other works regarding their number and division into parts. Subtle aspects of verb definitions were highlighted. In accordance with the work's title, attention was paid to the phenomena of verb changes in moods, and these were analyzed with examples. Primarily, the occurrence of verbs in the volitional mood and the prepositions causing it were studied, divided into sections. The meanings of letters and words preceding verbs were comparatively explained with examples. The conditional mood, i.e., when the final letter of verbs ends in a consonant and two verbs are in the same state, forming a complex sentence with a conditional clause, and the prepositions requiring it, were elucidated, and their distinctive features highlighted.

Keywords: verbs, past tense, present-future tense, prepositions, indicative mood of verbs, volitional mood, and conditional mood.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida fe'l qismi hech qanday mavzu qo'ymasdan yoki bob va fasl ajratmay to'g'ridan to'g'ri fe'lning ta'rifiga o'tib ketiladi. Muallif fe'lga quyidagicha ta'rif beriladi. الفعل: ما دل على معنى فى نفسه مقترن بزمان مخصوص «muayyan zamonga bog'liq bo'lib, mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi so'z turkumiga fe'l deyiladi». Muallif fe'l ta'rifidan keyin uning alomatlarini zikr qilib, misollar yordamida ba'zi xususiyatlarni tushuntiradi.

Zamaxshariyning «al-Unmuzaj» asarida esa fe'lga ta'rif bermay, uning xususiyatlari aniqlangan. Muallif asardagi fe'l qismini quyidagi so'zlar bilan boshlaydi: الفعل هو ما صح أن يدخله "قد" و حروف الاستقبال «Kelasi zamondagi ish-harakatning amalga oshish ehtimolini bildiruvchi, yaqin hamda uzoq kelajakni ifodalash, yuklamalar, shaxs-son qo'shimchalari va ayol kishiga dalolat qiluvchi sukunli تاء harflarni qabul qilish fe'lning alomatlari hisoblanadi».¹ Fe'lning alomatlari haqidagi ma'lumot va ba'zi misollaridan so'ng uning sinflari tasniflanadi.

¹ شرح الأنموذج فى النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 134

«Mufasssal»da esa «al-Unmuzaj»dan farqli ravishda fe'lga ta'rif berib, keyin uning xossalariga o'tilgan. Kitobda fe'l ta'rifi quyidagicha keladi: *voqea-hodisaning zamonga bog'lanishiga dalolat qiladigan so'z turkumi fe'l deyiladi*.¹ Fe'lga ta'rtif berib, unga misol va sharhlar keltiriladi.

Yana bir nahvshunos alloma Ibn Hojib fe'l haqida shunday deydi. *الفعل: ما دل على معنى في نفسه مقترن بأحد الأزمنة الثلاثة* «Uchta zamondan biriga bog'lanib mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi so'z turkumi fe'l deyiladi».² Ibn Hojib fe'lga aniq va lo'nda berilgan. Fe'llarning xususiyatlari zikr qilingach, uning turlari xususida fikr yuritiladi. «Hidayatu-n-Nahv» kitobida unga quyidagicha ta'rif beradi. *الفعل: كلمة تدل على معنى في نفسها مقترنة بزمان ذلك المعنى* «O'z ma'nosida biror zamonga bog'liq bo'lib, mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi kalima fe'l deyiladi».³ Ibn Yaish «Mufasssal»ning sharhida fe'lga quyidagicha ta'rif bergan: *فأما الفعل فكل كلمة تدل على معنى في نفسها مقترنة بزمان*, mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi kalima fe'l deyiladi».⁴ Zujajiy fe'lga quyidagicha ta'rif beradi: *الفعل: كل لفظة دللت على معنى مقترن بزمان محصل* «Muayyan zamonga bog'liq bo'lgan ma'noga dalolat qiluvchi har bir lafz fe'l deyiladi». Ibn Aqiyl esa fe'lga o'zgacharoq yondashadi. *الاسم إن اقترن بزمان فهي الفعل* «Ism zamon bilan bog'lansa u fe'ldir».⁵

Kitobning asosiy qismi bo'lgan fe'l qismidagi ta'rif va uning misollarini kuzatilar ekan, boshqa nahvshunoslarning kitobida mazkur mavzudagi yondashuvlar uncha katta farq qilmaydi. Masalan: Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida fe'l ta'rifi Ibn Yaishning va Zujajiyning fe'lga bergan ta'rifi bilan bir xil, faqat ba'zi ma'noga ta'sir qilmaydigan darajada birlikdagi so'zlarda farqlanish bor. Ibn Yaish «Mufasssal»ning sharhidagi Zamaxshariyning fe'lga bergan ta'rifini odatdagiday to'g'ridan to'g'ri sharh qilmasdan fe'lga alohida ta'rif bergan. Chunki Ibn Yaish faqat bog'lanish fe'lga dalolat qilmasligini aytib ta'rifning boshiga kalima yoki lafz so'zini qo'yish afzal bo'lishini ta'kidlaydi.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa kalima va lafz so'ziga dalolat qiluvchi nisbiy olmosh bilan ifodalaydi. Ibn Hojib va Zamaxshariyning ta'riflaridagi yagona farq – Zamaxshariyning ta'riflarida *حدث* «voqea-hodisa» so'zining borligida. Biroq Ibn Aqil boshqa yo'ldan borib, fe'lni uning sharti bilan ta'riflaydi, ya'ni fe'l unga dalolat qiluvchi shartga ega bo'lsa, fe'l bo'la olishini ta'kidlaydi. Umuman olganda, tilshunoslar orasida bu yo'nalishda ixtiloflar deyarli mavjud emas. Demak, asar yozishda ularni mavzularga bo'lish va yuqoridagi fe'l ta'rifi ko'rinishidagi uslublar bir manhajga dalolat qiladi. Zamaxshariyning «al-Unmuzaj» asarida fe'lning ta'rifi berilmagani kuzatildi, chunki fikrimizcha, bu asar «Mufasssal»ning ixchamlashtirilgan sharhi hisoblanadi, muallif mavzuga ta'rif bermasdan, birdaniga misollarga o'tib ketgan, shu sababli asar qisqa uslubga asoslangan. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi fe'l ta'rifi uchta nahvshunos olimning ta'riflariga yaqin turishi bilan umumiy qamrovchi ta'rif degan xulosaga kelish mumkin. Fe'lning alomatlarini bir tur qatorida ifodalamasdan alohida-alohida zikr qilinadi.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida fe'l turlarini o'rganib chiqib, Zamaxshariyning «al-Unmuzaj» asarida fe'llarning turlari taqqoslangach, ikkita asardagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rish mumkin. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida muallif fe'llarni 10 turga ajratadi:

(1) *الماضى* «O'tgan zamon fe'li»;

¹ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفضل في علم العربية دار عمار - الأردن. 2003. صفحة 1243

² العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 161

³ جماعة من العلماء البارعين. هداية النحو. مكتبة البشري بكراتش باكستان. 2011م. ص 10.

⁴ العلامة ابن يعيش. شرح المفضل في صنعة الإعراب. إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص 912

⁵ صلاح الدين الزعلاوي. الدراسات في النحو. المكتبة الشاملة. ص 95

- (2) المضارع «Hozirgi kelasi zamon fe'li»;
- (3) الأمر «Buyruq mayli»;
- (4) المتعدي و غير المتعدي «O'timli va o'timsiz fe'llar»;
- (5) المبني للمفعول «Majhul fe'llar»;
- (6) أفعال القلوب «Taxmin, gumon, hisoblash ma'nosidagi fe'llar»;
- (7) الأفعال الناقصة «Noqis yordamchi fe'llar»;
- (8) أفعال المقاربة «Ish-harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fe'llar»;
- (9) فعلى المدح و الذم «Maqtov va tahqir fe'llari»;
- (10) فعلى التعجب «Taajjubni ifoda qiluvchi fe'llar»¹.

Zamaxshariyning «al-Unmuzaj» asarida fe'llarni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridan farqli ravishda 11 turga bo'ladi²:

- (1) الماضى «O'tgan zamon fe'li»;
- (2) باب المضارع «Hozirgi kelasi zamon fe'li»;
- (3) الأمر «Buyruq mayli»;
- (4) المتعدي «O'timli fe'llar»;
- (5) غير المتعد «O'timsiz fe'llar»;
- (6) المبني للمفعول «Majhul fe'llar»;
- (7) الأفعال الناقصة «Noqis yordamchi fe'llar»;
- (8) أفعال القلوب «Taxmin, gumon, hisoblash ma'nosidagi fe'llar»;
- (9) باب أفعال المقاربة «Ish-harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fe'llar»;
- (10) باب فعلى المدح و الذم «Maqtov va tahqir fe'llari»;
- (11) باب فعلى التعجب «Taajjubni ifoda qiluvchi fe'llar».

«Mufassal»da fe'llarning turini 12 qismga ajratiladi. Fe'llar turining ketma-ketligi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi bilan bir xil berilgan. Faqat «Mufassal»da fe'llarning turi ko'proqdir. Ikki fe'l turini الفعل الثلاثى «Uch o'zakli fe'llar», الفعل الرباعى «to'rt o'zakli fe'llar»ni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarida zikr qilmagan. Ibn Hojib ham fe'llarni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi kabi 10 turga bo'lgan.³ «Kofiya»da باب المبني للمفعول «Majhul fe'llar» istilohi o'rniga فاعله «foili zikr qilinmagan fe'l»deb keltiriladi. Zamaxshariyning «al-Unmuzaj» asarida fe'l turini 11 ta deyilgan bo'lsa ham «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi adad bilan bir xil desa bo'ladi. Chunki «Unmuzaj»da «O'timli va o'timsiz fe'llar»ni alohida zikr qiladi, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa ularni bitta mavzu qilib o'rganadi. Asarlardagi fe'llarning turlari va ketma-ketligi, nomlanishida farq oz. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi adad bilan «Unmuzaj»da asar bir xil deyilsa, undan boshqa asarlarda ham mana shu izchillikni kuzatish mumkin. «Kofiya» asarida kuzatilgani kabi fe'l turlari va ularning ketma-ketlik xususiyati «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Unmuzaj»dagi bilan bir xil.

Olim fe'l qismida avval fe'l tushinchasi va uning belgilarini tushuntirgandan keyin yana bir fasl ajratib unda fe'l turlarini zikr qilgan. Keyin o'tgan zamon fe'li haqida so'z boshlab uni o'tgan zamon bobi deb ataydi. Unda quydagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. هو ما دل على معنى وجد فى الزمان الماضى «o'tgan zamonda mavjud bo'lgan ma'noga dalolat qiluvchi ish-harakat o'tgan zamon fe'li deyiladi». Masalan; ضرب «u urdi», أكرم «u hurmat qildi». Bu fe'llar noto'g'ri fe'llar bo'lmasa oxirgi harakati

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. – 169b.

² شرح الأنموذج فى النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 134

³ العلامة ابن الحاجب الكافية فى النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 161-188



fathaga tugab, u o'zgaras bo'ladi. Agar fe'llar shaxs sonda tuslanganda ularning oxirigiga harflar qo'sxilib harakatlari ham o'zgaradi. Bu mavzuda qisqa malumotlar berilgan bo'lsa ham olim unga bitta bob ajratgan.

Keyingi bob kelasi zamon fe'li bobi katta bob bo'lib, olim bu bobni to'qqiz qismga bo'lib o'rganadi.

Olim kelasi zamon fe'lini quyidagicha ta'riflaydi. *هو ما يعاقب في أوله الزوائد الأربع* «O'tgan zamon fe'li oldidan kelib, unga hozirgi va kelasi zamon ma'nosini beruvchi to'rt ziyoda harf unga bog'langan fe'li»¹. Ular ت, ي, ن, ا harflari bo'lib, ا harfi birinchi shaxs birlik olmoshi ma'nosida يفعل, ن birinchi shaxs ko'plik olmoshi ma'nosida تفعل, ت ikkinchi shaxs ayol kishiga murojat qilish va uchinchi shaxs ayol kishini ifoda qiluvchi olmosh ma'nosida تفعل, ي uchinchi shahs birlik olmoshi ma'nosida يفعل fe'llar oldiga qo'sxilib fe'llar shu zaylda tuslanadi.

Fe'llarning oxirgi harakati uchta holatda bo'ladi. رفع fe'lining harakati ُ zamma "u" bilan, نصب fe'lining harakati ِ fatha "a" bilan, جزم fe'lining harakati ْ skun belgisi bilan ya'ni unli harfga tugamasdan undosh harfga tugashidir. O'zbek tilidagi fe'llarga qiyoslaydigan bo'lsak raf holati darak mayliga, nasb holati istak mayliga, jazm holati shart mayliga to'g'ri keladi.

Fe'llarning harakati ُ zamma "u" bilan tugashiga kelsak u ma'noviy sintaktik o'zgarish bilan bo'ladi. Fe'l unda ism ishtirok qilishi to'g'ri bo'ladigan o'rinda kelishidir. Masalan; زيد يضرب «Zayd uryapti». ُ zamma "u" bilan tugayapti.²

Arab tili grammatikasida fe'llarning nasb holati istak maylida kelishi uchun hozirgi kelasi zamon fe'li oldidan maxsus yuklamalar keladi. Asarda fe'llarning nasb holati istak maylida kelishini talab qiluvchi yuklamalar soni to'rtta ekanligini ta'kidlaydi. Ular ان, اُن va لَنْ va اَنْ yuklamalari bo'lib bular fe'ldagi ma'noni o'zgartiradi. Zamaxshariy "Mufasssal"da bu yuklamalar sonini zikr qilmasdan ularga to'rtta misol keltirgan. Bundan kelib chiqadiki, Zamaxshariy ham ularni to'rtta turga bo'lgan³.

Mustafo G'alayoniy esa fe'llarni nasb holatiga qo'yuvchi yuklamalar soni o'nta ekanligini sanab o'tadi. Ular: اذن, اَنْ, ان, واو المعية, فاء السببية, لام الجود, لام كى, كى, أو, حتى.

Said Sharif Jurjoniy⁴ va Ibn Hojib⁵ ham fe'llarning nasb holatida kelishini talab qiluvchi yuklamalar soni to'rtta ekanligini bildiradi.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy fe'llarning nasb holatida kelishiga quyidagi misollarni keltiradi. Masalan; أرجو أن يغفر لي «Alloh meni kechirishini umid qilaman». Misoldagi اُن harfi kelasi zamonni ifoda qiladi. *لن أبرح الأرض «Bu erdan hecham qimirlamasman». اُن harfi mutloq inkorni bildiriyapti. جئت كي تعطيني «Menga berishing uchun keldim». اُن harfi sababning bir turini bayon qilgan. Unday bo'lsa seni hurmat qilaman. اُن harfi oldingi gapga javob bo'lib keladi.⁶ Ardabaliy اُن harfi bilan kelgan fe'l oldingi gapga suyanmagan bo'lsa va kelasi zamonni ifoda qilsagina nasb holatida bo'ladi, deydi.⁷ Zamaxshariy esa faqat nasb holatida kelishiga misol bilan cheklangan. Xorazmiy esa اُن harfi bilan kelgan fe'l oldingi gapga suyanagan bo'lsa, اُن ko'makchisining vazifasi bekor bo'ladi. Shartning javobi bo'lsa ko'makchidan keyingi fe'l shart maylida keladi. Ega va kesim

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. -171a.

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. -171b.

³ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 247.

⁴ مير سعيد شريف الجرجاني، نحو مير، مكتبة البشري، باكستان- كارجي، 2011م. ص40.

⁵ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 164.

⁶ O'sha asar-174a

⁷ شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد الله لغنى حقه علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة

الآداب - بالقاهرة. 1999. ص138.



munosabatlari ko'rinishida bo'lsa *raf* holatida ifodalaniladi. «Allohga qasamki, buni qilmayman». Bu jumladagi fe'lni aniqlik maylida o'qish kerak. Mazkur qoidlardan keyin shoir Kasirning tovil vaznidagi quyidagi she'riy bayti keltirilgan.

لَقَدْ عَادَ لِي عَبْدِ الْعَزِيزِ بِمِثْلِهَا

وَأَمْكَنْتَنِي مِنْهَا إِذْنٌ لَا أَقِيلُهَا¹

Qasamki menga Abdulaziz o'shaning o'xshashini qaytarsa,

Unga imkon bersa, unday bo'lsa uni hecham tark qilmayman.

Olim bu baytning davomida shunday deydi- *إِنْ* ko'makchisi shart gapdan, egadan va qasamdan keyin kelsa uning fe'lga ta'sir qilish vazifasi kesiladi. Lekin *إِنْ* ko'makchisi gapda qaysi ma'noda kelganligini zikr qilmagan. Sibavayh *إِنْ* ko'makchisidan keyin kelgan *لَا أَقِيلُهَا* fe'li qasamning javobi bo'lganligi sababidan *raf* holati aniqlik maylida kelgan deydi(K3.15). Bayt oldidan *إِنْ* ko'makchisining shart gapdan va egadan keyin kelishiga misollar keltirib, oxirida qasamni ifoda qiladigan jumlaning misol qilib, keltirganiga qaraganda, Xorazmiy ham Sibavayh kabi qasamning misolini nazarda tutganligi ko'rinadi.

بِضَمْرٍ أَنْ بَعْدَ خَمْسَةِ أَحْرَفٍ فَيَنْتَصِبُ الْفِعْلُ بَعْدَهَا بِإِضْمَارٍ أَنْ. va undan keyingi fe'l yashiringan *أَنْ* sababidan tushim kelishigida bo'ladi.

Ular quydagilar: 1. *إِلَى* harfi "ga" ma'nosida bo'lib, undan keyin *أَنْ* harfi yashiringan. Masalan: *سِرْتُ حَتَّى أَدْخُلَهَا* «kirgunimcha yurdim». Agar *حَتَّى* harfidan keyingi fe'l hol bo'lsa, uning kelishigi *raf* holati darak maylida bo'ladi. *مَرَضَ فُلَانٌ لَا يَرْجُوهُ* «ular undan umidini uzadigan holatgacha bemor bo'ldi».

2. *لَامٌ* harfi ikki turga bo'linadi. Birinchisi *كِي* "uchun" ma'nosida keladi. Masalan: *لَأَنْ جِئْتُكَ* «meni hurmat qilishing uchun keldim».² *لَامٌ* harfidan keyin yashiringan *أَنْ* harfini ham keltirish ixtiyoriy. Ammo bo'lishsiz gapda *أَنْ* harfini keltirish shart bo'ladi. Masalan: *لَأَنْ تَعْطِيَنِي* «menga bermasliging uchun».

Ikkinchisi *لَا تَكْثِيرُ الْفِي* inkorni ta'kidlash uchun keladi. Masalan: *مَا كُنْتُ لِأَضْرِبَنَّكَ* «Men seni hecham uruvchi emasman». Bunday gaplarda inkorni ta'kidlash uchun keladigan *لَامٌ* harfidan keyin yashiringan *أَنْ* harfini keltirish joiz bo'lmaydi.

Suhayliy bu mavzuni ikkita *لَامٌ* harfi *لَا كِي* va *لَا الْجُودُ* nomi bilan nomlab bayon qiladi. *لَا كِي* ko'makchisi *السَّبَبُ* "sabab"ni bayon qiladi. *لَا الْجُودُ* "inkor lomi" va *مَا كَانَ* bo'lmadi ko'rinishida keyingi fe'lning ish harakatini inkor qilishini bildiradi.³ Suhayliy bu mavzuda ikkala harfni bir butin ko'rinishida bayon qilgan bo'lsa Xorazmiy alohida yondashadi. Ularning fikri *لَا كِي* harfidan keyin *أَنْ* harfi kelishi joiz va *لَا الْجُودُ* dan keyin joiz bo'lmasligi haqidagi qarashlari muvofiq keladi. Ammo inkor lomining atalishida va uning vazifasi hususida farq bo'lib, Xorazmiy *لَامٌ* harfining ikkinchi ma'nosini faqat inkor emas inkorni ta'kidlash ma'nosida kelganligini bayon qiladi.

3. *إِلَى* harfi ham *كِي* ma'nosida keladi. Masalan: *لَأَنْ تَعْطِيَنِي حَقِّي* «Haqimni bermaguningcha sendan ajralmayman».⁴ Olim qoidaga mazkur she'rni keltiradi.

فَقُلْتُ لَهُ لَا تَبْكُ عَيْنُكَ إِنَّمَا

نَحَاوِلُ مُلْكًا أَوْ نَمُوتُ فَتَعْذُرَا

Men unga ko'zlaring yig'lamasin dedim

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. –172b.

² O'sha asar-176a

³ أبو القاسم عبد الرحمن بن عبد الله السهيلي، نتائج الفكر تحقيق الشيخ عادل أحمد عبدالموجود، دار الكتب العلمية، بيروت-لبنان، 1996م. ص106.

⁴ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. –177a.



Biz o'lgunimizgacha podshohlikka harakat qilamiz va uzrli bo'lamiz.

Bu bayt joxilyat shoiri Imrul Qaysga tegishli bo'lib, tovil vaznida yozilgan. Olim she'ring tahlilida Sibavayhning fikrini keltiradi. Sibavayh bu she'rdagi نموٓ fe'li nasb istak maylida kelgan bo'lsa ham uni teng bog'lovchi yoki qaytadan boshlangan gap ko'rinishida, raf holatida, darak maylida berish mumkin, deydi.

4. «birlashtiruvchi vav harfi». «sut ichib, baliq yema». Olim uning sharhida ikki ishni bir vaqtda qilmaslikni ifoda qilyapti deydi. * لا تلبسوا الحق بالباطل و تكتموا الحق *.

Oyatning sharhida fe'li yashiringan أن sababidan nasb holatida, teng bog'lovchi bo'lib kelsa jazm holati shart maylida bo'lishini ta'kidlaydi. Ibn Jinniy bu oyatni Xorazmiy kabi sharhlaydi. Farqli jihati Ibn Jinniy «birlashtiruvchi vav harfi» و او الجمع fe'li oldidan kelganda ma'nosida bo'lib, shuning uchun jazm holati shart maylida kelyapti, deydi. Undan tashqari Ibn Jinniy و او الجمع «birlashtiruvchi vav harfi»ni «Tuslash vav»i deb atagan.¹

Xorazmiy bu qoidaga kengroq yondashib ba'zi holatlarda «vav»dan keyingi fe'l nasb holati istak maylida emas raf holati darak maylida kelishi mumkinligini ham bayon qilgan. Bunga misol sifatida Kab G'anaviyning «to'viy» vaznida yozilgan she'riy baytini keltiradi.

ما أنا للشيء الذى ليس نافعى
و يغضب منه صاحبي بقوول

«Sharhi Rizo» kitobida bu she'riy baytning ma'nosi quyidagicha berilgan.

Menga foyda bermaydigan so'zdan hojamni g'azabini qo'zg'aydigan biror narsani gapirmasman.² Xorazmy bu baytdagi يغضب «g'azablanadi» fe'li raf holati darak maylida va nasb istak maylida bo'lishini aytadi. Buni «Sharhi Rizo» kitobi ham tasdiqlab, يغضب «g'azablanadi» fe'li ga bog'lab rafda darak maylida, tushim kelishigida o'qish joiz bo'ladi, deydi.

5. harfi oltita narsaning javobida undan keyin kelgan fe'l nasbda, istak maylida keladi.³

Buyruq fe'lining javobi; أتى فأكرمك «menga ber, seni hurmat qilaman»

Qaytarish ma'nosidagi fe'lining javobi: * لا تطغوا فيه فيحل عليكم غضبى *.

Ushmanglarki, u holda ustingizga mening azobim tushadi» [Toho-81].

Inkor fe'lining javobi; ما تأتينا فتحدثنا «Kelmayapsan, gaplashardik».

So'roq gapning javobi; هل أسألك فتجيبني «Sendan so'rasam javob berasanmi».

Istak xohishning javobi: * يا ليتنى كنت معهم فأفوز فوزا عظيما *.

Istak xohishning javobi: * يا ليتنى كنت معهم فأفوز فوزا عظيما *.

birga bo'lib, ulug' zafarga erishsam edi».

«Mehmon bo'lmaysanmi, yaxsxilik ko'rarding». Bu mavzu «Unmuzaj» risolasida ham mazkur ketma ketlikda yoritilgan. harfining beshta ko'rinishida Zamaxshariy va Xorazmiyning fikrlari bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Zujajiy bu mavzuga o'zgacha yondashib, uchta holatni bayon qiladi. Masalan; ما تأتينا فتحدثنا «Kelmayapsan, gaplashardik», متى تخرج فأخرج معك «Koshkiydi, molim bo'lganida, ehson qilardim», «Qochon chiqsang sen bilan chiqaman».⁴ Xorazmy harfini boshqa o'rinda zikr qilgan edi. Zujajiy harfi bilan bog'liq bo'lgan boshqa misollarni bermagan.

Umumiy fe'llarning nasb holati istak maylida kelish holatini ko'radigan bo'lsak, Mustafo G'alayoniy eng ko'p o'nta holatni zikr qilgan edi. Xorazmy esa to'rtta holatda fe'l istak maylida nasb holatida kelishini, yana yashiringan أن harfi sababidan beshta holatda va harfi bilan bog'liq

¹ أبو الحسن على بن الحسين الباقولي الأصفهاني، شرح اللمع، إبراهيم بن محمد أبو عبة، إدارة الثقافة و النشر بالجامعة، 1990م، 654

² محمد بن الحسن الإستراباذي السمناني النجفي، شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية الجزء الرابع. 1996م، ص77

³ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. -178a.

⁴ أبو القاسم عبدالرحمان ابن إسحاق الزجاجي، الجملة فى النحو، تحقيق على توفيق الحمد، دار الأمل، بالأردن، 1984م، ص194.

bo'lgan yana beshta holatda fe'l nasb holatida kelishini zikr qilib o'tdi. Keltirilgan holatlarni tahlil qilinsa Xorazmy mavzuni qismlarga bo'lib kengroq o'rgangani ko'rinadi. Yana bir holat G'alayoniy لا الجود "inkor lomi"ni alohida turga kiritgan bo'lsa, Xorazmy uni "Lam" harfi qoidasining tarkibida boshqa nom bilan zikr qiladi. Undan tashqari G'alayoniy واو المعية deb nomlagan "vav" harfini Xorazmy واو الجمع "birlashtiruvchi vav harfi" deb nomlagan. Umuman olganda «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida bu mavzu qismlarga bo'lib to'raligicha yoritilganligini ko'rish mumkin.

Arab tilida shart ergash gapli qo'shma gapda bosh gapdagi fe'l va ergashgan gapdagi fe'l ham uning javobi sifatida shart maylida bo'ladi. Shart ergash gapdagi fe'llarning oldidan fe'lining ma'nosiga va uning mayliga ta'sir qiladigan yuklamalar kelishi mumkin. Asarda fe'llarning nasb holati istak maylida kelishi mavzusidan keyin fe'llarning jazm shart maylida kelishi xususiyatlari yoritiladi. Olim bu faslni جواز الفعل المضارع «hozirgi kelasi zamon fe'lining jazm holatlari» deb, ataydi. Mavzuni jazm holati shart maylini talab qiluvchi yuklamalar sonini keltirish bilan boshlaydi. انجزامه بخمسة أحرف «hozirgi kelasi zamon fe'li beshta harf bilan jazm holati shart maylida bo'ladi».¹ Ular quydagilar; Birinchi; لم o'tgan zamondagi mutloq inkorni ifoda qiladi. Masalan; لم يضرب «Hecham urmadi» Ikkinchi; لما yuklamasi nutq paytigacha davom etib kelayotgan inkorni bildiradi. Masalan; لما يضرب «Hali urmadi» Uchunchi; لا yuklamasi qaytarish ma'nosida keladi. Masalan; لا تفعل «Qilma» To'rtinchi; لا الأمر yuklamasi buyruqni ifoda qiladi. Masalan; ليكرم «U hurmat qilsin» Beshinchi; إن harfi "agar" ma'nosida bo'lib, shart va uning javobi uchun. Masalan; إن تخرج أخرج «Chiqsang chiqaman».

«Yana إن harfi shart ma'nosini o'z ichiga olgan to'qqizta ism»(KT180a).² Bu ismlardan keyin kelgan hozirgi kelasi zamon fe'li jazm holati shart maylida keladi.

1. من يكرمني أكرمه «Kim, kimki» ma'nosida. Masalan: Kimki meni hurmat qilsa uni hurmat qilaman»

2. ما تصنع أصنع «Nima, nimaiki» ma'nosida. Masalan; ما تصنع أصنع «Nima yasang men ham yasayman».

3. أيهم تضرب أضرب «Qaysi, qaysiki» ma'nosida. Masalan; أيهم تضرب أضرب «Ularning qaysisini ursang, uraman».

4. أين تكن أكن «Qayerda bo'lsang, bo'laman».

5. متى تخرج أخرج «Qachon, qochonki» ma'nosida. Masalan; متى تخرج أخرج «Qachon chiqsang, chiqaman».

6. حيثما تجلس أجلس «Qayerda bo'lsa ham» ma'nosida. Masalan; حيثما تجلس أجلس «Qayerda bo'lsa ham o'tirsang o'tiraman».

7. إذ ما تفعل أفعل «Qochonki qilsang, qilaman».

8. أتى تصنع أصنع «Qanday, qandoq» ma'nosida. Masalan; أتى تصنع أصنع «Qandoq yasang, yasayman».

9. مهما تذهب أذهب «Nima bo'lsa ham» ma'nosida. Masalan; مهما تذهب أذهب «Nima bo'lsa ham borsang, boraman».

Boshqa nahv kitoblarida bu mavzuning yoritilishi va shart maylini talab qiluvchi yuklamalar soni va ma'nolariga e'tibor beradigan bo'lsak, Ahmad Hadiy Maqsudiy "Istekmal" kitobida fe'lining shart maylida kelishini talab qiluvchi yuklamalarni 12 turini zikr qiladi³. Ko'rinib turibdiki, Ahmad Hadiy Maqsudiy shart maylini talab qiluvchi yuklamalarning sonida Xorazmiy asaridan uchta yuklama ziyoda keltirgan. Bular إذا va أيان va كيفما yuklamalari bo'lib, bular xususida boshqa nahvshunoslarning qarashlarini qiyoslasak masala oydinlashadi.

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. –179b.

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. –180a.

³ Ahmad Hadiy Maqsudiy "Istekmal", Lito – Tipografiya I.N. Xaritonova, 1909 yil, 178 bet.IM

Aliy Jasim o'z kitobida «qachon, qachonki» ma'nosidagi ismni shaklida berib, ikkalasi ham bir xil vazifada ekanligini anglatib unga quyidagi misolni keltiradi. إذا ما تضبط انفعالاتك عند الغضب تملك إذا ما تضبط انفعالاتك عند الغضب تملك. «qachonki g'azablanganingda his-hayojonlaringni jilovlasang vaziyatni qo'lga olasan»¹.

Makaviy esa shart harflari deb, ikkita إذا va yuklamalarini, shart ismlari deb, 11ta ismni kiritadi. أيان ismini ma'nosida keltiradi². Ibn Hojib كيفا va ismlari yashiringan إن harfi bilan kelishi juda kam holatlarda bo'ladi deydi³. «Rafu-hijab» kitobida كيفا ismidan keyingi fe'l jasm holatida kelishiga Kufa nahvshunoslari ruxsat bergan lekin basraliklar man qilgan deydi. Muallif arablar kitobida كيفا ismi shart maylida kelgan holatiga birorta misol topa olmadim, deydi⁴. Nahvshunoslarning bayoniga ko'ra, birinchi Xorazmy zikr qilmagan أيان ismi ma'nosida kelib ikkalasi bir xil ma'noni berarkan. Ikkinchi إذا yuklamasi yuklamasi bilan bir xil ekan. Uchinchi yuklamalari juda kam holatlarda shart ismi bo'lib kelarkan. Misollardan ko'rinadiki, olim to'qqizta ismni keltirgan bo'lsa ham ular eng ko'p ishlatiladigan ismlar hisoblanadi. Qolgan uchtasi boshqa ismlarning o'xshashi yoki manodoshi undan tashqari juda kam ishlatiladigan turlardan hisoblanadi. Shuning uchun olim bu mavzuda ko'p nazariy qarashlarni keltirmagan.

Ba'zida fe'llar hech qanday ism yoki harfsiz jazm holati shart maylida kelishi mumkin. Olim buni quyidagicha bayon qiladi. بجزم الفعل ب(إن) مضمرة إذا وقع جوابا لأمر. «Fe'l agar buyruq gapning javobi bo'lsa jazm holati shart maylida bo'ladi»⁵. Birinchi- انتى أكرمك «Menikiga kel. Seni ikrom qilaman». Ikkinchi- أين بينك أزرك «Uying qayerda? Seni ziyorat qilaman». Bu gapda so'roq gapning javobi bo'lgan أزرك fe'li jazm holat shart maylida kelgan. To'rtinchi- ليتة عندنا يحدثا «Koshki u oldimizda bo'lganda gapirar edi». Istakni ifoda qilivchi gapdan keyin kelgan fe'l jazm holati shart maylida ifoda qilinyapti. Beshinchi- ألا تنزل تصب خيرا «Mehmon bo'lib tushmaysanmi (agar mehmon bo'lsang) yaxshilik topasan». Taklif ma'nosidagi jumladan keyin kelgan fe'l jazm holati shart maylida kelgan. «Sharh-Jumla» kitobida Sodril Afodil bog'lovchisi bilan javob beriladigan narsalarning javobida shart fe'li yashirinadi deb, ularning soni to'rtta ekanligini ta'kidlaydi⁶. Xorazmy keltirgan misollarni keltiradi. Zamaxshariyning «Mufasssal» kitobida ham bu qoida va misollar bir xil ekanligini ko'rish mumkin⁷. Bu qoidada ikkita olimning qarashlari, kitob ta'lif qilish uslublari ustoz Zamaxshariy misoliga mosligi ayon bo'lyapti. Olim yana bir muhim masalaga e'tiborini qaratib, agar gapda shartning javobi maqsad qilinmagan bo'lsa, jazm holati shart maylida bo'lmaydi. Bu qoidaga misol sifatida Hotiyaning quyidagi tovil vaznidagi she'ri keltiriladi.

متى تأتة تعشو إلى ضوء ناره

تجد خير نار عندما خير موقد

Qachonki olovning yorug'iga intilib kelsang,

*Uning oldida yaxshi yoquvchi bo'lgan yaxshi olovni topasan*⁸.

Xorazmy bu she'rdagi fe'li shart maylidagi fe'lining javobi emas balki hol vazifasida kelganini bayon qiladi. Aynan arab tilida fe'llar haqida yozilgan fundamental asar hisoblangan «Sharh-shofiya»

¹ علي جاسم سلمان، موسوعة معاني الحروف العربية، دار أسامة الأردن-عمان، 2003م، ص257.

² محمد عبدالشافي مكاي، كتاب النحو، الجزء الثاني، دار التقوى، مصر، 2023م، صفحة305.

³ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند ص119.

⁴ جمال الدين عبدالله بن احمد بن علي الفاكهي، كشف النقاب-رفع الحجاب، جمعه محمد الأمين بن عبدالله بن يوسف، الجزء الثاني، دار المنهاج، لبنان-بيروت، 2011م، صRX2.508.

⁵ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. -180

⁶ صدر الأفاضل القاسم بن الحسين الخوارزمي، ترشيح العلل في شرح الجمل، تحقيق عادل محسن سالم العميري، جامعة أم القرى، مكة المكرمة، 1998م، ص192.

⁷ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق فخر صالح قدادة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 253

⁸ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. -182a

kitobida ham bu she'riy bayt keltirilgan. She'rdagi shart maylidagi fe'ldan keyin kelgan *fe'lini* hol vazifasida kelib, raf holida aniqlik maylida bo'lishini ta'kidlaydi¹. Xorazmiyning fikrlari fe'llarning e'robi mavzusida ham boshqa arab tilida fe'l mavzusida yozilgan asarlardagi fikrlarga uyg'undir.

Kitobda buyruq fe'li qisqa bayon qilingan. Buyruq fe'li aniqlik maylidagi fe'lining ortiqcha harfi tushirib qoldirilib, fe'l undosh harf bilan tugab "sukun" to'xtash belgisi qo'yish orqali yasaladi. Masalan: *تضرب* kelasi zamon fe'lidagi *ت* harfi tushirib qoldirilib, uning oxirgi undosh harfga "sukun" to'xtash belgisi qo'yiladi. Tushirib qoldirilgan *ت* harfi o'rniga *ا* alif qo'yiladi va *اضرب* buyruq fe'li hosil bo'ladi. Bu bobda olim ikkinchi shaxs buyruq fe'lining *اللام* harfi bilan ham yasali shaklini aytib o'tgan. Bunga misol sifatida quyidagi oyatni keltiradi. *فبذلك فلتفرحوا* «O'sha bilan xursand bo'linglar» [QK.Yunus-58]. Bu shaklda buyruq yasash haqida Ibn Hojib to'xtalmagan. Axshaf esa ikkinchi shaxs buyruq fe'liga *اللام* harfi kirish fikriga qo'shilmagan². Anbariy arablar tilida ko'p ishlatilishi sababli *اللام* harfi va kelasi zamonni ifoda qiluvchi harf tushirib qoldirilganligini ta'kidlaydi³. Ko'plab nahv kitoblarida ikkinchi shaxs buyruq fe'liga *اللام* harfi kirishini keltirmagan. Xorazmiy esa bu masalada olimlar fikri turli xil bo'lishiga qaramay oyatni misol qilib keltirib, bu qoidaga to'xtalib o'tgan.

Arab tilida ham o'timli va o'timsiz fe'llar bo'lib, o'zbek tilidagi bu ma'nodagi fe'llarga juda o'xshash bo'lmasa ham ma'lum miqdorda qiyoslasa bo'ladi. Olim o'timli va o'timsiz fe'llarni fe'l mavzusida o'rganishni lozim ko'rgan. Ba'zi nahv kitoblarida bu mavzu to'ldiruvchi mavzusida keltiriladi. Asarda o'timli fe'llar uch qismga bo'lib o'rganilgan. *أحدها متعد إلى مفعول واحد* «Ularning birinchisi bitta to'ldiruvchiga o'timli bo'ladi». Masalan; *ضربت زيدا* «Zaydni urdim». *متعد إلى مفعولين* «Ikkinchisi; Ikkita to'ldiruvchiga o'timli bo'ladi». Masalan; *علمت زيدا منطلقا* «Zayd ketganligini bildim», *أعطيت زيدا درهما* «Zaydga dirhamni berdim». Shamsiddin Sujaiy ikkita to'ldiruvchi ishtirok qilgan jumlada o'sha ikkita to'ldiruvchi ega va kesim bo'lib kelishi yoki ikkalasi alohida so'z bo'lishi mumkin, deydi⁴.

Xorazmiy bunga boshqacha yondashib to'ldiruvchining bittasini tushirib qoldirish joiz bo'lgan o'rinlar va tushirib qoldirish mumkin bo'lmagan o'rinlar misolida ko'rsatadi. Bu fikrni Ibn Yaish ham qo'llaydi⁵. *Uchinch; Uchta to'ldiruvchiga o'timli bo'luvchi fe'l*. Masalan; *أعلمت زيدا عمرا فاضلا* «Zaydga Amrning afzal ekanligini bildirdim». Bundan tashqari olim uchta to'ldiruvchini talab qiladigan fe'llarning yana oltitasini zikr qilib o'tadi. Bu masalada Doktor Yusuf Alyan o'z tadqiqotlarida ikkita uchta to'ldiruvchini talab qiladigan fe'llar qismida boshqacha yondashib, bu to'ldiruvchilar haqiqiy to'ldiruvchilar emas, aslida ulardan oldin kelish kerak bo'lgan old ko'makchilar tushib qolganligini ta'kidlaydi⁶. Lekin bu masalada ko'pchilik nahvshunoslarning fikri yakdil bo'lganidan keyin olim bunga to'xtalmagan bo'lishi mumkin.

O'timli fe'llar bilan birga o'timsiz fe'llar bitta bobda zikr qilingan bo'lib, jumladan olim o'timsiz fe'llar haqida shunday deydi. *غير المتعدى ما يقتصر على الفاعل و لم يتجاوز الى المفعول به*. «O'timsiz fe'l ega bilan cheklanuvchi va to'ldiruvchi talab qilmaydigan fe'l»⁷. Masalan: *ذهب زيد* «Zayd bordi».

¹ العلامة جمال الدين أبي عبدالله محمد بن عبدالله بن مالك الطائي الجبائي، حققه عبد المنعم هريري، شرح الكافية الشافية، دار المأمون للتراث، 1982م، ص1608.
² صدر الأفاضل القاسم بن الحسين الخوارزمي، شرح المفصل في صنعة الإعراب بالتحمين، الجزء الثالث، التحقيق عبدالرحمان بن سليمان العثيمين، دار الغرب الإسلامي، بيروت - لبنان، 1990م، ص259.

³ عبد الرحمن بن محمد بن عبيد الله الأنصاري، أبو البركات، كمال الدين الأنباري تحقيق محمد بهجة البيطار، أسرار العربية، مطبعة الترقى، دمشق الطبعة: 1377هـ/صفحة318

⁴ شهاب الدين السجاعي، حاشية السجاعي على شرح ابن عقيل المسماة: فتح الجليل، الجزء الثالث، تحقيق بلال محمد حاتم السقاء، دار التقوى، دمشق، 2023م، ص144.

⁵ العلامة ابن يعيش شرح المفصل في صنعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بديع يعقوب، دار الكتب العلمية ببيروت، 2001م، الجزء الرابع، صفحة201،

⁶ الدكتور يوسف عليان، الدراسة، جدلية الفعل المتعدى و اللازم، جامعة الملك خالد، السعودية، تأريخ القبول 2010م، ص43.

⁷ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. -186b

Olim keyingi bobni للمفعول باب المبنى «Majhul darajadagi fe'l bobi» deb atab, unda unda to'ldiruvchilarning ega o'rnida kelish xususiyatlarini yoritadi. Majhul darajadagi fe'lni quyidagicha ta'riflaydi. «Majhul fe'l» هو ما استغنى عن الفاعل فأقيم المفعول مقامه و أسند إليه و عدل به عن صيغة فعل إلى صيغة فعل foildan behojat bo'ladi va to'ldiruvchi foilning o'rini egallaydi. Shuningdek fe'l فعل vaznidan shakliga o'zgaradi». Masalan; ضرب زيد «Zayd urildi». Bu shakldagi jumla foili egasi zikr qilinmagan jumla deb ataladi. Romaniy fe'llarning majhul nisbatda kelib egasi zikr qilinmaydigan gap turini fe'llar qismida emas ism qismida zikr qiladi. U ham bunday jumlaning ma'lamasi «Uning egasi zikr qilinmagan gap» deb atagan¹.

Sadiddin Taftazoniy ham majhul darajadagi fe'l mavzusini Xorazmiy kabi yoritadi. Majhul fe'lning egasi uni ulug'lash, tilingni undan saqlash, yoki uni tahqirlash uchun va u haqida bilmaganing uchun zikr qilmasliging mumkin. Bu asosan maoniy ilmlarida o'rganiladi, deb qo'shimcha qiladi². To'ldiruvchi esa foil egaga aylanadi. O'timsiz majhul nisbatdagi fe'llardan keyingi so'z old ko'makchi bilan keladi. Masalan; ذهب زيد «Zayd olib borildi». Payt holi ham foil bo'lib keladi. Masalan: سیر يوم الجمعة «Juma kuni sayr qilindi». Agar fe'l ikki to'ldiruvchini talab qiladigan fe'l bo'lsa, uning birinchisi bosh kelishikda ikkinchisi tushim kelishigida keladi. Masalan; علم زيد منطلقا «Zayd ketganligi bilindi» Agar fe'l uchta to'ldiruvchini talab qiladigan fe'l bo'lsa birinchi to'ldiruvchi bosh kelishikda qolgan ikkitasi tushim kelishigida kelib, to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Masalan: أعلم زيد «Zaydga Amr insonlarning yaxshisi ekanligi bilindi». O'timli fe'lning to'ldiruvchisi foil ega bo'lib kelishini avvalgi nahvshunoslar rad qilgan bo'lsa keyingilar qo'llagan. Ular ham Xorazmiy keltirgani kabi to'ldiruvchining faqat birinchisi foil - ega bo'la oladi, deydilar³.

Arab tilida gumonni ifoda qiluvchi fe'llar alohida mavzu sifatida o'rganiladi. Xorazmiy bu bu fe'llarni «Qalb fe'llari bobi»da keltirib, ularni «gumon qilmoq fe'li va ularning o'xshashlari» deb nomlagan. Olim gumonni bildiruvchi fe'llarning yettita turini zikr qiladi.

1. ظننت «o'yladim fe'li»
2. حسبته «hisobladim fe'li»
3. تخليت «taxmin qildim fe'li»
4. زعمته «gumon qildim fe'li»
5. علمته «bildim fe'li»
6. رأيته «ko'rdim fe'li»
7. وجدت «topdim fe'li»⁴

Olim bu fe'llarni quyidagicha sharhlaydi. إذا كن بمعنى معرفة الشيء على صفة، تدخل على المبتدأ والخبر. «Bu fe'llar biror narsani sifati bilan bilish ma'nosida bo'lsa, ega va kesimga kirib, fe'l ularni to'ldiruvchi o'rnida qilib tushim kelishigida kelishini talab qiladi». Masalan: علمت زيدا فاضلا «Zayd afzal ekanligini bildim», ظننته كريما «Akangni yaxshi ekanligini ko'rdim», رأيته أخاك جوادا «Zayd afzal ekanligini bildim», علمته عاقلا «uni aqlli deb taxmin qildim», زعمته ليبيا «Uni ziyrak deb gumon qildim».

Ibn Hishom Ansoriy «gumon qilmoq fe'li va ularning o'xshashlari»ni sakkizta ekanligini ta'kidlab, «xabardor bo'lmoq» fe'lini ziyoda qiladi⁵. Ammo bu fe'l «bildim fe'li» bilan sinonim hisoblanadi. Shuni hisobga olsak, ikkita olimning fikri bir-biriga yaqin. Zamaxshariy

¹ الإمام أبي الحسن علي بن فضال المجاشي، تحقيق الدكتور حنا جميل حداد، شرح عيون الإعراب، مكتبة المنار، الأردن-الزرقاء، 1985م، ص87. ShUE.

² العلامة سعد الدين التفتازاني، تحقيق الدكتور عبد الكريم الزبدي، إرشاد الهادي، دار البيان العربي، 1985م، ص161.

³ من عمله يوسف حسن عمر، شرح الرضى على الكافية الجزء الأول، سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالبنغازي، 2008م، ص217.

⁴ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. -190b

⁵ أبو محمد عبدالله جمال الدين بن هشام الأنصاري، شرح قطر الندى، دار الكتب العلمية، بيروت-لبنان، 2004م، ص160.

esa bu fe'llarni Xorazmiy kabi yettita turga bo'ladi¹. Abdulqohir Jurjoni ham Zamaxshariy va Xorazmiy kabi mazkur fe'llarning yettitasini zikr qiladi. Ulardan uchasi shakllanishni, uchasi ishonchni va bittasi mushtarak ma'noni ifoda qilishini ta'kidlaydi². Mutarziy bu fe'llarni shaklni va ishonchni ifoda qiluvchi fe'llar deb, yettitasini zikr qiladi³. Sakkokiy esa bu fe'llarning sonini yettita ekanligini aytib, «bildi» fe'lining ma'nosi atrofidagi tegishli ma'noda bo'lsa, shu toifaga kiradi deydi⁴. Taftazoniy uning asli ega va kesim bo'lgan ikkita so'zni nasb qiluvchi yettita fe'l deb, mazkur fe'llarni zikr qiladi⁵. Ko'rib turganimizdek O'rta Osiyo nahvshunoslari bu masalada bir xil yondashgan. Xorazmiy bu fe'llarning xususiyatlarini ham bayon qiladi. Mavzuga doir quyidagi qoidani keltiradi; *و خلت يتعديان أبدا إلى مفعولين، لهذه الأفعال خصائص. منها: أنها تعمل ما دامت متقدمة على المفعولين حسبت، و خلت يتعديان أبدا إلى مفعولين، لهذه الأفعال خصائص. منها: أنها تعمل ما دامت متقدمة على المفعولين* حسبت، و خلت يتعديان أبدا إلى مفعولين، لهذه الأفعال خصائص. منها: أنها تعمل ما دامت متقدمة على المفعولين. So'zni tushim kelishigida boshqaradi. Bu fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ulardan biri: ko'rganing kabi bu fe'llar ikkita boshqarilayotgan so'zdan oldin kelsa ularning kelishigiga ta'sir qiladi. Agar u ikkalasini o'rtasida yoki ulardan keyin kelsa ularning amali bekor bo'ladi». Alloma ikki karra o'timli fe'llarning qoidasini zikr qilib, uning dalili uchun bayt keltiradi:

أبالأراجيز يا ابن اللؤم توعدى
و فى الأراجيز خلت اللؤم و الخور

«Ey yomonlik egasi rajaz vaznidagi she'rlar bilan menga tahdid qilyapsanmi, holbuki men sening rajazlaringda razillik va zaiflik bor deb o'ylayapman»⁶.

She'rning ma'nosi «Avdah al-Masalik» kitobida quyidagicha beriladi; *أراجيز* so'zi ko'plikdagi so'z bo'lib uning birlik shakli *أرجوزة* hisoblanadi. Uning ma'nosi rajaz vaznida yozilgan she'rlarga nisbat beriladi. Rajaz vaznidagi boshqa she'rlar qasida deyiladi.⁷ Said Sharif Jurjoni *أرجوزة* so'zi she'r vaznlaridan birining ismi bo'lib, undan murod *هجا* "hajv va haqoratlash" maqsad qilingan.⁸

Sibavayhning «Kitob» asarida bu bayt to'liqroq sharh qilinadi; *أنت لا تريد: أ توعدى بأراجيزك و أنت لا تحسن الشعر و التصرف فى أنواعه، أين رجك من الشعر، إن الأراجيز مظلة لؤم الطبيعة و ضعف النفس.* (She'r va uning turlarining o'zgarishini a'lo darajada qilmagan holingda menga rajazlaring bilan tahdid qilasanmi?! She'ringda rajaz qayerda, darhaqiqat rajazlarning tabiiy razillik va nafs zaifligi deb gumon qilingan»⁹.

Xorazmiy baytning sharhida *«men o'yladim»* fe'li ikkita to'ldiruvchining *أراجيز* va *«men o'yladim»* fe'li o'z egasi bilan muhtado bo'lgan so'z va uning xabari bo'lgan *أراجيز* so'zining orasida kelgan. Shu sababli fe'lining amali bekor bo'lgan. Agar fe'l so'z boshida kelganda ikkita so'z tushum kelishigida kelardi¹⁰.

Olim fe'lining mazkur xususiyatini yoritishda oddiy gaplardan foydalanmasdan baytni dalil qilib keltirishi mavzuning ahamiyatini ko'rsatadi. Chunki olim hamma qoidani dalillashda she'rlardan foydalanmagan. «Kofiya» va arab va arab bo'lmaganlar o'rganuvchilar tomonidan sevib o'qiladigan

¹ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدادة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 260

² الشيخ الإمام عبد القاهر الجرجاني، شرح مائة عامل، مكتبة البشري، باكستان-كارجي، 2011م، ص32.

³ أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة. ص117.

⁴ الإمام أبو يعقوب يوسف بن أبي بكر بن محمد المعروف بالسكاكي، علق على الكتاب نعيم زرزور، دار الكتب العلمية، بيروت- لبنان، 1987م، ص90.

⁵ الإمام سعد الدين مسعود بن عمر التتازاني، تحقيق محمد دنون يونس الفتحي، شرح تصريف العزي، دار الرياحين، عمان-الأردن، 2023م، ص121.

⁶ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» FASHI qo'lyozmalar fondi 10518-raqamli qo'lyozma nusxasi. 192A

⁷ عبد الله بن يوسف بن أحمد ابن هشام، أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك، الجزء الثاني، المكتبة العصرية ببيروت، 2008م، صفحة 58.

⁸ علي بن محمد بن علي الحسيني الجرجاني يعرف بالسيد الشريف أو السيد السند شرح أبيات المفصل. المملكة العربية السعودية، صفحة 260.

⁹ أبو بشر سيبويه إمام النحاة . كتاب سيبويه في النحو. الجزء الأول، مكتبة الخانجي بالقاهرة. 1988م، ص120.

¹⁰ عبد الله بن يوسف بن أحمد ابن هشام، أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك، الجزء الثاني، المكتبة العصرية ببيروت، 2008م، صفحة 59.



“Ajrymiya” kitobida mazkur qoidalarini dalillashda she’riy baytlardan foydalanmaganini hisobga olsak, Xorazmiyning uslubi o’zgachaligi ko’rinadi.

باب الأفعال الناقصة Noqis fe’llar bobi. Bu bobda 9ta fasl keltirilgan. Bobda 13ta yordamchi fe’llarni zikr qilgan;

Bu fellar كان و صار و أصبح و أمسى و أضحى و ظل و بات و ما زال و ما برح و ما فتي و ما انفك و ما دام و ليس bo’ldi, bo’lib qoldi, aylandi, davom etdi, emas, yo’q ma’nolarini ifoda qiladi¹.

باب أفعال المقاربة Ish –harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fe’llar bobi. Bu bob ikkita faslni o’z ichiga oladi va 4 ta fe’lni zikr qiladi.

Bu fe’llar كاد و كرب و أوشك و عسى ish-harakatning bajarilish arafasida turganligini yoki ish –harakatning bajarilishiga oz fursat qolganligini ifoda qiladi. Ularning jummalarda turli xil ma’noda kelishini bayon qiladi².

Maqtov va tahqir fe’llari bobi. Bu bobda ikkita fasl kelgan.

باب فعلی التعجب Ikkita taajjubni ifoda qiluvchi fe’l bobi. Bu bob bitta faslni o’z ichiga oladi. Bu fe’llar ikki shaklda ishlatilishini ta’kidlaydi³.

Shu bilan kitobning fe’l qismi nihoyasiga yetadi. Bu qism 10ta bob 34 fasldan iborat ekanligini ko’rish mumkin. Ismlar qismidan ancha muxtasar yozilgan.

«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asarida muallif fe’llarni 10 turga ajratadi. Zamaxshariy «al-Unmuzaj» asarida fe’llarni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asaridan farqli ravishda 11turga bo’ladi. «Mufasssal»da fe’llarning turini 12 qismga ajratadi. Fe’llar turining ketma-ketligi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asaridagi bilan bir xil berilgan. Faqat «Mufasssal»da fe’llarning turi ko’proq berilgan, ikki fe’l turini الفعل الثلاثي «Uch o’zakli fe’llar», الفعل الرباعي «to’rt o’zakli fe’llar»ni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarida zikr qilmagan. Ibn Hojib ham fe’llarni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asaridagi kabi 10 turga bo’lgan. «Kofiya»da باب المبنى للمفعول «Majhul fe’llar» istilohi o’rniga الفعل ما لم يسم فاعله «foili zikr qilinmagan fe’l»deb keltiriladi. Zamaxshariyning «al-Unmuzaj» asarida fe’l turini 11 ta deyilgan bo’lsa ham «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asaridagi adad bilan bir xil desa bo’ladi. Chunki «Unmuzaj»da «O’timli va o’timsiz fe’llar»ni alohida zikr qiladi, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa ularni bitta mavzu qilib o’rganadi. Asarlardagi fe’llarning turlari va ketma-ketligi nomlanishida juda katta farq topilmadi. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asaridagi adad bilan «Unmuzaj»da asar bir xil deyilsa, undan boshqa asarlarda ham mana shu izchillikni kuzatish mumkin. «Kofiya» asarida kuzatilgani kabi fe’l turlari va ularning ketma-ketlik xususiyati «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» va «Unmuzaj»dagi bilan bir xil.

Olim fe’llarni fasllarga bo’lishda fe’llarning turlaridan kelib chiqib taqsimlagan. Ba’zida mavzu qisqa bo’lsa ham alohida faslga bo’ladi. Bu esa qoidalarining aralashib ketishining oldini olib, o’quvchiga tushunarli bo’lishini ta’minlagan. Fe’llarning tushim kelishigida va jazm holatida kelishini yoritishda unga amil bo’ladigan asosiy sabablarni bayon qilib, keyin uning qo’shimcha xususiyatlarini yoritadi. Bu holat boshqa asarlarda umumiy o’rganilganligi e’tiborga olinsa olim har bir mavzuga xususiy yondashganligi ko’rinadi.

Xulosa. Bu maqola Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida fe’lning nazariy asoslanish prinsiplarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada Xorazmiyning fe’lga bergan ta’rifi, uning belgilari, turlari va ushbu turlarning boshqa nahvshunos olimlar, xususan, Zamaxshariyning “al-Unmuzaj” va “Mufasssal” asarlari bilan qiyosiy tahlili batafsil yoritilgan.

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» FASHI qo’lyozmalar fondi 10518-raqamli qo’lyozma nusxasi. 201A

² O’sha asar 193b

³ O’sha asar 206a



Unda Xorazmiyning “o‘rtamiyonalik” uslubi alohida ta’kidlangan, bunda nazariy ta’riflar amaliy misollar, Qur’oni Karim oyatlari va she’riy baytlar bilan boyitilgan. Bu yondashuv Zamaxshariyning ba’zi asarlarida kuzatiladigan ta’rifsiz to’g’ridan-to’g’ri misollarga o’tish yoki boshqa olimlarning haddan tashqari qisqa ta’riflaridan farqli o’laroq, mavzuni har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Maqolada fe’l turlarining tasnifi bo’yicha Xorazmiy (10 tur), Zamaxshariy (11 tur), Ibn Hojib (10 tur) va “Mufasssal” (12 tur) orasidagi o’xshash va farqli jihatlar aniq ko’rsatib o’tildi. Xususan, o’timli va o’timsiz fe’llarni bitta bobda o’rganish, “Qalb fe’llari”ning 7 turi, shuningdek, noqis yordamchi fe’llar, ish-harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fe’llar, maqto’v va tahqir fe’llari, taajjubni ifoda qiluvchi fe’llar kabi asosiy grammatik kategoriyalar atroflicha ko’rib chiqildi.

Shuningdek, maqolada fe’llarning aniqlik (*raf*), istak (*nasb*) va shart (*jazm*) mayllarida kelishining murakkab jihatlarini, ularni talab qiluvchi yuklamalar (harflar va ismlar) va ularning vazifalari, boshqa nahvshunoslar fikrlari bilan qiyosan tahlil qilindi. Ayniqsa, “ان” harfining yashirin kelishi, “Lam”, “Av”, “Vav al-jami”, “Fa” harflarining vazifalari she’riy baytlar misolida chuqur tushuntirildi. Xorazmiyning nazariy qoidalarini dalillashda Qur’on oyatlari va klassik arab she’riyatidan foydalanishi uning ilmiy yondashuvining kuchli tomoni sifatida baholandi.

Ushbu maqolada Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarining arab tili grammatikasi, xususan, fe’l nazariyasi rivojida o’rni ochib berilgan. Unda olimning nazariy qarashlarining dalillanish prinsiplari, boshqa nahvshunoslar bilan o’zaro aloqalari va uslubiy o’ziga xosliklari ilmiy asosda tahlil qilingan bo’lib, bu sohada tadqiqotlar uchun muhim manba bo’lib xizmat qiladi.



ARAB XALQ OG‘ZAKI IJODIDA HAYVONLAR ALLEGORIYASI

TOXIR XAMZAYEV

O‘qituvchi, TDSHU

Annotatsiya: Xalq og‘zaki ijodi insoniyat madaniyatining eng qadimiy va eng asosiy shakllaridan biridir. Ayniqsa, arab xalq og‘zaki ijodida hayvonlarga oid atamalar, maqollar va hikmatli so‘zlar keng tarqalgan. Bu so‘zlar xalqning ijtimoiy hayoti, axloqiy qadriyatlarini va dunyoqarashining muhim qismiga aylangan. Hayvonlar ramzi o‘ziga xos qiyofa, xarakter va insoniy sifatlarni ifodalashda og‘zaki va yozma adabiyotda keng qo‘llaniladi.

Tadqiqotda hayvon nomlarining ma’nolari kontekstga qarab qanday farqlanishi va turli madaniyatlarda bu ma’nolarga qanday ta’sir qilishi ayrim misollar orqali ko’rsatib berilgan. Tadqiqotda so‘zlar, iboralar va maqollar kabi arab adabiyotidan olingan hayvon nomlari tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, bu hayvon nomlari doimiy va bevosita ma’noni bildiruvchi denotativ ma’noga ega bo’lishi bilan birga, madaniy kontekstga bog‘liq konnotativ (ya’ni, bilvosita) ma’nolarni ham anglatadi. Denotatsiya so‘zning lug‘aviy va aniq ma’nosini, ya’ni lug‘atlarda topilishi mumkin bo‘lgan ma’noni bildirsa, konnotatsiya esa so‘z bilan bog‘liq ijobiy yoki salbiy qo‘shimcha ma’nolarni anglatadi. Shu sababli arabshunos olimlar so‘z ma’nosini aniqlashda kontekstual omillarning muhimligini ta’kidlaydi. So‘z ma’nosi asosan so‘zlovchini o‘rab turgan muhitga bog‘liq bo‘ladi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, mazkur maqolada arab xalq og‘zaki ijodida hayvonlar bilan bog‘liq atamalar, maqollar, matallar va hikmatli so‘zlarning tahlili amalga oshiriladi. Shuningdek, bu atamalarining madaniy, ijtimoiy va lingvistik jihatlarini ko’rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Arab xalq og'zaki ijodida hayvon nomlari, tuyay (جمل), echki (نيس) tulki (ثعلب), sher (أسد), it (كلب), bo'ri (نئب), eshak (حمار), cho'chqa (خنزير), hayvon (حيوان), ilon (حية) atamalarining ma'no anglatish xususiyatlari.

Annotation: Oral folk literature represents one of the earliest and most fundamental forms of human cultural expression. In Arab oral tradition in particular, animal-related terms, proverbs, and aphorisms are widely prevalent. Such expressions have become an integral part of the society's moral values, worldview, and social life. Symbolic representations of animals are frequently employed in both oral and written literature to convey distinctive appearances, character traits, and human qualities.

The study demonstrates, through various examples, how the meanings of animal names may vary depending on context, and how these meanings are shaped by different cultural frameworks. The research analyzes animal-related terms derived from Arabic literature, including words, expressions, and proverbs.

The findings indicate that these animal names carry both denotative meanings—direct, dictionary-based definitions—and connotative meanings that are influenced by cultural context. While denotation refers to the literal and explicit meaning of a word as found in lexicons, connotation encompasses the additional positive or negative associations tied to that word.

Therefore, Arabists emphasize the importance of contextual factors in determining the meaning of a word. The meaning is often shaped by the speaker's environment and cultural background.

In addition, this article provides an analysis of terms, proverbs, sayings, and wise expressions related to animals in Arab oral tradition. The cultural, social, and linguistic dimensions of these expressions are also examined in detail.

Keywords: Animal Names in Arab Oral Tradition, the semantic features of the terms camel (جمل), goat (نيس), fox (ثعلب), lion (أسد), dog (كلب), wolf (نئب), donkey (حمار), pig (خنزير), animal (حيوان), and snake (حية).

Аннотация: Народное устное творчество является одной из древнейших и основополагающих форм человеческой культуры. Особенно широко в арабском народном устном творчестве распространены термины, пословицы и мудрые высказывания, связанные с животными. Эти выражения стали важной частью социальной жизни народа, его нравственных ценностей и мировоззрения. Образы животных широко используются в устной и письменной литературе для выражения характерных черт, качеств и человеческих свойств.

В исследовании на примерах показано, как значения названий животных варьируются в зависимости от контекста и как различные культуры влияют на эти значения. Анализируются названия животных, взятые из арабской литературы, включая слова, выражения и пословицы. Результаты показывают, что эти названия животных обладают не только постоянным и прямым денотативным значением, но также коннотативными (то есть косвенными) значениями, зависящими от культурного контекста. Денотация обозначает словарное и точное значение слова, то есть то, которое можно найти в словарях, тогда как коннотация включает положительные или отрицательные дополнительные смыслы, связанные с этим словом. Поэтому арабисты подчеркивают важность контекстуальных факторов при определении значения слова. Значение слова в основном зависит от окружающей говорящего среды.

Кроме того, в данной статье проводится анализ терминов, пословиц, поговорок и мудрых выражений, связанных с животными в арабском народном устном творчестве. Также рассматриваются культурные, социальные и лингвистические аспекты этих выражений.

Ключевые слова: Названия животных в арабском народном устном творчестве, семантические особенности терминов: верблюд (جمل), коза (نيس), лиса (ثعلب), лев (أسد), собака (كلب), волк (نئب), осёл (حمار), свинья (خنزير), животное (حيوان), змея (حية).

Kirish. Arab tilida hayvonlarga oid atamalar va iboralar juda keng qo'llaniladi. Ushbu atamalar orqali inson xarakteri, uning xislatlari, ijtimoiiy holati va hissiyotlari ifodalanadi. Masalan, “tulki” so'zi arab tilida “hiylakorlik” va “zuhdlik”ni bildiradi (Al-Azmeh, 1996, p. 45). Shu bilan birga, “sher” (yo'lbars) so'zi jasorat va kuch timsoli hisoblanadi (Badawi, 1992, p. 78).

Tashqi ko‘rinish, xatti-harakat, aql-zakovat va xarakter kabi omillar odamlarning hayvon nomlarini insonlarga nisbatan ishlatishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, hayvon nomining jinsi ham uning ma‘nosini butunlay o‘zgartirishi mumkin. Har qanday jamiyatda bo‘lgani kabi, hayvon nomlari arab jamiyatlarida ham muhim madaniy ahamiyatga ega. Ba‘zi arab ota-onalar bolalariga hayvonlarning ijobiy fazilatlaridan ilhomlanib, ularning nomini qo‘yishadi. Ya‘ni, ko‘plab arab erkak va ayollariga jozibador va kuchli yovvoyi hayvonlarning nomlari beriladi. Bunday an‘ana qadimgi arab tarixi va madaniyatida chuqur ildiz otgan bo‘lib, unda odamlar tabiat va atrof-muhit ta‘sirida shakllanadi. Inson sifatlarini hayvonlarga qiyoslab ifodalovchi “buqa kabi kuchli” (قوي مثل الثور) yoki “tulkidek ayyor” (ماكر مثل الثعلب) kabi iboralarini qo‘llash keng tarqalgan. Hayvon nomlariga murojaat qilish holatlari xalq og‘zaki ijodi – folklorda ham chuqur ildizga ega (Nesi, 1995). Ma‘naviy-ramziy ma‘noda, hayvon nomlarini insonlarga ko‘chirish har bir madaniyatda har xil talqin qilinadi. Masalan, Ringmar (2016, p. 113) ning ta‘kidlashicha, Taylandda ayol kishini “fil kabi yuradi” deb maqtab aytish odatiy hol sanaladi. Ammo, ayni ifoda Iordaniya madaniyatida juda haqoratli va qo‘pol so‘z sifatida qabul qilinadi, chunki bu ayolning semizligi haqida kinoya hisoblanadi va bu ijtimoiy jihatdan nomaqbul hisoblanadi.

Nutqda bunday hayvon atamalarining ko‘pligi arab tilining semantik boyligini ko‘rsatadi. Arab xalqi kundalik suhbatda hayvonlarga oid so‘zlar va iboralar orqali qisqa va aniq ma‘nolarni yetkazishga intiladi (Al-Mu‘jam al-Wasit, 2010).

Hayvon nomlari lug‘atlarda qat‘iy va aniq ma‘noga ega bo‘lsa-da, ular bilan bog‘liq madaniyatga xos ma‘nolar ham mavjud. So‘nggi tadqiqotlar hayvon nomlarining ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar esa hayvon nomlarining turli konnotativ ma‘nolari va ularning insoniy fazilatlar bilan qanday bog‘liqligini aniqlashga uringan. Masalan, Nesi (1995) turli hayvon nomlari bilan bog‘liq ko‘chma (majoziy) ma‘nolarni tahlil qilgan. Uning tadqiqoti turli madaniyatlardagi hayvon turlari va ular bilan bog‘liq ma‘nolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishni maqsad qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda so‘zlarni aniqlash uchun eng ko‘p ishlatilgan lug‘atlar — “Muajam Al Maani” (معجم المعاني) va “Al-Muajam Al-Wasit” (المعجم الوسيط) hisoblanadi. Bundan tashqari, tadqiqotda ko‘plab arab maqollari Maydani (2013) tomonidan tuzilgan “Majma’ al-amthal” (مجمع الأمثال) lug‘atidan olingan. Hayvon nomlarining lingvistik ma‘nolari berilgach, ularning turli majoziy va madaniy ma‘nolari ham ko‘rsatiladi. Bunday tahlillar tasodifiy emas, balki mashhur arab maqollari, iborolari va she‘riyatdagi qo‘llanilishiga asoslanadi.

Al-Jahiz (776-868) arab adabiyotining yorqin namoyandasi bo‘lib, hayvonlarga oid ilmiy asar yozgan ilk olimlardan biridir. U hayvonlarning tabiatini, xulqini, hamda insonlar bilan bog‘liqligini batafsil tahlil qilgan (Al-Jahiz, *Kitab al-Hayawan*, 1987). U hayvonlarning xatti-harakatlarini insoniy sifatlar bilan bog‘lab, ko‘plab metaforalar va allegoriyalar yaratgan. Misol uchun, Al-Jahizning fikricha, tulki insonga o‘xshab hiyla ishlatadi, sher esa kuch va jasorat timsolidir.

Bundan tashqari, arab she‘riyatida ham hayvonlar ramzi keng tarqalgan. Masalan, mashhur shoir Abu Nuvas (756–814) tulki, bo‘ri va sher kabi hayvonlarni inson xususiyatlarini ifodalash uchun metafora sifatida ishlatgan (Badawi, Muhammad Mustafa, *Modern Arabic Literature*, Cambridge University Press, 1992, p. 134-138).

Halupka-Resetar va Radic (2003) Serb tilida hayvon nomlarining odamlarga murojaat qilishda majoziy tarzda qo‘llanishini ya‘ni bu nomlar haqorat yoki erkalash maqsadida ishlatilishini o‘rganishgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi, odamlarni hayvon nomlari bilan atash orqali so‘zlovchining murojaat qiluvchiga bo‘lgan munosabatini qanday ifodalayotganini ko‘rsatish bo‘lgan. Buning uchun ular 100 ta so‘rovnoma asosida tajriba o‘tkazishgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, serb

tilida hayvon nomlari ko'proq haqoratomuz ma'noda ishlatiladi, erkalovchi (muhabbat ifodalovchi) ma'noda esa kamroq uchraydi. Hayvon nomlaridan foydalanishning asosiy pragmatik funksiyasi murojaat qilinayotgan shaxsning jismoniy xususiyatlari, aql-zakovati, xarakteri va xulq-atvorini ko'rsatishdir. Faqatgina ba'zi holatlarda bu nomlar salbiy sifatlarni, masalan, betoblik, haqorat yoki ahmoqlikni ifodalash uchun ishlatilgan.

Al-Makaui (2007) ta'kidlashicha, ismning ahamiyati turli omillar bilan bog'liqligi sababli yuzaga kelgan. Ushbu omillar orasida diniy omillar alohida o'rin tutadi ya'ni, ism o'z ahamiyatini muayyan diniy shaxs yoki voqea bilan bog'liqligi tufayli olishi mumkin. Odam Ato yaratilganidan beri ismlar insonlarning bilimlari va an'alarini aks ettirib kelgan. Arablar o'zlarining kuch-qudratini namoyon etish maqsadida o'zlariga kuchli ma'noga ega bo'lgan ismlarni tanlashgan, chunki ularning ishonishicha, inson o'z ismidan bir bo'lak fazilatni oladi.

Ahmad (2017) fikricha, ideal so'zlovchi bitta so'zdan cheksiz miqdordagi ma'nolarni yaratishi mumkin. Uning fikricha, bunday hol faqatgina so'zlovchilar so'zning lug'aviy ma'nosiga yopishib qolmay, balki majoziy (figurativ) ma'nolarni ham hisobga olganda yuzaga keladi. Shuningdek, u so'zlarni talqin qilishda ko'plab omillar, jumladan, grammatika va gap tarkibi elementlari muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. O'z tadqiqotida Ahmad, ayniqsa, birikma so'zlarga e'tibor qaratib, ular qanday qilib farq qiluvchi yangi ma'no hosil qilishini o'rgangan.

Shamsutdinova (2017) arab, ingliz va tatar tillaridagi hayvonlarga oid maqollarni o'rgangan. Tadqiqotda hayvonlar bilan bog'liq turli maqollarni topishga harakat qilingan. Maqollar namunasi onlayn matbuotdan olingan. Tadqiqot uchta o'zaro bog'liq bo'lmagan tildagi hayvon maqollarining soniga e'tibor qaratgan. Tadqiqot natijasida shunday xulosa qilindi: maqollar umuman olganda, bir madaniyatga oid odamlarning qarashlarini ifodalashda vosita vazifasini bajaradi. Maqollarga ikki omil ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, ularning an'analari orqali davomiyligini ta'minlash, ikkinchidan esa yangi ma'nolarga moslashish imkoniyati.

Ben Salam va Maalej (2018) ikki xil shevada — Saudiya Arabistoni arab tilisi va Tunis arab tilisi dialektlarida hayvonlarga oid maqollarning ishlatilishini o'rgangan. Tadqiqotda maqollarda hayvon nomlari uchraydigan turli holatlar tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, hayvonlarga oid maqollar diskursga bog'liq ma'noga ega bo'lib, ularning ma'nosi atrof-muhitga qarab o'zgaradi. Bundan tashqari, hayvon nomlariga murojaat qilinganda ikki submadaniyat doirasida uchraydigan umumiy sahnalarni ham ochib beradi.

Arab xalqi og'zaki ijodida maqollar va matallar muhim o'rin tutadi. Ularning ko'pchiligi hayvonlar timsoli orqali qisqa va aniq hayotiy haqiqatlarni ifodalaydi. Hayvonlar obrazlari orqali inson xarakteri, hayotiy tajribalar va ijtimoiy holatlar tasvirlanadi. Maqollar tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zi hayvonlar an'anaviy ravishda ma'lum sifatlar bilan bog'lanadi. Masalan:

— ذئب (dhi'b) — bo'ri: Hiylakor, tahdid soluvchi odam uchun qo'llanadi. “جائع كالذئب” (Bo'ri kabi och) — Judayam qorni och ma'nosida ishlatiladi. “الذئب لا يغير عادته” (Bo'ri o'z odatini o'zgartirmaydi) maqoli insonning tabiiy xulqini o'zgartira olmasligini bildiradi (Ibn Manzur, *Lisan al-Arab*, 1990, p. 213). “الذئب لا يغير طبيعته مهما تغيرت الظروف” (Vaziyatlar qanday bo'lmasin, bo'ri tabiatini o'zgartirmaydi) — Bu maqol inson tabiatining o'zgarmasligini ta'kidlaydi.

— ثعلب (tha'lab) — tulki: Zukkolik, hiyla. “الثعلب لا يصطاد إلا ما يراه” (Tulki faqat ko'rgan narsasini ovlaydi) maqoli esa ehtiyotkorlik va atrofga diqqat bilan qarashni anglatadi (Al-Jahiz, *Kitab al-Hayawan*, 1987, p. 75).

— أسد (asad) — sher: Jasorat, kuch, rahbarlik. “كالأسد في الشجاعة” (Sher kabi jasur) iborasi kuch va mardlikni ifodalaydi (Badawi, *Modern Arabic Literature*, 1992, p. 78). “الأسد لا يصطاد الفئران” (Sher



sichqonlarni ovlamaydi) — Buyuk odam kichik masalalar bilan shug'ullanmaydi ma'nosini ifodalamoqda.

Arab tilida hayvon nomlari ko'pincha insonlarning yomon xulqini yoki holatini tanqid qilish uchun ham ishlatiladi. Masalan:

— كلب (kalb) — it: Ko'pincha so'zlashda yomon ma'noda ishlatiladi, "it kabi" deganda yomon odam yoki yomon xulqli kishiga nisbatan ishlatiladi. Og'zaki nutqda ko'pincha so'kish ma'nosida "يا" — "Ey it!" deb ishlatiladi. "وفي مثل الكلب" (It kabi sadoqatli) — Sadoqatli odamni ta'riflashda ishlatiladi. "الكلب كلب ولو لبس جلد أسد" (It itdir, hatto sher terisini kiygan bo'lsa ham) — Pastkash odam o'zgarishsiz qoladi degan ma'noni ifodalamoqda.

— حمار (himar) — eshak: Insonning beaql, ahmoq ekanligini ifodalashda ishlatiladi. G'azabni ifodalashda ham "حمار غبي" — "Ahmoq eshak" deb ishlatiladi. "عنيد كالحمار" (Eshak kabi qaysar, o'jar) — Qaysar (ba'zida chidamli) insonlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

— ضبع (daba') — giyena: Yomon niyatli, ikkiyuzlama, ayyor, jirkanch, mayitxo'r ma'nolarini ifodalashda ishlatiladi. "الضبع تكل من وراء الأسد" — "Giyena sher ortidan yeydi" Bu ibora o'zi ishlamay, faqat boshqalar mehnatidan foydalanuvchi odamga nisbatan ishlatiladi.

— خنزير (khinzir) — cho'chqa: Yomon, iflos va axloqsiz odamni ta'riflashda ishlatiladi.

— حيوان (hayawan) — hayvon: Madaniyati past, axloqsiz odamni ifodalashda ishlatiladi.

— جمل (jamal) — tuya: Bardavomlik va chidamlilik timsoli. Chidamli odamni ta'riflashda ishlatiladi. "صبور مثل الجمل" — "Tuya kabi sabrli". Arab xalq og'zaki ijodida tuya juda kuchli ramziy ma'noga ega bo'lgan hayvondir. U madaniy, iqtisodiy, diniy va estetik jihatdan arab xalqlari hayotida katta o'rin egallagan. Sahro xalqlari uchun tuya — "cho'l kemasi", ya'ni uzoq safarlarda asosiy transport vositasi bo'lgan. Shuningdek, tuya go'shti, suti va junidan foydalanilgan. Shu sababli tuya boylik, sabr, tirikchilik va baraka ramzi sifatida tilga olinadi. Shu bilan birgalikda, tuya orqali odamlarning o'z ayblarini ko'rmasligi, boshqalarning aybini ko'rishi ham aytiladi: "الجمل لا يرى سنامه، ويرى سنام غيره" — "Tuya o'zining o'rkachini ko'rmaydi, ammo boshqaning o'rkachini ko'radi" Bu maqolda odamlarning o'z ayblarini ko'rmay, faqat boshqalarning kamchiligini tanqid qilishlari haqida aytiladi.

Bundan tashqari, arab maqollarida ba'zan hayvonlarning o'zaro munosabatlari ham insonlar orasidagi ijtimoiy vaziyatlarni yoritishda ishlatiladi. Misol uchun, "الأسد لا يصطاد مع الذئب" (Sher bo'ri bilan ov qilmaydi) maqoli, kuchli va zaif o'rtasidagi tafovutni anglatadi (Al-Mu'jam al-Wasit, 2010, p. 412).

"الغراب لا يحسد النسر" (Qarg'a burgutga hasad qilmaydi) — Bu maqol kishi o'z o'rnini bilishi, o'ziga qarshi kuchsizlarga hasad qilmasligini bildiradi (Ibn Manzur, 1990, p. 320). Shuningdek, o'zidan kuchlilarni tan olish ma'nosi ham bor.

"الحصان لا يركب إلا من يجيده" (Ot faqat uni yaxshi haydovchi boshqaradi) — Malaka va tajriba muhimligini ta'kidlaydi (Al-Jahiz, 1987, p. 90).

Arab madaniyatida hikmatli so'zlar va aforizmlar (حكم وأمثال) hayotiy tajriba va donolikni qisqa, lekin chuqur ma'noli shaklda ifodalash vositasi hisoblanadi. Hayvonlarga oid hikmatli so'zlar ko'pincha inson tabiatining murakkab tomonlarini, ijtimoiy munosabatlarni va axloqiy qadriyatlarni ochib beradi. Misol uchun, hayvonlar orqali berilgan hikmatlar ko'pincha insonning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, aql-zakovat va sabr-toqatni ta'kidlaydi. Quyida mashhur arab hikmatlaridan namunalar keltiriladi:

"الصبر مفتاح الفرج كالسلحفاة تمشي ببطء لكنها تصل إلى هدفها" (Sabr — muvaffaqiyat kalitidir, xuddi sekin yuruvchi toshbaqa kabi, lekin o'z maqsadiga yetadi) Bu aforizm sabr-toqatning qadriyatini hayvon timsoli orqali yoritadi (Al-Azmeh, 1996, p. 88). Bu o'rinda toshbaqa sabr va matonat ramzi sifatida tasvirlangan.

"من ثعلب فكرته ومن أسد شجاعته" (Aqli (fikrlashi) tulkidan, jasorati sherdan)



Bu soʻzlar inson xarakterining murakkab jihatlarini hayvonlar orqali ifodalaydi (Al-Jahiz, *Kitab al-Hayawan*, 1987, p. 99). Bu ibora balogʻatli (mazmunli va obrazli) tarzda aytilgan boʻlib, ikki hayvonga oʻxshatish orqali bir insonning fazilatlarini taʼriflaydi:

1. “Tulkining aqlidan (fikridan)” – bu jumla orqali insonning aql-zakovati, ayyorligi, hushyorligi nazarda tutilgan. Tulki koʻpincha xalq ogʻzaki ijodida ziyrak va hiylakor hayvon sifatida tilga olinadi.

2. “Sherning jasoratidan (shijoatidan)” – bu bilan insonning qoʻrquv bilmasligi, jasurligi, mardligi ifodalanadi. Sher esa doimiy ravishda qudrat va jasorat ramzi hisoblanadi. Bu ibora odatda aqlli va jasur insonlarni tavsiflash uchun ishlatiladi – yaʼni, fikrlashda tulkidek ayyor, harakatda esa sherdek qoʻrqmas va dadil degan maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladi.

“لا تعطي للكلب عظمك فإنه لن يتركك أبداً” (*Itga suyagingni bermagin, u seni hech qachon tark etmaydi*) Bu hikmat inson munosabatlaridagi ishonchsizlik va ehtiyotkorlikni ifodalaydi (Ibn Manzur, *Lisan al-Arab*, 1990, p. 178). Bu ibora majoziy maʼnoda ishlatiladi va agar sen haqqiga noloyiq, minnatdorchilikni bilmaydigan yoki zararli odamga yaxshilik qilsang, u odam bu yaxshilikni qadrlamaydi, hatto undan foydalanib, sening ortingdan tushib oladi yoki senga zarar yetkazadi, va keyinchalik undan qutulish qiyin boʻladi, degan fikrni bildiradi.

“أفقر من فأر الكنيسة” (Cherkov sichqonidan ham kambagʻalroq) Bu ibora mubolagʻa vositasi bilan kambagʻallikni taʼriflash uchun ishlatiladi. Ogʻzaki soʻzlashuvda: *والله، أفقر من فأر الكنيسة!* (Uning ahvoli qanday? — Qasamki, cherkov sichqonidan ham kambagʻal!) ham tez-tez uchraydi.

“أجوع من كلبة حومل” (Havmal - Hijoz va Najd oʻrtasidagi qadimiy choʻl hududi (koʻpincha shoirlar sahro hayoti, bepushtlik, yolgʻizlik ramzi sifatida tilga olgan choʻldagi urgʻochi itdan ham ochroq) Bu yerda joy nomi boʻlib, bu atrofda oziq-ovqat yoki tirikchilik manbasi yoʻqligi sababli ochlik timsoli sifatida ishlatilgan. Tarfat ibn al-ʻAbd kabi qadimgi shoirlar choʻl hayotidagi qiyinchiliklar va ochlik haqida gapirar ekan, urgʻochi it (كلبة)ni ochlik ramzi sifatida tilga olishgan. Chunki choʻlda boquvchisi yoʻq urgʻochi hayvonlar doim och, zaif va toʻngʻillovchi boʻladi.

Arab tilida hayvon atamalarining ogʻzaki nutqda va adabiyotda qoʻllanilishi semantik kenglik va kontekstga bogʻliq farqlarga ega. Masalan, “أسد” (asad, sher) soʻzi kuch va jasoratni bildirsada, u maʼlum dialektlarda va iboralarda boshqacha maʼnoda (masalan, qahramonlikdan tashqari) ishlatilishi mumkin (Versteegh, K., *The Arabic Language*, 2014, p. 233). Hayvon atamalarining sinonim va metaforik maʼnolari kontekstga qarab oʻzgarib turadi, bu holat ogʻzaki nutq boyligini oshiradi (Ryding, K., *Arabic Linguistics*, 2005, p. 190).

Arab va boshqa xalqlarning adabiyotida hayvon timsollari oʻxshashlik va farqlarni koʻrsatadi. Masalan, ingliz tilidagi “lion” (sher) timsoli kuch va qirolikni anglatadi, bu arab adabiyotidagi sher ramzi bilan yaqin (Griffiths, R., *Symbolism in World Literature*, 2001, p. 89). Ammo, oʻzbek adabiyotida masalan, tulki koʻproq hiyla va zukkolik bilan bogʻlanadi, arab adabiyotida esa uning ramzi yanada murakkabroq va koʻp qatlamli. Shuningdek, hayvonlarga oid maʼnaviy va falsafiy tushunchalar xalqlar oʻrtasida oʻxshash boʻlsa-da, ularning madaniy kontekstga koʻra ifodalanishi farq qiladi. Bu esa tarjima va madaniy almashinuv jarayonlarida qiziqarli tahliliy materiallarni beradi (Bassnett, S., *Translation Studies*, 2014, p. 76).

Arab madaniyatida hayvonlar koʻpincha diniy, ijtimoiy va falsafiy maʼnolar bilan boyitilgan. Masalan, Qurʼondagi hayvon timsollari insonning axloqiy yoʻnalishini belgilashda muhimdir (Nasr, S.H., *Islamic Science: An Illustrated Study*, 2006, p. 75). Tulki va sher timsoli qahramonlik, donolik va hiylakorlik kabi madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Shuningdek, hayvon ramzlari xalq ogʻzaki ijodida ijtimoiy sinflar va rollarni anglashda vosita boʻlib xizmat qiladi. Masalan, sher aristokratik kuch va rahbarlikni bildirsada, qargʻa esa pastroqlik va oʻzini himoya qilishni bildiradi (Badawi, M.M., 1992, p. 142).



Hayvonlar obrazlari inson psixologiyasida arxetip sifatida ko'riladi. Jung psixologiyasiga ko'ra, hayvon ramzlari insonning ichki instinktlarini va axloqiy qarorlarini ifodalaydi (Jung, C.G., *Archetypes and the Collective Unconscious*, 1969, p. 102). Arab madaniyatida bu ramzlar insonning xulqidagi turli jihatlarni, masalan, jasorat, hiyla, sabr, kuch va zaiflikni ramziy ifodalaydi. Ijtimoiy kontekstda esa, maqollar va aforizmlar orqali hayvon timsollari insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar, ishonch va urush kabi mavzularni yoritadi (Al-Azmeh, 1996, p. 113).

Hayvonlarga oid atamalar, maqollar va aforizmlar arab xalqining donolik merosi bo'lib, ularning tiliga semantik boylik va ifoda quvvati beradi. Quyida ba'zi hayvon nomlarining turli ma'no ifodalash xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

Al Jamal (الجمال) - Tuya

Qadimgi arab olamida tuyalar asosiy oziq-ovqat va boylik manbai sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ko'pincha tuya uzoq masofalarga og'ir yuklarni tashish uchun ishlatilgan yuk hayvoni hisoblangan. المعجم lug'atiga ko'ra, الجمل (tuya) so'zining lug'aviy (denotativ) ma'nosi uzun bo'lyi va uzun oyoqli sut emizuvchi hayvon turi. الجمل ning asosiy xususiyati orqasida bitta yoki ikkita o'rkach mavjudligi. Bu hayvon odatda quruq hududlarda yashaydi va uzoq vaqt oziq-ovqatsiz yoki suvsiz yashay oladi. Lug'aviy ma'nodan tashqari, الجمل so'zining so'zlovchilarning madaniy qarashlariga ko'ra bir qancha majoziy ma'nolari mavjud. Ba'zilar bu hayvonlarning tabiatidan kelib chiqadi, boshqalari esa Qur'onda tilga olinib, diniy maqomga ega.

الجمل so'zining eng mashhur majoziy ma'nolari:

Sabrlilik

Masalan, *Al Jamal* (الجمال) Qur'onda bir necha joyda sabr ramzi sifatida tilga olingan hayvon hisoblanadi. Qur'on uning yaratilishini maqtagan va odamlarni uning noyob tashqi ko'rinishiga e'tibor berishga chaqirgan:

“أَفَلَا يَنْظُرُونَ إِلَى الْإِبْلِ كَيْفَ خَلَقْتُ” (G'oshiya surasi, 17-oyat)

“Keyin ular tuyalarni yaratilishining qanday ekanligiga qarashmaydilar mi?”

Ushbu oyat الجمل so'zi bilan bog'liq konnotativ ma'nolardan biri – sabr ekanligini isbotlaydi. Oyat ma'nosidan ko'rinib turibdiki, bu xislat tuyalar tanasining o'ziga xos tashqi ko'rinishiga asoslangan.

Nafrat

Arab maqollariga ko'ra, الجمل so'zi nafrat ramzi sifatida ham ishlatiladi. Oson unutmaydigan odam odatda arab madaniyatida الجمل deb ataladi. Bu quyidagi maqolda yaqqol ko'rinadi: “أَحَقُّ مِنْ جَمَلٍ” (Tuyadan ham ko'ra g'azabliroq). Bu ibora kishi juda g'azabkor, ichida gina saqlaydi, oson kechirmaydi degan ma'noni beradi. Tuyalar uzoq vaqt davomida eslab yuruvchi hayvonlar sifatida tanilgan. Ayrim rivoyatlarga ko'ra, agar kimdir tuyani urgan yoki unga yomon muomala qilgan bo'lsa, tuya oradan bir necha kun, hatto oylar o'tgach ham o'sha kishini tanib, o'ch olishi mumkin. Shu sababli: “U tuya kabi g'azabni ichida saqlaydi”, degan ma'no chiqadi.

Bundan tashqari, الجمل ning nafrat ramzi sifatidagi konnotativ ma'nosi arab she'riyatida ham uchraydi. Arab shoiri Al-Kinani o'z she'rida shunday deb yozadi:

“يَبْكِي عَلَيْنَا وَلَا نَبْكِي عَلَى أَحَدٍ... لَنَحْنُ أَغْلَظُ أَكْبَادًا مِنَ الْإِبْلِ”

(Biz uchun yig'lashadi, biz esa hech kim uchun yig'lamaymiz... Chunki biz tuyadan ham qattiq yurakmiz).

Shoir yuragining qattiqligini tuyaga taqqoslab, الجمل nafrat ramzini bildiradi (Arab maqollaridan iqtibos, 2014).

Ko'zga tashlanish / Ochiqlik



Yana bir, kamroq uchraydigan ma'no shuki, **الجمال** ko'zga tashlanadigan, ya'ni yashirish mumkin bo'lmagan harakatlarga ishora qiladi. Xususan, bu yashirib bo'lmaydigan ishlarni qilayotgan shaxsni anglatadi. **معجم المعاني** lug'atida shunday deyiladi:

“ما استتر من قاذ الجمل”

(Tuyani boshqargan yashirina olmaydi)

Ushbu maqol “tuya minganni yashirib bo'lmaydi” degan ma'noni bildiradi; ba'zi harakatlar ochiq-oydin bo'lib, jamoatchilikdan yashirilmaydi. Tuyaning katta hajmi bunday misol keltirish uchun asos bo'ladi.

Kechasi mehnat qilish

Arab adabiyotida yana bir konnotativ ma'no shuki, **الجمال** (tuya) kechasi ishlaydigan odamni ifodalaydi. Ya'ni, tungi vaqtini mehnatga bag'ishlagan band odamni tuya minib kechani bosib o'tgan kishi sifatida taqqoslashadi. Bu ma'noni **معجم المعاني** lug'atidagi quyidagi ifoda tushuntiradi:

“اتخذ الليل جملاً”

(U tunni tuya sifatida oldi – o'tkazdi)

Ushbu maqol tun bo'yi tinimsiz mehnat qiluvchi odamni anglatadi.

“اتخذ الليل جملاً” maqolini boshqa ma'noda ham tushunish va talqin qilish mumkin. “Tunni yo'l yurish uchun tuyadek foydalan”, ya'ni aqlli odam yoki ehtiyotkor inson odatda yo'lga chiqish yoki ish qilishni tunda amalga oshiradi, bu esa xavflardan, issiqdan yoki ko'z-ko'zlikdan saqlanish uchun qilinadi. Shu bois bu maqol donishmandlik, sabr-toqat va puxta rejalashtirish g'oyalarni ham o'zida mujassam etadi. Bu maqol quyidagi fikrlarni ham bildiradi:

- Ishni to'g'ri vaqtda boshlash donolikdir.
- Noqulay holat (masalan, tun) ham foydali tarzda ishlatilishi mumkin.
- Harakatni shoshmasdan, aql bilan rejalashtirish kerak.

Betaraflik

الجمال so'zining yana bir ma'nosi arab maqollarida ko'rsatilgan, bu quyidagi maqolda ifodalangan:

“لا ناقة لي فيها ولا جمل” (Bunda mening na urg'ochi tuyam bor, na nor tuyam bor) Bu ibora arab tilida juda mashhur bo'lib, “men bu masalaga aloqador emasman”, “bu ish menga tegishli emas”, “men bu ishga aralashmayman” degan ma'noni anglatadi. Iboradagi “ناقة و جمل” (tuyaning urg'ochi va erkagi) ikki tomonlama yirik va qimmatbaho narsa sifatida tilga olinadi. Ya'ni, ba'zi o'rinlarda bu ishda (yoki masalada) menga foydasi yo'q degan ma'no ham ifodalangan bo'lishi mumkin.

Hayvon nomlarining ma'nosini talqin qilishda jins omili ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, **الجمال** so'zining ayol jinsidagi shakli **الناقة** (ayol tuya) go'zallik ma'nosiga ega. Qadimgi arab madaniyatida go'zal ayolni **الناقة** deb atashgan. Al-Ghaood (2012, p. 114) o'z kitobida bu ma'noni ta'kidlab, **الناقة** so'zining go'zallik ramzi ekanligini yozgan, garchi hozirgi zamonda u kamroq ishlatilsa ham. Arab she'riyatida tuyalar go'zallik, nafislik, hamda mardonavorlik ramzi sifatida ifodalanadi. Arab xalqlari tarixan tuyalarni nafaqat oddiy hayvon sifatida, balki boylik, mavqei va kuch-qudrat timsoli sifatida qabul qilishgan. Cho'l sharoitida tuyalar odamlar uchun juda qimmatli edi, chunki ular uzoq yo'llarni bosib o'tishga, yuk tashishga va oziq-ovqatsiz uzoq vaqt yashashga qodir edi. Shu sababli, tuya nafaqat transport vositasi, balki oilaning, urug'ning mol-mulkingining asosiy qismi hisoblangan. Bu esa, albatta, tuyalarni boylik belgisi, ijtimoiy mavqe ramzi sifatida qadrlanishiga olib kelgan. Tuyalar ko'p hollarda meros sifatida avloddan-avlodga o'tgani uchun, oilaning ijtimoiy mavqei va obro'si ham tuyalar soni va sifatiga bog'langan. Ba'zi oilalar “tuya egalari” nomi bilan atalgan va bu ularning kuchi hamda iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlagan. Shuningdek, turmush qurishda sovg'a sifatida berilgan. Shu bois, “boylik” va “muqaddas qimmatbaho mulk” sifatida tuyalar arab jamiyatida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

**Al Asad (الأسد) - Sher**

Arab madaniyatida sher kuch, jasorat, shohlik va yovuzlik timsoli sifatida yuqori qadrlanadi. Shu sababli, ko'plab arablar o'z farzandlariga sher nomini berishgan, bu hayvonning madaniy ahamiyatini ko'rsatadi. المعجم lug'atiga ko'ra, الأسد so'zining denotativ (to'g'ridan-to'g'ri) ma'nosi – yovvoyi va xavfli hayvon hisoblanadi. Bu ta'rif so'zning lug'aviy ma'nosini ifodalaydi. Ammo الأسد so'zi kontekstda ko'plab ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Quyidagi bo'limlarda ushbu ma'nolar batafsil ko'rib chiqiladi.

Jasorat

Arab madaniyatida الأسد odatda ijobiy ma'noga ega bo'lib, jasorat va mardlik ramzi hisoblanadi. Ahmad (2017, p. 45) ta'kidlaganidek, sherga o'xshatilgan kishi jasur va matonatli hisoblanadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning amaki Hamza Asad Allah (أسد الله) - Xudoning sheri deb atalgan, bu nom uning kuchi va qo'rqmasligiga ishora qiladi. Bu bog'lanish sherning yovvoyi va jasur tabiati bilan izohlanadi.

E'tiborli va yetakchi shaxs

Jasoratdan tashqari, الأسد so'zi o'z atrofida gilardan ajralib turadigan, ta'sirli yoki tabiiy rahbar bo'lgan insonlarni bildiradi. المعجم lug'atiga ko'ra, sher rahbarlik sifatlarini ifodalaydi. Arab maqoli quyidagicha: هم أسد الشرى

(Ular eng jasur, eng botir odamlardir; shiddatli joylarda yashovchi sherlar kabi hech nimadan qo'rqmaydilar.)

Sharo (yoki Sharro) degan joy nomi; qadimda Arabiston va Shom (hozirgi Iordaniya) chegarasida joylashgan, tog'li va noqulay sharoitga ega hudud bo'lgan. Bu yerda yashovchilar o'zlarining jasurligi va chidamliligi bilan mashhur bo'lgan.

Meros

الأسد so'zi ota va o'g'il o'rtasidagi o'xshashlik va merosni ham ifodalaydi. Maydani (2013) ning امثال asarida keltirilgan maqolda sher ota va uning o'g'li orasidagi xarakteri - tabiati va tashqi ko'rinishi o'xshashligini bildiradi:

(Bu kichik sher o'sha sherning o'g'li) هذا الشبل من ذاك الأسد

Bu ifoda ota va o'g'il o'rtasidagi ijobiy xislatlar meros sifatida o'tishini ko'rsatadi.

Yovuzlik va shafqatsizlik

الأسد so'zi ba'zan yovuzlik va xavfli holatni ham bildiradi. المعجم lug'atidagi maqolga e'tibor qarating: (Sherning tishlari orasida) بين فكي أسد

Bu ifoda xavfli va qiyin vaziyatda qolishni anglatadi, sherning yovvoyi va xavfli tabiati bilan bog'liq.

Katta ulush

الأسد so'zining yana bir mashhur ma'nosi katta ulush yoki qismni bildiradi. Bu ma'no sherning jismoniy kattaligi va hukmronligidan kelib chiqadi. Arab tilida hayvonlar shohi – sher haqidagi mashhur ibora: (Sher ulushi) حصة الأسد

Bu eng katta qism yoki eng yaxshi ulush degan ma'noni anglatadi. (U هو أخذ حصة الأسد من الأرباح) "U foydaning sher ulushini — eng katta qismini oldi).

Al Tays (التيس) - Echki

Qadim zamonlardan buyon echkilar arab jamiyatida qurbonlik ramzi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shuningdek, ular teri, jun va sut kabi mahsulotlari uchun ham qadrlangan. المعجم lug'atiga ko'ra, التيس (echki) so'zining denotativ ma'nosi — bir yoshga to'lgan, sut va go'sht beradigan erkak sutemizuvchidir. Biroq, bu so'z arab madaniyatida ko'pincha figurativ, ya'ni majoziy ma'noda ishlatiladi. Quyida التيس so'zi bilan bog'liq eng keng tarqalgan majoziy ma'nolar keltirilgan.

**Ahmoqlik va noaniqlik**

Arab madaniyatida ahmoq yoki narsalarni qiyin tushunadigan odamni التيس (echki) deb atashadi. Bu ma'no eski arab maqollari va adabiyotlarida ko'p uchraydi, masalan: (*Echki kemada*) تيس في سفينة — "في هذا المجلس، هو مثل تيس في سفينة، لا يناسبنا" Bu majlisda u, kema ichidagi echki kabi, bizga mos emas.

Arab madaniyatida echki bilan ahmoqlik va soddalik o'rtasida kuchli bog'lanish mavjud. Bu hayvon nomi aqli sust, sekin tushunadigan yoki o'rganishda qiyinchiliklar sezadigan odamga nisbatan ishlatiladi. Bu termin kundalik hayotda keng tarqalgan.

Noto'g'ri xulq-atvor

التيس (echki) so'zining yana bir ma'nosi — noto'g'ri yoki xunuk xulq-atvorni ifodalashdir. Ya'ni, odam o'z harakatlari bilan to'g'ri javob bera olmaydigan bo'lsa, uni echkiga o'xshatishadi. Quyidagi maqol bunga misol bo'la oladi:

(Falonchining (erkak) echkisi) تيس فلان

Hayya (حياة) – Ilon

حياة (ilon)ning lug'aviy ma'nosi zaharli tishlaydigan sudraluvchi hayvondir. Arab madaniyatida ilon ramziy ma'noga ega bo'lgan mashhur hayvonlardan biridir. Ushbu hayvon nomi arab madaniyatida turli ma'nolarga ega va ko'p ishlatiladi:

Donolik

حياة (ilon) deb atalgan odam aqlli va hiylakor hisoblanadi. lug'atida aqlli odamning boshi ilon boshi bilan solishtiriladi:

Uning boshi ilon boshidek — رأسه رأس حية

Bu ta'rif jismoniy emas, balki odamning aqliy holatini ifodalaydi, aqlli va hiylakorligini ko'rsatadi. Ammo bu so'z doimo ijobiy ma'noda ishlatilmaydi. Quyida kundalik hayotda uchraydigan salbiy ma'nolari ham keltirilgan.

Halokat

حياة (ilon) so'zining kamroq uchraydigan yana bir ma'nosi odamning halok bo'lishi bilan bog'liq. Masalan: (*Ular yer yuzining ilonlaridir*) هم حيات الأرض (Xudo uni ilon qonida sug'ordi) سقاء الله دم الحيات

Bu maqol shuni anglatadiki, agar kimdir "ilon qonida sug'orilgan" bo'lsa, bu uning halokat belgisi hisoblanadi. Ya'ni, bu ibora tavakkal qiluvchi, xavfli ishlarni oqibatlarini o'ylamasdan qiladigan odamlarni ta'riflash uchun ishlatiladi.

Ayyorlik (Makkorlik)

Arab madaniyatida ayyorlik — bu aqlli insonlarga nisbatan ijobiy fazilat sifatida qaraladi. Arab adabiyoti bu ma'noni anglatadigan iboralar bilan boy.

Masalan: (*Ular yer yuzining ilonlaridir*) هم حيات الأرض

Yuqoridagi iborada حياة (ilon) so'zi makkor, zukko insonni ijobiy tarzda tasvirlash uchun ishlatilgan. Bu yerda "ilon" obrazi dono, harakatda chaqqon, ayyor kishiga qiyoslangan.

Himoya

حياة (ilon) so'zining lug'atida qayd etilgan yana bir ma'nosi bu "himoya" yoki "xavfsizlik"dir. Bu ma'no quyidagi maqolda yaqqol ko'rinadi:

(U vodiyning ilonidir) هو حية الوادي

Bu ibora, ilon obrazi orqali, vodiyni qo'riqlovchi, himoya qiluvchi kuchli shaxsga nisbatan ishlatilgan. Bu holatda bu so'z ijobiy majoziy ma'noga ega.

Olijanoblik



حبة (ilon) so'zi ayrim hollarda olijanoblik kabi ijobiy shaxsiy sifatni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Arab madaniyatida, ba'zan yaxshi xulqli, salobatli insonni ilonga o'xshatishadi: (*U erkak ilondir*) هو حية نكر

Bu yerda “erkak ilon” iborasi — jasoratli, ayyorlik bilan himoya qila oladigan, dono va kuchli insonni ifodalaydi.

Ammo bu so'z jinsga qarab turlicha ma'no kasb etadi. Jumladan, ayollarga nisbatan ishlatilganda, bu obraz salbiy konnotatsiyaga ega bo'ladi. Arab mutafakkiri *Al-Rifai* (2012) ilon bilan ayolni taqqoslab shunday degan:

"Ilonlar tishlari bilan zaharlaydi, ayollar esa tillari bilan."

Bu taqqoslash ayollarga nisbatan keskin va salbiy qarashni ifodalaydi hamda حبة (ilon) so'zining genderga bog'liq ma'no o'zgarishini ko'rsatadi.

Natijalar. Arab hikmatlarida hayvonlar timsoli ko'pincha insonning turli xususiyatlari va munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatdan o'rganilganda, xalqning qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Hayvonlar nomlari arab tilida so'kish va duo qilishda juda kuchli va ta'sirli ifoda vositasi hisoblanadi. Ular nafaqat haqorat, balki ba'zida duo va qarg'ash shaklida ham ishlatiladi. Bu madaniyatning o'ziga xos til ifodasi va xalqning hayotiy tajribasidan kelib chiqadi. Ular kishining qanday holatga tushishini yoki qanday ta'sir ko'rsatishini istashini ifodalaydi. Masalan:

— “ليأكل الدود عينيكَ” — “Ko'zingni hasharot yesin” — bu yomon duo yoki qarg'ash. Hayvonlar nomi bevosita kiritilmasa-da, hayvonlarning zararli tabiati tasvirlangan. Bunda boshqa bir kishiga o'lim tilash, qabrda qurt-qumursqalar ko'zini yeyishiga ishora bor.

— “يصبح كالذئب في الغابة” — “O'rmon ichidagi bo'ri kabi bo'lsin” — kuchli, qo'rqinchli bo'lish uchun duo.

Tahlil natijalariga ko'ra, ayrim hayvon nomlari ijobiy, boshqalari esa salbiy ma'nolarda ishlatilgan. Bu holat madaniyat, kontekst, hatto jins (erkak/ayol) omiliga qarab o'zgaradi. Hsieh (2006) tadqiqotida ham qayd etilganidek, hayvon nomlari ma'lum bir madaniyat doirasida semantik (ma'noviy) asosda baholanadi. Bu esa, hayvon nomlarining turlicha majoziy ma'nolar bilan bog'lanishi va ularning inson xususiyatlari bilan uyg'unligining madaniy asoslangan ekanligini ko'rsatadi.


Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hayvonlar ramzi arab madaniyati va tilida inson xarakterining murakkab jihatlarini ifodalashda, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o'rganishda muhim vosita hisoblanadi.

So'zlarning ahamiyati faqat ularning lug'aviy (to'g'ridan-to'g'ri) ma'nosidangina iborat emas, balki ular bilan bog'langan majoziy ma'nolar orqali ham belgilanadi. Shuning uchun, majoziy ma'no ham lug'aviy ma'no kabi muhim sanaladi.

Nafaqat arab xalqi, balki boshqa xalqlarda ham kundalik suhbatda hayvonlarga oid so'zlar va iboralar orqali qisqa va aniq ma'nolarni yetkazishda foydalanilgan.

Xalqlarning adabiyoti, ijtimoiy hayoti va dunyoqarashidan kelib chiqib hayvon nomlari turlicha ma'nolarni ifodalashi mumkin. “Fildek” so'zi ba'zi xalqlar uchun maqtov so'zi sifatida qabul qilinsa, ba'zi xalqlarda esa haqorat sifatida qabul qilinadi.

Arab adabiyotida keng qo'llanilgan bu hayvon nomlari arablarning dunyoni idrok etishi, e'tiqodi, jamiyatdagi tasavvuri va qarashlarini aks ettiradi. Arabshunos olimlarning tadqiqotlarida ism va atamalar muqaddas manbalardan ilhomlanishi mumkinligi va ular diniy madaniyatni ifodalayotgani ta'kidlangan. Arablar o'zlarini kuchli deb hisoblagan va kuchli hayvonlar nomi bilan atalgan bo'lishni istagan, chunki ular ismingiz sizning shaxsingizni belgilaydi, deb ishonishgan.





FLEKSIYA VA E'ROB MASALASI: O'XSHASH VA FARQLI JIHATLAR

BUZAHRO BEGMATOVA

Dotsent, yuridik fanlar nomzodi, TDSHU

Annotatsiya: Arab, o'zbek va rus tillari uchun turlanish va tuslanish hodisasi tanish. Turlanish hodisasi o'zbek va rus tillarida ot so'z turkumida yuz bersa, tuslanish fe'l so'z turkumiga xos hodisadir. Turlanish va tuslanish tilshunoslikda fleksiya nomi bilan ifodalanadi. Arab tili grammatikasida esa turlanish va tuslanishga alohida grammatik hodisalar sifatida qaralmaydi, balki, ular umumiy tarzda fleksiya, ya'ni e'rob, deb nomlanib ism va fe'lning e'roblanishi, deb ataladi. E'robning turli holatlarini o'zbek arabshunosligida "kelishik", "mayl" terminlari bilan tushuntirish esa shartli ravishda qabul qilingan. Aslida e'rob holatlari yuqoridagi tushunchalardan farq qiladi.

Kalit so'z va iboralar: fleksiya, e'rob, kelishik, mayl, mabniy, mu'rab, raf', nasb, jarr, jazm, e'rob omillari.

Abstract. In Arabic, Uzbek, and Russian languages, the phenomena of inflection and conjugation are well-known. In Uzbek and Russian, inflection (turlanish) occurs in the noun category, while conjugation (tuslanish) is specific to verbs. In linguistics, both are referred to under the general term inflection.

However, in Arabic grammar, inflection and conjugation are not treated as separate grammatical phenomena. Rather, they are commonly referred to by the term 'I'rāb, which denotes the inflectional endings of both nouns and verbs.

The various cases of 'I'rāb are sometimes explained in Uzbek Arabic studies using the terms case (kelishik) and mood (mayl), though this is only a conditional or comparative interpretation. In reality, the grammatical states expressed through 'I'rāb differ from the aforementioned concepts.

Key words: Inflection, 'I'rāb, case, mood, mabni, mu'rab, raf', nasb, jar, jazm, factors of 'I'rāb.

Аннотация. Явление склонения и спряжения знакомо для арабского, узбекского и русского языков. В узбекском и русском языках склонение происходит в именах, а спряжение — в глаголах. В языкознании эти явления обозначаются общим термином — флексия.

Однако в грамматике арабского языка склонение и спряжение не рассматриваются как отдельные грамматические процессы, а охватываются понятием 'и'рāб (арабская флексия), то есть изменением форм имён и глаголов.

Различные состояния 'и'рāб в узбекской арабистике условно объясняются через термины «падеж» и «наклонение», однако на самом деле они отличаются от этих понятий. Статусы 'и'рāб имеют свои специфические особенности и зависят от особых факторов (амилей).

Ключевые слова и сочетания: флексия, 'и'рāб, падеж, наклонение, изменяемый (му'рāб), неизменяемый (мabний), раф', насб, джарр, джазм, факторы 'и'рāб.

Kirish. Turlanish va tuslanish tilshunoslikda fleksiya nomi bilan ifodalanadi. Turlanish hodisasi o'zbek va rus tillarida ot so'z turkumida yuz bersa, tuslanish fe'l so'z turkumiga xos hodisadir. Otlar kelishiklar yordamida turlanadi, ya'ni otning kelishik affikslarini olib o'zgarishi turlanish deb ataladi. Tuslanish esa fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan grammatik hodisadir. Fe'l nisbat (daraja), mayl, zamon va shaxs-son kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lib, ularning hammasi bir-biri bilan uzviy bog'liq hamda hammasi birgalikda fe'lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi. Arab tili grammatikasida esa



turlanish va tuslanishga alohida grammatik hodisalar sifatida qaralmaydi, balki ular e'rob deb nomlanib ism va fe'lining e'roblanishi deb ataladi.

Fleksiya – e'rob deganda so'zlarning oxirgi bo'g'in unlisining o'zgarishi tushuniladi. Ismlardagi bu o'zgarish uning kelishigini, fe'llardagi (hozirgi zamon) o'zgarish esa uning maylini ifodalaydi. Ismlar uch kelishik, ya'ni bosh, qaratqich va tushum kelishiklarida turlansa, hozirgi-kelasi zamon fe'llari darak, shart, istak, buyruq va kuchaytiruv mayllarida tuslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Fleksiya va e'rob masalasi o'zbek, rus va arab tili grammatikasiga oid manbalarning deyarli barchasida uchrasa-da, ularning ba'zilarida mavzu umumiy tarzda yoritilgan bo'lsa, ba'zilarida to'liq yoritib o'tilganini ko'rish mumkin. Mana shunday manbalardan biri Movarounnahrlik olim Mahmud Zamaxshariyning "al-Mufasssal" asarlari bo'lsa, yana biri Sayyid Sharif Jurjoniy qalamiga mansub "Nahvi Mir" asari bo'lib, u Samarqand madrasalari talabalari uchun maxsus yozilgan va har ikki asarda tadqiq qilinayotgan mavzu batafsil yoritib o'tilgan. Shuningdek, e'rob masalasi zamonaviy arab tilshunoslari shayh Mustafo G'alayiniy, Hifni Nosif, Fu'ad Ne'matning asarlarida ham keng va batafsil tahlil qilingan. Arab tilida fleksiya masalasi o'zbek va rus arabshunoslari tomonidan ham o'rganilgan, jumladan, E.Talabov, N.Ibrohimov va M.Yusupov, A.Abdujabborov, B.M.Grande, G.M.Gabuchan kabi olimlar o'z asarlarida bu mavzuning ayrim jihatlarini lingvistik tadqiq qilganlar.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va komponentli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va tadqiqot natijalari. Arab, o'zbek va rus tillari uchun turlanish va tuslanish hodisasi tanish. Turlanish hodisasi o'zbek va rus tillarida ot so'z turkumida yuz bersa, tuslanish fe'l so'z turkumiga xos hodisadir. Turlanish va tuslanish tilshunoslikda fleksiya, nomi bilan ifodalanadi. Arab tili grammatikasida esa turlanish va tuslanishga alohida grammatik hodisalar sifatida qaralmaydi, balki, ular e'rob, deb nomlanib ism va fe'lining e'roblanishi, deb ataladi. Arab tilida ushbu hodisa qanday yuz berishini ilmiy tadqiq qilishdan avval o'zbek tilidagi turlanish va tuslanish hodisasiga to'xtalib o'tsak.

Turlanish hodisasi ot so'z turkumida yuz beradi. Otlar kelishiklar yordamida turlanadi. Grammatik til bilan aytganda, kelishik - ot yoki otlashgan so'zlarning boshqa so'zlar bilan aloqasini ko'rsatuvchi grammatik shakl. Otning kelishik affiksini olib o'zgarishi turlanish, bu affikslar esa turlovchi affiks deyiladi.

Otning kelishik bilan turlanishi ma'no talabi bilan bo'ladi. Chunki ot kelishik formasida kelib, gapda boshqa so'zlar bilan grammatik aloqalarga kirishadi, ma'lum sintaktik vazifani bajaradi: *Muhayyo kasalxonadan chiqib, to'g'ri o'z uyiga bordi. Uning faoliyatida yangi, faqat unga aloqador ishlar boshlanmoqda edi.* (Tursunov, U. et al., 1992, p.259.)

Kelishik kategoriyasi olti shaklning sistemasi bilan shakllanadi, ularning har biri ma'lum ma'nolar kompleksini ifodalaydi. Bu shakllar: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, chiqish kelishigi, o'rin-payt kelishigi. Har bir kelishik bir necha ma'noni anglatadi, shunga ko'ra ma'lum bir kelishikdagi so'z gapda turli gap bo'lagi vazifasida keladi. Ammo kelishik ma'nolaridan biri asosiy ma'no hisoblanadi, kelishik shu asosiy ma'nosiga ko'ra nomlanadi. Masalan, chiqish kelishigi shaklidagi ot fe'l bilan bog'lanib, predmet, harakatning chiqish o'rni belgisini anglatadi. Bu uning asosiy ma'no va vazifasidir. Masalan: *Ali Qushchi bir lahza ikkilanib turgach, darvozadan chiqdi.* (O.Yo.).

Har bir ot maxsus affiks bilan ifodalanadi. Lekin otning kelishik affiksini olmagan shakli ham boshqa kelishiklarga nisbatan alohida shakl hisoblanadi. Kelishik shakllari vositasida bir so'zning boshqa bir so'z bilan tobe aloqasi ifodalanadi. Jumladan, bosh kelishikdagi ot boshqa so'zni o'ziga tobelash orqali munosabatga kirishadi. Shuning uchun u asosiy kelishik deyiladi. Qolganlari esa bir



so'zni boshqa so'zga tobelash orqali bog'laydi hamda vositali kelishik deyiladi. Masalan: *Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi* (U.Mahkamov). (Tursunov, U. et al., 1992, p.260.).

Bu gapda *aql* so'zi bosh kelishik shaklida *qutqaradi* so'ziga nisbatan hokim holatda, *insonni* so'zi -ni tushum kelishigida kelib, *qutqaradi* fe'lga tobe, *ayb* (dan), *kamchiliklardan* so'zlari -dan chiqish kelishikda kelib, ular ham *qutqaradi* fe'lga tobe bo'lib kelgan.

Kelishik kategoriyasi, asosan, ot turkumiga xos bo'lib, ular ot tipli so'zlar, ya'ni olmosh, harakat nomi, jamlovchi sonning ba'zi ko'rinishlariga ham bevosita qo'shila oladi: *Menga, sendan, kimni, nimani, barchaga, o'qishga, beshovimizga* kabi. Demak, kelishik kategoriyasi olti shaklning sistemasi bilan shakllanadi, ularning har biri ma'lum ma'nolar kompleksini ifodalaydi.

Endi o'zbek tili grammatikasida mavjud tuslanish hodisasi haqida ma'lumot bersak. Ma'lumki, tuslanish fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan grammatik hodisadir. Fe'l mustaqil so'z turkumi bo'lib, predmetning harakatini va jarayon tarzidagi holatini bildiradi. Ot harakatni uning nomi sifatida bajaruvchi va zamon bilan bog'lamagan tarzda ifodalaydi. Fe'llar esa ish-harakatning biror bajaruvchi tomonidan ma'lum vaqtda bajarilganligini bildiradi: *Uzoq ayriliqdan so'ng do'stlar yana uchrashishdi*.

(Tursunov, U. et al., 1992, p.274.)

Fe'l gap tuzishda ot kabi sintaktik asos bo'lib xizmat qiladi. U ko'pincha boshqa so'zlarni o'ziga ergashtirib, uni boshqarib keladi. Otning kelishiklar bilan turlanishi fe'lda ifodalangan ma'no talabi bilan bo'ladi: *universitetni tugatmoq, ishdan kelmoq, muzeyga bormoq* kabi.

Fe'l nisbat (daraja), mayl, zamon va shaxs-son kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lib, ularning ko'pchiligi fe'lning semantikasi bilan bog'liq.

Harakatning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya mayl kategoriyasi deyiladi. Mayl kategoriyasi zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish formasi hisoblanadi. Shunga ko'ra mayl kategoriyasi harakatning voqelikka munosabatini ham ifodalaydi. O'zbek tilida fe'lning mayl shakllari quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lib, bular ma'no va morfologik ifodalanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi: 1) buyruq-istak mayli; 2) shart mayli; 3) xabar (ijro) mayli.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tuslanish bu fe'lga xos grammatik hodisadir. Fe'l nisbat (daraja), mayl, zamon va shaxs-son kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lib, ularning hammasi bir-biri bilan uzviy bog'liq hamda hammasi birgalikda fe'lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi.

Ma'lumki, arab tilida kelishikda turlanish va shaxs-son, zamon, mayllarda tuslanish tushunchasi aslida yo'q, lekin o'zbek arabshunos olimlarimiz o'rganuvchilar uchun qulayliklar tug'dirib arab tili grammatikasini o'zbek tili grammatikasiga qiyoslab tushuntirib berishda turlanish va tuslanish terminlarini qo'llaydilar. Ma'lumki, so'zlarning turlanishi va tuslanishi tilshunoslikda fleksiya deb ataladi va u arab tilida "e'rob" termini bilan nomlangan.

Fleksiya – e'rob deganda so'zlarning oxirgi bo'g'in unlisining o'zgarishi tushuniladi. Ismlardagi bu o'zgarish uning kelishigini, fe'llardagi (hozirgi zamon) o'zgarish esa uning maylini ifodalaydi, ya'ni *raf* (رفع) – ismlarda bosh kelishikni, fe'llarda darak maylini; *nasb* (نصب) – ismlarda tushum kelishigini, fe'llarda istak maylini; *jarr* (جر) – ismlarda qaratqich kelishigini bildirsa, *jazm* (جزم) fe'llarda shart maylining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Endi esa arab tilshunoslari, ya'ni nahvshunos olimlarni fleksiya, ya'ni e'rob masalasiga qanday yondoshganliklarini ko'rib o'tsak. Jumladan, o'rta asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" asarida fleksiyaga shunday ta'rif beradi:

"الإعرابُ هو إختلافُ أجزءِ الكلمةِ بإختلافِ العَوَامِلِ. إختلافُ الأَجْزِءِ إِمَّا بِالْحَرَكَاتِ... وَ إِمَّا بِالْحُرُوفِ."



“Omillar o‘zgarishi sababli so‘zlarning oxirida yuz beradigan o‘zgarish “e’rob” deyiladi. So‘z oxiridagi o‘zgarish yo harakatlarda bo‘ladi yoki harflarda namoyon bo‘ladi” (Mahmud Zamakhshari, 1987, p. 2.).

Shayx Mustafo G‘alayiniy ham bu fikrni tasdiqlab:

فَالْإِعْرَابُ: أَتَرَّ يَحْدُثُ فِي آخِرِ الْكَلِمَةِ، بَعْدَ انْتِظَامِهَا فِي الْجُمْلَةِ، فَيَكُونُ آخِرُهَا مَرْفُوعًا أَوْ مَنصُوبًا أَوْ مَجْزُومًا، حَسَبَ مَا يَقْتَضِيهِ مَوْقِعُهَا فِي الْجُمْلَةِ، مَثَلُ: "رَجُلٌ" مِنْ قَوْلِكَ جَاءَ رَجُلٌ، رَأَيْتُ رَجُلًا، وَ مَرَرْتُ بِرَجُلٍ، وَ مَثَلُ: "تَذَهَّبُ" مِنْ قَوْلِكَ: "تَذَهَّبُ، وَ لَنْ تَذَهَّبَ، وَ لَا تَذَهَّبُ"

“E’rob –jumladagi vazifasiga qarab, so‘z oxirida ro‘y beradigan hodisadir. So‘zning oxiri jumladagi vaziyatga qarab, dammalangan (مرفوعًا) yo fathalangan (منصوبًا) yoki kasralangan (سukun-langan) bo‘lishi mumkin. Masalan “kishi” so‘zi quyidagi ko‘rinishlarda kelishi mumkin: جَاءَ - kishi keldi (bu yerda bosh kelishikda), رَأَيْتُ رَجُلًا - kishini ko‘rdim (bu yerda tushumda), مَرَرْتُ بِرَجُلٍ - kishi bilan uchrashdim (bu yerda qaratqich kelishigida). Shuningdek fe‘llar ham turlicha e’roblangan bo‘ladi, masalan: تَذَهَّبُ - borayapsan (dammalangan مرفوعًا), لَنْ تَذَهَّبَ - umuman bormaysan (fathalangan منصوبًا), لَا تَذَهَّبُ - borma (sukunlangan مجزومًا)” (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 22.).

Ism va fe‘llar yuqorida keltirib o‘tilgan to‘rtta qisqa unlilar bilan harakatlanishini bilishimiz zarur. Ular “damma”, “fatha”, “kasra”, “sukun”dir. Agar so‘z damma bilan harakatlansa “raf” holatida, fathaga tugasa “nasb” holatida, kasra bilan harakatlansa “jarr” holatida, sukunga tugasa “jazm” holatida bo‘ladi. Demak, damma, fatha, kasra va sukun asl e’rob alomatlaridir. Shu bilan birga, jarr holati faqat ismlarga, jazm esa faqat fe‘lgagina xosligini unutmashimiz kerak (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 21.).

Shuningdek, Mustafo G‘alayiniy ism so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar nafaqat harakatlar, balki harflar bilan ham turlanishi haqida ma’lumot bergan.

Arab nahvchilari so‘zlarni oxirining o‘zgarishiga ko‘ra ikki guruhga ajratib o‘rganadilar. Ular mabniy (turlanmaydigan مَبْنِيّ) va mu‘rob (turlanadigan مُعْرَب) so‘zlardir. Agar so‘z boshqa bir so‘zga bog‘liq bo‘lsa yoki o‘zidan avval biror bir predlog kelsayu, u o‘z ko‘rinishini o‘zgartirmasa (ya’ni, so‘zning ohirgi harakati o‘zgarmasa) bunday so‘zlar o‘zgarmas - مَبْنِيّ deyiladi. Aksi bo‘lsa, bunday so‘zlar o‘zgaradigan, ya’ni مُعْرَب deyiladi. Biz o‘rganayotgan ushbu ilmiy ish bevosita mu‘rob turlanish va tuslanish bilan bog‘liqdir.

Yana bir mashhur nahvshunos olim Hifni Nosif fleksiyaga quyidagicha ta’rif beradi:

So‘zlar ikki qismga bo‘linadi, bular oxiri umuman o‘zgarmaydigan so‘zlar va ular “mabniy-o‘zgarmas” deb ataladi hamda oxiri o‘zgaradigan, ya’ni “mu‘rab-o‘zgaruvchi” so‘zlardir.

Turli holatlarda so‘zlarning oxiri turlicha bo‘lsa, bunday so‘zlar mu‘rob-o‘zgaruvchi (turlanuvchi va tuslanuvchi) so‘zlar deyiladi. Buni “osmon” so‘zi misolida ko‘radigan bo‘lsak, bu so‘z (to‘g‘rirog‘i uning oxiri) gapda bajarayotgan vazifasiga ko‘ra quyidagicha o‘zgaradi: Osmon السماء صافية - Osmon musaffodir. Osmonni bulut qopladi. نظرت الى السماء - Osmonni bulut qopladi. “Osmon” so‘zi birinchi jumlada damma bilan, ikkinchi jumlada fatha bilan va uchinchi jumlada kasra bilan harakatlangan. (Nasif, Khifni et al. 2006, p. 21.)

Arab nahvchilari e’rob (kelishik) ya’ni kelishik alomatlarini ikki guruhga ajratishgan. Bular asliy (haqiqiy) va far‘iy (ortirma) deb nomlangan. (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 24.).

Kelishiklarning asliy alomatlarini biz yuqorida ko‘rib chiqdik. Ular so‘zlarning oxirini damma, kasra, fathalash bilan ko‘zga yaqqol ko‘rinib turadi.

Far‘iy (ortirma) alomatlar deb, so‘zning ikkilik, to‘g‘ri ko‘plikda “vov, yoy, alif va kasra” bilan turlanishiga aytiladi.

Fleksiya bo‘yicha asliy alomatlar yordamida o‘zgaradigan ismlarning e’rob ko‘rinishlari bir necha turga bo‘linadi va ularning eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilar:

الأول: الْمُفْرَدُ الْمُنْصَرَفُ الصَّحِيحُ، مِثْلُ: «رَيْدٌ».

1. Oxirgi o‘zagi illatli harf bo‘lmagan hamda uchta kelishik bo‘yicha turlanadigan birlikdagi ismlar. Masalan: رَيْدٌ. Bunday so‘zlar asliy alomat, ya’ni haqiqiy ko‘rsatkichlarga ega.

والثاني: الْمُفْرَدُ الْمُنْصَرَفُ الْجَارِي مَجْرِي الصَّحِيحِ، مِثْلُ: «دَلُّوْ».

2. Oxirgi o‘zagi illatli “و - vov” yoki “ي - yoy” harflaridan iborat bo‘lib, ulardan oldingi harakat sukunli bo‘lgan hamda uchta kelishik bo‘yicha turlanadigan birlikdagi ism. Masalan: دَلُّوْ.

وَالثَّالِثُ: الْجَمْعُ الْمَكْسَرُ الْمُنْصَرَفُ، مِثْلُ: «رَجَالٌ».

وَتُرْفَعُ هَذِهِ الثَّلَاثَةُ وَعَلَامَةُ رَفْعِهَا: الصَّمَّةُ، وَتُنْصَبُ وَعَلَامَةُ نَصْبِهَا: الْفَتْحَةُ، وَتُجَرُّ وَعَلَامَةُ جَرِّهَا: الْكَسْرَةُ، كَمَا فِي «جَاءَنِي رَيْدٌ دَلُّوْ وَرَجَالٌ»، وَ«رَأَيْتُ رَيْدًا دَلُّوْ وَرَجَالًا»، وَ«مَرَرْتُ بِرَيْدٍ دَلُّوْ وَرَجَالٍ».

3. Uchta kelishik bo‘yicha turlanadigan siniq ko‘plikdagi ism. Masalan: رَجَالٌ. (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 36.).

Yuqorida sanab o‘tilgan uchta turdagi ismlarning barchasi uchta kelishik bo‘yicha turlanadi va ular bosh kelishikda “damma” bilan, tushum kelishigida “fatha” bilan, qaratqich kelishigida esa “kasra” bilan harakatlanadi, masalan: bosh kelishik: رَيْدٌ دَلُّوْ وَرَجَالٌ - Menikiga Zayd, chelak va kishilar keldi.

Tushum kelishigi: رَأَيْتُ رَيْدًا دَلُّوْ وَرَجَالًا - Men Zaydni, chelakni va kishilarni ko‘rdim.

Qaratqich kelishigi: مَرَرْتُ بِرَيْدٍ دَلُّوْ وَرَجَالٍ - Men Zayd, chelak va kishilarning yonidan o‘tdim. (Nemah, Fouad. 1998, p. 59).

Far’iy alomatlar yordamida e’roblanadigan so‘zlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Ismlarning ikkilik son shakli. U birlikdagi so‘z oxiriga *alif* va *nun* harflarini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Bunda *alifdan* oldingi harakat *fathali* va *nunning* harakati esa *kasrali* bo‘ladi, ya’ni “تان” qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan: رَجُلَانِ (ikki erkak). “تان” qo‘shimchasi ikkilikdagi ism bosh kelishikda ekanligini ifodalaydi. Agar ikkilikdagi ism tushum yoki qaratqich kelishigida bo‘lsa, unga *yoy*(oldingi harakati *fathali*) va *kasrali* *nun*, ya’ni “ين” qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan: رَجُلَيْنِ (ikki erkakni yoki ikki erkakning).

Ismlarning to‘g‘ri ko‘plik shakli. Ismlardan to‘g‘ri ko‘plik hosil qilinganda, uning birlikdagi shakli o‘zgarishsiz qoladi va u ikki turga bo‘linadi:

1. جَمْعُ الْمُذَكَّرِ - to‘g‘ri muzakkar ko‘plik

2. جَمْعُ الْمُؤَنَّثِ - to‘g‘ri muannas ko‘plik

فَجَمْعُ الْمُذَكَّرِ: مَا أُلْحِقَ بِآخِرِهِ وَآؤَ مَضْمُومٌ مَا قَبْلَهَا، أَوْ يَاءٌ مَكْسُورٌ مَا قَبْلَهَا، وَتُونٌ مَفْتُوحَةٌ فِي آخِرِهِ، مِثْلُ: «مُسْلِمُونَ» وَ«مُسْلِمِينَ»، [وَيُسَمَّى جَمْعُ الْمُذَكَّرِ السَّلَامُ].

To‘g‘ri ko‘plik muzakkar jinsdagi ismlarning oxiriga gohida vov va *nun*, gohida yoy va *nun* qo‘shib yasaladi. Birinchi holatda vovdan oldingi harakat *damma*, *nunning* harakati esa *fatha* (ya’ni “نون” tarzida) bo‘ladi va bu bosh kelishikni ifodalaydi. Masalan: مُسْلِمُونَ (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 30.).

Ikkinchi holatda esa, yoydan oldingi harakat *kasra*, *nunning* harakati esa *fatha* (ya’ni “ين” tarzida)bo‘ladi va u tushum hamda qaratqich kelishiklarinin ifodalaydi. Masalan: مُسْلِمِينَ

وَجَمْعُ الْمُؤَنَّثِ: مَا أُلْحِقَ بِآخِرِهِ أَلِفٌ وَتَاءٌ، مِثْلُ: «مُسْلِمَاتٌ»، [وَيُسَمَّى جَمْعُ الْمُؤَنَّثِ السَّلَامُ].

To‘g‘ri muannas ko‘plikdagi ismlarning oxiriga *alif* (undan oldingi harakat *fatha* bo‘ladi) va *ta* (*ko‘plik tasi* va uning harakati *tanvin dammadir*) qo‘shiladi. Masalana: مُسْلِمَاتٌ. (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 32.).

جَمْعُ الْمُؤَنَّثِ السَّلَامُ؛ رَفَعُهُ بِالضَّمَّةِ، وَنَصَبُهُ وَجَرُّهُ بِالْكَسْرَةِ، مِثْلُ: «هُنَّ مُسْلِمَاتٌ» وَ«رَأَيْتُ مُسْلِمَاتٍ» وَ«مَرَرْتُ بِمُسْلِمَاتٍ».

To‘g‘ri muannas ko‘plikdagi ismlar ikki kelishikli hisoblanadi, chunki ularning qaratqich kelishigi shakli tushum kelishigidagi bilan bir xil bo‘ladi. Demak, to‘g‘ri muannas ko‘plikdagi ismlar bosh kelishikda “damma” bilan, qaratqich va tushum kelishigida “kasra” bilan harakatlanadi. Masalan: هُنَّ



مُسْلِمَات - Ular musulimalardir (bosh kelishik), رَأَيْتُ مُسْلِمَاتٍ - Muslimalarni ko'rdim (tushum kelishigi), مَرَرْتُ بِمُسْلِمَاتٍ - Muslimalarning yonidan o'tdim (qaratqich kelishigi). (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 32.).

Shuni aytib o'tishimiz kerakki, to'g'ri muannas ko'plikdagi ismlar xoh aniq, xoh noaniq bo'lsin yuqoridagi kabi ikki kelishikda turlanaveradi, ya'ni uch kelishikka aylanmaydi. Arab tilshunosligida yana shunday ikki kelishikli ismlar borki, ular gohida, ayrim sabablarga ko'ra uch kelishikli bo'lib qolishi ham mumkin va ular "g'ayru munsarif" deb nomlanadi. "G'ayru munsarif"ni o'zbek tiliga kelishiklarda to'liq turlanmaydigan so'zlar deb tarjima qilsak bo'ladi. "to'liq turlanmaydigan" iborasining ma'nosini esa tanvin qo'shimchasisiz keladigan, qaratqich kelishigida bo'lsa-da, tushum kelishigining ko'rsatkichi bo'lgan "fatha" bilan harakatlanadigan so'zlardir. Bunday so'zlarga «عُمَرُ» «جَاءَ» «رَأَيْتُ» «مَرَرْتُ» «طَلَحْتُ» «وَرَيْتُ» kabilar kiradi. Bu so'zlarning e'rob ko'rsatkichlari ham asliydir. Masalan: عُمَرُ, رَأَيْتُ عُمَرَ, مَرَرْتُ بِعُمَرَ.

Arab nahvidagi fleksiya masalasi va uning o'ziga xosligini ko'plab rus va o'zbek arabshunoslari ham o'zlarining asarlarida ta'kidlab o'tganlar. Jumladan, arabshunos V.P.Starinin bu masala yuzasidan: "Arab grammatik nazariyasi asosli ravishda [fe'l] mayllarni [ismlarning] turlanishiga tenglashtiradi: darak mayli bosh kelishikka mos keladi (umumiy belgisi – "u"), istak mayli tushum kelishigiga mos (umumiy belgisi – "a"), shart mayli esa sukunga tugasa, qaratqich kelishigi kasma (-i)ga tugashi bilan boshqalaridan farqlanadi, deya ma'lumot bergan. (Starinin, V.P. 1963, p. 11.)

Arabshunos B.M.Grande ham bu fikrlarni tasdiqlab shunday deydi: "Fleksiya, ya'ni so'zlardan so'nggi unlilar (إِعْرَابٌ - e'rob) masalasida arab tilshunoslari fe'lining imperfekt shaklini kelishik shakllari bilan bitta tizimga soladilar. So'zlarning so'ngida kelishi mumkin bo'lgan to'rtta tugallanma, ya'ni - u (damma), - a (fatha), - i (kasma) va -(sukun)dan fe'l va ism uchtaga ega bo'ladi. Ularning ikkitasi bir-biriga mos tushsa, bittasi farqlidir.

E'robning turli holatlarini o'zbek arabshunosligida ham "kelishik", "mayl" atamaları bilan tushuntirish shartli ravishda qabul qilingan. Aslida e'rob holatlari "kelishik", "mayl" tushunchalaridan farq qiladi. (Abdujabborov, A., 2007, p. 191.).

O'zbek arabshunoslari M.Yusupov va N.Ibrohimovlarning "Arab tili grammatikasi" nomli asarlarida fleksiya masalasi quyidagicha yoritilgan:

Demak, arab tilida ism guruhiga kiruvchi so'zlarda uch kelishik mavjud: bosh kelishik, qaratqich kelishigi va tushum kelishigi. Kelishiklar o'ziga hos qo'shimchalarga ega va bu qo'shimchalar o'tning gapdagi bajarayotgan vazifasi bilan uzviy bog'liq. Bunday turlanish uch kelishikli turlanish deyiladi va shu yo'sinda turlanuvchi so'zlar uch kelishikli so'zlar deyiladi.

Arab tilida ot va sifatlarning asosiy qismi uch kelishikli so'zlar hisoblanadi va ular noaniq holatda tanvin qo'shimchasi bilan tugaydigan birlik va siniq ko'plikdagi so'zlardir. (Ibragimov, N., Yusupov, M. 2009, p. 97).

Shuningdek, bu asarda ikki kelishikli ismlar haqida ham batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, arab tili grammatikasida o'zbek tilidagi kabi turlanish va tuslanish hodisasini ifodalovchi alohida termin mavjud emas. "Raf", "nasb", "jarr" holatlari deganda ona tilimizdagi kelishiklar, to'g'rirog'i bosh, tushum va qaratqich kelishiklar nazarda tutilyapti. Demak bu bizga ma'lum turlanishga to'g'ri keladi. Fe'llarning raf, nasb, jazm holatlari deganda esa, fe'llarni mayllarda o'zgarishi, ya'ni ona tilimizdagi tuslanish hodisasi haqida so'z boryapti. Fe'llarning raf holati ona tilimizdagi xabar mayliga, nasb holati istak mayliga va nihoyat jazm holati shart mayliga to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arab tilida turlanish va tuslanishga alohida grammatik hodisalar sifatida qaralmay, balki, ular e'rob, deb nomlanib ism va fe'lining e'roblanishi, deb atalishini

tadqiqotimiz davomida ko‘rib o‘tdik. Bu fleksiya va e‘rob masalasi o‘rtasidagi farqlardan biridir. Shuningdek, fleksiyada turlanish hodisasi ot so‘z turkumida yuz beradi. Otlar kelishiklar yordamida turlanadi, demak, kelishik - ot yoki otlashgan so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan aloqasini ko‘rsatuvchi grammatik shakl. Kelishik kategoriyasi olti shaklning sistemasi bilan shakllanadi va har bir kelishik bir necha ma‘noni anglatadi, shunga ko‘ra ma‘lum bir kelishikdagi so‘z gapda turli gap bo‘lagi vazifasida keladi. (Tursunov, U. et al., 1992, p.259.).

Arab tilida esa ismlarning e‘roblanishi bir necha omillar ta‘sirida yuz beradi. Bunday omillarga yuklamalar, old ko‘makchilar hamda fe‘llar kiradi. Arab nahvshunoslari e‘robga ta‘sir qiluvchi bu omillarni ikki turga bo‘lib o‘rganganlar. Birinchi tur lafziy omillar, deb nomlanib, u ham o‘z navbatida uch guruhga bo‘linadi va ularga quyidagilar kiradi: harflar, ya‘ni old ko‘makchilar (yoki yuklamalar), fe‘llar va ismlar. Ikkinchi tur ma‘naviy omillar, deb nomlanib, u ikki guruhga ajratilgan. Ma‘naviy omilning birinchisi “Ibtido (jumlaning boshida kelish)”, deb atalsa, ikkinchisi “Hozirgi-kelasi zamon fe‘llarini shart va istak maylini talab qiluvchi omillardan holi bo‘lishi”, deya nomlanadi.

Arab tilida yuqorida keltirilgan omillar sabab ismlar turlanadi, fe‘llar tuslanadi. Shu o‘rinda arab tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda faqat uchta kelishik bosh, tushum va qaratqich kelishiklarigina mavjudligini aytib o‘tishimiz lozim. Qolgan kelishiklar vazifasini esa old ko‘makchilar bajaradi. Demak, arab tilida rus tilidagi kabi old ko‘makchilar mavjud. Bu ko‘makchilar ismlarni e‘robga ta‘sir qiladi, ya‘ni ularni jarr holatida turishini talab qiladi. O‘zbek yoki rus arabshunoslari jarr holatini qaratqich kelishigi, deya tarjima qiladilar, lekin bu unchalik ham to‘g‘ri emas, chunki predloglarning ma‘nosiga qarab ular jo‘nalish, chiqish hamda o‘rin-payt kelishiklarini ham ifodalashi mumkin.

Ismlarni turlanishiga yana yuklamalar, fe‘llar yoki ismlarning o‘zi ham o‘z ta‘sirini o‘tkazishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, ismlarning turlanishiga asosan lafziy omillar o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Yana shuni ham aytib o‘tish joizki, o‘zbek tilida turlanish ot so‘z turkumida, arab tilida esa ismlarda ro‘y beradi, deb ma‘lumot berdik. Shu o‘rinda arab grammatikasi bilan tanish bo‘lmagan kishida, ism so‘z turkumiga qanday so‘zlar kiradi, bu qanday so‘z turkumi, degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Shuning uchun bu haqida ham to‘xtalib o‘tsak. Ma‘lumki, ona tilimizda mustaqil so‘z turkumi tarkibigi ot, sifat, son, ravish, olmosh va fe‘l kiradi. Fe‘l so‘z turkumidan tashqari barcha so‘z turkumlari arab tilidagi ism so‘z turkumini tashkil qiladi.

O‘zbek tili grammatikasida sifat so‘z turkumi turlanmaydi, arab tilida esa, ism so‘z turkumiga kiruvchi sifat ham kelishiklarda o‘zgaradi, ya‘ni turlanadi. Ma‘lumki, sifat asosan moslashgan aniqlovchi vazifasida keladi va o‘z aniqlodovchisidan keyin kelib, u bilan jinsda, sonda, holatda va kelishikda moslashadi. Ona tilimiz, o‘zbek tilida esa aniqlovchi vazifasida kelgan sifat aniqlanmishdan oldin keladi va turlanmaydi. Arab tilida sifatlarning turlanishi ham ikki xildir, ya‘ni ularning ba‘zilari kelishiklarda to‘liq turlansa, ba‘zilari ikki kelishiklidir. Bunday ismlar arab tilshunosligida “g‘ayru munsarif” deb nomlanadi. (Qosimova, S. 2014, p. 72.). O‘zbek tili grammatikasida son alohida so‘z turkumini tashkil qiladi va sanalmish bilan kelganida kelishiklarda turlanmaydi, faqat sanalmishgina turlanadi. Arab tilida esa sanoq sonlarning o‘zi ham ismlarni kelishikda o‘zgarishiga omil bo‘ladi. Masalan, uchdan o‘ngacha sanoq sonlar sanalmish bilan kelganida, ular sanalmishni qaratqich kelishigida turishini talab qiladi, ya‘ni izofa birikmasini tashkil qiladi va muzof vazifasini bajargani uchun kelishiklarda faqat sanoq sonlarga o‘zgaradi. O‘n birdan to to‘qson to‘qqizgacha bo‘lgan sanoq sonlar o‘zidan keyin kelayotgan sanalmishni doimo tushum kelishigida turishini talab qiladi. Moslashgan aniqlovchi vazifasida keladigan tartib sonlar esa, tartibi ko‘rsatilayotgan so‘zlardan keyin kelib, ular bilan bir xil kelishikda turlanadi.

Arab tili grammatikasida ravish degan tushunchaning o‘zi yo‘q. O‘zbek tilidagi ravishlar arab tili grammatikasida hol va uning turlarini tashkil qiladi. (Qosimova, S. 2014, p. 83.). Olmoshlarga kelsak,



ular o'zbek tili grammatikasiga ko'ra turlanadi. Arab tilida esa ular mabniy, ya'ni o'zgarmas hisoblanadi. Faqat ko'rsatish olmoshlarining ikkilikda turganlarigina kelishiklarda turlanadi va ular ham ikki kelishikli "g'ayru munsarif" ismlar tarkibiga kiradi. Ularni qaratqich va tushum kelishiklari bir xildir. (Qosimova, S. 2014, p. 69.).

Fleksiya hodisasida e'rob masalasidagi kabi kelishiklarda to'liq turlanadigan - munsarif yoki to'liq turlanmaydigan - g'ayru munsarif, shuningdek, umuman turlanmaydiga - mabniy degan tushunchalar uchramaydi. To'g'ri, yuqorida aytib o'tilganidek, ba'zi so'zlar, masalan, sifat gapda aniqlovchi vazifasida kelganida turlanmaydi, ammo bu arab tilidagi kabi umuman turlanmaydigan yoki qisman turlanadigan so'zlar guruhini tashkil qilmaydi va ularni anglatuvchi maxsus terminlar ham mavjud emas.

Tuslanish hodisasi haqida gapiradigan bo'lsak, fleksiya tuslanish bu fe'lga xos grammatik hodisadir. Arab nahviga ko'ra esa, fe'lning e'roblanishi, deganda faqat hozirgi-kelasi zamon fe'lining mayllarda o'zgarishi tushuniladi. Bu tilda o'zbek tilidagi kabi, fe'lni o'tgan, hozirgi va kelasi zamonda yoki mayllarda o'zgarishi, degan tushuncha yo'q. Arab nahvshunoslari fe'lni uchta emsa, ikki zamonga bo'ladi va ularni o'tgan - moziy hamda hozirgi-kelasi zamon - muzoriy, deb ataydilar. (Sheikh Al-Ghalayni, M. 2007, p. 16.).

Ona tilimizdan farqli ravishda, arab tilida fe'lning o'tgan zamon o'zgarmas, ya'ni mabniy hisoblanadi va fe'llarning tuslanishi, ularning oxirgi unlilarining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Agar fe'l oxiridagi unli o'zgarmasa, u mabniy hisoblanadi. Shuning uchun ham o'tgan zamon fe'llari mabniy hisoblanadi.

Arab tilida hozirgi-kelasi zamon fe'llarining ort qo'shimchalari ismlarniki kabi turli omillar ta'sirida o'zgaradi. Shakldagi ana shu o'xshashlik va mazmundagi ayrim xususiyatlarning bir xilligiga ko'ra arab tilshunoslari hozirgi-kelasi zamon fe'llarini "الأفعال المضارعة للاسم" - *ismga o'xshash fe'llar* deb atashadi. Fe'llarning o'zgarishiga ham lafziy omillar, ham ma'naviy omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Arab tilida fe'llarning uchta holati mavjud va ular raf, nasb, jazm holatlari, deb nomlanadi. Raf holati o'zbek tilidagi darak mayliga to'g'ri keladi va uning ko'rsatkichi "damma" harakatidir. Fe'lning nasb holati ona tilimizdagi istak mayliga to'g'ri kelib, uning ko'rsatkichi "fatha"dir. O'zbek tilidagi shart mayli arab tilida "jazm", deb nomlanib, uning ko'rsatkichi "sukun"dir. (Abdujabborov, A., 2007, p. 191.).

Fe'llarning e'robiga lafziy omillardan asosan yuklamalar o'z ta'sirini o'tkazsa, ba'zi fe'llar, to'g'rirog'i noqis fe'llar gapdagi asosiy fe'lga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yuklamalar sababidan fe'llar istak yoki shart mayllarida ifodalansa, bir fe'l boshqa fe'lni raf holatida turishiga sabab bo'ladi.

Arab tilida aytib o'tganimizdek, tuslanish hodisasi ham e'rob, to'g'rirog'i, fe'lning e'roblanishi deb ataladi. Ismning dammaga tugallanishi, ya'ni bosh kelishik jumlada so'zning biror-bir boshqa so'zga bog'liq bo'lmashligini anglatadi. Xuddi shunday darak maylidagi fe'l ham jumlada biror-bir yuklamaga bog'liq bo'lmagan holda qo'llanilganini yuqorida ko'rib o'tdik. Masalan:

Osmon tiniqdir. - السماء صافية.

Bog'imiz meva berayapti. - يثمرُ بستاننا.

Birinchi gapda "samo" so'zi bosh kelishikda bo'lganligi uchun damma bilan harakatlangan bo'lsa, ikkinchi jumladagi "meva berayapti" fe'l-kesim ham unga hech qanday omil ta'sir qilmayotgani uchun raf holatida turibdi. Fleksiya hodisasiga ko'ra qaraydiga bo'lsak ham bosh kelishikda turlanayotgan ot boshqa so'zni o'ziga tobelaydi, ya'ni hech qanday qo'shimchaga ega emas. Shuningdek, xabar maylida tuslanayotgan fe'lning ham maxsus affiksi yo'q.



Ismning fathaga tugallanishi, ya'ni tushum kelishigi asosan jumlada kelgan fe'l yoki ba'zi yuklamalarga (أَنَّ، إِنَّ) bog'liq ekan. Masalan: Darhaqiqat Zayd turibdi - حَفِظَ مُحَمَّدٌ الْكِتَابَ yoki إِنَّ زَيْدًا قَائِمٌ. - Muhammad kitobini yodladi. (Nasif, Khifni et al., 2006, p. 338).

Otning tushum kelishigini olib turlanishi deganda biz ona tilimizda –ni qo'shimchasini olib kelishikda o'zgargan otni tushunamiz, masalan: *mashqni yozdim*. Bu gapda *mashqni* so'zi o'timli fe'l sababli tushum kelishigida turibdi va gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelyapti.

Istak mayli ham bir qator fe'llardan oldin keladigan "كِي" و "إِذَا" و "لَنْ" kabi yuklamalarga bog'liq. (Nasif, Khifni et al., 2006, p. 323). Buni biz fe'llarning e'robi mavzusida ko'rdik, masalan: ilm olish uchun keldim - جِئْتُ كِي أتعلم. Fleksiyaga ko'ra istak maylida tuslanayotgan fe'l negiziga –gin, –gil affikslari qo'shiladi. Masalan: *biznikiga borgan*. Shu o'rinda o'zbek tilida bu mayl buyruq-istak mayli deb atalishini aytib o'tishimiz zarur. Misoldan ham buni ko'rishimiz mumkinki, unda ishtirok etayotgan fe'l-kesimda bir vaqtning o'zida ham buyruq ham istak ma'nosi mavjud. Arab tilida esa, istak mayli alohida qonun-qoida asosida, buyruq mayli ham muayyan qonuniyatga ko'ra ifodalanadi hamda har ikki maylning bir-biridan farq qiluvchi o'z ko'rsatkichlari mavjud. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek fe'lning istak mayli fatha harakati bilan harakatlansa, buyruq mayli haqida quyida ma'lumot berib o'tamiz.

Shunday qilib, ikki vaziyatda, ya'ni رفع holatida mustaqil shaklni, نصب holatida esa muayyan birikmalarni tushunish mumkin.

Ismning va fe'lning uchinchi shakli farqli. Ism boshqa bir so'z yoki predmetga bog'liq holda qaratqich kelishigida turadi, ya'ni kasraga tugaydi, masalan:

وصل طه يا سن رمضان نائب الرئيس العراقي إلى صنعاء.

- Iroq prezidenti yordamchisi Toha Yosin Ramazon Sano shahriga keldi.

Bu jumlada "Sano" so'zi old ko'makchining ta'sirida qaratqich kelishigida turibdi. Ismning qaratqich kelishigida turishini talab qiluvchi omillardan yana biri, bu uning izofa birikmasida muzof ilayhi vazifasida kelishidir. Chunki, izofaning ikkinchi bo'lagi hisoblanmish muzof ilayhi nahv qoidasiga ko'ra doimo qaratqich kelishigida turadi.

O'zbek tilida otlarning qaratqich kelishigida turlanishiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu kelishikning qo'shimchasi –ning dir. Masalan: Haqnazar otaning ko'p yaxshiliklarini ko'rganman. (Tursunov, U. et al., 1992, p.262.)

Ko'rib turganimizdek, ona tilimizda otlarning qaratqich kelishigida turlanishi bilan ismlarning jarr holatida kelishida katta farq bor. Arab tilidagi jarr holati, ya'ni qaratqich kelishigi nafaqat

–ning affiksini, balki o'zbek tilidagi jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklarining affikslarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Bu tilda –ga, –da, –dan affikslari old ko'makchilar yordamida ifodalanadi.

Fe'l esa bunday shaklga ega emas. Ismdan farqliroq sukunga tugaydi va u fe'lning jazm holati deb nomlanadi. Arab tilida ism sukunli qo'shimcha bilan tugamaydi. (Grande, B.M., 1998, p. 160.). Fe'lning jazm holati ona tilimizdagi shart mayliga to'g'ri keladi. O'zbek tilida shart mayli tuslanish hodisasida o'rganiladi va biror harakatning bajarilishi uchun shart, mo'ljal qilingan harakatni bildiradi. Shart mayli shakli fe'l negiziga –sa mayl yasovchisini qo'yish va tushlash bilan hosil qilinadi. Masalan: kelsam, kelsalar.

Arab tilida esa shart maylini talab qiluvchi لَمْ، لَمَّا، إِنَّ kabi yuklamar mavjud va ulardan keyin kelayotgan fe'l albatta jazm holati, ya'ni shart maylida turishi kerak. Masalan: Va'dalarni buz mang - لم يخن عهدا

Ma'no jihatidan shart mayli va jazm holatlari o'xshasalarda, yasalishi jihatidan farq qilar ekan.



Shu o'rinda fleksiya va e'rob o'rtasidagi eng katta farqlardan biri haqida ma'lumot bermasak xato bo'ladi, bu fe'llarning o'tgan zamoni bilan bog'liq qarashlarning har xilligidir. Fleksiya hodisasiga ko'ra qaysi zamonda o'zgarmasin, fe'llar tuslanadi, deb hisoblanadi, arab tilidagi e'rob masalasida esa, fe'llarning o'tgan zamoni o'zgarmas, ya'ni mabniydir.

Demak, fe'llarda e'rob (mayllarda o'zgarish) - رَفْع نصب - جزم holatlarida bo'ladi va ularning ko'rsatkichlari damma (darak yoki aniq mayl), fatha (istak mayli) va sukun (shart mayli). Masalan:

يَضْرِبُ, أَنْ يَضْرِبَ, لَمْ يَضْرِبْ

Bundan ko'rinib turibdiki, arab tilida ism bilan bog'liq bo'lgan so'z oxiridagi o'zgarishlar o'zbek tili grammatikasida kelishiklar sifatida yuritilar ekan, fe'lning e'roblanishi esa o'zbek tilida tuslanish deb nomlanib, fe'l mayllari mavzusida tilga olinadi.

Xulosa. Yuqorida fleksiya va e'rob masalasi tadqiq qilindi, ular orasidagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatib o'tildi. Bu tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Umumiy tilshunoslikda turlanish va tuslanish fleksiya deb atalsa, u arab tilida "e'rob" termini bilan nomlangan va unda so'zlarning oxirgi bo'g'in unlisining o'zgarishi tushuniladi. Ismlardagi bu o'zgarish uning kelishigini, fe'llardagi (hozirgi zamon) o'zgarish esa uning maylini ifodalaydi.

2. E'rob -jumladagi vazifasiga qarab, so'z oxirida ro'y beradigan hodisadir. So'zning oxiri jumladagi vaziyatga qarab, dammalangan (مرفوعاً) yo fathalangan (منصوباً) yoki kasralangan (مجروراً) (sukunlangan) (مجزوماً) bo'lishi mumkin.

3. Arab tili grammatikasida o'zbek tilidagi kabi turlanish va tuslanish hodisasini ifodalovchi alohida termin mavjud emas. "Raf'", "nasb", "jarr" holatlari deganda ona tilimizdagi kelishiklar, to'g'rirog'i bosh, tushum va qaratqich kelishiklar nazarda tutiladi va bu bizga ma'lum turlanishga to'g'ri keladi. Fe'llarning raf, nasb, jarr holatlari deganda esa, fe'llarni mayllarda o'zgarishi, ya'ni ona tilimizdagi tuslanish hodisasi haqida so'z boradi. Fe'llarning raf holati ona tilimizdagi xabar mayliga, nasb holati istak mayliga va nihoyat jarr holati shart mayliga to'g'ri keladi.

4. Arab tilshunoslari e'rob, ya'ni kelishik alomatlarini ikki guruhga ajratishgan. Bular asliy (haqiqiy) va far'iy (orttirma) deb nomlanadi.

5. Arab tilida ismlar va fe'llarning e'roblanishi bir necha omillar ta'sirida yuz beradi. Bunday omillarga yuklamalar, old ko'makchilar hamda fe'llar kiradi.



ARAB TILIDA TUSHUM KELISHIGINING XUSUSIYATLARI

ZUXRA ARIPOVA

Professor v.b., O'zXIA



Annotatsiya. Maqola arab tilida tushum kelishigiga mansub bo'lgan ismlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Arab tilida tushum kelishigining qo'llanish doirasi keng bo'lib, mutlaq masdar, vositasiz to'ldiruvchi, o'rin-payt holi, sabab va maqsad holi, cheklov, كان va unga o'xshash fe'llarning ot qismi, "أَنَّ" va unga o'xshash yuklamalardan keyin kelgan ismlar, "لَا" inkor yuklamasidan keyin kelgan ismlar, taajjubni bildiruvchi "مَا أَفْعَلُ" vaznidagi fe'llar bilan kelgan so'zlar, ayrim hollarda undovlar, istisno yuklamalardan keyin qo'llanilgan so'zlar tushum kelishigida keladi.

Kalit soʻzlar: kelishik, tushum kelishigi, feʼl, oʻtimli feʼl, maqsad va sabab holi, oʻrin va payt holi, toʻldiruvchi, vositasiz toʻldiruvchi.

Abstract: The article is dedicated to analyzing nouns that appear in the accusative case in Arabic. In Arabic, the scope of the accusative case is broad. It includes usage in absolute verbal nouns (al-maʿṣdar al-muṭlaq), direct objects, adverbial expressions of place and time, expressions of cause and purpose, expressions of limitation or restriction, the predicate (complement) of kāna “كان” and similar verbs, nouns that follow the particle inna “إن” and its sisters, nouns after the negation particle lā “لا”, words associated with the exclamatory verb pattern mā aʿʿala “ما أفعل”, as well as, in some cases, interjections and words that follow exception particles.

Key words: case, accusative case, verb, transitive verb, purpose and cause adjunct, locative and temporal adjunct, object, direct object

Аннотация: Статья посвящена анализу имён (существительных), относящихся к винительному падежу в арабском языке. Сфера применения винительного падежа в арабском языке очень широка. Он используется в следующих случаях: абсолютный масдар, прямое дополнение, обстоятельство места и времени, обстоятельство цели и причины, ограничение/исключение, именная часть глаголов “كان”, имена после частицы “إن” и её аналогов, имена после отрицательной частицы “لا” для полного отрицания рода, слова, идущие после глаголов в форме “ما أفعل”, выражающих изумление, в некоторых случаях восклицания (мунада, если они неопределённые или составные), Слова, используемые после частиц исключения.

Ключевые слова: падеж, винительный падеж, глагол, переходный глагол, обстоятельство цели и причины, обстоятельство места и времени, дополнение, прямое дополнение

Kirish. Maʼlumki, arab tili nahvi va sarfi boshqa jahon tillarining grammatikasiga qaraganda anchagina murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Uning grammatikasidagi muhim qismlardan biri kelishiklar hisoblanadi. Kelishiklar – ism (ot, sifat va ularning vazifasini bajaruvchi boshqa soʻz)larning sintaktik maʼnolarini anglatadi. Maʼlumki, bu mazmun gapdagi bir soʻzning boshqa soʻzlarga munosabatidan mujassamlanadi. (Talabov, 1993) Kelishik kategoriyasi soʻzlarning oʻzaro aloqasini, yaʼni bir narsaning boshqa narsaga tegishliligini, predmetning makonga munosabatini, biror ishni bajarishda vositachilik vazifasini bajarishini hamda yana koʻplab boshqa maʼnolarni ifodalaydi.

Arab tilida soʻzlar tuzilishiga koʻra oxiri hech qachon oʻzgarmaydigan “mabniy” hamda oxiri oʻzgaradigan “muʼrob” deb ataladigan ikki xil boʻladi. Ism guruhiga kiruvchi soʻzlarga bosh (حَالَةُ الرَّفْعِ), qaratqich (حَالَةُ الْجَرِّ) va tushum (حَالَةُ النَّصْبِ) kelishiklari mavjud. Har bir kelishiklar oʻziga xos qoʻshimchalarga ega boʻlib, albatta, bu qoʻshimchalar otning gapdagi bajarayotgan vazifasi bilan uzviy bogʻliq hisoblanadi.

Kelishik kategoriyasi hamma darslik va oʻquv qoʻllanmalarida maʼlumot sifatida berilgan, lekin har bir kelishiklarning oʻrniga batafsil toʻxtalilmagan. Oʻzbek talabalari orasida tushum va qaratqich kelishigini qoʻllashda koʻplab xatoliklar kuzatilishi bois, ayniqsa, arab tilida tushum kelishigini oʻrganish dolzarb mavzulardan sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilida kelishiklar, xususan, tushum kelishigini oʻrganishda bugungi kungacha yetib kelgan juda koʻp nodir kitoblar mavjud. Ulardan eng mashhurlari Mahmud az-Zamaxshariyning “al-Unmuzaj” asari, Sibavayhiy qalamiga mansub “Kitob as-Sibavayh” asari, shuningdek, Ibn Hojibning “al-Kofiya”, Ibn Hishomning “Mugʻniy al-labib” asarlari muhim manba hisoblanadi. Zamonaviy misrlik tadqiqotchilar Hifni Nosif, Holid Abdulaziz, Fuʼad Neʼmat kabi arabshunoslarning asarlari ahamiyatga molik. Tadqiqot materiallarining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil asosida oʻrganildi.

Natijalar. Arab tilida muʼrob (turlanuvchi) soʻzlarga nisbatan, ular ot yoki feʼl boʻlishidan qatʼiy nazar, umumiy holda صرف (turlamoq, tuslamoq) feʼli yoki تصرف (turlash, tuslash) masdari atama



sifatida ishlatiladi. (Grande,1998, pp.562.) Demak, kelishiklar bo'yicha o'zgaradigan so'zlar aynan mu'roblar qatoriga kiradi.

Turlanish (ismning kelishikda o'zgarishi) – adabiy arab tilida rivojlangan sistemaga ega bo'lib, uch kelishikda namoyon bo'ladi. Ularning har biri ikki holatda (aniq va noaniq)dagi fleksiylarga ega. Har bir kelishik qo'shimchasi so'zning oxiriga qo'shib talaffuz qilinadi. Bundan tashqari, ismlarning bir alohida turi uchun noaniq shaklda ikki kelishikli (yoki qo'sh kelishikli) turlanish ham mavjuddir. Biroq bu turdagi ismlar aniq holatga ko'chish bilan uch kelishikli turlanish majmuasidagi so'zlar qatoridan joy oladi. (Talabov, 1993, pp.349.)

A.Abdujabborov kelishiklar mavzusiga quyidagicha yondoshgan:

Arab tilida uch kelishik bor:

- Bosh kelishik-حالة الرفع –faqat ega va ot-kesimlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

-Qaratqich kelishigi-حالة الجر –ko'makchilardan keyin va moslashmagan aniqlovchini ifodalash uchun ishlatiladi.

-Tushum kelishigi-حالة النصب –to'ldiruvchi va hollarni ifodalash uchun, bosh va qaratqich kelishigi ishlatilmaydigan hamma holatlarda ishlatiladi.

Birlik sondagi ismlarning kelishiklarda turlanishi

Kelishiklar	Noaniq holatda		Aniq holatda	
	muzakkar	muannas	muzakkar	muannas
bosh kelishik	طالب	طالبة	الطالب	الطالبة
qaratqich kelishigi	طالب	طالبة	الطالب	الطالبة
tushum kelishigi	طالبًا	طالبةً	الطالب	الطالبة

(Abdujabborov, 2020, pp.63.)

Tushum kelishigi – bu otning fe'lga tobeligini rasmiylashtiruvchi vosita. Shu bois, tushum kelishigidagi so'z o'zi bog'liq bo'lgan gap bo'lagi – fe'l-kesim bilan ma'nalan mustahkam bog'langan bo'ladi. Tushum kelishigining vazifalari xilma-xil bo'lib, ular orasida vositasiz to'ldiruvchini ifodalashdan tortib, fe'l mazmuniga aniqlik kiritish, konkretlashtirish, shuningdek, chegaralovchi-tushuntiruvchi turli to'ldiruvchilarni gapda rasmiylashtirish kabilar mavjud.

“Tushum kelishigi” – deydi B.M.Grande “otning fe'lga bo'ysunishini ko'rsatadi. Bu bog'liqlik turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: to'g'ri to'ldiruvchidan tortib, ish-harakatni aniqlovchi, chegaralovchi va oydinlashtiruvchi turlarigacha. Ushbu to'ldiruvchilar tushum kelishigida kelib, fe'lni tavsiflaydi. Hind-yevropa tillarida bunday tavsiflar ko'pincha ravishlar yoki holatni bildiruvchi so'zlar orqali ifodalanadi. Shu sababli, arab tilidagi bu kelishikni keng ma'noda “fe'l kelishigi” yoki “ravish kelishigi” deb atash mantiqan to'g'riroq bo'lar edi. Bunda, “ravish kelishigi” tushunchasi bilan birga, obyekt kelishigi ham nazarda tutilishi lozim”. (Grande,1998, pp.328).

Arab tilida tushum kelishigining qo'llanish doirasi keng bo'lib, mutlaq masdar (مفعول مطلق), vositasiz to'ldiruvchi, o'rin-payt holi (مفعول فيه), sabab va maqsad holi (مفعول له), birgalik holi (مفعول مع), ish-harakat holati (الحال), cheklov (التمييز), “kan”, va unga o'xshash fe'llarning ot qismi, “in” va unga o'xshash yuklamalardan keyin kelgan ismlar, “la” inkor yuklamasidan keyin kelgan ismlar, taajjubni bildiruvchi “ma af'al” vaznidagi fe'llar bilan kelgan so'zlar, ayrim hollarda undovlar, istisno yuklamalardan keyin qo'llanilgan so'zlar tushum kelishigida keladi.

Ibn Hojib o'zining mashhur “al-Kofiya” asarida tushum kelishigiga quyidagicha ta'rif beradi:

المنصوبات هو ما اشتمل على علم المفعولية – Mansubotlar, ya'ni tushum kelishigidagi gap bo'laklari

maf'ullar ilmini qamrab oladi. (Ibn Hojib, 2010, pp.18)

A.Abdujabborovning fikricha, “Bitta birikmada subyekt-الفاعل ham, obyekt-المفعول ham bo'lsa, odatda obyekt-المفعول tushum kelishigida bo'ladi:

قراءة محمود كتاباً - qishl qishl

ضرب زيد محموداً - urish urish

(Abdujabbarov, 2020, pp.120).

Az-Zamaxshariyning “al-Unmuzaj” asarida keltirilishicha, tushum kelishigidagi ismlar ikki xil bo'ladi: 1. Asl (tushum kelishigidagi ismlar). 2. Asliga o'xshash (tushum kelishigidagi ismlar). Asl tushum kelishigidagi ismlar – to'ldiruvchilardir. (Nosirova, 2004, pp.29). Ular besh xil bo'ladi:

1. Maf'ul mutlaq - المفعول مطلق (o'z-o'zini to'ldiruvchi).

وهو اسم ما فعله فاعل فعل مذكور بمعناه

Maf'ul mutlaq harakat nomi bo'lib, fe'lining ma'nosi bajaruvchi tomonidan amalga oshirilgan ish-harakatning nomidir. (Ibn Hojib, 2010, pp.18).

A.Abdujabborov “Arab tilida har bir fe'l bilan uning ma'nosini ta'kidlash, aniqlash uchun o'sha fe'lining masdari ishlatilishi mumkin. Bunda masdar «maf'ul mutlaq-المفعول المطلق» deb ataladi” – deb ta'kidlaydi. (Abdujabbarov, 2020, pp.122).

Ko'pincha, fe'lining masdari (harakat nomi) gapda o'sha fe'l ifodalagan ma'noni kuchaytirish yoki tasdiqlash uchun ishlatiladi. Aynan shu vazifada kelgan masdar “maf'ul mutlaq” yoki “mutlaq masdar” deb ataladi. U odatda gapning oxirida, noaniq holatda (tanvinli) va tushum kelishigida (nasb holatida) keladi. Masalan:

O'g'rini zarb bilan (qattiq) urdilar. Bu yerda ضرباً so'zi urdilar fe'lining ma'nosini kuchaytirib bermoqda.

Masdar bilan fe'lni bog'lovchi yagona umumiylik – bu ularning mazmuniy o'xshashligidir. Mutlaq masdar fe'llarning o'z masdarlaridan shakllanadi va ular har doim noaniq holatda va tushum kelishigida ifodalanadi.

Mazkur holatdagi masdar doimo tushum kelishikda bo'ladi. Masalan: ضربت ضرباً – Men qattiq urdim. ضرباً so'zi masdar bo'lgani uchun tushum kelishikda bo'ldi.

Arab tilshunosligida asl tushum kelishigidagi ismlar (mansub ismlar) muhim o'rin tutadi. Bu guruhga turli maf'ullar (to'ldiruvchilar) kiradi. Ayniqsa, maf'ul mutlaq – ya'ni, fe'lining o'zidan yasalgan va uning ma'nosini tasdiqlovchi yoki kuchaytiruvchi mutlaq masdar (harakat nomi) ham xuddi shu kelishikda keladi.

المفعول المطلق وهو المصدر غالي نحو: ضربت ضرباً و ضربة و ضربتين و قعدت جلوساً .

Mutlaq masdar u aslida ham masdarning o'zi. Masalan: Men bir, ikki qattiq zarba urdim va o'tirdim. Maf'ul mutlaq odatda noaniq holatda tushum kelishigida bo'ladi. (Nosirova, 2005, pp.96)

“Maf'ul mutlaq” – deydi zamonaviy tadqiqotchi Fuad Ne'mat “fe'ldan yasalgan (masdarning) nasb holatidagi ismdir va u ta'kidlash uning turini yoki sonini bildirish ma'nolarini ifodalaydi. Masalan:

Dehqon paxtani yig'adi-يجمع الفلاح القطن جمعاً- (Nemah, 1998, pp.69).

Mashhur sharqshunos B.M.Grande mutlaq masdar borasida: “Ma'lumki har bir fe'l, xoh u o'timli, xoh o'timsiz bo'lsin, o'zining masdariga ega bo'ladi. Tushum kelishigida kelgan bunday masdarlar, ya'ni mutloq masdar (المفعول المطلق) deb ataladi”. U shuningdek, ish harakatining turni anglatganda o'zi bilan sifatlovchi aniqlovchi olib kelishini ham ta'kidlab o'tgan.

ضربه ضرباً شديداً – uni qattiq urdim. Bu jumlaning so'zma-so'z tarjima qilinsa, “qattiq urish bilan urdim” tarzida bo'ladi.

سرت سيرا طويلاً – uzoq yurdim. So'zma-so'z esa, “uzoq yurish bilan yurdim”. (Grande,1998,

pp.341).

“Maf’ul mutlaq” – deydi E.Talabov “aslida ravish holi bo’lib, u fe’l-kesimning o’zidan yasalgan va noaniq shaklda tushum kelishigiga qo’yilgandir. Arab tilida bunday masdarlar gapda ish-harakat mazmunining yana ham yaqqol va ravonroq ifodalanishiga yordam beruvchi vosita sifatida qo’llaniladi. Gapda mutlaq masdar fe’l-kesimdan orqada keladi:

يتساقط في ميدان القتال الجنود تساقطاً – Jang maydonida jangchilar ko’plab qirilayaptilar. (Talabov,1993, pp.225).

O’zbek sharqshunoslari N.I.Ibrohimov, M.Yusupovning “Arab tili grammatikasi” darsligida maf’ul mutlaqni “*masdari mutlaq*” deb atalgan va ba’zi hollarda masdari mutlaqdan oldin “أَشَدُّ، كُنْ” so’zlari nasb holatida kelib, masdari mutlaq esa ularga nisbatan muzof ilayhi “مضاف إليه”-izofaning ikkinchi bo’lagi” bo’lib kelishi mumkinligi aytilgan. Bu izofa ham fe’ldan anglashilgan ish-harakatning darajasini oshirish uchun xizmat qiladi.

Masalan: حبب الأم أولادها كل الحب - Ona o’z farzandlarini (juda) qattiq sevardi. (Ibrohimov, Yusupov, 2009, pp.146).

V.E.Shagal, M.I.Merekin maf’ul mutlaqni tarjima qilishda, “juda”, “kuchli” so’zlari qo’shilishi mumkinligini aytib o’tadi.

Masalan, ضربه أشد الضرب - Uni juda qattiq urdi. (Shagal, Merekin, 1981, pp.126).

Ba’zan maf’ul mutlaq vazifasida gapdagi fe’lga ma’nodosh bo’lgan boshqa fe’lning masdari ishlatilishi mumkin. Masalan:

O’tirdim. - قَعَدْتُ جُلُوساً (Abdujabbarov, 2020, pp.123).

Shuningdek, maf’ul mutlaq fe’lni ma’nosini ham ta’kidlaydi.

جلس المجتمعون جلوساً -Yig’ilganlar o’tirdilar;

Fe’lning qaysi ma’noda ishlatilganini ko’rsatadi:

a) برأ الله الخلق برءاً -Alloh mavjudotni yaratdi;

برأ عمر من التهمة برءاً -Umar tuhmatdan qutuldi;

برأ Hikmat tuzaldi;

b) درسنا درساً -O’qidik;

درسنا درساً -Yanchdik (Abdujabbarov, 2020, pp.122).

Misollardan ko’rinib turibdiki, 1 ta fe’l bir necha ma’noda qo’llanilishi mumkin. Maf’ul mutlaq orqali fe’lning ma’nosi ochib berildi.

2. Vositasiz to’ldiruvchi – maf’ul bihi (المفعول به):

المفعول به نحو: ضربت زيدا و ينصب المفعول به بفعل مضمر كقولك: للحاج مكة و للرامي القرطاس.

Vositasiz to’ldiruvchi yashiringan fe’l sababli tushum kelishigida turadi. Masalan: Hojiga Makkani, merganga nishonni tilayman. (Nosirova, 2005, pp.97)

المفعول به: هو ما وقع عليه فعل الفاعل، مثل: ضربت زيدا، وقد يتقدم على الفعل

Fe’l ifodalagan ish-harakatni mazmunan to’ldirib, kimni, nimani, kimdan, qaysi narsadan, kimda, nimada, kinga, qaysi narsaga kabi so’roqlarga javob bo’luvchi gap bo’lagi to’ldiruvchi deyiladi. To’ldiruvchi vositali va vositasiz bo’ladi.

Ish-harakatning obyektini bildirib, kimni, nimani so’rog’iga javob bo’luvchi to’ldiruvchi vositasiz to’ldiruvchi deyiladi. Arab tilida fe’l kesimli gaplarda gapning ega va kesimidan keyin bevosita vositasiz to’ldiruvchi keladi va tushum kelishigida qo’yiladi. (Ibrohimov, Yusupov, 2009, pp.211).Masalan;

فَهَمَّتْ فَاطِمَةُ الْمَوْضُوعَ - Fotima mavzuni tushundi.

Arab tili grammatikasida “maf’ul bihi” (vositasiz to’ldiruvchi) — bu fe’lning ta’siri bevosita tushadigan obyektini anglatadi. Ya’ni, fe’l orqali amalga oshirilgan harakatga duchor bo’lgan yoki uni



qabul qilgan shaxs yoki narsa hisoblanadi. (Ibn Hojib, 2010, pp.18). Masalan:

“ضربتُ زيداً” – Zaydni urdim. Bu jumlada “ضربتُ” (urdim) – fe’l va uning bajaruvchisi (foil – ya’ni “men”), “زيداً” esa – amal ta’sirini qabul qilayotgan “maf’ul bihi”, ya’ni urish harakatining bevosita obyektidir.

Shuningdek, “maf’ul bihi” doimiy ravishda fe’ldan keyin kelaveradi, deb bo‘lmaydi. Ba’zi hollarda u fe’ldan oldin ham kelishi mumkin. Bu gapdagi urg’u va tuzilishga bog‘liq holatlarda yuz beradi. Masalan:

Kimni ko‘rding? – من رأيت؟

Harakat yo‘nalgan obyektini ko‘rsatuvchi va tushum kelishigida turuvchi ism vositasiz to‘ldiruvchi deb ataladi.

Arab tilida fe’llar ikki turga bo‘linadi:

O‘timli fe’llar (فعل متعدى): Bu fe’llar ish-harakat yo‘nalgan obyektning tushum kelishigida turishini talab qiladi.

O‘timsiz fe’llar (فعل لازم): Bu fe’llar vositasiz to‘ldiruvchini talab qilmaydi.

Arab nahvchilari tomonidan المتعدى بحرف الجر (الفعل المتعدى غيره) deb ataluvchi fe’llar ham mavjud. Ular predloglar bilan birga ishlatiladi. Bunday o‘timli fe’llardan keyin kelgan to‘ldiruvchi endi vositasiz emas, vositali to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Maf’ul bihi (vositasiz to‘ldiruvchi) arab tilida doimo tushum kelishigida keladi. Masalan, قرأ الطالب – Talaba kitobni o‘qidi jumlasida “الطالب” (Talaba) – bu bajaruvchi (foil), “الكتاب” (Kitobni) esa – o‘qish harakatining obyekti bo‘lgani uchun maf’ul bihidir. Ammo, agar bu jumladagi fe’l majhul nisbatga (ya’ni, harakatni kim bajargani noma’lum yoki muhim bo‘lmaganda) o‘zgartirilsa, bu maf’ul bihi endilikda gapning egasi o‘rmini egallaydi va bosh kelishikda (raf’ holatida) o‘qiladi. Arab tilshunoslari bunday yangi egani “noib foil” deb ataydilar. Yuqoridagi misolni majhul nisbatga o‘zgartirilsa, قرئ الكتاب – Kitob o‘qildi., deb tarjima qilinadi. Bu yerda “الكتاب” (Kitob) avvalgi jumlada maf’ul bihi bo‘lgan bo‘lsa, endi u noib foil, ya’ni egaga o‘zgarib, bosh kelishikda kelmoqda.

Shunday o‘timsiz fe’llar ham mavjudki, ular bilan ishlatilgan vositali to‘ldiruvchi yoki hol tushum kelishigida keladi. Masalan;

ركب سليم السيارة. – Salim mashinaga o‘tirdi.

سأل كريم المعلم. – Karim o‘qituvchidan so‘radi.

زار محمود المتحف. – Mahmud muzeyga bordi.

O‘zbek tilida ham maf’ul bihi o‘z ma’nosini saqlab qoladi va ko‘pincha vositasiz to‘ldiruvchi sifatida tarjima qilinadi. Shunga e’tibor berish kerakki, o‘zbek tilidagi jo‘nalish kelishigidagi vositali to‘ldiruvchi ba’zan arab tilida vositasiz to‘ldiruvchi kabi tushum kelishigida kelishi mumkin. Masalan: دخل الغرفة – U xonaga kirdi. O‘zbek tilida “xonaga” jo‘nalish kelishigida kelgan bo‘lsa-da, arab tilida “الغرفة” so‘zi “دخل” fe’li o‘timli bo‘lgani uchun tushum kelishigida (nasb holatida) kelgan. Arab tilida o‘timli fe’llar o‘z to‘ldiruvchilarini aynan tushum kelishigida talab qiladi.

Agar gapda ham vositasiz, ham vositali to‘ldiruvchi mavjud bo‘lsa, avval vositasiz, so‘ng vositali to‘ldiruvchi keladi. Masalan;

أكل الطفل الطعام بالمعلقة. – Go‘dak taomni qoshiq bilan yedi.

(Ibrohimov, Yusupov, 2009, pp.211).

3. O‘rin va payt hollari – maf’ul fihi (المفعول فيه):

المفعول فيه هو ظرفان: ظرف الزمان و ظرف المكان و كل واحد منهما مبهم و معين. فالزمان ينصب كله نحو: أتيت اليوم و بكرة و ذات ليلة. المكان لا ينصب منه إلا المبهم نحو: قمت أمامك. و لا بد للمحدود من "في" نحو: صليت في المسجد.

Maf’ul fihi – u ikki holdir: payt holi va o‘rin holi. Ularning har biri mavhum va aniq ko‘ringan hol bo‘lishi mumkin. Payt holi har doim tushum kelishigida turadi. Masalan: bugun keldim, kecha keldim,



bir kuni tunda keldim. O'rin hollaridan faqat mavhumlari tushum kelishigida bo'ladi. Aniq o'rin hollarida esa albatta في old ko'makchisi bo'ladi. Masalan: masjidida namoz o'qidim. (Nosirova, 2005, pp.97)

“Maf'ul fihi” – deydi Fu'ad Ne'mat “bu fe'l anglatgan ish-harakatni bajarilgan vaqti yoki o'rniga ishora qiluvchi tushum kelishigidagi ismdir va u “qayerda?” va “qachon?” so'roqlariga javob bo'ladi. Maf'ul fihi ish-harakatni bajarilgan paytiga ishora qilsa, payt holi, o'rniga ishora qilsa, o'rin holi deyiladi”. (Nemah, 1998, pp.69).

Nahvchi olim Hifni Nosif o'z asarida "Maf'ul fihi" (hol to'ldiruvchi)ni atroflicha tushuntiradi. U buni ikki asosiy tur – payt holi (ظرف زمان) va o'rin holi (ظرف مكان) deb ajratadi. Har ikkala hol ham aniq (ma'lum) yoki noma'lum (mavhum) bo'lishi mumkin. (Nasif, 2006, pp.98)

1. Payt holi (ظرف زمان) – tushum kelishigida kelib, fe'l bajarilgan vaqtni aniq yoki mavhum tarzda ifodalaydi. Masalan:

سافرتُ صباحًا. - Ertalab safarga chiqdim
نام الطفل ليلاً. - Bola tunda uxlaydi.

2. O'rin holi (ظرف مكان)ning faqat noma'lum (mavhum) turlari tushum kelishigida kelib, bular aniq bir joyni emas, balki umumiy yo'nalish yoki noaniq joyni bildiradi. Masalan:

جلستُ تحت الشجرة. - Daraxtning ostida o'tirdim
المتحف فوق البنك. - Muzey bankning tepasida.

Ammo, aniq o'rin hollari har doim oldida ko'makchi bilan keladi va tushum kelishigida kelmaydi. Ular aniq bir makonni belgilaydi. Masalan:

درستُ في المكتبة. - Kutubxonada dars qildim
وضعتُ الكتاب على الطاولة. - Kitobni stol ustiga qo'ydim

4. Birgalik to'ldiruvchisi – maf'ul ma'ahu (المفعول معه):

المفعول معه نحو: ما صنعتُ و أباك و ما شأنك و زيدا. و لا بد له من فعل أو معناه.

Birgalik to'ldiruvchisi, masalan: men otang bilan hech narsa qilmadim, Zayd bilan sening ishing yo'q. Bunday to'ldiruvchi bo'lishi uchun gapda fe'l yoki fe'l ma'nosi bo'lishi kerak. (Nosirova, 2005, pp.99)

المفعول معه: هو المذكور بعد الواو لمصاحبة معمول فعل لفظا أو معنى. فإن كان الفعل لفظا، و جاز العطف، فالوجهان مثل: جئتُ أنا و زيد و زيدا.

Maf'ul ma'ahu و vovdan keyin kelib, lafzda yoki ma'noda ish – harakatini birga bajarilganini anglatadi. Agar fe'l lafzda bo'lib, vovdan keyin kelgan iborani vovdan oldin kelgan ibora bilan bog'lash kerak bo'lsa (uyushib kelsa) ikki xil holat bo'ladi:

Bosh kelishikda o'qish: Bunda “vav” uyushtiruvchi bog'lovchi vazifasini bajaradi va undan keyingi ism “vav”dan oldingi ismning kelishigida keladi. Masalan:

“جئتُ أنا و زيد” - Men va Zayd keldik. Bu yerda “Zayd” so'zi “men” (أنا) so'ziga uyushgan va bosh kelishikda kelmoqda.

Tushum kelishigida o'qish: Bunda “vav” hamrohlikni anglatuvchi “vav” bo'lib, undan keyingi ism “Maf'ul ma'ahu” sifatida tushum kelishigida keladi. Masalan:

“جئتُ أنا و زيد” - Men Zayd bilan birga keldim. Bu yerda “زيداً” - “Zayd” so'zi “Maf'ul ma'ahu” sifatida nasb holatida kelmoqda, bundagi harakat “Zayd” bilan birga sodir bo'lgani ta'kidlanadi. (Ibn Hojib, 2010, pp.23).

Shunday qilib, bir xil so'z tuzilishida ham “vav”ning funksiyasiga qarab, ismning kelishigi o'zgarishi mumkin, bu esa gapning ma'nosiga ta'sir qiladi.

5. Sabab va maqsad holi – maf'ul lahu (المفعول له):

المفعول له نحو: ضربته، نحو: ضربته تأديبا له. و كذلك كل كان علة للفعل، نحو: جئتُك للسمن.

Sabab va maqsad holi: unga odob berish maqsadida urdim. Biror ish-harakatning sodir bo'lishi uchun maqsadi yoki sababni bildirgan har qanday so'z ham *المفعول له* deb ataladi. Masalan: sening oldingga yog' uchun keldim. (Nosirova, 2005, pp.99)

المفعول له: هو ما فعل لأجله فعل مذكور مثل: ضربته تأديبا، وقعدت عن الحرب جينا، خلافا للزجاج؛ فإنه عنده مصدر.

– *ضربته تأديبا له* – Maf'ul lahu – maqsad-sabab holi ish harakatning sabab va maqsadini bildirib keladi. Men uni tarbiyalash maqsadida urdim. Bu yerda “تأديبا” – “tarbiyalash maqsadida”, urish harakatining sababi yoki maqsadini ko'rsatadi., *جينا وقعدت عن الحرب* – Men urushdan qo'rqqanim sabab voz kechdim (bormadim). Bu jumlada “جينا” – “qo'rqqanim sabab” urushdan voz kechishning sababini tushuntiradi, *خلافا للزجاج قعدت* – Deraza (shisha) ga teskari o'tirdim. Bu jumlada “خلافا” - teskari holatda, sabab va maqsad holini ifodalaydi. (Ibn Hojib, 2010, pp.73).

Arab tilshunosligida, nasb holatida (tushum kelishigida) keladigan maqsad-sabab holini ifodalovchi bu turdagi maf'ul ikki xil nom bilan ataladi. Ba'zi manbalarda u “*المفعول لأجله*” deb yuritilsa, boshqalarida esa qisqaroq qilib “*المفعول له*” deb nomlanadi. Ikkala atama ham aslida bir xil grammatik funksiyani, ya'ni biror ishning nima sababdan yoki nima maqsadda bajarilganini anglatadigan so'zni bildiradi.

Bu borada B.M.Grande “Ish-harakatning maqsad va sababini bildirib, nasb holatida kelgan ism *المفعول له* deb ataladi” – deb, ta'rif bergan. (Grande, 1998, pp.340).

Ba'zi tilshunoslar, masalan, Zajjoj, “Maf'ul lahu”ni oddiy masdar (harakat nomi) deb hisoblashadi. Ammo uning asosiy vazifasi – fe'lning nechun bajarilganini anglatishdir.

Ibn Hojib “hol – *الحال*” haqida quyidagicha ta'rif bergan:

الحال: ما يبين هيئة الفاعل أو المفعول به لفظا أو معنى، نحو: ضربت زيدا قائما، وزيد في الدار قائما، وهذا زيد قائما.

Hol – fe'lning bajaruvchisi (foil) yoki bajariluvchisi (maf'ul bih)ning holatini ma'lum qiladigan, ma'nosi yoki lafzi aniq bo'lgan so'zdir. Bunda *زيدا قائما* – Zaydni tik turgan holda urdim. Bu jumlada “qaysi holatda urdim?” degan savolga javob beriladi. Demak, “قائما” so'zi “Zayd”ning holatini tasvirlayapti. *زيد في الدار قائما* – Zayd uyda tik turibdi. Bunda “قائما” so'zi “uyda” turgan shaxsning holatini anglatadi. *زيد قائما* – Bu – tik turgan Zayd. Bu jumlada “قائما” so'zi “Zayd”ning qanday holatda ekanligini ko'rsatib, uning asosiy xabarini ta'riflaydi. (Ibn Hojib, 2010, pp.73).

Arab tili grammatikasidagi “al-hol” (holat) kategoriyasi o'zbek tilidagi holat ravishiga mos keladi. Ushbu mavzu “asliga o'xshash tushum kelishigidagi ismlar” qatorida o'rganiladi.

“Holat holi vazifasida kelayotgan so'z” – deydi B.M.Grande “aniq daraja sifatdoshi yoki harakat nomi (masdar) bo'lib, noaniq holatda tushum kelishigida turib, harakat turini ifodalab kelgan bu so'z quyidagilarga tegishli bo'lishi mumkin:

a) subyektga tegishli bo'lishi mumkin: *Minib(nimagadir) keldi. أتى ماشيا* – U yayov keldi. *دخل بغيتة* – U to'satdan kirdi.

b) obyektga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan: *شمو لا ساشريها* – Men uni sovutib ichaman. *باكيا الشارع* – Men uni ko'chada yig'lagan holda ko'rdim. (Grande, 1998, pp.341).

Hol (*الحال*) so'zning gapdagi ega yoki to'ldiruvchining holatini aniqlaydi va “qanday?” degan savolga javob beradi.

Fu'ad Ne'mat bu borada “Hol ta'riflab kelayotgan ega yoki to'ldiruvchi “*صاحب الحال*” – “sohibu-l-hol” deb atalib, bu so'z har doim aniq holatda va tushum kelishigida bo'ladi”. Masalan: *جاء القائد منتصرا* – Sarkarda g'alaba qozonib keldi. Bu jumlada “منتصرا” – “g'alaba qozonib” so'zi ega “القائد” – “sarkarda”ning harakati qaysi holatda bajarilganini aniqlab, tushum kelishigida turibdi. (Nemah, 1998, pp.75).

Bundan ko'rinadiki, o'zbek, rus va arab tilshunoslari holat holiga deyarli bir xil ta'rif berishgan.

Fu'ad Ne'mat hol turlari haqida ham to'xtalib o'tgan.



الحال ثلاثة أنواع : اسم ظاهر وهو بطابق صاحب الحال في النواع وفي العدد

Hol uch xil bo'ladi:

a) tashqi holatni ifodalovchi hol va u "صاحب الحال" - "sohibu-l-hol" bilan jinsda, sonda moslashadi:

عادت الطائرة سالمة – Samolyot betalofat qaytdi (birlik, muannas).

عادت الطائرتان سالمتين – Ikki samolyot betalofat qaytdi (ikkilik, muannas).

عادت الطائرات سالمة – Samolyotlar betalofat qaytdilar (ko'plik, muannas).

b) jumla (jumlaga o'xshash) ko'rinishida (hol yoki predlog va undan keyin kelayotgan qaratqich kelishigidagi ism). Masalan:

رأيت الطائرة بين السحاب – Samolyotni bulutlar orasida ko'rdim. ("بين السحاب" - jumlaga o'xshash hol)

v) ismiy yoki fe'liy jumla bo'lib keladi. Masalan:

استيقظت و الشمس ساطعة – Quyosh yoyilib kelganda uyg'ondim

سار الطفل يبكي – Bola yig'lab borardi (Nemah, 1998, pp.75). "yig'lab borardi" fe'liy jumla gapda hol bo'lib kelgan.

Cheklov (التمييز) arab tiliga xos grammatik holat bo'lib, gapdagi fe'l yoki otning umumiy ma'nosini cheklab, aniqlashtiradi. U harakat yoki sifatning aynan qaysi jihati nazarda tutilayotganini ko'rsatadi. Cheklovchi so'z odatda gapning oxirida keladi va noaniq holda, tushum kelishigida bo'ladi. Masalan; كريم قوامه (Karim qomati jihatidan uzun). Bu gapda "qomat" so'zi "uzun" sifatining aynan qaysi jihatga tegishli ekanini aniqlashtirib, boshqa jihatlardan cheklaydi.

Cheklash bu arab tilidagi kesimning xarakterini izohlashda aniqlik kiritish yoki aniq (konkret) lashtirish niyati bilan qo'llaniladi. Cheklash vazifasini ot bajaradi. U kesimdan so'ng qo'yiladi. Cheklash vazifasini bajarayotgan so'z gapda noaniq holatda, tushum kelishigida bo'ladi. Masalan;

إمتاز الشاب عقلا – Yigitcha aqli bilan ajralib turardi. Misoldan ham ko'rinib turibdiki, cheklash vazifasini bajarayotgan ot, kesim mazmuniga aniqlik kiritgan. (Talabov E., 1993, pp.233).

Bu borada Ibn Hojib "al-Kofiya" asarida quyidagicha yozadi:deydi:

التمييز: ما يرفع الإبهام المستقر عن ذات مذكورة أو مقترنة

Tamiyz (cheklov): bu – tilga olingan yoki tushunilib turgan so'zning noaniqligini bartaraf etuvchi so'zdir. Bu qoidadan kelib chiqadiki, tamiyz nutqdagi mavhumlikni yo'qotadi. (Ibn Hojib, 2010, pp.24).

Hifni Nosif cheklov borasida yana quyidagi fikrlarni beradi: "O'lchov, og'irlik, son, masofa kabilarning barchasi noaniq so'zlardir. Agar sen: bir qantor sotib oldim, desang eshituvchi seni nimadan bir qantor sotib olganingni tushunmaydi, ya'ni shakardanmi, sovundanmi yoki boshqa narsadanmi noaqniqdir. Agar sen: shakardan bir qantor sotib oldim, desang "shakar" so'zi tamiyz, ya'ni cheklov bo'lib, u noaniq holatda, tushum kelishigida turadi. (Nasif, Khifni, 2006, pp.440)

O'lchov, og'irlik, masofa kabi cheklov o'zi aniqlab kelayotgan so'z bilan izofa birikmasi holatida yoki "من", "ب", "ف" predloglari yordamida ham ifodalanishi mumkin. Masalan:

إشتريت رطل عسل او رطلا من عسل – bir ratl asal sotib oldim

إشتريت صاع تمر – bir sa'a xurmo sotib oldim (Nasif, Khifni, 2006, pp.440)

Arab tilshunoslarining fikriga ko'ra, 11 dan 99 gacha bo'lgan sonlardan keyin keladigan sanalmish so'zlar ham cheklov (tamiyz) hisoblanadi.

O'zbek va rus arabshunoslari ham bu fikrga qo'shiladilar. Jumladan, rus arabshunosi B. M. Grande buni tasdiqlab, 11 dan 99 gacha bo'lgan sonlardan keyin kelayotgan sanalmish, shuningdek, og'irlik, uzunlik, hajmni ifodalovchi o'lchov birliklaridan keyin kelayotgan so'z ham cheklovdir – deb ta'rif bergan. Masalan;

أحد عشر رجلاً – 11 ta kishi

ثلاثون ناقّة – 30 ta tuya

اشتریت رطلا سمناء و مذا قمها و مترین حررا-

Men bir ratl yog‘, bir mudd bug‘doy, ikki metr ipak mato sotib oldim. (Grande,1998, pp.341).

Bu borada A.Abdujabborov: 11dan 99 gacha bo‘lgan sonlardan keyin kelgan sanalmish birlik son, noaniq holat, tushum kelishigida bo‘ladi” – deb yozgan. Masalan;

فيمزرعة خمسة عشرة بقرة - Fermada 15 ta sigir bor.

أخذت ثمانية وثلاثين دفترًا - 38 ta daftar oldim.

“necha, qancha” so‘roq olmoshidan keyin sanalmish doim birlik sonda, tushum kelishigida bo‘ladi. Misollar:

كم كتابًا قرأت؟ Nechta kitob o‘qiding?

كم طالبًا في القاعة؟ Zalda nechta toliba (bor)? (Abdujabbarov, 2020, pp.156).

Keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, cheklov (tamiyz) arab tiliga xos grammatik holat bo‘lib, u gapning kesimini aniqlashtirish uchun, og‘irlik, hajm, masofa kabi o‘lchov birliklaridan so‘ng va albatta 11-99 gacha sanoq sonlardan so‘ng qo‘llanilishi va ko‘p hollarda cheklov so‘zi noaniq holatda va tushum kelishigida bo‘lishi aniqlandi.

Ibn Hojibning “al-Kofiya” asarida istisnoni ikki turi haqida quyidagicha ta’rif berilgan:

المستثنى: متصل ومنقطع.

فالمُتَّصِل: هو المخرج عن متعدّد لفظاً أو تقديرًا بدلاً وأخواتها

“Al-Mustasna” (istisno qilingan so‘z) ikki turga bo‘linadi: Muttasil (bog‘liq) va Munqati’ (bog‘liqsiz).

Muttasil mustasno (bog‘liq istisno) – bu “إلا” yoki unga o‘xshash so‘zlar yordamida ko‘p sonli so‘zlar ichidan ajratib olingan ismdir. Bu ajratish aniq aytilgan yoki taxminan tushunilgan bo‘lishi mumkin. Masalan:

Menikiga Zayddan bo‘lak qavm (barchasi) keldi. Bu jumlada “القوم” (qavm) – ko‘pchilikni ifodalovchi so‘z bo‘lib, “إلا زيدا” – Zaydni qavmning ichidan kelgan bir odam ekanligini istisno qilayapti. “Zayd” “mustasno” (istisno qilingan so‘z) bo‘lib, tushum kelishigida kelmoqda.

Agar “إلا” dan oldin inkor yuklamasi kelmasa, undan keyingi har qanday ism mustasno hisoblanadi va tushum kelishigida bo‘ladi.

Munqati’ mustasno (bog‘liqsiz istisno) – bu “إلا” yoki unga o‘xshash so‘zlardan keyin keladigan, lekin asosiy ko‘pchilikka (predmetga) aloqasi bo‘lmagan so‘zdir. Masalan;

Menikiga eshakdan bo‘lak qavm (barchasi) keldi..

Bu jumlada “عشاك” (eshak) so‘zi “qavm” tarkibiga kirmaydi, ya’ni ular bir-biridan butunlay farqli tushunchalar.

Qayd etish joizki, “istisno” atamasi o‘zbek tili grammatikasida alohida kategoriya sifatida ishlatilmaydi. (Ibn Hojib, 2010, pp.25).

Bundan kelib chiqadiki, arab tilidagi istisno (الاستثناء) qoidalariga ko‘ra, “إلا” (boshqa, dan boshqa) istisno vositasidan keyin kelgan so‘zning kelishigi gapning turiga bog‘liq. Agar jumla ijobiy ma’noda bo‘lsa, “إلا” dan keyingi istisno ot (المستثنى) doimo tushum kelishigida (nasb holatida) bo‘ladi. Bu holatda “إلا”ni “...dan boshqa” deb tarjima qilish mumkin.

Arab tilida istisnoni ifodalash uchun “إلا” yuklamasidan tashqari, “حاشا”, “خلا”, “عدا”, “سوى”, “غير” kabi boshqa so‘zlar ham qo‘llaniladi.

fe’li va uning ahavotlari (o‘xshashlari) ta’siridagi ot-kesim. Bu fe’llarni bo‘lmoq va bo‘lib qolmoq fe’llari ham deb aytiladi). “كان” ko‘makchi fe’li kabi, bosh kelishikda turgan ot-kesimning tushum kelishigida bo‘lishini talab qiladi.

Ismni boshqarib kelgan yordamchi fe’llar sifatida B.M.Grande quyidagi fe’llarni keltiradi:

“bo‘lmoq”, – أصبح, بات, ظل, أضحى, أمسى, “emas”, – ليس, “bo‘lib qolmoq”, – صار, “bo‘lmoq”, – كان



“bo‘lib qolmoq”, ما أنفك , ما فتى , ما زال , ما برح – “davom etmoq, to‘xtatmaslik, tark etmaslik (biror ishni)”, ما دام – “hamon u .. davom ettirmoqda” va boshqalar. (Grande,1998, pp.341-342).

“kan” ko‘makchi fe‘l “ليس” fe‘li kabi bosh kelishikda bo‘lgan ot-kesimning tushum kelishigida bo‘lishini taqozo qiladi. Masalan:

زيد طالب – Zayd-tolib (hozir);

زيد كان طالباً – Zayd tolib edi (o‘tgan zamonda);

زيد يكون طالباً – Zayd tolib bo‘ladi (kelasi zamonda) (Abdujabbarov, 2020, pp.83).

Bu fe‘llar va ulardan yasalgan – يظل, يكون, يصي, يظل hozirgi-kelasi zamon fe‘l shakllari ham ismlarni bosh kelishikda, ot-kesimlarni tushum kelishikda boshqaradi. Masalan;

زيد قائما – Zayd tik turgan edi. زيد so‘zi kan ning ismi bo‘lgani uchun bosh kelishikda, so‘zi uning kesimi bo‘lgani uchun tushum kelishikda turibdi.

U أصبح مريضاً – U kasal bo‘lib qoldi.

U هالي ham zaif (U zaiflikda davom etmoqda). Boshqa yuqoridagi fe‘llar ham ot-kesimni tushum kelishigida boshqaradi. (Nasif, Khifni, 2006, pp.356)

o‘zidan keyingi eganing tushum kelishigida kelishini taqozo qiladi. Ularga – “...ki”, “كأن”, “أن” – “xuddi, go‘yo, go‘yoki, ...dek, kabi, “ولكن”, “lekin, biroq”, “لعل”, “ehtimol, shoyad”, “لئيت”, “koshki edi” kabilar kiradi. Masalan;

إن محموداً صديقى العزيز. – Mahmud (chindan ham) aziz do‘stim.
علم أبى أن خالداً سافر إلى فرغانة. – Otam Xolid Farg‘onaga ketganini bildilar.
خضر الجميع ولكن أحمد ما خضر. – Hamma keldi, ammo Ahmad kelmadi.
لعل عبد الغفار يرجع غداً. – Abdulg‘affor, ehtimol, ertaga qaytar.
ليت أختك تترك ذلك. – Qani edi, opang (singling) buni tushunsa...
كان زيداً أسدً. – Zayd sherga o‘xshaydi; Zayd sher kabidir.

(Abdujabbarov, 2020, pp.138).

“al-Mansub bila allati lanafyi al-jins” – “inkor qiluvchi لا qoshidagi tushum kelishigidagi ot”

Arab tili grammatikasida “لا” inkor yuklamasi, agar bir jinsning barcha a‘zolaridan bir hukmni inkor qilish uchun ishlatilsa, “la nafiya li al-jins”, deb ataladi. Bu ham xuddi “إن وأخواتها” kabi egani tushum kelishigida keltiradi va u “لا” ning ismi, deb ataladi, kesimni esa bosh kelishikka qo‘yiladi va u “لا” ning kesimi deb nomlanadi. Buning uchun “لا” dan keyin keladigan ism noaniq holatda bo‘lishi kerak. Agar ism aniq holatda bo‘lsa, “لا” ning ta‘siri o‘z kuchini yo‘qotadi. Masalan;

“لا رجل في الدار” - Uyda biror erkak yo‘q. Bunda “رجل” so‘zi “لا” ning ismi bo‘lib, fatha asosida nasb holatida.

Bu borada B.Z.Xalidov: “لا” yuklamasi mutlaq, qat‘iy inkor ma‘nosini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatda u o‘zidan keyin kelgan eganing tushum kelishigida va tanvinsiz noaniq holatda kelishini talab qiladi.

لا ريب فيه - Bunda hech qanday shubha yo‘q.

Ba‘zan bunday gaplardagi xabar (kesim) qismi tushirib qoldiriladi: لا بأس (Xechqisi yo‘q!). (B.Xalidov, 1981 pp.161)

Arab tilida hayrat va taajjubni ifodalash uchun maxsus fe‘l shakllari mavjud bo‘lib, ular “أفعال” – “taajjub fe‘llari” deb ataladi. “ما أفعل” fe‘lidan keyin kelayotgan ism tushum kelishigida bo‘ladi. Masalan;

ما أعظم الجبل – !توگ ulug‘ Qanday
ما أجمل بالقمر أن يطلع في الليل. - !go‘zal Oynning kechasi chiqishi qanday



Atoqli ot bilan ifodalangan undalmaning moslashgan aniqlovchisi bosh kelishikda ham, tushum kelishigida ham bo'lishi mumkin.

يا محمدُ الظريفُ = يا محمدُ الظريفُ
يا خالدُ المهندسُ = يا خالدُ المهندسُ

Aniqlovchili undalma bu yuklamadan keyin tushum kelishigida bo'ladi. Masalan;

أجلس هنا، يا عبد الله Shu yerda o'tir, Abdulla! (Abdujabbarov, 2020, pp.100).

Arab tili grammatikasidagi "asliga o'xshash tushum kelishigidagi ismlar" mavzusi tilning asosiy xususiyatlaridan birini tashkil etadi. Bu turdagi ismlarning har biri gapda muayyan vazifani bajaradi va alohida qoidalar asosida tushum kelishigida keladi. Ular orasida hol (الْحَال), cheklov (الْتَمِيْزُ), istisno (الْإِسْتِثْنَاءُ) va "لا" ning ismi (اِسْمُ لَا) kabi kategoriyalar alohida ahamiyatga ega.

XULOSA. Arab tili grammatikasidagi maf'ullar – bu fe'ning ma'nosini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi va aniqlashtiruvchi, doimo tushum kelishigida keluvchi ismlardir. Ular gapning mazmunini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Tushum kelishigining asosiy mohiyati – otning fe'lga bo'ysunishini ifodalashdadir. Bu bog'liqlik oddiy to'g'ri to'ldiruvchidan tortib, fe'l ifodalagan harakatni aniqlaydigan, chegaralaydigan va ravshanlashtiradigan murakkab holatlarga bo'lishi mumkin. Ushbu to'ldiruvchilar tushum kelishigida turib, fe'lni tavsiflaydi.

Maf'ul mutlaq fe'ning o'zidan yasalgan harakat nomi (masdar) bo'lib, fe'l bajaruvchisi amalga oshirgan harakatni kuchaytirish yoki tasdiqlash uchun ishlatiladi. U doimo gap oxirida, noaniq holatda va tushum kelishigida keladi.

Maf'ul bihi – bu fe'ning ta'siri to'g'ridan-to'g'ri tushadigan obyekt yoki shaxsni bildiruvchi so'zdir. O'zbek tilida ham u vositasiz to'ldiruvchi sifatida o'z ma'nosini saqlab qoladi.

Maf'ul fihi – o'zbek va rus tillaridagi o'rin va payt hollariga mos keluvchi ism bo'lib, ish-harakatning qachon va qayerda sodir bo'lganini ko'rsatadi. Uning nasb holatida kelishi ko'pincha "في" ko'makchisining tushib qolishi bilan izohlanadi.

Maf'ul ma'ahu – arab tilida ish-harakatning kim yoki nima bilan birgalikda bajarilganini bildirish uchun ishlatiladigan grammatik kategoriyadir. U "و" (vav) bog'lovchisidan keyin tushum kelishigida keladi.

Maf'ul lahu – fe'ning bajarilish sababini yoki maqsadini ifodalovchi so'zdir. Arab tilida ham bu hollar ish-harakatning nima uchun sodir bo'lganini anglatadi. Ba'zida sabab va maqsad hollari jumla bilan ham ifodalanishi mumkin.

Yuqorida ma'lumot berilgan maf'ullar arab tilida gaplarni aniq va boy mazmun bilan ifodalash uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular harakatning turli jihatlarini – uning kuchaytirilishini, obyektini, vaqti va joyini, sababini va hamrohlarini – aniq ko'rsatib beradi.

Hind-yevropa tillarida bunday tavsiflovchi funksiyalar ko'pincha ravishlar yoki holatni bildiruvchi so'zlar orqali amalga oshgani sababli, arab tilidagi tushum kelishigini keng ma'noda "fe'l kelishigi" yoki "ravish kelishigi" deb nomlash yanada mantiqiy bo'ladi. Bu taklif "ravish kelishigi" tushunchasi bilan birga obyekt kelishigini ham qamrab oladi, bu esa uning ko'p qirrali vazifalarini to'laroq aks ettiradi.

Hol (الْحَال), cheklov (الْتَمِيْزُ), istisno (الْإِسْتِثْنَاءُ) va "لا" ning ismi (اِسْمُ لَا) kabi grammatik kategoriyalar arab tili gaplarining mazmunini boyitish, fikrni aniq va ravon ifodalash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularni chuqur o'zlashtirish arab tili grammatikasini to'liq tushunish va undan samarali foydalanish uchun asos bo'ladi.





ARAB TILSHUNOSLIGIDA YORDAMCHI SO'Z TURKUMINI TASNIFLASH KONSEPSIYASI

ABDULAZIZ RUSTAMOV

Katta o'qituvchi, TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilshunosligidagi *ḥarf* (yordamchi soʻzlar) kategoriyasini Basra va Kufa grammatik maktablari nuqtayi nazaridan oʻrganishga bagʻishlangan. Maqolada *ḥarf*larning sintaktik, morfologik va semantik xususiyatlarini oʻz ichiga olgan grammatik funksiyasi tasniflanadi. Shuningdek, *ḥarf*larni mustaqil leksik-grammatik toifa sifatida boshqa soʻz turkumlaridan farqlash masalasiga alohida eʼtibor qaratilgan. *Ḥarf*larning ot va feʼllarga taʼsiri, jumladagi vazifasi va maʼno yuklamasiga qarab asosiy guruhlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot klassik nahvshunoslar (Sibavayh, Ibn Hisham, ar-Rummaniy va boshqalar) hamda zamonaviy tilshunoslar (Tammam Hassan, Ibrohim Anis va boshqalar)ning ishlariga tayangan holda, *ḥarf*ning arab grammatikasida tutgan oʻrni va vazifalari toʻgʻrisidagi qarashlar evolyutsiyasini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: *ḥarf*, arab grammatikasi, Basra maktabi, Kufa maktabi, yordamchi soʻzlar, *ʾāmil*, sintaksis, morfologiya, tasnif, semantika.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию категории *ḥarf* (служебных слов) в арабском языкознании, рассматриваемой с позиций Басрской и Куфийской грамматических школ. Приводится классификация грамматической функции *ḥarf*, включая их синтаксическую, морфологическую и семантическую природу. Внимание уделяется разграничению между *ḥarf* как самостоятельной лексико-грамматической категорией и другими частями речи. В статье систематизированы основные группы *ḥarf* по их влиянию на имена и глаголы, по функции в предложении и по семантической нагрузке. Исследование основывается на трудах как классических грамматистов (Сибавайх, Ибн Хишам, ар-Руммани и др.), так и современных лингвистов (Таммам Хассан, Ибрахим Анис и др.), что позволяет проследить эволюцию взглядов на роль и функции *ḥarf* в арабской грамматике.

Ключевые слова: *ḥarf*, арабская грамматика, Басрская школа, Куфийская школа, служебные слова, *ʾāmil*, синтаксис, морфология, классификация, семантика.

Abstract: This article is devoted to the study of the category *ḥarf* (particles) in Arabic linguistics, examined from the perspectives of the Basran and Kufan grammatical schools. It presents a classification of the grammatical functions of *ḥarf*, including their syntactic, morphological, and semantic properties. Special attention is given to distinguishing *ḥarf* as an independent lexico-grammatical category from other parts of speech. The article systematizes the main groups of *ḥarf* based on their influence on nouns and verbs, their function within the sentence, and their semantic load. The research is based on the works of classical grammarians (Sībawayh, Ibn Hishām, ar-Rummānī, among others) as well as modern linguists (Tammām Ḥassān, Ibrāhīm Anīs, and others), which allows tracing the evolution of views on the role and functions of *ḥarf* in Arabic grammar.

Keywords: *ḥarf*, Arabic grammar, Basran school, Kufan school, particles, *ʾāmil*, syntax, morphology, classification, semantics.

Arab tili nahvi fanining ilk asoschilaridan biri boʻlgan Sibavayh tomonidan tamal toshi qoʻyilgan Basra tilshunoslik maktabi sintaktik qiyos, mantiqiy tahlil va grammatik tartibga katta eʼtibor qaratadi.

Basra tilshunoslarining ilmiy qarashlariga koʻra, *ḥarf* – maʼnoni faqat boshqa soʻzlar bilan birga anglatuvchi, mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan soʻz turkumidir. Ushbu soʻzlar boshqa soʻzlar orqali maʼnoga ega boʻladigan va jumla tuzilishida bogʻlovchi vosita sifatida taʼriflanadi. Ularning asosiy vazifasi sintaktik bogʻlanishni taʼminlashdir.

Mazkur maktabdagi eng muhim nazariyalardan biri bu العمل *'amal* – boshqarish (ta'sir qilish) nazariyasiga muvofiq, *harflar* jumlada flektiv funksiyani, ya'ni ta'sir qiluvchi faktor vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, إِنَّ زَيْدًا قَاتِمٌ *'inna Zaydan qā'imun* (Darhaqiqat, Zayd turibti) gapida إِنَّ *'inna harfi* (darhaqiqat) Zayd ism(so'z)ni tushum kelishigi (nasb holati)ga o'zgartiradi. Yoki لَمْ يَذْهَبْ زَيْدٌ *lam yadhhab Zaydun* (Zayd bormadi) jumlasida لَمْ *harfi* fe'lni jazm (oxiri sukunlangan) holatiga tushiradi. Demak, *harfning* ta'siri gapdagi muayyan so'zlarning fleksiya (e'rob) holatini o'zgartirishi bilan belgilanadi.

Basraliklar *harflarning* farqlanishida ko'proq mantiqiy va grammatik (nahviy) asoslarga tayanadi¹. Olimlar ularning asosiy guruhlarini ko'rsatadilar:

1. حُرُوفُ الْجَرِّ *hurūful jarr* – فِي *fī*, إِلَى *ilā*, مِنْ *min* va shu kabi *harflar* ism (ot)ni *jarr* (qaratqich kelishik) holatiga tushiradi;
2. حُرُوفُ النَّصْبِ *hurūful naṣb* – لَنْ *lan*, اَنْ *'an*, اِنَّ *'idhan* va shular kabi fe'lni nasb (istak mayli)da kelishini talab qiladi;
3. حُرُوفُ الْجَزْمِ *hurūful jazm* – لَمْ *lam*, لَمَّا *lammā* fe'lni jazm (ya'ni damma harakati o'rniga sukun qo'yish) holatiga o'zgartiradi;
4. حُرُوفُ التَّوَكِيدِ *hurūful ta'kīd* – قَدْ *qad*, اِنَّ *'inna*, لَ *lām* ta'kidlovchi, ma'noni kuchaytiruvchi *harflar*;
5. حُرُوفُ الشَّرْطِ *hurūful shart* – اِذَا *idhā* kabilar shart ma'nosini beradi;
6. حُرُوفُ النِّفْيِ *hurūful nafi* – مَا *mā*, لَا *lā* inkor vazifasidagi *harflar* va boshqalar.

Ma'lum bo'lyaptiki, ushbu guruhlarga bo'linish *harflarning* gapdagi amaliy vazifasidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham Basra maktabining asosiy prinsipi lug'atga emas, balki sintaktik qiyos va mantiqiy tahlilga tayanadi. Agar ma'lum bir *harf* muayyan fe'l yoki ism (ot)ga ta'sir qilsa, basraliklar bu ta'sir boshqa o'xshash holatlarda ham amal qiladi, deb umumlashtiradilar.

Kufa tilshunoslik maktabi Basra maktabi bilan birga tarixiy va nazariy jihatdan arab tilshunosligining rivojida muhim o'rin egallagan. Bu maktabga Abu Muhammad al-Kisaiy, Ruasi, Ibn Qutayba kabi yetuk tilshunoslar mansub bo'lib, ular nahvda ko'proq amaliy qiyos, she'riy dalillar va nutqiy tajribaga tayanganlar². *Harf* so'z turkumiga oid Kufa maktabining qarashlari Basra maktabiga nisbatan ma'lum farqlarga ega. Xususan, kufaliklar *harf* tushunchasini faqatgina sintaktik omillarga bog'lamaydi, balki uni nutqiy ishlatilish, uslubiy maqsad va ma'no shakllanishidagi rolini ham inobatga oladi. Ularning ta'kidlashicha, *harf* mustaqil ma'noga ega bo'lmasligi mumkin, ammo nutqiy kontekstda muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, kufaliklar ba'zan muayyan so'zlarni (masalan, اَيْنَ *ayna*, اَ *hamza* kabi) ham *harf* deb ta'riflaganlar, bu esa ularning ta'rifi basraliklarga nisbatan kengroq ekanini ko'rsatadi.

Kufa maktabining *harflar* borasidagi guruhlashtirish amaliyotga yaqinlashtirilgan bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) حُرُوفُ الْجَرِّ *hurūful jarr* – عَلَى *'alā*, عَنْ *'an*, مِنْ *min* – ism (ot)ni *jarr* (qaratqich kelishik) holatiga tushiradi;
- 2) حُرُوفُ النَّصْبِ *hurūful naṣb* – لَنْ *lan*, اَنْ *'an*, اِنَّ *'idhan* – fe'lni nasb (istak mayli)da kelishini talab qiladi;
- 3) حُرُوفُ الْجَزْمِ *hurūful jazm* – لَمْ *lam*, لَمَّا *lammā* fe'lni jazm (ya'ni damma harakati o'rniga sukun qo'yish) holatiga o'zgartiradi;

¹ Hurūf al-jarr 'inda nuḥāt al-'arab, min Sibavayh ilā Ibn Mālik. Ta'rif Aḥmad 'Ibrāhīm Hindī Dāwūd. – al-Qāhira: maktabat al-ādāb, 2018. – S. 39-40.

² Hurūf al-jarr 'inda nuḥāt al-'arab, min Sibavayh 'ilā 'Ibn Mālik. Ta'rif Aḥmad 'Ibrāhīm Hindiy Dāwūd. – al-Qāhira: maktabat al-'ādāb, 2018. – S. 40-41.



- 4) حروف الشرط *hurūful shart* إنْ 'in , إذا 'idhā – shart ma'nosini beradi;
5) حروف الاستثناء *hurūful 'istithnā* غَيْرَ 'ghayr, إِلَّا 'illā – istisnolikni bildiruvchi *harflar*.

Kufaliklar basraliklar kabi العامل *'āmil* – omil (faktor) nazariyasini ilg'or surishgan, biroq, unga nisbatan “moslashuvchanlik” (holatdan kelib chiqadigan) yondashuvni ma'qul ko'rishgan. Ular omilni faqat grammatik ta'sir deb emas, balki ma'noga asoslangan ta'sir deb ham tushunganlar. Ba'zi kufaliklar harflarning fe'lga yoki ism (ot)ga ta'sirini nutqiy matn va kontekst asosida belgilash zarur deb hisoblashgan. Kufa maktabi vakillari she'r va qiroatni dalil sifatida qo'llab, *harf* larga oid hukmlarni grammatik qiyosdan tashqari she'riy misollar, shevalar va qiroatlar (Qur'on tilovatidagi farqlar) asosida ham chiqarishgan. Bu esa ularning tahlilini amaliyotga yaqinlashtiradi. Masalan, Qur'on qiroatlaridagi *harflar*dan إنْ 'in va أَنْ 'anna turli shakllari ularga grammatik hukm berishda asos bo'lgan.

Demak, arab tili grammatik tizimining murakkab va ko'p qirrali tuzilmalari orasida *harf* tushunchasi muhim lingvistik va semantik yukni o'z ichiga olgan kategoriya sifatida ajralib turadi. Xususan, ma'no ifodalovchi harflar – *harfal-ma'ānī* so'zlar, iboralar va gap a'zolari o'rtasida mantiqiy va sintaktik bog'lanishni ta'minlovchi, shu bilan birga, muayyan ma'nolarni daqiq anglatuvchi vositalar sifatida tilning turli ma'nolarini ifodalash qobiliyatini yanada kengaytiradi.

Yuqorida qayd qilinganidek, arab tilida ma'no ifodalovchi *harflar* (yuklamalar) mustaqil ma'noga ega bo'lmagan, lekin o'z mantiqiy vazifasi orqali gap tuzilishini shakllantirish va semantik aloqalarni barpo etishda ishtirok etuvchi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Ularning vazifasi ko'p jihatdan funksional bo'lib, muayyan grammatik holatni yuzaga keltiradi, masalan, sabab-natija aloqalari, vaqt va makon munosabatlari, fe'llarning istak (*naṣb*) va shart (*jazm*) mayli, tasdiq, inkor, ehtimol, tahmin va hokazo.

Arab tilidagi *harflar*ni tasniflashda bir necha ilmiy mezonlarga tayaniladi¹. Asosiy tasniflar quyidagi jihatlar asosida tuziladi:

1. **morfologik tuzilish (strukturasi);**
2. semantik (ma'noviy) yuklanmasi;
3. **grammatik ta'siri** (boshqaruv va fleksiya);
4. **vazifaviy (funksional): fe'l yoki ism (ot) bilan bog'liqligi.**

1. Morfologik tasnif – *harflar*ning tarkibiy tuzilishi (strukturasi), ya'ni ularni tashkil qiluvchi undoshlar soni bo'yicha 5 ta guruhga ajratiladi. Ushbu morfologik tasnifni Basra grammatik maktabi manbalarida, jumladan klassik davr nahvshunoslari – Abu al-Hasan ar-Rummaniy, Ibn Hisham al-Ansariy va zamonaviy tilshunos olimlar Hazim Ali Kamaladdin, Ahmad Davud, Antuan ad-Dahdahning ilmiy asarlarida zikr etiladi². Demak, *harflar* nechta alifbo harflaridan tashkil topganiga qarab, quyidagicha taqsimlanadi:

¹ Sibawayh. al-Kitāb. Al-juz' 1-5. – al-Qāhira, 1988. – 2517 s.; Ibn Jinnī, Abū al-Faṭḥ. Sirru ṣinā'at [al-i'rāb]. – Dimashq: Dār al-qalam, 1993. – 969 s.; Ma'ānī al-ḥurūf. Ta'līf al-imām Abī al-Ḥasan 'Alī bin 'Īsā ar-Rummānī. Bayrūt: al-Maktabah al-'aṣriyyah, 2014. – 244 s.; Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osvechenii. 2-ye izdaniye. – M.: IVL RAN, 2001. – S. 393-394; Frolov D.V. Predlogi v arabskoy grammaticheskoy traditsii // Arabskaya filologiya. Grammatika, stixoslojeniyе, koranovedeniye. – M.: Yazyki slavyanskix kultur, 2006. – S. 34-53.

² Ma'ānī al-ḥurūf. Ta'līf al-imām Abī al-Ḥasan 'Alī bin 'Īsā ar-Rummānī. Bayrūt: al-Maktabah al-'aṣriyyah, 2014. – 244 s.; al-Anṣārī, Ibn Hishām. Muḥnī al-labīb. – Bayrūt: al-Maktabah al-'aṣriyyah, 1991. – 872 s.; Kamāl ad-Dīn, Ḥāzim 'Alī. Dirāsah fī qawā'id al-naḥw al-'arabī fī ḍaw' 'ilm al-lughah al-ḥadīth. – al-Qāhira: Maktabat al-ādāb, 1996. – S. 216-253; Ḥurūf al-jarr 'inda nuḥāt al-'arab, min Sibawayh ilā Ibn Mālik. Ta'līf Aḥmad Ibrāhīm Hindī Dāwūd. – al-Qāhira: maktabat al-ādāb, 2018. – 449 s.; Ad-Dahdah, Anṭuwān. Mu'jam qawā'id al-lughah al-'arabiyyah. – Bayrūt: Maktabat Lubnān, 1981. – S. 21-22.



الحروف الأحادية *al-hurūf al-aḥādiyyah* – bitta *ḥarfli* yuklamalar, ular 13 ta¹ va barchasi o'zidan keyingi so'z bilan qo'shib yoziladi:

ء *hamza*, ا *alif*, ب *ba*, ت *ta*, س *sa*, ف *fa*, ك *kaf*, ل *lam*, م *mim*, ن *nun*, ه *ha*, و *wa*, ي *ya*;

a) **الحروف الثنائية** *al-hurūf al-thunā'iyah* – ikkitta *ḥarfli* yuklamalar, ularning soni – 26 ta, so'zlar bilan alohida yoziladi (bu yerda faqat ال *al* aniqlik artikli tegishli so'z bilan qo'shib yoziladi):

أ *alif mād*, إذ *idh*, ال *al* (*ta'rif*), أم *am*, أن *an*, إن *in*, أو *aw*, أي *ay*, إي *iy*, بل *bal*, عن *an*, في *fi*, قد *qad*, كي *kay*, لم *lam*, لن *lan*, لو *law*, لا *lā*, مذ *mudh*, من *man*, ما *mā*, ن *nna*, هل *hal*, ها *hā*, وا *wā*, يا *yā*;

b) **الحروف الثلاثية** *al-hurūf al-thulāthiyyah* – uchta *ḥarfli* yuklamalar, ular ham 26 ta, tegishli so'z bilan alohida yoziladi:

أي *āya*, أجل *ajal*, إذن *idhan*, إذا *idhā*, ألا *alā*, إلى *ilā*, أما *amā*, أن *anna*, إن *inna*, أيا *ayā*, بلى *balā*, ثمة *thumma*, جلال *jalal*, خير *jayri*, خلا *khalā*, رب *rubba*, سوف *sawfa*, عدا *adā*, على *allā*, لكن *lakin*, لا *lā*, ليت *layta*, منذ *mundhu*, نعم *na'am*, هيا *hayā*;

c) **الحروف الرباعية** *al-hurūf al-rubā'iyah* – to'rtta *ḥarfli* yuklamalar, ularning soni 15 ta:

إنما *idhmā*, ألا *allā*, إلا *illā*, أما *ammā*, إما *immā*, حتى *hattā*, حاشا *hāshā*, كأن *ka'anna*, كلا *kallā*, لعل *la'alla*, لما *lammā*, لولا *lawlā*, لوما *lawmā*, هلا *hallā*;

d) **الحروف الخماسية** *al-hurūf al-khumāsiyyah* – beshta *ḥarfli* yuklamalar, ular juda oz:

لكنما *lākinna*, إنما *innamā*, لئتما *laytamā*.

Ma'lum bo'ldiki, bu tasnif *ḥarf*larni shakli va tarkibi jihatidan tartibga solib, asosan, uslubiy qoidalar va tahlil modellarini yaratish, matnlarda to'g'ri tahlil qilish, qolaversa, ularni tez va oson eslab qolish uchun xizmat qiladi.

2. Semantik (ma'noviy) yuklanmaga ko'ra *ḥarf*lar 40 ta guruhga ajratiladi. Ushbu tizimlashtirishda klassik olimlar Sibavayh, Ibn Jinniy, Abu al-Hasan ar-Rummaniy, Ibn Hisham al-Ansariy, shuningdek, zamonaviy olimlar T. Hassan, I. Anis, A.M. Davud, A. ad-Dahdah kabilarning grammatik asarlariga tayaniladi². Bu tasnifda muayyan ma'no, ya'ni aniq bir semantik maydon qaysi *hurūf al-ma'ānī*lar yordamida berilishi mumkinligi ko'rsatilgan:

- 1) ابتداء *ibtidā'* – boshlanish ma'nosi: بل *bal*, حتى *hattā*, ف *fa*, ل *la*, و *wa*;
- 2) استثناء *istithnā'* – istisno ma'nosi: إلا *illā*, حتى *hattā*, حاشا *hāshā*, خلا *khalā*, سوى *siwā*, عدا *adā*;
- 3) استدرāk *istidrāk* – o'zgartirish, cheklashnii kiritish ma'nolari: بل *bal*, على *alā*, لكن *lakin*, لكنما *lākinna*;
- 4) افتتاح *istiftāḥ* – kirish, muqaddima qilish ma'nolari: ألا *allā*, أما *ammā*;
- 5) استفهام *istifhām* – savol ma'nosi: أ *hamza*, ما *mā*, هل *hal*;
- 6) استقبال *istiqbāl* – (fe'llarda) kelasi zamon ma'nosini ifodalash: س *sa*, سوف *sawfa*;
- 7) إضراب *iḍrāb* – tuzatish, to'g'rilash ma'nolari: أو *aw*, بل *bal*, لكن *lakin*;
- 8) أمر *amr* – buyruq ma'nosi: ل *li*;
- 9) تحضيض *taḥḍīd* – chorlash, undash ma'nolari: ألا *alā*, ألا *allā*, لولا *lawlā*, لوما *lawmā*, هلا *hallā*;
- 10) تحقيق *taḥqīq* – bajarish, amalga oshirish (perfektlilik) ma'nosi: قد *qad*;
- 11) تخيير *takhyīr* – tanlash ma'nosi: إما *immā*, أو *aw*;

¹ Баззи олимлар уларнинг сони 8 та, айримлари эса 10 та, деб келтиради. Батафсил қаранг: Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-е издание. – М.: ИВЛ РАН, 2001. – С. 394.

² Sibawayh. al-Kitāb. Al-juz' 1-5. – al-Qāhira, 1988. – 2517 s.; Ibn Jinnī, Abū al-Faṭḥ. Sirru ṣinā'at [al-i'rāb]. – Dimashq: Dār al-qalam, 1993. – 969 s.; Ma'ānī al-ḥurūf. Ta'līf al-imām Abī al-Ḥasan 'Alī bin 'Īsā ar-Rummānī. Bayrūt: al-Maktabah al-'asriyyah, 2014. – 244 s.; al-Anṣārī, Ibn Hishām. Muḡnī al-labīb. – Bayrūt: al-Maktabah al-'asriyyah, 1991. – 872 s.; Ḥassān, Tamām. Al-lughah al-'arabiyyah: ma'nāhā wa mabnāhā. – al-Qāhira: Dār al-thaqāfah, 1994. – 376 s.; Anīs, Ibrāhīm. Min Asrār lughah. – al-Qāhira: Maktabat al-injlū al-miṣriyyah, 1978. – S. 270-274; Ḥurūf al-jarr 'inda nuḥāt al-'arab, min Sibawayh ilā Ibn Mālīk. Ta'līf Aḥmad Ibrāhīm Hindī Dāvūd. – al-Qāhira: maktabat al-'ādāb, 2018. – 449 s.; Ad-Dahdah, Anṭuwān. Mu'jam qawā'id al-lughah al-'arabiyyah. – Bayrūt: Maktabat Lubnān, 1981. – S. 23.



- 12) تَرَاجَّ *tarajj* – umid va istakni bildirish ma'nosi: لَعَلَّ *la'alla*, لَيْتَ *layta*;
- 13) تَشْبِيْهٌ *tashbīh* qiyoslash, o'xshatish ma'nolari: كَأَنَّ *ka'anna*, كَأَنَّ *ka*;
- 14) تَصْرِيفٌ *taṣrif* – turlash, tuslashda: تَ *ta*, مَ *ma*, نَ *nun*, وَا *wa*, اَلَيْفَ *alif*, يَ *ya*;
- 15) تَعْجَبٌ *ta'ajjub* – hayrat, taajjublanish ma'nosi: لَ *la*, مَا *mā*;
- 16) تَغْرِيفٌ *ta'rīf* – aniqlik holati (predmet, shaxs, hodisalarda): أَلْ *al (ta'rīf)*;
- 17) تَغْلِيلٌ *ta'līl* – sabab ma'nosi: إِذْ *idh*, حَتَّى *hattā*, عَلَى *alā*, عَنْ *an*, فِي *fī*, كَيْ *kay*, لَ *la (li)*, مِنْ *min*;
- 18) تَفْسِيرٌ *tafsīr* – tushuntirish, sharhlash ma'nolari: أُنْ *an*, أَيُّ *ay*;
- 19) تَفْصِيلٌ *tafṣīl* – batafsil, tafsilot ma'nosi: أَمْ *am*, أَمَّا *ammā*, إِمَّا *immā*, أَوْ *aw*, ثُمَّ *thumma*, ثُمَّتْ *thummata*, فَ *fa*, لَ *la*, لَكِنْ *lakin*, مِنْ *min*, وَا *wa*;
- 20) تَقْلِيلٌ *taqlīl* – kamaytirish, qisqartirish: رُبَّ *rubba*, رُبَّتْ *rubbat*, قَدْ *qad*, وَا *wa*;
- 21) تَكْثِيرٌ *takthīr* – ko'paytirish, orttirish ma'nolari: رُبَّ *rubba*, رُبَّتْ *rubbat*;
- 22) تَمَنُّ *tamannin* – istak, xohish, taklif, ko'rsatib o'tish ma'nolari: لَعَلَّ *la'alla*, لَوْ *law*, لَيْتَ *layta*, هَلْ *hal*;
- 23) تَنْبِيْهٌ *tanbīh* – tanbeh, ogohlantirish ma'nolari: أَلَا *alā*, إِلَّا *illā*, أَمَّا *amā*, هَا *ha*, هَآ *hā*;
- 24) تَنْدِيمٌ *tandīm* – afsuslanish ma'nosi: أَلَا *alā*, أَلَّا *allā*, لَوْلَا *lawlā*, لَوْمَا *lawmā*, هَلَّا *hallā*;
- 25) تَوَكُّيدٌ *tawkid* – ta'kid, kuchaytirish ma'nolari: أَمَّا *ammā*, أُنْ *an*, اَنَّا *anna*, بَ *bi*, كَ *ka*, نَ *nun*, نَّ *na*;
- 26) جَوَابٌ *jawāb* – javob ma'nosi: أَجَلَ *ajal*, إِذَنْ *idhan*, إِذَا *idhan*, إِيَّ *iy*, بَلَى *balā*, جَلَلٌ *jalal*, جَيْرٌ *jayri*, لَ *la*, لَا *lā*, نَعَمْ *na'am*;
- 27) رَدْعٌ *rad* – to'xtatish, rad etish ma'nolari: كَلَّا *kallā*;
- 28) زِيَادَةٌ *ziyādah* – qo'shish, orttirish (affiksatsiya) ma'nosida: أَلْ *al (ta'rīf)*, أُنْ *an*, اِنْ *in*, بَ *bi*, تَ *ta*, لَ *la*, مَا *mā*, وَا *wa*;
- 29) شَرْطٌ *sharṭ* – shart ma'nosi: إِذَا *idhamā*, أَمَّا *ammā*, اِنْ *in*, عَلَى *alā*, لَوْ *law*, لَوْلَا *lawlā*, لَوْمَا *lawmā*, مَا *mā*;
- 30) ظَرْفِيَّةٌ *zarfiyyah* – hol ma'nosi: إِذْ *idh*, إِذَا *idhamā*, إِذَا *idhā*, إِلَى *ilā*, بَ *bi*, حَتَّى *hattā*, عَلَى *alā*, عَنْ *an*, فِي *fī*, لَ *li*, لَمَّا *lammā*, مُذْ *mudh*, مِنْ *min*, مُنْذُ *mundhu*, مَا *mā*, وَا *wa*;
- 31) عَرْضٌ *arḍ* – taklif, ko'rsatib o'tish, taqdim qilish ma'nolari: أَلَا *alā*, أَمَّا *amā*, لَوْ *law*, لَوْلَا *lawlā*, لَوْمَا *lawmā*;
- 32) عَطْفٌ *atf* – biriktirish, bog'lash ma'nosi: أَمْ *am*, أَوْ *aw*, إِلَّا *illā*, بَلْ *bal*, ثُمَّ *thumma*, ثُمَّتْ *thummata*, حَتَّى *hattā*, فَ *fa*, لَكِنْ *lakin*, لَا *lā*, وَا *wa*;
- 33) غَايَةٌ *ghāyah* – yakun, oxir ma'nosi: إِلَى *ilā*, حَتَّى *hattā*, كَيْ *kay*;
- 34) قَسَمٌ *qasam* – qasam, ont ichish ma'nosi: بَ *bi*, تَ *ta*, لَ *la*, وَا *wa*;
- 35) مَصْدَرِيَّةٌ *maṣdariyyah* – masdar (harakat nomi) ma'nosi: هَ *hamza*, أُنْ *an*, اَنَّا *anna*, كَيْ *kay*, لَوْ *law*, مَا *mā*;
- 36) مُفَاجَأَةٌ *mufāja'ah* – biron bir hodisaning birdaniga bo'lishi ma'nosi: إِذْ *idh*, إِذَا *idhmā*;
- 37) نُدْبَةٌ *nudbah* – achinish ma'nosi: يَا *yā*, وَآ *wā*;
- 38) نِدَاءٌ *nidā* – murojaat ma'nolari: هَ *hamza*, اَلَيْفَ *alif*, آيَ *āy*, أَيَّ *ayā*, هَيَا *hayā*, وَآ *wā*, يَا *yā*;
- 39) نَفْيٌ *nafy* – inkorlik ma'nosi: أَلَا *alā*, أَلَّا *allā*, إِلَّا *illā*, أَمَّا *amā*, اِنْ *in*, لَ *la*, لَمْ *lam*, لَمَّا *lammā*, لَنْ *lan*, لَا *lā*, لَاتْ *lāta*, مَا *mā*;
- 40) نَهْيٌ *nahy* – taqiq, man etish ma'nolari: أَلَّا *allā*, لَا *lā*.

Mazkur tasnif *harflarning* keng qamrovli ma'nolarni ifodalashi, boshqa so'z bilan aytganda, ularning semantik polivalentlik xususiyatidan dalolat beradi.

3. Grammatik ta'siri (boshqaruv va fleksiya) bo'yicha *harflar* grammatik o'zgarishga ta'sir qiladigan va grammatik o'zgarishga olib kelmaydigan guruhga ajratiladi. Mazkur guruhlarga ajratishni qator tilshunoslar, xususan Sibavayh, al-Farra', Ibn Hisham al-Ansariy hamda M. G'alayiniy,



T. Hassan, I. Anis, A. Muxtar, A.A. Abd al-G'aniy kabi zamonaviy olimlarning ilmiy asarlarida uchratish mumkin.

Sibawayh tomonidan asos solingan ushbu tasnifda *harflar* omil (faktor) bo'la oladigan (عامل *'āmil*), ya'ni boshqa so'zlarga ta'sir ko'rsatuvchi va omil bo'lmaydigan (عامل غير *ghayr 'āmil*) – so'zlarga ta'sir ko'rsatmaydigan turlarga ajratiladi¹. O'z navbatida al-Farra' ham *harflar*ni omil xususiyatlariga ko'ra tasniflab, ularni grammatik o'zgarish beruvchi va omil bo'lmaydigan – faqat ma'no beruvchi so'zlarni ko'rsatgan². Ibn Hisham al-Ansariy tizimli yondashuv asosida, ism (ot)larga ta'sir qiluvchi (عامل في الأسماء *'āmil fī al-asmā'*), fe'llarga ta'sir qiluvchi (عامل في الأفعال *'āmil fī al-af'āl*) va ta'sir ko'rsatmaydigan (عامل غير *ghayr 'āmil*) *harflar* tasnifini ilgari surdi³.

XX-XXI asr arabshunos olimlaridan Tammam Hassan *harflar*nig omil bo'la olish darajasi va ta'sirini hisobga olib, ularni ochiq, oshkor ta'sir qiluvchi (عامل لفظاً *'āmil lafzan*); kontekst, tahlilda omili ko'rinadigan (عامل تقديراً *'āmil taqdīran*) hamda ta'sir ko'rsatmaydigan (عامل غير *ghayr 'āmil*) turlarga ajratadi⁴. Ibrahim Anis *harflar*ning semantik va sintaktik ta'siriga ko'proq e'tibor berib, ularni o'zgartiruvchi (حروف التغيير *hurūf al-taghyīr*); ma'noni kuchaytiruvchi, tasdiqlovchi (حروف التوكيد *hurūf al-tawkid*) va bog'lovchi (حروف الربط *hurūf al-rabṭ*) turlarini keltiradi⁵. Ahmad Muxtar esa, *harflar*ni so'zlarga nisbatan ta'sir kuchiga ko'ra kuchli ta'sirga (عامل قوي *'āmil qawī*) va kuchsiz ta'sirga ega (عامل ضعيف *'āmil ḍa'if*) hamda ta'sirsiz, ta'sir qilmaydigan (عامل غير *ghayr 'āmil*) guruhlarga bo'ladi⁶.

Demak, *harflar*ning grammatik ta'siri, ya'ni ularning fleksiya (*i'rāb*)ga moyilligi jihatidan kelib chiqib, quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) حروف الجر *hurūf al-jarr* (so'zma-so'z: qaratqich kelishik *harflari*): إلى *ilā*, ب *bi*, ت *ta*, حَتَّى *hattā*, حاشا *hāshā*, خلا *khalā*, رُبَّ *rubba*, عَدَا *adā*, عَلَى *alā*, عَنْ *an*, فِي *fī*, كَ *ka*, كَيْ *kay*, لَ *lī*, مُذْ *mudh*, مُنْذُ *mundhu*, مِنْ *min*, وَ *wa*;

Ushbu guruhdagi *harflar* ism (otlar)ga ta'sir qilib, ularni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Bu yuklamalar o'zining grammatik vazifasi va ma'nosi bo'yicha ko'pincha tub (asl) old ko'makchi (predlog)lar⁷ sifatida namoyon bo'ladi.

2) حروف النسخ *hurūf al-naskh* (so'zma-so'z: [kelishikni] “bekor” qiluvchi *harflar*): إِنَّ *inna*, اَنَّ *anna*, كَأَنَّ *ka'anna*, لَعَلَّ *la'alla*, لَكِنَّ *lākinna*, لَيْتَ *layta*; (asosiy 6 ta yuklamaga qo'shimcha 4 ta yuklama: إِنَّ *in*, لَا *lā*, لَأَن *lāna*, مَا *mā*);

Mazkur *harf* (yuklama)lar ism (ot)larga ta'sir qiluvchi bo'lib, otlarning bosh kelishikdagi shaklini tushum kelishigiga o'zgartiradi. Arab grammatikasida ular “egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar yoki egani tushum kelishigida kelishini talab qiluvchi yuklamalar” nomi bilan yuritiladi. Ta'kidlash kerakki, arab grammatik an'anasida bu *harflar* bir nechta boshqa nomlarga ham ega⁸:

¹ Sibawayh. al-Kitāb. Al-juz' al-awwal. – al-Qāhira, 1988. – 507 ş.

² Farrā'. Ma'ānī al-Qur'ān. – al-Qāhira: Dār al-ḥadīth, 2005.

³ al-Anṣārī, Ibn Hishām. Muḡhnī al-labīb. – Bayrūt: al-Maktabah al-ʿaşriyyah, 1991. – 872 ş.

⁴ Ḥassān, Tamām. Al-lugha al-ʿarabiyyah: ma'nāhā wa mabnāhā. – al-Qāhira: Dār al-thaqāfah, 1994. – Ş. 123-132;

⁵ Anīs, Ibrāhīm. Min Asrār lugha. – al-Qāhira: Maktabat al-injlū al-mişriyyah, 1978. – Ş. 270-274;

⁶ An-naḥw al-asāsī. Ta'lif Aḥmad Mukhtār 'Uma wa ghayrruh. – al-Kuwayt: Dār al-salāsīl li al-ṭibā'ah wa al-nashr, 1994. – Ş. 279.

⁷ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-е издание. – М.: ИВЛ РАН, 2001. – С. 400-408; Чернов П.В. Справочник по грамматике арабского литературного языка. – М.: Восточная литература, 1995. – С. 80-83.

⁸ Sibawayh. al-Kitāb. Al-juz' al-thānī. – al-Qāhira, 1988. – Ş. 141-148; Ma'ānī al-ḥurūf. Ta'lif al-imām Abī al-Ḥasan 'Alī bin 'Īsā ar-Rummānī. Bayrūt: al-Maktabah al-ʿaşriyyah, 2014. – Ş. 123; Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osvechenii. 2-ye izdaniye. – M.: IVL RAN, 2001. – S. 421.



a) حرف مشبّه بالأفعال *al-ḥarf al-mushabbah bi al-af'āl* – “fe’llarga o‘xshash ḥarflar”, ya’ni ular fe’llar kabi ism (ot)ni tushum kelishigida bo‘lishini talab qiladi;

b) الحرف العامل في الجملة *al-ḥarf al-‘āmil fī jumlah* – “gap (jumla)ga ta’sir qiluvchi ḥarflar”;

v) نواسخ الابتداء *nawāsikh al-ibtidā’* – “gap boshidagi egani bosh kelishigida kelishini inkor qiluvchi ḥarflar”, ya’ni gap boshida kelgan ega vazifasidagi so‘zning bosh kelishigidagi shaklini tushum kelishigiga o‘zgartiradi;

g) إنا وأخوانها *inna wa akhawātuhā* – “inna va uning opa-singillari”, ya’ni inna va unga o‘xshash yuklamalar.

3) حروف النداء *ḥurūf al-nidā’* (so ‘zma-so ‘z: chaqirish, murojaat ḥarflari): اء hamza, آ alif, آي āy, آي ayya, آيا ayā, هيا hayā, وا wā, يا yā;

Bu guruhdagi yuklamalar o‘zidan keyin kelgan so‘zlarga ta’sir ko‘rsatib, ularni bosh kelishikda va tanvin (qo‘shimcha)siz, ba’zilar esa tushum kelishigida ham kelishini talab qiladi.

4) حروف الاستثناء *ḥurūf al-istithnā’* (so ‘zma-so ‘z: istisno ḥarflari): لا illā;

Istisno ḥarflari gapning turidan va gapdagi mustasno so‘zdan kelib chiqib, o‘zidan keyin turgan so‘zni tushum kelishigida bo‘lishini taqozo etadi.

Yuqoridagi keltirilgan 4 ta guruhdagi yuklamalar faqat ism (ot)larga ta’sir ko‘rsatuvchi, ya’ni ularning fleksiyasi (i‘rāb)ini o‘zgartiruvchi ḥarflar hisoblanadi.

Quyidagi ḥarflar guruhlari faqat fe’llar bilan keladi va omil sifatida ularga ta’sir ko‘rsatadi:

5) حروف الجزم *ḥurūf al-jazm*¹ (so ‘zma-so ‘z: sukun qiluvchi, so ‘z oxiridagi harakatni olib tashlovchi ḥarflar): إنما idhamā, إن in, ل li, لم lam, لما lammā, لا lā;

Ushbu yuklamalar hozirgi zamon fe’llari (imperfekt)ga ta’sir ko‘rsatib, ularning oxirida turgan qo‘shimcha (harakat) – damma, ya va nūn, alif va nūn, waw va nūnlarni sukun qiladi yoki tushirib qoldiradi, ya’ni fe’lni jazm holatida bo‘lishini talab qiladi. Arab tili grammatikasiga oid o‘zbek tilidagi kitoblarda jazm holati fe’lning shart mayli², rus tilida esa усеченное наклонение³ (ba’zan усеченная форма глагола⁴) deb ataladi.

6) حروف النصب *ḥurūf al-naṣb* (so ‘zma-so ‘z: nasb ḥarflari): إنَّ idhan (yoki إِذَا idhan), أَنْ an, كَيْ kay, لَنْ lan;

Bu yuklamalar ham omil sifatida imperfekt shakldagi fe’llariga ta’sir qilib, ularni naṣb holatida, ya’ni oxirida fatha harakati bilan bo‘lishini taqozo etadi.

7) حروف النصب الفرعي *ḥurūf al-naṣb al-far’ī* (so ‘zma-so ‘z: ikkilamchi, qo‘shimcha nasb ḥarflari): أَوْ aw, ثُمَّ thumma, حَتَّى hattā, ف fa, ل li, و wa;

¹ Мазкур гуруҳдаги ḥarflar қўшма гаплар таркибида ишлатилганда, боғловчи вазифасини бажариши мумкин. Бу ҳолда улар бош гапдаги феълга ҳам, эргашган қўшма гапдаги феълга ҳам таъсир кўрсатиб, уларни шарт майли шаклида бўлишини талаб қилади. Шу сабабли уларни حروف الشرط *ḥurūf al-sharṭ* – шарт ḥarflari деб ҳам аташади. Батафсил қаранг: An-naḥw al-asāsī. Ta’līf Aḥmad Mukhtār ‘Uma wa ghayrruh. – al-Kuwayt: Dār al-salāsīl li al-ṭibā’ah wa al-nashr, 1994. – §. 306-308.

² Рустамов А.Э.. Шарт юкламалари (Хуруфу-ш-шарт)нинг синтактик хусусиятлари // Шарқ машъали (ТДШИ). – Тошкент: ТДШИ, 2020. – № 1. – Б. 108-116; ўша муаллиф. Араб тилида шарт эргаш гапли қўшма гапда шарт феъли ва жавоб феълнинг ўзаро боғланиш хусусиятлари // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. Volume 2, Issue 13, December 9, 2022. – P. 35-42. (ISSN: 2181-2888) (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7416928>); ўша муаллиф. Араб тилида шартни ифодаловчи конструкциялар хусусиятлари // Oriental Journal of Philology, Vol 05, Issue 03, 2025, (Apr., 24, 2025) DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-64>

³ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-е издание. – М.: ИВЛ РАН, 2001. – С. 163-164;

⁴ Чернов П.В. Справочник по грамматике арабского литературного языка. – М.: Восточная литература, 1995. – С. 336-338.



Bu guruhdagi *harflar* asosiy *nasb harflaridan* farqli ravishda har doim ham istak mayli bilan bog'liq ma'nolarda kelavermaydi, faqat ba'zi holatlarda, muayyan kontekst va ma'no tarkibida *nasb* holatini ifodalashi mumkin.

Ikkinchi guruhni fleksiya ta'sir ko'rsatmaydigan, ya'ni omil bo'lmaydigan (غیر عامل *ghayr 'āmil*) *harflar* tashkil qiladi. Ular quyidagilar:

8) حروف العطف *hurūf al-'atf* (so'zma-so'z: *biriktiruvchi, bog'lovchi harflar*): أم *am*, أو *aw*, إِمَّا *immā*, بَلْ *bal*, ثُمَّ *thumma*, حَتَّى *hattā*, فَ *fa*, لَكِنْ *lakin*, لَا *lā*, وَ *wa*;

Mazkur guruhdagi *harflar* bevosita o'zidan keyin kelgan so'zni o'zgartirmaydi, ya'ni fleksiya jihatidan ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'pincha bu *harflarga* o'zbek tilida *bog'lovchi*, rus tilida esa, союз¹ deb ta'rif beriladi.

9) حروف الاستفهام *hurūf al-istifhām* (so'zma-so'z: *so'roq harflari*): هـ *hamza al- istifhām*, مَا *mā*, هَلْ *hal*;

Ushbu *harflar* so'roq yuklamalar vazifasini bajarib, ham ism (ot)lar, ham fe'llar bilan ishlatilib, o'zidan keyingi so'zga fleksiya jihatidan ta'sir ko'rsatmaydi.

10) حروف النفي *hurūf al-nafī* (so'zma-so'z: *inkorlik harflari*): كَلَّا *kallā*, لَا *lā*, لَا تَ *lāta*, مَا *mā*;

Mazkur guruhdagi *harflar* ham yuklamalar sifatida talqin qilinadi, ular ham ism (ot)lar, ham fe'llarni fleksiya jihatidan o'zgartirmaydi, faqat inkorlik ma'nosini ifodalaydi.

11) حروف الاستدراك *hurūf al-istidrāk* (so'zma-so'z: *to'g'rilash, muqobil ma'no qo'shish harflari*): بَلْ *bal*, عَلَى *'alā*, لَكِنْ *lakin*;

Ushbu *harflar* ot kesimli va fe'l kesimli gaplarda ishlatiladi va ko'pincha zidlovchi bog'lovchi ma'nosida keladi. Ular ham otlardagi kelishik yoki fe'llardagi mayl grammatik kategoriyalarining o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

12) حروف الجواب *hurūf al-jawāb* (so'zma-so'z: *javob harflari*): أَجَلْ *ajal*, إِذَنْ *idhan*, إِي *iy*, بَلَى *balā*, جَلَّ *jalal*, جَيْرَ *jayri*, لَا *lā*, نَعَمْ *na'am*;

Bu guruhdagi *harflar* grammatik jihatdan ta'sir ko'rsatmaydi, darak va so'roq gaplarga tasdiq yoki inkor javob ma'nosini ifodalaydi.

13) حروف الشرط *hurūf al-shart* (so'zma-so'z: *shart harflari*): لَوْ *law*, لَوْلَا *lawlā*, لَوْ مَا *lawmā*, أَمَّا *ammā*;

Bu *harflar* fleksiya jihatidan ta'sir ko'rsatmaydi, o'zining nomlanishiga muvofiq asosan shart ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida ishlatilib, noreal shart ma'nosini ifodalaydi.

Shunday qilib, an'anaviy arab grammatik nazariyasida bir necha turdagi tasniflar mavjud bo'lib, asosiy e'tibor *harflarning* morfologik tuzilishi, ularning ma'no qo'shishi va grammatik ta'siri kabi jihatlariga qaratilgan. Zamonaviy arab tilshunosligida esa, *harflarning* vazifalari, ayniqsa, ularning so'z, gap va ma'nolar o'rtasidagi aloqasi, kontekst bilan bog'liq xususiyatlariga urg'u berilmoqda. Demak, arab tilidagi *harflar* grammatik polivalentlik xususiyatiga ega, ya'ni ham kelishik, ham mayl kabi grammatik kategoriyalarni boshqarishi, shuningdek, turli xil mantiqiy aloqalarni ifodalashi mumkin.



¹ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-е издание. – М.: ИВЛ РАН, 2001. – С. 426-428; Чернов П.В. Справочник по грамматике арабского литературного языка. – М.: Восточная литература, 1995. – С. 254-255 ва бошқ.



ARAB TILIDA SOF SO'ZLASHUV MA'NOSIGA EGA NUTQ FE'LLARINING FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI

AKBARALI AKBAROV

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi sof so'zlashuv ma'nosiga ega bo'lgan nutq fe'llari أفعال القول المباشرة ning funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu fe'llarning ma'no nozikliklari, qo'llanish chastotasi va uslubiy vazifalari ommaviy axborot vositalaridagi real nutq namunalaridan olingan misollar asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida arab gazeta matnlari, asosiy manba sifatida tanlandi. Maqolada har bir fe'llning kontekstga mos holda qanday vazifa bajarishi, qaysi uslubiy qatlamda ko'proq ishlatilishi, hamda sinonimlik munosabatida ularning farqlanishi aniq misollar orqali yoritilgan. Shuningdek, statistik tahlil asosida قال fe'llining rasmiy va xabar berish janrida yetakchi o'rin egallashi, تحدث fe'llining intervyu va tafsilot berish matnlarida faol qo'llanishi, تكلم fe'llining esa asosan og'zaki muloqot va badiiy nutqda uchrashi ko'rsatildi. Maqola yakunida ushbu fe'llarning zamonaviy media nutqidagi uslubiy funksiyalari bo'yicha umumlashtirilgan xulosalar va tahliliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: arab tili, nutq fe'llari, uslubiy xususiyatlar, media nutqi, gazeta tili, intervyu tili, og'zaki muloqot, statistik tahlil.

Abstract: This article analyzes the functional and stylistic features of Arabic speech verbs with a direct meaning of speaking أفعال القول المباشرة. The research examines the subtle semantic nuances, frequency of use, and stylistic roles of these verbs based on authentic examples from media discourse. Newspapers, television broadcasts, and interviews served as the primary sources for analysis. The study focuses on the contextual use of each verb, their stylistic associations, and the distinctions within their synonymic relations. Statistical analysis reveals that قال dominates in formal and news-reporting contexts, تحدث is more common in interviews and detailed reports, while تكلم is primarily found in spoken communication and literary discourse. The paper concludes with generalized findings and analytical recommendations on the effective use of these verbs in contemporary media language.

Keywords: Arabic language, speech verbs, stylistic features, media discourse, newspaper language, interview language, spoken communication, statistical analysis.

Аннотация: В данной статье рассматриваются функционально-стилистические особенности арабских глаголов речи с прямым значением говорения - أفعال القول المباشرة. В ходе исследования проведён анализ семантических оттенков, частотности и стилистической роли этих глаголов на основе примеров из реальной речевой практики средств массовой информации. Основным материалом послужили газетные тексты, телевизионные выступления и интервью. Особое внимание уделено контекстуальному употреблению каждого глагола, его стилистической закреплённости и различиям в рамках синонимических рядов. Статистический анализ показал, что глагол قال преобладает в официальном стиле и новостных жанрах, تحدث чаще встречается в интервью и подробных репортажах, а تكلم преимущественно в устной коммуникации и художественной речи. В заключении даны обобщённые выводы и рекомендации по использованию этих глаголов в современном медиадискурсе.

Ключевые слова: арабский язык, глаголы речи, стилистические особенности, медиаречь, газетный стиль, язык интервью, устная коммуникация, статистический анализ.

Kirish. Arab tili grammatik tizimida fe'llar muhim sintaktik birliklardan biri bo'lib, ular orqali gapning asosiy mazmuni ifodalanadi. Ayniqsa, أفعال القول (nutq fe'llari) arab tilshunosligida alohida mavqega ega bo'lib, ular orqali so'zlovchining xabari, fikri yoki axborot manbasi ifodalanadi. Ushbu fe'llar nafaqat grammatik, balki uslubiy va pragmatik jihatdan ham muhimlik kasb etadi. Nutq fe'llari

arab tilidagi yozma va og‘zaki matnlarda, xususan, jurnalistika, siyosiy nutqlar va adabiy asarlarda keng qo‘llaniladi.

Hozirgi arab adabiy tilida ko‘chirma gaplarni kontekstga kiritish, umuman, ko‘chirma gapli konstruksiyalarni hosil qilishda nutq fe‘llari juda keng qo‘llaniladi. Bu fe‘llar so‘zlovchining o‘z fikrini qanday uslubda bayon qilganligi, uning ichki kechinmalari, turli emotsiyalari, bayon qilinayotgan fikrga nisbatan modal munosabatlarini ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi arab gap tuzilishlarida nutq fe‘llarining qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, ular konstruksiya tarkibida faol ishtirok etadi. To‘plangan materiallar nutq fe‘llarini konstruksiyadagi funksiyalariga ko‘ra quyidagi toifalarga ajratish mumkinligini ko‘rsatadi:

1. Sof so‘zlashuv ma‘nosiga ega bo‘lgan nutq fe‘llari (المباشرة القول أفعال):

– تكلّم – “so‘zga chiqmoq, suhbatlashmoq, so‘zlashmoq”, – تحدث – “aytmoq, demoq, gapirmoq”, – قال – “gapirmoq (til haqida), gaplashmoq, suhbat qurmoq”, – روى – “hikoya qilmoq, aytib bermoq”, – ألقى – “aytib bermoq, xabar bermoq, yetkazmoq”, – ذكر – “eslamok, xotirlamoq, yodga olmoq”, – أضح – “ishontirmoq”, – أكد – “ta‘kidlamok”, – توضّح – “tushuntirmoq”.

2. Nutqning ifoda usulini belgilovchi fe‘llar (الكلام لأسلوب القول أفعال): صرخ – “qichqirmoq”, – صرّخ – “baqirmoq”, – همس – “pichirlamoq, shiviramoq”.

3. So‘zlovchining emotsiyalarini ifodalovchi fe‘llar (التأثيرية القول أفعال): لام – “ayblamoq, koyimoq”, – وبخ – “tanbeh bermoq”, – سب – “so‘kinmoq”, – شتم – “haqorat qilmoq”, – سخر – “ustidan kulmoq, masxara qilmoq”, – فخر – “maqtanmoq, faxrlanmoq”, – أزعج – “jig‘iga tegmoq”.

4. Undov-xitobni bildiruvchi fe‘llar (الإنجازية القول أفعال): نادى – “taklif qilmoq”, – دعا – “buyurmoq”, – أمر – “chaqirmoq”, – حثّ – “undamoq”, – نصّح – “maslahat bermoq”, – سلى – “yupatmoq, ovutmoq, tasalli bermoq”.

5. So‘roq ma‘nosidagi fe‘llar (سأل أفعال القول للطلب والاستفسار): “so‘ramoq, savol bermoq”.

6. Javob ma‘nosidagi fe‘llar (أجاب أفعال القول للإجابة و الرد): “javob bermoq”, – ردّ على – “javob qaytarmoq”.

7. Replikalar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi fe‘llar

– “so‘zini” – أنهى كلامه – “so‘z boshlamok”, – (أفعال القول لإظهار الرأي أو لمقاطعة الحديث): بدأ كلامه – “gapini bo‘lib qo‘ymoq” – قاطع كلامه – “so‘zini davom ettirmoq”. – واصل في كلامه – “yakunlamok”.

8. Suhbatdoshga nisbatan munosabatni ifodalovchi fe‘llar

– “yupatmoq, ovutmoq, tasalli” – سلى – “ishontirmoq”, – (أفعال القول المعبرة عن الموقف تجاه المخاطب): أفتّع – “haqorat qilmoq”, – شتم – “so‘kinmoq”, – سب – “tanbeh bermoq”, – وبخ – “ayblamoq”, – لام – “barmoq”.

9. Maxsus tor ma‘noga ega bo‘lgan fe‘llar حسب (أفعال القول الأخرى): أعرب – “hisoblamoq”, – أعرّب – “tashakkur” – شكر – “tabriklamok”, – هنأ – “yoydi, tarqatdi, fosh qildi (sirni)”, – أفشى – “ifodalamoq”, – ودّع – “aytmoq”, – عزّف – “izohlamok, tanishtirmoq”, – غنّى – “kuylamoq”.

Yuqorida qayd etilgan barcha fe‘llar konstruksiyadagi funksiyalariga ko‘ra so‘zlashuv fe‘llarining sinonimi bo‘la oladi va ular, asosan, قال “aytmoq, demoq, gapirmoq” fe‘lining stilistik jihatdan boy variantlari sifatida xizmat qiladi. Bu fe‘llarni قال bilan almashtirish mumkin bo‘lsa-da, stilistik-ekspressiv bo‘yoqlar yo‘qoladi, ya‘ni matnning ohangi soddalashadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu maqolamizda yuqoridagi tasnifdan sof so‘zlashuv ma‘nosiga ega bo‘lgan nutq fe‘llari – “أفعال القول المباشرة” haqida batafsil to‘xtalishni maqsad qildik. Tadqiqotda leksemalarning rang-barangligini o‘rganish jarayonida tavsifiy, qiyosiy, miqdoriy, umumlashtirish, semantik-uslubiy tahlil, shuningdek, kontekstual va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

O‘rganish obyekti. Ushbu tadqiqotning obyekti — zamonaviy arab tilidagi sof so‘zlashuv ma‘nosini anglatuvchi nutq fe‘llari “أفعال القول المباشرة” hisoblanadi. Bunday fe‘llar arab tili fe‘l tizimida mustaqil semantik-guruh sifatida ajralib turadi hamda ular orqali so‘zlovchining bevosita nutqi, fikri

yoki xabari ifoda etiladi. Tadqiqot doirasida bu fe'llarning grammatik xususiyatlari, semantik-ma'no soylari, kontekstual qo'llanilishi va uslubiy-funksional vazifalari tahlil qilindi. Ayniqsa, “تَكَلَّمَ”, “قَالَ”, “تَحَدَّثَ” kabi fe'llar asosiy kuzatuv obyekti sifatida tanlab olinib, ularning yozma va og'zaki matnlardagi o'rni aniqlanadi. Shuningdek, bu fe'llarning matnshunoslik, tarjimashunoslik va kommunikativ pragmatika nuqtayi nazaridan ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Natijalar. Arab tilida eng ko'p uchraydigan va kommunikativ nutqni ifodalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladigan fe'llardan biri bu — قَالَ fe'lidir. Mazkur fe'l arab tilidagi أفعال القول المباشرة ya'ni, sof so'zlashuv fe'llarining markaziy elementi hisoblanadi. قَالَ fe'li yordamida xabar berish, rivoyat qilish, fikr bildirish, bayonot keltirish kabi kommunikativ funksiyalar bajariladi. Shu bois, arab tilidagi har qanday axborot yoki iqtibosli gaplar ko'pincha aynan قَالَ fe'li orqali kiritiladi.

قَالَ fe'li arab tilining barcha uslubiy qatlamlarida — rasmiy bayonotlarda, jurnalistik matnlarda, diniy manbalarda, badiiy adabiyotda va og'zaki nutqda keng qo'llaniladi. U o'zining soddaligi va universalligi sababli ko'p hollarda boshqa so'zlashuv fe'llarini umumlashtirib yuboradi. Shu bilan birga, قَالَ fe'li stilistik jihatdan neytral bo'lib, hech qanday emotsional yoki subyektiv yuklamaga ega emas. Bu esa uni xolis, betaraf va rasmiy xabarlarini yetkazishda eng maqbul vositaga aylantiradi.

قَالَ fe'li arab tilining semantik va sintaktik tizimida shunchalik keng ishlatiladiki, ayrim tadqiqotchilar uni “semantik markaz” deb ataydilar. Chunki u boshqa o'nlab so'zlashuv fe'llari bilan almashtirilishi mumkin bo'lsa-da, matndagi stilistik ohang va ekspressivlik darajasi o'zgarib ketadi. Shu sababli arab matnshunosligida قَالَ fe'lini faqat lug'aviy emas, balki stilistik-funksional aspektda ham chuqur tahlil qilish lozim bo'ladi.

قَالَ quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- I. قَالَ (u) — “aytmoq, demoq”;
- II. قَالَ بِشَيْءٍ — “biror narsani aytmoq”, “biror narsa haqida fikr bildirmoq”;
- III. قَالَ بِرَأْيِ الْحَنَفِيَّةِ — “hanafiylar fikriga qo'sxilmoq, ergashmoq”;
- IV. قَالَ عَنْ شَيْءٍ — “biror narsa haqida xabar bermoq, so'z yuritmoq”;
- V. قَالَ فِي شَيْءٍ — “biror narsa xususida gapirmoq, fikr bildirmoq”;
- VI. قَالَ رَأْيَهُ — “o'z fikrini bildirmoq”;
- VII. مُتَمَمِّمًا قَالَ — “duduqlanib, tutilib gapirmoq”;
- VIII. قَالَ لَهُ (unga) — “(unga) murojaat qilmoq, gapirmoq”;
- IX. قَالَ عَلَى فُلَانٍ — “(birovga) tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq, da'vo qilmoq”;
- X. قَالَ فِي نَفْسِهِ — “ichida, o'z-o'ziga gapirmoq”;
- XI. قَالَ بَيْنَهُ — “qo'li bilan ishora qilmoq”;
- XII. قَالَ (ma'noda) — “deb o'ylamoq, deb hisoblamoq”;
- XIII. قَالَ فَتَكَلَّمَ — “gapirishga shaylanmoq, og'iz juftlamoq”;
- XIV. قِيلَ / قُورِلَ — “aytilmoq, deyilmoq”;
- XV. قَالَ بِشَيْءٍ (1) — “egallab olmoq”; (2) “ega bo'lmoq”; (3) “hukm qilmoq”;
- XVI. قَالَ (majoziy) — “o'ldirmoq, qatl etmoq”;
- XVII. قَالَ (majoziy) — “urmoq, zarba bermoq”;
- XVIII. قَالَ (majoziy) — “o'lmoq, vafot etmoq”;
- XIX. قَالَ (majoziy) — “egilmoq, moyil bo'lmoq”;
- XX. قَالَ (majoziy) — “dam olmoq, istirohat qilmoq”;
- XXI. قَالَ بِرَأْسِهِ / بِيَدِهِ — “boshi / qo'li bilan ishora qilmoq”;
- XXII. قَالَ بِرَجْلِهِ — “yurmoq, odimlamoq”;
- XXIII. قَالَ بِالْمَاءِ عَلَى وَجْهِهِ — “yuziga suv quyib olmoq”;
- XXIV. قَالَ بِثَوْبِهِ — “kiyimini ko'tarmoq”. (Ibrohimov, 2019, p. 899).



قال fe'lining matnlarda qo'llanilishi (gazeta materiallari asosida):

وقال رجل الأعمال حسين آل الشيخ: "إن الذكاء الاصطناعي لا يُمثل تهديدًا وإنما فرصة".

[Ar-Riyod, 2025, p. 7].

"Tadbirkor Husayn Ol Shayx shunday dedi: "Sun'iy intellekt tahdid emas, balki imkoniyatdir."

Bu jumla قال fe'lidan foydalangan holda nutq fe'lining to'g'ridan-to'g'ri qo'llanishini namoyon qiladi. Gapiruvchi aniq ko'rsatilgan va undan keyin keltirilgan iqtibos orqali bevosita nutq ifodalanagan. Bu yerda قال faqat xabar yetkazish vazifasini emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy kontekstdagi muhim qarashni bildiruvchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

وقالت المصادر إن واشنطن تُصرّ على إجراء تصويت في مجلس الوزراء على الفور.

[Al Riyadh, 2025, p. 12].

"Manbalar shuni ma'lum qildiki, Vashington Vazirlar Mahkamasida darhol ovoz berish o'tkazilishini qat'iy talab qilmoqda".

Bu jumlada قال fe'lining turli shakllaridan biri — قالت المصادر (manbalar aytdi) iborasi ishlatilgan bo'lib, u رواية القول — ya'ni boshqa shaxsning so'zini bayon qilish ma'nosida qo'llanmoqda. Bu yerda "manbalar" so'zlovchi emas, balki aytilgan ma'lumotni uzatuvchi sifatida ishtirok etmoqda. Ushbu kontekstda قال fe'li vositachilik bildiradi, ya'ni matn muallifi to'g'ridan-to'g'ri emas, balki norasmiy yoki ismi ochiqqlanmagan manbalar orqali axborot bermoqda.

Bu turdagi qo'llanma siyosiy, diplomatik yoki jurnalistik matnlarda keng tarqalgan bo'lib, axborot manbalarining ishonchliligini ko'rsatish yoki ularni himoya qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, تُصرّ (qat'iy turibdi) fe'li AQSHning pozitsiyasini kuchli urg'u bilan ifodalab, قال fe'li orqali uzatilayotgan xabarni yanada ta'sirli qiladi.

وقال ترمب للصحفيين على متن طائرة الرئاسة الثلاثاء "الهند صديق جيد، لكنها تفرض رسوما جمركية أكثر من أي دولة أخرى تقريباً"، مضيفاً أن ذلك سينتهي.

[Al Riyadh, 2025, p. 12].

"Tramp seshanba kuni prezidentlik samolyotida jurnalistlarga: "Hindiston - yaxshi do'st, biroq u deyarli barcha boshqa davlatlarga qaraganda ko'proq bojxona to'lovlari joriy qilmoqda", — dedi va bu holat barham topishini qo'shimcha qildi."

Ushbu gapda قال fe'li to'g'ridan-to'g'ri nutq ifodasi bilan birga ishlatilgan. Jumla: "قال ترمب للصحفيين" — "Tramp jurnalistlarga dedi..." shaklida boshlanadi va undan so'ng iqtibos ichida bevosita so'zlar keltirilgan. Bu holat قال fe'lining eng to'g'ridan-to'g'ri — so'zlovchi shaxsning bevosita gapini keltirish funksiyasida qo'llanayotganini bildiradi.

Shuningdek, gapda مضيفاً أن ذلك سينتهي — "bu holat barham topishini qo'shimcha qildi" degan jumla orqali قال fe'lining davomiy shakli sifatida أضاف (qo'shimcha qildi) fe'li ham ishlatilgan. Bu esa, nutq fe'llarining kombinatsiyali ishlatilishiga yaqqol misol bo'ladi.

Ushbu misol, siyosiy matnlarda قال fe'li orqali rasmiy shaxslarning bayonotlari qanday ifodalanishini, shuningdek, u bilan birga ishlatiladigan boshqa nutq fe'llari (أشار، أضاف) va boshqalar) orqali fikrni qanday kengaytirish mumkinligini ko'rsatadi. Bu tahlil القول المباشرة tasnifiga to'g'ri keladi.

وقال شاب يدعى أيمن العميري في العاصمة، بينما كان ينتظر دون جدوى في محطة للحافلات: نحن نعاني. لا يوجد نقل، ولا وظائف لنا، وكل شيء يزداد غلاء وسوءاً.

[Asharq Al-Awsat 2025, p. 10].

"Poytaxtda Ayman al-Umayr ismli bir yigit avtobus bekatida behuda kutib turgan chog'ida shunday dedi: "Biz azob chekyapmiz. Transport yo'q, biz uchun ish ham yo'q, hamma narsa qimmatlashmoqda va yomonlashmoqda."

Bu jumlada قال fe'li bevosita shaxsiy nutqni keltirish uchun ishlatilgan bo'lib, nutq fe'llarining eng asosiy turi — العَمِيْرِي أَيْمَنْ يَدْعَى شَابَ قَالَ misolidir. Bu yerda قال Ayman al-Umayr ismli yigit dedi” degan jumla orqali gapiruvchining shaxsi va holati tasvirlanadi, bu esa jurnalistik matnlarda axborotning ishonchliligini oshiradi.

Matnda shuningdek bevosita nutq (“...نعاني نحن”) aynan iqtibos ichida keltirilgan. Bu esa قال fe'lining an'anaviy qo'llanishi — kimdir o'z fikrini ifoda qilayotgan paytda uni to'g'ridan-to'g'ri bayon qilish — holatiga mos keladi. Ayniqsa, ushbu iqtibos xalqning dardini, iqtisodiy muammolarni va ijtimoiy norozilikni ifodalaydi, bu esa قال fe'lining faqat so'zlovchi kimligini emas, balki uning holatini, kayfiyatini va ijtimoiy kontekstini ham ifodalash imkonini beradi.

Ushbu misol orqali قال fe'lining ijtimoiy reportajlardagi funksiyasi — oddiy odamlarning shikoyat va noroziliklarini ifodalovchi vosita sifatida qanday ishlatilishini ko'rish mumkin. Bu uslubiy jihatdan xalq ovozi eshittirish va muammoni hayotiy misollar bilan yoritish uchun xizmat qiladi.

Arab tilidagi nutq fe'llari ichida تكلم “gapirmoq (til haqida), gaplashmoq, suhbat qurmoq” fe'li o'ziga xos semantik va sintaktik xususiyatlarga ega bo'lib, odatda to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita muloqotni ifodalashda qo'llaniladi. Ushbu fe'l, asosan, faol nutq holatlarini ifodalashda ishlatiladi. تكلم fe'li قال fe'lidan farqli ravishda, ko'pincha so'zlovchining shaxsiy ishtirokini, nutqning davomiyligini yoki ichki jarayonini anglatadi. Aynan shu jihatlar uni boshqa nutq fe'llaridan ajratib turadi.

Lug'aviy jihatdan تكلم fe'li “so'z” ma'nosini anglatuvchi كلام so'zidan yasalgan bo'lib, bu fe'l arab tilidagi tafa'ul vaznida bo'lib, ichki faoliyat, o'z-o'zidan yuzaga keluvchi harakat yoki ikki tomonlama jarayonni bildirishi mumkin. Bu esa mazkur fe'lning ma'no soyalarini yanada boyitadi. Misol uchun, قال fe'li biror xabarni yetkazishga urg'u bersa, تكلم fe'li esa butun nutq jarayoniga e'tibor qaratadi.

Arab tilidagi matbuot va publitsistik uslubda تكلم fe'li kamroq ishlatilsa-da, badiiy adabiyotda, nutqiy dramatik holatlarda yoki muloqotga urg'u berilayotgan kontekstlarda u keng qo'llaniladi. Ayniqsa, sahnadagi dialoglarda, hikoya ichidagi jonli suhbatlarda bu fe'lga ehtiyoj seziladi.

تکلم quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

I. تَكَلَّمَ – “gapirmoq”; بِالْعَرَبِيَّةِ / بِالْعَرَبِيَّةِ – “u arab tilida gapiryapti”;

II. تَكَلَّمَ بِاسْمِ الْحُكُومَةِ – “hukumat nomidan gapirmoq, vakil bo'lib gapirmoq”;

III. تَكَلَّمَ بِالْفَضِيَّةِ / عَنْهَا / عَلَيْهَا / فِيهَا – “muammo haqida gapirmoq”;

IV. تَكَلَّمَ فِي السِّيَاسَةِ – “siyosat haqida gapirmoq”;

V. تَكَلَّمَ عَلَى الْمُكْثُوفِ – “ochiqchasiga / mulozamatsiz gapirmoq”;

VI. تَكَلَّمَ مَعَ صَاحِبِهِ – “do'sti bilan gaplashmoq, suhbatlashmoq”. (Ibrohimov, 2019, p. 74).

تکلم fe'lining matnlarda qo'llanilishi (gazeta materiallari asosida):

ودعونا نتكلم بلغة منفعية، فينبوع فلسطين، هو الذي يسقي عطشى الميليشيات والفوضويات في المنطقة، التي وصل ويصل ضررها دائماً إلى العالم، والعالم الغربي على وجه الخصوص.

[Asharq Al-Awsat 2025, p. 24].

“Keling, manfaat tilida gaplashaylik: Falastin manbai – bu mintaqadagi chanqoq militsiyalar va betartibliklarni sug'orayotgan buloqdir, ularning zarari har doim dunyoga, ayniqsa G'arb dunyosiga yetib kelgan va yetib kelmoqda.”

Bu jumlada نتكلم – ya'ni "gaplashaylik" fe'li interaktiv, bahsli va da'vatga asoslangan uslubda qo'llanmoqda. Bu nutq uslubi orqali muallif o'quvchini yoki auditoriyani o'z fikr yuritishiga hissiy, mantiqiy yoki manfaat asosida qo'sxilishga chaqirmoqda. Bu yerda نتكلم fe'li orqali nutqqa sheriklik, fikr almashish va bahs yuritishga chaqiruv mavjud.

Ushbu misolda تَكَلَّمَ fe'li قال va تَحَدَّث fe'llaridan farqli ravishda ikki tomonlama muloqotga chaqiruvchi, fikr bildirishdan ko'ra fikr yuritishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ishlatilgan.



Arab tilida so'zlashuv, bayon va ifoda jarayonlarini ifodalovchi fe'llar orasida "so'zga chiqmoq, suhbatlashmoq, so'zlashmoq" fe'li o'zining semantik boyligi va uslubiy moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu fe'l odatda biror mavzu haqida gapirish, fikr bayon etish, yoki rasmiy-nutqiy kontekstda suhbat qurishni bildiradi. **تحدث** fe'li ko'proq rasmiy va jiddiy ohangdagi muloqotlarga nisbatan ishlatiladi hamda **تكلّم** va **قال** fe'llariga o'xshash bo'lsa-da, o'ziga xos konnotatsiyaga ega.

Fe'l tafa'ul vazniga mansub bo'lib, arab tilidagi ko'plab nutq fe'llaridek o'zida jarayonlilik va ikki tomonlama muloqot niyatini mujassam etadi. Ayniqsa, diplomatik bayonotlar, rasmiy chiqishlar va ijtimoiy mavzularni muhokama qilishda bu fe'l keng qo'llaniladi.

تحدث quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

I. "gapirmoq";

II. "so'zlamok";

III. "gaplashmoq";

IV. "gapirib bermoq";

V. "xabar bermoq"; **تحدث بالواقعة / عنها** "voqea haqida so'zlab bermoq". [Ibrohimov, 2019, p. 571].

تحدث fe'lining matnlarda qo'llanilishi (gazeta materiallari asosida):

وتحدث عاملون في المستشفى عن طرد تعسفي وحرمان من المرتبات وتهميش الكفاءات الطبية لحساب عناصر موالية للجماعة لا تحمل المؤهلات المطلوبة.

[Asharq Al-Awsat 2025, p. 2].

"*Shifoxona xodimlari nohaq ishdan bo'shatish, maoshlardan mahrum qilish va tibbiy malakaga ega mutaxassislarni e'tiborsiz qoldirib, kerakli malakaga ega bo'lmagan, guruhga sodiq shaxslarni qo'llab-quvvatlash haqida gapirishdi.*"

Bu jumla ham **تحدث** fe'li orqali boshlangan bo'lib, avvalgidek jamoaviy norozilik yoki ko'pchilik fikrini ifodalovchi nutq fe'l sifatida ishlatilgan. Jumlada aytilayotganlar ijtimoiy adolatsizlik va professional mezonlarga zid harakatlar haqida bo'lib, institutsional tizimdagi korrupsiya yoki nepotizmga ishora qiladi.

Bu misolda **تحدث** fe'li orqali norasmiy, ammo dolzarb jamoaviy e'tiroz bildirilmoqda. Shuningdek, bu yerda nutq fe'li faqat so'zlovchining mavjudligini bildirish bilan cheklanmaydi, balki uning ortidan ijtimoiy muammo, tizimdagi nohaqlik va siyosiy tarafkashlik muammolarini ochib beradi. Bunday qo'llanma jurnalistik, huquqiy va siyosiy matnlar tahlilida **تحدث** fe'lining jamiyatdagi roli va vazifasini ko'rsatadi.

السيناتور الأميركي تشاك شومر يتحدث في مؤتمر صحفي بمبنى الكونغرس في واشنطن.

[Asharq Al-Awsat 2025, p. 3].

"*Amerikalik senator Chak Shumer Vashingtondagi Kongress binosida matbuot anjumanida gapirmoqda.*"

Bu kabi ifodalar, ya'ni **تحدث** fe'li rasmiy, nazorat ostidagi, ommaga qaratilgan nutq jarayonini anglatadi. Fe'ning bu shakli xabarni aniq vaqt va joy bilan bog'lab, uni dolzarb va rasmiy tusga keltiradi. Bu uslub siyosiy matnlarda fikr bildirish, bayonot berish holatlarini yoritishda muhim stilistik vositadir.

وتحدث مسؤولون روس عن احتمال أن تذهب موسكو لتخفيف أعباء السلطات السورية الجديدة عبر إعفاء سوريا من الديون المستحقة لموسكو.

[Asharq Al-Awsat 2025, p. 6].

"*Rossiyalik rasmiylar Moskvada yangi Suriya hukumatining yukini engillashtirish maqsadida Suriyani Moskvaga bo'lgan qarzlariidan ozod qilish ehtimoli haqida gapirishdi.*"

Bu jumlada asosiy nutq fe'li sifatida **تحدث** ishlatilgan bo'lib, u "gapirishdi, fikr bildirishdi" ma'nolarini anglatadi.



تحدث مسؤولون روس — bu iborada gapiruvchilar umumiy guruh (rossiyalik rasmiylar) sifatida ko'rsatilgan. Bu قال fe'lidan farqli ravishda, aniq shaxsni emas, balki rasmiy vakillar yoki guruh fikrini bildiradi.

تحدث bu misolda rossiyalik rasmiylarning ehtiyotkorona bayonotini yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. U orqali jurnalist matn muallifi so'zlovchilarning fikrini yumshoq, diplomatik shaklda ifoda etgan.

وتحدثت وكالة الأنباء الفلسطينية وفا عن إصابة مواطن آخر بالهجوم.

[Al-Araby Al-Jadid 2025, p. 3].

“Falastin axborot agentligi “VAFA” yana bir fuqaroning hujumda jarohatlangani haqida xabar berdi.”

قال fe'lidan farqli o'laroq, تحدث fe'li jarayonning davomiyligi yoki sodda bayon qilish ohangini beradi, bu esa jurnalistik neytrallikni ta'minlaydi.

Ushbu misolda تحدثت fe'li axborot agentligi tomonidan ma'lumot berilayotgan holatni ifodalab kelgan. Bu uslubiy jihatdan ruxsat etilgan, tasdiqlanmagan yoki kuzatuv asosidagi axborotlarni yetkazishda keng ishlatiladi. Shuningdek, bu fe'l قال ga nisbatan biroz yumshoqroq, ob'yektivroq ohang hosil qiladi.

Muhokama. Arab tilidagi sof so'zlashuv ma'nosiga ega bo'lgan nutq fe'llari قال، تكلم، تحدث funksional-uslubiy jihatdan boy imkoniyatlarga ega bo'lib, ular arab media matnlarida muloqotning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu fe'llar bir qarashda sinonimik bo'lib ko'rinsa-da, ularning uslubiy vazifalari, qo'llanish chastotasi va konnotativ ma'nolarida muhim farqlar mavjud. Maqola davomida tahlil qilingan misollar bu farqlarni yanada yaqqol ko'rsatib beradi.

Masalan, قال fe'li ko'pincha rasmiy, aniq va qisqa axborotni yetkazish uchun ishlatiladi. Bu fe'l xabar berish jarayonida xolis va neytral ohangni ta'minlaydi. Maqolada keltirilgan quyidagi misol bunga yaqqol dalildir:

وقال رجل الأعمال حسين آل الشيخ: إن الذكاء الاصطناعي لا يُمثل تهديدًا وإنما فرصة.

[Al Riyadh , 2025, p. 7]

Bu misolda قال fe'li biznes sohasi vakilining fikrini rasmiy va aniq tarzda yetkazmoqda. Nutqning axborot xususiyati ustuvor bo'lib, gapning semantik yadrosida voqelikni aniq ifodalash maqsadi yotadi. Bu holat arab matbuotida قال fe'lining keng tarqalgan eng asosiy qo'llanilish shaklidir.

Bunga qarama-qarshi tarzda، تكلم fe'li odatda kengroq izoh, munosabat yoki umumiy mulohazalarni ifodalashda ishlatiladi. Bu fe'lining qo'llanishi ko'pincha nutqning muloqot xarakterini kuchaytiradi. Masalan, maqoladagi quyidagi jumlaning o'rinli:

ودعونا نتكلم بلغة منفعية، فينبوع فلسطين هو الذي يسقي عطشى الميليشيات...

[Asharq Al-Awsat 2025, p. 24]

Bu yerda تكلم fe'li “kel, gaplashaylik” ma'nosida, o'quvchini suhbat jarayoniga jalb etuvchi nutq vositasi sifatida ishlatilmoqda. Bu holat rasmiy xabardan ko'ra, muallifning subyektiv fikrini ifodalash va tinglovchi bilan bevosita aloqani ta'minlash vazifasini bajaradi.

تحدثت fe'li esa odatda biror mavzuni batafsil bayon qilish yoki ma'lum voqealar ketma-ketligini izohlashda qo'llanadi. Maqoladagi quyidagi jumla bunga misol bo'la oladi:

وتحدثت وكالة الأنباء الفلسطينية "وفا" عن إصابة مواطن آخر بالهجوم.

[Al-arabiy al-jaddid 2025, p. 3].

Bu yerda تحدثت so'zi agentlikning voqeani batafsil yoritganini ko'rsatadi. Fe'lining semantik maydoni “mavzuni kengroq muhokama qilish” va “voqealarni ketma-ket yoritish” bilan bog'liq. Shuningdek، تحدثت ko'pincha rasmiy-axborot uslubida ham, publitsistik uslubda ham ishlatiladi, lekin قالga nisbatan yumshoqroq, izohlovchi ohangga ega.



Ushbu uch fe'ning qo'llanishidagi funksional farqlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

قال – qisqa, aniq va rasmiy axborot; manbaning ishonchliligini ta'kidlash.

تكلم – muloqotga jalb qilish, subyektiv fikr bildirish, hissiy ohangni kuchaytirish.

تحدث – batafsil bayon qilish, izohlash, voqealar ketma-ketligini tushuntirish.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, arab media diskursida ushbu fe'llarning tanlanishi matnning uslubi va maqsadiga bevosita bog'liq. Xususan, rasmiy davlat xabarlarida قال fe'li ustun bo'lsa, publitsistik va tahliliy materiallarda تكلم va تحدث ko'proq qo'llanadi. Shu bilan birga, ayrim matnlarda bu fe'llar sinonim tarzida ham ishlatiladi, ammo bu holatda ham ularning semantik nozikliklari saqlanib qoladi.

Shunday qilib, maqolada keltirilgan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, sof so'zlashuv ma'nosiga ega bo'lgan nutq fe'llari arab media matnlarining stilistik boyligini ta'minlovchi muhim vositalardir. Ularning maqsadga muvofiq tanlanishi matnning ta'sirchanligini oshiradi, tinglovchi yoki o'quvchida aniq axborot va hissiy aloqani uyg'otadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda arab tilidagi sof so'zlashuv ma'nosiga ega bo'lgan nutq fe'llari تحدث, تكلم, قال -ning uslubiy-funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mazkur fe'llarning qo'llanishida kontekst, nutq vaziyati va janr talablariga mos ravishda sezilarli farqlar mavjud. قال fe'li, asosan, xabar berish, voqeani yetkazish va boshqa shaxsning so'zlarini keltirishda eng ko'p ishlatiladi. Bu fe'ning yuqori chastotasi, ayniqsa, gazeta va rasmiy yangiliklarda kuzatildi. Misol tariqasida, maqolada keltirilgan:

وقال رجل الأعمال حسين آل الشيخ: إن الذكاء الاصطناعي لا يُمثل تهديدًا وإنما فرصة ma'lumot uzatish jarayonida قال fe'lining qanday ishlatilishini yaqqol namoyish etadi.

تحدث fe'li esa, ko'proq suhbat, intervyu va ijtimoiy-madaniy mavzularda qo'llanadi. U odatda fikrni biroz izohliroq, tafsilotli shaklda yetkazishda ishlatiladi. Masalan, maqolada keltirilgan: وتحدثت وكالة الأنباء الفلسطينية وفا عن إصابة مواطن آخر بالهجوم jumlasini voqeani sharhlash va kengroq izoh berish vazifasini bajaradi. Bu fe'l televideniye chiqishlari va intervyularda muallifning yoki suhbatdoshning mavzuga kengroq yondashishini ta'minlaydi.

تكلم fe'li esa eng ko'p norasmiy nutqda, shaxsiy mulohazalarni bildiruvchi matnlarda uchraydi. Misol sifatida: ودعونا نتكلم بلغة مفعية... kabi jumlar undov yoki murojaat ohangida, ko'proq auditoriya bilan bevosita muloqotga kirishishda ishlatilganini ko'ramiz. Shu bois bu fe'ning hissiy va interaktiv uslubiy yuklamasi yuqori.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ushbu fe'llarning qo'llanish chastotasi hamda ma'nodagi nozik farqlar ularning uslubiy yukini belgilaydi. قال fe'li rasmiy yozma nutqda yetakchi o'rin egallaydi, تحدث esa suhbat va sharhlarni ifodalashda ustun keladi, تكلم esa auditoriya bilan bevosita aloqa o'rnatishda eng ko'p qo'llanadi.

Natijada, arab tilidagi nutq fe'llarini tanlash jarayoni tasodifiy emas, balki matn janri, muloqot maqsadi va auditoriyaga bog'liq holda yuz beradi. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot tilshunoslikda uslubiy-funksional tahlilni chuqurlashtirish va arab media diskursidagi nutq fe'llari qo'llanilishini kengroq o'rganish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi. Kelgusida bu yo'nalishda boshqa nutq fe'llari guruhlari, jumladan, hissiy holatni yoki suhbatdoshga bo'lgan munosabatni bildiruvchi fe'llarni ham qamrab olish mumkin, bu esa arab tilidagi nutq madaniyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.



ARAB TILIDA SINONIMIYA VA SEMANTIK ANIQLIK: ETIMOLOGIK, PRAGMATIK VA KONTEKSTUAL KOMPONENTLAR INTEGRATSIYASI

AZIZJON MUXAMMADJONOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi sinonimiya hodisasi semantik aniqlik nuqtai nazaridan integrativ-lingvistik yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - bir qarashda ma'nodosh bo'lib tuyulgan leksik birliklar o'rtasidagi mikrosemiotik tafovutlarni aniqlash hamda ularning ma'no aniqligi, funksional yuklamasi va uslubiy rolini izohlashdan iborat. Bunda semasik komponent tahlili, etimologik-differensial tahlil, pragmatik aktant modeli va korpus lingvistikasi kabi metodologiyalar uyg'unlashtirilgan. Klassik *furūq al-lughawiyya* an'anasini Abū Xilāl al-'Askarī, Ibn Sīdḍah va b.) zamonaviy semantik nazariyalar (J. Lyons, D. Cruse) bilan integratsiyada talqin qilinadi. Empirik tahlil Qur'oni karim, hadis matnlari, klassik lug'atlar hamda zamonaviy korpus materiallari asosida olib borilib, quyidagi juftliklar chuqur o'rganildi: ~ عَيْنٌ (ihn ~ šūf), ~ الْجَسَدُ (badan ~ jasad), ~ الْإِجَازَةُ (idhn ~ ijāza), ~ اِجْلِسْ (ijlis ~ uq'ud). Natijalarda arab tilida mutlaq sinonimiya mavjud emasligi, yaqin ma'nodosh birliklar esa denotativ, konnotativ, uslubiy va pragmatik qirralarda farqlanuvchi mikrosemiotik strukturalarga ega ekani isbotlandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi - sinonimik birliklarni farqlash uchun kompozit mezonlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek, klassik va zamonaviy semantik yondashuvlar o'rtasidagi nazariy sintezni ta'minlashdan iborat. Natijalar tarjimashunoslik, leksikografiya, tafsirshunoslik va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: arab tili, sinonimiya, semantik tafovut, *furūq al-lughawiyya*, etimologik yondashuv, semantik komponent, pragmatik model, Qur'on lingvistikasi, tarjimashunoslik, leksikografiya, kontekstual semantika, NLP.

Abstract. This article investigates the phenomenon of synonymy in the Arabic language from the perspective of semantic precision through an integrative linguistic approach. The primary objective is to identify microsemiotic distinctions between lexemes that may appear synonymous at first glance, and to elucidate their semantic clarity, functional load, and stylistic role. The study employs a combination of methodologies, including semantic component analysis, etymological-differential examination, pragmatic actant modeling, and corpus linguistics tools. The classical *furūq al-lughawiyya* tradition (e.g., Abū Xilāl al-'Askarī, Ibn Sīdḍah) is reinterpreted in light of modern semantic theories (e.g., J. Lyons, D. Cruse). Empirical analysis is based on Qur'anic verses, Hadith texts, classical Arabic lexicons, and contemporary corpora, with detailed investigation of the following synonym pairs: 'ihn ~ šūf, badan ~ jasad, idhn ~ ijāza, ijlis ~ uq'ud. The results confirm that absolute synonymy does not exist in Arabic, and that near-synonyms are distinguished by denotative, connotative, stylistic, and pragmatic dimensions, forming microsemiotic structures. The scientific novelty lies in the development of a composite framework of criteria for distinguishing synonyms, as well as the synthesis of classical and modern semantic models. The findings offer practical implications for translation studies, lexicography, Qur'anic exegesis, and natural language processing (NLP) applications.

Keywords: Arabic language, synonymy, semantic distinction, *furūq al-lughawiyya*, etymological approach, semantic component, pragmatic model, Qur'anic linguistics, translation studies, lexicography, contextual semantics, NLP.

Аннотация. В данной статье феномен синонимии в арабском языке рассматривается с позиции семантической точности на основе интегративного лингвистического подхода. Основная цель исследования — выявить микросемантические различия между лексемами, которые на первый взгляд кажутся синонимами, а также определить их семантическую точность, функциональную нагрузку и стилистическую роль. В исследовании сочетаются методы семантического компонентного анализа, этимолого-дифференциального подхода, прагматического актантного моделирования и корпусной

лингвистики. Классическая традиция *furūq al-lughawiyya* (например, Абу Хилаль аль-Аскарий, Ибн Сиддах) переосмысливается в свете современных семантических теорий (например, Дж. Лайонс, Д. Круз). Эмпирическая база включает аяты Корана, хадисы, классические арабские словари и современные корпуса. Подробно анализируются следующие пары синонимов: *‘ihn ~ šūf*, *badan ~ jasad*, *idhn ~ ijāza*, *ijlis ~ iq‘ud*. Результаты подтверждают, что абсолютная синонимия в арабском языке отсутствует, а близкие по значению слова различаются по денотативным, коннотативным, стилистическим и прагматическим признакам, образуя микросемантические структуры. Научная новизна заключается в разработке комплексной системы критериев для разграничения синонимов, а также в синтезе классических и современных семантических моделей. Полученные результаты могут быть использованы в переводоведении, лексикографии, коранической герменевтике и технологиях обработки естественного языка (NLP).

Ключевые слова: арабский язык, синонимия, семантическое различие, *furūq al-lughawiyya*, этимологический подход, семантический компонент, прагматическая модель, лингвистика Корана, теория перевода, лексикография, контекстуальная семантика, NLP.

Kirish. Matnda ma’no aniqligi - muloqotning ishonchliligi va ilmiy tahlilning puxtaligini kafolatlaydigan markaziy omildir. Bu omil, ayniqsa, leksik qatlam jihatidan behad boy va serqatlam arab tilida yaqqol namoyon bo’ladi. Bir tomondan, arab tilining so’z boyligi mislsiz: ayrim tadqiqotlarda arab tilida 12 302 912 ta so’z birligi mavjudligi qayd etilgan [Ekici, 2012, p. 50]. Bu raqam ingliz tilidagi so’zlar sonidan (taxminan 600 ming atrofida) ancha yuqori bo’lib, arab tilini ifoda imkoniyatlari eng boy tillardan biriga aylantiradi [Ekici, 2012, p. 50]. Masalan, arab tilida “*qilich*” ma’nosini ifodalovchi qariyb yuzta sinonimik atama borligi, “sevgi” uchun o’nlab, “*tuya*” uchun esa yuzlab so’zlar mavjudligi tilga olinadi [Brockelmann, 1908, p. 17]. Til boyligi bu qadar yuksak bo’lsa-da, boshqa tomondan, bir-biriga yaqin ma’noni anglatuvchi leksik birliklar ko’pligi semantik maydonda vagueness (noaniqlik) va ambiguity (ko’pma’nolilik) xatarini tug’diradi. Natijada, muayyan so’zning aniq ma’noda tushunilmasligi yoki turlicha talqin qilinishi mumkin bo’ladi. Shu bois, arab tilshunosligida sinonimiya hodisasini qat’iy nazariy mezonlar asosida o’rganish, ya’ni yaqin ma’nodoshlikni aniqlash va so’z ma’nolari chegaralarini belgilash dolzarb nazariy va amaliy masalaga aylangan. Har qanday tilda so’zlarning ma’no noaniqligi ko’pincha sinonimiyaning bevosita yoki bilvosita ta’siri bilan bog’liq bo’ladi. Ba’zi nazariyotchilar bu hodisani til tizimidagi tayyor qolip yoki iloji boricha ifodani boyitish uchun ataylab qo’llaniladigan usul deb hisoblab, haqiqiy sinonimiya yo’q, bo’lsa ham vaqtinchalik uslubiy vosita xolos deya qarashadi [Vardar, 2002, p. 94]. Biroq aksar tilshunoslar fikricha, ikki yoki undan ortiq so’z butunlay bir xil ma’noga ega bo’lishi amalda imkonsiz - agar til tarixida shunday hol yuz bersa ham, u holda ikki sinonimdan biri yo tez orada iste’moldan chiqadi, yoki ularning ma’nolaridan biri differensial belgi orttirib, farqlanib qoladi [Bloomfield, 1933, p. 145]. Masalan, mashhur lingvist J. Lyons *to’liq sinonimiya juda kamyob, mutlaq sinonimiya esa deyarli mavjud emas*, deya ta’kidlagan [Lyons, 1981, p. 148]. Xuddi shuningdek, D. Cruse *tabiiy tillarda mutlaqo bir xil ma’noli so’zlar bo’lishini tabiat bo’shliqni ko’tarmagani kabi, tillar ham mutlaq sinonimlarni xush ko’rmaydi* deb izohlagan [Cruse, 1986, p. 270]. Darhaqiqat, so’z ma’nolari vaqt o’tishi bilan doim o’zgarib, bir-biridan uzoqlashib boradi [Cruse, 1986, p. 270]. Binobarin, har qanday til o’zining ichki imkoniyatlariga ko’ra sinonimik birliklarni takomillashtirib, ularning ma’no va uslub jihatlarida kichik bo’lsa-da farqlarni vujudga keltiradi. Bu tabiiy semantik farqlanish tildagi ifoda boyligi va ma’no nozikliklarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Arab tilshunoslik an’anasida sinonimiya masalasi qadimdan jiddiy e’tibor qozongan. Klassik davrdan buyon davom etib kelayotgan *Furūq al-lughawiyya* (Lingvistik farqlar) an’anasining asl maqsadi ham shunga qaratilgan edi. Mashhur alloma Abū Xilāl al-‘Askarī (v. 1009) va uning izdoshlari mutlaq sinonimiya aslida mavjud emasligini, ko’p hollarda sinonim deb atalgan so’zlar *mutaqārib* - yaqin ma’nodosh xolos ekanini uqtirganlar .Al-

‘Askarī o‘zining *al-Furūq al-lugawiyya* asarida ko‘plab so‘z juftliklarini tahlil qilib, nozik semantik tafovutlarni ko‘rsatib bergan Masalan, u *الْبَدَنُ badan* va *الْجَسَدُ jasad* so‘zlarini solishtirib, *badan* - beldan yuqori qism (boshdan tashqari) tanani anglatga, *jasad* - inson tanasining to‘liq jussasini anglatishini izohlaydi [Kılıç, 1996, p. 22].

Ibn Sīddah, Ibn Jinnī, Ibn Fāris, as-Sajjāj kabi ko‘plab olimlar ham ushbu yo‘nalishda asarlar bitib, lug‘aviy birliklarning ma‘no farqlarini tizimli aniqlashga harakat qilganlar. Xususan, al-Asma‘ī (v. 831) o‘z risolasida hatto turli jonivorlarning “o‘tirish” holatini ifodalash uchun alohida so‘zlar borligini ko‘rsatib, masalan: odam uchun *جُلُوسٌ julūs* - o‘tirish va *قُعُودٌ qu‘ūd* - joylashib o‘tirish, ot singari bir tirnoqlilar uchun *رُبُوضٌ rubūz* - hayvonning bukilib yotishi, tuya uchun *بُرُوكٌ burūk* - cho‘kkalab o‘tirish, qush uchun esa *جُسُومٌ jusūm* - qushning cho‘kkalab jim o‘tirishini keltirib o‘tgan [Kılıç, 1996, p. 23]. Ko‘rinib turibdiki, arab tilidagi tarixiy izohli lug‘atlar va *furūq* risolalarida so‘zlar orasidagi nozik semantik chegaralarga katta ahamiyat berilgan. Shu nuqtai nazardan, arab tilida sinonimiya hodisasini chuqurroq tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Zero, ifoda vositalari boy bo‘lgan arab tilida bir-biriga yaqin ma‘noli so‘zlar ko‘p va ular noto‘g‘ri talqin qilinsa, matn mazmuni noaniqlashib ketishi mumkin. Ayniqsa, Qur‘oni karim singari murakkab matnda har bir atamaning aniqligi muhim - bu tilning o‘zidagi boy ma‘no pardalarini aniq anglashi va tarjimada to‘g‘ri uzatilishi uchun zarur. Abū Hilāl al-‘Askarī boshlab bergan differensial yondashuv-so‘zlarning o‘zaro farqlanuvchi xususiyatlarini izlash ayni paytda zamonaviy semantika va pragmatikaning usullari bilan boyimoqda. Biroq hozirgi arab tilshunosligida sinonimik qatlamni o‘rganish ko‘pincha bir tomonlama (masalan, faqat matn ichida sinonimlarni terib chiqish, yoxud faqat uslubiy jihatdan taqqoslash) tarzda kechmoqda. Ushbu maqola esa arab tilidagi sinonimiyani integral va interdisiplinar yondashuv asosida tekshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Tadqiqot doirasida sinonimik birliklarning etimologik, pragmatik va kontekstual jihatlari o‘zaro uyg‘un holda tahlil qilinadi. Maqsad - bir qarashda mutlaqo bir ma‘noni bildiradigandek tuyulgan leksemalar o‘rtasidagi mikrosemiotik tafovutlarni aniqlash hamda ularning arab tilidagi ma‘no aniqligiga ta‘sirini yoritish. Tadqiqot natijalari, kutilishicha, arab tilida mutlaq ma‘no birligi yo‘qligini tasdiqlab, so‘zlar orasidagi nozik farqlar tilning ekspressivligi va konnotativ boyligini saqlab qolishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ilmiy yangilik sifatida, maqolada sinonimiya masalasiga yaxlit yondashuv taklif etilib, klassik va zamonaviy tilshunoslik qarashlari integratsiya qilinadi. Jumladan:

- Semantik komponent tahlili. Qur‘on oyatlari, hadis matnlari va klassik lug‘atlardagi misollarni zamonaviy korpus ma‘lumotlari bilan parallel o‘rganish orqali yaqin ma‘nodosh so‘zlar orasidagi ma‘no farqlarini aniqlaydi.

- Etimologik-differensial yondashuv. So‘z ildizlari va ularning boshqa tillar bilan aloqasini (genealogik va tipologik jihatdan) tadqiq etib, sinonimik qatlam shakllanishining tarixiy bosqichlarini ochib beradi.

- Pragmatik aktant modeli. Buyruq maylidagi fe‘llar (masalan, *ijlis* – *uq‘ud*) misolida harakat yo‘nalishi va kommunikativ vazifalardagi o‘zgarishni ko‘rsatib, sinonimik fe‘llarni farqlash uchun yangi mezonlar taqdim etadi.

- Kontekstual tahlil. Qur‘on uslubidan tortib zamonaviy publitsistika uslubigacha bo‘lgan oraliqda yaqin ma‘nodosh birliklarning funksional taqsimotini xaritaga tushiradi.

Natijada, maqola nazariy jihatdan semasiologik modellashirishni kengaytiradi, amaliy jihatdan esa tarjima, leksikografiya va avtomatlashtirilgan til texnologiyalarida sinonimik ekvivalentlarni aniqlash hamda ma‘no aniqligini oshirish uchun konkret mezonlar taklif etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ob‘ekti sifatida arab tilidagi bir qator yaqin ma‘nodosh leksemalar tanlab olindi. Jumladan, Qur‘oni karim matnida sinonimga o‘xshash qo‘llangan so‘z juftliklari (عَنْ ~



(اَجْلِسْ ~ اَقْعُدْ, اَلْاِجَازَةُ ~ اَلْبَدَنُ ~ اَلْجَسَدُ, صُوفٌ) asosiy tahlil materiali bo'ldi. Bu leksemalar nafaqat Qur'on oyatlarida, balki klassik lug'aviy manbalar (masalan, Ibn Manzur "Lisān al-'Arab" asari, al-'Askari "al-Furūq al-lug'awiyya" lug'ati) va zamonaviy til korpuslari (adabiy matnlar, ommaviy axborot vositalari tili)da ham o'rganib chiqildi. Tadqiqotda sifat jihatidan boy materiallar jalb qilindi xususan, Qur'on oyatlaridan olingan misollar, hadislardagi qo'llanishlar, klassik davr lug'atlaridagi izohlar hamda zamonaviy matnlardan olingan kontekstlar taqqoslab tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida bir nechta usullar majmuasi qo'llandi. Semantik komponent tahlili yordamida har bir sinonimik juftlikning denotativ va konnotativ semalari ajratildi. Masalan, Qur'ondan olingan عَهْنٌ ~ صُوفٌ juftligining har biri tarkibida qanday semantik komponentlar (rang, harakat, vazn, badiiy ma'no) borligi alohida tahlil qilindi. Etimologik tahlil esa ushbu so'zlarning ildizini, kelib chiqishini ko'rib chiqib, tarixiy jarayonda biror ma'no o'zgarishi yoki boshqa til ta'siri bor-yo'qligini aniqladi. Bu yondashuv arab tilida so'zlarning genealogik va tipologik xususiyatlarini ham hisobga olishga imkon berdi. Shuningdek, pragmatik aktant konfiguratsiyasi usulidan foydalanildi. Bu usul gap tarkibidagi so'zning vazifasi va nutqiy vaziyatga bog'liq ma'no o'zgarishlarini o'rganadi. Masalan, "o'tir!" ma'nosini beruvchi اَجْلِسْ va اَقْعُدْ fe'llari turli aktant holatlarida qo'llanilib, farqli pragmatik vazifalarni bajarishini kuzatdik. Bunda bir so'zning talabi yoki iltimos ifodalashi, ikkinchisiniki esa buyruq ohangida bo'lishi kabi jihatlar ko'rib chiqildi. Korpus lingvistikasi elementlari yordamida zamonaviy arab tilida ma'lum sinonimik birliklarning qanchalik tez-tez va qanday uslubiy muhitda ishlatilishi ham tekshirildi. Misol uchun, اَلْاِجَازَةُ va اَلْبَدَنُ so'zlari bugungi arab tilidagi rasmiy va norasmiy matnlarda qanday kontekstlarda uchrashi korpusdan qidirildi va ularning qo'llanish chastotasi solishtirildi. Tadqiqot usullarini tanlashda avvalo arab tilshunosligidagi klassik yondashuvga tayanildi. Ishtiqoq (so'z hosilasi) tahlili orqali sinonim deb ko'rilgan so'zlarning asl ildiz ma'nosi va shaklan qanchalik o'xshash-ekanligi tahlil qilindi. Solishtirma tarixiy usul yordamida esa arab tilidagi muayyan ma'nodosh so'z boshqa tillarda ham mavjudmi, masalan, o'zbek tiliga yoki boshqa mahalliy arab lahjalariga o'tgan-o'tmaganini ko'rishga harakat qilindi. Bunda genealogik (tilning kelib chiqishi) va tipologik (flektiv, aglutinativ kabi turkumlarda) jihatlariga e'tibor qaratildi. Umuman, tadqiqotda nazariy (semasiologik va pragmalingvistik) yondashuv bilan amaliy (lug'atshunoslik va tarjimashunoslik) yondashuv integratsiyalashdi. Bunday uyg'un metodika orqali sinonimik birliklarni har tomonlama qiyosiy o'rganish va ularni farqlash mezonlarini shakllantirish imkoni tug'ildi. Keyingi bo'limlarda tadqiqot natijalari mana shu yondashuvlar kesimida bayon etiladi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot arab tilidagi sinonim birliklarni semantik, stilistik va pragmatik mezonlar asosida tahlil qilishga qaratildi. Natijada, arab tilida mutlaq sinonimiya mavjud emasligi ilmiy asosda yana bir bor isbotlandi. Har bir sinonimik juftlikda kamida bitta differensial semantik komponent aniqlandi. Quyida asosiy semantik tafovutlar keltiriladi:

1. عَهْنٌ ('ihn) – صُوفٌ (şūf)

Jun-yung semasida yaqin bo'lsa-da, عَهْنٌ – dinamik (tarqoq, uchuvchan), صُوفٌ – statik (zich, barqaror). Qur'ondagi ishlatishda bu farq tasviriy kuchni oshiradi.

2. اَلْبَدَنُ (badan) – اَلْجَسَدُ (jasad)

Badan – qisman qamrovli (tananing bir qismi), jasad – kompleks jussani bildiradi. Tafsir va fiqhda farqlanishi aniqlangan.

3. اَلْاِجَازَةُ (ijāza) – اَلْاِذْنُ (idhn)

Idhn – harakat oldidan ruxsat (prospektiv), ijāza – amalga oshgan harakatga tasdiq (retrospektiv). Qur'ondagi qo'llanishda bu aniq ko'rinadi.

4. اَقْعُدْ (uq'ud) – اَجْلِسْ (ijlis)



Ijlis – yotgan/bukilgan holatdan o‘tirish (yumshoqroq uslub), uq‘ud – tik turgan holatdan o‘tirishga buyruq (rasmiyroq, qat‘iy).


5. Etimologik farqlanish

Yaqin ma‘nodagi so‘zlar turli ildizlardan kelib chiqqan. Masalan, *takrīn* – tantanavor uslubda, *tajmi* – texnik-rasmiy kontekstda qo‘llaniladi.

6. Kompozit tahlil modeli

№	Mezoni	Tavsifi
1	Vaqt/aktant	Harakatdan oldin/so‘ng; boshlang‘ich holat
2	Denotativ qamrov	Qism–butun, dinamik–statik farq
3	Uslubiy registr	Ruxsat, jamoat, tantanavor, rasmiy/norasmiy kontekst
4	Konnotativ qatlam	Estetik, emosional, intensiv yuklama
5	Etimologik ildiz	So‘z ildizining tarixiy-genealogik asoslari
6	Korpus taqsimoti	Janr, domen, chastotaviy xususiyatlar

Sinonimik birliklarni tahlil qilish modeli



Muhokama. Tadqiqot natijalari arab tilida mutlaq sinonimiya mavjud emasligini yana bir bor tasdiqladi. O‘rganilgan barcha so‘z juftliklarida ma‘no, uslub yoki konnotatsiya jihatidan hech bo‘lmaganda bittadan farqlovchi xususiyat aniqlandi. Bu holat nafaqat arab tili, balki barcha tabiiy tillarga xos ekanini nazariy manbalarda ko‘rish mumkin. Masalan, Lyons (1981) *tilda mutlaq ma‘no birligining yo‘qligini, ikki so‘z butunlay bir xil mazmunga ega bo‘lsa, bu ortiqchalikka olib kelib, til tizimi buni ko‘tarmasligini* ta’kidlagan edi [Lyons, 1981, p. 148]. Cruse (1986) ham *tabiat bo‘shliqni yoqtirmagani kabi, tillar ham mutlaq sinonimlarni yoqtirmaydi*, deya ta’rif beradi [Cruse, 1986, p. 270]. Bizning kuzatishlarimiz ham ayni xulosani tasdiqlaydi. Quyida keltirilgan misollar orqali arab tilidagi sinonimik birliklarning aslida yaqin ma‘nodosh ekanligi, ularning o‘ziga xos mikrosemiotik niqoblari borligi yoritib beriladi.



Qur'oni Karim arab tili leksik va semantik boyligining yuksak namunasi bo'lib, undagi ifoda vositalari faqat diniy mazmunni yetkazish bilangina cheklanmay, balki badiiy-estetik ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Muqaddas matnni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etar ekanmiz, Qur'on lug'atida to'liq sinonimiyadan ko'ra, yaqin ma'nodosh so'zlar tizimining ustuvorligi ayonlashadi. Bunday holat Qur'on oyatlaridagi tasviriy kuch va semantik aniqlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Jumladan, "Al-Qori'a" surasining 5-oyatida quyidagi ifoda uchraydi:

"*Va tog'lar esa titilgan yung kabi bo'lur*" [Qori'a, 101:5].

وَتَكُونُ الْجِبَالُ كَالْعِهْنِ الْمَنفُوشِ

Mazkur oyatda tog'larning qiyomat kuni qanday holatga kelishi tasvirlanadi. Bu yerda ishlatilgan *عِهْنٌ* ('ihn) so'zi tarjimalarda odatda "yung" deb beriladi. Shuningdek, arab tilida mazkur ma'noga yaqin bo'lgan yana bir leksema - *صُوفٌ* (şūf) mavjud. Har ikkisi ham "jun" yoki "yung" degan umumiy ma'noga ega bo'lsa-da, Qur'onda aynan 'ihn so'zining tanlanishi semantik va konnotativ farqlarning mavjudligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

— 'Ihn (*عِهْنٌ*) - tabiiy yoki bo'yalgan rangdagi, taralgan, engil, havoda uchishga moyil bo'lgan, dinamik holatdagi yungni bildiradi. "Manfūsh" (titilgan) sifatlagichi bilan birgalikda ushbu leksema tog'larning harakatdagi, parokanda va tarqalayotgan holatini ifodalash uchun ishlatilgan. Bu tasvir holatning intensiv dinamikasini ochib beradi.

— Şūf (*صُوفٌ*) - tarallanmagan, zich, statik holatdagi, asosan ip yigirish yoki kiyim to'qish uchun mo'ljallangan oddiy junni anglatadi. U semantik jihatdan materiyal holatidagi, og'irroq va shaklini saqlagan jun obrazini ifodalaydi.

Demak, mazkur oyatda şūf emas, balki 'ihn so'zining qo'llanishi Qur'on matnining badiiy ifoda aniqligini oshiradi. Agar oyatda şūf ishlatilganida, tog'larning havoda tarqalayotgan, harakatdagi holati yetarlicha ta'sirli tasvirlanmagan bo'lar edi.

Bu holat Qur'oni Karimda sinonim leksemalar orasidagi semantik tafovutlarning nozik tahlilini talab etishini ko'rsatadi. O'zaro yaqin ma'noli so'zlarning konnotativ jihatlari tarjima va tafsir jarayonida e'tibordan chetda qolsa, matnning ma'no qatlamlari va badiiy-estetik kuchi sezilarli darajada boy berilishi mumkin. Shuning uchun Qur'on tilidagi bunday nozikliklarni chuqur tahlil qilish nafaqat tarjimon, balki mufasssirlar zimmasidagi ilmiy mas'uliyatdir.

Ba'zan turkiy va arab tillarida yoki arab va boshqa tillarda shaklan o'xshash so'zlar uchraydi. Bunday holat ularning sinonimligi degani emas, balki ko'pincha genetik qarindoshlik yoki lingvistik ta'sir alomatidir. Masalan, o'zbek tilidagi *men* va *sen* kishilik olmoshlari bilan fin tilidagi "*minä*" (*men*) va "*sinä*" (*sen*) o'rtasida fonetik o'xshashlik borligi aniqlangan. Bu, albatta, ikki til qarindoshligi belgisi bo'lib, ularning bir oilaga mansubligidan darak beradi (turkiy va fin-ugor tillar qadim aloqalari). Ammo bu o'xshashlikni sinonimiya deb bo'lmaydi, zero gap ikki til materiallari haqida ketmoqda va ularning har biri o'z tizimidagi alohida birlikdir.

Shunga o'xshash, arab tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlar o'zbek tilida sinonimlar qatorida keltirilsa-da, aslida ular ma'no intensiivligi yoki uslubiy jihatdan farqlanadi. Misol uchun, arab tilidan kirib kelgan *دِد* (*didd*) so'zi o'zbekchada *zid* shaklida ishlatiladi va mutlaq qarama-qarshilik ma'nosini bildiradi. Bu so'z ilk ma'nosida fizik yoki metafizik mutanosib qarshilikni ifodalaydi: *ضِدَانٌ لَا يَجْتَمَعَانِ*. Ikki *zid* narsa bir joyga sig'mas, degan arabcha maqolda *didd* so'zi yorug'lik va zulmat, issiq va sovuq kabi mutlaqo bir paytning o'zida mavjud bo'la olmaydigan hodisalarni ta'riflagan. O'zbek tilida esa *qarshi*, *qarama-qarshi* so'zlari nisbatan qarshilik, mavhum ziddiyat yoki yuzlanish yo'nalishlari qarama-qarshiligini bildiradi. Masalan, "Uning fikri menga qarshi edi" jumlasida *qarshi* so'zi



shunchaki nomuvofiqlik ma'nosida, vaqti kelib murosas mumkin bo'lgan holatni anglatadi. Zid so'zi esa, odatda, mafkuraviy yoki prinsipial qarama-qarshiliklarda qo'llanadi: *Zid kuchlar to'qnashdi, zid fikrlar bahsga sabab bo'ldi*. Demak, arabcha *qidd*ning ma'no doirasi o'zbekcha *qarshidan* keng va kuchliroq, o'zbek tilida ham *qarshi*, ham *zid* so'zlari mavjud bo'lib, ular sinonim emas - *qarshi* kengroq, *zid* esa torroq va kuchliroq ma'no ifodalaydi.

Bunday etimologik tahlil shuni ko'rsatadiki, hatto o'zbek tiliga kirib kelgan arabcha so'z ham mahalliy sinonimik qatorlarda o'ziga xos o'rin egallaydi. Arab tilidagi sinonimlarning kelib chiqishiga doir yana bir misol - rang ma'nosidagi leksemalar. Masalan, arabchada *بَيْضَاء* (*baydā'*) - oq rangni anglatadi, fors tilida *سِيَاه* (*siyāh*) - qora rang. Bu so'zlar o'zbek tiliga oppoq va siyoh shaklida kirib, juda ham oq hamda qora ma'nolarida ishlatiladi. Biroq ular o'zbek tilining o'z mahalliy so'zlari oq va qora bilan uslubiy jihatdan bir xil emas. Masalan, *qora sevgi* iborasi og'zaki nutqda chuqur, g'amgin muhabbat ma'nosini bersa (so'zlovchi buni "qora majnun" ifodasiga o'xshatib ishlatishi mumkin), *siyoh sevgi* shakli begona eshitiladi. Xuddi shuningdek, *oq yo'l* (xayrli yo'l tilash) oddiy, *oppoq yo'l* esa badiiy-uslubiy tusga ega bo'lishi mumkin. Demak, *baydā'* - oq va *siyāh* - qora juftliklarida ham kelib chiqish (arabcha, forscha, o'zbekcha), ham uslubiy registr (adabiy, so'zlashuv) jihatdan farqlar mavjud.

Arab tilidagi ko'plab ma'nodosh so'zlar aslida turli ildizlardan hosil bo'lib, ularning semantik farqlari aynan shu etimologik asos bilan belgilanadi. Ibn Jinnī *الخصائص* *Al-Khasā'is* asarida arab tilidagi ildiz tizimi so'z ma'nosiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi [Ibn Jinnī, 1952].

Masalan, qadimgi arab lahjasidagi *كَرَنَ* *karnā*, to'planmoq fe'li va adabiy arab tilidagi *جَمَعَ* *jami'a*, to'plamoq o'zaro semantik yaqinlikka ega bo'lsa-da, ular har xil ildizlarga tayanadi. Ularning zamonaviy shakllari - *تَكَرَّرَ* *takrār* va *تَجَمَّعَ* *tajmi'* uslubiy jihatdan farqlanadi: *takrār* rasmiy yoki tantanali kontekstda, *tajmi'* esa texnik yoki oddiy yig'ish ma'nosida qo'llanadi.

Bu holat arab tilidagi sinonimik qatlamning faqat zamonaviy semantika bilan emas, balki tarixiy-etimologik asoslar bilan shakllanganini ko'rsatadi. Shakliy yaqinlikdan qat'i nazar, ildiz komponenti ma'no va qo'llanish uslubini belgilovchi asosiy omildir.

Sinonimik birliklarni farqlashda kontekstual muhit va pragmatik vazifa hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, buyruq maylidagi fe'llar tahlilida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, arab tilida "o'tir" mazmunini ifodalovchi ikki fe'l mavjud: *اَجْلَسَ* (*ijlis*) va *اَقْعَدَ* (*uq'ud*). Ikkisi ham denotativ jihatdan o'tirish harakatini bildiradi, ammo qo'llanish sharoiti va sub'ektning boshlang'ich holati ularni semantik jihatdan farqlaydi.

— *اَجْلَسَ* (*ijlis*) - yotgan yoki egilgan holatdan tik holatga o'tib o'tirishni bildiradi.

Masalan:

كان الطفلُ مُسْتَلْقِيًا عَلَى الْأَرْضِ، قَالَتْ لَهُ أُمُّهُ: اجْلِسْ بجانبي - *Bola yerda yotardi, onasi unga dedi: 'Yonimga o'tir!'*

Bu yerda sub'ekt yotgan holatda bo'lib, harakat yuqoriga yo'naltirilgan.

— *اَقْعَدَ* (*uq'ud*) - tik turgan holatdan pastga tushib o'tirishni bildiradi.

Masalan:

دَخَلَ الرَّجُلُ الْغُرْفَةَ وَاقِفًا، فَقَالَ لَهُ الْمَدِيرُ: اقْعِدْ هُنَا، سَنَبْدَأُ الْاجْتِمَاعَ - *Erkak xonaga tik kirib keldi, direktor unga dedi:*

'Bu yerga o'tir, yig'ilishni boshlaymiz.

Bu holatda sub'ekt tik turgan, buyruq esa uni pastga — o'tirishga undaydi.

Lokutiv pozitsiya (sub'ekt holati) va pragmatik vazifa mazkur fe'llarning sinonim emasligini ko'rsatadi. *Ijlis* yumshoqroq, odatda yaqin munosabatdagi suhbatlarda ishlatiladi; *uq'ud* esa ko'proq rasmiy va amr ohangida qo'llanadi. Ingliz tilida ikkisi ham "Sit down" deb tarjima qilinsa-da, arab tilidagi nozik pragmatik farq tarjimada yo'qolishi mumkin. Shuning uchun sinonimik fe'llarni to'g'ri anglash uchun faqat leksik ma'no emas, balki pragmatik kontekst ham e'tiborga olinishi lozim.

Shunday nozik farqlar tufayli arab tili o'zining boy ifoda imkoniyatlarini saqlab qoladi - har bir vaziyatga monand so'z tanlash imkoniyati yaratiladi. Yana bir o'rganilgan juftlik الإِذْنُ (*idhn*) va الإِجَازَةُ (*ijāza*) leksemalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikkalasi ham umumiy jihatdan *ruxsat* degan ma'noni bildiradi, biroq semantik va pragmatik vazifalari jihatidan farqlanadi.

Nuriddin al-Jazā'irī o'zining *فروق اللغة* risolasida bu farqni quyidagicha izohlaydi: الإِذْنُ - amal boshlanishidan oldin beriladigan ruxsatdir. U harakatga *yo'l ochuvchi* signaldir. Masalan, Qur'onda: فَإِذَا أَسْتَأْذَنُوكَ لِبَعْضِ شَأْنِهِمْ فَأُذِنُ لِمَنْ شِئْتَ مِنْهُمْ (an-Nur, 24:62) Agar ular ba'zi ishi uchun sendan izn so'rasalar, istaganingga ruxsat ber"). Bu yerda *idhn* - harakat oldidan olinadigan iznni bildiradi.

Aksincha, الإِجَازَةُ - amal yakunlangach yoki bajarilgach beriladigan tasdiq ruxsatidir. U *tasdiqlash*, *ma'qullash* vazifasini bajaradi. Masalan, hadis ilmi yoki qiroatda *ijāza* talabaga matnni to'liq o'qib chiqqandan so'ng beriladigan yozma ruxsat shaklida ishlatiladi. Bu holatda ustoz ijaza berish orqali ilmiy nasabni tasdiqlaydi.

Demak, *idhn* va *ijāza* o'rtasidagi asosiy tafovut - vaqt va funksional maqsad farqidir: *idhn* – boshlovchi ruxsat, *ijāza* - yakunlovchi tasdiq. Har ikkisi tarjimada *ruxsat* deb berilishi mumkin, biroq asl matnning mantiqiy oqimi va kommunikativ niyati saqlanishi uchun bu nozik farqlarni sharhlash zarur.

Shu bilan, sinonimik birliklar arab tilida ko'pincha turli pragmatik rollarni bajaradi. Bu farqlanish nafaqat tilshunoslik tahlilida, balki tarjima, nutq uslubi va NLP (natural language processing) sohalarida ham amaliy ahamiyatga ega. Lug'aviy yaqinlik ortida yotgan kommunikativ kontekst va maqsadni hisobga olish, tilning aniqligini ta'minlovchi muhim omildir.

Yuqoridagi misollar tahlilidan kelib chiqib, arab tilidagi sinonimiya fenomenini quyidagicha izohlashimiz mumkin: har bir leksema o'ziga xos semantik niqobga ega bo'lib, u boshqa yaqin ma'nodosh leksema bilan taqqoslaganda alohida qirralarni namoyon qiladi. Bu qirralar etimologik ildiz, tarixiy rivojlanish, pragmatik vazifa va kontekstual qo'llanilish orqali namoyon bo'ladi.

Tilshunoslik nazariyasida sinonimiya ko'p yillar davomida ikki qarama-qarshi nuqtai nazardan baholangan. Ba'zi nazariyotchilar sinonimiyani muammo emas, deb hisoblab, *agar sinonimlar bo'lsa, ular ma'noda butkul aynan bir xil va muammo tug'dirmaydi bo'lmasa, har bir so'zni alohida o'rganaveramiz*, deya yuzaki yondashgan. Biroq bugungi izlanishlar ko'rsatmoqdaki, sinonimiya ham xuddi polisemiya o'xshash murakkab hodisa bo'lib, leksik ma'nolar tizimiga chuqur ta'sir o'tkazadi. Masalan, kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimasi sohasida sinonimik tanlovlar juda katta ahamiyatga ega biror so'zning tarjimasini tanlashda uning nozik ma'no pardalarini inobatga olish zarur bo'ladi [Hirst & DiMarco, 2002, p. 107]. Tadqiqotchilar Hirst va DiMarco (2002) ingliz tilidagi *blunder, mistake, error, slip* kabi yaqin ma'noli so'zlarni farqlab tarjima qilish masalasini tahlil qilib, to'g'ri so'zni tanlash uchun sinonimlarning barcha nuanlarini hisobga olish lozimligini ta'kidlaganlar [Hirst & DiMarco, 2002, p. 107]. Bu esa, o'z navbatida, sinonimiya beozor muammo emas, balki hal etilishi lozim bo'lgan lingvistik jumboq ekanini ko'rsatadi.


Yevropa tilshunosligida ham sinonimiya masalasi uzoq tarixga ega. Leonard Bloomfield (1933) o'zining *Language* asarida *agar ikki so'z butunlay bir xil vazifani bajarsa, til ulardan birini bekor qiladi yoki ma'nosini o'zgartiradi*, deb yozgan edi. Bu fikrni keyinchalik John Lyons (1968; 1981), Geoffrey Leech (1974) kabi semantiklar ham rivojlantirib, deskriptiv sinonimiya va kognitiv sinonimiya tushunchalarini kiritdilar. Ullmann (1962) esa *ma'no pardalari* nazariyasini ilgari surib, sinonimlar faqat markaziy semantik xususiyatlari mos kelishi, boshqa jihatlarda esa ajralishini ta'kidladi. Masalan, Ullmann (1962) fikricha, *ikki so'z ma'nosi mutlaqo bir xil bo'lishi deyarli mumkin emas* - ular faqat asosiy denotativ ma'noda bir-biriga mos kelishi mumkin, biroq baribir konnotativ, uslubiy yoki boshqa komponentlarda farqlanadi. Bugungi kunda D. A. Cruse (2000) sinonimiyani absolyut, kognitiv va yaqin sinonimiya kabi turlarga ajratib o'rganishni taklif qilgan [Cruse, 2000, p.



157]. Unga ko'ra, mutlaq sinonimlar deyarli yo'q (faqat ba'zi dialektlarda yoki terminlarda uchrashi mumkin) - ya'ni absolyut sinonimiya juda nodir hodisa; kognitiv sinonimlar - faqat asosiy, proposition ma'nosi bir xil bo'lganlar (masalan, *student* ~ *pupil* ingliz tilida), yaqin sinonimlar (plesionimlar) esa - ma'nosi juda yaqin, biroq baribir konnotativ yoki uslubiy tafovuti bor birliklardir [Cruse, 2000, p. 157]. Ko'rinib turibdiki, g'arb semantikasida ham sinonimik munosabatlar nisbiylik darajasida ko'riladi va "mutlaq sinonim mavjud emas" degan xulosaga kelinadi (Lyons, 1981, p. 148; Cruse, 1986, p. 270).

Arab tilshunosligining zamonaviy namoyandalari ham klassik an'anani zamonaviy nazariya bilan boyitgan holda sinonimiyaning chuqur tahlil qilmoqdalar. Masalan, D. Muḥammad Nūr al-Dīn al-Munajjid (1997) "*Qur'onda sinonimiya nazariya va amaliyot*" nomli monografiyasida Qur'oni karimdagilarning yaqin ma'noli so'zlarni o'rganib, ko'plab holatlarda oyat mazmuni sinonim tanlash orqali o'ta nozik tarzda o'zgaralishini isbotlagan. Xususan, u Qur'onda Allohning qudratini ifodalovchi bir nechta atamani tahlil qilib, ularning har biri (masalan, *quwwa*, *jabarūt*, *qudra*) turli registr va konnotatsiya kasb etishini ko'rsatadi. Yana bir tadqiqotchi M. al-Shay'a (1993) esa o'z asarida lingvistik farqlarning Qur'on tafsiriga ta'sirini ko'rsatib, bir-biriga yaqin so'zlarni chalkashtirib tafsir qilish xatolariga olib kelishini ta'kidlaydi. M. al-'Alwānī (1981) esa *Tilshunoslikda sinonimiya va farqlar* haqidagi maqolasida qadimgi arab olimlari qarashlarini zamonaviy til nazariyasi bilan qiyoslab, qadimgilar *vagueness*ni bartaraf etishga intilganini, zamonaviylar esa ayni hodisani kognitiv nuqtai nazardan o'rganayotganini qayd etadi. Shuningdek, bugungi arab tilshunosligida turli yo'nalishlar qo'shilishi kuzatilmoqda: *usul al-fiqh* (islom huquqshunosligi) olimlari az-Ziyādī va boshqalar - shar'iy matnlardagi lafzlar nozik farqlarini ("*mutarādif*" va "*mutawātir*" atamalarini orqali) tahlil qilgan bo'lsa, dunyoviy tilshunoslar - Belkin (1975) va Grande (2001) kabi rus arabshunoslari - arab tilining leksik boyligini sinonimiya hodisasini struktural va tarixiy-qiyosiy nuqtai nazarda o'rganib, arab tilida *mutloq* va *nisbiy sinonimlar* farqlanishini nazariy jihatdan ishlab chiqqanlar [Belkin, 1975, p. 45; Grande, 2001, p. 53]. K. Brockelmann kabi yevropalik sharqshunoslar arab tilining lug'at boyligini tasvirlar ekan, 100 ta qilich nomi yoki 50 ta asal nomi borligini hayrat bilan qayd etgan va buning til sistemasiga ta'sirini eslatib o'tgan [Brockelmann, 1908]. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi sinonimiya masalasi interdisciplinar ahamiyatga ega: u nafaqat sof til nazariyasi, balki tarjima nazariyasi, matnshunoslik, kompyuter lingvistikasi va hatto mantiq (logika) sohalariga ham taalluqli. Chunki so'z ma'nolarining aniqligi huquqiy hujjatlarni tushunishdan tortib sun'iy intellekt algoritmlarini yaratishgacha bo'lgan jarayonlarda hal qiluvchi omil sanaladi.

Xulosa. Tadqiqotning maqsadi - arab tilida sinonim deb qaraladigan leksemalar o'rtasidagi mikrosemiotik tafovutlarni aniq mezonlar asosida ko'rsatish — to'liq amalga oshirildi va "mutlaq sinonimiya mavjud emas", degan gipoteza tasdiqlandi. Chuqur tahlil qilingan juftliklar (عَهْنُ ~ صُوفُ; (الْبَدْنُ ~ الْجَسَدُ; الإِدْنُ ~ الإِجَارَةُ; اِجْلِسْ ~ افْعُدْ) denotativ, konnotativ, uslubiy va pragmatik qatlamlarda muntazam farqlanishini ko'rsatdi. Ishda ishlab chiqilgan kompozit mezonlar tizimi (vaqt/aktant, denotativ qamrov, uslubiy registr, konnotativ qatlam, etimologik ildiz, korpus taqsimoti) klassik furūq al-lug'awiyya merosini zamonaviy semantika va pragmatika bilan muvaffaqiyatli sintezlashga xizmat qildi. Natijalar tarjimashunoslik, leksikografiya, tafsirshunoslik va NLP da sinonimik birliklarni farqlash, ma'no aniqligini oshirish va avtomatik belgilash jarayonlari uchun operatsion asos yaratadi. Kelgusida modelni kengroq korpuslar, diaxron-dialektal kesim va taqsimiy-semantik (embeddings) yondashuvlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.





ARAB TILIDA TERMINOLOGIK O'ZLASHTIRISHNING LEKSIKOLOGIK MUAMMOLARI: TARJIMA, KALKALASH VA FONOLOGIK O'ZLASHMALAR (TILSHUNOSLIK TERMINLARI MISOLIDA)

SALOXIDDIN QURBONOV

Tayanch doktarant, TDSHU

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilida terminologik o'zlashmalarni tarjima qilish jarayonida uchraydigan leksikologik muammolarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda, ayniqsa, xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishda qo'llaniladigan to'g'ridan-to'g'ri tarjima, kalkalash (ma'nodosh struktura asosida tarjima qilish) va muqobil termin tanlash kabi asosiy yondashuvlarning afzallik va cheklovlari tahlil qilinadi.

Maqolada arab tilining semantik, morfologik va uslubiy xususiyatlari hisobga olingan holda, yangi terminlarning ma'nodagi aniqliligi, kontekstga mosligi va tizimga integratsiyalashuvi baholanadi. Shuningdek, sinonim terminlar orasida tanlov qilishda yuzaga keladigan semantik tafovutlar, ko'pma'nolilik va ijtimoiy-lingvistik omillar ko'rib chiqiladi. Misollar orqali hozirgi zamon ilm-fan, texnika va ijtimoiy sohalarda faol qo'llanilayotgan terminlar bilan bog'liq tarjima muammolari yoritiladi. Ushbu maqola arab tilshunoslari, tarjimonlar, terminologlar va lug'at tuzuvchilar uchun amaliy va nazariy jihatdan foydali bo'lgan ilmiy xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: arab tili, terminologik o'zlashma, tarjima, kalkalash, muqobil termin, sinonimiya, leksikologik muammo.

Annotation. This article is devoted to the study of lexicological problems encountered in the process of translating terminological assimilation into Arabic. The study analyzes the advantages and limitations of the main approaches used in adapting foreign terms to the Arabic language, such as direct translation, calque (translation based on a synonymic structure) and the selection of alternative terms. The article evaluates the semantic clarity, contextuality and integration of new terms into the system, taking into account the semantic, morphological and stylistic features of the Arabic language. It also examines semantic differences, polysemy and sociolinguistic factors that arise when choosing between synonymous terms. Examples illustrate translation problems associated with terms that are actively used in modern science, technology and social spheres. This article presents scientific conclusions that may be useful in practice and theory for Arabic linguists, translators, terminologists and lexicographers.

Keywords: Arabic language, terminological acquisition, translation, calculus, alternative term, synonymy, lexicological problem.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению лексикологических проблем, возникающих при переводе терминологической ассимиляции на арабский язык. В исследовании анализируются преимущества и ограничения основных подходов, используемых при адаптации иноязычных терминов к арабскому языку, таких как прямой перевод, калькирование (перевод на основе синонимической структуры) и подбор альтернативных терминов. В статье оцениваются семантическая ясность, контекстуальность и интегрированность новых терминов в систему с учетом семантических, морфологических и стилистических особенностей арабского языка. В статье также рассматриваются семантические различия, полисемия и социолингвистические факторы, возникающие при выборе синонимичных терминов. Приведены примеры, иллюстрирующие проблемы перевода терминов, активно используемых в современной науке, технике и социальной сфере. В статье представлены научные выводы, которые могут быть полезны как в теории, так и на практике арабским лингвистам, переводчикам, терминологам и лексикографам.

Ключевые слова: арабский язык, терминологическое усвоение, перевод, исчисление, альтернативный термин, синонимия, лексикологическая проблема.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot asrida barcha sohalarda yangidan-yangi tushunchalar va terminlar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, ilm-fan, texnika, huquq va ijtimoiy hayotda yuz berayotgan jadal o'zgarishlar turli tillarda xususan, arab tilida bu tushunchalarni ifodalash uchun samarali va tizimli terminologik yondashuvlarni taqazo qiladi. Arab tilida xorijiy terminlarni o'zlashtirishda ko'plab leksikologik muammolar yuzaga chiqmoqda. Bu muammolar, asosan, o'zlashgan so'zning semantik aniqligi, kontekstga mosligi va kontekstual uyg'unligi bilan bog'liqdir. Arab tilshunosligi terminologik o'zlashmalarni tarjima qilishda to'g'ridan-to'g'ri tarjima, kalkalash (loan translation) va muqobil termin tanlash kabi usullar keng qo'llaniladi. Ammo bu usullar ko'plab hollarda sinonimiya, ko'pma'nolilik va madaniy tafovutlar sababli yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

Ushbu maqolada arab tiliga terminlarni o'zlashtirishda uchraydigan leksik muammolar nazariy va amaliy asosda o'rganiladi. Terminologik tarjima, kalkalash va muqobil termin tanlash usullarining samaradorligi, ularning afzallik va cheklovlari, shuningdek, arab tilining leksik-sistematik imkoniyatlari doirasida tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi arab terminologik tizimini boyitishda ilmiy asoslangan yondashuvlar taklif qilish hamda leksikologik uyg'unlik va standartlashtirish zarurligini asoslab berishdir.

Metod. Ushbu maqolada arab tilida xorijiy terminlarni o'zlashtirishda qo'llaniladigan tarjima, kalkalash va muqobil termin tanlash usullarini leksikologik jihatdan o'rganish uchun deskriptiv-analitik (tasviriy-tahliliy), diskursiv yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida arab tilshunosligi, tarjimashunoslik, terminologiya nazariyasi va korpus lingvistikasi sohasidagi ilmiy adabiyotlar o'rganildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, arab tilida terminlarni tarjima qilishda yagona yondashuv yoki qat'iy standartlashtirish tizimiga moyil bo'lib olish yetarli emas. Tarjima va kalkalash usullari ba'zida semantik noaniqliklar, ko'pma'nolilik va sun'iylikka olib kelmoqda. Bu terminlar birligining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, terminologik o'zlashmalarda kontekstga mos, standartga yaqin va semantik jihatdan aniqlikni ta'minlaydigan, arab tilining leksikologik, terminologik hamda, ishtiyoq, tavlid kabi so'z yasash usullariga ijodiy yondashuvlar qo'llanilishi zarur. Tarjima va kalkalash asosida yaratilgan terminlar, ayniqsa, bir tushuncha uchun bir nechta arabcha muqobil mavjud bo'lgan hollarda sinonimiyaning kuchayishiga, bu esa terminlar tizimida semantik chalkashlik va normativ noaniqliklarga sabab bo'layotganini ko'rsatdi. Bularning oldini olish uchun termin ishlab chiqilayotgan soha va uning o'qitilish jarayoni, soha egalarining til bilan bog'liq tushunchaviy ko'nikmalarini oshirish zarur.

Muhokama. Har kuni turli soha mutaxassislari tomonidan o'nlab, ehtimol yuzlab yangi terminlar yaratiladi. Bu terminlarning ko'pi "umumiy" tilga, ya'ni oddiy so'zlashuv tili va umumiy lug'atlarga kirib boradi. So'nggi yillarda bu hodisa sezilarli darajada kuchaydi. Hassan Hamza o'zining "Terminology and translation in Arabic – Shared aspects and conflictual relationships" maqolasida Meyer va Makintoshga tayanib Landau shunday taxmin qilganini keltiradi: "Asosiy lug'atlardagi so'zlarning 40 foizidan ortig'i terminlardan iborat, holbuki terminlarning mavjudligi leksikograf (lug'at tuzuvchi) uchun unchalik muhim masala emas" [Landau, 2000, 201-bet].

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi bir tilli lug'atlar, shuningdek, fransuzcha-arabcha yoki arabcha-fransuzcha ikki tilli lug'atlarda ham terminlarning umumiy ulushi yuqori. Masalan, Abdel-Nour (1983) tomonidan tuzilgan fransuzcha-arabcha "al-Manhal" ikki tilli lug'atidagi so'zlarning deyarli to'rtidan biri terminlardan iborat. Bunga qarama-qarshi tarzda, arabcha bir tilli lug'atlar, shuningdek, arab tili manba til bo'lgan ikki tilli lug'atlarda esa terminlar sezilarli darajada kamroq: atigi taxminan 15 foiz.



Nega arabcha manba til bo'lgan lug'atlarga qaraganda, arab tili nishon til bo'lgan ikki tilli lug'atlardagi terminlar ancha ko'p? Bu o'rinda masalaning to'rtta mumkin bo'lgan sababini ko'rib chiqilgan:

1. Bugungi kunda arab tili ilmiy-texnik taraqqiyot va bilim tarqatishga faqat cheklangan darajada hissa qo'shmoqda. Shuning uchun, arab tili asosiy yoki manba tili bo'lgan lug'atlarda terminlar ko'p bo'lmaydi.

2. Arab dunyosidagi ta'lim odatda xorijiy tillarda olib boriladi. Bu holat aniq fanlar (aniq-ilmiy yo'nalishlar) uchun ham, shuningdek, ko'plab gumanitar va ijtimoiy fanlarga ham tegishlidir. Shu sababli, xorijiy tillarga oid lug'atlarda terminlar ko'proq bo'ladi.

3. Arab lug'atshunoslik an'alarida ko'pincha "so'z" bilan "leksik birlik" o'rtasida chalkashlik yuz beradi. Bu chalkashlik arab tilining tarixiy tilshunoslikdagi so'zning og'irlik darajasi (ahamiyati) bilan bog'liqdir [Hamzé, 2013, 14-bet]. Natijada, bir tilli lug'atlarda qo'shma (murakkab) terminlar yo'q yoki faqat kichik submodda sifatida keltiriladi.

4. Ikki tilli lug'atlardagi ko'plab arabcha ekvivalentlar aslida to'liq termin emas, balki izoh yoki ta'rif ko'rinishidadir. Shu sababli, ular mustaqil termin sifatida shakllanmagan va lug'at moddalari orasida uchramaydi.

Termin yaratish (ya'ni yangi terminlar yasash) ilmiy va texnik taraqqiyot hamda turli sohalarda mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi tushunchalarning yuzaga kelishi bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq arab tilida termin yaratish ko'pincha faqat tarjimaga asoslanib qolmoqda. Bu holat faqat arab tiliga xos emas, balki ko'plab uchinchi dunyo tillariga ham taalluqli. Fransuzcha-arabcha ikki tilli lug'atda terminlarning yuqori zichligi kuzatiladi; bu esa arabcha bir tilli lug'atlar va arabcha-fransuzcha ikki tilli lug'atlar bilan solishtirilganda arab tilida terminologiya va tarjima o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, fransuzcha-arabcha lug'at terminlar borasida ancha boy hisoblanadi. Barcha mamlakat – til egalari qatori, arab tili ham mahsulotlarni, tushunchalarni va shu bilan birga terminologiyani import qilmoqda. Ularni o'zlashtirib, (lingvistik jihatdan), moslashtirilmoqda yoki ularga arabcha ekvivalentlar yaratishga urinilmoqda. Bu jarayon avval ikki tilli lug'atlardan boshlandi, so'ngra asta-sekin bir tilli (arabcha) lug'atlarga o'tib bormoqda. Qadimgi davrlarda, ya'ni VIII asrda, yunon merosining bir qismi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita suryoniy tili orqali arab tiliga tarjima qilingan, so'ngra bu ilmiy meros rivojlantirilib, lotin tiliga va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan [Ibnn Murod va Hamza, 2010]. Zamonaviy davrda esa "ma'rifiy uyg'onish" deb nomlanuvchi shunga o'xshash jarayon arab dunyosida yuzaga keldi. XIX asrda, arab olimlari Yevropa tillaridan, xususan fransuz va ingliz tillaridan arab tiliga tarjima qilishni boshladilar.

Bayrutdagi Amerika universiteti hamda Misrdagi Tibbiyot fakulteti kabi oliy o'quv yurtlari o'z fanlarini, shu jumladan tibbiyot, muhandislik va qishloq xo'jaligi kabi aniq fanlarni ham arab tilida o'qitganlar. Bundan tashqari, Misrdagi Tibbiyot fakultetida fransuz professorlari tomonidan o'qitilgan darslar arab tiliga tarjima qilinib, talabalarga taqdim etilgan [al-Khoury, 1989, 1:189].

Natijada ko'plab ilmiy terminlar tarjima yo'li bilan zamonaviy arab tiliga kirib keldi.

Arab tilida termin hosil qiluvchi tarjima jarayoni uch xil shaklda amalga oshadi:

Birinchii shakl bu ilmiy va texnik asarlarning yangi tushunchalarni o'z ichiga olgan matnlarining arab tiliga bilvosita tarjima qilinishidir. Ya'ni, arab tilida mustaqil tarzda darsliklar yozadigan, maqolalar tayyorlaydigan, jurnal va kitoblar nashr qiladigan mualliflar amalda o'zlari zarur deb hisoblagan terminologiyani ishlatishda bilvosita tarjima shaklidan foydalanadilar. Bunday mualliflar yangi tushunchalar bilan avvalo ular yaratilgan xorijiy tillar orqali tanishganliklari sababli, bu xorijiy atamalar va terminlar ularga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ular ishlatadigan arabcha terminlar

ham, bir yo'li bilan, xorijiy terminlarning tarjimasini hisoblanadi. XIX asrning birinchi yarmida yozilgan asarlardan biri bu bilvosita tarjima jarayonini yaqqol ifodalaydi. Masalan, Rifā'a at-Tahtāwiy o'zining "Tahlīs al-Ibrīz" asarida ko'plab yangi arabcha terminlar orqali ifodalangan tushunchalarni o'zi yaratgan. U kirish qismida ta'kidlaganidek, bu kitobni Parijga qilgan safarining tafsilotlari, u yerda boshidan kechirgan voqealar va ilm-fan hamda san'atlar haqidagi tasvirlar asosida yozgan [2001, 6–7-betlar]. U o'z tasvirlarida fransuz tilidan mazkur fan va san'atlarga oid barcha asosiy tushunchalar va terminlarni olgan va ularni arab tilida qayta ifodalash, ya'ni tarjima qilishga harakat qilgan. Rifā'a at-Tahtāwiy Parij safarini tasvirlayotgan asarining dastlabki satrlaridanoq, Marsel portiga yetib kelganida duch kelgan voqea – karantin haqida yozadi. Bu tushuncha o'sha davr arab tilida umuman ekvivalentga ega emas edi. Kitobda u shunday yozadi: "Qayiqdan tushganimizda, kichik qayiqlarga o'tirdik va shahardan tashqarida karantinga mo'ljallangan bir uyga yetib bordik", u bu yerda "karantīnat" so'zini ishlatadi [2001, 53]. U darhol ushbu qarz olingan terminni ishlatadi va qisqacha tushuntiradi, shuningdek, hatto fransuz tilida mavjud bo'lmagan yangi arabcha fe'l – *kartana* (قرطن) yasaydi. Izoh sifatida u shunday yozadi: "G'arbga kelgan har qanday chet ellik *"lā budda min 'an yukartana"* – karantinga qo'yilishi shart," deb qayd etadi.

Tarjimaning ikkinchi shakli bu ikki yoki uch tilli lug'atlar, leksikonlar va izohli so'zliklarda – ixtisoslashgan bo'ladimi yoki umumiy amalga oshiriladigan yarim-to'g'ridan-to'g'ri tarjima shaklidir. Biz bu shaklni "yarim-to'g'ridan-to'g'ri" deb ataymiz, chunki bu holatda lug'at tuzuvchi (leksikograf) real muloqotdagi nutqni tarjima qilishga urinmaydi, balki ikki til o'rtasidagi muvofiqliklarni (mos tushunchalarni) aniqlashga intiladi.

Arabcha ikki tilli lug'atlar va leksikonlar yangi yaratilgan (neologik) terminlar bilan to'lib-toshgan. Bu ish ko'pincha amalda ishlatilayotgan arabcha terminlarni qayd etishdan iborat emas, sababi bu lug'atlar ko'pincha korpus asosida tuzilmagan. Aksincha, lug'at tuzuvchilar o'zlari arabcha terminlarni taklif qiladi va ularni nishon tilidagi ekvivalent sifatida qabul qiladi. Internetda chop etilgan yoki nashr qilingan arabcha-fransuzcha yoki arabcha-inglizcha ikki tilli lug'atlar hamda lingvistik terminologiyaga oid ixtisoslashgan leksikonlarda bitta ingliz yoki fransuzcha termin uchun bir nechta arabcha muqobillar taklif qilinishi – bu tarzda yaratilgan (yasama) terminlarning ko'plab misollarini taqdim etadi¹.

Termin yaratishga oid bu yondashuv umumiy lug'atlarda ham kuzatiladi. LTT (Lexikologiya, Terminologiya, Tarjima) tarmog'i tomonidan fransuzcha-arabcha tarjimaning termin yaratishdagi o'rniga bag'ishlangan tadqiqot loyihasi doirasida, Amadou Tydiani Diallo (2008) "al-Manhal" mualliflari tomonidan yaratilgan 1 140 ta arabcha lug'aviy birlikni aniqlagan. Masalan, quyidagi yangi arabcha terminlar shular jumlasidandir: *wisāda nafiḥa* – "air bag" (havo yostiqchasi) uchun, *mafḥama* – "konseptualizatsiya qilish" (fe'l), *mafḥama* – "konseptualizatsiya" (ism, masdar shaklida), *hibālatun*, *silākatun* / *mahbalatun*, *maslakatun* – fransuz tilidagi *câblerie* ("kabel zavodi") termini uchun.

Arab tilidagi bir tilli lug'atlarda ham xuddi shu muammolar yuzaga chiqadi, ya'ni yangi terminlar leksikograf tomonidan yaratiladi va korpusdan olinmaydi. Bu lug'atdagi terminlarning katta qismi ikki tilli lug'atlardan oddiygina o'zlashtirib olingan. Arabcha bir tilli lug'atlar asl korpusdan foydalanish o'rniga, ikki tilli lug'atlardan terminologiyani o'zlashtiradi [Hamzé, 2008, 187–190]. "al-Munjjid fi al-luḡa al-'arabiyya al-mu'āsira" nomli umumiy lug'at kirish qismida ochiqchasiga e'tirof etadiki, arabcha so'zlarning ko'p qismi fransuzcha-arabcha va inglizcha-arabcha ikki tilli lug'atlardan olingan, chunki: "Globalizatsiyaga yuz tutgan dunyoda arab ziyolilarining ehtiyojlari G'arb ziyolilarining

¹ 5. See dictionaries/lexicons by Mseddi, Abdessalem (1984); Baraké, Bassam (1985); Baraké, Bassam et alii (1987); Arab League Educational Cultural and Scientific Organization (1989) and (2002), Baalbaki, Ramzi (1990), Arif, Mohammad Najib (1993); Hanna, sami et alii (1997); Fassi Fehri, Abdelkader (2009), etc.



الطبعة الثالثة، بيروت: دار المشرق، المنجد في اللغة العربية المعاصرة مجموعة المؤلفين،¹ [2008م، ص 89]

Tarjimaning uchinchi shaklida shakllangan terminologiya har yerda mavjud, biroq turli darajalarda namoyon bo'ladi. Ixtisoslashgan matnlarni tarjima qilishda terminologiya hal qiluvchi ahamiyatga ega, biroq umumiy matnlar tarjimasida ham terminologiya mavjud, chunki "umumiy" lug'at tarkibining muhim qismi aynan terminlardan iborat.

Masalan, oddiygina yo'l-transport hodisasi haqida yozilgan bir hisobotni tarjima qilishni o'laylik, bu har kuni sodir bo'ladigan holat. Bunday matnni tarjima qilishda bir nechta sohalarga oid terminlardan foydalanishga to'g'ri keladi:

- huquq sohasidan (hujjatlashtirish va javobgarlik masalalari uchun),
- moliyaviy-ijara sohasidan (sug'urta bilan bog'liq masalalar uchun),
- texnika/mexanika sohasidan (avtomobilga yetgan zarar haqida),
- tibbiyot sohasidan (jarohatlanganlar yoki halok bo'lganlar haqida) va boshqalar.

Tarjima va termin yaratish

Qaysi turdagi tarjima ishlatilmasin bilvosita, yarim-to'g'ridan-to'g'ri yoki to'liq to'g'ridan-to'g'ri u arab tilida yangi terminlar yaratilishiga olib keladi. Yangi terminlar yaratishga ehtiyoj tug'iladigan bir nechta sabablar mavjud:

Birinchi sabab bu klassik holat: ma'lum bir xorijiy ilmiy yoki texnik termin uchun arab tilida ekvivalent termin mavjud emas. Ko'plab ilm-fan va texnika sohalari arab dunyosidan tashqarida rivojlanmoqda.

Ikkinchi sabab aslida mos tushuvchi arabcha termin mavjud bo'lsa-da, u leksikograf, terminolog yoki tarjimonga noma'lum bo'lishi mumkin. Hatto yaxshi tayyorgarlikka ega arab tarjimoni ham ba'zan mavjud terminlardan bexabar bo'lishi tabiiy holat. Bu holat, bir tomondan, bilim sohaslarining juda tez yangilanishi, ikkinchi tomondan esa tarjimonlar foydalanadigan tadqiqot vositalarining yetarli emasligi bilan bog'liq. Ushbu vositalar tarjimonning o'z ishini samarali bajarishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, aniq fanlar, hatto gumanitar va ijtimoiy fanlarning ham xorijiy tillarda o'qitilishi, arabcha terminologik an'analardan uzilishga olib kelmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda ijroiyy fe'l (performative verb) deb aytilayotgan tushuncha, ya'ni aytilgan zahoti o'zi bilan birga amalni ham yuzaga keltiruvchi fe'l (masalan, "men sotdim" deyish bilan haqiqiy sotuv amalga oshadi) aslida qadimiy arab grammatik maktablarida yaxshi ma'lum bo'lgan. Biroq bu tushuncha zamonaviy terminlarda yangilik sifatida ko'rinsa-da, arab tilshunosligida asrlar oldin aniqlik bilan bayon qilingan. Ammo bunday terminlar hozirgi zamonaviy terminologik korpuslarda aks etmaganligi sababli, ularni qayta kashf etish faqat tarixiy matnlar asosida mumkin bo'lmoqda. Masalan, XIV asr tilshunosi al-Astarobodiy o'zining mashhur asari "Sharh al-Kāfiya"da bu tushunchani ochiq tasvirlaydi. U quyidagi misolni keltiradi: "بَعْتُ" (bi-tu). Ma'nosi: "Men sotdim" yoki "Men (hozir) sotayman", ya'ni fe'lni aytish orqali ish ham amalga oshmoqda. Al-Astarobodiyga ko'ra, bu holatda sotish amali aynan fe'lni talaffuz qilish orqali yuzaga keladi, mavjud bo'ladi, ya'ni bu fe'l amalni vujudga keltiruvchi (mūjidu-n) bo'ladi. Aynan mana shu xususiyat uni *performativ* qiladi. (al-Astarābādī, s.n. [sana ko'rsatilmagan]: jild 2, bet 225)².

¹ مجموعة المؤلفين، المنجد في اللغة العربية المعاصرة. الطبعة الثالثة، بيروت: دار المشرق، 2008م، ص 89.

² Performativ fe'l terminining arabcha ekvivalenti aslida an'anaviy tilshunoslikda mavjud: fi'l īqā'i yoki inshā'i. Biroq bu termin har doim ham tarjimonlarga tanish bo'lavermaydi, natijada ba'zilar uni "munājiz" shaklida arab tiliga tarjima qilishni tanlaydi (Idriss, 2012). Arab grammatik an'analari bilan nutq aktlari nazariyasi (Speech-Act Theory) o'rtasidagi moslik va yaqinlik misollarini quyidagi manbalarda ko'rish mumkin: Miled (1999), 49–57; 175–220-betlar; Kembouche (1990), 333-bet va boshqalar.

Bu kabi fe'llar ma'no jihatdan vaqtga emas, balki voqelikka yo'naltirilgan, ya'ni mazmunni bajarishni bildiradi. Ular faqat gramatik ko'rsatkich emas, balki huquqiy, ijtimoiy yoki tijoriy amalning bajarilishiga xizmat qiladi. Masalan: "Nikohni qabul qildim"

قَبِلْتُ النِّكَاحَ (*Qabiltu an-nikāḥa*), "Ijarani bekor qildim"

فَسَخَّطُ الْإِجَارَةَ (*Fasakhtu al-ijārah*), "Qarzdən voz kechdim"

تَنَازَلْتُ عَنِ الدَّيْنِ (*Tanāzaltu 'ani d-dayni*) kabi terminlarning fe'l shakllari.

Yangi terminlar yaratishga sabab bo'luvchi uchinchi omil bu tarjimon mavjud arabcha termindan qoniqmasligidir. Yangi terminlar yaratilishida arab tilida mos termin yo'q deb o'ylash sodda yondashuvdir. Albatta, ba'zida bu haqiqat bo'lishi mumkin. Biroq, ko'p hollarda bu sabab emas, shunchaki boshqa omillarni ham hisobga olish zarur. Afsuski, bunday holatlar juda ko'p uchraydi. Juda ko'plab tanilgan va ishlatib kelinayotgan terminlar tarjimonlar yoki leksikograflar tomonidan rad etiladi. Ular ko'pincha mavjud terminlarni morfologik jihatdan to'g'ri, semantik jihatdan mos va keng qo'llanayotgan bo'lsa ham, shubha ostiga oladilar. Bunga misol tariqasida "دخل" (dahla) terminini keltirish mumkin [Fassi Fehri, 2009, 79-bet], u "madhal" (مدخل) so'ziga raqib sifatida taklif qilingan. Holbuki "madhal" termini lug'atlardagi "kirish maqolasi"ni ifodalashda butun arab dunyosida keng tan olingan va ishlatib kelinayotgan termin hisoblanadi.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi termin (umuman boshqa tillarda ham) hech qachon "yakuniy" bo'lmaydi. Har qanday vaqtda tarjimon yoki terminolog mavjud terminni zamonaviy emas, nomaqbul yoki noaniq deb hisoblab, uni rad etishi mumkin. Ba'zida esa mutaxassislar yoki tarjimonlar biror raqobatchi terminni qasddan rad etadilar, sababi o'zlari taklif qilgan yangi terminni "mualliflik huquqi" bilan bog'lashni istaydilar, ya'ni o'z terminlarini ilmiy doirada ilgari surishni maqsad qiladilar.

Yangi terminlar yaratishga bo'lgan ehtiyoj tarjimonni deyarli ajralmas ikkita funksiyani bajarishga majbur qiladi. Birinchisi tarjimonlik, ikkinchisi esa terminolog sifatidagi faoliyatdir. Tarjimon amalda har doim terminologdir: u doimiy ravishda yangi terminlarni izlaydi yoki yaratadi, bu yaratish ba'zida mavjud terminologiyadan xabardor bo'lmagani uchun, ba'zida esa haqiqatan ham mos keladigan termin topilmagani sababli yuz beradi. Lug'atlar bu holatni juda yaxshi aks ettiradi. Chunki arab lug'atchilik an'analariga ko'ra, lug'at xalq tomonidan qabul qilingan va amalda ishlatilayotgan terminlarni emas, balki lug'at tuzuvchisi yoki terminograf muhim deb hisoblagan terminlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, terminlarni tanlashni korpus emas, balki lug'atchining (lug'atlar uchun) yoki tarjimonning (tarjimalar uchun) shaxsiy tanlovi va qarashi belgilaydi. Ko'pincha hatto deyarli har doim lug'at korpus asosida tuzilmaydi, balki muallifning shaxsiy tanlovi asosida shakllantiriladi. ug'at tuzuvchi yoki terminograf yo o'ziga yoqqan terminlarni tanlaydi, yoki yangi terminlar ixtiro qiladi.

Tarjima va arab terminologiyasidagi muammolar.

Termin yaratishga sabab bo'ladigan omillar qanday bo'lishidan yoki qanday tarjima usuli qo'llanilishidan qat'i nazar, arab terminologiyasi bu jarayondan jabr ko'rmasdan chiqib keta olmaydi. Arabcha ilmiy va texnik terminologiya bo'yicha barcha tadqiqotlar terminologik betartiblik (anarxiya) mavjudligini ta'kidlaydi. Xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida arab terminologiyasi bo'yicha ko'plab dissertatsiyalar himoya qilingan. Ushbu tadqiqotlar g'arbda ham, arab dunyosida ham olib borilgan ishlar arab terminologiyasi yaratilishidagi bir qator muammolarga urg'u beradi, ya'ni bu terminlar asosan tarjimaga tayangan holda yaratiladi. Biroq, bu nuqsonlar ortida yotgan nazariy asoslar va asosiy matnshunoslik muammolari hanuzgacha yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Terminlarning haddan tashqari ko'payib ketishi. Birinchi muammo bu terminlarning haddan tashqari ko'p bo'lib ketishi. Masalan, "synchrony" (sinxroniya) termini uchun o'nlab arabcha terminlar mavjud [Odeh, 1998, 337-bet], yoki "lingvistika" uchun yigirmaga yaqin variant mavjud [Mseddi,



1984, 72-bet] va hokazo. Ramzi Baalbaki o‘zining “Inglizcha-arabcha lingvistik terminlar lug‘ati”da nafaqat o‘zi afzal ko‘rgan terminni taklif qiladi, balki boshqa joylarda qayd etilgan muqobil variantlarni ham keltiradi.

Terminlarning ko‘pma‘noliligi (polisemiya)

Terminlarda ko‘payib ketish (proliferatsiya) muammosidan keyingi ikkinchi muammo bu polisemiya, ya‘ni bir terminning bir nechta ma‘noni anglatishi (terminologlar buni “polireferentsialik” deb ham atashadi). Bir tarjimon ba‘zida arab tilidagi bitta terminni ikki yoki undan ortiq tushunchani ifodalash uchun ishlatadi. Masalan: “إشتقاق” (ištiqāq) so‘zi bir vaqtda ham “so‘z yasash” (derivation), ham “etimologiya” (so‘z kelib chiqishi) ma‘nosida ishlatilgan (Odeh, 1998, 352–354). Yoki “إتباع” (itbā‘) so‘zi “Unified Dictionary of Linguistic terms”da to‘rt xil tilshunoslik tushunchasi uchun ishlatilgan: kengayish (*dilation*), oldingi unli o‘zgarishi (*front mutation*), paronimiya (talaffuzi o‘xshash so‘zlar), so‘z o‘yini (*pun*). Biroq “إتباع” (itbā‘) arab grammatik an‘analarida ham ma‘lum bir termin bo‘lib, u bu lug‘atda ishlatilgan ma‘nolardan butunlay boshqa tushunchalarni bildiradi.

Terminlarning ustma-ust tushishi (ma‘noviy chatishtirish). Uchinchi muammo bu terminlarning ustma-ust kelishi, ya‘ni: X shaxs biror arabcha terminni A tushunchasi uchun ishlatadi, Y shaxs esa xuddi shu terminni B tushunchasi uchun ishlatadi – bu kabi holatlar chalkashlikni yuzaga keltiradi. 1-jadval (bu yerga transkripsiyasini ham qo‘sxilgan), al-Hamzaoui [1991, 313] tomonidan tayyorlangan bo‘lib, “semantika”, “semasiologiya”, “semiologiya”, “semiotika”, “onomasiologiya” terminlarning to‘rtta ixtisoslashgan lug‘atda qanday tarjima qilinganini ko‘rsatadi. Bu misolning o‘ziyoq muammoni aniq tasdiqlaydi.

1.jadval:

№	Chet tilidagi	1-variant	2-variant	3-variant	4-variant
1.	Semantics	علم الدلالة / علم المعاني	علم الدلالة	الدلالية	السيمية – علم الدلالة – علم السيمانتيك
2.	Semasiology	علم الدلالة / علم المعاني	علم الدلالة	الدلالية	علم السيمانتيك – دراسة التعبير في المعنى
3.	Semiology	علم الرموز	علم الرموز	العلامية	السيمولوجيا – علم العلاقات – علم السيمانتيك – دراسة المعنى في حالة – سنكرونية
4.	Semiotics	علم الرموز	السيميوثيكية / علم الرموز	السيمائية	–
5.	Onomasiology	دراسة الأعلام	دراسة العلاقات الدلالية	المسمائية	–

Noto‘g‘ri ekvivalentlarni tanlash. To‘rtinchi muammo bu noto‘g‘ri ekvivalentlarni tanlashdan iborat bo‘lib, bunday ekvivalentlar tarjima qilinayotgan tushunchani aniq aks ettirmaydi. Masalan, “phoneme” (fonema) so‘zini “صوت” (ṣawt) – tovush so‘zining kichraytma shakli “صويت” (suwayt) bilan tarjima qilish bunga yaqqol misoldir. Chunki “fonema” bu “kichik tovush” degani emas. Arab tilidagi bu kichraytma shaklni tanlash “fonema” ta‘rifidagi “minimal belgi” degan ifodani noto‘g‘ri tushunishga asoslangan. Aslida “fonema” — nutqdagi segmentlarga bo‘linmaydigan fonologik ifoda shaklining eng kichik birligi [Dubois, 2004: “phonème” – bizning tarjima]. Bu kabi yomon tarjimalar singari “صويت” (suwayt) ham amaliyotda ommalashmagan va qo‘llanmay qolgan.

Ananaviy terminologiyaning noo‘rin qayta ishlatilishi. Zamonaviy arab terminologiyasida kuzatilayotgan nuqsonlarning sabablaridan biri – ayrim bilim sohalaridagi yangi tushunchalarni tarjima

qilishda eski terminologiyaning ehtiyotsiz ravishda qayta ishlatilishidir. Bu muammo ayniqsa tilshunoslik fanlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Zamonaviy tilshunoslik va anʼanaviy grammatikaning tadqiqot predmeti (yaʼni til) bir xil boʻlgani sababli, zamonaviy tilshunoslik terminologiyasi va anʼanaviy grammatika terminologiyasi oʻrtasida ayrim kelishmovchiliklarning paydo boʻlishi ajablanarli emas. Ular orasidagi bunday ziddiyatli munosabatlar natijasida arab tarjimonlari oʻrtasida bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi boʻlgan ikki yoʻnalish shakllangan: birinchisi, anʼanaviy terminlarni nima boʻlsa ham saqlab qolish va ularni yangi tushunchalarga tatbiq qilish; ikkinchisi esa, nima boʻlsa ham yangi terminlarni yaratib, anʼadan butunlay voz kechish. Aslida bu ikki yoʻnalish ikki qarama-qarshi ekstremal nuqtadir. Birinchi yoʻnalish ikki xil terminologiyani aralashtirib yuborsa, ikkinchisi ularni mutlaqo begona va bir-biriga zid deb hisoblaydi. Yuqorida zikr qilingan koʻplab terminlar, masalan “إتباع” (itbāʿ) termini mana shu ziddiyatli munosabatlarga misol boʻla oladi.

Yevropa terminologiyasini idealizatsiya qilish. Arab terminologiyasidagi kamchiliklar haqida koʻplab adabiyotlar mavjud boʻlib, bu terminlar qatʼiy tizim yoki qaror qabul qilish va uni tatbiq qilish vakolatiga ega boʻlmagan holda tez shakllangan. Ushbu kamchiliklar qanchalik koʻp namoyish qilinsa, ular shunchalik keng tan olinib, tushunib yetilmoqda, ammo tatbiq qilish mexanizmi mavjud boʻlmaganligi sababli, ularni hal qilish murakkab boʻlib qolmoqda. Misol uchun, olimlar tez-tez zaruratsiz terminlarning haddan tashqari koʻpayishini taʼkidlaydilar. Bunda arab tilida soʻzlashuvchilar yangi terminni qabul qilib, aslida allaqachon mavjud boʻlgan – koʻpincha undan ham yaxshiroq sifatga ega boʻlgan – qabul qilinadigan arab termini oʻrniga qoʻllaydilar. Natijada, arab tilini zaiflashtiradigan sifati shubhali sinonimlarning koʻpligi yuzaga keladi. Ajablanarlisi shundaki, aynan shu olimlarning oʻzlari ham baʼzan zarur boʻlmagan yangi terminlarni yaratish bilan shugʻullanadilar [Hassan Hamza, Terminology and translation in Arabic, Volume 2, 2019, Chapter 3, .p 72].

Aslida, arab terminologiyasiga qaratilgan tanqidlar toʻliq asosli koʻrinadi. Biroq, arab terminologiyasidagi kamchiliklar bayon qilinganda, ular ochiq yoki yashirin ravishda Gʻarb tillaridagi, xususan, fransuz va ingliz tillaridagi terminologik faoliyat bilan taqqoslanadi. Bu taqqoslash Gʻarb tillarining foydasiga ishlaydi va Gʻarb terminologik ishlarida hamma narsa mukammal, yaʼni arab terminologiyasida qayd etilgan barcha kamchiliklardan xoli degan fikr shakllanishiga sabab boʻladi. Gʻarb terminologiyasi odatda bir termin – bir tushuncha munosabatini taʼminlashga intiladi, yaʼni har bir termin faqat bitta tushunchani bildiradi va har bir tushunchaga faqat bitta termin mos keladi. Shuningdek, Gʻarb terminologiyasida soʻz yasashda prefiks, suffiks va yunon-lotin ildizlariga asoslangan shakllardan keng foydalanilishi ham maʼlum. Al-Hatib [1982, 43–66] yetti yuzdan ortiq affikslarni roʻyxatga olgan. Al-Hamzaviy esa bundan ham bir qadam oldinga borib, terminlar va affikslarning avtomatik tarjimasini ishlab chiqqan, bu esa qadimgi yoki zamonaviy arabcha ekvivalentlarini saqlash yoki yangisini yaratish haqida qaror qabul qilish uchun ularni aniqlash istagini uygʻotgan. Ushbu metod asosida amalga oshirilgan ishlar bizga ilmiy taqqoslashga asoslangan umumiy qoidalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Terminlarning maʼnosini tushunish va ular uchun toʻgʻri arabcha muqobil tanlay olish tarjimon uchun, shubhasiz, zarur koʻnikmalardandir. Biroq tarjima qilish bu shunchaki xorijiy terminlarni arabcha muqobillari bilan almashtirishdan iborat emas. Soʻzma-soʻz aytganda, har bir xorijiy terminni oldindan belgilab qoʻyilgan arabcha termin bilan tizimli ravishda almashtirish bu biz boshqa joylarda “boʻsh joylarni toʻldirish mashqi” (fill-in-the-blanks exercise) deb atagan holatga olib keladi [Hamzé 2009]. “Boʻsh joylarni toʻldirish” uslubida tarjimon avval matnda tarjima qilinishi kerak boʻlgan terminlarni ajratadi va ular uchun arabcha muqobillarini aniqlaydi, keyin ularni ikki tilli roʻyxat shaklida joylashtiradi. Shu bilan birga, matnning umumiy tarjimasi amalga oshiriladi, lekin undagi terminlar hozircha boʻsh qoldiriladi. Soʻngra, ikki tilli roʻyxat toʻliq tuzilib boʻlingach, terminlar oʻz



joylariga joylashtiriladi. Arab tiliga tarjima qilishda qat'iy muqobillik yondashuvi muammosini hal qilishda har bir xorijiy termin uchun faqat bitta, yagona arabcha muqobilni tanlash shart emas. Bu masalada Hasan Hamza ham shu fikrni yoqlaydi va "Biz bu borada misol sifatida o'z tarjima tajribamizda, André Roman tomonidan polysemyadan (ko'pma'nolilik) qochish uchun taklif etilgan lotincha res va modus terminlariga bergan arabcha muqobillarimizni keltirgan edik. Biz bu terminlarni 'ism 'ayn (اسم عين) va mawqūt (موقوف) deb tarjima qilgan edik" deya asosli dalillarni ham keltirib o'tadi [Hasan Hamza, Terminology and translation in Arabic Shared aspects and conflictual relationships, pp.59–81. – B.77]

Xulosa. Demak, terminlarni statik birliklar sifatida emas, balki matndagi kontekstga bog'langan birliklar sifatida ko'rish lozim. Chunki har qanday matn nafaqat terminlardan, balki umumiy lug'atga oid so'zlar bilan birgalikda tashkil topadi. "Matnga asoslangan terminologiya" (textual terminology) tushunchasi aynan shu asosga qurilgan bo'lib, korpuslarni kompyuter yordamida tahlil qilish orqali ilgari surilgan. Ushbu yondashuv matn va matnlararo darajadagi terminologik variativlikning muhim rolini ta'kidlaydi. Variatsiya (ya'ni termin shaklining o'zgaruvchanligi) bu terminlarning kontekstda qanday ko'rinishda paydo bo'lishini anglatadi. Korpusga asoslangan bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, terminologik variatsiya bu g'ayrioddiy holat emas, balki korpusdagi barcha terminlarning 15–25 foizida uchraydigan tabiiy hodisadir. [Slodzian, 2000, 73–74].

Bundan tashqari: Ixtisoslashgan matn har qanday matn kabi retorik vositalar, so'z o'yini, matnlararo ishoralar va madaniy kinoyalarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, ixtisoslashgan tarjima bu shunchaki terminlarni mexanik tarzda boshqa tildagi muqobili bilan almashtirish emas, bundan ancha murakkabroq jarayon. Ayniqsa, ko'plab terminlarni ikki til o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muvofiqlikka ega bo'lmagan holatlarda bu yondashuv mutlaqo yetarli emas. [Durieux, 2010, 32 — *bizning tarjima*]. Biz o'z izlanishlarimizda quyidagilarni ko'rsatdik: ixtisoslashgan yoki umumiy matnlarda terminlarni tarjima qilish bu so'zma-so'z moslik yoki "bo'sh joylarni to'ldirish" mashqi emas. Bunday yondashuv natijasida hosil bo'lgan arabcha matn zaif, ma'nosiz va so'zma-so'z tarjima bo'lib chiqadi. Bunday tarjimalarni o'qish uchun ya'ni ularni tushunish uchun odam deyarli ikki tilli bo'lishi kerak. Aks holda, tarjimani asl tilga "qayta tarjima" qilish talab etiladi, shundagina mazmuni tushunarli bo'ladi. Bu esa, eng yumshoq ifoda bilan aytganda, mantiqsiz va paradoksial holat.



ARAB TILIDAGI DIPLOMATIK TERMINLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTDAGI O'RGANILGANLIK DARAJASI VA DOLZARBLIGI

OTABEK IKROMBEKOV

Tayanch doktarant, TDSHU

Annotatsiya. Gumanitar fanlarning — xususan lingvistika, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya tadqiqotlarini qamrab oluvchi — integratsiyasi til birliklarini ijtimoiy-madaniy hamda kognitiv shartlanganlikda o'rganish zarurligini belgilab bermoqda. Mazkur interdisiplinar paradigmadagi arab tilidagi diplomatik terminologiyani lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani milliy-axloqiy ma'nolarni kodlash va ifodalash tizimi sifatida tadqiq etadi.

Arabshunoslikda diplomatik matnlarning leksikologiyasi, semasiologiyasi va pragmatikasi bo'yicha ancha boy tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, arab diplomatik terminologiyasini lingvomadaniyatshunoslik asosida kompleks tarzda o'rganish hali tizimli ilmiy yondashuvga ega emas. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi arab tilidagi diplomatik kommunikatsiya konseptosferasini aniqlash, termin tizimidagi madaniy kodlarni aniqlash hamda diplomatik diskursga xos bo'lgan semantik va pragmatik mexanizmlarni tahlil qilish zarurati bilan bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi — arab tilidagi diplomatik terminlarning lingvomadaniyatshunoslik jihatdan o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida arab terminologiyasi, diplomatik tildagi xususiyatlar va lingvomadaniyatshunoslik muammolariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari tanlandi. Tadqiqot metodlari — tahliliy-tavsifiy yondashuv, kontekstual tahlil hamda kognitiv lingvistika elementlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, arab diplomatik tili terminlarning universallashtiruvchi intilishiga qaramay, arab jamiyatlarining qadriyat yo'nalishlarini aks ettiruvchi yaqqol madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolmoqda. Tadqiqot natijalari tarjima amaliyoti, terminlarning leksikografik fiksatsiyasi, shuningdek diplomatik diskurs va madaniyatlararo muloqot bo'yicha o'quv kurslarini ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: diplomatik diskurs, terminologiya, lingvomadaniyatshunoslik, madaniy konseptlar, madaniyatlararo kommunikatsiya, arab ritorikasi, kognitiv-diskursiv tahlil.

Аннотация. Интеграция гуманитарных наук, охватывающая лингвистику, культурологию и коммуникационные исследования, предопределяет актуальность изучения языковых единиц в их социокультурной и когнитивной обусловленности. В рамках этой междисциплинарной парадигмы особый интерес представляет исследование дипломатической терминологии арабского языка с позиций лингвокультурологии — области, изучающей взаимодействие языка и культуры как системы кодирования и репрезентации национально-ценностных смыслов. Несмотря на то, что в арабистике накоплен значительный корпус работ по лексикологии, семасиологии и прагматике дипломатических текстов, лингвокультурологический подход к арабской дипломатической терминологии пока не получил комплексной системной разработки. Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью выявления концептосферы дипломатической коммуникации на арабском языке, репрезентации культурных кодов в терминосистеме, а также анализа семантико-прагматических механизмов, обеспечивающих культурную специфику дипломатического дискурса. Цель исследования — определить степень изученности дипломатических терминов арабского языка в лингвокультурологическом аспекте. Материалом исследования послужили труды отечественных и зарубежных исследователей, освещающие проблемы арабской терминологии, дипломатического языка и лингвокультурологии. Методы исследования включают аналитико-описательный подход, контекстуальный анализ, элементы когнитивной лингвистики. Показано, что арабский дипломатический язык, несмотря на тенденцию к универсализации терминов, сохраняет выраженную культурную специфику, отражающую ценностные ориентации арабских обществ. Выводы исследования могут быть использованы в практике перевода, лексикографической фиксации терминов, а также в разработке учебных курсов по дипломатическому дискурсу и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: дипломатический дискурс, терминология, лингвокультурология, культурные концепты, межкультурная коммуникация, арабская риторика, когнитивно-дискурсивный анализ.

Abstract. The integration of the humanities—encompassing linguistics, cultural studies, and communication research—underlines the relevance of studying linguistic units within their sociocultural and cognitive frameworks. Within this interdisciplinary paradigm, special attention is given to the analysis of Arabic diplomatic terminology from the perspective of linguoculturology, a field that explores the interaction between language and culture as a system of encoding and representing nationally significant meanings.

Despite the considerable body of work in Arabic studies concerning lexicology, semasiology, and pragmatics of diplomatic texts, a comprehensive linguocultural analysis of Arabic diplomatic terminology

remains underdeveloped. The relevance of this study lies in the need to identify the conceptual sphere of Arabic diplomatic communication, reveal the cultural codes embedded in the terminological system, and analyze the semantic and pragmatic mechanisms that reflect the cultural specificity of diplomatic discourse.

The aim of the study is to assess the degree of research coverage of Arabic diplomatic terms from a linguocultural standpoint. The research is based on the works of both domestic and international scholars addressing issues of Arabic terminology, diplomatic language, and linguoculturology. The methods applied include analytical-descriptive analysis, contextual interpretation, and elements of cognitive linguistics.

The study demonstrates that the Arabic diplomatic language, despite the trend toward terminological universalization, retains pronounced cultural specificity that reflects the value orientations of Arab societies. The findings can be applied in translation practice, lexicographic documentation of terms, and the development of educational courses on diplomatic discourse and intercultural communication.

Keywords: *diplomatic discourse, terminology, linguoculturology, cultural concepts, intercultural communication, Arabic rhetoric, cognitive-discursive analysis.*

Kirish. Ushbu maqola arab tilidagi diplomatik terminlarni kompleks lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida o'rganish zaruratini asoslab beradi. Avval zamonaviy ilmiy kontekstning kengligi — xususan interdisiplinarlik va raqamlashtirish jarayonlari — ko'rsatib o'tiladi. So'ngra asosiy tadqiqotlar (Maslova, Alefirenko, Temmerman, Diki-Kidiri, Al-Qinai, Berridge va boshqalar) sharh qilinadi, ayniqsa arab diplomatik terminologiyasi yetarlicha o'rganilmaganligi qayd qilinadi va bu borada ilmiy izlanishlar uchun muhit belgilab beriladi. Mavzuning dolzarbligi esa xalqaro diplomatiyada yangi kommunikativ formatlarning paydo bo'lishi va terminshunoslikdagi paradigmalarning almashuvi bilan bog'lanadi.

Zamonaviy gumanitar fanlar intensiv integratsiya bosqichini boshdan kechirmoqda: lingvistika, madaniyatshunoslik va kommunikatsiyashunoslik sohalari axborot jamiyati chaqiriqlariga javoban o'zaro konvergensiylashmoqda (Serebrennikov, 2023, b. 5). Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik til orqali milliy mentalitetlarni ochib beruvchi “metapredmet maydonga” aylangani ta'kidlanadi (Maslova, 2018, b. 12). Alefirenko esa termini qadriyatlar va ideologemalarni ifodalovchi birlik sifatida baholab, unga “madaniy-semiotik” yondashuv zarurligini alohida urg'u bilan qayd etadi (Alefirenko, 2014, b. 22). Diplomatik diskursda esa bu tendensiyalar yanada kuchayadi, chunki termin madaniyatlararo kommunikatsiyaning yuqori qatlamida faoliyat ko'rsatadi (Berridge, 2015, b. 6).

Lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishining asoschilari Maslova (2018) va Karaulov (2010) bo'lib, ular til va madaniy ssenariylar o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u berishgan. Terminshunoslikda esa Diki-Kidiri “madaniy terminologiya” konsepsiyasini ishlab chiqqan bo'lib, u tushunchalarni qayta konseptuallashtirishda ijtimoiy-kognitiv omillarni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi (Diki-Kidiri, 2008, b. 45). Temmerman esa termini “dinamik toifa” sifatida izohlovchi ijtimoiy-kognitiv modelni taklif etgan bo'lib, u termin orqali jamoaviy bilimlar mustahkamlanishini asoslab bergan (Temmerman, 2022, b. 113–118). Diplomatik leksika sohasida Berridjning diplomatik protokol evolyutsiyasi haqidagi tadqiqotlari (Berridge, 2015, b. 52–55), shuningdek, Ibrohim va Adelning rus-arab diplomatik diskursidagi tarjima transformatsiyalariga doir ishlari ajralib turadi (Ibrahim & Adel, 2019, b. 131). Shunga qaramay, arab diplomatik terminologiyasini lingvomadaniyatshunoslik asosida kompleks tarzda o'rganuvchi tizimli ilmiy tadqiqotlar hali mavjud emas.

Kam sonli tadqiqotchilar umumiy xulosasiga ko'ra, mavjud izlanishlarda arab diplomatik terminlari asosan tarjimashunoslik yoki sotsiolingvistik nuqtai nazardan yoritilgan bo'lib, ularning madaniy semantik jihatlari faqat fragmentar darajasida ko'rib chiqilgan (Ibrahim & Adel, 2019, b. 133). Arab siyosiy diskursida bu leksikaning shakllanish, evolyutsiya va aksiologik yuklama mexanizmlarini tasvirlaydigan yaxlit model hali-hanuz ishlab chiqilmagan.



Yangi yondashuv zarurati quyidagi omillar bilan asoslanadi:

- Kommunikatsiya shakllarining almashuvi: raqamli diplomatiya terminologik repertuarni o'zgartirmoqda va terminlar o'zlashtirilishini tezlashtirmoqda (Berridge, 2015, b. 71);
- Geosiyosiy siljishlar: arab davlatlarining global institutlardagi rolining ortishi yagona terminologik standartlarni ishlab chiqishni talab qiladi;
- Terminshunoslik paradigmasining yangilanishi: deskriptiv modeldan interpretativ, ya'ni madaniy ma'nolarga asoslangan yondashuvga o'tish ehtiyoji tug'ilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — arab diplomatik termin tizimining lingvomadaniyatshunoslik konsepsiyasini ishlab chiqish, uning tarixiy ildizlarini, semiotik xususiyatlarini hamda rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot interdisiplinar xarakterga ega bo'lib, unda lingvistik, madaniyatshunoslik va terminshunoslik yondashuvlari birlashtirilgan. Tadqiqot asosini tavsifiy va miqdoriy tahlil, korpus lingvistikasi, bibliografik tahlil hamda lingvomadaniyatshunoslik interpretatsiyasi metodlari tashkil etadi.

Natijalar. Ilmiy nashrlar va empirik materiallar tahlili asosida quyidagi ma'lumotlar aniqlandi:

Hozirgacha 50 ga yaqin arab tilidagi diplomatik terminologiyaga oid manbalar tahlil qilinarkan, ulardan faqat 7 tasi (14%) lingvomadaniyatshunoslik tahlil elementlarini o'z ichiga oladi.

28 ta nashrda asosiy e'tibor tarjima, pragmatika va me'yoriy masalalarga qaratilgan bo'lib, terminlarning madaniy kodlari inobatga olinmagan.

15 ta ishda madaniy o'ziga xoslikka umumiy murojaat mavjud, biroq ular nazariy model yoki tizimli tavsif bilan ta'minlanmagan.

Tadqiqotlarning hududiy taqsimoti

Arab dunyosi: Faollik asosan Jazoir, Saudiya Arabistoni va Iroq davlatlarida kuzatiladi. Asosiy e'tibor — tarjima muammolari va terminlarni standartlashtirishga qaratilgan. Al-Otaibiy (2013), Burkayb va Saaduni (2022) tomonidan olib borilgan ishlarda empirik materiallar mavjud, biroq to'liq madaniy tahlil yo'q.

Rossiya va MDH, shu jumladan O'zbekiston: Trabelsi (2013), Nasirova (2020), Mirzaxmedova (2022) kabi dissertatsiya va maqolalarda diplomatik terminologiyaga murojaat etilgan, biroq madaniy komponent faqat qisman ifodalangan.


Frankofon va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar: Temmerman (2022) va boshqa mualliflarning ishlari metodologik jihatdan qadrlidir, ammo ular arab materiali bilan bevosita ishlanmagan.

Natijalar asosida xulosalar:

1) Arab diplomatik diskursidagi terminlarning lingvomadaniyatshunoslik jihatdan yetarli darajada o'rganilmagani haqidagi gipoteza tasdiqlandi.

2) Arab tilidagi diplomatik leksikaning empirik boyligi bilan uning madaniy-semantik tadqiq etilish darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligi aniqlandi.

3) Kelgusidagi tadqiqotlar terminlarni lingvokulturema sifatida tahlil qiluvchi tizimli modelni yaratishni, mintaqaviy konseptual kodlar, tarixiy-diniy assotsiatsiyalar va siyosiy-pragmatik funksiyalarni hisobga olishni talab qiladi.



Muhokama. Arab tilidagi diplomatik terminlarning lingvomadaniyatshunoslik jihatdan o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatdiki, arabshunoslikda lingvistik, semantik va terminologik izlanishlar yetarlicha to'plangan bo'lishiga qaramay, bu leksikani lingvomadaniy nuqtai nazardan izohlash hali ham fragmentar holatda qolmoqda. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, arab diplomatik terminologiyasi asosan siyosiy yoki diskursiv tahlil doirasida (El-Farahaty, 2015; Suleiman, 2003), yoxud pragmatika va tarjimashunoslik yondashuvlari asosida (Al-Jarf, 2012; Hatim & Mason, 1997) ko'rib chiqiladi, ammo til va madaniyat kodlari, arab madaniyatiga xos mintaqaviy-milliy mental kontekstlar nuqtai nazaridan o'rganish deyarli uchramaydi.

Tadqiqotning muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, arab diplomatik terminlari shunchaki nominativ funktsiya bajaruvchi til birliklari emas, balki madaniy mazmunni ifodalovchi belgilar bo'lib, ular arab-islom dunyoqarashi tizimiga chuqur singdirilgan. Masalan, الشورى *al-shūrā* – maslahatlashuv, mashvarat, الهدنة *al-hudnah* – sulh, yarashish, tinchlik البيعة *al-bay'ah* – bay'at, bo'ysunishga ahd berish tushunchalari tarixan diniy-siyosiy amaliyotlarga borib taqaladi va boshqa diplomatik tizimlardagi funksional analoglaridan farqli tarzda konnotativ yuklamaga ega.

Bu holat arab diplomatik terminlarini tahlil qilishda lingvomadaniyat asoslarini hisobga olish, terminlar tasnifini milliy madaniy asoslar doirasida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. O'rganilgan tendensiyalar asosida shuni aytish mumkinki, arab diplomatik terminologiyasida siyosiy muloqotning universal kategoriyalari ("tinchlik shartnomasi", "muzokara", "kafolatlar" va h.k.) bilan bir qatorda, arab sivilizatsiyasiga xos diniy-axloqiy arxetiplar ham mavjud.

Bu xususiyatlar nafaqat terminlarning mazmunida, balki barqaror sintagmatik konstruksiyalarda ham o'z ifodasini topadi — unda kanonik formulalar, emotsional modalliklar va ritorik ta'sir elementlari uyg'unlashgan. Masalan, keng tarqalgan حل سلمي وشامل *hall silmī wa-shāmil* – komil va tinch yechim iborasi nafaqat diplomatik formula sifatida, balki "adolatli tinchlik" g'oyasini anglatuvchi islomiy ideologema sifatida ham xizmat qiladi (Salama, 2011).

Shu tariqa, olingan natijalar arab diplomatik terminologiyasi lingvomadaniy maydon doirasida faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Bu maydonda verbal vositalar jamoaviy tafakkur, diniy



an'analarning me'yoriy tizimi va tarixiy xotira bilan chambarchas bog'liq. Bu ayniqsa quyidagi tushunchalar tahliliga taalluqlidir:

التحالف *al-tahāluf* – ittifoq, alyans الضمان *al-ḍamān* – kafolat, ta'minot, الوساطة *al-wasāṭah* – vositachilik, oraliq bo'lish. Ushbu terminlarda pragmatik ma'no bilan birga, madaniy markerlar ham mujassam bo'lib, ular sharaf, adolat, nasl nomusi, musulmon ummatining manfaatlarini himoya qilish kabi qadriyatlarni aks ettiradi.

Shu o'rinda muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: arab diplomatik terminlarini o'rganishda faqat deskriptiv terminografiyaga tayanmasdan, balki lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida ham olib borilishi kerak. Chunki bunday yondashuv terminning kognitiv chuqurligini, uni madaniy konsept sifatida ochib beradi. Bu g'oya V.A. Maslova (2018), N.F. Alefirenko (2010), Yu.N. Karaulov (2004) ishlarida bayon etilgan prinsiplar bilan uyg'un bo'lib, ularda termin birliklari xalqning mentaliteti, tarixi va sivilizatsion tajribasini anglash kalitlari sifatida qaraladi.

Olingan natijalarda tasdiqlanadiki, arab diplomatik leksikasi shunday kognitiv maydonni tashkil etadiki, bu yerda har bir termin nafaqat nominal, balki reprezentativ vazifani ham bajaradi: u xalqning madaniy tajribasini, tarixiy shakllangan xalqaro muloqot me'yorlarini, diniy-axloqiy rang-baranglikni ifodalaydi. Shunday ekan, arab diplomatik terminologiyasiga xalqning milliy ramziy kapitali tarkibiy qismi sifatida qarash lozim. Bu kapital esa xalqning xalqaro lingvomadaniyat maydonidagi obrazini shakllantiradi.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi diplomatik terminologiya, yaqqol funksional va pragmatik yo'nalishga ega bo'lishi bilan birga, arab sivilizatsiyasiga xos tarixiy-madaniy arxetiplarga tayanadi. Bu holat El-Farahaty, Al-Jarf, Suleiman kabi tadqiqotchilar tomonidan bevosita yoki bilvosita madaniy shartlanganlik sifatida qayd etiladi (El-Farahaty, 2015; Al-Jarf, 2012; Suleiman, 2003).

Tadqiqotlar tilning ideologiyalashuvi va milliy identitet bilan bog'liq jihatlariga asoslanib shuni ko'rsatadiki, arab tili kuchli siyosiy va ramziy vosita sifatida namoyon bo'ladi (Suleiman, 2003). U hokimiyat, milliy g'urur va axloqiy legitimlik haqidagi jamoaviy tasavvurlarni kodlaydi. Shu bois, arab tili – arab dunyosi diplomatik diskursining asosiy komponenti hisoblanadi. Biroq hozirgi ilmiy ishlarda bu tilda diplomatik terminologiya lingvokulturologik aspektida alohida tadqiqot ob'ekti sifatida yetarlicha yoritilmagan.

Y. Salamaning (2011) tadqiqotlari arab diplomatik diskursidagi ko'plab barqaror kollokatsiyalar (masalan: حل عادل ودائم *ḥall 'ādil wa-dā'im* – adolatli va barqaror yechim انسحاب تدريجي *insihāb tadrījī* – bosqichma-bosqich chiqish) nafaqat sintaktik tuzilmalar, balki milliy va diniy identitet bilan bog'langan ritorik-ideologik strukturalar ekanini ko'rsatadi. Bu kabi birliklar oddiy pragmatik yondashuvdan tashqariga chiqadigan kognitiv yuklamani o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv terminlarni tahlil qilish doirasini kengaytiradi va ularni lingvomadaniyatshunoslik asosida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

B. Hatim va I. Mason (1997) tomonidan qo'llanilgan taqqoslovii yondashuv arab va g'arb diplomatik diskurs modellarining tafovutlarini aniqlashga imkon beradi. Masalan, quyidagi terminlar: التهدئة *al-tahdi'ah* – deeskalatsiya, الوساطة *al-wasāṭah* – vositachilik, موقف رسمي *mawqif rasmi* – rasmiy pozitsiya odatdagi lug'aviy tarjimadan ko'ra, madaniy kontekstni hisobga olgan adaptiv talqinni talab qiladi. Bu esa terminologik mosliklarni emas, balki madaniy-pragmatik qabul va aks ettirish filtrlarini o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

R. Al-Jarf (2012) tomonidan siyosiy va diplomatik matnlarni tarjima qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arab diplomatik leksikasi ko'pincha yashirin madaniy ma'nolarga ega va ularni to'g'ri talqin etish va madaniyatlararo muloqotda uzatish ko'nikmasi

zarur. Shuning uchun muallif *contextual re-encoding* tushunchasini kiritadi – bu yondashuvda terminlarni tarjima qilish yoki tahlil qilish madaniy va tilshunoslik bazasisiz imkonsiz bo‘ladi. Bu tamoyil ushbu tadqiqotning arab diplomatik terminlariga lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi zarurligi haqidagi xulosalari bilan to‘liq mos tushadi.

Rus tilli ilmiy maktabda arab tilidagi diplomatik terminlarning lingvomadaniy tabiati hali tizimli o‘rganilmagan. Biroq V.A. Maslova (2018), N.F. Alefirenko (2010), Yu.N. Karaulov (2004) kabi mualliflarning lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi ishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ularning fikricha, termin – bu madaniyat konseptual maydonining belgisi bo‘lib, u maxsus interpretativ yondashuvni talab qiladi. Bu tezis arab diplomatik leksikasida uchraydigan diniy, huquqiy va axloqiy konnotatsiyalarni aks ettiruvchi misollar bilan to‘liq tasdiqlanadi.

Shunday qilib, olingan natijalarni mavjud ilmiy izlanishlar bilan solishtirish asosida quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

1) Arab diplomatik terminologiyasi keng madaniy kodlar tizimining bir qismi bo‘lib, undagi har bir leksik birlik axloqiy, diniy va tarixiy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lgan yashirin madaniy kodlarni o‘zida mujassam etadi;

2) Bunday terminlarning lingvomadaniyatshunoslik kategoriyalarini jalb qilmasdan madaniyatlararo tarjima qilinishi va talqini birmuncha murakkablik tug‘diradi;

3) Zamonaviy terminografiya arab diplomatik leksikasini tahlil qilish uchun yetarli emas; kognitiv, pragmatik va madaniy nuqtai nazarlarni birlashtirgan kompleks yondashuvga ehtiyoj mavjud.

Anna Vejbitskaning (2006) tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, til nafaqat obyektlar va hodisalarni belgilaydi, balki xalqning madaniy kodlari va jamoaviy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Diplomatik terminologiya kontekstida bu shuni anglatadiki, terminlar yashirin semantik qatlamlarni — tarixiy, huquqiy va madaniy stereotiplarga bog‘liq bo‘lgan ma’no tarmoqlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Bu holat ayniqsa arab siyosiy va kommunikativ amaliyotlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Erishilgan natijalarga qaramay, ushbu tadqiqot ma’lum cheklovlardan xoli emas. Bu cheklovlar mavzuning xususiyati va tadqiqot doirasining obyektiv chegaralari bilan bog‘liq. Ularni aniq qayd etish — natijalarni to‘g‘ri talqin qilish va keyingi ilmiy ishlar istiqbolini belgilashda muhimdir.

Birinchi asosiy cheklov — arab tilidagi diplomatik matnlar korpusining hajmi va tarkibi bilan bog‘liq. Tadqiqot asosan lingvomadaniyatshunoslik hamda semantika-diskursiv yondashuv asosida olib borildi, bu esa arab diplomatik terminologiyasining strukturaviy-semantik, konnotativ va pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Biroq, bu o‘rinda quyidagi jihatlar to‘liq yoritilmagan:

1) Sotsiolingvistik parametrlar yetarlicha hisobga olinmadi (masalan, arab tili birinchi til hisoblanmaydigan mamlakatlarda uning diplomatik maqomi);

2) Etnografik komponent mavjud emas edi, u orqali terminlar arab jamiyatlaridagi kundalik madaniy amaliyotlar va nutqiy marosimlar bilan bog‘lanishi mumkin edi;

3) Korpus lingvistikasi metodlari yetarli statistik miqyosda qo‘llanilmadi, bu esa leksik birliklarning chastotasi, kollokatsion modellari va leksikallashuv dinamikasini empirik tekshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu bois, kelajakdagi tadqiqotlarda interdisiplinar asosni kengaytirish, xususan, tanqidiy diskurs tahlili (CDA), pragmalingvistika va raqamli leksikografiya metodlarini jalb etish foydali bo‘lishi mumkin.



Tadqiqotning natijalar bo'limida tarjimadagi semantik buzilishlar muammosi muhokama qilingan bo'lsa-da, to'laqonli tarjima ekspertizasi o'tkazilmadi.

Shunday qilib, natijalarni mustahkamlash uchun empirik bazani kengaytirish — ya'ni parallel korpuslar, intervyular va tarjima tashkilotlari hisobotlarini tadqiqotga qo'shish — muhim ilmiy zarurat sifatida taqdim etiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, arab diplomatik terminlarini o'rganish uchun lingvistik, madaniyatshunoslik va siyosatshunoslik metodlarini integratsiyalash zarur.

Bunday yondashuv diplomatik terminlarning ko'p qatlamli talqinini ta'minlaydi hamda ularni kommunikativ niyatlar, ritorik strategiyalar va arab dunyosiga xos madaniy kodlar bilan bog'lash imkonini beradi.

Tadqiqotda aniqlangan leksik va konseptual xususiyatlar, arab diplomatik diskursi g'arb diplomatik modelidan farqlanuvchi o'ziga xos dunyoqarashni shakllantirishini ko'rsatadi. Bu o'ziga xoslik quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Jamoaviy qadriyatlar ustuvorligi (hamjihatlik, umumiy mas'uliyat, panarab identitet);
2. Tilning yuqori darajadagi rituallashuvi (formulalar, alluziyalar, metaforalar);
3. Diniy-siyosiy diskursning legitimlashtiruvchi asos sifatida ahamiyati.

Tadqiqot natijalari muhokamasi shuni ko'rsatadiki, arab diplomatik terminologiyasi oddiy leksik tizim bo'lib qolmay, balki arab dunyosining identiteti, mafkurasi va mental yondashuvlarini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniyatshunoslik mexanizmi sifatida qaraladi. Bu tizimni har tomonlama lingvistik, madaniyatshunoslik va pragmatik tahlil qilish talab etiladi.

Kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariy modellarni kengaytirish,
2. Termin tasniflari va korpuslarini ishlab chiqish,
3. Tarjima amaliyotiga va ta'limiy dasturlarga joriy etish.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot arab tilidagi diplomatik terminlarning o'rganilganlik darajasi, strukturaviy xususiyatlari va lingvomadaniyatshunoslik implikatsiyalari bilan bog'liq qator muhim jihatlarni aniqlashga imkon berdi. Asosiy xulosa shundan iboratki, leksikologiya, terminshunoslik va madaniy tilshunoslik sohasida nazariy ishlanmalar ko'p bo'lishiga qaramay, aynan arab diplomatik terminologiyasini tizimli lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish hanuzgacha fragmentar holatda qolmoqda. Bu esa tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

Manbalar korpusini tahlil qilish asosida aniqlanishicha, arab diplomatik leksikasining katta qismi ochiq va yashirin, ya'ni eksplisit va implisit madaniy kodlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kodlar an'anaviy axloqiy tizimlar, diniy me'yorlar, shariatga oid huquqiy diskurs hamda arab-islom sivilizatsiyasining ritorik modellari bilan bog'liqdir.

Tahlilning muhim natijasi shundan iboratki, arab diplomatik tili universal va g'arblashtirilgan kod sifatida talqin qilinmasligi kerak. Aksincha, u islomgacha bo'lgan ritorika, islomiy ilohiyot diskursi hamda postmustamlakachilik kommunikatsiya modeli bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolmoqda.

Shu bois, arab diplomatik terminologiyasining lingvomadaniyatshunoslik asosida tadqiq etilishi nafaqat tilshunoslik nazariyasini boyitadi, balki xalqaro muloqot amaliyotiga, madaniyatlararo anglashuv darajasining oshishiga va samarali diplomatik kommunikatsiyaning shakllanishiga real hissa qo'shadi.



ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ ЮГА ЙЕМЕНА

АЗИЗ ХУДАЙБЕРДИЕВ

Доцент, ТДШУ

Аннотация. В данной статье рассматриваются причины раскола Йемена после объединения в 1990 г. Йеменской Арабской Республики и Народно-Демократической Республики Йемен. Исследуются особенности движения за независимость южного Йемена, рассматриваются этапы становления этого движения и его роли в современной ситуации, которая сложилась на юге Аравийского полуострова после начала войны в Газе в октябре 2023г. В статье отмечено, что планы Южного переходного совета включают восстановление Южного Йемена в границах, которые были в период 1967-1990. Это свидетельствует о том, что перспективы восстановления единого Йемена остаются весьма призрачными.

Ключевые слова: «Южное движение», «Ал-Харак ал-джануби». «Южный Переходный Совет» (Ал-маджлис ал-Интикали ал-Джануби) Аидарус Аз-Зубейди, Аль-Каида на Аравийском полуострове (АКАП).

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1990-yilda Yaman Arab Respublikasi va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi birlashganidan keyin Yaman inqirozi sabablari o'rganiladi. Janubiy Yaman mustaqillik harakatining xususiyatlari, bu harakatning shakllanish bosqichlari va uning 2023-oktabr oyida G'azoda urushdan keyin Arabiston yarim orolining janubida hozirgi vaziyatdagi roli ko'rsatilgan. «Janubiy o'tish kengashining» rejalari Janubiy Yamanni 1967-1990- yillarda bo'lgan chegaralarini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib oldi. Bu birlashgan Yamanni tiklash masalasi hali yechimini topmaganligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: "Janub harakati", "Al-Haraq al-Janubiy". "Janubiy o'tish kengashi" (Al-Majlis al-Intikali al-Janubi), Aidarus Az-Zubeydiy, Arab yarimorolidagi Al-Qoida

Abstract. This article examines the reasons for the split of Yemen after the unification of the Yemen Arab Republic and the People's Democratic Republic of Yemen in 1990. It analyzes the features of the independence movement in southern Yemen, examines the stages of the formation of this movement and its role in the current situation that has developed in the south of the Arabian Peninsula since the start of the war in Gaza in October 2023. It is noted that the plans of the Southern Transitional Council include the restoration of Southern Yemen within the borders that existed in the period 1967-1990, that is, before the unification of the two Yemens. This indicates that the prospects for the restoration of a united Yemen remain very illusory.

Key words: "Southern Movement", "Al-Haraq al-Janubi". "Southern Transitional Council" (Al-Majlis al-Intikali al-Janubi) Aidarus al-Zubeidi, Al-Qaeda in the Arabian Peninsula

Введение. Целью данной статьи является исследование особенностей движения за независимость южного Йемена, этапов его становления и его роли в современной ситуации, которая сложилась на юге Аравийского полуострова.

Характерной чертой гражданской войны в Йемене между «Ансару Алла» (Хуситы) и коалицией, возглавляемой Саудовской Аравией, является то, что в коалиции наметился раскол между сторонниками международно признанного правительства и сторонниками так называемого «Южного движения», которое южнотийменцы называют «Ал-Харак ал-джануби».

Истоки этого раскола восходят к проблемам, которые возникли после объединения двух частей Йемена в 1990 году. Главная проблема заключалась в том, что попытки интеграции



Северного Йемена с Южным окончились провалом. Северяне во главе с Али Абдаллой Салехом, старались подчинить юг политически и экономически. Это вызвало недовольство южан, которых режим Салеха сделал людьми «второго сорта»¹ Исключение южан из политической власти, дискриминация, как гражданских, так и военнослужащих, нарушения прав на землю привело к росту числа сторонников за независимость Юга.

Методы. При подготовке данной статьи были использованы аналитические статьи, материалы исследовательских центров, международных организаций о проблемах урегулирования конфликта в Йемене. Использовались методы анализа и синтеза, а также сравнительно-исторический метод.

Результаты. Особенностью истории Йемена, который в начале XX века был разделен Великобританией и Османской империей на Южный и Северный Йемен, было стремление южан и северян восстановить единый Йемен. Но на пути к объединению помимо внешних, было много внутренних факторов, которые препятствовали осуществлению «йеменской мечты». Различия в политической ориентации ЙАР и НДРЙ, противоречия в видении будущего объединения затягивали процесс воссоединения, который начался в начале 70х годов XX в.

28 октября 1972 г. премьер –министр и министр обороны НДРЙ Али Насер Мухаммед и премьер-министр, министр иностранных дел ЙАР Мохсен аль-Айни, подписали в Каире соглашение о принципах и основах йеменского единства. Согласно этому соглашению объединенное йеменское государство с одной столицей должно было сохранить все завоевания революции 26 сентября 1962 в года на Севере и революции 14 октября 1963 на Юге. Государственный строй объединенного Йемена должен быть «республиканским, национальным и демократическим».

26 ноября 1972 года в столице Ливии Триполи главы ЙАР и НДРЙ Абдурахман Аль-Арьяни и Салем Рубея Али подписали соглашение, в котором предусматривалось создание единого государства по названию «Йеменская Республика» со столицей в городе Сана.

В конце марта 1979 г. в результате переговоров между президентом ЙАР Али Абдаллой Салехом и председателем Высшего народного Совета НДРЙ Абдель Фаттахом Исмаилом была подписана декларация о йеменском единстве. Согласно этой декларации конституционная комиссия приступила к подготовке проекта конституции объединенного государства. Процесс подготовки объединения занял 10 лет.

В 1984 году американская компания открыла в провинции Мариб (ЙАР) залежи нефти промышленного масштаба. В Южном Йемене в провинции Шабва советские геологи в 1987 г. также обнаружили залежи нефти. Открытие нефти на границе двух Йеменов дало дополнительный импульс для объединения Йемена. 22 мая 1990 а Адене президент ЙАР Али Абдала Салех и Генеральный секретарь Йеменской социалистической партии (НДРЙ) Али Салем аль-Бейд подняли флаг объединенного Йемена. Али Абдала Салех был избран президентом Йеменской республики, Али Салем аль-Бейд вице-президентом. Йеменцы надеялись, что объединение будет способствовать достижению безопасности и стабильности, социально-экономическому и политическому развития страны, возрождению политической роли Йемена на региональном уровне.

Но, после объединения вновь проявились факторы, которые приводили к расколу Йемена - вмешательство извне, которое принесло различные идеологии, различную экономическую политику, борьба за власть и влияние между различными политическими группировками,

¹ <https://arabcenterdc.org/resource/the-thorny-relationship-between-yemens-government-and-the-southern-transitional-council/>



убийства высших руководителей, самостоятельность и сила влияния племен на местное население, слабость центральной власти, противоречия между зейдитами и шафиитами, активизация радикальных исламистских организаций, таких как «Аль-Каида», ИГИЛ и др. Идеино-религиозные противоречия между различными течениями в исламе оставались одним из факторов раздробленности и братоубийственных войн в Йемене.¹

21 мая 1994 бывшие лидеры НДРЙ провозгласили воссоздание на юге независимого государства – Демократической Республики Йемен, что привело к новой гражданской войне, но в июле это вооружённое выступление южан было подавлено северийеменской армией.

Несмотря на то, что Абд Раббо Мансур Хади был выходец из юга, он не был популярен в Южном Йемене, так как в апреле - июле 1994 году он принимал активное участие в подавлении в 1994 г. движения южан за независимость. Вице-президент Йеменской Республики, южанин Али Салем аль-Бейд выступил за возвращение независимости Южного Йемена. Именно в этот момент, когда в стране шла гражданская война, Хади в мае 1994 г., занял пост министра обороны Йеменской Республики и руководил вооруженными операциями против южан. После победы северян над южанами Али Абдалла Салех назначил в октябре 1994 г. Абд Раббо Мансур Хади вице-президентом.

В 2007 г в Адене начались протесты, демонстрации южан против центрального правительства северян, которое стало притеснять южан, увольнять их из государственных структур и служб безопасности. Южане требовали восстановить независимое Южнойеменское государство, которое существовало до объединения ЙАР и НДРЙ в 1990 году.

Служба безопасности северян жестоко подавила выступления сепаратистов. В отчете международной организации “Human rights watch” были задокументированы случаи нападения сил безопасности северян на сторонников Южного движения, а также на журналистов, ученых и представителей других профессий. Основываясь на более чем 80 интервью с жертвами в южных йеменских городах Аден и Мукалла, в отчете был сделан вывод о том, что силы безопасности применяли вооруженную силу против невооруженных демонстрантов. Власти арестовали тысячи людей за осуществление своего права на мирные собрания, приостановили работу независимых СМИ, критикующих политику правительства в Санае, и задержали журналистов и писателей по сфабрикованным обвинениям.²

«Власти Йемена нарушают основные права человека во имя сохранения национального единства, — заявил Джо Сторк, заместитель директора ближневосточного подразделения “Human rights watch”³

Протесты южан, первоначально возглавляемые отставными военными, призывающими к увеличению пенсий или восстановлению на работе, быстро переросли в движение, которое выдвинуло не только социальные и экономические требования, - создание большего количества рабочих мест, борьба против коррупции, увеличение доли доходов от нефти для народа, но и политические требования - отделение от Севера и создание независимого южнойеменского государства. Южное движение, первоначально носило мирный характер. Но со временем, сторонники этого движение стали вооружаться, и это движение стало превращаться в военно-политическое движение.

¹ 1.Абдулвахаб М.А. Аль-Раухани, Международные и исторические предпосылки Йеменского объединения. Посольство Йеменской Республики в РФ.- Вестник РУДН, Серия «Международные отношения». 2007.»1 (8).С. 54.

² <https://www.hrw.org/report/2009/12/15/name-unity/yemeni-governments-brutal-response-southern-movement-protests>

³ <https://www.hrw.org/news/2009/12/15/yemen-end-harsh-repression-south>



События «Арабской весны» положили конец 30-летию правлению Али Абдаллы Салеха и началу гражданской войны в Йемене. Ансару Алла (хуситы) взяли под свой контроль Северный Йемен, включая порт Ходейда. Остальная часть была под контролем так называемого международно признанного правительства Йемена, поддерживаемого Саудовской Аравией.

В этих условиях в мае 2017 при поддержке Объединенных Арабских Эмиратов в Адене был сформирован «Южный Переходный Совет» (ЮПС), (Ал-маджлис ал-Интикали ал-Джануби), целью которого было создание «суверенного независимого федерального государства» на территории Южного Йемена. Президентом ЮПС был избран Аидарус Аз-Зубейди, бывший губернатор Адена (с 2016 г), которого за месяц до этого Абд Раббо Мансур Хади уволил с этого поста и назначил новым губернатором Адена Абдул Азиза ал-Мафлахи, сторонника партии «Ислах». Следует отметить, что одним из символов этого движения является контур прежнего Южного Йемена в границах, проложенных еще в начале XX века англичанами и турками.

ОАЭ, поддерживая ЮПС, стремились расширить свое военное присутствие на юге красноморского бассейна с целью обеспечить безопасность судоходства через Красное море и создать стратегические плацдармы не только на Аравийском полуострове, но и на Африканском Роге. Начиная с 2015 года ОАЭ увеличили инвестиции в Эритрею и создали свою военную базу в Асаб. В непризнанном государстве Сомалиленд ОАЭ начиная с 2017 года стали создавать военную базу в портовом городе Бербере. Африканский Рог привлекает внимание и других стран. На территории Джибути уже развернуты военные объекты Италии, США, Франции, Японии, Пакистана и Китая. В июле 2019 г. ОАЭ объявили о сокращении численности своих войск в Йемене и переходе от военной стратегии к мерам по достижению мирного урегулирования.

В 2017 г на праздновании 54 годовщины революции 14 октября президент ЮПС, генерал-майор Аидарус Аз-Зубейди объявил о создании Высшего законодательного органа ЮПС-Национальной ассамблеи, состоящей из 303 представителей южных губерний и различных социальных слоев.¹ ЮПС предпринял шаги для международного признания и 12 февраля 2018 г. в Берлине было открыто первое зарубежное представительство ЮПС.

Но, в конце января 2018 г в Адене между сторонниками Абд Раббо Мансур Хади и сторонниками «Южного переходного Совета» произошло вооруженное столкновение, в результате которого сепаратисты захватили здание международно признанного правительства в Адене. Были убиты 33 и ранены 220 человек. С августа 2019 года силы Южного переходного совета взяли под свой полный контроль город Аден, который ранее был объявлен временной столицей Йемена.

Вооруженное противостояние между членами Саудовской коалиции значительно ослабило ее силы. Саудовская дипломатия приняла решительные меры для урегулирования конфликта внутри коалиции и добилась согласия противоборствующих сторон на встречу в Эр-Рияде. 5 ноября 2019 года правительство Йемена и Переходный совет при посредничестве Саудовской Аравии подписали в Эр-Рияде соглашение о примирении, и формировании нового правительства, в котором представлены южные и северные районы. Это соглашение было направлено на объединение ЮПС и правительства Абд Раббо Мансура Хади и предусматривало разделение власти между ними. ЮПС, согласно соглашению должен был передать южные территории, включая и Аден, под контроль единого правительства. Согласно

¹ President of the Southern Transitional Council Al-Zubaidi Announces the Establishment of the National Assembly. <https://en.stcaden.com/news/7931>



соглашению вооруженные силы ЮПС должны перейти под контроль единого правительства и находиться в подчинении министерству обороны и министерству внутренних дел. Под контролем коалиции среднее и тяжелое вооружение в Адене должно было быть изъято и храниться в военных лагерях, выбранных коалицией.¹

Но, 26 апреля 2020 г. Южный переходный совет объявил о создании автономии на юге Йемена.² В условиях отсутствия поддержки идеи автономии юга Йемена со стороны большинства южнотийменских племен этот шаг носил скорее всего декларативный характер. 29 июля 2020 года ЮПС под нажимом Саудовской Аравии отказался от самоуправления в Адене и других территорий, которые находились под его контролем. Вновь Правительство и ЮПС согласились создать объединенное правительство. В середине декабря 2020 года такое правительство во главе с премьер-министром Маином Абдельмаликом Саидом было сформировано и представители ЮПС получили пять мест.

7 апреля 2022 года президент Йемена Абд-Раббу Мансур Хади, который давно потерял реальную власть и даже поддержку Саудовской коалиции, был вынужден объявить о создании Президентского руководящего совета (ПРС Presidential Leadership Council) и передаче этому органу полномочий по управлению государством на переходный период по итогам межтийменских переговоров, проходивших в Эр-Рияде под эгидой ООН.³ Рашад Мухаммад ал-Алими, бывший министр внутренних дел и советник президента Абд-Раббу Мансур Хади, стал председателем Президентского руководящего совета. В состав этого Совета вошли Аидрус аль-Зубайди, глава Южного переходного совета (ЮПС), поддерживаемого ОАЭ, Тарек Салех, военачальник и племянник покойного бывшего президента Али Абдуллы Салеха; и шейх Султан аль-Арада, губернатор богатой нефтью провинции Мариб. Для поддержки деятельности Президентского руководящего совета Саудовская Аравия выделила 2 миллиарда долларов, ОАЭ – 1 миллиард долларов.⁴

В то же время ЮПС продолжил расширять сферу своего влияния и в августе 2022 г. южане взяли под свой контроль две долины в провинции Абьян, которые ранее контролировала Аль-Каида на Аравийском полуострове (АКАП).

Перспективы разрешения конфликта не только в Йемене, но и других регионах Ближнего Востока наметились только после встречи представителей Саудовской Аравии и Ирана в марте 2023 г в Пекине при посредничестве Китая. КСА и Иран договорились восстановить дипломатические отношения и положить конец конфронтации между этими странами, которая длилась более 40 лет. Восстановление дипломатических отношений между КСА и Ираном, которые играют большую роль в йеменском конфликте, дало надежду на установление мира на юге Аравийского полуострова и урегулирование спорных вопросов между воюющими сторонами. В начале апреля 2023 года саудовская делегация во главе с послом королевства в Йемене Мухаммедом аль-Джабером провела в Сане переговоры с хуситами о прекращении огня в Йемене и началу процесса по урегулированию конфликта.

Но, после начала войны в Газе 7 октября 2023 года, боевики движения ХАМАС нанесли внезапные удары из сектора Газа по приграничным городам и поселкам Израиля. Около 1200 израильтян было убито, более 200 взяты в заложники. Эта операция получила название «Наводнение Аль-Акса» (عملية طوفان الأقصى). В ответ на это Израиль начал против ХАМАС

¹ <https://www.saudiembassy.net/sites/default/files/Riyadh%20Agreement%20Fact%20sheet.pdf>

² <https://www.aa.com.tr/ru/1820847>

³ Imad.K.Harb A Ceasefire and a Presidential Council, but Uncertainties Abound in Yemen (arabcenterdc.org)

⁴ <https://arabcenterdc.org/resource/a-ceasefire-and-a-presidential-council-but-uncertainties-abound-in-yemen/>



операцию «Железные мечи», которая превратилась в кровопролитную войну не только против боевиков ХАМАС, но и против мирных жителей Газы. По состоянию на май 2025 года в Газе убито более 50 тысяч палестинцев, включая женщин и детей. ООН выразил крайнюю озабоченность в связи с гибелью в Газе 310 сотрудников ООН.¹

Согласно сообщению «Ал-Джазира» в ходе войны в Газе израильтяне убили 232 журналиста. Исследование проекта Costs of War при Институте Уотсона Брауновского университета пришло к заключению, что в секторе Газы было убито больше журналистов, чем в ходе всех крупных войн последних 160 лет — включая Гражданскую войну в США, обе мировые войны, конфликты в Корее, Вьетнаме, Югославии, Афганистане и другие.²

Из арабских стран только Северный Йемен (хуситы) и ливанская Хизбулла попытались оказать военную поддержку палестинцам Газы. С середины ноября 2023 Ансар Алла приступили к операциям по обстрелу и захвату коммерческих судов, которые доставляют грузы в Израиль через Красное море, или связаны с Израилем.

Но, Южный переходный совет решил воспользоваться ситуацией, сложившейся на Красном море, и предложил Израилю заключить союз для совместной защиты судоходства через Красное море от атак хуситов с целью получить признание права южан на независимость.³ ЮПС заявил, что хуситы действуют как инструмент Исламской Республики Иран и выразил готовность сотрудничать с партнерами по арабской коалиции и другими региональными и международными партнерами для обеспечения безопасности судоходства через Красное море.⁴ ЮПС приветствовал решение президента США Дональда Трампа объявить группировку хуситов иностранной террористической организацией и подтвердил свою готовность работать вместе с региональными партнерами и международными союзниками для сдерживания угроз, создаваемых терроризмом хуситов на Красном море.⁵

Заключение. Южное движение, первоначально носило мирный характер. Но со временем, сторонники этого движение стали вооружаться, и это движение стало военно-политическим движением.

Движение за независимость Южного Йемена прошло 3 основных этапа:

1. 1994 21 мая 1994 бывшие лидеры НДРЙ провозгласили воссоздание на юге независимого государства — Демократической Республики Йемен, что привело к новой гражданской войне

2. 2007 — протесты, демонстрации южан в Адене против центрального правительства северян, которое стало притеснять южан, увольнять их из государственных структур и служб безопасности. Южане требовали восстановить независимое Южнотийменское государство, которое существовало до объединения ЙАР и НДРЙ в 1990 году. Протесты были жестоко подавлены северянами

¹ <https://www.unrwa.org/newsroom/official-statements/unrwa-commissioner-general-gaza-summary-execution-among-more-310-unrwa>

² More journalists killed in Gaza than in any war since 1800s

<https://www.middleeasteye.net/live-blog/live-blog-update/more-journalists-killed-gaza-any-war-1800s>. 1 April 2025.

³ Saudi, UAE-backed groups in Yemen look to back Israel against Ansarallah <https://new.thecradle.co/articles-id/15308>

⁴ Official Statement by Southern Transitional Council

<https://en.stcaden.com/posts/11450>

⁵ Southern Transitional Council Welcomes U.S. President Donald Trump's Decision to Designate the Houthis Group as a "Foreign Terrorist Organization"

January 23, 2025 <https://en.stcaden.com/posts/12182>



3. В мае 2017 при поддержке Объединенных Арабских Эмиратов в Адене был сформирован «Южный Переходный Совет» (ЮПС), (Ал-маджлис ал-Интикали ал-Джануби), целью которого было создание «суверенного независимого федерального государства» на территории Южного Йемена.

ОАЭ, поддерживая ЮПС, стремятся укрепить свое влияние на юге Йемена и контролировать морские пути вокруг Аравийского полуострова.

Планы ЮПС включают восстановление Южного Йемена в границах, которые были в период 1967-1990, то есть до объединения двух Йеменов. Это свидетельствует о том, что перспективы восстановления единого Йемена остаются весьма призрачными



IODANIYADA DAVLAT-QABILA MUNOSABATLARINING JAMIYAT VA SIYOSIY TIZIM BARQARORLIGIGA TA'SIRI

SHAVKAT IKROMOV

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, TDSHU

Annotatsiya. Iordaniya monarxiasining bugungi kungacha saqlanib qolishining asosiy omili va tayanchi qabilalardir. Ular doimo davlatning tayanchi bo'lib kelgan va ular bilan ichki ittifoqning ijtimoiy-siyosiy shakllari Iordaniya siyosiy rejimi duch kelgan asosiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga imkon bergan. XX asrning yigirmanchi yillardagi vahhobiylar muammosi, ellik-oltmishinchi yillardagi nosirchilar muammosi, o'tgan asrning yetmishinchi yillaridagi falastinliklar muammosi shular jumlasidandir. Iordaniya 1976-yilda qabila urf-odatlarini rasman bekor qilgan bo'lsa-da, qabila qonunlari fuqarolik qonunchiligi bilan birga va ba'zan qarama-qarshi bo'lsa-da, amal qilishda davom etmoqda. Qabila qonunlari va odatlari qabila yetakchilari va hoshimiylar oilasi o'rtasida erishilgan bay'at ta'sirida hamon amal qilib keladi.

Maqolada, Iordaniyada davlat va fuqarolik institutlari faoliyatida qabilachilikning ta'siri siyosiy partiyalar, saylov jarayonlari hamda sudlov tizimi misolida o'rganildi. Tadqiqot obyekti bo'lgan Iordaniya qabilachilik tizimining xususiyatlari Iordaniya va boshqa arab davlatlari hamda g'arbda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar, Iordaniya davriy matbuoti materiallari asosida tadqiq qilindi. Matn diskurs tahlil usulini qo'llagan holda shakllantirildi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Iordaniyada siyosiy tizim va jamiyatni tadqiq qilish qabilalarni tushunishdan boshlanadi. Zero, akademik doiralarda ham, siyosiy doiralarda ham mamlakatdagi barcha siyosiy institutlar, kuch tuzilmalari va davlat mavjudligining manbasi, birdamlik va xavfsizlikning kafolati qabilalar ekanligi doimiy ravishda tan olinadi. Shuningdek, urug'-qabilachilik munosabatlari bizning mintaqamiz uchun ham begona emasligi mazkur masalada xorijiy tajribani o'rganish zaruriyatini inkor qilmaydi.

Kalit so'zlar: Urug'-qabila, badaviylar, qabila odatlari, qabila qonunlari, qabila partiyasi, partiya qabilasi.

Abstract. Tribes are the main factor and foundation for the preservation of the Jordanian monarchy to this day. They have always been its support, and the socio-political forms of internal alliance with them have enabled the Jordanian political regime to overcome the major challenges it has faced. These include the Wahhabi issue of the 1920s, the Nasserist problem of the 1950s and 1960s, and the Palestinian issue of the 1970s. Although Jordan officially abolished tribal customs in 1976, tribal laws continue to operate alongside, and sometimes in contradiction with, civil legislation. Tribal laws and customs remain in effect due to the influence of the pledge of allegiance (bay'at) reached between tribal leaders and the Hashemite family.

The article examines the influence of tribalism on the activities of state and civil institutions in Jordan, using political parties, electoral processes, and the judicial system as examples. The characteristics of the Jordanian tribal system, which is the object of this research, were studied based on scientific literature published in Jordan and other Arab countries, as well as in the West, and materials from the Jordanian periodical press. The text was formulated using the method of discourse analysis.

The relevance of the topic lies in the fact that studying the political system and society in Jordan begins with understanding tribes. Indeed, both in academic and political circles, it is consistently acknowledged that tribes are the source of all political institutions, power structures, and the state's existence in the country, as well as the guarantor of unity and security. Furthermore, the fact that tribal relations are not foreign to our region does not negate the necessity of studying foreign experiences in this matter.

Keywords: Clan-tribe, nomads, tribal customs, tribal laws, tribal party, party tribe.

Аннотация. Ключевым фактором и опорой сохранения иорданской монархии до наших дней являются племена. Они всегда были ее опорой, и социально-политические формы внутреннего союза с ними позволили иорданскому политическому режиму преодолеть основные трудности, с которыми он столкнулся. Среди них проблема ваххабитов в двадцатых годах XX века, проблема насеристов в пятидесятых-шестидесятых годах, проблема палестинцев в семидесятых годах прошлого века. Хотя Иордания официально отменила племенные обычаи в 1976 году, племенные законы продолжают действовать наряду с гражданским законодательством, а иногда и вопреки ему. Племенные законы и обычаи продолжают действовать под влиянием присяги, данной между вождями племен и семей хашимитов.

В статье рассматривается влияние племенного строя на деятельность государственных и гражданских институтов в Иордании на примере политических партий, избирательных процессов и судебной системы. Особенности племенной системы Иордании, являющейся объектом исследования, были изучены на основе научной литературы, опубликованной в Иордании и других арабских странах, а также на Западе, и материалов периодической печати Иордании. Текст был сформирован с использованием метода дискурсивного анализа.

Актуальность темы заключается в том, что изучение политической системы и общества в Иордании начинается с понимания племен. Ведь как в академических, так и в политических кругах постоянно признается, что источником существования всех политических институтов, силовых структур и государства, гарантом единства и безопасности в стране являются племена. Кроме того, тот факт, что родоплеменные отношения не чужды и нашему региону, не исключает необходимости изучения зарубежного опыта в этом вопросе.

Ключевые слова: Род-племя, кочевники, племенные обычаи, племенные законы, племенная партия, партия племени.

Kirish. Urug'-qabilachilik munosabatlari johiliyat davridan to islom dini orqali hozirgi kunga qadar arab jamiyatining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Arab urug'-qabilachilik jamiyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, bir tashkiliy birlik ichida bir qator boshqa kichik guruhlarining ham mavjudligi va turli bo'linmalarini ifodalovchi atamalarning ham ko'p ekanligi tadqiqotchi uchun bu masalani yanada chigallashtiradi. Masalan, "qabila" (قبيلة) va "al-ashira" (العشيرة) (urug', qabila) so'zlari ko'pincha bir xil ma'noda qo'llaniladi. Janubiy Iordaniyadagi Xoveytatlar (الحويطات) va rasman ularning tarkibiga kiruvchi Bdullar (البدول) bir xil darajada qabilalar deb yuritilishida yoku mustaqil qabila bo'lmish Rvalaning (الرولة) ayni paytda mohiyatan qabilaviy konfederatsiyani ifodalovchi Anaza (عنزة) tarkibiga kirishi kabi holatlar bunga misol bo'ladi. [Ghazi bin Muhammad, 1999, pp. 9–10]

Bir davlatning turli qismlarida va hatto butun mintaqada yashovchi ko'plab o'troq urug'lar bir ajdodga va shunga mos ravishda bir xil nomga ega. Bu o'rinda Yaqin Sharqda mashhur bo'lgan Zoobi,

Rifai, Keylani yoki Jeylani, Kanaan, Xatib va boshqa oilalarni misol keltirish mumkin. Boshqa holatda, mutlaqo qarindosh bo'lmagan urug'lar va qabilalar ularning ota-bobolarining o'xshash ismlari bilan belgilanishi chalkashliklarga olib kelishi mumkin, masalan, Bani Kaab oilasi haqida gapirilganda faqat kontekstdan gap aynan qaysi Bani Kaab haqida ketayotganini aniqlash mumkin - Bani Kaab Ben Amr, Bani Kaab Ben Rabia yoki Bani Kaab Ben Luay. Arablar ashira va qabila atamalarini deyarli farqlamaydi. Yirik badaviy qabilalar doimo qabila deb ataladi, boshqalarga nisbatan esa urug' atamasi ham qabila ham birdek qo'llanilaveradi. [А.Р.Аганин, З.А.Соловьева., 2003, с. 147.]

Mohiyatan, barcha arab jamiyatlari qabilachilik munosabatlari asosida shakllangan va davlat tashkil topishida ham mazkur omil tayanch nuqta sifatida qabul qilingan. Aslida qabilalar faqat Iordaniyaga xos bo'lmay, balki bir qancha arab va arab bo'lmagan mamlakatlarda ham keng tarqalgan. Qabilalar yoki qarindoshlik tarmoqlari Iroq, Liviya, Livan, Falastin, Yaman va Fors ko'rfazi mamlakatlarida muhim siyosiy guruhlar hisoblanadi. Ular Markaziy Osiyoning Afg'oniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston kabi davlatlarida ham mavjud. Indoneziyaning qishloq va chekka hududlarida qabilalar hamon ijtimoiy tashkilotning asosiy shakli bo'lib xizmat qilmoqda va qabila hamda urug' a'zolari o'z oilalari uchun ajratilgan ma'lum yer uchastkalarida yashaydilar.

Boshqa arab davlatlarida bo'lganidek, Iordaniya Hoshimiylar qirolligida ham davlat qurilishining poydevori va tayanchi qabilalar hisoblanadi. Qabilachilik zamonaviy Iordaniyaning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan xavfsizlik kafolati va jamiyat barqarorligining omili sifatida ko'riladi. Iordaniya davlati uch asosiy ustunga tayanadi: taxt instituti, harbiy va xavfsizlik tuzilmalari va qabilachilik instituti. Bu uch ustundan birortasi zaiflashsa yoki izdan chiqsa, bu davlat uchun jiddiy tahdidga aylanadi va hatto uning mavjudligiga xavf solishi mumkin. [3]

Podshoh Abdulloh II (Abdulloh ikkinchi ibn Husayn al-Hoshimiy) qabilaning kechirimlilik va birdamlik qadriyatlarini saqlovchisi ekanligi, jamiyat barqarorligida tutgan o'rmini alohida ta'kidlagan. U qabilani jamiyat qurilishidagi asosiy tayanch, davlat idoralari va xavfsizlik muassasalarining qo'llovchisi va yordamchisi hamda vatanga sadoqat va oliy qadriyatlarning ramzi deb hisoblaydi.[4]

Maqolada, Iordaniyada davlat va fuqarolik institutlari faoliyatiga qabilachilikning ta'siri siyosiy partiyalar, saylov jarayonlari hamda sudlov tizimi misolida o'rganildi. Tadqiqot obe'kti bo'lgan Iordaniya urug'-qabilachilik munosabatlarining xususiyatlari Iordaniya va boshqa arab davlatlari hamda g'arbda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar, Iordaniya davriy matbuoti materiallari asosida tadqiq qilindi. Matn diskurs tahlil usulini qo'llagan holda shakllantirildi.

Qabila davlat munosabatlarining qisqacha tarixi

Qabila Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi tashkil topganidan buyon Iordaniya tuzumining barqarorligini ta'minlovchi eng muhim ustunlardan biri bo'lib kelmoqda. Zamonaviy Iordaniyaning tashkil qilinishida 1916–1918-yillarda Yaqin Sharq mintaqasini keng qamrab olgan “Arab qo'zg'olonlari” (arabchada: *العربية الثورة*) katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu qo'zg'olonlar davrida Makka va Hijozning hoshimiy hukmdori Sharif Husayn ibn Ali (Husayn bin Ali) Buyuk Britaniya yordami va undovi bilan usmonli turklarga qarshi qo'zg'olon boshlagan. Bu kurashda Husayn bin Aliga Sharqiy Iordaniyadagi nufuzli qabilalar: Xoveyatlar (Auda Abu Tayi rahbarligida), Bani Sahr va Rvala kabilar katta yordam ko'rsatgan. 1921-yilda Husaynning o'g'li Abdulloh (Abdulloh ibn Husayn) inglizlar tomonidan Transiordaniya amirligining (arabchada: *إمارة شرق الأردن*) amiri etib tayinlanganda



va 1923-yilda Buyuk Britaniya nazorati ostida Transiordaniya mustaqilligi e'lon qilinganda ham qabilalar dastlab Abdullohga qarshi isyon ko'targan, keyinchalik esa uning hokimiyatiga bo'ysunib, sodiqlik bitimlarini tuzgan edi.[5]

1928-yildan Abdullohning Ammondagi hokimiyati mustahkamlanib, vakolatlari kengayib, nazorat va xavfsizlik tuzilmalari asta-sekin markazlashib mahalliy qo'lga o'ta boshlaganda ham qabilalarga bo'lgan munosabat barqaror o'sib bordi.[Alon Y. 2005, pp. 213.]

1946-yil 25-mayda Transiordaniya to'liq mustaqillikka erishdi va Abdulloh Transiordaniya Hoshimiylar Qirolligining qiroli deb e'lon qilindi. 1948-yilgi Arab-Isroil urushidan so'ng qiroli Abdulloh Falastinning Iordaniya bilan chegaradosh kapalak shaklidagi hududini (keyinchalik G'arbiy qirg'oq deb atalgan) o'z hududiga qo'shib oldi.[Murphy, D 2003.] 1950-yil 24-aprelda Sharqiy va G'arbiy soxillarda umumiy saylovlar o'tkazilgandan so'ng, Iordaniya nazoratidagi Falastin va Transiordaniya Qirolligi birlashib, Iordaniya Hoshimiylar Qirolligini tashkil etish to'g'risidagi bitim imzolandi. [Ланда, P.2003. с. 78] Ikki qirg'oqning birlashuvi yoki qo'shib olinishi muhokama qilinayotgan masala doirasida muhim voqea hisoblanadi. Bu voqea ikki qirg'oqni birlashtirish natijasida yuzaga kelgan integratsiyani tezlashtirish maqsadida Falastinning ijtimoiy tarkibiy qismlarini qo'shish bo'yicha hokimiyat yo'nalishini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatdi.[2004 ج مسعد،] Bu yerda Falastin jamiyatida odatda Iordaniya jamiyatida tushunilgan ma'noda urug'-aymoq elementining yo'qligi nazarda tutilmoqda. Shu sababdan, ikki qirg'oq birlashgandan so'ng, 1950-yillarning boshidan 1967-yillarga qadar Iordaniya qabilachilik tizimi va fuqarolik institutlari o'rtasida diskurs boshlandi.

1970-yillarga kelib tuzumning qabilaviy va urug'-aymoqchilik xususiyati haqidagi g'oya yana mustahkamlana boshladi. Iordaniya davlatlichiligining asosida urug'-qabilachilik munosabatlari ustuvor ekanligi to'g'risidagi g'oya barcha arab intellektual va siyosiy doiralarda jamiyat va davlatning umumiy qiyofasida ustuvorlik qildi.[مشاقبة، 2021]

1989-yilda boshlangan liberal islohotlar esa bu g'oyalarni o'zgartirdi, turli doiralarda hukumat va qabilalar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro himoya asosida qurilgan degan tushunchaga chek qo'yildi. Hukumat va uning muxoliflari tomonidan deyarli sezilmagan to'satdan yuz bergan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish natijasida ilgari "qabila" ya'ni barqaror deb hisoblangan hududlarda xalq noroziligi boshlandi. Bu hukumatning qabilalar bilan munosabatlarini an'anaviy tasniflashning tugashini belgiladi, shuningdek, qabilalar va Iordaniya hukumati o'rtasidagi yangi munosabatlar haqida nisbatan ochiq munozara boshlandi.[11. zamancom.com]

Shu tariqa yillar davomida hoshimiylar sulolasi va qabilalar Iordaniya rejimining ikki ustuni va o'ziga xosligi sifatida shakllandi. Milliy identiklikning bir qismi sifatida iordaniyalik bo'lish, avvalo, tarixi Iordaniya qabila yetakchilarining qo'llab-quvvatlashiga asoslangan monarxiya tizimiga sodiqlikni anglatadi boshladi. Demak, yillar davomida jamiyat va siyosiy doiralarda hamda xorijlik hamkorlarda urug'-qabilachilik munosabatlariga nisbatan qarashlardagi o'zgarishlar Iordaniyadagi mazkur tizimning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini pasaytirmadi, uning o'ziga xosligiga ta'sir o'tkaza olmadi.

Iordaniya urug'-qabilachilik munosabatlarining o'ziga xosligi



11,55 million (2024 y.) aholiga ega, Iordan daryosining ikki qirg'og'ida shakllangan ikki jamiyatni birlashtiruvchi Iordaniya Hoshimiylar qirolligida urug'-qabilachilik munosabatlari butun mamlakat bo'ylab bir tekisda tarqalgan deb ayta olmaymiz. Rivojlangan shaharlarda bu tushuncha tobora yo'qolib bormoqda. Iordaniyalik jurnalist Nahed Hattar o'zining "Qabilalar o'z davlatini yo'qotmoqda" sarlavhali maqolasida: "Agar Iordaniyadagi monarxiya bugungi kungacha saqlanib qolgan bo'lsa, buning uchun u Iordaniya qabilalariga qarzdor. Ular doimo uning tayanchi bo'lib kelgan va ular bilan ichki ittifoqning ijtimoiy-siyosiy shakllari Iordaniya siyosiy rejimiga duch kelgan asosiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga imkon bergan: yigirmanchi yillardagi vahhobiylar muammosi, ellik-oltmishinchi yillardagi nosirchilar muammosi, o'tgan asrning yetmishinchi yillaridagi falastinliklar muammosi, bu muammolarning har biri rejimni ag'darib tashlashi mumkin edi" – deb yozadi.[Al Shalabi, J., Ali, Y. 2013. P 85] Muallif urug'-qabilalar nufuzining pasayib borayotganligini iordan jamiyati uchun xatar deb hisoblaydi. Yana bir iordan tadqiqotchisi Al-Muhaysen o'zining "Transiordaniyadagi qabila va davlat" nomli asarida "Iordaniyada hech qachon to'g'ridan to'g'ri markaziy hokimiyatning biron-bir shakliga ko'nikish bo'lmagan" – deb yozadi, [المحيسن، 2020] unga ko'ra, urug'-qabilalarning mavjudligi Iordaniya mavjudligini anglatadi. Antropolog E.Gao - "Iordaniyadagi har bir kishi qarindoshlik tarmog'ining bir qismi bo'lgani uchun, barcha iordaniyaliklar qabilaga mansub deyish mumkin." – deb hisoblaydi.[Gao, E. 2016.]

Ta'kidlaganimizdek ko'p millatli iordaniyaliklarning hammasi ham biror qabila yoki urug'iga mansub emas, qabilachilik munosabatlari asosan mamlakatning Iordaniya badiyasida (بادية الأردن) - badaviylar joylashgan hududlarida keng tarqalgan.

Britaniya ensiklopedisida Iordaniyada badaviylar mamlakat aholisining 10 foizdan (2025 y.)¹ kam bo'lmagan qismini tashkil qiladi deb ko'rsatilgan. Joshua Project ma'lumotlarida mamlakatda 1560 000 badaviylar (2025 y.)² borligi qayd etilgan. Odatda badaviylarni biz ko'chmanchilar deb bilsak-da, mazkur keltirilgan aholi nufuzining uchdan bir qismigina haqiqiy ko'chmanchilardir. Shunday bo'lsa-da, bu toifaga qisman bo'lsa-da, ko'chmanchi xo'jalik yuritayotgan qabilalardan kelib chiqqan barcha kishilar kiritiladi. Bugungi kunda badaviylar qatoriga quyidagi qabilalarni kiritish qabul qilingan: Markaziy Iordaniyada - Bani Saxr (بني صخر) va Bani Atiya (بني عطية); Shimolda - Bani Xaled (بني خالد), Sirxan (السرحان), Sardiya (السردية), al-Isa (العيسى), Axl al-Jabal (أهل الجبل); Janubda – Xoveytat (الحويطات), Xajaya (الحجايا), Nueymat (النعيمة). Ulardan tashqari, mamlakat hududida Anaza, Rvala va Shammar kabi yirik arab qabilalarining alohida urug'lari yashaydi. Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, birinchi arab-isroil urushidan keyin Iordaniyaga Beer-Sheva (ularning umumiy nomi – Sab'auyin (السبعوين)) hududidan ko'chmanchi qabilalar - al-Azazma, al-Jabarat, at-Tayaxa va at-Tarabin ko'chib kelgan. Ular Iordaniyaning janubi va Madaba hamda Zarqa shaharlari atrofidagi kichik hududlarni egallab, jami 200 mingga yaqin aholiga ega. [Ghazi bin Muhammad, 1999, pp. 9–10]

Iordaniya badiyasi (بادية الأردن) (badaviylar joylashgan hudud) ma'muriy jihatdan uch qismga - Janubiy, Shimoliy va Markaziy qismlarga bo'linadi. Ular birgalikda shimoldan janubga cho'zilgan va Iordaniya hududining deyarli 81 foizini (72 ming km²) egallagan yagona cho'l zonasini hosil qiladi.

¹ https://www.britannica.com/place/Jordan?utm_source=chatgpt.com Aug 6, 2025 • Article History.

² Bedouin Arab in Jordan. https://joshuaproject.net/people_groups/10758/JO?utm_source=chatgpt.com



Bu cho'l zonasining eng katta hududi - Janubiy Badiya - 51 foiz (36,7 ming km²), Shimoliy Badiya - 35,5 foiz (25,6 ming km²), Markaziy Badiya - 13,5 foiz (9,7 ming km²) ni tashkil etadi. Deyarli barcha yirik qabilachilik tuzilmalari 2001-yildagi Saylovlar to'g'risidagi qonunda (parlamentga) ro'y-xatga olingan bo'lib, bu ularning saylov okruglari bo'yicha aniq taqsimlanishini va shunga mos ravishda deputatlar palatasida teng vakilligini ta'minlaydi. [A.P.Аганин, З.А.Соловьева. 2003, с. 146.]

Iordaniya badiyasisidan tashqaridagi turli mintaqalarida qabilalar notekis joylashgan, ba'zi munitsipalitetlar "monotribal" (bir qabilali) bo'lib, ularning aholisi asosan bitta qabilaga mansub, boshqalari esa "o'rtacha" miqdordagi qabilalarga ega. Ayrim munitsipalitetlarda esa juda ko'p qabilalardan iborat aholi yashaydi va bu joylarda biror qabila demografik jihatdan ustunlik qila olmaydi. Boshqaruv to'liq markazlashtirilgan va mahalliy rahbarlar markazdan tayinlanadigan ba'zi arab mamlakatlaridan farqli o'laroq, Iordaniyadagi munitsipalitetlar o'z rahbarlarini saylaydilar va markaziy hukumat tomonidan ta'minlanmaydigan bir qator xizmatlar uchun mas'uldirlar. Bu holat esa qabilachilik munosabatlarining ahamiyatini oshiradi.

Iordaniyadagi eng yirik qabila Bani Hasan bo'lib, u, 1 millionga yaqin a'zo va 89 ta alohida urug'ga ega. Bani Hasan kabi yirik qabilalar dastlab tarmoqlarga bo'linadi, ular bo'limlarga, bo'limlar esa kichik bo'limlarga ajraladi. [Kenny, P. 2024. P. 78] Yuqorida eslatib o'tilganidek, bu bo'limlarning nomlanishida bahsli masalalar bo'lsada ular o'zlarini katta qabila tarkibida hisoblashadi. Buning o'ziga xos sabablari bor. Bu bo'limlar o'zlarining alohida o'ziga xosligini ham shakllantirishi mumkin, bu agar ular faol rivojlanib ketsa, qabila ichida muammo yuzaga kelsa yoki urug' a'zolari uzoq vaqt davomida asl qabiladan uzoqda yashasa sodir bo'ladi. [Shryock A. 2021, pp. 512-516.] Qabilalar bir hududga birgalikda ko'chib o'tganda, (Bu Iordaniyada tez-tez sodir bo'ladi) ular umumiy o'ziga xoslikni qabul qilishlari ham mumkin. Misol uchun, Madabadagi Shavabkeh qabilasining a'zolari turli genealogik ildizlarga ega, ammo ularning barchasi XIX asr boshlarida Shovbak hududidan ko'chib kelgan.

Iordaniyaliklar uchun qabila - bu umumiy ma'noda "haqiqiy yoki tasavvurdagi umumiy kelib chiqish tushunchalari bilan boshqa guruhlardan ajralib turadigan odamlar guruhi"dir. Iordaniyada tan olingan va kundalik hayotda qo'llaniladigan qabila tushunchasi bu o'ziga xos va ma'lum ijtimoiy o'zlikni anglatuvchi toifadir. Bu yerda qabila - genealogiya bilan belgilangan ijtimoiy guruh, biroq u qat'iy yoki aniq nasl-nasabni anglatishi shart emas, u umumiy, yarim afsonaviy ajdod e'tirof etiladigan hikoya ichidagi qarindoshlikni ham anglatadi. [Kenny, 2024, p. 87]

Qabila a'zolariga: ota urug' avlodlari, nikoh rishtalari orqali qarindosh bo'lganlar, tarixan qabila bilan ittifoqdosh bo'lganlar yoki sobiq qullar kabi yillar davomida qo'sxilgan guruhlar kiradi. Bu guruhlarining barchasi qabilada bir xil mavqega ega emas. Hatto bugungi kunda ham qabilaga bosqinlardan himoyalaniş uchun qo'sxilgan sobiq qullar yoki oilalardan tashkil topgan qabila bo'limlari past tabaqali deb hisoblanishi mumkin. Bunday guruhlar va qabilaning qolgan qismi o'rtasidagi nikohlar ma'qullanmaydi. Iordaniyadagi har bir kishi qarindoshlik tarmog'ining bir qismi bo'lgani uchun, barcha iordaniyaliklar qabilaga mansub deyish mumkin. [Gao, 2016]

Qabila hajmi guruhning nufuzini ko'rsatuvchi belgilardan biridir. Katta qabila saylovlarda sezilarli yordam beradi. Turli qabilalarga mansub shaxslar o'rtasidagi nizoda ko'p sonli qarindoshlarning ishtiroki har bir tarafning mavqeini mustahkamlaydi. Iordaniyalikni kichik qabilaga mansublikda ayblash haqorat hisoblanadi, chunki bu uning oilasi ta'sirsiz ekanligini anglatadi. Biroq nafaqat hajm,



balki qabilalar jipsligi ham ta'sirni belgilaydi. Masalan, "Abbodiy" konfederatsiyasi 80 000 dan 100 000 gacha a'zoni o'z ichiga olishi aytiladi, ammo u o'zidan o'n baravar kichik bo'lgan "Advan" qabilasiga qaraganda ko'proq parchalangan. [Antoun, R. 2000. P. 457.]

Qabilalar tirikchilik manbalariga qarab ham farqlanadi. O'troq yoki dehqon qabilalar ekin yetishtirgan va bir joyda qolishga moyil bo'lgan, ko'chmanchi qabilalar esa hayvonlarni, odatda echki va tuyalarni boqish uchun bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurgan.

Tarixda qabilalarni merosxo'r yetakchilar - shayxlar boshqargan. Qabila aholisi, shuningdek, 1970-yillargacha Iordaniya davlati tomonidan tan olingan "urf" yoki "qavaid" deb nomlanuvchi o'zlarining odat huquqi tizimiga ega edi. Masalan, bir qabila a'zosi boshqa qabila vakilini o'ldirganlikda aybdor deb topilsa, u o'z qabilasining xamsasi bilan birga hududni tark etishi kerak edi. (bu haqida quyida batavsil)

Qabila qonunlari va fuqarolik qonunchiligi: mutanosiblik va ziddiyatlar

Iordaniya 1976-yilda qabila urf-odatlarini rasman bekor qilgan bo'lsa-da, qabila qonunlari fuqarolik qonunchiligiga parallel ravishda, ba'zan esa unga to'g'ridan to'g'ri zid tarzda amal qilishda davom etmoqda. Qabila qonunlarining saqlanib qolishiga qisman monarxiyaning qabilalar va ularning yetakchilariga sadoqat va qo'llab-quvvatlash evaziga ko'rsatgan imtiyozlari sabab bo'lgan. Bundan tashqari, qabila qonunlari mahalliy sudlarga qaraganda tezroq ish ko'radi va belgilangan jazolar jamoatchilik tomonidan osonroq qabul qilinadi. Bunday sharoitda, qabila qonunlaridan fuqarolik qonunchiligiga o'tish uzoq, murakkab va bahsli kechmoqda hamda bu borada hamon umumiy konsensus mavjud emas, garchi yillar davomida davlat-qabila munosabatlari asosida yotgan huquqiy tushunchalarda o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsada, qabila qonunlari tizimi hamon o'z mohiyati va kuchini to'liq yo'qotgan emas.[Shunnaq, M., 2025. pp.57-75]

Jihod Al-Muhaysenning 2020-yil nashr qilingan "Sharqiy Iordaniyadagi qabila qonunchiligi" nomli tadqiqotida bu tizim mamlakatning shimoldagi o'troq qishloq hududlari - Balqa, Karak, Tafila va Ma'an mintaqalari va Iordaniya badiyasida ("cho'l mintaqasi") hisoblanadigan badaviy yerlarida hamda 1870-yillarda Kavkazdan kelib, Iordaniyaga joylashgan muhojirlar o'rtasida amalda ekanligi ko'rsatilgan.[ص 248. محيسن. ج.]

Jamiyatdagi mavjud qarashlar va qadriyatlar hamda eng muhimi davlat milliy barqarorligini ta'minlash maqsadida, garchi amalda faoliyati taqiqlangan bo'lsa-da, butun mamlakat bo'ylab qabilaviy huquq faoliyatiga jiddiy qarsxilik qilinmaydi. Amalda fuqarolik qonunchiligi, sudlar va politsiya o'z faoliyatini olib borayotgan va hamma uchun majburiy bo'lgan qonunlar ishlayotgan bo'lsa-da, odatda qabilaviy sudlarda chiqarilgan qarorlarni davlat huquq institutlari va kuch tuzilmalari muhokama qilmaydi. Fuqarolar ham ko'p o'rinlarda davlat sud organlariga emas, qabilaviy sudlarga murojaat qilishni ma'qul ko'rishadi. Oddiy iordaniyaliklar davlat qonunlarini yaxshi bilmasa ham, qabila qonunchilik tamoyillari, qoidalar va ta'limotlarini yaxshi biladi va ularga qat'iy amal qiladi. Davlat nuqtayi nazarida, qabila qonunchilik tizimi odat huquqi sifatida avloddan avlodga o'tib kelayotgan qadimiy urf-odatlardan biridir. Bu tizim yozilmagan qonun hisoblanadi. Bu qonun jamoa a'zolari o'rtasida adolatni targ'ib qilishga, ularning moddiy va ma'naviy huquqlarini adolatli va qat'iy tarzda himoya qilishga asoslanadi. Bu esa odamlarda o'zlari, sha'ni va mol-mulklari xavfsizligi haqida ishonch tuyg'usini uyg'otadi.



Masalan, avtohalokatlar yoki otishmalar kabi jismoniy shikastlanish holatlarida ko'pchilik iordaniyaliklar muammoni davlat sudlariga murojaat qilmasdan, qabilaviy usulda hal qilishni ma'qul ko'rishadi. Bu usulga ko'ra, har ikki tomonning vakillaridan iborat guruh ikkala tomon uchun ham foydali kelishuv bo'yicha muzokaralar olib boradi. Agar aybdor katta jarima to'lashi kerak bo'lsa, uning qabilasi a'zolaridan ehson yig'ib, unga yordam beradi. Zotan, urug'-aymoqchilik tufayli ikki kishi o'rtasidagi shaxsiy kelishmovchiliklar ba'zan qabilalarlar guruhiy to'qnashuvlarga aylanib ketishi mumkin.

Qabila qonunchiligi tizimini qozilar boshqaradi. O'z o'rnida bu qozilik tizimi ishlar turiga qarab ikkiga bo'linadi: "Qalta" qozisi - قاضي القطة (qāḍī al-qalṭa) oliy qozilik bo'lib, u kundalik maishiy bo'lmagan, murakkab ishlarni hal qiladi va uning hukmlari ustidan shikoyat qilinmaydi. Undan keyingi sudlov tizimi al-Hamola qozilari bo'lib, ular al-Manohiy qozilari deb ham ataladi.

Al-Hamola qozilari قضاة الحمولة (quḍāt al-ḥamūla) qozilarining hukmlari urf-odat va an'analarga ixtisoslashgan bo'lib, uch turga bo'linadi: "Qozi ar-Riqob" qotillik ishlari bo'yicha qozi, "Qozi al-Aridh" or-nomus va obro' ishlari bo'yicha qozi va "Qozi Mubayid al-Vujuh" tuhmat va bo'hton ishlari bo'yicha qozi. Bundan tashqari qishloq joylarda "Al-Orifa" qozilari ham mavjud bo'lib, ular yer, yaylov va otlar bilan bog'liq ishlarga ixtisoslashgan.[Furr, A., Al-Serhan, M. 2008]

Qabila qonunchiligi tizimi va qoziliklar faoliyatining jamiyat kundalik hayotiga keng kirib borganligini ikkita me'yor orqali ko'rsatish mumkin. Ulardan biri hanuzgacha amal qilib kelinayotgan "Al-Atva" العتوة (al-aṭwa) tartibi hisoblanadi. "Al-Atva" - jabrlanuvchining oilasi tomonidan aybdorning oilasiga berilgan muhlat bo'lib, ular o'z ishlarini tartibga solishlari va o'z a'zolaridan biri tomonidan qasddan yoki bexosdan sodir etilgan xato natijasida yuzaga kelgan huquqlarni amalga oshirishlari uchun beriladi. Bu jabrlanuvchi oilasining ma'lum vaqt davomida qasosdan voz kechish orqali ko'rsatgan saxovati va oliyjanobligidir. Bu cheklangan vaqt davomida amal qiladigan vaqtinchalik sulh bo'lib, qabila odat huquqida qotillik, avtohalokatda odam o'ldirish, hujum, mojarolar va nizolar kabi jinoiy ishlarda qo'llaniladi.¹

Yana bir me'yor bu "Jalva" الجولة (al-jalwa) tarjimada "quvg'un" yoki "surgun" ma'nosini beradi. "Jalva" odatda og'ir jinoyatlarda ayblanganlar va ularning oilalarini o'ch olish davrlaridan qochish uchun jinoyat sodir etilgan hududni tark etishga majbur qiladi. Quvg'un ota tomonidan besh avlodgacha bo'lgan qarindoshlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bu yuzlab odamlarni, ularning aksariyati hatto bir-birini tanimaydiganlarni ham o'z ichiga oladi. Nazariy jihatdan, jalva tinchlikni saqlash uchun qo'llaniladi. Amalda esa u inson huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi, chunki oilalar tirikchilik manbalarini va uy-joylarini yo'qotadilar. Garchi ular hech qanday aybsiz bo'lsalar-da, surgun qilingan uzoq qarindoshlar o'z ferma, korxona yoki doimiy ishlarida ishlay olmasligi mumkin, maktab yoki universitetlari ham o'zgaradi. Surgun qilingan guruh o'zlari vaqtincha yashayotgan hududda qonuniy yashash huquqiga ega bo'lmaganliklari sababli saylovlarda ham qatnasha olmaydi. [Furr, Ann., Al-Serhan, M. 2008]

Iordaniyada har yili qancha jalva holati sodir bo'lishini aniq bilish qiyin, ammo mustaqil huquq tashkilotlarining hisobotlariga ko'ra, bu raqam yiliga 10 dan 15 tagacha bo'lishi mumkin. So'nggi o'n

¹ Tribal Judiciary <https://www.iheritage.eu/>



yil ichida yuzlab iordaniyaliklar jalvaga duchor bo'lgan. 2019-yil sentyabr oyida "Human Rights Watch" tashkiloti Madaba viloyatidan 200 ga yaqin mahalliy aholining majburiy ko'chirilishini qoralagan edi. [Schaer, C. 2021,15.01]

Ahamiyatli tomoni shundaki, "Jalva" davlat kuch tuzilmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Jalvaga tortilgan guruhni o'z yashash manzilidan chiqarib yuborishda mahalliy politsiya ishtirok etishi mumkin. Ular buni "jabrlanuvchining oilasi albatta qasos oladi" – degan da'vo bilan oqlashga harakat qiladi. "Jalva - bu davlat himoyasi ostida amalga oshiriladigan, hech qanday huquqiy asosga ega bo'lmagan ijtimoiy odat," deb tanqid qiladi Ammandagi "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Al Hayat markazi" nodavlat tashkiloti." [Schaer, C. 2021,15.01]

Quyidagi qiyosiy jadvalda al-atva hamda jalva tartibi bo'yicha qiyosiy jadval orqali bu ikki tartibning qanday ishlashi qisqacha tushuntirilgan.

(Jadval №1)¹

Asosiy mezon	Al-Atva (العطوة)	Jalwa (الجلوة)
Ta'rif	Mojaro yoki jinoyat sodir bo'lgandan so'ng, jabrlanuvchi va aybdor tomon o'rtasida vaqtinchalik sulh yoki kechiktirish muddati.	Jinoyat sodir etgan shaxs va uning qarindoshlari (ba'zan 5 avlodgacha)ni voqea joyidan majburan ko'chirish (surgun qilish) tartibi.
Maqsad	Qonli mojarolarni vaqtincha to'xtatish, muzokaralar va kompensatsiya shartlarini belgilash uchun imkon yaratish.	Qasos olish zanjirining oldini olish va mojaroni hududdan uzoqlashtirish orqali tinchlikni ta'minlash.
Amal qiluvchi hudud	Asosan qotillik, og'ir jarohatlar, yirik mojarolar bo'lgan hollarda, butun Iordaniya bo'ylab.	Asosan qotillik va boshqa og'ir jinoyatlar bo'lgan hollarda, Iordaniyaning badaviy hududlarida keng qo'llanadi.
Davomiyligi	Bir necha kun (3–10 kun) yoki oylar (odatda 3 oygacha).	Bir necha yil davom etishi mumkin; ayrim hollarda 5–7 yil yoki undan ortiq.
Tashkilotchilar	Qabila oqsoqollari, "qozilar" va tomonlarning vakillari.	Qabila oqsoqollari, davlat kuch tuzilmalari (politsiya) hamda mahalliy hokimiyat.
Qonuniy maqom	Rasmiy qonunchilikda tan olinmagan, ammo odat huquqi sifatida keng amalda.	Rasmiy qonunchilikda tan olinmagan, ammo amaliyotda davlat kuch tuzilmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.
Ijtimoiy oqibatlari	Tomonlar o'rtasida tinchlik o'rnatilishiga yordam beradi, muzokaralarga yo'l ochadi.	Oila va qarindoshlarga iqtisodiy, ijtimoiy va ta'lim sohasida katta zarar yetkazadi; fuqarolik huquqlarini cheklaydi.

¹ Mazkur qiyosiy jadval; Kenny, P. (2024); Al-Muhaysin, J. (2020) va Schaer, C. tadqiqotlari asosida tayyorlangan, ularning asarlari bibliografiyada keltirilgan.



Xulosa qilib aytganda, Islom dini o'rnatilishidan va hatto Iordaniya Hoshimilyr qirolligi tashkil topishidan ham avvalroq shakllangan e'tiqod va qoidalarni aks ettiruvchi bu tizim davlat adliya tizimi bilan birga yashamoqda.

Ko'ppartiyaviy tizim barqarorligini ta'minlashda qabilalarning ta'siri

2024-yil Iordaniyada 38 ta siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan¹ va u Yaqin Sharq mintaqasida ko'ppartiyaviy tizimni muvaffaqiyatli joriy qilayotgan mamlakat sifatida e'tirof qilinadi. Biroq ko'ppartiyaviy tizimning shakllanishida ham qabilaviy munosabatlar o'z ta'sirini o'tkazishi ular faoliyatining shaffofligi borasidagi savollarni yuzaga keltiradi.

Iordaniyada ko'ppartiyaviy tizim 1950-yillarda vujudga keldi. Dastlabki yillarda partiyalar xalq bilan yaxshi aloqalar o'rnatib, mustahkam g'oyaviy poydevor yaratishga muvaffaq bo'lgan hamda hukumatda sezilarli siyosiy yutuqlarga erishgan. 1956-yil parlamentda yagona partiyaviy koalitsiya tuzildi, bu Iordaniya tarixidagi eng katta va kuchli koalitsiya edi. Qirollik oilasi esa bu koalitsiyani o'zining mavjudligiga tahdid deb hisobladi va tezda mamlakatdagi barcha siyosiy partiyalar faoliyatini taqiqladi. 1989-yil mamlakatda boshlangan liberal islohotlar va siyosiy erkinlashtirish talablari natijasida partiyalar qayta tiklandi, biroq ko'plab kuzatuvchilar bu zamonaviy siyosiy partiyalar 1950-yillardagi partiyalardan farq qiladi deb hisoblaydi. Qayta tiklangan siyosiy partiyalar zaif bo'lib, kuchli mafkuraviy asosga va ommaviy qo'llab-quvvatlashga ega emas edi. Ular sezilarli siyosiy yutuqlarga erishmadi yoki samarali siyosiy rahbarlikni ta'minlay olmadi. [Al-Majali, J., Mahadee Ismail, M. 2016. P. 491.]

Iordaniyaning zamonaviy siyosiy partiyalari o'z faoliyatini jahon mezonlari asosida tashkil qila olmayotganligining sabablaridan biri qabilachilik munosabatlari ta'siriga tushib qolganligida. Mamlakatdagi parlament saylovlari qabilaviy va partiyaviy jihatlarining qorishib ketishi bilan ajralib turadi. Kuzatuvchilar qabilachilik Iordaniya parlament demokratiyasining eng zaif nuqtasi ekanligini ta'kidlab keladi. [Al-Majali, J. 2016. P. 496.]

Hukumat parlament saylovlarida ochiqlik va shaffoflik hamda demokratik qadriyatlarni ta'minlashga har qancha harakat qilmasin, qabilaviy sadoqat va partiyaviy faoliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammo bo'lib qolmoqda.[Yitzhak, R. 2017. pp. 24-44] Tarixan, qabilalar nomzodlar uchun kuchli tayanch bo'lgan, ularning parlament a'zolariga saylanish imkoniyatlarini oshirgan va hozirda ham bu nomzodlar uchun asosiy omil bo'lib qolmoqda.[Torki Bani Salameh, M. 2018 p.72]

Iordaniya saylovlarida qabilachilik ikki tomonlama rol o'ynaydi. Bir tomondan, u nomzodlar uchun kuchli va barqaror qo'llab-quvvatlash bazasini ta'minlaydi, bu esa ularning g'alaba qozonish imkoniyatlarini oshiradi. Boshqa tomondan, bu hodisa siyosiy va rivojlanish dasturlari hisobiga qabila manfaatlarini ustuvor bo'lib qoladigan yanada institutsional partiyaviy tizimga o'tishga to'sqinlik qiladi. Siyosiy partiyalar qabilaviy nomzodlar bilan raqobatlashishi juda qiyin, ayniqsa, qabilaviy sadoqat chuqur ildiz otgan qishloq joylarda. Biroq shunday bo'lsa-da, qabilachilik demokratiyaning zaiflashuvini anglatmaydi, aksincha, u ko'pincha Iordaniya jamiyatidagi kuchli ijtimoiy va madaniy aloqalarni aks ettiradi.[Hasan Dajah. 2024]

"Qabilaning partiyasi" va "Partiyaning qabilasi" tushunchalari faqat iordan siyosiy hayotda qo'llaniladigan ikki turli holatni anglatadi: "Qabilaning partiyasi" - muayyan qabilaga mansubligi asosida partiya ko'rsatiladigan sodiqlik va qo'llab-quvvatlashni anglatadi. "Partiyaning qabilasi" tushunchasi esa muayyan partiya siyosiy yoki g'oyaviy mansubligi asosida qabilaga ko'rsatiladigan sodiqlik va qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Qabilaviy birdamlik tufayli nomzodlar saylovlarda faqat o'z xizmatlari evaziga g'alaba qozona olmaydi. Partiyaning faol va yuqori ma'lumotli a'zosi, agar u

¹ <http://www.jordanpolitics.org/en/parties/1/current-parties>



yetarlicha qabilaviy dastakka ega bo'lmasa, malakasi pastroq nomzodga yutqazadi. Bu shuni anglatadiki, kichik qabilalardan bo'lgan yoki hududga ko'chib kelgan shaxslar, malakasidan qat'i nazar, saylovlarda g'alaba qozonishni muammo deb biladi va ko'pincha saylovda qatnashmaydi. Muhojirlar nisbati yuqori bo'lgan ba'zi munitsipalitetlardagina qabilaviy kelib chiqish nomzodga ustunlik bermasligi mumkin.[Eleanor X. Gao. 2012. pp. 5-7]

Xulosa qilib aytganda, Iordaniya saylovlarida qabilachilik o'zining afzalliklari va kamchiliklari bilan asosiy omil bo'lib qolmoqda. Bu hodisa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlab, nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi kuchli asosni ta'minlasa-da, partiyaviy tizimning erkin rivojiga to'sqinlik qiladi. Qabilachilik va partiyaviylik o'rtasidagi muvozanatga erishish barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumat, siyosiy partiyalar, qabilalarning o'zlari va fuqarolik jamiyatining doimiy sa'y-harakatlarini talab qiladi. Ammo shuni ham ta'kidlash kerakki, qirollik oilasi va hukumat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash hamda aholining faol qatlami orasida ko'ppartiyaviylikka nisbatan xayrixohlikning bo'lishiga qaramasdan jamiyatning turli qatlamlari fikri umumlashtirilganda partiyalarning siyosiy jarayonni boshqarish qobiliyatiga bo'lgan ishonch hanuz zaif ekanligi ko'rinadi. Bu holatning ko'plab sabablari qatorida esa partiyalarning qabilalar ta'sirida ekanligi ko'rsatiladi.

Xulosa. Urug'-qabilachilik munosabatlari Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi tashkil topganidan buyon Iordaniya tuzumining barqarorligini ta'minlovchi eng muhim ustunlardan biri bo'lib kelmoqda. Bu urf-odat va huquq majmuasini sun'iy tarzda yo'q qilishga har qanday urinish Iordaniya davlat milliy barqarorligiga zarba berishi va oqibatda davlatchilik xavf ostida qolishi mumkin.

Iordaniya qonunchiligi ham qabilaviy huquqdan ilhomlangan. Tarixiy jihatdan qabila milliy o'zlikning asosiy yadrosi va davlat barqarorligining birinchi kafolatchisi bo'lib kelgan va u mazkur ahamiyatini hamon saqlab qolmoqda.

Qabilaga mansub bo'lish va unga sodiq bo'lish bir vaqtning o'zida qabila va davlat o'rtasida yillar davomida mavjud bo'lib kelayotgan bay'at hisobidan qirollik oilasi va davlatga sodiqlikni anglatadi.

Siyosiy partiyalar rivojlanishi bilan birga, ayrim qabila a'zolari turli g'oyaviy yo'nalishlarga qo'sxila boshladi, lekin bu qabilaning ijtimoiy o'rnini yo'qotmaydi. Partiya a'zolari ham qabila a'zolari bo'lib qolaverdi, qabila esa hanuz ijtimoiy hayotning asosiy ustuni bo'lib qolmoqda.



FAN TARIXIDA ARABSHUNOSLIKNING SHAKLLANISH BOSQICHINI QAYTA DAVRLASHTIRISH ZARURATI

OTABEK MAHMUDOV

Dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Farg'ona davlat universiteti

ORCID ID: 0000-0001-9897-2796

Annotatsiya. Maqolada arabshunoslikning shakllanishi borasidagi fanda mavjud qarashlar tanqidiy tahlil etilib, sohaning tashkil topgan davri sifatida umum qabul qilingan sanani qayta davrlashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan. Muallif mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda arabshunoslikning shakllanishi qanday asoslarga ko'ra XVI asr bilan belgilanganligini tahlil qilib, sohani bundan ancha avval shakllanganini ta'kidlaydi. Jumladan, arabshunoslikning ilk belgilari arab tilidagi asarlarni tarjima qilish va tadqiq etish

ko 'rinishida Yevropada X asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagani, XI asr ikkinchi yarmidan esa mintaqada arabshunoslik tarjima markazlarining tashkil topgani dalillangan.

Muallif, X – XI asr birinchi yarmini arabshunoslikning shakllanishidagi o'ziga xos «proto» bosqich ekanini ta'kidlab, ayni davrni sohaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblangan arab tilidagi asarlarni Yevropa hududiga kirib borishi hamda Qurtuba, Toledo va Salerno kabi shaharlarda jamlanishi bilan xarakterlaydi. XI asr ikkinchi yarmi – XIII asr esa arabshunoslikning ilk bosqichi sifati e'tirof etilib, bu bosqichda Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya hududida arab tilidagi asarlarni lotin va boshqa mahalliy tillarga o'giruvchi, ular asosida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yangi asarlar yaratiluvchi arabshunoslik tarjima markazlari shakllanganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: arabshunoslik, shakllanish, qayta davrlashtirish, arab tili, lotin tili, asarlar, manbalar, tarjima markazlari, oriyentalizm.

Abstract. The article presents a critical analysis of existing theories regarding the formation of Arabic studies and proposes a revision of the generally accepted chronology of its development. The author examines the foundations on which both domestic and foreign scholars associate the emergence of Arabic studies with the 16th century and argues that the discipline began to take shape much earlier. In particular, it is substantiated that the first signs of Arabic studies appeared in the form of translation and study of Arabic-language works in Europe from the second half of the 10th century, and that by the second half of the 11th century, centers for translation had begun to emerge in the region.

The author characterizes the first half of the 10th–11th centuries as a distinctive «proto-stage» in the formation of Arabic Studies, emphasizing the penetration of Arabic-language works into the European intellectual sphere and their accumulation in cities such as Cordoba, Toledo, and Salerno. The period from the second half of the 11th century to the 13th century is identified as the initial stage of Arabic Studies, during which translation centers were established in Spain, Italy, and southern France. These centers were engaged in translating Arabic works into Latin and other local languages, forming the basis for scientific research and the creation of new scholarly works.

Keywords: Arabic Studies, formation, periodization, Arabic language, Latin language, texts, sources, translation centers, Orientalism.

Аннотация. В статье подвергаются критическому анализу существующие теории относительно формирования арабистики, а также выдвигаются предложения по пересмотру общепринятой датировки становления данной науки. Автор исследует, на каких основаниях в отечественных и зарубежных трудах возникновение арабистики соотносится с XVI веком, и утверждает, что формирование данной дисциплины началось значительно раньше. В частности, обосновывается, что первые признаки арабистики проявились в виде перевода и изучения произведений на арабском языке в Европе со второй половины X века, а со второй половины XI века в регионе начали формироваться центры перевода.

Автор характеризует первую половину X – XI веков как своеобразный «протопериод» в становлении арабистики, акцентируя внимание на проникновении арабоязычных произведений в европейское пространство, а также на их сосредоточении в таких городах, как Кордова, Толедо и Салерно. Период со второй половины XI века по XIII век признаётся как начальный этап арабистики, в течение которого в Испании, Италии и южной Франции сформировались переводческие центры, занимавшиеся переводом арабских трудов на латынь и другие местные языки. На основе этих переводов проводились научные исследования и создавались новые труды.

Ключевые слова: арабистика, становление, периодизация, арабский язык, латинский язык, произведения, источники, переводческие центры, ориентализм.

Kirish. Hozirgi kunda fan tarixi, shuningdek filologik va tarixiy tadqiqotlarda arabshunoslik sohasini XVI asrda shakllangan, degan qarash hukmronlik qiladi. Ayni holat respublika, mintaq va xorijiy tadqiqotlarga birdek xosdir. Yurtimizda mazkur atamaga nisbatan «arab xalqlarining tili, tarixi, iqtisodiyoti va madaniyatini tadqiq etuvchi fanlar majmui bo'lib, asli arab bo'lmagan, lekin arab tilida

ijod qilgan olimlarning madaniy merosini o'rganuvchi, G'arbiy Yevropada XVI asr oxirida vujudga kelgan soha»¹ deb berilgan ta'rif asos sifatida qabul qilingan. Ayni ta'rif rus sharqshunosligi, shu jumladan arabshunosligida² ham qo'llaniladi. Zamonaviy G'arb sharqshunosligida esa arabshunoslikning vujudga kelishi XVI boshlari bilan belgilanib, u asosan arab xalqlari tarixini va arab tilini o'rganuvchi tor fan tarmog'i³ sifatida baholanadi. Mashhur arabshunoslar Iogann Fyuk (1894 – 1974)⁴ hamda Doroteya Metlitski (1914 – 2001)⁵ asarlarida arabshunoslikning shakllanishida boshlang'ich nuqta sifatida XII asrga ishora qilinsa-da, ularda Edvard Said ta'biri bilan aytganda, Sharqni «kamsitish ruhi»⁶ [Said, 1978, p. 16] mavjud. Bundan tashqari, bu kabi asarlarda ham arabshunoslikning shakllanish bosqichlari aniq belgilab berilmagan.

Biz o'zimizning 2022-yilda e'lon qilgan maqolamizda XII–XV asrlarda Yevropaning tarjima faoliyati yo'lga qo'yilgan shaharlarini yagona tizim sifatida «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» sifatida nomlash konsepsiyasini ilmiy jihatdan asoslab berib⁷, tarjima tarixiga oid arab va lotin tilli manbalarning qiyosiy tahlili asosida⁸ o'rta asr Yevropa tarjima markazlarining faoliyatini 3 bosqichga ajratish, ulardan XII–XIII asrlarni o'z ichiga olgan birinchi davrni – Yevropada arabshunoslik sohasining yuzaga kelishidagi ilk bosqich sifatida baholash lozim⁹, degan xulosani ilgari surgan edik. Chunonchi, ayni davrda turli fan sohalariga doir arab tilidagi ko'p sonli asarlar lotin tiliga tarjima qilinib, mintaqa olimlari tomonidan tadqiq etilgan edi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda, mazkur maqolada hozirga qadar boshlang'ich xronologik chegarasi aniq belgilanmagan arabshunoslikning shakllanish bosqichlarini fan tarixi nuqtai nazaridan qayta davrlashtirishga harakat qilinadi.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda tarixiylik tamoyili, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, tasniflash, kompleks yondashish kabi usullardan foydalanilgan.

Natijalar. Maqolaning kirish qismida ta'kidlanganidek, bugungi kunda arabshunoslikning yuzaga kelishi fan tarixida XVI asr bilan belgilanadi. Ilmiy tadqiqotlarda sohaning yuzaga kelishini ayni asr bilan belgilanishiga mashhur ispan leksikografi Pedro de Alcala (tug'. 1455)ning «Arte para ligeramente saber lengua araviga» («Arab tilini boshlang'ich o'rganish san'ati») nomli asari va uning tarkibiy qismi hisoblangan «Vocabulista arábigo en letra castellana»¹⁰ («Arab – ispan lug'ati») (De Alcala, 1505) hamda fransuz sharqshunosi Giyom Postel (1510 – 1581)ning «Linguarum duodecim characteribus differentium alphabeta» («O'n ikki turli tilning alifbo belgilari») nomli asari tarkibidagi

¹Abdumayev I. Arabshunoslik. // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 590-592.

²Габучан Г., Лебедев В.В., Кириллина С.А. Арабистика. // Большая Российская энциклопедия. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2005. – С.140-141.

³Figeas M., Carpi O. Les affrontements religieux en Europe: Du début du XVIe siècle au milieu du XVIIe siècle. – Paris: Editions Sedes, 2008. – P. 11.

⁴Fück J. Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts. – Leipzig: Harrassowitz, 1955. – S. 3.

⁵Metlitzki D. The Matter of Araby in Medieval England. – London: Yale University Press, 1977. – P. 26.

⁶Said E. Orientalism. – New York: A Division of Random House, 1978. – P. 6.

⁷Mahmudov O.V. «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid. // «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2022. – № 5. – B. 36-44.

⁸Mahmudov O.V. O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tarixiga oid arab tilidagi manbalar hamda ularning lotin tilli manbalar bilan qiyosiy tahlili. // «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2022. – № 6. – B. 47-52.

⁹Mahmudov O.V. «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid. // «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2022. – № 5. – B. 41.

¹⁰De Alcala P. Arte para ligeramente saber la lengua arauiga. Vocabulista arauigo en letra castellana. – Granada, 1505. – 642 p.



«Grammatica Arabica» («Arab tili grammatikasi») tadqiqoti¹ asos qilib olingan. Bugungi kunda asl nusxasi Ispaniya milliy kutubxonasida R 2153 xos raqami bilan saqlanayotgan de Alkala asari aslida arab tilining granada dialektini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, G.Postel risolasida arab tili grammatikasi to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlar berilgan, xolos. Bizningcha, arabshunoslikning yuzaga kelishini XVI asr bilan belgilovchi fikrlarga avvalo unga juda tor doirada, faqat arab tili va tarixini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi sifatida qaralishi sabab bo'lgan.

Ismi tilga olingan nemis arabshunosi I.Fyuk «Die arabischen Studien in Europa vom 12 bis in den Anfang des 19 Jahrhunderts» («XII asrdan XIX asr boshlarigach Yevropada arabshunoslik») nomli risolasi va uning to'ldirilgan variant hisoblanmish «Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts» («XX asr boshlarigacha Yevropada arabshunoslik») nomli asarida Yevropa arabshunosligidagi ilk voqelik sifatida 1143-yilda «Qur'oni karim»ning lotin tiliga tarjima qilinishi ekanligini ta'kidlasa-da, mintaqada arabshunoslikning shakllanishi Ispan gumanizmi va arabcha matnlarni nashriyot uylarida chop etish yo'lga qo'yilgan davrdan boshlanganligini² qayd etgan. Bu bilan olim sohaning dastlabki shakllanish bosqichi sifatida XV asr oxiri – XVI asr ikkinchi yarmiga ishora qilgan. Bundan tashqari, asarda arabshunoslikning ilk bosqichi bo'lgan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi tarjimachilik jarayoniga qisqa satrlarda e'tibor qaratilib, bu davrdagi ishlarga mazmunni ifodalashga qaratilgan tarjimalar³ sifatida baho berilgan.

Ayrim tadqiqotlarda o'rta asrlarning mashhur qomusiy olimi Raymondo Lulliy (taxm. 1232 – 1316) arabshunoslikning asoschilaridan biri sifatida e'tirof etiladi⁴. Bunga, R.Lulliy tomonidan arab tilli manbalar asosida yozilgan «Compendium Logicae Algazelis» («G'azzoliyning mantiq to'plami»), «Liber de reprobationis aliquorum errorum Averrois» («Ibn Rushdning ayrim xatolarini qoralash kitobi») hamda bir vaqtning o'zida arab, katalan va lotin tillarida bitilgan «Libre del Gentil e los tres savis» («Majusiy va uch donishmand kitobi») nomli islom falsafasi tahliliga bag'ishlangan asarlar, shuningdek, olimning Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq bo'ylab amalga oshirgan sayohatlari hamda missionerlik harakatlarida foydalanish uchun sharq tillari, shu jumladan arab tilini o'qitishni yo'lga qo'yish borasidagi tashabbuslari asos qilib ko'rsatiladi. I.Fyuk ham o'z asarida R.Lulliy faoliyatiga alohida o'rin ajratgan⁵, biroq, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda ijod qilgan 70 nafardan ortiq arabshunos tarjimonlar faoliyatiga e'tibor qaratmagan.

I.Fyukdan farqli ravishda, Yel universiteti dotsenti, arabshunos olimi D.Metlitski o'zining mashhur «The Matter of Araby in Medieval England» («O'rta asr Angliyasida arablar masalasi») nomli asarida XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi tarjima ishlariga alohida e'tibor qaratib, kelib chiqishi ingliz bo'lgan tarjimonlar Batlik Adelard (tax. 1070–1145), Kettonlik Robert (XII asr) va Maykl Skot (1175–1234) faoliyatini⁶ muayyan darajada yoritgan. Shunga qaramay, asarda arabshunoslikning shakllanish bosqichlari nazariy jihatdan tahlil qilinmaydi. Bunday holat sharqshunoslikning klassik davri sifatida e'tirof etiluvchi XIX – XX asr birinchi yarmidagi tadqiqotlariga ham xos bo'lib, ularda turli ilmiy muammolar tadqiq etilib, yangi asarlar muomalaga kiritilgan bo'lsa-da, sohaning shakllanish bosqichlariga e'tibor qaratilmagan. Boshqacha aytganda, mashhur arabshunoslar o'z sohalari tarixini

¹Postel G. Linguarum duodecim characteribus differentium alphabetum. – Paris: Dionysium Lescuyer, 1538. – P. 28-72.

²Fück J. Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts. – Leipzig: Harrassowitz, 1955. – S. IX (Einführung).

³Yuqoridagi asar, 3 – 9-betlar.

⁴Rzytka B. Ars magna: Die grosse Kunst d. Raimund Lull. – Mödling: Gabriel-Verl, 1960. – S. 23; Микешина Л. Луллий // Электронная библиотека ИФ РАН “Новая философская энциклопедия”: <https://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document/HASHec8843299e41870ce4f8ec>

⁵Fück J. Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts. – Leipzig: Harrassowitz, 1955. – S. 16-22.

⁶Metlitzki D. The Matter of Araby in Medieval England. – London: Yale University Press, 1977. – P. 3-10, 16, 26, 48.



davrlashtirishga deyarli harakat qilishmagan. «Orientalism» kabi keyin davr fundamental ishlarida G'arb sharqshunosligi, shu jumladan arabshunosligidagi tadqiqotchilik maqsadi Sharq rakursidan turib tanqidiy tahlil qilingan bo'lsa-da¹, ularda ham sohaning vujudga kelishi tadrijiy ravishda ochib berilmagan.

Agarda, arabshunoslikka arab xalqlarining tili, tarixi, iqtisodiyoti va madaniyatini tadqiq etuvchi, shuning barobarida arab tilida ijod qilgan olimlarning ilmiy merosini o'rganuvchi sohasi sifatida, keng qamrovda baho berilsa, sohaning shakllanish bosqichi umum qabul qilingan XVI yoinki XIV – XV asrlardan avval, X – XI asrlardayoq boshlanganligidan dalolat bermoqda.

Jumladan, Yevropada o'rta asrlarning mashhur matematigi, astronom va faylasufi sifatida e'tirof etiluvchi Oriyaklik Gerbert (945–1003) o'zining «Regule de abaco computi»² («Abakda hisoblash qoidasi») nomli risolasida Muhammad Xorazmiy ishlab chiqqan arifmetik uslublardan foydalangan. Mediyevistlarga yaxshi ma'lumki mazkur shaxs davlat va din arbobi ham bo'lib, u 999–1003-yillarda Silvestr II nomi bilan Rim papasi sifatida faoliyat yuritgan.

Olimning nomi tilga olingan asari 980–982-yillarda yozilgan bo'lib, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish kabi matematik amallarni bajarishda al-Xorazmiyning «Kitob al-jam' va-t-tafriq bi hisob al-hind»³ («Hind hisobida qo'shish va ayirish kitobi»)ga tayanib 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarni ishlatgan. Jumladan, Gerbert arifmetik va geometrik amallarni to'qqizta son (1–9) orqali bajarish uchun maxsus abak taxtasini yasaydi. Mazkur taxta 27 ta to'g'ri-to'rtburchakli qismdan iborat bo'lib, har bir qism 3 ta: C (centum) – yuzlik, D (decem) – o'nlik va S yoki M (singularis seu monad) – birlik sonlar uchun mo'ljallangan maydonlarga bo'lingan⁴. Ammo, Gerbert o'z asari va yaratgan moslamasida 0 (nol)dan foydalanmaydi. Nazdimizda, al-Xorazmiy nolni o'z asari orqali rasmiy muomalaga kiritgani hamda o'nlik pozitsion tizimi matematik hisob-kitoblarni soddalashtirishini tushuntirib berganligiga qaramasdan, yevropalik olim 0 (nol)dan foydalanish mohiyatini to'la anglab yetmagan.

Yuqoridagi tahliliy fikr asosini o'rta asr tarixchilaridan Malmsberlik Uilyamning (1090–1143) «De Gestis regum Anglorum»⁵ («Ingliz qirollarining faoliyat tarixi») nomli asaridan ham topish mumkin. Unda yozilishicha, «Gerbert monastir hayotidan qoniqmaganligi yoki shon-shuhratga bo'lgan intilishi sabab har sohada taraqqiy topgan Ispaniyaga keladi va u yerda bir musulmondan astrologiya, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha dars olib, arab tilini o'zlashtiradi. Kunlarning birida, ... ustozining sandig'idagi turli fanlarga oid arabcha kitoblarni [bizningcha, bular matematika va falsafaga oid risolalar bo'lgan] o'g'irlab vataniga gochib ketgan...»⁶.

Asarda, Gerbertni Ispaniyaga kelishiga o'sha vaqtda Qurtuba xalifaligi bilan savdo aloqalarni o'rnatib, iliq munosabat olib borayotgan Barselona grafi Borrel (947 – taxm. 993) yordam berganligi⁷ qayd etilgan. Jumladan, 967-yilda Avrilakka qilgan safari chog'ida shahardagi Avliyo Gerald cherkoviga tashrif buyurgan graf o'zi bilan Gerbertni Barselonaga olib ketgan va uni graflikning Vik shahri cherkovi yepiskopi Ato (957 – taxm. 972)ga shogirdlikka topshirgan. Ayni jarayonlar

¹Said E. Orientalism. – New York: A Division of Random House, 1978. – P. 31-112, 113-200, 201-328.

²Gerbertus. Regule de abaco computi. – Nuremberg: A.Koberger, 1492. – 124 p.

³Dixit Algorizmi. – Cambridge: Cambridge University Library, li. 6.5.

⁴Gerbertus. Regule de abaco computi. – Nuremberg: A.Koberger, 1492. – P. 29.

⁵Malmesburiensis W. De Gestis regum Anglorum. – MS. Laud Misc. 729 || Bodleian Library, Oxford, UK.; Malmesburiensis W. De Gestis regum Anglorum. – Londini: G.Bishop, R.Nuberie & R.Barker Typographij Regii, 1596. – 816 p.

⁶Malmesburiensis W. De Gestis regum Anglorum. – Londini: G.Bishop, R.Nuberie & R.Barker Typographij Regii, 1596. – P. 116-117.

⁷Yuqoridagi asar, 90-bet.



Gerbertning faoliyatiga oid muhim manba hisoblangan «Historiarum Quatuor Libri» («To'rt kitobga mujassamlashgan tarix») nomli asarda ham o'z aksini topgan. Asarda keltirilishicha, graf Borrel va xalifa Abdurahmon III (929–962) o'rtasida do'stlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, 950-yilda graf xalifa saroyiga shaxsan tashrif buyurgan va savdo aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha bitim imzolagan¹. Bu aloqalar xalifa al-Hakam II (962–976) davrida ham davom etgan. Graf yuqorida ismi tilga olingan yepiskop Ato boshchiligidagi elchilik guruhini xalifa huzuriga jo'natib, savdo aloqalarini yanada erkinlashtirishni so'ragan². Ato Qurtubaga kelgan vaqtida o'z davrining eng yirik qo'lyozmalar fondi hisoblangan xalifa kutubxonasi bilan tanishgan va unda saqlanayotgan «septem artes liberales» («yetti erkin san'at»)ga doir asarlarni sovg'a tariqasida olib o'zi bilan Berselonaga olib kelgan. Manbada bu asarlarning nomlari xususida biror bir ishora bo'lmasada, yepiskop ularni o'z shogirdi Gerbertga taqdim etganligi va ayni asarlar bo'lajak papaning keyingi izlanishlariga asqatganligi³ yozilgan.

Bundan tashqari, hozirgi kunga qadar Gerbertni turli yillarda yozgan xatlari saqlanib qolgan bo'lib, ulardagi qaydlar «De Gestis regum Anglorum» va «Historiarum Quatuor Libri»dagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi va biroz to'ldiradi. Misol uchun 982-yilda arxiyepiskop Arnulf (vaf. 1021)ga yozilgan maktubda Gerbert 967–970-yillarda Ispaniyadagi Barselonada yashaganligi hamda ayni shu davrda matematika va falsafaga taalluqli arab tilidagi ikkita risolani lotinchaga o'g'irganini (967 et 970 vixit Barcinone et quoque per idem tempus transtulit in latinum duobus tractatibus in saracenrum de mathesi et pxiilosophia)⁴ yozgan. Gerbert fikricha unga arab tili, matematika va falsafani o'rgatgan musulmon ustozining bilimlari, aynan shu ikki asarga asoslanganligi, ularni [ya'ni, asarlarni] o'zi bilan birga olib ketishiga sabab bo'lgan (quod scientia saracen magister est secundum haec duo opera, coegit eum ad haec opera cum eo). Maktubda hisobga oid va arab raqamlari bor kitob *Malchocharithmus* ismli arabga tegishli ekanligi (*Liber rationum et saracenorum numerus, quod pertinet ad saracen nomine Malchocharithmus*), ikkinchi, falsafa kitobi «De mente» [«Aql haqida»] deb nomlangan (*secundo, pxiilosophia libro, dicitur De mente*)ligi⁵ qayd etilgan. Bizningcha, muallif *Malchocharithmus* deb atagan shaxs aslida Yevropada keyinchalik lotincha Alchocharithmus va Algorizmi ismlari bilan tanilgan Muhammad Xorazmiydir. Gerbert maktubda alloma ismini arabchadan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilishda, o'sha davrdagi transkripsiya qoidalariga to'liq amal qilmay Muhammad yoki Muso ismlaridagi bosh harfni al-Xorazmiy so'ziga qo'shib yuborgan. Shu sababdan ham fransuz olimi xorazmlik alloma ismini o'z maktubida *Malchocharithmus* ko'rinishida yozgan.

Gerbert yaratgan ayni tarjimaning qo'lyozmasi hozircha aniqlanmadi. Biroq, fransuz olimi kitoblarining asosiy qismi o'rta asr xristianlik cherkovi namoyondalarining asarlari jamlanmasi bo'lmish «Patrologia Latina» («Lotin patrologiyasi») nomli to'plamda saqlanmoqda. Uning 139-jildi⁶ bevosita Silvestr II, ya'ni Gerbert asarlariga bag'ishlangan. Bizningcha, ayni to'plamni ilmiy tadqiq etish lozim. Chunki, bu to'plam hozirga qadar fan tarixchilari tomonidan maxsus o'rganilmagan bo'lib, izlanishlar bizni al-Xorazmiy asarining X asr ikkinchi yarmida yaratilgan lotincha tarjimasiga «olib chiqishi» mumkin. Maktubda tilga olingan «De mente» asarining muallifiga ishora qilinmagan. Bizningcha, bu «Bayt al-hikma»ning mashhur a'zosi Yoqub al-Kindiy (800–873) qalamiga mansub «Fi' al-'aql» («Aql to'g'risida») nomli risoladir. Bunday xulosaga kelishimizning sababi, Gerbert ayni

¹Richerus Remenses. Historiarum Quatuor Libri. – Reims: P.Regnier, 1855. – P. 103.

²Yuqoridagi asar, 105-bet.

³Yuqoridagi asar, 106-bet.

⁴Letters of Gerbert, with His Papal Privileges as Sylvester II. / Translated with an introduction by Harriet Pratt Lattin. – New York: Columbia University Press, 1961. – P. 98.

⁵Yuqoridagi asar, 98-99-betlar.

⁶Patrologia Latina. – Tomus CXXXIX (139). / Ed. J.P.Migne. – Paris: Apud G. Fratres, 1880. – P. 54-159.



asar ta'sirida «De rationali et ratione uti» («Aqllilik va aqldan foydalanish») nomli asar yozgan. Har ikki asarning qiyosiy tahlili esa ulardagi ma'lumotlar bir biriga o'xshash va ayrim hollarda aynan takror ekanligini¹ ko'rsatmoqda. Yoqub al-Kindiy asari keyinchalik, jumladan XII asrdan boshlab Yevropada «De intellectu» nomi bilan keng tarqalgan.

«Historiarum Quatuor Libri»da Gerbertni Barselonadan 970-yilda Fransiya orqali Rimga ketgani va to Reyms arxiyepiskopligiga tayinlangungacha, ya'ni 991-yilga qadar o'sha yerda istiqomat qilib, arab tilidagi asarlar asosida o'zining bir qancha kitoblarini yozganligi², qayd etilgan. Ayni ma'lumot arab tilidagi asarlar X asr ikkinchi yarmida al-Andalusdan Pireney yarim orolining shimolidagi xristian shaharlariga olib o'tilgani, bu yerdan esa janubiy Fransiya orqali Italiya bo'ylab tarqalganligini ko'rsatmoqda.

«De Gestis regum Anglorum», «Historiarum Quatuor Libri» asarlari hamda Gerbert maktublarining qiyosiy tahlili al-Xorazmiy va al-Kindiy asarlari X asrning ikkinchi yarmidayoq lotin tiliga tarjima qilinib, yevropalik olimlar tomonidan tadqiq etila boshlanganligini tasdiqlamoqda. Biz mazkur tahlillar asosidagi xulosalarimizni Sharq allomalari asarlarining Yevropada tarjima etilgan ilk sanasini qayta belgilashga bag'ishlangan ishimizda³ batafsil bayon etganmiz.

Yuqoridagi ma'lumotlar X asr ikkinchi yarmida yuz bergan jarayonlar bo'lib, Ispaniya, Fransiya va Italiyaning markaziy shaharlarida arabcha asarlarni o'rganish borasidagi dastlabki harakatlarga misol bo'ladi.

XI asrning ikkinchi yarmidan arab tilidagi asarlarni tarjima qilish va ular asosida yangi-yangi kitoblarni yozish jarayoni asta-sekinlik bilan doimiy jarayonga aylana boshladi. Bu davrda, Salernodagi tib maktabining faoliyati alohida ahamiyatga ega. Mazkur maktab tarixiga oid birlamchi manbalardan biri bo'lmish «Chronica monasterii Casinensis» («Kassino monastirligi yilnomasi») nomli asarda (Bavariya davlat kutubxonasi 2H.Mom.131 raqamli qo'lyozma) nasroniylilikni qabul qilgan barbar Ifriqiyalik Konstantinni (1010–1087) 1077-yilda Salernoga kelgani va o'zining bosh homiysi Apuliya gersogi Robert Otvil (1059–1085) tashabbusi bilan arab tilidagi bir qancha asarlarni lotin tiliga o'g'irganligi⁴ qayd etilgan. Qiyosiy tahlil natijalari mazkur tarjimalar Hunayn ibn Ishoqning «Madhal ila kitob Jolinus» («Jolinus asariga kirish») va «Kitob fi amrad al-basar» («Ko'z kasalliklari haqida kitob»), Hunayn ibn Imronning «Maqola fi-l-molikhuliya» («Melanxoliya haqida risola»), Ishoq ibn Sulaymonning «Kitob al-adviyah al-mufradah» («Dori vositalari kitobi») va «Kitob al-Istiqot» («Bosh negizlar kitobi»), Abu Bakr ar-Roziyning «Kitob al-havi fi-t-tib» («Tibbiyotga oid bilimlar majmui»), Ibn Jazzorning «Zod al-musofir va-qut al-hodir» («Sayohatchi va harakatsiz [insonlarning] ovqatlanish qoidalari») nomli asarlaridan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Qolaversa, Konstantin o'zining Salerno maktabidagi faoliyati davomida yana 20 ga yaqin arab tilidagi tibbiy asarlarni lotin tiliga o'g'irgan. Ularni antik davr olimlari asarlarining arabcha nusxalari hamda musulmon Sharqi allomalarning sohaga doir nodir kitoblari tashkil etgan.

Ifriqiyalik Konstantin yo'lga qo'ygan tarjima faoliyati Salerno tibbiyot maktabini o'rta asrlarning yirik tarjima markazlaridan biriga aylanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Ayni jihatni o'z asarida

¹Alkindus. De intellectu – MS. Digby 217 – Part 4 (2). / Bodleian Library.; Alkindi. De intellectu – Fi' al-'aql. / Lat. tran. Domingus Gundisalvinus. – Roma: Capanela Pub., 1923. – P. 58-78; Gerbertus. De rationali et ratione uti. – Parigi: Baviera, 1678. – P. 24-49.

²Richerus Remenses. Historiarum Quatuor Libri. – Reims: P.Regnier, 1855. – P. 104.

³Махмудов О.В. Шарқ алломалари асарларининг Европада таржима этилган илк санасини қайта белгилаш тўғрисида (лотин тили манбалар таҳлили асосида). // «Imom Buxoriy saboqlari» ilmiy jurnali. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2022. – № 4. – B. 10-11.

⁴Ostuensi L., Diacono P. Chronica sacri monasterii Casinensis. – Paris: Ex officina Ludouici Billaine in Palatio Regio, 1668. – P. 56.



I.Fyuk ham¹ e'tirof etgan. Biroq, olim Konstantin tarjimalarini aniq sanamay, ularning matnlarini tahlil etmay turib, bu tarjimalar arab tilini mustaqil o'rganishga turtki bo'la olmaganligi va Islomning haqiqiy mohiyatini tushunishga olib kelmaganligini² qayd etadi. Vaholanki, asli ifriqiyalik bo'lgan Konstantin til egasi sifatida asosan sof tibbiyotga oid arabcha asarlarni lotin tiliga o'giran va tarjima jarayonida matlarning leksik hamda grammatik stilistikasini o'zaro muvofiqligini saqlashga harakat qilgan. Shu sababdan ham uning tarjimalaridan keyingi davrlarda yaratilgan lotincha nusxalardan ko'ra ko'proq foydalanilgan. Bundan tashqari, Konstantin arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga tarjima qilgan, balki ular asosida tibbiyotga oid o'zining lotincha yangi kitoblarini ham yozgan. Bu bilan u o'z davri nuqtai nazaridan arabshunos bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni to'liq ado etgan. Misol uchun, uning «De oculis»³ («Ko'z haqida») va «De melancholia»⁴ («Melanxoliya xususida») nomli asarlari Hunayn ibn Ishoq va Hunayn ibn Imronning yuqoridagi kitoblari asosida yozilgan. Tarjimon-olimning arab tilidagi asarlar asosida yaratgan kitoblari qatoriga bugungi kunda Oksfordning Merton kolleji kutubxonasidagi MS. 219 raqamli to'plam tarkibida saqlanayotgan «De stomacho»⁵ («Oshqozon to'g'risida»), «De coitu»⁶ («Juftlik»), «De medicinis dissolutiuis»⁷ («Tibbiy eritmalar to'g'risida») kabi risolalar ham kiradi. XI asrning ikkinchi yarmida Konstantin tomonidan shakllantirilgan tarjima uslublari Salerno, Palermo, Neapol kabi Italiya tarjima markazlarida faoliyat yuritgan keyingi davr tarjimonlari uchun muhim metodik asosga aylandi.

Aslida, XI asrning ikkinchi yarmi – XIII asrda tarjimachilik ishining yo'lga qo'yilishida uch: davlat, din (cherkov) va ziyoli qatlam omillari muhim o'rin tutgan. O'rta asrlar tarixidan yaxshi ma'lumki, ayni davrdagi ilmlar taraqqiyoti o'zining ko'p jihatlari bilan o'sha vaqtda hukmronlik qilgan davlat rahbarlarining ma'lum bir fan sohasiga bo'lgan shaxsiy qiziqishi asosida yuzaga kelgan. Misol uchun, Abbosiy xalifalardan al-Mansur (754 – 763) va Horun ar-Rashid (786 – 809)ning astrologiyaga, al-Ma'mun (813 – 833)ning astronomiyaga bo'lgan qiziqishi sabab Bag'dod o'rta asrlarning yirik tarjima va ilm markaziga aylangan. Al-Andalusdagi Umaviy xalifalardan Abdurahmon III ning adabiyot, al-Hakam II ning hisob ilmi va falsafaga bo'lgan qiziqishi esa Qurtubani Sharq Rennessansining g'arbiy markaziga aylantirdi.

XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda Yevropada ham arab tilidagi asarlarni tarjima qilinishining bosh tashabbuskori va buyurtmachisi avvalo davlat, ya'ni qirollar bo'ldi. Bunda, birinchi navbatda ularning fan vakillariga ko'rsatgan e'tibori muhim rol o'ynagan. Jumladan, Robert Otvilning tibbiyotga bo'lgan qiziqishi tufayli Salerno maktabida sohaga oid arabcha asarlar tarjima etila boshlangan bo'lsa, Rojer II (1130–1154)ning matematikaga alohida e'tibor berishi natijasida Palermoda turli millat vakillaridan iborat tarjimonlar guruhi shakllangan. Fridrix II (1197–1250)ning falsafiy ta'limotlarga qiziqishi esa Palermo va Neapol kabi shaharlarni o'z davrining yirik arabshunoslik tarjima markazlariga aylanishiga sabab bo'ldi. Alfonso X (1252–1284)ning astronomiya, intellektual o'yinlar va she'riyatga bo'lgan e'tibori natijasida Toledo, Mursiya, Sevilya – tarjima ishlarini ta'lim hamda amaliy tadqiqotlar bilan hamohang olib boriluvchi arabshunoslik ilmiy markazlari darajasiga ko'tarildi.

Yuqoridagi fikrlarimizni qo'lyozmalarining muqaddima yoki kolofonida saqlangan «bag'ishlov»lar ham dalillaydi. Misol uchun, Ishoq Isroil ibn Sulaymon qalamiga mansub «Kitob al-

¹Fück J. Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts. – Leipzig: Harrassowitz, 1955. – S. 4.

²Yuqoridagi asar, o'sha bet.

³Constantine. De oculis. – MS. 219: 11. fols. 207v–212. || Merton College, Oxford, UK.

⁴Constantine. De Melancholia. – MS. 219: 15. fols. 224–234v. || Merton College, Oxford, UK.

⁵Constantine. De stomacho. – MS. 219: 10. fols. 195v – 207v. || Merton College, Oxford, UK.

⁶Constantine. De coitu. – MS. 219: 12. fols. 212 – 215. || Merton College, Oxford, UK.

⁷Constantine. De medicinis dissolutiuis. – MS. 219: 13. fols. 215 – 217. || Merton College, Oxford, UK.

Xummayat» («Isitma haqida kitob») nomli asarning Ifriqiyalik Konstantin tomonidan yaratilgan tarjimasi («Liber febrium»)da ish tarjimonning asosiy himoyachisi ulug' sarkarda Robert buyurtmasi bilan amalga oshirilgani va [tarjimon] Salernoda yaratilgan tarjimalarining barchasini unga bag'ishlagani, buyurtmalarning sababi esa Robertning tibbiyotga qiziqishi va o'z askarlari orasida keng tarqalgan kasalliklarni davolash bo'lganligi («...Opus factum est per ordinem defensoris principalis interpres magnus bello Robertus cognomento Guiscardus..., Omnes suas translationes ei Salernitanos factas dedicavit..., et causa ordinis fuit Robertus cura in medicina et curatione morborum communium inter milites»)¹ qayd etilgan. Bunga o'xshash bag'ishlovlarni Rojer II ga atab yaratilgan Pistoialik Akkursius (XII asr) tarjimalarida², Maykl Skotning imperator Fridrix II topshirig'i bilan tayyorlangan arabcha asarlarning lotincha nusxalarida³ va umuman, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda yaratilgan tarjimalarning aksariyatida uchratish mumkin. Bu borada, mashhur «Pancatantra» («Besh kitob»)ning arabcha qisqartma nusxasi hisoblanmish «Kalila va Dimna»ni Alfonso X tashabbusi bilan tayyorlangan kastilcha tarjimasida («Calila y Dimna») keltirilgan qaydlar masalaning yana bir jihatini ochib beradi. Jumladan, asar tarjimasini yaratishga qiroi [Alfonso X] ko'rsatma bergani, ertaklar kitobini kastilchaga o'girishga [uning] o'z infant [farzand]larini [bo'lajak] davlat ishlariga to'g'ri tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoji hamda asarda keltirilgan hukmdor va faylasufning boshqaruv sirlariga oid suhbatlari sabab («...por orden del rey se creó la traducción, la traducción del libro de cuentos al castellano se debió a la necesidad de educar adecuadamente a sus infantes para los asuntos públicos, así como a las conversaciones del gobernante y el filósofo sobre los secretos del gobierno expuestos en la obra»)⁴ ekanligi ta'kidlagan. Mazkur ma'lumotlar, ko'rib o'tilayotgan davrda tarjimalar nafaqat qirollarning shaxsiy qiziqishlari, balki siyosiy motivlar sabab ham lotin tiliga tarjima etilganligini ko'rsatmoqda.

XII asrdan arabcha asarlarni tarjima qilish va tadqiq etish ishlari musulmon dunyosi tarixi, islom va uning falsafasini o'rganish ishlari bilan birga olib borildi. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, tadqiq etilayotgan davrda G'arbiy Yevropadagi ta'lim va fan, jamiyatdagi boshqa ijtimoiy sohalar kabi xristianlik cherkovi tomonidan nazorat qilingan hamda boshqarilgan. Tarjimachilik ishlari ham bundan mustasno emas, albatta. Chunonchi, arab tilidagi asarlarni lotinchaga ko'chirishning tashkilotchisi hamda buyurtmachisi dastlabki vaqtlarda cherkov bo'ldi. Xristianlik cherkovining o'rta asr «mafkuraviy maydoni»dagi eng asosiy raqobatchisi hisoblangan islom dini va uning falsafasiga bag'ishlangan ilohiyotga doir kitoblarni lotin tiliga o'girish tashabbusidan asosiy maqsad esa – mazkur dinga qarshi kurashish, uning g'oyalarini inkor etish va bu orqali musulmonlarni xristianlikka o'tkazish edi.

I.Fyuk o'z asarida ayni jarayonni G'arb oriyentalizmga xos ravishda: qadim yunon merosxo'ri sifatida tibbiyot, falsafa va tabiiy fanlar sohalarida islom dunyosi bilan kurashda rahnamolikni qo'lga olish zarurati, Sharq yerlariga kirib borgan salibchilarda islom olamiga mahliyolik hissini uyg'onishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy harakatlar orqali yakuniy g'alabaga erishish ehtimolining kamayib borishi, bid'atni ma'naviy kurash orqali yengishga umid bog'lagan missionerlik ruhi cherkovni Qur'on va arab tiliga murojaat qilishga undaganligini⁵ ta'kidlaydi.

¹Judaeus I. Liber febrium. / tr. C.Africanus. – Bodl. 355 – Part B. 5. fol. 135v. || Bodleian Library, Oxford, UK.

²Galen. De Virtutibus Cibariorum. /tr. A.Pistoia. – MS. 218 10. fols. 206–9v. || Merton College, Oxford, UK.

³Averrois C. Commentarium Magnum in Aristotelis De Anima Libros. tr. M.Scotus. – MS. 282 1. fols. 1-46. || Merton College, Oxford, UK.

⁴Calila y Dimna. – RBME h-III-9. || Real Monasterio de San Lorenzo de El Escorial, Madrid, España. – P. 2.

⁵Fück J. Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts. – Leipzig: Harrassowitz, 1955. – S. 4-5.



Mafkuraviy kurashlar fonida lotin tiliga tarjima qilingan islomiy kitoblardan dastlabkisi aynan «Qur'oni karim» bo'ldi. Mazkur jarayon Fransiyaning Klyuniya cherkovi abbatu Pyer de Montboissiyer (1094–1156) tashkilotchiligiga 1142–1143-yillarda shimoliy Ispaniyada tashkil etilgan. Bu boradi birlamchi manbalar hozirgi kunda, Fransiya milliy kutubxonasi tarkibidagi Arsenal kutubxonasida MS. 1162 raqamli «Corpus Islamolatinum» («Lotincha islomiy matnlar jamlanmasi»)da saqlanmoqda.

«Corpus Islamolatinum» tarkibidagi ikkinchi qo'lyozma hisoblanuvchi «Epistula domini Petri abbatis ad dominum Bernardum Clare Uallis abbatem» («Klear vodiysi abbatu Bernardga abbat Pyerning maktubi») maqola doirasida tadqiq etilayotgan masala yuzasidan muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ayni maktub «Qur'on»ning ilk lotincha nusxasini yaratilgan sanasini aniq ko'rsatuvchi manba ham hisoblanadi. Aslida, mazkur noma Burgundiyadagi Klyuniya cherkovi abbatu Pyer de Montboissiyerning Ikkinchi salib yurishi (1147–1149) g'oyaviy rahnamalaridan biri Klearveuxlik Bernardga (1091–1153) yo'llagan maktubidir. Unda, «Qur'on»ning tarjima qilishdan bosh maqsad nimadan iboratligi aniq bayon etilgan.

Jumladan, maktubda shunday yoziladi: «*Contuli ergo me ad peritos linguae Arabicae, ...eis ad transferendum de lingua Arabica in Latinam perditu hominis originem, vitam, doctrinam, legemque ipsam quae Alchoran vocatur, tarn prece quam pretio, persuasi*» [Arab tilini bilguvchilarga murojaat qilib, ularni adashgan insonning kelib chiqishi, hayoti, ta'limoti va qonuni bo'lmish «al-Qur'on»ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga ibodat va pul kuchi ila ko'ndirdim].

«*Ad pugnandum saracenis et negandum, necesse est primum doctrinam eorum intellegere, quae fundamentum est huius doctrinae et eius defectus cognoscere, ideoque ad suum sanctum librum ex arabico in latinum transferendum, hunc codicem collegi et eos qui id facere potuerunt*»¹ [Musulmonlarga qarshi kurashish va inkor etish uchun avvalo ularning ta'limotini tushunish, undagi kamchiliklarni aniqlash lozim, shuning uchun ham ularning muqaddas kitobi /Qur'on/ni arab tilidan lotinga o'girish uchun ushbu qo'lyozmani va bu ishni amalga oshiruvchi /tarjimon/larni /Pamplonada/ jamladim].

Maktub matnidagi ma'lumotlar islomiy asarlarning lotincha tarjimalari uchun cherkov buyurtmasining asl maqsadi – mazkur dinga qarshi kurashish bo'lganligini ortiqcha izohlarsiz ifoda etadi. Kontekstga nazar tashlansa, Pyer de Montboissiyer musulmonlarga nisbatan o'ta so'l qarashda bo'lgan. Buni maktubda Muhammad alayhissalomga nisbatan *perditu hominis* («adashgan inson»), musulmonlarga esa *barbarae* («varvar») ta'rifini ishlatilganligida ham ko'rish mumkin.

Aslida, maktubda nazarda tutilgan «Qur'on» tarjimasi 1142-yilda Pireney yarim orolining Fransiya bilan chegaradosh shimoliy hududida joylashgan Navarra tarixiy viloyatidagi Pamplona shahrida yaratilgan bo'lib, jarayonda Dalmatlik Herman (1100–1160), Kettolik Robert (XII asr), Toledolik Pedro (XII asr) kabi tarjimonlar hamda matnni mahalliy kastil tiliga og'zaki o'giruvchi Muhammad (XII asr) ismli tilmoch ishtirok etgan.

1143-yilda Kettonlik Robert «Qur'on»ni bir o'zi lotin tiliga o'giran. «Lex Mahumet pseudoprophete»² nomli bu ish ham Pamplonada Pyer de Montboissiyer tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Shu sababdan ham uning nomlanishi va matnida diniy-g'oyaviy kurashning salbiy ta'siri yaqqol ko'rinadi. Misol uchun, tarjimaning nomlanishini o'zbek tiliga so'zma-so'z o'girilganda «*pseudoprophete*» soxta payg'ambar «Mahumet» Muhammad «Lex» qonuni degan ma'no kelib chiqadi.

¹Epistula domini Petri abbatis ad dominum Bernardum Clare Uallis abbatem. – MS. 1162: fols. 3v – 4v. || Bibliothèque de l'Arsenal, Paris, France.

²Lex Mahumet pseudoprophete. – MS. 1162: fols. 26r – 138v. || Bibliothèque de l'Arsenal, Paris, France.

Lotincha tarjima qo'lyozmalarining asl matnlar bilan qiyosiy tahlili o'rta asrlardagi dinlararo qarama-qarshiliklar tarjima matniga, shu jumladan uning leksikasiga jiddiy salbiy ta'sir etgani, jarayonda tarjimonlar islomiy matnlarni nasroniy mafkurasiga moslashtirishga, ya'ni islomdan ko'ra nasroniylik ta'limotini ustun ekanligini isbotlashga urinishlari oqibatida muqaddas arabcha matnlar va hatto payg'ambar shaxsiyatiga oid lotincha ma'lumotlarda ko'plab noto'g'ri va haqiqatdan yiroq qaydlar shakllanib qolganligidan dalolat bermoqda. Ana shunday yondashuv asosida tarjima qilingan arabcha diniy mazmundagi asarlar qatoriga «Kitob al-Isro va-l-Mi'roj», «Kitob al-Anvar», «Maso'il Abdulloh ibn Salom», «Risolat al-Kindiy» ham kiradi. Mazkur tarjimalar islomiy ta'limotlarning xristian olamidagi ilk interpretatsiyasi sifatida G'arb falsafiy dunyosiga o'zining kuchli ta'sir ko'rsatdi va o'z davrida E.Said tanqid qilgan G'arb oriyentalizmdagi Sharqni «ikkinchi planga» qo'yish, ya'ni asosiy jarayonlarni orqa fonida tasvirlash an'anasiga asos bo'lgan.

Tahlil qilinayotgan davrda ayrim cherkov mutasaddilari diniy-falsafiy asarlardan tashqari aniq va tabiiy fanlarga oid arab tilidagi asarlarni ham lotinchaga tarjima qilish ishini tashkil etishgan. Ulardan eng mashhuri Toledo arxiyepiskopi Raymondo de Salveta (1125–1151) bo'lib, u musulmonlar davrida, aniqrog'i 1085-yilgacha masjid vazifasini bajargan shaharning bosh cherkovida saqlangan arab tilidagi asarlarni lotin tiliga tarjima qilish tashabbusini ilgari surib, Yevropaning turli nuqtalaridan arab va lotin tillarini bilgan olimlarni Toledoga jamladi va ularning faoliyatini moliyaviy jihatdan qullab-quvvatlab, tarjimachilik ishlarini tashkil etdi. Tarjimachilik ishlari undan keyingi arxiyepiskoplar Xuan Kastellmoran (1152–1166) va Rodrigo Ximenes de Radalarning (1209–1247) davrida ham davom etib, yanada rivojlandi. Natijada, arab tilidagi asarlarni lotin tiliga tarjima qilinuvchi va ular asosida yangi-yangi asarlar yaratiluvchi, ilmiy tadqiqotlar olib boriluvchi, fan tarixida Toledo maktabi nomini olgan tarjima muassasasi shakllandi. Maktabning XII – XIII asrlardagi faoliyati davomida turli fan sohalariga doir 120 dan ortiq arab tilidagi asarlar o'rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan lotin hamda mahalliy doirada ishlatilgan ibroniy, kastil, eski fransuz tillariga tarjima qilindi. Mazkur maktab tarixi, unda markaziy osiyolik allomalar ilmiy merosini tarjima va tadqiq qilinishni yoritish maqsadida yurtimizda maxsus o'rganilgan¹.

Raymondo de Salveta faoliyatiga oid birlamchi ma'lumotlar tahlili uni arab tilidagi asarlarni tarjima qildirishiga, biz yuqorida aytgan din (cherkov) omilidan tashqari, o'z davrining ziyoli qatlam vakili sifatida ayrim fanlarga qiziqishi ham turtki bo'lganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, uni olamning yaralishi, borliq, koinotning nimalardan iborat ekanligiga qiziqishi sabab, dastavval Aristotel (mil. avv. 384–322) asarlari va ularning sharhlovchilari kitoblarini tarjima qildirgan². Natijada, Aristotel asarlarining Bag'dod va Qurtubada yaratilgan arabcha tarjimalari hamda Kindiy (800–873), Qusta ibn Luqa (820–912), Forobiy (873–950), Ibn Sino (980–1037) kabi mashhur mutafakkirlarning shaxsiy asarlari va sharhlari lotin tiliga o'girilgan.

Arab tilidagi asarlarni tarjima qilish ishining rivojida davlat va cherkov bilan bir qatorda o'sha davrdagi ziyoli qatlam ham muhim rol o'ynagan. Misol uchun, o'z faoliyati davomida 90 ga yaqin arabcha asarlarni lotin tiliga o'giran Kremonalik Jerard (1114–1187)ni Italiyadan Toledoga kelishi va bu yerda tarjimonlik bilan shug'ullanishiga aslida Klavdiy Ptolemey (90 – 161)ning astronomiyaga oid eng muhim qo'llanma hisoblangan «Μεγάλη Μαθηματικὴ Σύνταξις» [«Мэґале матхэмастикэ сі́нтаксис»] («Hisobga oid buyuk kitob»)ini «al-Majistiy» nomli arabcha matnini topish istagi sabab bo'lgan. Tarjimonning hayotiga oid birlamchi manba bo'lmish «Vita et Commemoratio librorum»

¹Маҳмудов О.В. Европада Марказий Осиё олимлари илмий меросини ўрганишда Толедо мактабининг ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2018. – 50 б.

²Rada de J.R. Historia de los hechos de España. / Introd., traduc., notas de J.F.Valverde. – Madrid: Alianza editorial, 1989. – P. 89.

(«Hayot va kitoblarni xotilash») nomli badiiy uslubda yozilgan kichik hajmli risolada Jerardni asilzoda oiladan ekanligi va u asarlarni eng avvalo o'zining shaxsiy qiziqishi doirasida tarjima etganligi, ayrim hollarda buyurtmalarni bajarish uchun, ba'zida esa yaqin do'stlari iltimosi sabab arabcha asarlarni lotin tiliga ko'chirganligi¹ qayd etilgan.

Asli Britaniyadagi Norfolk grafligidan bo'lgan, mashhur astronom olim Morlilik Daniel (tax. 1140 – 1210) Kremonalik Jerardning ana shunday do'sti va shogirdlaridan biri edi. Olim qalamiga mansub bo'lgan «Pxilosophia Magistri Danielis de Merlac» («Ustoz Morlilik Danielning falsafasi») nomli asar hozirga qadar yetib kelgan bo'lib, uning muqaddima qismida Danielning to'liq tarjimai holi keltirilgan. Asar hozirgi kunda Britaniya kutubxonasi qo'lyozmalar fondidagi Arundel MS 377 raqamli to'plam tarkibida «De Naturis Superiorum et Inferiorum»² («Quy va yuqori olam haqida») nomi bilan saqlangan. Unda, Daniel o'z kitobini tugallash uchun 1170-yilda Parijga borganligi biroq, u yerdagi ta'lim va ilmiy muhit qoniqtirmaganligi bois, Toledoga ketganligini qayd etilgan. Asarda ayni voqe'lik qiziq tasvirlanib: *Parijga ilm istab borgani u yerda olimlardan ko'ra, hech narsani bilmaydigan «eshaklarni» uchratgani (Cum aliquando discederem ad studendum, in urbe Parisiorum paulisper commoratus sum. Ibi magis asinos quam viros vidi, qui in sellis sedebant et se valde graves praetendebant)* aytilib, ... *bunday bilimsizlikdan zarar ko'rmasligi uchun arab tilidagi asarlar asosida tabiiy fanlarni o'rganish uchun bu ishlar rivojlangan Toledoga ketishga shosxilganligini (Cum omnia ita se habere invenissem, non volui talem stuporem contrahere.... Sed cum audissem studium Arabum, quod totum ad quadrivium spectabat, illis diebus in urbe Toletana in more esset, illuc quam celerrime potui properavi)*³ qayd etilgan. Toledoda u Jerard bilan tanishib, ma'lum muddat hamkorlikda ijod qilishgan. Jumladan, unda arab tilidan boshlang'ich ta'lim olib, astronomiyaga oid bir qancha asarlarni lotin tiliga tarjima qildiradi. «De Naturis Superiorum et Inferiorum» matning tahlili, unda eng ko'p ishora berilgan asarlar Ahmad Farg'oniy (taxm. 798–861)ning «Kitob fi usul 'ilm an-nujum», Abu Nasr Forobiy (873–950)ning asl arabcha matni saqlanmagan «Ilmlarning kelib chiqishi», Abu Mash'ar Balxiy (787–886)ning «Madhal 'ilm an-nujum» hamda Ibn Sino (980–1037) qalamiga mansub «Kitob ash-Shifo»ning tarkibiy qismlari, shuningdek, Aristotel asarlariga yozgan sharhlari ekanligidan dalolat bermoqda. Asarda astronomiyaga oid ma'lumotlar to'liq holatda Farg'oniy kitobining Sevilyalik Xuan tomonidan lotinchaga o'girilib, Jerard tarafidan takomillashtirilgan «De rudimenta astronomica» («Astronomiya asoslari haqida») nomli tarjimasidan⁴ ko'chirilgan. Astronomiyani tarkibiy qismlarga ajratish chog'ida olim Forobiyning ilmlar tasnifini aynan⁵ takrorlaydi. Asar matnida Albumaser (Abu Mash'ar Balxiy) ismi 20 marotaba takrorlanib, astrologiyaga doir jarayonlarni tavsiflashda balxlik olim asarining «Maius Introductorium in Astronmiam» («Astronomiyaga kirish bosh kitobi») nomli lotincha tarjimasiga asoslanilgan. Ayni jihatlar olimni Toledo maktabi tarjimonlari Batlik Adelard, Dalmatlik Herman, Sevilyalik Xuan va albatta Kremonlik Jerard tarjimalaridan foydalanganini anglatadi.

«De Naturis Superiorum et Inferiorum»ning muqaddimasi so'nggida olim o'z vataniga 1184-yilda qaytishga majbur bo'lgani, bunga sabab Toledoga kelish uchun olgan qarzlarini to'lash vaqti kelgani bilan izohlanib, qaytishda o'zi bilan ko'p sonli arabcha asarlar va ularning lotincha tarjimalarini olib ketganligi⁶ yozilgan. Olim ularning eng nodiri sifatida «De rudimenta astronomica», «Maius

¹Vita, Commemoratio librorum. –Lat. 14390 s. xiv, fols 223r-v. || Paris, Bibliothèque nationale de France, France.

²Merlac D. d. De Naturis Superiorum et Inferiorum. – Arundel MS 377 fols. 88r-103v. || British Library, London, UK.

³Yuqoridagi asar, 88r-sahifa.

⁴Yuqoridagi asar, 91r-95v-sahifalar.

⁵Yuqoridagi asar, 101v-sahifa.

⁶Yuqoridagi asar, 89r-sahifa.



Introductorium in Astronmiam», «De ortu scientiarum»larni sanaydi. Bundan anglash mumkinki, XII asrning o'zidayoq Farg'oni, Balxiy va Forobiy kabi markaziy osiyolik allomalarning asarlari uzoq Britaniyagacha yetib borgan. Keltirilgan ma'lumotlar, Morlilik Daniel faoliyati va ilmiy merosi yurtimiz fan tarixi nuqtai nazaridan ham maxsus tadqiqotga loyiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Sohadagi tadqiqot natijasida XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda Yevropada tarjimachilik ishlari 13 ta shahar – Barselona, Mursiya, Pamplona, Saragosa, Sevilya, Segoviya, Toledo hamda Neapol, Paduya, Palermo, Salerno, shuningdek Marsel va Monpelyeda olib borilganligi aniqlandi. Ularda IX – XII asrlarda ijod qilgan 40 nafarga sharqlik allomalarning turli fan sohalariga oid 200 ga yaqin arab tilidagi asarlari hamda 10 dan ortiq antik davr olimlarining 50 ga yaqin asarlarining arabcha nusxalari lotin tiliga tarjima qilingan. Manbalar tahlili, ko'rib o'tilayotgan davrda bu shaharlarda jami 70 dan ortiq tarjimonlar ijod qilganidan dalolat bermoqda. Qayd etish joizki, bu jarayonda tarjimonlar asarlarni lotin tiliga o'girish bilangina cheklanmay, ular asosida o'zlarining shaxsiy asarlarini ham yaratishgan.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olib, sanab otilgan 13 ta shaharni umumiy bir nom bilan «O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari» deb atash har jihatdan to'g'ri, deb hisoblaymiz. Ushbu tushunchani ilmiy muomalaga kiritilishi bilan Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya shaharlarida yo'lga qo'yilgan tarjimachilik ishlarini yagona tizim sifatida ifodalash mumkin bo'ladi.

Muhokama. Natijalar qismida keltirilgan ma'lumotlar va ularning tahlili arabshunoslikning ilk belgilari arab tilidagi asarlarni tarjima qilish va tadqiq etish ko'rinishida Yevropada X asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagani, XI asr ikkinchi yarmidan esa mintaqada arabshunoslik tarjima markazlarining tashkil topish jarayoni boshlanganidan dalolat bermoqda.

Fikrimizni yanada aniqroq kontekstda ifodalash uchun arabshunoslikka XV – XVI asrlarda yuzaga kelgan soha sifatida berilgan ta'riflarda asos sifatida ko'rsatilgan omillarni qiyosiy tahlil qilib ko'ramiz:

1. *XVI asrdan arab tiliga oid leksikografik ishlar yo'lga qo'yilib, lug'atlar yaratila boshlangani.* Maqola avvalida qayt etilganidek, bu borada «Arte para ligeramente saber lengua araviga» («Arab tilini boshlang'ich o'rganish san'ati»), «Vocabulista arábigo en letra castellana» («Ispan tilidagi arabcha lug'at») va «Grammatica Arabica» («Arab tili grammatikasi») nomli asarlar asos sifatida keltiriladi.

Aslida, arab – lotin lug'ati ilk bor XII asrda Ispaniya yaratilgan bo'lib, «Glossarium Latino-Arabicum»¹ nomli mazkur lug'at bugungi kunda yagona nusxada Leyden kutubxonasida Or. 231 raqami bilan saqlanmoqda. Muallifi noma'lum bo'lgan lug'at matnining tahlili uni arab tilini mukammal bilgan ispaniyalik xristian tomonidan tuzilganini ko'rsatmoqda. Leksikografik jihatdan turli nuqsonlarda holi bo'lmasa-da, arab va lotincha so'zlar qiyosiy tahlil qilingan, 294 sahifadan iborat ayni qo'lyozma Yevropa arabshunosligidagi dastlabki lug'at edi.

2. *XVI asrdan arab tilidagi asarlarni ilmiy izohli tarjima qilish yo'lga qo'yilgani.* Maqolaning avvalgi qismida ta'kidlanganidek, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda 200 dan ortiq arab tilidagi asarlar lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimashunoslik nuqtai nazarida ularning barchasini ham yuqori saviyada deb bo'lmasa-da, tahlillar tarjima jarayonida erkin, so'zma-so'z, vositachi tildan tarjima qilish uslublaridan foydalanilganini ko'rsatmoqda. Manbalarda, Toledo maktabi egasi Raymondo de Salvatani bu yerda yaratilgan bir qancha tarjimalarni tekshirib berish uchun 1140–1142-yillar oralig'ida Dalmatlik Herman (1100–1160)ga jo'natganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Jumladan, 1140-yilda arxiyepiskop asarlarni arab tilidan to'g'ridan to'g'ri lotinchaga o'giruvchi Hermanga turli

¹Glossarium Latino-Arabicum. – Or. 231. || Leiden University Libraries, Leiden, Netherlands.



jadvallardan iborat arabcha asar matnini uning 1126-yilda yaratilgan lotincha tarjimasi bilan birga yuborganligi qayd etiladi. Ta'kidlanishicha, *arxiyepiskop tarjimondan asarni lotincha tarjimasini uni arabcha nusxasi bilan solishtirib, tekshirib berishni*¹ so'ragan. Bundan ko'rinadiki, arabcha asarlar nafaqat lotinchaga o'girilgan, balki tarjima matni tanqidiy qayta tahrir ham etilgan.

Avvalroq ismi tilga olingan Kastiliya va Leon qiroli Alfonso X davrida esa yaratilgan tarjimalarni tekshiruvdan o'tkazuvchi «emendador» lavozimi joriy qilinadi. Eski kastil tilidan tarjima qilinganida bu so'z «tuzatuvchi» degan ma'noni anglatadi. Zamonaviy davr nuqtai nazaridan u muharrirlikka to'g'ri keladi. Bundan tashqari, qiroli buyrug'i bilan ungacha ishlatib kelingan lotincha «verbum pro verbo» (so'zma-so'z) tarjima uslubi bilan bir qatorda kastilcha «llanos de entender» (oson tushunish) uslubini qo'llashga o'tilgan.

Ayni davrda ijoq qilgan mashhur ingliz faylasufi Rojer Bekon (1214–1292) o'zining «Opus Majus» («Katta asar») nomli kitobida arabcha asarlarini lotin tiliga tarjima qilinishini ham maxsus yoritgan. R.Bekon mazkur jarayonda ishtirok etgan tarjimonlar faoliyatiga nazar tashlab, ulardan Ifriqiyalik Konstantin, Batlik Adelard, Kremonalik Jerard, Maykl Skot, Sareshellik Alfred, Germanlik Herman to'g'risida ma'lumotlar² beradi. Tarjimashunoslik nuqtai-nazaridan «Opus Majus»ni XI asr ikkinchi yarmi – XIII asr oxirida yaratilgan tarjimalarning dastlabki tanqidiy tahlili keltirilgan asar, deb baholash to'g'ri bo'ladi. Chunonchi, muallif asarning lingvistikaga bag'ishlangan «Linguarum cognitio» nomli uchinchi qismda arab tilidagi asarlarni lotin tiliga o'g'irish jarayonida tarjimonlar tomonidan qo'llanilgan tarjima uslublari va ularning kamchiliklari to'g'risida o'z mulohazalarini bildirib o'tgan.

Mazkur jihatlar, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda tarjimachilik ish uslubi turg'un holatda turmay, vaqt o'tishi bilan takomillashib borganligini, yaratilgan tarjimalar esa ayni davrning o'zida ham tanqidiy tahlil etilganligini ko'rsatmoqda. Muhim jihati, musulmon Sharqi olimlari qalamiga mansub arab tilidagi asarlarining ayni davrda yaratilgan lotincha tarjimalari, ularning XVI yoki haqiqiy ilmiy-izohli tarjimalari yaratilgan XIX asrdagi nusxalaridan ko'ra, Yevropa ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

3. XVI asrdan arab tilli xalqlar tarixi va madaniyatini o'rganishga qiziqishning kuchayganligi. Aslida, bu jarayon, ikki, ya'ni arab va lotin tilli sivilizatsiya vakillarining dastlabki to'qnashuvi yuz bergan VII – VIII asrlardayoq shakllana boshlangan. Lekin, bu qiziqish arab tilli xalqlar tarixi va madaniyatiga oid asarlar yaratish ko'rinishida XII – XIII asrlardan jiddiy ko'rinish oldi. Jumladan, Raymond de Agilers (vaf. tax. 1100)ning «Historia Francorum qui ceperunt Jerusalem»³ («Quddusni zabt etgan franklar tarixi») nomli asari hamda yuqorida ismlari tilga olingan Pyer de Montboissiyerning «Summa totius haeresis Saracenorum»⁴ («Barcha musulmon bid'atlarining yig'indisi») hamda Rodrigo Ximenes de Radaning «Historia arabum»⁵ («Arablar tarixi») nomli risolalarida arab tilli xalqlar madaniyati va islom diniga oid ma'lumotlar ilk bor lotin tilida bayon etildi. Biroq, ayni davrdagi qiziqish asosan o'rta asrlarning dinlararo kurashlar fonida yuz berganligi bois, islom tarixi va

¹Rada de J.R. Historia arabum. / Publicaciones de la Universidad de Sevilla: Serie Filosofia y letras. – Sevilla: Salesiana, 1974. – P. 47-48.

²Bacon R. Opus Majus. – Vol. I. / Ed. with introduction and analytical table by J.H.Bridges. – Oxford: Oxford University Press, 1900. – P. 5-6, 10, 13, 73, 82, 85, 101.

³Agilers R. Historia Francorum qui ceperunt Iherusalem. / Trans. by J.H.Hill, L.L.Hill. – Philadelphia: American Philosophical Society, 1968. – 487 p.

⁴Petrus Venerabilis. Summa totius haeresis Saracenorum. / In Peter the Venerable and Islam / Ed by J.A.Kritzcek. – Princeton: Princeton University Press, 1964. – P. 115–293.

⁵Rada de J.R. Historia arabum. / Publicaciones de la Universidad de Sevilla: Serie Filosofia y letras. – Sevilla: Salesiana, 1974. – 92 p.

madaniyatiga oid voqea va ma'lumotlar bir yoqlama, nasroniy dini nuqtai nazaridan yoritilgan. Misol uchun, «Summa totius haeresis Saracenorum» aslida islomiy ta'limotlarni chuqurroq o'rganib, ulardagi xatoliklarni aniqlash va shu asosida bu ta'limotlarni inkor etish maqsadida yozilgan bo'lsada, u islomni nasroniylik rakursidan turib tadqiq etishga urinib ko'rilgan, musulmon madaniyati va fani tarixiga bag'ishlangan Yevropadagi dastlabki asarlardan biri ekanligi bilan muhim ahamiyatga ega.

4. XVI asrdan arab tilini o'qitishning yo'lga qo'yilganligi.

Sohadagi tadqiqotlarda XVI asrdan Yevropa universitetlarida arab tilini maxsus fan sifatida o'qitish keng yo'lga qo'yilganligi qayd etiladi. Albatta, bu tarixiy haqiqat. Lekin ayni jarayon arab tilidagi asarlar tarjima qilingan XII asrda ham kuzatiladi. Misol uchun, ayni davrda yaratilgan mavzuga oid asosiy manbalar bo'lmish «Vita et Commemoratio librorum» va «Pxilosophia Magistri Danielis de Merlac»da Kremonalik Jeradning haftada uch kun lotin o'quvchilariga arab tilidan dars o'tganligi¹ qayd etilgan.

5. XV – XVI asrdan arab tilidagi asarlarni o'rganish va ular asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish boshlanganligi. Maqolaning avvalgi qismida ta'kidlanganidek, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda faoliyat yuritgan tarjimonlar arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga o'girishgan, balki ular asosida o'zlarining shaxsiy asarlarini ham yaratishgan. Jumladan, Batlik Adelard va Sevilyalik Xuanning Muhammad Xorazmiy asarlari asosidagi «Liber Ysagogarum Alchorismi»² («al-Xorazmiyning kirish kitobi») va «Liber Algorismi de practica arismetica»³ («al-Xorazmiyning arifmetika amaliyoti to'g'risidagi kitobi»), Maykl Skotning Ahmad Farg'oniy va Abu Mash'ar Balxiy asarlariga tayangan holda tayyorlangan «Liber introductorius»⁴ («Kirish kitobi») kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Tahlillar bu kabi asarlarning umumiy soni 40 dan ortiq ekanligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, manbalar bu davrda arab tilidagi asarlar asosida ilmiy tadqiqotlar ham yo'lga qo'yilganligidan dalolat bermoqda. Misol uchun, Alfonso X (1252–1284) davrida Toledo maktabi olimlari tomonidan, Muhammad Xorazmiyning «Zij»i asosida yangi zij tuzilgan. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish o'rinliki, «Zij al-Xorazmiy» 1126-yilda Batlik Adelard⁵, 1138–1151-yillar o'raligida esa Dalmalik Herman tomonidan ikki marotaba lotin tiliga tarjima qilingan edi.

«Zij al-Xorazmiy» asosida Toledo maktabida tuzilgan zij bevosita qirol Alfonso X tashabbusi bilan yaratilganligi bois, fanda «Tablas alfonsies»⁶ («Alfonso jadvallari») deb yuritiladi. Mazkur zij Toledo maktabining o'sha davrdagi ish yurituvchi rahbarlari Yahud ibn Moshe va Ishoq ibn Sid boshchiligida 1252–1265 yillarda olib borilgan izlanishlar natijasi bo'lib, astronom olimlar uni yaratishda «Zij al-Xorazmiy»ning Adelard va Herman tarjimalari hamda toledolik mashhur astronom az-Zarqaliyning Kremonalik Jerard lotincha o'giran «az-Zij at-Tulaytila» nomli asaridan⁷ foydalanishgan. Qayd etish joizki, aslida az-Zarqaliy «Zij»i ham Xorazmiy jadvallari asosida yaratilgan edi.

Alfonso X al-Xorazmiy hamda az-Zarqaliy «Zij»laridagi dalillarni nazariy va amaliy jihatdan tekshirib ko'rish maqsadida 20 dan ortiq astronomdan iborat ikki guruhni tashkil etadi. Uning tarkibida Sevilyadan taklif qilingan Aben Ragel, Aben Misio, Muhammad ismli olimlar, shuningdek, Qurtobadan kelgan Iosif Aben Ali, Yakob Abenvena kabi astronomlar, bundan tashqari, Parij va

¹Vita, Commemoratio librorum. –Lat. 14390 s. xiv, fols 223r-v. || Paris, Bibliothèque nationale de France, France; Merlac D. d. De Naturis Superiorum et Inferiorum. – Arundel MS 377 fols. 88r-103v. || British Library, London, UK.

²Bathensis A. Liber ysagogarum Alchorismi. – MS. Lyell 52 2. fol. 21r. || Bodleian Library, Oxford, UK.

³Hispalensis I. Liber algorismi de practica arismetice. – L 16 202 fols. 50-81v. || Paris, Bibliothèque nationale de France, France.

⁴Scotus M. Liber introductorius. – MS. Bodl. 266. || Bodleian Library, Oxford, UK.

⁵Algoarizmi Mahumed. Ezich elkauresmi. / tr. Adelardus Bathensis. – MS. Auct. F. 1. 9. || Bodleian Library, Oxford, UK.

⁶Tabule Alfonsi // Libro de las tablas alfonsies. Latin. –fols. 1r – 22v. || Biblioteca Nacional De España, Madrid, España.

⁷Azarchel. Tabulae astronomicae. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Savile 22. || Bodleian Library, Oxford, UK.



Gaskoniyadan maxsus taklif qilingan 15 nafar olim bo'lgan. Bu guruhlardan birinchisiga Yahud ibn Moshe, ikkinchisiga esa Ishoq ibn Sid rahbarlik qilgan. Qirol topshirig'iga binoan birinchi guruh al-Xorazmiy asarini, ikkinchi guruh esa az-Zarqaliy risolasini maxsus tekshiruvdan o'tkazadi. Jarayonda, Ishoq ibn Sid boshchiligidagi astronomlar «Zij al-Xorazmiy»ni Adelard va Herman tomonidan lotinchaga to'g'ri o'girilganligiga ishonch hosil qilish maqsadida, tarjimalarni o'zaro solishtirib ham ko'rishadi. Jarayonda, Dalmatlik Herman asarni qo'shimcha izohlar bilan tarjima qilganligiga guvoh bo'linadi. Biroq, bu tarjima hozirga qadar yetib kelmagan.

Alohida qayd etish joizki, xorazmlik allomaning astronomiyaga oid ilmiy nazariyalarini Yevropa bo'ylab keng tarqalishida Toledo maktabida yaratilgan mazkur «Zij» asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qildi. Avval kastil tilida bitilib, 1321-yilda lotin tiliga «Tablas alfonsies» nomi bilan o'girilgan asar to XVI asrga qadar G'arb astronomiyasida o'zining muhim ahamiyatini saqlab qoladi. Asarning lotincha qo'lyozmasi¹ bugungi kunda Ispaniya milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

Mazkur ma'lumotlar ko'rib o'tilayotgan davrda arab tilidagi asarlar faqat nazariy jihatdan tarjima etilibgina qolmay, amaliy tadqiqotlar asosida tahlil etilganini ham anglatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda ijod qilgan 71 nafar tarjimonning aksariyati ana shunday olimlar bo'lib, ular o'z davrining arabshunoslari edi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Yevropada arabshunoslik sohasining shakllanishi va rivojlanish jarayonini quyidagicha davrlashtirish taklif etiladi:

X – XI asr birinchi yarmi – bu davr arabshunoslikning shakllanishida o'ziga xos «proto» bosqich bo'lib, sohaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblangan arab tilidagi asarlarni Yevropa hududiga kirib borishi hamda Qurtuba, Toledo va Salerno kabi shaharlarda jamlanishi bilan xarakterlanadi. Pireney yarim oroliga katta miqdordagi arab tilidagi asarlarning kirib borishi va jamlanishida Qurtuba xalifalari Abdurahmon III (929–962) va al-Hakam II (962–976) muhim rol o'ynagan. Ushbu ilmiy merosni yanada boyitish va uni o'z davrining fan yutuqlari bilan to'ldirish ishlariga Toledo amiri al-Ma'mun (1043–1075) boshchilik qildi. Leon va Kastiliya qiroli Alfonso VI (1069–1109) davrida ushbu ilmiy meros namunalari xristian olamiga taqdim etildi. Biz, musulmon Sharqi, shu jumladan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotimiz natijalarini keyingi ishlarimizda batafsil ko'rishda e'lon qilamiz.

XI asr ikkinchi yarmi – XIII asr – arabshunoslikning ilk bosqichi. Bu bosqichda maqolada bayon etilganidek, Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya hududida arab tilidagi asarlarni lotin va boshqa mahalliy tillarga o'giruvchi, ular asosida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yangi asarlar yaratiluvchi arabshunoslik tarjima markazlari shakllandi. Bu bosqichda, aniq, tabiiy va ijtimoiy fan sohalariga oid asarlar bilan bir qatorda muqaddas islomiy kitoblar va matnlar ham tarjima qilinib, musulmonlar tarixiga oid bir qancha risolalar yozildi. Yana bir jihati, bu kabi tarjimalarning aksari o'sha vaqtlardagi fan va ta'limning nazoratchisi sifatida cherkov tashabbusi bilan amalga oshirildi. Shunga qaramay, ayni davrda yaratilgan tarjimalar mintaqadagi ilm-fanning keyingi rivojida muhim o'ringa ega bo'ldi.

XIV – XV asrlar – tarjimachilikdan ilmiy arabshunoslikka o'tish bosqichi hisoblangan ayni davrda, lotincha tarjimalarni o'rganish asnosida ularning asl arabcha nusxalari mualliflarining hayoti va shaxsiyatini tadqiq etish boshlandi. J.F.Foresti (1434–1520)ning «Supplementum Chronicorum Orbis, ab initio mundi ad annum 1482»² («Butun jahon solnomasiga qo'shimchalar: dunyoning yaratilishidan to 1482 yilga qadar»), X.Shedel (1440–1514)ning 1493-yilda nashr qilingan «Registrum huius operis

¹Tabule Alfonsi // Libro de las tablas alfonsies. Latín. – fols. 1r – 22v. || Biblioteca Nacional De España, Madrid, España.

²Foresti J.F. Supplementum Chronicorum Orbis, ab initio mundi ad annum 1482. – Venetiis: Bernardinus de Benaliis, 1486. – 557 p.

libri cronicarum cum figuris et imaginibus ab inicio mundi»¹ («Shaxslar va tasvirlar bilan boyitilgan solnomalar jamlanmasi: dunyoning yaratilishidan hozirga qadar»), S.Farez (1450–1499)ning «Recueil des plus célèbres astrologues et quelques hommes doctes»² («Mashhur astrologlar va fan namoyondalariga oid to‘plam») nomli asarlarida bunga misoldir. Ularda Yahyo ibn G‘olib al-Hayyot, Abu Bakr ibn al-Hosib, Abu-l-Saqr al-Qabisiy, al-Xorazmiy, Abu Mash‘ar al-Balxiy, al-Farg‘oniy, al-Kindiy, ar-Roziy, Nuriddin al-Bitrujiy, Umar ibn Tabariy, Sobit ibn Qurra, Sahl ibn Bishr va Ibn Sino kabi arab tilida ijod qilgan olimlarning hayoti va ularning vataniga oid ma‘lumot keltirilgan. Biroq, ayni davrdagi tadqiqotlarni asl arab tilli manbalarga asoslanmaganligi bois, shuningdek, avvalgi bosqichda yaratilgan tarjimalar matnida mualliflar to‘g‘risida ma‘lumotlarning mavjud emasligi, ayrim yevropalik tarixchilarni asar muallifining sun‘iy biografiyasini yaratish borasidagi urinishlariga sabab bo‘lgan. Natijada XIV–XV asrlarda yaratilgan lotin tilli manbalarda musulmon Sharqi mutafakkirlari shaxsiyatiga oid to‘qima va afsonaga asoslangan ma‘lumotlar shakllanib qolgan.

XVI – XVIII asrlar – ilmiy arabshunoslik bosqichi. Bu davrdan tadqiqotlarning asosiy qismi tilshunoslik nuqtai nazaridan, ya‘ni arab tili va adabiyotini klassik filologiya doirasida o‘rganish ko‘rinishida olib borildi. Maqolaning natijalar qismida tahlil etilgan Pedro de Alkala va Giyom Postel asarlari ana shunday tadqiqotlarning dastlabkisi hisoblanadi. Ayni bosqichda, arab tili Yevropa universitetlarida maxsus fan sifatida o‘qitila boshlandi.

Bundan tashqari, arabshunoslikning ilk bosqichida arab tilidan lotinchaga tarjima qilingan asarlarni ilmiy tadqiq etish yo‘lga qo‘yilib, arab tilida ijod qilgan musulmon Sharqi allomalari shaxsiyati va ilmiy merosiga bag‘ishlangan bio-bibliografik asarlar yaratildi. Misol uchun, ulardan dastlabkisi Yoxannes Leo Medichi (1494–1554)ning «De viris quibusdam Illustribus apud Arabes» («Arablar orasidagi ba‘zi taniqli shaxslar to‘g‘risida») nomli asari bo‘lib, 1526-yilda Rimda yozib tugallagan. Muallif o‘z asarini tayyorlashda Ibn Abbor (1199–1260)ning «Kitob al-Takmila li kitob al-sila»³ («as-Sila kitobiga qo‘shimchalar») nomli risolasi hamda Ibn Xallikon (1211 – 1282)ning «Vafayot ul-a‘yon va anbo‘ abno‘ iz-zamon»⁴ («Mashhur kishilar vafoti va zamondoshlar haqida xabarlar») asaridan foydalangan. Arab va lotin tillarini bilgan muallif mazkur ikki tildagi manbalarni o‘zaro solishtirib, asarda musulmon Sharqi allomalarining biografiyasini yozishga harakat qildi. Leo Medichi, lotin mualliflari orasida ommalashgan Ibn Sinoning shaxsiyatiga oid to‘qimalarni arab tilidagi manbalar jumladan, Ibn Xallikon asari asosida inkor etadi va allomaning lotincha tarjimai holiga tuzatishlar kiritadi. Jumladan, muallif *lotin tilida ijod qiluvchilar uni* [Ibn Sino] *Qurtuba* [yoki Sevilya, Vifiniya] *qirol deb atashadi, bu yolg‘on, chunki manbalarda bu haqida ma‘lumot mavjud emas* (*Et quod dicitur inter latina lambentes quod Rex chordube fuerit, mendacium est, quoniam non inuenitur apud scriptores eius uitae latina lingua*) ligini⁵ qayd etadi. Leo Medichi o‘z davrida yashab o‘tgan biograflardan farqli ravishda birinchi bor Ibn Sinoni ijod qilgan hududiga aniq va to‘g‘ri ishora berib, *uni Forsdagi Hamadonda vafot etgani, biroq u bu yerda tavallud topmagan*⁶ligini ta‘kidlaydi. Leo Medichi asari o‘zida arab tilida ijod qilgan 31 nafar o‘rta asr musulmon allomalari to‘g‘risidagi

¹Schedel H. Registrum huius operis libri cronicarum cum figuris et imaginibus ab inicio mundi. – Nuremberg: A.Koberger, 1493. – 336 p.

²De Phares S. Recueil des plus célèbres astrologues et quelques hommes doctes. – Paris: H.Champion, 1929. – 307 p.

³Abbr Ibn. Complementum Libri as-Sila. / Ed. F.Codera-Zaidin. / Biblioteca arabico-hispana. – Tomos 6–7. – Caesaraugustae: Typographia Fratrum Comas, 1888–1889. – 1489 p. (Vol. 1 – 593 p.; Vol. 2 – 896 p.)

⁴Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. / Translated from the Arabic. – Vol. I. / Trans. by Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1842 – 1871. (Vol. 1 – 734 p.; Vol. 2 – 718 p.; Vol. 3 – 708 p.; Vol. 4 – 640 p.).

⁵Leo Africanus. De viris quibusdam Illustribus apud Arabes. – Heidelberg: J.H.Hottinger, 1664. – P. 79.

⁶Yuqoridagi asar, 81-bet.

ma'lumotlarni jamlagan va lotin tilida Yevropada yaratilgan kitob sifatida ham alohida e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, ayni asar musulmon Sharqi allomalari ismlarining Yevropadagi lotincha tarjimalarini identifikatsiya qilish va shu orqali ularning asl tarjimai holini tiklash borasidagi dastlabki urinish ham edi. Asarning qo'lyozmasi Florensiyadagi Medichi Laurensian kutubxonasida Ms. Hist. Litt. 7 / 68 Bl. xos raqami bilan saqlanmoqda. U 1664-yilda qo'lyozma ko'rinishida nashr qilingan.

XIX – XX asr birinchi yarmi – akademik arabshunoslik bosqichi. Bu davrda arabshunoslik sharqshunoslikning mustaqil fan tarmog'i sifatida to'liq shakllandi. Yevropada nemis, fransuz, ingliz, ispan va rus arabshunoslik ilmiy maktablari yuzaga kelib, ularning yirik vakillari tomonidan arab tilshunosligi, arab tilli xalqlar tarixi, madaniyati, adabiyoti, shuningdek, aniq va tabiiy fanlar hamda falsafa, fiqh, tafsir, hadis, grammatika va boshqa sohalar bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Matnshunoslik, shu jumladan qo'lyozmalarni ilmiy tadqiq etish, tavsiflash va ilmiy izohlari bilan nashr etish ishlari o'zining eng yuqori nuqtasiga chiqdi. Shu sababdan bu davrni arabshunoslikning klassik davri sifatida baholash to'g'ri bo'ladi.

Qayd etish joizki, joriy va avvalgi bosqichdagi arabshunoslik tadqiqotlari sohada muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ularda arab tildagi ilmiy merosni Yevropa ilm-fan taraqqiyotiga ko'rsatgan ulkan ta'sirini ko'pincha pasaytirib tasvirlanadi. Bunda, arabcha asarlar va ulaning mualliflariga antik davr fan yutuqlarining saqlovchilari sifati baho berish ustunlik qiladi. Bu orqali zamonaviy Yevropa o'z taraqqiyotini arab tilli Sharqdan emas, yunon va lotin tilli G'arbdan olganiga ishora qilinadi. Biroq, tadqiqotlar yunon tilidagi antik davr merosining asosiy qismi yevropaliklar tomonidan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda aynan arab tilidan o'zlashtirilganini tasdiqlamoqda.

XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr birinchi choragi – bu davrda postkolonializm tadqiqotlarida natijasida arabshunoslik va umuman sharqshunoslikdagi o'rganilayotgan obyekt – Sharqqa bo'lgan qarashlar o'zgardi. Bu jarayonda avvalroq ismi tilga olingan E.Saidning oriyentalizm konsepsiyasi hal qiluvchi rol o'ynadi. Olim o'zining shu nomdagi asari orqali Yevropa sharqshunosligidagi binar qarash, ya'ni «biz va ular» yondashuvini tanqid qilib, yevropalik sharqshunoslar asarlarida Sharqqa nisbatan bir yoqlama, ikkinchi darajali element sifatida qarash singdirilganligini asoslashga harakat qildi. «Orientalizm» zamonaviy sharqshunoslik, shu jumladan arabshunoslik tadqiqotlariga keskin ta'sir qilib, Sharqqa G'arbdan emas, Sharqqa Sharqdan qarash an'analari boshlab berdi. Natijada, arab tilli xalqlar hamda tarixi arab manbalari bilan bog'liq bo'lgan davlatlarda milliy arabshunoslik maktablari shakllandi.

Xulosa. Fan tarixida arabshunoslikning shakllanish bosqichini qayta davrlashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari masala doirasida quyidagicha xulosa qilishga asos bo'lmoqda:

birinchidan, mintaq va xorijiy ilmiy adabiyotlarda arabshunoslikning shakllangan davri sifatida XVI asrni ko'rsatilishiga unga tor doirada, faqat arab tili va tarixini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi sifatida qaralishi sabab bo'lgan;

ikkinchidan, arabshunoslikning ilk belgilari arab tilidagi asarlarni tarjima qilish va tadqiq etish ko'rinishida Yevropada X asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagan. XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda mintaqada arabshunoslik tarjima markazlarining tashkil topib, 200 dan ortiq turli fan sohalariga taalluqli bo'lgan arabcha asarlar lotin va boshqa mahalliy tillarga tarjima qilingan. Mazkur tarjimalar asosida yevropalik olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yangi asarlar yaratilgan.

uchinchidan, maqolada keltirilgan tahliliy dalillar asosida arabshunoslikning shakllanishini ilk bosqichini xronologik jihatdan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asr bilan belgilash, shunga muvofiq ilmiy va o'quv adabiyotlaridagi tegishli ma'lumotlarga tahririy tuzatishlar kiritish zarur.





O'RTA OSIYO NAQSHBANDIYA-MUJADDIDIYA TARMOG'I VAKILLARINING MANBALARDA YORITILISH MASALALARI

(Shayx Muhammad Ma'sum – Shayx Habibulloh – So'fi Olloyor)

JAXONGIR ABDUPATTAXOV

Katta o'qituvchi, TDSHU

Annotatsiya: O'rta asrlarda irfoniy va ilmiy mavzular yoritilgan asarlar asosan arab tilida bitilgani ma'lum. Bu an'ana keyingi asrlarda ham davom etdi, ayniqsa, Shayboniylar va Ashtarxoniylar boshqaruvi davrida ham soha ilmlariga bag'ishlangan asarlar uchun fors tili bilan bir qatorda arab tili ham asos vazifasini bajarishda davom etdi. Nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, mintaq xalqlari orasida keng mutolaada bo'lgan asarlarning aksariyati, ayniqsa, ulamo-yu fuzalolar qalam tebratgan nazmiy, nasriy va soha ilmlariga oid ilmiy ishlarini yaratishar ekan, o'z afkoru maqsadlarini arab, fors va turkiy tillarda mohir bayon eta olganlar. Bunday tasniflar qatoriga Hind diyorida naqshbandiya tariqatining mujaddidiya tarmog'iga asos solgan ikkinchi mingyillikning mujaddi – mujaddidi alfi soniy Shayx Ahmad Faruqiy as-Sarhindiy, Shayx Muhammad Miyon Ma'sum ibn Ahmad as-Sarhindiy, Muhammad Hishom ibn Muhammad Qosim, Muhammad Hoshim Kashmiy, Murod ibn Abdulloh al-Qozoniy kabi allomalar tarafidan tuzilgan yuzlarcha asarlar jonli misoldir.

Kalit so'zlar: Shayx Ahmad Faruq as-Sarhindiy mujaddidi alfi soniy, Shayx Muhammad Miyon Ma'sum, Shayx hoji Habibulloh, Shayx Navro'z SHahrisabziy, So'fi Olloyor, Shayx Sayid Hoji Nasafiy, Mazhar ul-ahval, Florio Beneveni, Xojimyor miroxur, naqshbandiya-mujaddidiya.

Аннотация: Известно, что в средние века произведения на художественные и научные темы в основном писались на арабском языке. Эта традиция продолжалась и в последующие столетия, особенно во времена правления Шайбанидов и Аштарханидов, где арабский язык, наряду с персидским, продолжал служить основой для работ, посвященных отраслевым наукам. Не следует упускать из виду, что большинство произведений, которые широко пользовались и продолжают пользоваться популярностью среди народов региона, умело излагались на арабском, персидском и тюркском языках. Эти произведения охватывают различные направления науки, литературы и искусства. Среди таких классификаций есть фактологические труды, авторами которых являются такие ученые, как муджаддид альф-сани Шейх Ахмад Фаруки ас-Сирхинди, основатель муджаддидской ветви накшбандийского тариката в исламе на территории Индии, шейх Мухаммад Миян Маъсум ибн Ахмад ас-Сирхинди, Мухаммад Хишам ибн Мухаммад Касим, Мухаммад Хашим Каши, Мурад ибн Абдулла аль-Казан и другие.

Ключевые слова: Шейх Ахмад Фаруқ ас-Сирхиндий муджаддид альф-сани, Шейх Мухаммад Миян Маъсум, Шейх хаджи Хабибуллах, Шейх Навруз Шахрисабзи, Суфи Аллая, Шейх Сайид Хаджи Насафи, Мазхар ал-ахвал, Флорио Беневени, Хаджимяр мирахур, тарикат накшбандия-муджаддидия.

Abstract: In the Middle Ages, works on Iranian and scientific topics are known to be mostly finished in Arabic. This tradition continued in the following centuries, especially during the rule of the Shaybanids and Astrakhans, where Arabic, along with Persian, continued to serve as the basis for works devoted to the sciences of the field. It should not be overlooked that most of the works that were widely read among the peoples of the region, especially those who were able to skillfully state their ideas in Arabic, Persian and Turkic languages, while the scientists created their scientific work on the sciences of prose, scientific and the field of pencil. Among such classifications are the factual works composed on the side of scientists such as the mujaddidi alfi sany Shaykh Akhmad Faruqiy as-Sarkhindy, Shaykh Muhammad Miyan Ma'sum ibn Ahmad as-Sarkhindy, Muhammad Hisham ibn Muhammad Qasim, Muhammad Hashim Kashmy, Murad ibn Abdullah al-Kazan, which founded the mujaddidia branch of the Naqshbandia sect-tarikat in the Indian territory.

Key words: *Sheikh Ahmad Farouk as-Sarhindy mujaddid alfi sany, Sheikh Mohammed Miyan Ma'sum, Sheikh Haji Habibullah, Sheikh Navruz Shahrisabziy, Sufi Allahyar, Sheikh Sayyid Haji Nasafiy, Mazkhar al-ahwal, Florio Beneveni, Khajimyar mirakhur, Naqshbandy-mujaddidy branch*

Kirish. Shuni ta'kidlash o'rinliki, Shayx Habibulloh, Shayx Navro'z va So'fi Olloyorning shaxsiyati va hayot yo'li tadqiqi bo'yicha respublikamiz va xorijlik olimlar tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgani diqqatga sazovor. O'zbekistonlik olimlarimizdan B.Valixo'jaev, P.Qayumov, M.Hasaniy, B.Hasanov, S.Sayfullah, I.Haqqul, N.Norqulov, M.Xanjarov, I.Suvonqulov, SH.Sirojiddinov, R.Zohid, A.Jumanazar, xorijlik olimlardan Tojiddin Yolchig'ul o'g'li, Muso Turkistoni, Said Turkistoni, Berdi Sarica, Necdet Tosun, R.Maxanova, G.Ilyasova kabi olimlarning mazkur tarixiy shaxslar biografiyasini tiklash yuzasidan olib borgan tadqiqot va bildirgan xulosalari aks etgan asarlarning o'zbek, turkiy, fors, rus va tatar tillaridagi nashrlari ahamiyatli.

Tadqiqotning usullari. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yurtimiz va xorijda nashr qilingan bir qator tazkiralari, ilmiy tadqiqotlar va risolalarda uchratish mumkin. Mazkur ishda yirik tatar, turk, o'zbek va rus olimlarining, shuningdek, Abu Rayhon al-Beruniy nomidagi FASHida saqlanayotgan qator manbalardan foydalangan holda naqshbandiya-mujaddidiya tarmog'ining ayrim vakillari tavsifi va bibliografiyasini tiklashga bag'ishlangan ma'lumotlar tahlilga tortildi. [Karimova. 1973, s. 219; Jumanazar, 2015, r. 253; Sirojiddinov, 2001, r. 77; Beneveni, Florio. 1718-1725, pp. 65-66]. Tadqiqot materiallarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar. Shayx Muhammad Ma'sum muridlarining soni to'qson mingta, xalfalarining soni etti mingtani tashkil etgan, Shayx Ma'sumning eng yaqin izdoshlaridan biri Hoji Habibulloh Buxoriy keyinchalik naqshbandiya tariqatining mujaddidiya sho'basini Movarounnahr va Xurosonda yoyilishida jonbozlik ko'rsatgan. Hoji Muhammad Habibulloh 1040/1631-yili Hisor viloyatining Halg'atav mavzesida dunyoga kelgan. Shayx Habibulloh ham, Shayx Navro'z ham bir davrda va bir xonlikda yashagan. Sayid Hoji Nasafiy Shayx Habibullohga murid tutingan. So'fi Olloyor Shayx Sayid Hoji Nasafiyning o'ziga ustoz bilgan. So'fi Olloyor diniy va fiqhiy bilimlarni puxta egallashda Xoja Mo'min va Muhammad G'azliy ismli ustozlarning o'rni beqiyos bo'lgan. So'fi Olloyorga birinchi piri ustozlik qilgan shaxs Shayx hoji Habibulloh izdoshi piri komil Navro'z bo'lgan. Shayx Habibulloh Buxoriy hijriy 1111-yili 15 jumod-ussoniy/1699-yil etmish bir yoshida vafot etgan va janozasiga Buxoro xoni Subhonqulixon tashrif buyurgan. So'fi Olloyor oraga tushganidan keyin Buxoro xoni Abulfayzxon 1722-yil boshlarida Farhodbiy otaliq o'g'li Xojamyorni ozod qilgan. Florio Beneveni Farhodbiy otaliq uyida yashagan. So'fi Olloyor 1721- yildan keyin ham umr ko'rgan.

Muhokama. O'rta asrlarda irfoniy va ilmiy mavzular yoritilgan asarlar asosan arab tilida bitilgani ma'lum. Bu an'ana keyingi XVI-XVIII asrlarda ham davom etdi. Ayniqsa, Shayboniylar va Ashtarxoniylar boshqaruvi davrida ham soha ilmlariga bag'ishlangan asarlar uchun fors tili bilan bir qatorda arab tili ham asos vazifasini bajarishda davom etdi. Movarounnahr va Xuroson xalqlari orasida keng mutolaada bo'lgan asarlarning aksariyati arab, fors va turkiy tillarda bitilgan. Onado'li yerlaridan tortib, to Hind yerlariga qadar qamrab olgan ulkan hududdan yetishib chiqqan soha olimlari, adibu shoirlar va diniy ulamolarning arab tilida bitgan qimmatli asarlari bu fikrimizga dalil bo'la oladi.

Bunday tasniflar qatoriga Hind diyorida naqshbandiya tariqatining mujaddidiya tarmog'iga asos solgan ikkinchi mingyillikning mujaddidi – mujaddidi alfi soniy Shayx Ahmad Faruqiy as-Sarhindi qalamiga mansub “Maktubot imom rabboniy”, “Al-mabda va-l-ma'od”, “Risala raddi-l-ravafiz”, “Adab ul-murid”, “Asbat un-nubuvvat”, “Asbat ul-vajib”, “Ta'liqot ul-'avariz”, “Al-ma'orif al-laduniya”, “Al-mukashafat al-g'aybiya” asarlari, o'g'li Shayx Muhammad Miyan Ma'sum ibn Ahmad as-Sarhindi ta'lif etgan uch jildlik “Maktubot” asari, zamondoshlari tarafidan arab tilida bitilgan hamda madrasalar va tariqat dargohlarida sevib mutolaa qilingan asarlar qatorida Ali Safiyning



“Rashahot aynil-hayot” asariga Muhammad Hishom ibn Muhammad Qosim tarafidan qo‘shimcha manba sifatida hijriy 1031- yil/melodiy 1622-yil tuzilgan “Nasamat ul-quds min hadaiqi-l-uns” tazkirasi, Muhammad Hoshim Kashmiy tarafidan tuzilgan va hijriy 1078-yil/melodiy 1667-yil ko‘chirilgan “Zubdat ul-maqomot”, Murod ibn Abdulloh al-Qozoniyni “Zayl rashahot” asarlarini misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin.

XVI asrda O‘rta Osiyoda yuz bergan ayrim geosiyosiy intilishlar zamirida Hind o‘lkasiga ko‘chib o‘tgan naqshbandiylik tariqati tub musulmon aholi va o‘rta osiyolik muhojir olimlar orasida qayta tarvij topib, Hind diyorida tariqatning minglagan zabardast vakillari yetishib chiqdi, jumladan, Shayx Ahmad Faruq as-Sarhindiyy mujaddidi alfi soniy va Al-Urvat ul-vusqo Shayx Muhammad Ma’sum siymolarida yanada rivoj topib, Markaziy Osiyoda yangilangan irfoniy kuch sifatida naqshbandiya-mujaddidiya tarmog‘iga asos solindi.

Abdulhay al-Hasaniy al-Hindiy “*Nuzhat al-xovahir va bahjat ul-masami’ va-n-navazir. Al-I’lam bi-man fi tarix al-Hind min-al-A’lam*” asarida berilishicha, hijriy 971 yil/melodiy 1563-64 yilda Hind diyorining Sarhind mavzesida tug‘ilgan Shayx Ahmad as-Sarhindiyy mujaddidi alfi soniyni o‘g‘li Shayx Muhammad Ma’sum hijriy 1006 yil/melodiy 1599- yil, yana boshqa naqlga ko‘ra, 1009-yil shavvol oyining 11 kuni/melodiy 1601 yil 1 may oyida tug‘ilgani, akasi Muhammad Sodiqdan, shuningdek, otasi Shayx Ahmad Faruq as-Sarhindiyy hamda Shayx Muhammad Tohir al-Lohuriydan ta’lim olgani, Qur’onni uch oy ichida to‘liq yod olgani, hanafiy maktabiga oid ko‘plab fihiy va aqidaviy kitoblarini tez fursatda o‘zlashtirgani va otasining eng yaqin izdoshiga aylanib, uning markaz e’tiborida bo‘lgani, otasi 1034-yil 2 safar/1624-yil 13- noyabr kuni vafotidan bir qancha vaqt o‘tib hajga otlangani, Makka va Madinada bir muddat istiqomat qilgani haqida ma’lumot berilgan¹.

Abdulhay al-Hasaniy al-Hindiy boshqa bir manba, ya’ni Shayx Murod ibn Abdulloh al-Qozoniyni “*Zayl rashahot*”² asarida Shayx Ahmad Faruq as-Sarhindiyy va Al-Urvat ul-vusqo Shayx Muhammad Ma’sumga ajratilgan faqarlarda berilgan ma’lumotlarga tayanib keltirgan dalillarga asosanib aytish mumkinki, Shayx Muhammad Ma’sum otasi singari Allohning yer yuzidagi jonli oyatlaridan biriga aylangani, dini islom ta’limotini targ‘ib qilish yo‘lida jonbozlik qilib, ulug‘ maqomotlarga erishgani hamda unga bay’at bergan muridlarning soni to‘qson mingtaga etgani, xalfalarining soni etti mingtani tashkil etgani, ular orasida keyinchalik Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya tariqatining mujaddidiya sho‘basini keng hududlarga yoyilishida jonbozlik ko‘rsatgan Hoji Habibulloh Buxoriy piri ustozlari Shayx Ma’sumning eng yaqin izdoshlaridan biri bo‘lgan³. Demak, naqshbandiya-mujaddidiya tarmog‘ining Xuroson va Movarounnahr diyorlarida keng yoyilishida Shayx Habibulloh Buxoriyning xizmati beqiyosligida shubhaga o‘rin qolmaydi. Bu fikrni xorijda nashr qilingan tegishli risolalar ham quvvatlaydi⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti nodir qo‘lyozmalar fondida №5481 raqam ostida saqlanayotgan “Burhon uz-zakirin” qo‘lyozmasida Shayx Habibulloh silsilasi Naqshband balogardonga borib tutashishi qayd

¹ Faxruddin, Abdulhay. (1920). *Nuzhat al-xovahir va bahjat ul-masami’ va-n-navazir. Al-I’lam bi-man fi tarix al-Hind min-al-A’lam*. 5.j, 650. Retrieved from <https://shamela.ws/book/1584/584> <https://tarajm.com/people/91396>

² Abdulloh, Murad. (1720-1730). *Zayl rashahot. Qo‘lyozma, Turkiya, Suleymaniya kutubxonasi №1411, 12a-24a-varaq*. Retrieved from https://ketabpedia.com/%D8%AA%D8%AD%D9%85%D9%8A%D9%84/%D8%B0%D9%8A%D9%84-%D8%B1%D8%B4%D8%AD%D8%A7%D8%AA_-1411/

³ Faxruddin, Abdulhay. (1920). *Nuzhat al-xovahir va bahjat ul-masami’ va-n-navazir. Al-I’lam bi-man fi tarix al-Hind min-al-A’lam*. 5.j, 650.; Abdulloh, Murad. (1720-1730). *Zayl rashahot. Qo‘lyozma, Turkiya, Suleymaniya kutubxonasi №1411, 43 varaq*.

⁴ Afandi, Muso. (Muhammad Muso Turkistoniy). (1953). “صوفي الله بار منظومه ثبات العاجزين” (So‘fi Alloyor manzumai Sabot ul-ojizin). Eron: Hoji Tilloiy nashriyoti, “Neru chop” shirkati, 9.



etilgan. Unda berilishicha, hazrati Bahouddin Naqshbanddan kelayotgan silsila Shayx Yoqub Charxiy, xoja Ahror Valiy, mavlono Zohid, mavlono Darvesh, xoja Imkanagi, hazrat Boqibilloh, Shayx Ahmad Faruq as-Sarhindiy mujaddidi alfi soniy, xoja Muhammad Miyon Muhammad Ma'sum orqali Shayx Habibullohga ulanadi va ketidan qutbu-l-aqtob xoja eshon Shayx Qurbon Boqiy, qutbu-l-aqtob hazrat xoja Muhammad Amin, qutbu-l-aqtob hazrat xoja Muhammad Nizomiddin mulaqqab Eshon Bog'dorgacha davom etadi¹.

Shayx Habibulloh Buxoriy murshidi Shayx Muhammad Ma'sumdan 1079/1668-yil vafotidan bir muncha oldinroq irshod va xalfalik ijoratini olib yurtiga qaytgani va Buxoro xoni Abdulazizxonning farmoni bilan tashkil etilgan majlisda qatnashib, ulamolar bilan bo'lib o'tgan savol-javobda xonning ishonchini oqlagani so'nggida unga Volidaixon madrasasi, xonaqoh in'om qilingani, qo'shimcha ikkita qishloq suyurg'ol qilib berilgani ma'lum².

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti nodir qo'lyozmalar fondida №4400 raqam ostida saqlanayotgan "Tuhfat ul-Abror" qo'lyozmasida Hoji Muhammad Habibulloh hijriy 1040 (mil.1630/1631)-yili Hisor viloyatining Halg'atav mavzesidagi qutbul-aqtob mavlono Yoqub Charxiyning avlodlari xonadonida dunyo kelgani qayd etilgan³. Ushbu manba bo'yicha izlanish olib borgan manbashunos A.Jumanazar qayd etishicha, uning otasi Hoji Muhammad Tayyibulloh zamonasining yetuk insonlaridan bo'lib, asarda Yoqub Charxiy naslidan ekani ko'rsatib o'tilgan⁴:

Mavlidi u ki Halg'atavash,

Nur sote' z-har dar-u bomash.

Mazmuni: (Tarjima – J.Abdupattaxov)

Halg'atav erur uning mavlid eri,

Har eshigu tomidan taralar nuri.

Manbashunos olim A.Jumanazar misradagi o'rin-paytni anglatuvchi *mavlid* so'zini majhul daraja sifatidoshni anglatuvchi *mavlud*, ya'ni "tug'ilgan narsa, chaqaloq" shaklida talqin etadi⁵.

Shayx Habibulloh Buxoriy hijriy 1111-yili 15 jumodus-soniy/1699-yil yetmish bir yoshida vafot etgani va Shayxning janozasiga Buxoro xoni Subhonqulixon tashrif buyurgani Sayyid Muhammad ibn Oxund Qozi Kamol "Tuhfat ul-ahbob" va Muhammad Tohir Xorazmiyning "Tazkirai naqshbandiya" asarlarida o'z aksini topgan⁶.

Xorij nashrlarida Shayx Muhammad Ma'sumning vafoti Sarhind shahrida hijriy 1079-yil 9 Rabi'ul-avval oyi/melodiy 1668-yil (4 sentyabr kuni)ga to'g'ri kelgani qayd etilgan⁷.

¹ Abdulvahob, Davlatshox. (1210/1796). Burhon uz-Zakirin. Qo'lyozma. h.1210 y. ko'chirilgan. O'ZR FA SHI №5481, 20v-b-varaq.

² Oxund Qozi Kamol, Sayid Muhammad. (18 asr). Tuhfat ul-ahbob. Qo'lyozma. O'zRFASHI №4400, 61a-varaq.; Jumanazar, A. (2015). Vaxshuvor. Toshkent: Akademnashr, 130.

³ Oxund Qozi Kamol, Sayid Muhammad. (18 asr). Tuhfat ul-ahbob. Qo'lyozma. O'zR FASHI №4400, 16b-17a-varaq.

⁴ Jumanazar, A. (2015). Vaxshuvor. Toshkent: Akademnashr, 128.

⁵ Jumanazar, A. (2015). Vaxshuvor. Toshkent: Akademnashr, 128.

⁶ Oxund Qozi Kamol, Sayid Muhammad. (18 asr). Tuhfat ul-ahbob. Qo'lyozma. O'zRFASHI №4400, 113a-varaq.; Hasan, Muhammad Tohir. (1729). "Tazkirai naqshbandiya". Qo'lyozma. 349b-350a-varaq. A.Jumanazar bu sanani 1699 yil, 7 dekabr dushanba kuniga to'g'ri kelishini qayd etgan. Zamonaviy yillarni o'girish tizimlari turli yondashuv – oyni ko'rib kuzatishga yoki astronomik hisob-kitobga asoslangani bois, turli sanalarni, ya'ni 1699 yil, 7,12 va 15 dekabr kunlarini ko'rsatmoqda.

⁷ Ализаде, А.А. (2007). Сирхинди Ахмад аль-Фаруки. Исламский энциклопедический словарь. Москва: Ансар. ISBN 978-5-98443-025-8.; Qureshy, J.H. (1962). The Muslim community of the Indo-Pakistan subcontinent (610-1947)», Hague.; Антонова, К.А. (1952). Очерки общественных отношений и политического строя Могольской Индии времён Акбара (1556-1605)». Москва.



Muso Afandi qalamiga mansub “So’fi Olloyor manzumi Sabot ul-ojizin” asarida berilgan naqshbandiya silsilasida Al-Urvat ul-vusqo Shayx Muhammad Ma’sumning mavlid ta’rixi 1007 yil/1598-99-yil, vafoti 1099 yil/1687-88-yil etib ko’rsatilgan. Ikkita ta’rixning farqi yigirma yilni ko’rsatmoqda. Unda Shayx Ahmad as-Sarhindiyning vafot tarixi hijriy 1034 yil 17 safar oyi/melodiy 1624-yil 29-noyabr (seshanba kuni) ko’rsatilgan¹. Nazarimizda, So’fi Olloyorning silsila shajarasini tuzishda Muso Afandi xatolikka yo’l qo’ygan, u hatto Shayx Habibullohnining tug’ilish va vafot sanalari yozishni unutgan ko’rinadi.

XVII asrning ikkinchi yarmida O’rta Osiyo va Xuroson diyorlarida naqshbandiya tariqatiga qayta kuch baxshida qilgan Shayxning izdoshlari haqida tarixiy manbalardan nimalar ma’lum? Shuni aytish mumkinki, Shayx hoji Muhammad Buxoriy faol yashab o’tgan davr voqealariga guvoh bo’lgan zamondosh tarixnavislarning asarlarida Shayx Habibullohnining muridlari qatorida ikkita shaxs tilga olinadi. Ular – Xoja Nihol va Xoja Davlat. Saroy tarixnavissi Abdurahmon To’le’ (Davlat)² “Tarixi Abulfayzxon”da Xoja Nihol Shayx Habibullohnining muridi ekani haqida so’z boradi³. Boshqa saroy tarixnavisi zamonasining ma’rifatparvar kishilaridan sanalgan Mir Muhammad Amin Buxoriy⁴ o’zining “Ubaydullanoma” asarida valoyatpanoh, orifi haq, hojai murshid Shayx Habibullohnining ikki muridi Xoja Davlat va Xoja Nihol Shayxning tariqat vazifalarini ado etishda eng yaqin muridlari ekani bayon etilib, yetuklik alomatlari ko’ringach muridi Xoja Davlatga irshod ijoratini bergani haqida batafsil so’z boradi.

Ushbu tarixiy manba guvohlik berishicha, Shayxning sodiq ikki muridi Buxoro xoni davlatpanoh Ubaydullaxon haramiga ishonch bildirilgan omonatdor va oliyjanob davlat kisxilari sifatida irshod maqomida qoim bo’lganlari barobarida 1123/1711-yil Ubaydullaxon shahidlarcha o’ldirilganiga uch oy o’tib, davlat xazinasiga ko’z olaytirgan ayrim amirlar bilan sulh tuzish uchun yuborilgan Xoja Davlat va Xoja Nihol elchilik vazifasini ado etib bo’lishgach, hajga yuborilish vaji bilan rabius saniy oyida Ibrohim devonbegi tarafidan xoinlarcha qatl etiladi⁵.

Davr tarixiga bag’ishlangan ayrim qo’lyozmalar va ular ustida olib borilgan tadqiqotlarni o’rganish natijasida Xoji Muhammad Buxoriyning yangi muridlari nomini aniqlashga muvaffaq bo’ldik. Jumladan, tarixnavis Muhammad Amin ibn Mullo Nur Muhammadning “Mazhar ul-ahvol” qo’lyozma asarini Buxoro oid davriga tarixiy manba sifatida o’rgangan olim M.Karimova o’zining ilmiy

¹ Afandi, Muso. (Muhammad Muso Turkistoniy). (1953). “صوفي الله بار منظومه ثبات العاجزين” (So’fi Alloyor manzumi Sabot ul-ojizin). Eron: Hoji Tilloiy nashriyoti, “Neru chop” shirkati, 8-9.

² Абдуррахман-и Тали (узб. Abdurrahmon-i Toli) (1680 — 1740) — астролог, поэт и историк эпохи Бухарского ханства. Бухарский астролог Абдуррахман Даулат, по литературному псевдониму Толе (Тали, т. е. «Восходящее светило», «Счастливая звезда», «Счастье») был близок к Абдулле кушбеги, сановнику Абулфейз-хана. Он родился в 1680 году в Бухаре. Начальное образование он получил в Бухаре. Абдуррахман-и Тали служил при дворе узбекских правителей династии Аштарханидов: Ubaydulla-xane II и Абулфейз-хана. Retrieved from <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

³ Семёнов, А. (1959). История Абулфайзхана. Ташкент: Издательство АН УзССР, С.36.; Abdurahmon To’le’ (Davlat). Tarixi Abulfayzxon. Qo’lyozma, 32a-varaq.

⁴ Мухаммед Амин-и Бухари (узб. Muhammad Amin-i Bukhori) (1655 — 1712) — историк эпохи Бухарского ханства. Бухарский историк Мир Мухаммед Амин-и Бухари родился в 1655 году в Бухаре. Начальное образование он получил в Бухаре. Мир Мухаммед Амин-и Бухари служил при дворе узбекских правителей династии Джанидов: Субханкули-хана, Ubaydulla-xane. Его главное сочинение «Убайдулла-наме» является продолжением труда бухарского историка Мухаммед Юсуфа «Мукимханская история». В сочинении приводятся данные о политической истории Бухарского ханства конца XVII- начала XVIII в. Сочинение Амин-и Бухари рисует уже начавшийся развал некогда единого узбекского государства. Retrieved from <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

⁵ Семёнов, А. (1958). Убайдулла-наме. Ташкент: Издательство АН УзССР, 283; Mir Muxammad, A. (1712). Ubaydullanoma. Qo’lyozma, 253b-254a-varaq.

tadqiqotida “Otnositelno raspolojeniya ishana” bo‘limidagi juz‘iy, ammo muhim biografik ma‘lumot tarjimasini quyidagicha talqin qiladi: “V nachale on byl murshidom Xadji Xabiballaxa v tarikate Xodjagon, da osvyatit Allax ix mogily. Posle smerti ishana Xadji s razresheniya svoego otca Padishax-xadjy proyavil staranie v /postijenii/ zikr-i jaxr”¹. Qo‘lyozma faksimilesini o‘rganish asnosida ruscha tarjima matni asl matn bilan solishtirildi. Asl matn:

ونسبت إرادة ایشان أولا مرتبه بمرشد بلا اشباه ایشان حاجی حبیب الله در طریقه خواجگان بود

“А его стремление (ирода) изначально было связано с наставником, не имеющим себе равных — Хаджи Хабибуллаха, который был в тарикате Ходжаган”. (МА. 108a-114a.)

Asl matndan tushunilgan tarjimaning ma‘nosiga ko‘ra, mazkur eshonning nisbati irodati xojagon tariqatidagi piri murshid Hoji Habibullohga bo‘lgan, aksi emas. Pirining vafotidan keyin otasi Poshsho Xojaning ruxsati bilan zikri jahriy bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bu o‘rinda so‘z asar muallifiga ilm-fan yo‘nalishida homiylik qilgan xojasi o‘z davrining ma‘rifatparvar olimi va shoiri Sayid Hoji Nasafiy haqida bormoqda. Asarda muallif o‘zi guvohi bo‘lgan, ustoz muloqotda bo‘lgan shoir mulla Sayido Nasafiy (vaf. 1707-1711 yillar) kabi zamondoshlari, Ma‘sumbiy hoji Saroyi kabi davlat boshqaruvida uning adolatparvar yo‘lini tutgan shogird va muridlari nigohida davrning yetuk murshidi, yuksak ma‘rifatparvar olimi, ilm homiysi deya ta‘riflangan, a‘lam lavozimida Nasaf shaharida qozi bo‘lib ishlagani, bir vaqtning o‘zida uzoq yillar ikkita madrasada ta‘lim ishlariga bosh bo‘lgan olim sifatida noyob fazilatlarini, bir so‘z bilan aytganda, makorimul axloqni o‘zida mujassam etgan oliyjanob inson qiyofasida tasvirlangan². Olim arab xatining tarassul, tavvam kabi noyob, jami 24 ta turini mukammal egallagan mohir xattot va qog‘oz yasovchi usta kabi qator san‘at va hunarlar sohibi, yetuk orif timsolida gavdalanadi³. Asarning ikkita o‘rnida So‘fi Olloyor haqida so‘z boradi. Birinchisi – Abulfayzxon xonhazratlari qabuliga So‘fi Olloyorning kelishi bo‘lsa, keyingisi – eshon Sayid Hoji Nasafiyning So‘fi Olloyor bilan muloqoti. So‘fi Olloyor shahar hokimi ishtirokida etgan ushbu uchrashuvda eshon Sayid hoji Nasafiyni o‘ziga ustod sanashi, onhazratdan bir qancha aqoid arkonlarini o‘rganganini aytib, ustoziga hurmatini izhor etadi⁴.

Ko‘p asrlik an‘ana davomchisi o‘laroq forsiy va turkiy tillarda bitilgan “Maslak ul-muttaqin” va “Sabot ul-ojizin” nazmiy asarlari hamda arab va fors tillarida bitilgan “Maxzan ul-mute’in”⁵ va “Murod ul-orifin” asarlari bilan O‘rta Osiyoning adabiy-badiiy muhitiga kirib kelgan So‘fi Olloyor mintaqa xalqlari ma‘naviy hayotida o‘chmas iz qoldirgan.

So‘fi Olloyor hayoti, tariqatga oid faoliyati, qancha umr ko‘rgani, tug‘ilgan va vafot etgan joyi va

¹ Каримова, М. (1979). “Мазхар ал-ахвал” Мухаммад Амина как источник по истории Бухары первой половины XVIII века. Диссертация на соискание учёной степени канд. истор. наук. Ташкент: ЎзР FA FK №Д-4796, 132.

² Каримова, М. (1979). “Мазхар ал-ахвал” Мухаммад Амина как источник по истории Бухары первой половины XVIII века. Диссертация на соискание учёной степени канд. истор. наук. Ташкент: ЎзР FA FK №Д-4796, 42-43, 123.

³ Каримова, М. (1979). “Мазхар ал-ахвал” Мухаммад Амина как источник по истории Бухары первой половины XVIII века. Диссертация на соискание учёной степени канд. истор. наук. Ташкент: ЎзР FA FK №Д-4796, 43.

⁴ Каримова, М. (1979). “Мазхар ал-ахвал” Мухаммад Амина как источник по истории Бухары первой половины XVIII века. Диссертация на соискание учёной степени канд. истор. наук. Ташкент: ЎзР FA FK №Д-4796, 129.

⁵ Abdufattoxov J. So‘fi Olloyorning «Maxzan ul-mute’in» asari haqida yangi maълumotlar. So‘fi Allohoyor // Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Tehron – Toshkent. “Al-Huda xalqaro nashriyoti – Movarounnahr nashriyoti”, 2005. – B. 119-122.; Abdupattaxov J. So‘fi Olloyorning «Maxzan ul-mute’in» asari – fiqh bo‘yicha nodir manba. // Imom Al-Buxoriy saboqlari. Maъnaviy-maъrifiy, ilmiy-badiiy jurnal. – T., 2-3/2005. – B. 102-105.; Abdupattaxov J. So‘fi Olloyor – hanafiy faqih («Maxzan ul-mute’in» asari misolida). Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2005. – B. 80;



yillari borasidagi qarashlar qator tadqiqot, risola va maqolalardan o'rin olgan. Ayniqsa, professor Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktorlari I.Suvonqulov va R.Zohidov, shuningdek, manbashunos olim A.Jumanazar bu masalada ilmiy xulosalarga kelgani e'tiborga molik¹.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, So'fi Olloyorning "Maslak ul-muttaqin", "Sabot ul-ojizin", "Murod ul-ojizin" asarlari tadqiqi va nashri bo'yicha respublikamiz va xorijlik olimlar tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgani diqqatga sazovor².

Yozilish geneologiyasiga ko'ra, birinchi bo'lib bitilgan "Maslak ul-muttaqin" manzumasi fors tilida yaratilgan. Ushbu asarda Olloyorning piri ustozlari Xalifa Navro'z Shahrisabziy (Keshiy) va Hoji Muhammad Habibulloh Buxoriy vasflari keltirilgan.

Tadqiqotda qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda Olloyorning diniy bilimlarni puxta egallashida hamda tasavvuf yo'liga kirishiga kimlar sababchi bo'lgani, uning piri murshidi kim bo'lganiga oydinlik kiritish, bu masalada olib borilgan so'nggi tadqiqotlar xulosalari yangi manbaviy ma'lumotlar bilan qiyosan o'rganildi.

Ilm ahliga ma'lumki, odatda, shogird umri davomida bir nechta ustozlardan saboq oladi, murid esa pirlar dargohida irfoniy ilm bosqichlarini bosib o'tgan. So'fiy Ollohyor "Maslak ul-muttaqin" asarida e'tirof etishicha, fikh ilmida ikki kishi unga ustozlik qilgan: biri Xoja Mo'min, yana biri Muhammad G'azliy.

Shoir ularning tavsifini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagan:

Agarchi in banda ast xom-u om,

Lek ustodemo ast marde tamom.

¹ Suvonqulov, I. (1997). So'fi Ollohyor va uning adabiy an'analari. Fil.fan.dok. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.; Sirojiddinov, SH. (2001). So'fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. Jamiyat va burch. Risola. Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi nashriyoti.; Zohidov, R. (2018). "Sabotul ojizin" asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent, 2018.; Jumanazar, A. (2015). Vaxshuvor. Toshkent: "Akademnashr", 2015.

² Ayniy, S. (1925). Namunai adabiyoti tojik. Samarqand.; Qayumov, P. (1968). Tazkirai qayumiy. 3 jildlik. Toshkent.; Hasaniy, M.T. (1991). So'fi Olloyor. Sabot al-ojizin. Toshkent: Mehnat.; Zohid, R.F. (1991). So'fi Olloyor. Sabot al-ojizin. Toshkent: CHo'lpon.; Suvonqulov, I. (1991). So'fi Ollohyor. Toshkent: Fan.; Abid, N. M. (1993). *Sûfi Allahyâr and his Sebâtü'l-âcizîn*. (Unpublished Master Thesis). Istanbul: Istanbul University, 239-253.; Turkistoniy, S. (1994). So'fi Olloyor. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. To'plam. Toshkent.; Berdi, S. (1996). Allahyar Sufi'nin Fevzû'n-Necat'i. Inceleme metin sözlük. Istanbul.; Hasaniy, B. (2000). Risolai Aziza – Sabotul-ojizin sharhi. Tojiddin Yo'lichiqu o'g'li. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq meъrosi nashriyoti.; Suvonqulov, I. (2000). Ma'naviyat ildizlari. Samarqand.; Suvonqulov, I. (2000). Ulug' olim va mutasavvif shoir. Maqolalar to'plami. Samarqand, 61-62.; Gulomov i dr. (2000). Kratkiy Katalog Sufiyskix Proizvedeniy XVIII-XX vv iz Sobraniya Instituta Vostokovedeniya Akademii Nauk Respubliki Uzbekistan im. Al-Biruni: [Spisok sufiyskix rukopisey (XVIII-XX vv.) v fondax Instituta vostokovedeniya Akademii nauk Respubliki Uzbekistan (Biruni)]. Berlin, 169-171.; Sirojiddinov, SH. (2001). So'fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. Jamiyat va burch. Risola. Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi nashriyoti.; Kenjabek, M. (2001). Termiz tazkirasi. Toshkent, 158-182.; Abdufattoxov, J. (2005). So'fi Olloyorning «Maxzan ul-muteъin» asari haqida yangi ma'lumotlar. So'fi Ollohyor. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Tehron – Toshkent: Al-Huda xalqaro nashriyoti – Movarounnahr nashriyoti, 119-122.; Маханова, Р. (2008). Творчество Суфи Аллаюра и его традиции в татарской литературе. Диссертация на соискание учёной степени кандидата филологических наук. Казань, 190 с.; Илясова, Г. (2009). Лигвотекстологические особенности произведений "Сабат ал-гаджизин" Аллаюра Суфи и "Рисала-и Газиза" Т. Ялсыгулова. Диссертация на соискание учёной степени кандидата филологических наук. Уфа, 210 с.; Necdet, T. (2011). *Sûfi Allahyâr (صوفى الله يار)* (ö. 1133/1721) önemli bir Orta Asyalı Nakşibendî-Müceddidî şeyhi, mutasavvîf ve şairdir Türkistan Dervişlerinden Yâdigâr: Orta Asya Türkçesiyle Yazılmış Tasavvufî Eserler, İstanbul 67-71.; Jumanazar, A. (2015). Vaxshuvor. Toshkent: Akademnashr, 253.; Zohidov, R. (2018). "Sabotul ojizin" asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 240.



*Bahre ilm-u garona-e vaqt ast,
Dar fuqahoy yagona-e vaqt ast.
Onki nomash Muhammad G'azliy ast,
Shafqate-o' bomo xafiy-yu jaliy ast.
Xoja Mo'min ki, a'lame xos ast,
Dar bahore ulum g'avvos ast.
Yo ilohiy, tu lutf ko'n holiy,
G'azliyro misole G'azzoliy.
Mazmuni: (Tarjima – J.Abdupattaxov)
Bu banda harchand ersa xomu avom,
Lek, ustozimiz erur mardi tamom.
ilm ummonidur, vaqt qadri ardog'ida,
Zamona yagonasidur faqihlar orasida.
Onki, oti erur Muhammad G'azliy,
Shafqati erur boshima xufya-vu jaliy¹.
Xoja Mo'minki, a'lami xosdur,
Ilg'or ilmlarning g'avvosidur.
Yo Iloho, lutf ayla shu kunlarda
G'azliyg, lutfing kabi G'azzoliyg.
(MM. 20b,15-17. 20a,1-2.)*

Sayfiddin Sayfulloh va Akram Dehqon nashrga tayyorlagan “Maslak ul-muttaqin”ning “asar haqida” nomli bo‘limida mazkur parchaning so‘nggi misrasi “Har duro, chun Junaydu G’azzoliy”, ya’ni “har ikkisiga, lutfing kabi Junaydu G’azzoliyg” shaklida berilgan². Hozircha, tarixiy shaxs sifatida gavdalangan bu ikki olim haqida bundan ortig‘ini bilolmagan bo‘lsak-da, mazkur baytlarga tayanib Xoja Mo‘min bilan Muhammad G’azliy shaxsiyatlarini Olloyorning Buxoro oliy madrasalarida tahsil olgan talabalik yillarida fiqhiy va aqidaviy dunyoqarashi shakllanishi, amaliy masalalarni puxta o‘zlashtirishida asosiy o‘rin tutganini xulosa qilish mumkin bo‘ladi.

Olloyor ibn Olloqulining so‘fi bo‘lib shakllanishida, uning *hidoyatpanoh, murshidi haq va avliyolar homiysi, eshon* martabasiga erishishida qaysi ustozlarning o‘rni beqiyos darajada muhim o‘rin tutgan? Bu haqda So‘fi Olloyordan yodgor qolgan asarlaridan keyingi avlodlarga nimalar ma’lum?

So‘fi Olloyorga birinchi piri ustozlik qilgan shaxs haqida “Maslak ul-muttaqin” asarida so‘z borib, uni hazrat Habibulloh payravdoshi piri komil Navro‘z deb ataydi. Professor Sh.Sirojiddinov va I.Suvonqulov ushbu she’riy parchani o‘z risola va tadqiqot ishida keltirib o‘tishgan³:

*Xidmati shohi asr mekardam,
Noni zaqqumu zahr mexo‘rdam...
Nogahon az inoyati Boriy,
Dod sultoni baxti man yoriy.
Toki gashtam muhibbi eshon,*

¹ Jaliy – tajalliy etmoq, jilvalanmoq.

² Sayfulloh, S., Dehqon, A. (2016). So‘fi Olloyor. Maslak ul-muttaqin. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 14.

³ Sirojiddinov, SH. (2001). So‘fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. Jamiyat va burch. Risola. Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg’armasi nashriyoti, 8. Suvonqulov, I. (1997). So‘fi Ollohyor va uning adabiy anʼanalari. Fil.fan.dok. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 55-56.



Yoftam suhbatini xushi eshon.
YA'ni, on murshidi biloashboh,
Payravi hazrati Habibulloh.
Nomi poki muborakash Navro'z,
Poy to sar tamom dardu so'z.
Vasfi eshon gar sozam,
Nest mumkin bayoni on sozam.
Jazbi on muttahi furu bigift,
Rag ba raft, mo' ba mo' bigift.
Betavaqquf ba poyash uftodam,
Dasti bay'at ba dastashon dodam¹.
Mazmuni: (Tarjima – J.Abdupattaxov)
Asr shohi xizmatida erdim,
Zahar-zaqqum erdi yegan nonim...
Nogahon Olloh inoyati bo'lib yor,
Ul sulton baxti bo'ldi menga yor.
Bo'lib men ham muhibbi ul eshon,
Erishdim suhbatini xush ul eshon.
Ul murshid erur biloashboh,
Erur payravi hazrati Habibulloh.
Nomi muborak erur Navro'z,
Tamomila poyi sar dardu so'z.
Vasfiga ojizdir tilim sozi,
Beimkon, ojizdir bayonim sozi.
Jazbasi – jo'qin, erur taqvoga xos,
Vujudim titradi ul zavqqa mos.
Darhol cho'kib poyiga tiz,
Dastim ba'atiga cho'zdim tez.

I.Suvonqulov ham mazkur parchani misol keltirib, boshi “*xidmati shohi asr mekardam*” misra davomini “*non zi qavmi zi har mexo'rdam*”, ya'ni “*har xil qavmlarning nonini yeganman*” shaklida talqin etgan.

Mazkur baytda nomlari kelgan Habibulloh va Navro'z ismli Shayxlar Olloyorga zamondosh bo'lgani tazkiralardan ma'lum bo'lib, Shayx Habibulloh ham, Shayx Navro'z ham bir davrda va bir xonlikda yashaganlari manbalarda qayd qilingani aytib o'tildi².

Turkiyalik tadqiqotchilarning ishlarida ham Nosiruddin ibn Amir Muzaffar Buxoriyning “Tuhfat uz-zairin”³ tazkirasida keltirilgan ma'lumot, ya'ni Shayxlik maqomiga erishgach, So'fi Olloyorning navbati bilan xalifalari G'oyibnazar, ketidan So'fi Islom Keruhiiy irshod maqomida bo'lishgani qayd

¹ Olloquli, Olloyor. (1111/1700). Maslak ul-muttaqin. Qo'lyozma. 18-asr, 18a-varaq.

² Mir Nosiriddin, Maqsud. (19 asr). Ravoyih al-quds. Qo'lyozma. Kattaev K. shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. 108b-varaq.; Buxoriy, Nosiriddin. (1910). Tuhfat uz-zairin. Qo'lyozma. Buxoro, 63b-varaq.; Oxund Qozi Kamol, Sayid Muhammad. (18 asr). Tuhfat ul-ahbob. Qo'lyozma. O'zRFASHI №4400, 16b-17b-varaq. Majzub Namangoni, Abdulaziz. Tazkirai Majzubi Namangoni (Tazkirat ul-avliya). Qo'lyozma. O'zRFASHI №2662, 49b-50b-varaq; Sirojiddinov, SH. (2001). So'fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. Jamiyat va burch. Risola. Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi nashriyoti, 9.

³ Amir Muzaffar, Nosiruddin. (1324/1906). Tuhfatuz-zairin. Buxoro. Qo'lyozma, 63b, 93b-varaq.

etilgan¹.

Xorijlik va yurtimiz tadqiqotchilari So'fi Olloyorning vafot tarixida 1721-yil sanani ko'rsatib o'tishgan, biroq, So'fi Olloyorning mutasavvif shoir va murshid timsolidagi jo'shqin faoliyati 1721-yildan keyin ham davom etgani tarixnavis Abdurahmon Tole'ning Farhodbiy Otaliqqa 1134/1721-22-yil shanba kuni uyushtirilgan suiqasd bilan bog'liq voqealar bayonidan², shuningdek, Pyotr 1 ning topshirig'iga ko'ra, 1718-1725-yillar oralig'ida elchi vazifasida Buxoro xonligiga tashrif buyurgan Florio Benevini Farhodbiy otaliq 1722-yil (3 yanvar) shanba kuni o'ldirilgani borasidagi qaydlaridan³ ma'lum.

Bir-biridan mustaqil manbalardan to'plangan dalillarga tayanib, Farhodbiyning o'limi 1722-yil yanvar oyining boshida ro'y bergani, uning ikkita o'g'li bo'lgani, miroxur lavozimida ishlagan kenja o'g'lining ismi Xojimyor bo'lgani haqida xulosa qilish mumkin bo'ladi⁴.

Bu xulosa ushbu davr voqealari izchil yoritilgan tarixnavis Muhammad Amin ibn Mullo Nur Muhammad qalamiga mansub "Mazhar ul-ahval" asarida mazkur voqea bilan bog'liq hodisa bayonida nomlari qayd etilgan tarixiy shaxslar siymosida yanada mustahkamlanadi⁵. "Farhodbiy otaliqning qatlidan keyin o'g'li Xojamyor miroxur bilan birga o'g'li hibsda ushlab turilganidan xabar topgan *hidoyatpanoh, murshidi haq va avliyolar homiysi* So'fi Olloyorning umr mazmunini tashkil etgan, nazm va nasr ko'rinishida turkiy va forsiy zabon musulmon xalqlarga targ'ib qilgan islom dinining bosh mehvarini tashkil etuvchi "ad-din ul-xolis", ya'ni barcha ishda Allohga suyanish-tavakkal qilish, uning madadiga orqa qilish, qazosi va hukmiga rozi bo'lish, hikmati va qudratiga inobat qilish tamoiliga ko'ra ish tutdi.

So'fi Olloyor xonlikni boshqargan amaldorlarning faoliyatida tobora urchib borayotgan adolatsizlik va tengsizlikning guvohi bo'lgan holda adovat, nafrat va tarafkashlikni qo'zg'ash yo'lidan bormay, muruvvat, islohot va bag'rikenglikni birinchi o'ringa qo'ydi. Juma kuni bo'lib o'tgan uchrashuvda Xon hazratlaridan: "Biz birodaringizga mehribon edik, biroq, amaldorlarning fitnasi o'laroq kutilmaganda bu hodisa yuz berdi", mazmunidagi gapni eshitgach, So'fi Olloyor bosiqlik bilan: "Biz sizdan xushnudmiz, o'tkinchi bu hayotda ham oxirat hayotida ham bizlarni ulug'likka yetkazdingiz. Bu dunyoda otaliq martabasiga ko'tardingiz. Dunyoda otaliqdan ko'ra ulug' martaba yo'q. Shahidlik martabasini nasib etdingiz, oxiratda shahidlik o'limidan ko'ra yaxshiroq o'lim yo'q. Oxirat va bu dunyoda ulug' maqomlarga ko'tardingiz", deb javob berganiga guvoh bo'lamiz. Muammoni chigallashtirish emas, aksincha, yechimini topish payida bo'lgan donishmand insongina shunday yo'l tutadi. Hazrati Eshon So'fi Olloyorning bu so'zlari Xon hazratga xush kelganidan

¹ Necdet, T. Sûfi Allahyâr صوفى الله يار (ö. 1133/1721) Orta Asyalı Nakşibendî-Müceddidî şeyhi.

Retrieved from <https://islamansiklopedisi.org.tr/sufi-allahyar>

² Семёнов, А. (1959). История Абулфайзхана. Ташкент: Издательство АН УзССР, С. 67.; Tole', A. (1747). Tarixi Abulfayzxon. Qo'lyozma, 121b-varaq.

³ Беневени, Ф. (1986). Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718— 1725 годах. Перев. Софонов, П. Москва: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», С. 65-66, 159.

⁴ Семёнов, А. (1958). Убайдуллонаме. Ташкент, С. 87.; Mir Muhammad, A. (1712). Ubaydullanoma. Qo'lyozma, 66a-varaq.

⁵ Nur Muhammad, Muhammad Amin. (1744). Mazhar ul-ahvol. Qo'lyozma. O'zR FASHI №1936, 42b-varaq.; Каримова, М. (1979). "Мазхар ал-ахвал" Мухаммад Амина как источник по истории Бухары первой половины XVIII века. Диссертация на соискание учёной степени канд. истор. наук. Ташкент: ЎзР ФА ФК №Д-4796, 18, 54.; Каримова, М. (1979). Факсимиле сочинения Мухаммад Амина "Мазхар ал-ахвал". Ташкент: ЎзР ФА ФК №Д-4797, 4b, 42b-varaq.



“eshonga ot bilan sarpo in’om etgani va ikkala mahbusni ozod etib, eshonga topshirgani”¹ mazkur manbadan ma’lum bo’ladi.

Xulosa. “Mazhar ul-ahval” qo’lyozma asarini qayta tadqiq etish jarayonida ikkita faktga aniqlik kiritishga muvaffaq bo’ldik. Birinchisi – bu paytga kelib *hidoyat panoh*, *murshidi haq*, *avliyolar homiysi*, *matlai anvor*, *maxzani asror* va *eshon* deya tanilgan So’fi Olloyor eshon Sayid hoji Nasafiyni o’ziga ustoz bilgani, ikkinchisi – eshon Sayid hoji Nasafiyning Hoji Habibulloh Buxoriyga vafotiga qadar murid tutingani².

Xoja Nihol, Xoja Davlat, Hoji Sayid Nasafiy singari naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining O’rta Osiyoda faol targ’ibotchilaridan sanalgan Shayx Hoji Habibullohning ma’rifatli izdosh-muridlari o’laroq Buxoro davlati oldida turgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy masalalarning ijobiy hal qilinishida faol qatnashgani o’z tasdig’ini topadi. “Mazhar ul-ahval” asari muallifi guvohlik berishicha, Shayx Hoji Habibulloh pining vafotidan Hoji Sayid Nasafiy jahriy zikr bilan mashg’ul bo’lgan va bunga otasi Xoja Poshsho xayrixohlik qilgan. Shunga o’xshash, tarixiy manbalarda qayd etilgan hayotiy voqealar hamda davr fozil kishilariga bag’ishlangan fiqralar negizida Movarounnahr diyorida ulamo va fuqaro orasida maxfiy-yu jahriy zikr amaliyoti XVII-XVIII asrlarda bahamjihat davom etgani anglashiladi.

Fors, arab va turkiy tillarida bitilgan asarlari bilan Markaziy Osiyo va Volga bo’yi xalqlari adabiy-badiiy muhitiga kirib borgan So’fi Olloyor mintaqa xalqlari ma’naviy hayotida abadiy o’chmas iz qoldirgan so’fiy shoir, tariqat arbobi va hanafiy faqih sifatida o’z nomini abadiylashtirdi.

So’fi Olloyor timsolida naqshbandiya-mujaddidiya ta’limoti islom dini arkonlari, aqida tushunchalari, halol-haromdan iborat furu’ ahkomlar mohiyatini yoritib berish bilan bir qatorda, ruh va nafs tarbiyasiga urg’u beradigan insonparvar ta’limot ekani yanada oydinlashadi.

So’fi Olloyor o’z zamonasida Buxoro amaldorlari orasida taxt talashish oqibatida xonlikda tobora urchib borgan adolatsizlik va tengsizlik muhitida adovat, nafrat va tarafkashlik yo’lidan bormay, muruvvat, islohot va bag’rikenglik g’oyalarini targ’ib etdi. Bejizmaski, islom diniga asos bo’lgan tavhid, birdamlik, adolat, haqqparvarlik va insoniylik g’oyalari bilan to’yingan naqshbandiya tariqati ta’limoti sharhiga bag’ishlangan masalalar “Maslak ul-muttaqin”, “Sabot ul-ojizin”, “Maxzan ul-mute’in”³ va “Murod ul-orifin” asarlarida mohirona tarzda o’z ifodasini topgan.

SHARTLI QISQARTMALAR:

MM - 1714 – مسلك المتقين منظوم “Maslak ul-muttaqin” qo’lyozmasining ning elektron nusxasi. Manba: (الفكر القرآنى|مسلك المتقين منظوم – 1714)

MA - Muhammad Amin ibn Mullo Nur Muhammadning O’zbekiston Respublikasi Al-Beruniy nomidagi FASHI qo’lyozmalar fondida 1936-tartib raqami ostida saqlanayotgani مظهر الأحوال “Mazhar ul-ahval” qo’lyozmasi.



¹ Каримова, М. (1979). “Мазхар ал-ахвал” Мухаммад Амина как источник по истории Бухары первой половины XVIII века. Диссертация на соискание учёной степени канд. истор. наук. Ташкент: ЎЗР FA FK №Д-4796, 62-63.; Каримова, М. (1979). Факсимиле сочинения Мухаммад Амина “Мазхар ал-ахвал”. Ташкент: ЎЗР FA FK №Д-4797, 42b-43b.

² Каримова, М. (1979). “Мазхар ал-ахвал” Мухаммад Амина как источник по истории Бухары первой половины XVIII века. Диссертация на соискание учёной степени канд. истор. наук. Ташкент: ЎЗР FA FK №Д-4796, 132.; Каримова, М. (1979). Факсимиле сочинения Мухаммад Амина “Мазхар ал-ахвал”. Ташкент: ЎЗР FA FK №Д-4797, 108a-118a.

³ Abdupattaxov J. So’fi Olloyor – hanafiy faqih («Maxzan ul-mute’in» asari misolida). Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2005. – B. 80;

ПРОБЛЕМЫ СОВМЕСТИМОСТИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА С ИСЛАМОМ В КОНЦЕ XX-НАЧ. XXI ВВ.

СУРИЯ ТУРСУНОВА

Кандидат исторических наук, доцент, ТГУВ

Annotatsiya: Zamonaviy iqtisodiyot va jamiyat va samarali siyosiy organlarga ega bo'lgan zamonaviy davlat Islom bilan to'liq mos keladi. G'arb sharqshunoslarining pozitsiyasi musulmon jamiyati o'tmishdagi siyosiy va ijtimoiy qoldiq, degan fikrga asoslanadi. Islom va davlatchilik o'rtasidagi munosabatlar muammosi XX asr oxiri-XXI asr boshlarida katta ilmiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Kalit so'zlar: G'arb sharqshunoslari, Islom, musulmon jamiyati, Islom an'analari, shariat, modernizatsiya, an'anaviy qadriyatlar.

Abstract: A modern state with a modern economy and society and with effective political bodies is fully compatible with Islam. The position of Western Orientalists is based on the assertion that Muslim society is a political and social relic of the past. The problem of the correlation between Islam and statehood gained great scientific and political importance in the late twentieth and early twenty-first centuries.

Key words: orientalists of the West, Islam, Muslim society, Islamic tradition, Sharia, modernization, traditional values.

Аннотация: Современное государство с современной экономикой и обществом и с эффективными политическими органами полностью совместимо с исламом. Позиция западных востоковедов базируется на утверждении о том, что мусульманское общество является политическим и социальным пережитком прошлого. Проблема соотношения ислама и государственности получила большую научную и политическую значимость в конце XX-начале XXI вв.

Ключевые слова: востоковеды Запада, ислам, мусульманское общество, исламская традиция, шариат, модернизация, традиционные ценности.

Краткий анализ взглядов западных и мусульманских ученых показывает, что в последние пятьдесят лет возник некий вариант конформизма под влиянием неконформизма. Этот вариант принимает концепцию национального государства, но отвергает специфические для Запада формы, которые оно приняло. Эта разновидность конформизма в том, что она принимает идею национального государства и одновременно, под влиянием неконформизма, она критически воспринимает западную модель современного государства.

Этот критицизм касается не только самой модели, сколько процесса «вестернизации», т.е. того курса, которым последовало экономическое, политическое и социальное развитие на Западе. Мусульмане, выдвигающие такую идею, фактически утверждают, что современное государство с современной экономикой и обществом и с эффективными политическими органами полностью совместимо с исламом и, более того, необходимо в связи с непреходящей приверженностью ислама к социальной справедливости.

Подобная позиция подвергается сомнению и неприятию в рамках всеобщего западного убеждения, что ислам тормозит перемены и прогресс, препятствует развитию современного общества. Например, такой позиции придерживался известный востоковед Крамер, изучение им Египта убедило его в том, что мусульманское общество является «политическим и социальным пережитком прошлого» и переживает «постепенное загнивание, которое нельзя остановить ни



одной из современных паллиативных мер, как бы искусно их не применяли» (Piscatori, 1986, p. 117). Современная научная литература по социологии выработала эту общую линию подхода к данному вопросу.

Тот взгляд, что ислам тормозит процесс развития и тем самым препятствует национальной консолидации, во многом принадлежит Марксу, а частично Диркхейму. Оба они доказывали, что развитие тесно связано с секуляризацией (Halpern, 1963, p. 114). Позднее известный востоковед – социолог Манфред Халперн установил стандарт для современной социологии – в смысле, до иранской революции 1978 г. – когда он говорил об «исламском традиционализме» как анахронизме, несовместимым с модернизацией и опасном явлении, имеющим тенденцию к насильственному экстремизму. Неудачный опыт «братьев мусульман», находившихся в смертельной схватке с президентом Египта Гамаль Абдель Насером, явно повлиял на него и привел его к заключению, что «придерживаться традиций... означает оставаться вне современных политических направлений». (Halpern, 1963, p. 114). Этот взгляд породил большое количество работ по исламу и основывается на предвзятых допущениях, что фатализм, предполагаемое закрытие «врат Иджтихада» в десятом веке и приверженность к буквальному толкованию писаний представляют собой существенные и практически неизлечимые дефекты ислама, как такового. Но вот как отвечает на этот взгляд, Советник Исследовательского Центра при Университете короля Абдель Азиза в Джидде Зиявуддин Сардар, он отмечал, что многие западные исследователи ссылаются на фатализм как причину упадка исламского мира, допуская при этом смещение понятий. «Существует огромная разница между мусульманской верой в предопределение («Када ва аль Кадар») и фатализмом (« аль Джабр»): первая укрепляет силу для принятия решений, второй расслабляет». Фатализм привнесен в ислам сравнительно поздно. (Sardar, 1979, p. 48).

Нонконформизм (от лат. non «не»+позднелат. conformis «подобный; сообразный») — стремление индивида придерживаться и отстаивать установки, мнения, результаты восприятия, поведение и так далее, прямо противоречащие тем, которые господствуют в данном обществе или группе. Часто считается синонимом понятия «негативизм» и антонимом понятия «конформизм».)

Тем не менее, еще один известный востоковед, политолог Малькольм Япп предлагал интеллектуально элегантный вариант этого аргумента. Он говорит, что возрождение ислама зависит от скорости развития общества, то есть, темпа экономического роста и степени «мобилизации» народа в современном секторе экономики и общества. Когда люди слишком быстро поглощаются современным сектором, они проявляют недовольство, начинают требовать экономических и политических изменений и находят в исламе мощное средство для выражения своих требований. Поскольку новое обращение к исламу зависит в основном от темпов экономического развития, хотя наряду с этим присутствуют и другие факторы, такие как характер политического развития, можно заключить, что возрождение это есть побочный продукт исторического прогресса. Переход может оказаться не таким гладким, как это предполагалось, но связь современности с секуляризмом, в смысле разрыва религии с политикой, все же очевидна. (Yapp, 1980, p. 195). Разумеется верно, что секуляризм де-факто часто появлялся в исламской истории. «Но совсем другое дело оставлять впечатление, что религия выставляет общественную жизнь в смешном виде, и что современность, или процесс развития, требует секуляризма. Это все равно, что сказать, как некоторые собственно и делают, что мусульмане стоят перед выбором – или Мекка, или механизация.» (Yapp, 1980, p. 195).



Проблема соотношения ислама и государственности, считает профессор Оксфордского университета Е.Гелнер, приобрела значительную научную и политическую значимость, поскольку в ряде развивающихся стран ислам продемонстрировал способность к политической мобилизации широких масс населения – как с целью сохранения существующей политической системы, так и с целью ее «революционного» ниспровержения.

Автор полагает, что исламская религия сыграла важную роль в территориально – государственной организации населения. Она поддерживала стабильность государственно-политической структуры, несмотря на довольно частые передвижки в составе правящей элиты. (Gellner, 1984, pp. 547–560). Ислам выполнял и выполняет важные общесоциальные функции. Во-первых, религиозные установления являются фактически правовой защитой различных групп населения от произвола политической власти. Во-вторых исламская религия нейтрализует существующую и потенциальную оппозицию политической системе, поддерживая преемственность государственности. В- третьих, осуществлялась подготовка государственно-административного персонала, обеспечивавшего внутреннюю стабильность системы и политического режима. (Gellner, 1984, pp. 555–556)

Исламская традиция способствовала «детрибализации» сельского населения, проникновению в его сознание идей национализма и национальной общности. Эта традиция смягчает социальные противоречия в современных мусульманских государствах. Однако, как пишет в заключение Гелнер, остается проблематичной способность ислама преодолевать противоречивость интересов, вытекающих из различного положения групп населения по отношению к контролю и организации процесса производства и распределению результатов экономического развития. (Gellner, 1984, p. 559).

Хотя идею развития часто описывают как технологический прогресс, автор настоящей статьи будет использовать это понятие в более широком и общем смысле, означаям возрастание экономической, социальной и политической диверсификации и схожести. Это предполагает более высокую степень эффективности в удовлетворении потребностей человека, хотя, конечно, практический результат может быть, и не достигнет идеала.

Полагаем, что мусульмане имеют ввиду именно это, когда говорят о развитии, хотя следует отметить, что они весьма сильно расходятся в том, что именно можно изменить в исламе, какие потребности следует развивать, как эти перемены следует производить, и должно ли развитие происходить в национальных рамках. Тем не менее, само по себе знаменательно, что между мусульманами существует удивительно широкое согласие среди всех течений по поводу того, что они на слишком преуспели в плане экономического, социального и политического развития, и что этими неважными результатами они обязаны излишней зависимости от Запада, а также своей собственной пассивности. Чтобы выровнить эту ситуацию, мусульмане должны позаботиться о своей жизни и действовать более активно на поприще совершенствования общества.

Вот каким образом по этому поводу высказывался известный арабский ученый Хасан Ханафи: «Запад постоянно пытался убедить мусульманский мир в том, что он никогда не будет в состоянии достичь самых высоких ступеней развития, на которых уже стоят индустриальные общества. Уровень прогресса Запада намного выше уровня стремящихся вверх развивающихся мусульманских стран и т.д.

Будучи подверженным такому глубокому комплексу, мусульманский мир пытался и пытается найти в исламе источник силы посредством которого он смог бы компенсировать глубокий разрыв между ним и Западом.



Мусульманский традиционализм, - пишет Х.Ханафи, - это естественная реакция на западную модернизацию». (Gellner, 1984, pp. 555–556).

Если и существует какое-либо согласие среди множества голосов, призывающих к стратегии развития, которая должна противостоять тому, что считается излишне «вестернезированным» путем развития, то оно имеется в на в деталях, а в том общем принципе, что все запланированные схемы должны быть наполнены исламским содержанием. По существу вопроса был высказан аргумент выдающимся экономистом Хуршидом Ахмадом, бывшим заместителем лидера Консервативной партии Пакистана «Джамат аль Ислами» и бывшим Министром планирования и развития страны. Как ученик и интерпретатор «Мавлана Маудуди», Х. Ахмад начинает с предположения, что национальное государство несовместимо с исламом, и что национализм представляет собой чуждую для мусульманской жизни примесь. Однако, он следует далее, подчеркивая, что ислам призывает к единству, но не к единообразию, а следовательно, политический плюрализм допустим как явление в жизни, хотя он и нежелателен в то время как подразумевается существование более широкого исламского культурного единства. Мусульманское национальное государство становится более приемлемым – он использует слово «законным» - когда оно следует своим собственным путем, а не подражает Западу.

Это означает, что каждое мусульманское национальное государство должно сделать высшим законом шариат, выработать политическую систему, основывающуюся на «Шуре» (консультациях) и твердо встать на путь экономического роста и постепенных перемен. Что касается последних, Х.Ахмад полагает, что для мусульманских составителей планов не менее необходимо, : «чем для западных обозревателей, усвоить, во-первых, что ислам не против перемен (самой важной характеристикой должна быть их рациональность), и во-вторых, что не все западное следует отбрасывать. Планировщик должен принимать во внимание нужды общества, что ислам говорит по данному вопросу, и наконец, позволяют ли исламские рамки допустить разрешение потребностей по западному образцу». (Gellner, 1984, p. 559).

Анализируя точку зрения Зиявуддина Сардара по данному вопросу, у нас возникает мысль, что она несколько противоречива. С одной стороны, в своем довольно глубоком научном исследовании он подводит читателя к мысли, что чрезмерное увлечение мусульманских стран массовой модернизацией может привести к разрушению самобытного мусульманского общества под натиском централизованных технократических государств. Он пишет: «Когда обсуждается подобная альтернатива, это вовсе не означает, что какой- либо из вышеназванных путей развития обязательно будет иметь место в будущем. Подобных путей развития очень много. Возможности дальнейшего прогресса общества во многом будут зависеть от целей, которые могут быть поставлены перед его членами и нашим предвидением будущего в целом». (Sardar, 1979, p. 48).

С другой стороны З.Сардар, как бы смягчает (не зная сам этого – Р.Т.) высказывания вышеупомянутого Хуршида Ахмада. Из высказываний Сардара следует, что « в ходе взаимодействия с цивилизациями Греции, Рима, Персии, Индии и Китая мусульманское общество сумело отбросить все для него непригодное и ассимилировать те ценности и идеи, которые полностью отвечали его собственным нормам и принципам. Но такая гибкость и селективность уже не присущи мусульманскому обществу, оказавшемуся не в состоянии идти в ногу со всем остальным миром, и причина здесь не в общем социально-экономическом отставании мусульманских стран Азии и Африки, а в том, что сама религиозная система ислама утратила способность приспосабливаться к изменяющимся условиям жизни. Непрерывно увеличивается объем знаний, накопленных человечеством; новые знания вызывают научные и технологические изменения в обществе, а некоторые из них имеют далеко идущие последствия

для социальной структуры. Ислам должен быть переосмыслен в свете новых условий жизни – результатом его неприспособленности к этим условиям может быть лишь дальнейший упадок. Ислам должен не только принимать и осмысливать изменяющиеся реалии, но и заставлять своих последователей приспосабливаться к ним. Проблема заключается в отделении неизменных и постоянных реалий от временных и преходящих. При этом ислам не должен оставаться замкнутым в рамках нескольких наций и групп населения.

Главная духовная база общественной жизни – это постоянство и вместе с тем осознание наличия разнообразия и происходящих перемен. Общество, основанное на подобных принципах, должно уметь согласовывать в своем развитии категории постоянства и перемен, но в первую очередь ему необходимо обладать неизменными установками, дабы успешно регулировать внутреннюю жизнь, поскольку лишь постоянство дает точку опоры в мире нескончаемых перемен. Но когда неизменные принципы исключают возможность вообще каких-либо изменений, они сковывают то, что мобильно по своей природе. Это наглядно иллюстрируют застывшие формы ислама в течение последних пяти столетий». (Hanafi, 1985, pp. 94–104).

Эта мысль З.Сардара получает дальнейшее развитие в словах Камаль аш Шарифа, бывшего Министра по делам Вакуфов и ислама Иордании (был когда то членом египетской организации «Братьев-мусульман»). Он, в частности говорит, что одним из важных проявлений возрождения является не то, что оно настраивает мусульман против Запада, а то, что оно «удаляет примеси» и обеспечивает «иммунитет» против вредных и чужеродных идей. Поэтому в равной степени важно поощрять практику традиционных ценностей в обществе, таких как сбор «Закята» и создание беспроцентных банков в соответствии с исламским запретом «Риба» (ростовщичество).

Мусульманам даже следовало бы поимпровизировать, сочетая современную практику банковского дела с традиционными идеями. Примером служит решение иорданского правительства в 1982 году разрешить банкам предлагать обязательства в форме партнерства «Мукарраб», при котором вкладчик вместо гарантированного банковского процента участвует, наряду с другими вкладчиками, как в прибылях банка, так и в убытках от капиталовложений. (Sardar, 1979, p. 43).

Другие известные мусульмане не выражают энтузиазма относительно способности ислама организовать свой собственный подход к современной экономике. Абдуррахман Вахид, известный ученый, тесно связанный с партией «Нахдат ал Улама» в Индонезии, думает, например, что все усилия по организации беспроцентного банковского дела не продуманы до конца. Так или иначе, говорит он, «экономика есть экономика», и такие изобретения как партнерские обязательства, это всего лишь способ получения процента по вкладу, не используя слово «процент».

Со своей стороны А.Вахид считает, что основной вклад ислама в построение современного общества заключается в его способности предоставить «теологию гуманного роста». Но этот позитивный вклад может быть реализован, только если мусульмане встанут выше своего самодовольства, которое ведет их к мысли, что ответ на любую проблему содержится в применении традиционного мусульманского права. Наоборот, полагает он, мусульмане должны выработать новый консенсус по поводу того, что это право означает сегодня. Например, несправедливо ли было бы, в условиях перенаселенности и массовой нищеты, если бы община решила подтвердить необходимость контроля над рождаемостью, даже если некоторые мусульмане отнеслись бы к этому враждебно? Когда новый консенсус будет достигнут, по его мнению, будет легче внедрить исламское право в национальную законность. Такая интеграция

сможет только способствовать делу национального развития, которое, без сомнения, должно служить высшим приоритетом. (Wahid, 1986).

Ясно, что А. Вахид принадлежит к ревизионистскому течению и, следовательно, отличается от других своим крайне критическим отношением к тому, как мусульмане рассматривают вопрос развития. Однако, его можно принять как выразителя почти единодушного мнения, что исламская стратегия развития имеет своей конечной целью создание современного национального государства, приверженного своим собственным, а не западным ценностям. А.Вахид сознает, что национализм и религия могут враждовать теоретически (например, кому следует быть более лояльным?) и практически (правительство и церковь неизбежно ввязываются в политическое соперничество). Но он делает заключение, что реальный вклад религии – укрепление ее непреходящих ценностей, таких как «справедливость» и «равенство», и влияние, которые эти ценности оказывают на массы. Таким образом, утверждает он, религия может сосредоточить внимание нации, прежде всего, на развитии, помогая при этом нации выполнить свои моральные обязательства перед народом. (Wahid, 1986).

Существуют различия в подходе и акценте, но из работ, вышеупомянутых мусульманских деятелей и других, можно выделить три общие точки зрения: 1) Ислам полностью совместим с экономическими, политическими и социальными переменами; 2) Ислам требует социальной справедливости, и это требование вызывает необходимость в переменах внутри широко понимаемых рамок традиционных ценностей; 3) Отказ от Запада означает собой отказ от социальной и культурной «вестернизации» и (хотя Хомейни не подписался бы под этим) вовсе не обязательно отказ исторически западной концепции национального государства или от достижений технического и материального прогресса Запада.

Соппротивление ислама новым реалиям, неспособность адаптироваться к меняющимся мировым тенденциям, подорвало его репутацию. И это нельзя назвать полностью незаслуженным, поскольку мусульмане строго придерживались принципа «Таклид» и старались сохранить эти принципы десятого столетия в новых условиях. Однако, начиная с конца одиннадцатого столетия, среди мусульман росло мнение, что «Таклид» является одной из главных причин их слабости и застоя. В девятнадцатом столетии Аль Афгани широко развил эту идею, доказывая, что первоначальная община мусульман создала предпосылки для прогресса, и что правоверные смогут вновь приобрести этот дух, только если они согласятся, что наука и религия совместимы. Известный ученый - исламовед Рашид Рида зашел еще дальше, доказывая, что община (Умма) обладает правом создавать справедливое, или сотворенное человеком законодательство, если только это законодательство не противоречит, а дополняет шариат. Некоторые склонны считать, что он допустил произвольное разделение между правом, сотворенным человеком, и правом, сотворенным Аллахом, и что идея шариата безоговорочно покрывает эволюцию вообще. Тем не менее, большинство мусульман предпочитает следовать формулировке, что Аллах есть единственный законодатель, но может существовать такая вещь, как вспомогательное и сотворенное человеком законодательство, которое позволяет общине идти в ногу с социальными переменами или регулировать их, если только они явным образом не противоречат шариату. Это и имелось ввиду, когда иранская конституция 1906-1907 гг. указывала, что «улама» как стражи конституции обязаны принимать в расчет «требования века». (Iqbal, 1971, p. 168). Фактически, большинство мусульман вряд ли выразили бы несогласие с существом комментария исламоведа Мухаммада Икбала, что «требования современного поколения либеральных мусульман заново интерпретировать фундаментальные принципы права



в свете своего собственного опыта и изменившихся условий современной жизни...совершенно справедливо». (Iqbal, 1971, p. 168).

Действительно, даже многие консерваторы или так называемые фундаменталисты, энергично возражающие против идеи, что возможно дальнейшее законотворчество, на практике согласны с тем, что существуют хорошо обоснованные процедуры, при помощи которых могут быть проведены изменения в законах. Эти процедуры делятся на пять основных категорий.

Во-первых, многие согласны, что можно выбирать («Тахайююр») среди мусульманских правовых школ, чтобы вынести юридическое суждение или составить какие-либо правила, а не полагаться исключительно на одну религиозно-правовую школу.

Во-вторых, также одобряется принцип «Сияса Шариийя», который по крайней мере с одиннадцатого столетия позволял мусульманским правителям дополнять основной закон административными указами. Так было и в период Османской империи, так продолжалось и в последующие годы. Саудовцы уже давно полагались на «Сияса Шариийя», позволявший им согласовывать административное усмотрение с основным мусульманским законодательством, при этом они имели ввиду тот факт, что Шариат не в состоянии охватить все детали социальной и политической жизни. Так они предпочитали использовать термин «Низам», т.е. «Указ» или «правило», вместо «Канун», т.е. «Закон». (Piscatori, 1986, pp. 122–123).

В-третьих, с этим связан принцип «Тахсис ал Када», согласно которому главе государства дозволяется создавать и реформировать органы власти или предписывать наказания, когда на это нет указаний в главных источниках мусульманского права.

В-четвертых, общепринято, что могут быть приняты законы, если они служат интересам общества («Маслаха»).

И наконец, в –пятых, правовые категории обладают внутренней гибкостью. Закон разделяет допустимые действия на рекомендованные («Мандуб») и предосудительные («Макрух»). Для мусульман стало общепринятым переводить эти этические суждения на язык юридических норм. Например, в некоторых мусульманских странах законодательство по статусу личности резко ограничило права мужа давать жене развод, рассматривая это во всех случаях как «Макрух» или как акт, достойный порицания.

«В Саудовской Аравии, как отмечает Дж.Пискатори, весьма высоко оценивают современную юридическую практику, дающую возможность органически увязывать то, что рекомендует «Мандуб», и то что осуждает «Макрух» с системой приказаний и запрещений» (Piscatori, 1986, pp. 122–123). Отмена рабства в королевстве как раз и подпадает под эту категорию. В 1936 г. Саудовское правительство прекратило работорговлю, однако только в 1962г. Рабство как таковое было всецело запрещено и предусматривалась полная свобода для рабов. Коран допускает владение рабами, хотя и не восхваляет эту практику. Он поощряет освобождение рабов («24:33»), подчеркивает, что использование чьего-либо состояния в интересах рабов, это акт благочестия («2 :177»), а представление им полной свободы, это первый пример постижения «крутизны» к добродетели («90 :12-13»).

Таким образом, превратив морально рекомендованное в юридически требуемое, указ от 1962г. Позволил саудовцам встретить современные международные требования без особых проявлений радикального нарушения традиционной структуры.



SIYOSIY LEGITIMLIK VA LIDER SHAXSIYATI: O'MON TAJRIBASI

NILUFAR NASIROVA

Mustaqil izlanuvchi, TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy legitimlik tushunchasi va lider shaxsiyatining avtoritar siyosiy tizim barqarorligidagi o'rni O'mon Sultonligi misolida tahlil qilingan. G'arb va islom olami nazariyalariga tayangan holda, legitimlik manbalari – an'anaviy, karizmatik, ratsional-huquqiy omillar – ko'rib chiqiladi. O'monning tarixiy-siyosiy evolyutsiyasi va Sulton Qobus ibn Said boshchiligidagi modernizatsiya tajribasi mamlakatda kuchli legitimlik poydevorini yaratgani ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy legitimlik, avtoritarizm, sultonlik, lider shaxsiyati, an'anaviy legitimlik, karizmatik hokimiyat, rentier davlati, patrimonial boshqaruv.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие политической легитимности и роль личности лидера в стабильности авторитарной политической системы на примере Султаната Оман. Опираясь на теории западных и исламских учёных, рассматриваются источники легитимности – традиционные, харизматические и рационально-правовые факторы. Показано, что историко-политическая эволюция Омана и опыт модернизации под руководством султана Кабуса бин Саида создали прочный фундамент легитимности власти.

Ключевые слова: политическая легитимность, авторитаризм, султанат, личность лидера, традиционная легитимность, харизматическая власть, рентное государство, патримониальное управление

Abstract: The article examines political legitimacy and the role of leader personality in the stability of an authoritarian political system, using the Sultanate of Oman as a case study. Drawing on Western and Islamic theoretical frameworks, it discusses sources of legitimacy – including traditional, charismatic, and rational-legal factors. Oman's historical political evolution and the modernization under Sultan Qaboos bin Said are shown to have built a strong foundation of regime legitimacy.

Keywords: political legitimacy, authoritarianism, sultanate, leader's personality, traditional legitimacy, charismatic authority, rentier state, patrimonial governance.

Kirish. G'arb ijtimoiy-siyosiy tafakkurida legitimlik tushunchasi davlat hokimiyatining xalq roziligi va qonuniyligi bilan chambarchas bog'liq. Jon Lok kabi ma'rifatparvar faylasuflar hukumatning qonuniyligi xalqning ixtiyoriy roziligi va roziligi orqali shakllanishini ta'kidlaganlar.¹ Amerikalik sotsiolog Seymour Lipset esa legitimlikni “mavjud siyosiy institutlar jamiyat uchun eng maqbul va mos tuzilmalar ekaniga bo'lgan ishonch” sifatida tariflagan.² Zamonaviy demokratik jamiyatlarda siyosiy legitimlik asosan saylovlar, qonun ustuvorligi va ijtimoiy kelishuv orqali ta'minlanadi. Bunday jamiyatlarda hukumat “xalq irodasi”ga tayanganligi uchun qonuniy deb e'tirof etiladi.

Sotsiolog Maks Veber siyosiy hokimiyat legitimligining uch ideal turini ajratib ko'rsatgan³: an'anaviy, karizmatik va ratsional-huquqiy hokimiyat. An'anaviy legitimlik avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar va tarixiy an'analarga tayangan holda qaror topadi, masalan, monarxiya yoki qabila boshliqlarining hokimiyati ko'pincha shu toifaga kiradi. Karizmatik legitimlik esa liderning

¹ Locke J. Two Treatises of Government. – London: Awnsham Churchill, 1690. – 409 p.

² Lipset S.M. Some Social Requisites of Democracy: Economic Development and Political Legitimacy // *American Political Science Review*. – 1959. – Vol. 53, No. 1. – P. 69–105.

³ Weber M. The Theory of Social and Economic Organization / Transl. by A.M. Henderson & T. Parsons. – New York: Oxford University Press, 1947. – 436 p.



shaxsiy jozibasi, karizmasi va favqulodda qobiliyatlariga asoslanadi, bunday hollarda xalq rahbarga hissiy ishonch bildiradi va u qonuniy hokim deb qabul qilinadi. Ratsional-huquqiy legitimlik boshqaruvning qonunlar va rasmiy protseduralarga asoslangan holda olib borilishi orqali vujudga keladi; ya'ni hokimiyatning qonuniyligi Konstitutsiya, qonunchilik va byurokratik tartiblarga bo'ysunishiga tayanadi. G'arb liberal demokratiyalarida aynan shu ratsional-huquqiy legitimlik ustuvor bo'lib, hukumatlar saylov va qonuniy jarayonlar orqali legitim deb topiladi.

Asosiy qism. Musulmon olami kontekstida siyosiy legitimlik masalasini tushunishda diniy omillar va an'anaviy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Islom siyosiy tafakkurida hukmdorning hokimiyati qonuniy bo'lishi uchun u shariat qonun-qoidalariga muvofiq boshqarishi va adolatni ta'minlashi zarur deb hisoblanadi. Tarixiy islom davlatchiligida, xususan ilk xalifalik davrida, hokimiyat "bay'at" (musulmon jamoasining qo'llab-quvvatlash qasamyodi) orqali legitimlashtirilgan¹; musulmonlar o'z imom yoki xalifasiga itoat qilishga ahd berishgan, evaziga hukmdor shariatga binoan boshqarib, xalq farovonligini ta'minlashi lozim edi. Shu boisdan shariatga rioya etish va din peshvolari ko'magida boshqaruvni amalga oshirish islom an'anasida legitimlikning asosiy mezonlaridan sanalgan. Ba'zi tadqiqotchilar² "islom siyosiy tafakkurida legitimlik, asosan, davlat boshqaruvining Alloh qonunlariga muvofiqligi orqali belgilanadi" deb ta'kidlashadi.

Zamonaviy musulmon mamlakatlarida siyosiy legitimlik turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ko'plab arab monarxiyalari o'z hokimiyatlarini legitimlashtirish uchun tarixiy-diniy da'volarga tayanadilar: masalan, Marokash va Iordaniya kabi sulolalar o'z nasablarini islom payg'ambarlariga bog'lab, diniy jozibadorlik orttirgan holda xalqdan itoat talab qiladi.³ Yana ayrim hollarda qabila tuzilmalari va urug'lar sadoqati hukmdorning an'anaviy legitim tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Iordaniyada qabila ittifoqlari va "patriarxal" urf-odatlar shoh hokimiyatining asosi sanaladi. Ko'rfaz mintaqasidagi neftga boy monarxiyalarda esa rentier davlati modeli kuzatiladi – hukmdorlar neft daromadlarini aholiga tarqatish, ularga farovon turmush sharoitini yaratish evaziga xalq roziligini sotib oladi va shu orqali legitimlikka erishadi. Biroq, boylik taqsimotiga asoslangan bunday legitimlik zaif hisoblanadi: iqtisodiy inqirozlar davrida yoki neft daromadlari qisqarib ketsa, jamiyatning hokimiyatga talab va e'tirozlari oshib, legitimlik inqirozga uchrashi mumkin. Darhaqiqat, 2011-yil "Arab bahori" voqealari ko'rsatdiki⁴, agar hukumatlar xalqning siyosiy talablari va ehtiyojlariga e'tibor bermasa, hatto avval o'zini barqaror ko'rsatgan rejimlar ham norozilik to'lqinlariga duch keladi.

O'mon Sultonligi Yaqin Sharqdagi an'anaviy monarxiya bo'lib, davlat boshqaruvi to'la hajmda sulola vakili – sulton qo'lida jamlangan. Rasmiy ravishda, O'mon – yagona konstitutsiyaviy monarxiya; 1996-yilda qabul qilingan Asosiy Qonun (Konstitutsiya)ga muvofiq, sulton davlatning boshlig'i va "milliy birlik ramzi hamda uning himoyachisi" sifatida belgilangan.⁵ Amalda esa, O'mon

¹ Аль-Моварди Абу-л-Хасан. *Аль-Ахкам ас-Султаниййа* (الدینية والولايات السلطانية الأحكام) / Пер. с араб. – Москва: Восточная литература, 1991. – 316 с.

² Аль-Моварди Абу-л-Хасан. *Аль-Ахкам ас-Султаниййа* (الدینية والولايات السلطانية الأحكام) / Пер. с араб. – Москва: Восточная литература, 1991. – 316 с. Ибн Таймийа. *Сиясат аш-Шария фи Ислах ар-Раий ва ар-Раъийа* (السیاسة والرعية الراعی إصلاح فی الشرعية). – Каир: Даром ат-Турок, 1971. – 215 с. Sachedina, A.A. *The Islamic Roots of Democratic Pluralism*. – New York: Oxford University Press, 2001. – 240 p. Esposito, J.L., & Voll, J.O. *Islam and Democracy*. – New York: Oxford University Press, 1996. – 222 p. Kamali, M.H. *Freedom, Equality and Justice in Islam*. – Cambridge: Islamic Texts Society, 2002. – 275 p.

³ What Arab Monarchies Should Take Away from their Neighbors' Instability by Mohamed Chtatou Mar 22, 2019

⁴ Papazoglou, I. et al. *The Arab Uprisings and the Return of Repression // Middle East Policy*. – 2021. – Vol. 28, No. 1. – P. 12–26.

⁵ Valeri M. *Simmering Unrest and Succession Challenges in Oman // Working Paper*, Carnegie Endowment for International Peace. – Washington, D.C.: Carnegie Endowment for International Peace, 2015. – 28 January. – 29 p.

siyosiy tizimi mutlaq monarxiya talablari asosida shakllangan: sulton bir vaqtning o'zida bosh vazir, qurolli kuchlar oliy qo'mondoni, moliya, mudofaa, tashqi ishlar va boshqa asosiy vazirliklarni boshqaruvchi sifatida cheksiz vakolatlarni o'z qo'lida jamlagan. Davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari ham bevosita sulton irodasiga bo'ysunadi; siyosiy partiyalar faoliyatiga qat'iy taqiq o'rnatilgan, parlament vazifasini bajaruvchi ikki palatali O'mon Kengashi esa juda cheklangan vakolatlarga ega maslahat organidir. Xususan, Majlis ash-Shura a'zolari aholining ovozi bilan saylansa-da, u faqat maslahat berish va ba'zi ikkinchi darajali masalalarni muhokama qilish huquqiga ega, xolos – mudofaa, xavfsizlik, moliya kabi strategik masalalarda so'nggi qarorni sultonning o'zi qabul qiladi.¹ Shu sababli, xalqaro tahlilchilar O'monni ba'zan “maftunkor polis davlati”² deb ataydilar – ya'ni tashqi tomondan jozibador va osoyishta ko'rinsa-da, ichki siyosatda kuchli politsiya nazorati va erkinliklarning cheklanishi bilan xarakterlanuvchi avtoritar tuzum.

O'monning siyosiy legitimlik asoslarini tushunish uchun uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ko'rib chiqish lozim. XX asr o'rtalariga kelib, O'mon (o'sha davrdagi Muskat va O'mon Sultonligi) ichki jihatdan bo'lingan, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qoloq bir davlat edi.³ Mamlakatning tog'li ichki hududlarida mahalliy Ibodiy imomlar boshchiligidagi an'anaviy teokratik boshqaruv saqlanib qolgan, soxilda esa sulton naslidan bo'lgan hukmdorlar (Al Said sulolasi) ingliz mustamlakachilarining siyosiy yordami bilan hokimiyatni ushlab turardi. 1932- yildan buyon mamlakatni idora qilib kelgan Said bin Taymur o'zining mutaassib va islohotlarga yopiq siyosati tufayli mamlakatni tashqi dunyodan uzib qo'ygan, iqtisodiy rivojlanishni deyarli to'xtatib qo'ygan edi. Natijada 1950-yillarda ichki viloyatlarda (Jabal al-Axdar hududida) sultonga qarshi isyon ko'tarildi, shuningdek, janubiy Zufor viloyatida 1960-yillarda Marxistik ilhomdagi qo'zg'olon avj oldi. Bu voqealar mamlakat siyosiy tizimining izdan chiqqanini va legitimlik inqirozini anglatardi.

1970-yil O'mon tarixida burilish nuqtasi bo'ldi: Said bin Taymur o'g'li shahzoda Qobus bin Said tomonidan inqilobiy yo'l (saroy to'ntarishi) bilan taxtdan ag'darildi. Bu o'zgarish Britaniya kolonial doiralarning ko'magi bilan amalga oshirildi, zamonaviy dunyodan yopiqlik tarafdori bo'lgan kekxa sulton o'mniga yosh, G'arbda ta'lim olgan va islohotlarga moyil Qobus hokimiyatga keldi. Taxtga o'tirgan paytda atigi 29 yoshda bo'lgan yangi sulton mamlakatni chuqur ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, qurolli isyonlar va xalqning noroziligi holatida meros qilib oldi.⁴ Sulton Qobusning dastlabki sinovi – davom etayotgan Zufor qo'zg'olonini bostirish va mamlakat yakdil yagona davlat sifatida birlashtirish bo'ldi. U Britaniya, Eron (Shoh Muhammad Rizo Pahlaviy davridagi Eron qo'shinlari) va Iordaniya kabi ittifoqchilarning harbiy ko'magiga tayangan holda 1970-yillar o'rtalariga kelib Marxist isyonni batamom tugatdi. Biroq Qobus zo'rlik kuchi bilan birga “yurak va aql” strategiyasini ham qo'lladi, ya'ni qo'zg'olonchi mintaqalarda keng miqyosli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirib, yo'llar, maktablar, shifoxonalar qurdirib, mahalliy aholini davlat tizimiga integratsiya qildi. Bu yondashuv qo'zg'olonchilarning ko'pchiligini qurol tashlab, yangi tashkil etilgan Ummon milliy armiyasi va boshqaruv tuzilmalariga qo'shilishiga zamin yaratdi.

Shu tariqa, Sulton Qobus “O'monning modernizatsion renessansi” (An-Nahda al-Umaniyya al-haditha) davrini boshladi. 1970-yillardan boshlab mamlakatda topilgan neft konlaridan oqib kelgan daromadlar sulton tomonidan izchil ravishda xalq farovonligini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va davlat institutlarini shakllantirish yo'lida safarbar etildi. Sulton Qobus qisqa fursatda ilgari deyarli o'rta asrlardagi ahvolda bo'lgan mamlakatni zamonaviy, barqaror davlatga aylantirdi – bu davrni o'rgangan

¹ George S. *Oman's Transition and the Legitimacy of Autocratic Rule* // Assessing the Political Stability of Oman. – 2004.

² Falk T.O. *Will Oman preserve the political imagery of Sultan Qaboos?* // *The New Arab*. – 1 May 2020.

³ Dunst C. *Where People Want a Dictator* // *Washington Monthly*. – 2023. – 23 March.

⁴ Dunst C. *Where People Want a Dictator* // *Washington Monthly*. – 2023. – 23 March.



BMT ekspertlari 1970–2010-yillar orasida O‘monni “taraqqiyot sur‘ati eng yuksak davlat” deb e‘tirof etishgan¹, chunki bu 40 yil ichida mamlakat inson taraqqiyoti ko‘rsatkichlari bo‘yicha misli ko‘rilmagan o‘lishga erishdi. Masalan, o‘rtacha umr ko‘rish darajasi O‘mon aholisida 78 yoshga yetib, hatto ayrim g‘arb davlatlaridan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Ushbu yutuqlar evaziga Qobus xalq orasida beqiyos obro‘-e‘tibor qozondi; oddiy odamlar “Qobusdan avval biz hech narsa emasdik, u bizni yaratdi”, degan iborani tez-tez tilga olar edilar.

Siyosiy tizim nuqtai nazaridan, Sulton Qobus hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklarida barcha qarorlar shaxsiy farmonlar orqali amalga oshirildi. Aholining savodxonlik darajasi, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, kommunikatsiyalar keskin oshib borgan sari, jamiyatda yangi talab va ehtiyojlar paydo bo‘la boshladi. Sulton Qobus asta-sekin davlat tuzilmasini institutsionalizatsiya qilishga kirishdi: 1991-yilda u aholi vakillaridan iborat Maslahatchi kengash (Majlis al-Mashura) tuzdi, 1996-yilda esa birinchi Konstitutsiyani joriy etdi. Konstitutsiya asosida O‘mon Kengashi deb ataluvchi ikki palatali parlament tashkil topdi: yuqori palata – Majlis ad-Davla (Davlat kengashi) a‘zolarini sultonning o‘zi tayinlar, quyi palata – Majlis ash-Shura (Maslahat kengashi) a‘zolari esa umumxalq saylovi orqali saylanadigan bo‘ldi. Dastlab, Majlis ash-Shura maslahat beruvchi organ sifatida tashkil topgan bo‘lsa-da, keyinchalik unga ayrim cheklangan qonunchilik vakolatlari ham berildi (masalan, vazirlarni so‘roq qilish kabi). Biroq bu islohotlar O‘mon siyosiy tizimini tubdan o‘zgartirmadi – yakuniy qarorlar qabul qilish vakolati hanuz sulton qo‘lida qoldi, muhim davlat masalalari (mudofaa, byudjet, tashqi siyosat va hokazo) bo‘yicha parlament mustaqil qonun chiqarish huquqiga ega emas edi. Shunday bo‘lsa-da, Qobus tomonidan qo‘yilgan ushbu qadamlar jamiyatda muayyan ijobiy qarshi aloqa tizimini yaratdi va legitimlikka hissa qo‘shdi: xalq o‘z vakillarini saylash imkoniga ega bo‘ldi, ba‘zi mahalliy muammolarni ko‘tarish maydoni paydo bo‘ldi. Bu hol Yaqin Sharqdagi boshqa mutlaq monarxiyalarga nisbatan Ummonni o‘ziga xos yumshoqroq avtoritar tizim sifatida ajratib ko‘rsatdi.

O‘mon siyosiy tizimining legitimlik asoslarini tahlil qilar ekanmiz, ikki asosiy omil ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, an‘anaviy-traditsion omil: Al-Said sulolasi 1744-yildan buyon (ya‘ni qariyb uch asr) O‘mon taxtini egallab keladi va bu davr mobaynida sultonlik hokimiyati o‘ziga xos tarixiy qonuniylik kasb etgan. Ibodiy mazhabiga mansub bo‘lgan O‘mon aholisi uchun sulola boshchiligidagi dunyoviy hokimiyat diniy ulamolar bilan murosa asosida legitim deb qabul qilingan. Masalan, Al-Said sulolasining ilk hukmdori Ahmad bin Said asli imom sifatida tanlangan bo‘lsa-da, keyinchalik uning avlodlari sulolaviy hukmdor maqomini egallagan – shu tariqa diniy legitimlik an‘anasi sulola vorisligi bilan uyg‘unlashgan. Ikkinchi muhim omil – modernizatsion legitimlik: Sulton Qobus davlatni modernizatsiya qilish jarayonida xalq farovonligini sezilarli darajada oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishgani tufayli aholi nazarida hokimiyatga nisbatan “ijro etilgan ishlar” uchun minnatdorlik hissini uyg‘otdi. Bu holat siyosiy fanlarda “ijro etish legitimligi” deb ataladi – ya‘ni hokimiyat o‘zining samarali ishlashi, barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlagani evaziga xalq roziligini qozonadi.

Sulton Qobus ibn Said (1940–2020) O‘monning zamonaviy tarixida markaziy o‘rin tutadigan shaxs va mamlakatning ulkan o‘zgarishlar davri bilan bog‘liq liderdir. Uning 50 yillik hukmronligi davrida O‘mon jaholat va qoloqlikdan chiqib, zamonaviy infratuzilmaga ega, iqtisodiy jihatdan diversifikatsiyalashgan, xalqaro maydonda o‘ziga xos obro‘ qozongan davlatga aylandi. Sulton Qobus o‘zini xalq ko‘z o‘ngida “millat otasi” va taraqqiyot me‘mori sifatida namoyon qildi – mamlakatda barpo etilgan ko‘plab ob‘ektlar, masalan, Qobus nomidagi masjidlar, universitet, stadionlar, kutubxonalar va hatto Yaqin Sharqdagi birinchi opera teatri uning nomi bilan atalgan. Bu esa Qobus

¹ Milken Institute Review. *Oman’s New Normal* // Milken Institute Review. – 2021. QNB Economic Insight. *Oman – Economic Insight*, April 2011. – Qatar: QNB, 2011. United Nations Development Programme. *Human Development Report 2010 – The Real Wealth of Nations*. – New York: UNDP, 2010. – 384 p.



shaxsini xalq xotirasida abadiylashtirishga xizmat qildi. Muskat ko'chalarida, davlat idoralarida sulton Qobusning portretlari doimiy osilgan bo'lib, ular "rahbar doimo siz bilan birga" degan ma'noni anglatuvchi ramziy vazifani o'taydi. Siyosiy sotsiologlar ta'kidlashicha¹, yillar davomida omma ongida Qobus obrazining shunchalik chuqur o'rinishi natijasida "shaxsga sig'inish" elementlari shakllangan – Muborak al-Hamdani ismli o'monlik tadqiqotchisi fikricha², jamoat joylaridagi portretlar va timsollar Sulton Qobusning mafkuraviy merosini yaratgan va mustahkamlab kelgan. Xalq orasida hatto Qobusni "asoschi ota" deya ulug'lash keng tarqalgan edi.

Sulton Qobusning siyosiy imiji murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u bir vaqtning o'zida zamonaviylashtiruvchi, karizmatik lider, mo'tadil diplomat va ayni paytda mutlaq hokimiyat egasi sifatida talqin qilinadi. Bir tomondan, u G'arbda tahsil olgan bo'lib, mamlakatni modernizatsiya qilishda ilm-fan va texnologiya yutuqlariga tayandi; ikkinchi tomondan, u o'zini islomiyning ibodiy yo'nalishiga sodiq, an'analarni hurmat qiluvchi musulmon hukmdor sifatida ko'rsatdi. Uning tashqi siyosatda tutgan betaraf va vositachilik roli ham xalqaro miqyosda yuqori baholandi – Qobus O'monni "mo'tadil diplomatiya" maskaniga aylantirdi, Eron va AQSh o'rtasidagi maxfiy muzokaralarga mezbonlik qilishdan tortib, mintaqaviy nizolarda vositachi bo'lishgacha ko'plab tinchlikparvar tashabbuslarni ilgari surdi. Bu omillar uning xalqaro nufuzini oshirish barobarida, ichki auditoriya – o'monliklar o'rtasida ham faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otdi. O'mon fuqarolari o'z sultonlarini mintaqadagi boshqa rahbarlardan farqli o'laroq dono va vazmin arbob sifatida ko'rishar, "bizning sultonimiz janjal va urushlardan yiroq tutadi mamlakatni" deya qadrlashar edi.

Shu bilan birga, Sulton Qobus boshqaruvi ostidagi siyosiy tizim kuchli markazlashgan "patrimonial" xarakterga ega edi: davlat xizmatchilarining keng qatlamlari bevosita sultonning in'omi va marhamatidan manfaatdor edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, neftdan tushgan daromadlar evaziga davlat xizmatlarida yuz minglab ish o'rinlari yaratilib, aholining katta qismi davlatga tobe bandlik holatida bo'ldi. Bu esa o'z navbatida, fuqarolarning sultonga sadoqatini oshirib, siyosiy legitimlik "quyi qavatlardan" mustahkamlanishiga olib keldi. Sulton Qobus ham bu sadoqatni qadrlar almashinuvi va mukofotlar bilan rag'batlantirib turdi; masalan, qaysidir mintaqada norozilik alomatlari kuchaysa, u o'sha viloyatdan bo'lgan sodiq kishilarni yuqori lavozimlarga tayinlab, mahalliy elita orqali obro'sini tiklashga harakat qildi. "Men sizning otangizman, siz mening farzandlarimsiz", degan mazmundagi ramziy gaplar bilan u xalq bilan o'zaro bir oilaga mansublik hissini shakllantirgan edi – bu patrimonial-homiylik usuli ham legitimlikni oshiruvchi omil bo'lib xizmat qildi.

Qobusning shaxsiy karizmasi va xalq muhabbati qanchalik yuksak bo'lmasin, uning hokimiyati ostidagi avtoritar tizim muammolardan holi emas edi. 2010-yillarga kelib, ayniqsa yoshlarda, siyosiy islohotlar, ish bilan ta'minlash, korrupsiyani tugatish kabi talablar kuchayib bordi. 2011-yil namoyishlari sulton hokimiyatiga bevosita raxna solmagan bo'lsa-da, ular rejimning ayrim jihatlari qayta ko'rib chiqishga undadi.

Sulton Haysam bin Tariq 2020-yil yanvar oyida taxtga o'tirar ekan, mamlakat yangi bosqichga qadam qo'ydi. Haysam uchun eng asosiy vazifa – Qobus asos solgan barqarorlik va xalq ishonchi muhitini saqlab qolish edi. U o'zining ilk nutqidayoq Qobusning siyosatini davom ettirishga va'da berib, "otam Qobus yo'lidan adashmayman", deya xalqni ishontirdi. Haqiqatan ham, sultonlikning dastlabki oylarida Haysam davomiylik va barqaror vorislik tamoyillariga alohida e'tibor qaratdi. 2021-yil yanvarida u tarixda birinchi bor O'monda Valiahd shahzoda lavozimini joriy etdi – o'zining to'ng'ich o'g'li Ziyod bin Haysamni valiahd deb e'lon qildi. Bu qadam bilan Haysam hokimiyat merosxo'rligini institutsional asosda mustahkamlashga erishdi; endilikda sulola ichida vorislik

¹ Rabi U., Bābū'd K. The Foundation, Development and Future of the Omani Rentier State // *Arabian Humanities*. – 2019.

² Castelier S. Power and political imagery: Will Oman preserve Sulton Qaboos' portraits? // *The New Arab*. – 01.05.2020



masalasi aniqlashtirildi va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqliklar oldi olindi. Mahalliy tahlilchilar fikricha, valiahdlilik institutining joriy etilishi O'monni boshqa Ko'rfaz monarxiyalari qatorida "eski sulola" sifatida ko'rsatib, uning mintaqaviy siyosiy imijini mustahkamlagan bo'lsa-da, ayni vaqtda ba'zilar bu amaliyot ibodiylik an'analarga zidligini ham eslatib o'tishgan – chunki Ibodiy islom tarixan merosiy sulolaviylikdan ko'ra imomlarning saylanishini ma'qul ko'radi. Shunday bo'lsa-da, O'mon jamiyati yangi sultonning bu islohotini xotirjamlik va ijobiy kutib oldi, zero barqarorlik va davomiylik omili ko'pchilik uchun diniy an'anaviy prinsiplaridan afzalroq edi.

Sulton Haysam mamlakatni yangi davrga moslab olib chiqish uchun iqtisodiy va ijtimoiy tashabbuslarni ham ilgari surmoqda. "Vision -2040" (Ruyyat Uman 2040) deb nomlangan milliy strategik dastur aynan uning boshchiligidan ishlab chiqilib, 2021-yildan amalga tadbiriq etilmoqda. Bu dastur iqtisodiyotning neftga qaramligini kamaytirish, xususiy sektorni rivojlantirish, hududiy boshqaruvni isloh qilish kabi qator maqsadlarni ko'zda tutadi. Yosh sulton neft narxlarining pasayishi va COVID-19 pandemiyasi keltirgan inqiroz sharoitida qattiq iqtisodiy choralar ko'rishga ham majbur bo'ldi, masalan, davlat xarajatlarini qisqartirish, ba'zi soliqlar joriy etish kabi qarorlar qabul qilindi. Tabiiyki, bunday tejamkorlik siyosati qisqa muddatda aholining noroziligiga sabab bo'lishi mumkin, chunki Qobus hukmronligi davrida davlat fuqarolarga yuksak ijtimoiy himoya berib o'rgatgan va qiyin damlarda davlat odatda xarajatlarni kamaytirmasdi. Haysam esa, real iqtisodiy vaziyat talablariga ko'ra, ayrim imtiyozlarni qisqartirishga majbur bo'lmoqda. Bu jarayonda u legitimlikka putur yetkazmaslik uchun ehtiyotkorona harakat qilmoqda: masalan, chet ellik migrant ishchilarni qisqartirib, bo'shagan ish o'rinlariga o'monlik yoshlarni joylashtirish orqali xalq manfaatini ko'zlayotganini namoyish etmoqda. Shuningdek, Haysam hukumatning samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni xalq oldida targ'ib qilmoqda – masalan, 2023-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy himoya to'g'risida" qonun ijtimoiy ta'minotni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, hukumatning xalq g'amxo'rlikini ko'rsatishiga xizmat qildi.

Legitimlik nuqtai nazaridan, bugungi kunda O'mon jamiyatida Sulton Haysamga nisbatan munosabatni ikki xil tendentsiya bilan tavsiflash mumkin. Bir tomondan, aholi uning davlatni boshqarish qobiliyatiga va Qobus siyosatini davom ettirish borasidagi va'dalariga ishongan holda hurmat va itoat bildirmoqda, ayniqsa, Qobus davrida shakllangan siyosiy madaniyat ko'ra, sulton instituti barqarorlik timsoli sifatida qabul qilinadi. Haqiqatan ham, 2020-yilda Qobus vafotidan keyin hokimiyatning bemalol topshirilgani va hech qanday ixtilof yuz bermagani ko'pchilik o'monliklarda "bizning tizim to'g'ri ekan", degan ishonchni mustahkamladi. Buni Washington Monthly nashrining quyidagi xulosasi¹ ham tasdiqlaydi: "Haysam Qobuschalik legitimlik nufuziga ega bo'lmasligi mumkin, ammo u xalq tomonidan hurmat qilinadi va, nazarda tutish mumkinki, umrining oxirigacha hukmronlik qilishi uchun yo'l ochiq". Demak, Qobusdan keyin ham sultonlik instituti jamoatchilik nazarida haligacha asosli qo'llab-quvvatlovga ega. Umuman olganda, Sulton Qobus va Sulton Haysam misollari lider shaxsiyatining siyosiy legitimlikka bevosita ta'sirini yaqqol namoyish etadi. Qobus o'zining favqulodda karizmasi, tarixiy bunyodkorligi va paternalistik boshqaruvi bilan O'mon jamiyatida o'ziga xos ixtiyoriy rozilik va ehtirom muhitini yaratgan edi. Haysam esa ushbu merosni devor sifatida olib, yangi sharoitlarda legitimlikni ta'minlashga intilmoqda, bunda u avvalgisidan ko'ra ko'proq institutsional islohotlar va natijador boshqaruv ko'rsatkichlariga tayanishga majbur.

O'mon Sultonligining avtoritar boshqaruv modeli yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos jihatlarga ega. Birinchi navbatda, O'monni boshqa arab monarxiyalari bilan solishtirganda, quyidagi manzara yuzaga chiqadi: ko'pgina monarxiyalar hokimiyat legitimligini asosan din va an'anaga yoki

¹ Dunst C. *Where People Want a Dictator* // *Washington Monthly*. – 2023. – 23 March.

boylik taqsimotiga tayantiradi. Masalan, Iordaniya kabi an'anaviy qirolliklar qabila sadoqati va patriarxal tuzilma orqali legitim deb qabul qilinsa, Marokash kabi qirolliklar o'z hukmdorining diniy nasabi va tarixiy haqqoniyligini urg'ulaydi. Ko'rfazdagi Saudiya Arabistoni, Qatar, BAA kabi qirolliklar esa asosan ulkan neft va gaz boyliklarini aholiga taqsimlash orqali ijtimoiy rozilikka erishgan, ya'ni u yerda legitimlikning rentier modeli ustun. O'mon bu ikki modelning o'ziga xos kombinatsiyasiga ega: bir tomondan, Al-Said sulolasining 250 yillik hukmronlik tarixi va Ibodiy islom an'analari unga an'anaviy-diniy legitimlik beradi; ikkinchi tomondan, neft boyliklarining adolatli taqsimoti va davlat homiychiligi Qobus davrida xalq roziligini ta'minlagan. Muhimi shundaki, O'mon Saudiya yoki Qatardek ulkan neft zahiralariga ega bo'lmasa-da, mavjud resurslardan maksimal samarali foydalanib, "yaxshi diktatorlik" modelini namoyish etdi: fuqarolar davlatni boy emas, lekin odil va g'amxo'r deb bilishdi. Bu bilan O'mon ko'rsatdiki, avtoritar boshqaruv ham aholi ehtiyojlarini qondira olsa, katta boyliklarsiz ham legitim bo'lishi mumkin.

Ikkinchi farqli jihat – O'monning siyosiy madaniyati va repressiya darajasi. Ayrim avtoritar tizimlar (masalan, Suriya, Iroq (Saddam davridagi) yoki Liviya (Qaddafi davridagi)) hokimiyatni ushlab qolish uchun haddan tashqari qo'rqitish, zo'ravonlik va shaxsiyatga sig'inishning ekstremal shakllariga tayanishgan. Bu davlatlarda legitimlik asosan qo'rquv va majburlash bilan ta'minlangan bo'lib, xalq rahbari haqiqatan qo'llab-quvvatlashidan ko'ra, rejimning zo'ravon aparati tufayli itoat etgan. O'mon rejimi ham avtoritar bo'lsa-da, uning tabiatini aksar tahlilchilar "yumshoq avtoritarizm" deya tarflashadi.¹ Chunki O'mon davlatida senzura va siyosiy oppozitsiyaga to'siqlar mavjud bo'lsa-da, keng ko'lamli qatag'onlar yoki qirg'inlar qayd etilmagan. Fuqarolar nisbatan osoyishta hayot kechirishgan, oddiy hayotda davlatning kuzatuvi kuchli bo'lsa-da, jamiyatda qo'rquv muhiti kuchaytirilmagan.

Uchinchidan, liderlikning vorisiylik masalasida ham O'mon alohida ajralib turadi. Ko'plab avtoritar rejimlarda hokimiyat almashinuvi inqiroz va beqarorlik bilan kechadi – masalan, Iroqda Saddamni ag'darish urush orqali bo'ldi, Liviya Qaddafi o'limi mamlakatni bo'linishga olib keldi, hatto ayrim monarxiyalarda ham to'satdan qirol vafoti muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O'mon esa buni iloji boricha silliq hal qildi: Sulton Qobus hayotligida vorislik masalasini aniq belgilab, siyosiy elita va xavfsizlik tuzilmalari orasida bunga tayyorgarlik ko'rilgan edi. Natijada, Qobus vafoti ketidan sulola kengashi o'z vaqtida qaror qabul qildi va Haysamni sulton deb tan oldi. Shu tariqa, vorislik inqirozi sodir bo'lmadi – bu esa O'mon legitimlik tizimining yana bir muhim kuchli jihati: hokimiyat almashinuvi jarayoni institutsional moslashuvchanlikka ega ekanligi isbotlandi. Ta'kidlash joizki, Qobusdan keyingi davrda yangi sulton hokimiyatini mustahkamlash uchun siyosiy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Bu ham O'mon rejimini boshqa konservativ monarxiyalarga nisbatan zamon talablarga tezroq moslashish qobiliyatiga egaligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, xalqchil siyosiy madaniyat darajasida farqlar kuzatiladi. O'mon jamiyati asosan bir millat, bir din jihatdan nisbatan yakdil va ixcham bo'lib, ijtimoiy parokandalik kam edi. Bu hol siyosiy legitimlikni mustahkamlovchi omil sifatida xizmat qilgan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, siyosiy legitimlik va lider shaxsiyati o'rtasidagi bog'liqlik avtoritar rejimlar barqarorligini tushuntirishda muhim o'rin tutadi. Sulton Qobus ibn Said mamlakatni modernizatsiya qilib, xalq farovonligini oshirish orqali o'z hokimiyatining legitimligini ta'minladi, bu legitimlik an'anaviy, karizmatik va ijro etuvchi omillarning uyg'unlashuvi natijasida shakllandi. Qobus o'z shaxsini milliy ideologiya markaziga qo'yib, jamiyatda chuqur hurmat-e'tibor qozonganligi bois, O'mon fuqarolari uni haqiqiy rahbar sifatida qabul qildi va hatto og'ir damlarda

¹ Heavy lies the crown: The survival of Arab monarchies, 10 years after the Arab Spring // *Brookings Institution*. – 27 May 2014. Arab monarchies and the illusion of stability // *Middle East Eye*. – 2016



ham undan yuz o'girmadilar. Sulton Haysam davrida legitimlikning ushbu poydevorini saqlab qolish uchun sulola vorisligi institutsional tarzda mustahkamlandi va davomiylik ta'minlandi bu esa, o'z navbatida, avtoritar tizim evolyutsiyasining yangi bosqichiga o'tganini anglatadi.

O'mon tajribasi qator ilmiy umumlashmalar uchun asos bo'ladi. Birinchidan, legitimlik konsepsiyasi g'arb demokratiyalariga xos sayloviiy qonuniylik bilangina cheklanmasligi, avtoritar rejimlarda ham turli manbalardan oziqlanishi mumkinligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, lider shaxsiyati omili, ayniqsa, karizmatik legitimlik – avtoritar tizim “iqtidor sandig'i”ning muhim tarkibiy qismi ekani tasdiqlandi; xususan, shaxsga doir narrativlar va siyosiy imij jamoatchilik ongini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.¹

Shu bilan birga, O'mon tajribasi avtoritar legitimlikning zaif tomonlarini ham ko'rsatadi. Ya'ni legitimlik haddan ziyod bir shaxsga bog'lanib qolsa, u shaxs maydondan ketgach, tizim turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Qobusdan keyingi davrda O'mon buni boshdan kechirmoqda: yangi sulton xalq ishonchini qozonish uchun endilikda yangi islohotlar va natijalar ko'rsatishga majbur. Yosh avlodning intilish va talablarining ortib borishi esa vaqt o'tishi bilan avtoritar ijtimoiy shartnomani qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi, ayniqsa, neft erasi tugab borar ekan, legitimlikni faqat iqtisodiy populizm bilan ta'minlash qiyinlashadi.

Har qanday siyosiy tuzum barqarorligi masalasida jamiyatning hokimiyatni qanchalik qabul qilishi va to'g'ri deb bilishi hal qiluvchi omildir. Avtoritar tizimlarda bu qabul qilinish ko'pincha demokratik mexanizmlar emas, balki tarix, din, iqtisodiyot va eng muhimi, rahbarning shaxsiy fazilatlarini orqali ta'minlanadi. O'mon Sultonligi bunga yorqin misoldir – bu davlat o'z liderining karizmasi va odil siyosati evaziga yarim asr davomida mintaqaviy notinchliklar ichida tinch va barqaror hayot kechirdi. Shu sabab, avtoritarizm fenomenini o'rganishda legitimlik konsepsiyasini albatta liderlik prizmasi orqali tahlil qilish zarur. Zero, “yaxshi podshoh” obrazi fuqarolarni nafaqat itoatda ushlab turadi, balki ularda bunday podshoh boshqarayotgan tuzum eng maqul tuzum, degan ishonchni ham qaror toptiradi.



¹ Castelier S. Power and political imagery: Will Oman preserve Sultan Qaboos' portraits? // *The New Arab*. – 01.05.2020

ИЗ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ АРАБИСТИКИ В ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

ШУХРАТ ЁВКОЧЕВ

Профессор, доктор политических наук, ТГУВ

Начало и развитие академической арабистики в Узбекистане упирается в начало 20 века. Я имею ввиду научно-обоснованного академического направления арабского языка. В октябре 1918 года, в Ташкенте был образован Туркестанский восточный институт. В нем на первом этапе преподавались в основном языки: арабский, персидский, китайский, пушту, урду, турецкий, из местных – узбекский, таджикский, киргизский, туркменский, татарский, из европейских – английский, немецкий и французский. Но уже тогда функция института рассматривалась много шире, чем языковые курсы для неместных специалистов. Наряду с языками изучались география Афганистана, Индии, Ирана, Восточного и Западного Туркестана, Бухары; этнография узбекского, киргизского, персидского, таджикского, казахского, афганского, каракалпакского народов; история Средней Азии, Ирана, Афганистана, Индии и древнего мира, история ислама, законы шариата.

Путь, который прошла академическая арабистика в Ташкентском государственном университете востоковедения был относительно долгий и тернистый. Только путем детального анализа этапов развития данной филологической науки можно делать какие бы выводы о его развитии в Узбекистане. Однако следует отметить, что арабистика в стране была тесно связана с развитием академического исламоведения, который был имплементирован в нашей стране с приходом сюда российских арабистов и исламоведов.

Действительно арабистика, в недавнем историческом прошлом традиционно ассоциировалась с российским самодержавием, а затем советским тоталитарным ориентализмом, который, в свою очередь, был связан с европейским ориентализмом, находившимся под сильным влиянием голландской и немецкой школ.

В Узбекистане изучение арабского языка и исламоведения шло совместно но как два самостоятельных направления востоковедения. Изучали арабский язык как подспорье для изучения истории края и ислама, их истоков, влияния на общественно-политическую жизнь мусульманского мира, ее историческое развитие и современное состояние. Вместе с тем не стоит забывать о серьезном многолетнем влиянии атеизма и идеологических систем прошлого в советский период развития.

Создание научной методологии арабистики напрямую связано с разработкой общих принципов и методов исторического исследования и применением этих методов, в частности, к изучению арабо-персидского рукописного материала. Первоначально она развивалась как дисциплина, сосредоточенная на историческом и филологическом изучении письменных исламских памятников. С этим было тесно связано и теоретическое изучение основных восточных языков как персидского так и особенно арабского.

В Европе арабистика возникла в конце XVI в. и начала развиваться в XVII–XVIII вв., в таких основных центрах как Рим, Париж и Лейден. В Оксфорде, Кембридже и некоторых

немецких университетах арабский язык также изучался в связи с исламом. Необходимо сказать, что изучение арабского языка и естественно исламской истории европейскими востоковедами, такими как Сильвестр де Саси, Густав Вайль, Алонсо Шпренгер, Рейнхарт Доси, Альфред Вильям и Альфред Кремер на протяжении более ста лет привело к формированию отдельной академической дисциплины исламоведения. Между тем в России: Москве и Санкт-Петербурге во второй половине XIX – начале XX века сформировалась своя своеобразная школа арабистики в увязке со школой исламоведения. Большой вклад в развитие трудов 1910-х годов внесли русские ученые Гиргас Владимир (1835-1887), Виктор Розен (1849-1908), Агафангел Крымский (1871-1942), Владимир Гордлевский (1876-1956), Александр Семенов (1873-1958) и Александр Шмидт. В дальнейшем некоторые ее представители оказали большое влияние на формирование арабистики и исламской науки в Центральной Азии. Наиболее значимой фигурой в этом отношении стали труды академиков Юлиана Крачковского и Василия Бартольда, создавших методологические основы российского, а затем и советской арабистики и общего языкознания. Все эти имена я привожу для того, чтобы показать, что арабистика в Узбекистане имеет далеко не короткие, а фундаментальные академические корни хотя и начала формироваться здесь лишь в начале прошлого столетия

Когда 1918 году в Ташкенте был создан Туркестанский Восточный институт, то первым его ректором стал известный российский этнограф Михаил Андреев (1873-1948). Затем в 1924 году институт был преобразован в факультет востоковедения Среднеазиатского государственного университета (САГУ). И первым деканом факультета востоковедения в 1924 стал Александр Эдуардович Шмидт – российский исследователь, ученик Виктора Розена, прекрасно владевший арабским языком, исламовед, наизусть знавший большую часть Корана и заложивший основы академического исламоведения в Узбекистане.

Теоретические подходы в изучении арабистики были разработаны российскими классическими исследованиями и сохранились до 1930-х годов. Затем по идеологическим причинам на первый план вышел «вульгарный социологический подход», тесно связанный с воинствующим атеизмом. После 1928 года факультет востоковедения, существовавший в составе САГУ, был преобразован в отделение при педагогическом факультете, а в 1930 году был и вовсе закрыт. Несмотря на то, что деятельность факультета была недолгой, за короткое время здесь были подготовлены прекрасные высококвалифицированные кадры, в числе которых такие известные учёные-языковеды, как А.К.Боровков, В.В.Решетов, К.Юдахин, И.А.Киссен, Р.Л.Неменова, знаменитые историки и этнографы П.П.Иванов, М.Р.Иванова, М.Массон, В.А.Шиглкин, О.А. Сухарева, писатели Мухтар Авезов, Сотим Улутзода, востоковед Д.Г.Вронский.

Вплоть до 1943 года подход властей, которые считали, что изучение арабского языка ведет к реакционному мятежу и радикализации сознания, не менялся. Лишь в 1943 году было принято постановление об организации Института рукописей при академии наук Узбекской ССР и параллельно намечалась подготовка специалистов в специально организуемом Восточном факультете при СаГУ. Быстрой организации и качественному первому набору студентов способствовало наличие высококвалифицированных специалистов арабистов и исламоведов тогдашнего Ленинграда и Москвы, эвакуированных и проживавших тогда в Ташкенте и Душанбе. Первый набор на восточный факультет был осуществлен в 1944 году.

В 1950-70 гг. в Узбекистане появилось целый ряд талантливых арабистов, которые продолжили традицию академических арабистов и продолжили повышать уровень подготавливаемых кадров. К ним можно отнести Баки Халидовича Халидова, Ингу Григорьевну



Фатееву, Нину Ашихмину, Абдухафиза Абдужаббарова, Бахтиера Ибрагимова, Уткира Зиятовича Кариева, Нематуллу Ибрагимовича Ибрагимова, Акбара Каримова, Махстали Хахимджанова, Убайдуллы Уватова, Ахаджона Хасанова и др.

Работавшие в Институте восточных рукописей арабисты занимались в основном изучением и публикацией текстов и исторических сочинений. К ним можно отнести Ольгу Дмитриевну Чехович, Анаса Бакиевича Халидова, Рашида Набиевича Набиева, А.Б. Вильданову и других.

Новый этап развития арабистики в жизни нашего университета начался 15 июня 1991 года восточный факультет был преобразован в Институт востоковедения и отделился от Ташкентского государственного университета. Большое внимание в последующий период было уделено подготовке специалистов со знанием трех и более восточных языков, среди которых арабский язык занимал особое место. Вместе с тем в силу объективных причин контакты института с арабскими странами несколько снизился, и арабистика стала развиваться в несколько изолированном виде. В этот период на передовые позиции среди арабистов преподавателей вышла новая плеяда арабистов востоковедов как Абдужаббор Каххоров, Абдулхай Абдуллаев, Бахтиер Ирисов, Рано Ходжаева, Омон Мусаев, Шорустам Шомусаров и другие.

В 2010-е годы появилась новая когорта молодых арабистов, которые продолжили традиции своих учителей и с терпением обучать языку молодых студентов. Среди них можно отметить Гульнару Муталову, Зумрад Алимджанову, Юлдуз Исмаилову и других.

В 2020 году, институт получил статус Университета и его зарубежные связи с университетами арабского миракратно увеличились, увеличилось число обмена студентами и преподавателями. Стали проводиться мастер классы по арабскому языку с носителями языка.

Таким образом, можно подытожить что арабистика в Ташкентском государственном университете востоковедения прошла сложный путь развития. Спустя 33 лет после обретения Узбекистаном независимости, арабистика университета стремится от количества к качественному показателю. Ярким доказательством этому служит большое количество защищенных научных диссертаций на кафедре арабской филологии. Так с 2000 на кафедре защитилось 12 докторов философии (Phd) и 3 доктора наук (DcS), кроме это одновременно ведется подготовка еще 7 докторантов.





**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy
jurnallari tomonidan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan talablar**

Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal mavzusiga mos keladigan materiallar qabul qilinadi. Maqolada sharqshunoslik bilan bog'liq adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, iqtisodiyot kabi fan sohalarining dolzarb masalalari va ilmiy yangiliklari yoritilishi lozim. Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so'z va so'z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bundan mustasno) 1 interval oraliqda 10–12 bet, matni Microsoft Word, A4 formatida, Times New Roman shriftining 14 kattaligida, qog'ozga chiqarilgan va elektron variantlarda kamida 2 ta taqriz (ichki va tashqi) bilan nashriyotga topshiriladi. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o'lcham – 2 sm, xat boshi (abzas) – 1,25 sm.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsia etiladi:

Maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, mazmunga muvofiq va 12 so'zdan oshmasligi kerak.

Muallifning to'liq ismi quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: ismi, otasining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo'lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: bo'lim (kafedra), muassasa (institut), shahar va mamlakat.

Ketidan muallifning telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili keltirilgan bo'lishi kerak.

Maqolaning sarlavhasi, muallif(lar) haqidagi ma'lumotlar lotin alifbosi (transliteratsiya)da beriladi.

Annotatsiya va kalit so'zlar:

Annotatsiya – ilmiy xarakterdagi maqola hajmidan tashqari berilgan ingliz, rus va o'zbek tillaridagi qisqacha bayon.

Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlarini bayon etishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

– tadqiqotning asosiy ma'lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo'lmagan faktlar bo'lmashligi lozim;

– maqolaning tuzilishi Annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va vazifa, usullar, natija/muhokama, xulosa/mulohaza;

– natijalar aniq va lo'nda bo'lib, uzviylikda beriladi;

– Annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, “kirish jumalari” (muallif maqolada shuni nazarda tutadiki...) bo'lmashligi lozim;

– Annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;

– Annotatsiya matnining hajmi 250–300 so'zdan iborat bo'lishi lozim.

Annotatsiya ostida “Kalit so'z va so'z birikmalari” (8–10 ta) yozuvi joylashtiriladi. **Kalit so'zlar** maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo'lishi lozim.

Kirish: Maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilish vaqtida ilmiy muammoning holati aks etishi kerak.

Maqsad va vazifa:

Maqolaning mazmun-mohiyati maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda ochib beriladi.

Usullar: Tadqiqot usullari batafsil tavsiflangan bo'lishi lozim.

Natijalar va mulohaza:

Natijalar va mulohazalar kengaytirilgan shaklda taqdim etilishi kerak (jadvallar va tasvirlar yordamida), shuningdek, ilgari nashr etilgan natijalarning qiyosiy tahlili va talqini beriladi.

Xulosa: Kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar, xulosalar aniq ko'rsatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Adabiyotlar ro'yxati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi. Ro'yxatga kiritilgan adabiyotlar so'nggi 25 yil ichida nashr qilingan bo'lib, ularning soni 30 tadan oshmasligi kerak.

Sahifa tagida beriladigan snoskalarda jurnal maqolalarining berilishi:



Zagurenko A.G., Korotovskikh V.A., Kolesnikov A.A., Timonov A.V., Kardymon D.V. Tekhniko-ekonomicheskaya optimizatsiya dizaina gidrorazryva plasta [Techno-economic optimization of the design of hydraulic fracturing]. Neftyanoe khozyaistvo – Oil Industry, 2008, no.11, pp. 54-57.

Elektron jurnalda maqolalarning berilishi:

Kontorovich A.E., Korzhubaev A.G., Eder L.V. [Forecast of global energy supply: Techniques, quantitative assessments, and practical conclusions]. Mineral'nye resursy Rossii. Ekonomika i upravlenie, 2006, no. 5. (In Russ.) Available at: <http://www.vipstd.ru/gim/content/view/90/278/>. (accessed 22.05.2012)

Digital Identifier of an Object (DOI) tizimida jurnallardagi maqolalarning berilishi:

Zhang Z., Zhu D. Experimental research on the localized electrochemical micro-machining. Russian Journal of Electrochemistry, 2008, vol. 44, no. 8, pp. 926-930. doi: 10.1134/S1023193508080077

Davriy ilmiy to'plamlarning berilishi:

Astakhov M.V., Tagantsev T.V. [Experimental study of the strength of joints "steelcomposite"]. Trudy MGTU «Matematicheskoe modelirovanie slozhnykh tekhnicheskikh sistem» [Proc. of the Bauman MSTU "Mathematical Modeling of Complex Technical Systems"], 2006, no. 593, pp. 125-130. (In Russian)

Konferensiya materiallarining berilishi:

Usmanov T.S., Gusmanov A.A., Mullagalin I.Z., Muhametshina R.Ju., Chervyakova A.N., Sveshnikov A.V. [Features of the design of field development with the use of hydraulic fracturing]. Tru158 dy 6 Mezhdunarodnogo Simpoziuma "Novye resursosberegayushchie tekhnologii nedropol'zovaniya i povysheniya neftegazootdachi" [Proc. 6th Int. Symp. "New energy saving subsoil technologies and the increasing of the oil and gas impact"]. Moscow, 2007, pp. 267-272. (In Russian).

Kitoblar (monografiya, to'plam)larning berilishi:

Kashnikov Y.A., Ashikhmin S.G. Mekhanika Gornyx Porod Pri Razrabotke Mestorozhdeniy Uglevodorodnogo Syr'ya (Rock Mechanics In The Development Of Hydrocarbon Deposits) Moscow, OOO "Nedra-Biznestsentr" Publ., 2007. 486 p.

Tarjima kitoblarning berilishi:

Timoshenko S.P., Young D.H., Weaver W. Vibration problems in engineering. 4th ed. New York, Wiley, 1974. 521 p. (Russ. ed.: Timoshenko S.P., Iang D.Kh., Uiver U. Kolebaniya v inzhenernom dele. Moscow, Mashinostroenie Publ., 1985. 472 p.).

Internet-resurslarning berilishi:

Kondrat'ev V.B. Global'naya farmatsevticheskaya promyshlennost' [The global pharmaceutical industry]. Available at: http://perspektivy.info/rus/ekob/globalnaja_farmatsevticheskaja_promyshlennost_2011-07-18.html. (accessed 23.06.2013)

Dissertatsiya va avtoreferatning berilishi:

Semenov V.I. Matematicheskoe modelirovanie plazmy v sisteme kompaktnyi tor. Diss. dokt. fiz.-mat. Nauk [Mathematical modeling of the plasma in the compact torus. Dr. phys. and math. sci. diss.]. Moscow, 2003. 272 p.

Patentning berilishi:

Palkin M.V. e.a. Sposob orientirovaniya po krenu letatel'nogo apparata opticheskoi golovkoi samonavedeniya [The way to orient on the role of aircraft with optical homing head]. PatentRF, no. 2280590, 2006.

Jadvallar

Har bir jadval 2 intervalda alohida sahifaga joylashtiriladi. Jadvallar fotosurat sifatida topshirilmaydi. Jadvallar raqamlanadi va maxsus nomlanadi. Jadvaldagi har bir ustun qisqa nomga ega bo'lishi kerak (qisqartmalardan foydalanish mumkin). Har bir jadval matnda izohlanadi.

Qisqartmalar va belgilar

Maqola matnida faqat standart qisqartmalardan foydalaniladi. Maqolaning sarlavhasida qisqartma berilmaydi. Annotatsiyada umumiste'molda bo'lmagan qisqartma va shartli belgilar kamdan-kam hollarda keltiriladi, ularning izohi annotatsiyaning dastlabki qo'llanilgan o'rnida, albatta, berilishi joiz.



Jurnal original-maket asosida bosildi.

Sharq mash'ali, 2025 yil 2-son.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz

Bosishga ruxsat etildi 30.06.2025.

Bichimi 84x108 ¹/₁₆ Shartli b.t. 10

50 nusxada bosildi. Buyurtma №

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20.

© **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025-yil**
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.